O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I YA

FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

Ma’ruzalar kursi
(Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri)

Toshkent – 2013

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlik kengashida ma’qullangan

Mualliflar jamoasi:

O. A. Kamalov – fuqarolik huquqi fanlari kafedrasi boshlig‘i,
y.f.n., dots. – kirish va 15-mavzu;
O. A. Niyatov – kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari – 9-13-mavzular;
N. A. Qo‘ldashev – kafedra o‘qituvchisi, y.f.n. **–** 4-8 va 16-mavzular;
X.M.Qilichev – kafedra o‘qituvchisi – 17-mavzu;
Sh. M. Qo‘ychiyev – 14 va 18-20-mavzular;
D. I. Samandarov – kafedra o‘qituvchisi – 1-3-mavzular.

Mas’ul muharrir:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi,
yuridik fanlar doktori, professor **H. Rahmonqulov**

Taqrizchilar:

Toshkent Davlat yuridik instituti fuqarolik huquqi kafedrasi professori
v.b., yuridik fanlar doktori **M.B.Borotov;**
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi davlat va huquq nazariyasi
va tarixi kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari,
dotsent, yuridik fanlar nomzodi **N.P. Azizov.**

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar milliy huquq fani oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan qator dolzarb muammolarni qo‘ymoqda. Zero, «… isloh qilish jarayonlari mustahkam huquqiy negizga asoslangandagina, ular barqaror va sobitqadam bo‘ladi... Basharti islohotlar yo‘liga tuzatishlar kiritish, nimanidir to‘g‘rilash, o‘zlashtirish zarurati tug‘ilsa, birinchi navbatda normativ hujjatlarni o‘zgartirish, qonun hujjatlariga zarur tuzatishlar kiritish lozim bo‘ladi»[1].

Bu o‘rinda esa, tom ma’noda «bozor kodeksi» yoki «bozor konstitutsiyasi» deb atalgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining normalari asosini tashkil etuvchi fuqarolik huquqi fanini, shuningdek, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi oila qonunchiligi normalarini o‘rganish jamiyat har bir a’zosi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zero, hozirgi kunda respublikamizda fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar (mulkchilik, korxonalar, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari, soliq, oila, lizing, ijara, sug‘urta faoliyati, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasini tartibga soluvchi qonunlar) mazkur munosabatlarning mazmunini ham, namoyon bo‘lish shakllarini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Boshqacha aytganda, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining tengligi, mustaqilligi, tashabbuskorligiga keng yo‘l ochilib, fuqaroviy-huquqiy qonunlar bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini g‘oyat kengaytirdi. Mulkiy munosabatlarda xususiy mulk, tadbirkorlik bilan bog‘liq va ularni mustahkamlovchi qator yangi huquq institutlari joriy etildi. Shaxsiy munosabatlarda ishbilarmonlik obro‘si, ma’naviy zararni moddiy qoplash kabi katta ahamiyatga ega me’yorlar ilk bor fuqarolik muomalasiga kiritildi. Bozor munosabatlarining butun tizimini birlashtirish va ichki uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladigan mazkur fuqarolik qonun hujjatlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 171.

Demak, fuqarolik, shuningdek oila huquqi me’yorlarini bilish hamda amalda to‘g‘ri qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ma’ruzalar kursi yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va Oliy Majlisning 1997-yil 29- avgustdagi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asosan yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari, ijara, mulkchilik, garov, lizing, sug‘urta faoliyati, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi, xo‘jalik shirkatlari, kredit uyushmalari, xususiy korxona, tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunlar hamda Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Oila kodekslari va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlardan keng foydalanilgan. Ular fuqarolik va oila huquqi fanining tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilishida yaqindan yordam beradi.

Ushbu ma’ruzalar kursi O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida tasdiqlangan yangi dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda fuqarolik va oila huquqi sohalarining predmeti, tizimi, manba va prinsiplari, fuqaroviy-huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari, *fuqarolik huquqining* obyektlari, bitimlar, vakillik, ishonchnoma, da’vo muddati, mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish usullari, majburiyatlar va ularning bajarilishini ta’minlash usullari, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik, majburiyatlarning alohida turlari, mualliflik huquqi, vorislik huquqi kabi fuqarolik huquqining bugun katta ahamiyat kasb etuvchi qator huquqiy institutlariga alohida e’tibor berilgan.

Shuningdek, kitobda nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikoh tuzishga to‘sqinlik qiladigan holatlar, nikoh shartnomasi va uni tuzish qoidalari, oila a’zolarining huquq va majburiyatlari, farzandlikka olish tartibi va shartlari, vasiylik va homiylik kabi *oila huquqiga oid* qator masalalar atroflicha yoritilgan.

Ma’ruzalar kursi ushbu sohada amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlarimiz natijasi bo‘lganligi bois unda yutuqlar bilan birga ayrim juz’iy kamchiliklar, takomiliga yetmagan o‘rinlar ham bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Shu bois kitobxonlarning ushbu kursga oid bildiradigan fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz.

1-MAVZU.
«FUQAROLIK HUQUQI» TUSHUNCHASI, PRINSIPLARI, TIZIMI VA MANBALARI

1. «Fuqarolik huquqi» tushunchasi, predmeti, tamoyillari va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi munosabatlar.
2. Fuqarolik huquqining tizimi va manbalari.
3. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amal qilishi.

1. «Fuqarolik huquqi» tushunchasi, predmeti, tamoyillari va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bu fuqarolik huquqidir. Fuqarolik huquqi alohida huquq tarmog‘i bo‘lib, u boshqa huquq sohalaridan predmeti va huquqiy tartibga solish metodlari bilan farq qiladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolik huquqining o‘rni va roli tobora ortib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, fuqarolik huquqi huquq sohasining asosiy, muhim va ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, huquq tizimi sohalari ichida ham eng qadimgisi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi fani elementlari insoniyat paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, «fuqarolik huquqi» atamasining paydo bo‘lishi qadimgi Rim davriga borib taqaladi. «Fuqarolik huquqi» atamasi qadimgi rim huquq tizimidagi lotincha jus civile (sivil huquqi) – «grajdanlik huquqi» atamasidan olingan bo‘lib, u rim fuqarolari – kviritlarning huquqi (cives) va davlat (shahar)ning (civitas) huquqi ma’nolarini anglatgan[1].

Bugungi kunga kelib, fuqarolik huquqi sohasi vakillarini «sivilistlar» deb nomlash an’anaviy tus olgan.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, aniqrog‘i yangi Kodeks loyihasini tayyorlash jarayonida unga yangi nom berish va sobiq «Grajdanlik kodeksi» nomidan voz kechish masalasi sivilistlar o‘rtasida biroz tortishuvli bo‘lganligini ham ta’kidlash kerak. Xususan, yangi qabul qilinajak Kodeksga «Bozor kodeksi», «Muomala kodeksi», «Ma’naviy kodeks», «Fuqarolik kodeksi» kabi yangi nomlar taklif qilinishi barobarida sobiq «Grajdanlik kodeksi» nomini saqlab qolish

[1] *Зокиров И.Б.* Фуқаролик ҳуқуқи. I қисм. – Т., 2009. – Б. 6.

tarafdorlari ham bo‘lgan edi. Uzoq tortishuvli jarayonlardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martidan amalga kiritilgan ushbu qonuniga «Fuqarolik kodeksi» deb nom berildi. Mazkur fan tarmog‘i ham Kodeks nomidan kelib chiqib, fuqarolik huquqi deb yuritilmoqda. Ammo, I.Zokirov «ayni vaqtda mazkur huquq sohasining nomlanishi va uning mohiyati bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Bu nom yuridik bilimga ega bo‘lmaganlarda, ushbu huquq sohasi fuqarolarning huquqlari bilan bog‘liq ekanligi haqidagi tasavvurni uyg‘otishi mumkin. Lekin mazkur huquq sohasining nafaqat fuqarolar, yuridik jihatdan teng huquq asosida munosabatga kirishuvchi yuridik shaxslar va davlatning ham mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga solishi bilan ifodalanadi» – deya ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, «fuqarolik huquqi» iborasini fuqaroviylik bilan chal-kashtirmaslik kerak. Chunki shaxsning fuqaroligi – bu uning jismoniy shaxs sifatida ma’lum bir davlatga mansubligini, davlat va shaxs o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlikni anglatadi. Fuqarolik huquqi esa mutlaqo boshqa va keng ma’nodagi tushunchadir.

Fuqarolik huquqi O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy, ma’naviy ehtiyojlarini tobora to‘laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlar hamda mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquq normalari yig‘indisidan iboratdir. Boshqacha aytganda, *fuqarolik huquqi – yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar (jismoniy shaxs, yuridik shaxs va davlat) o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisi.*

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi juda keng. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan o‘zaro ijtimoiy munosabatlar asosida ish olib boradilar. Fuqarolar ham kundalik hayotda turli tashkilotlarning xizmatlaridan foydalanish jarayonida ana shunday munosabatlarga kirishadilar. Jumladan, fuqaro jamoat transportida ishga otlanar ekan, mazkur jamoat transporti tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishadi. Yoki iste’molchi o‘z ehtiyojini qondirish maqsadida do‘kondan turli oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish vaqtida fuqarolik-huquqiy munosabat yuzaga keladi. Shuning uchun fuqarolik huquqiy munosabatlarga odatdagi yoki kundalik munosabatlar

deyish mumkin. Lekin fuqarolar ishtirok etadigan barcha munosabatlar ham fuqarolik huquqi bilan tartibga solinavermaydi. Chunonchi, fuqarolar tegishli vakillik organlariga deputatlarni saylar ekanlar, mazkur munosabatlar fuqarolik huquqi bilan emas, balki davlat huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Umuman, fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi keng va xilma-xil bo‘lib, bu esa uning aniq ro‘yxatini tuzish mumkin emasligidan darak beradi. Ammo, fuqarolik huquqi fanining vazifalardan biri ijtimoiy munosabatlarni muayyan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga turkumlash hisoblanadi.

Ma’lumki, fuqarolik huquqi *mulkiy munosabatlar* bilan bog‘liq bo‘lib, ular zamirida moddiy boyliklarning xilma-xil turlari, xususan ashyolar, xizmat va mol-mulklar bilan bog‘liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar yotadi.

Fuqarolik huquqi nafaqat mulkiy munosabatlarni, balki mulkiy qiymatga ega muayyan munosabatlarni ham tartibga soladi.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, o‘z navbatida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish doirasining kengayishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, moddiy-texnik resurslarni ma’muriy-huquqiy tartibda markazlashtirilgan holda taqsimlash tizimi o‘rniga savdo-sotiqning fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan birja, ulgurji va boshqa shakllari vujudga keldi. Jamiyat ehtiyoji uchun ishlab chiqarilayotgan tovar va mahsulotlarga nisbatan ma’muriy tartibda belgilangan baholar fuqarolik-huquqiy shakllarda amalga oshiriladigan muayyan shartnomaviy baholar bilan almashtirildi. Ilgari ma’muriy tartibda taqsimlanadigan turar joy binolari fuqarolarning xususiy mulkiga aylantirildi. Fuqarolarning ushbu binolarga bo‘lgan huquqlari endilikda fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshirilishi belgilandi. Yer resurslari va boshqa tabiiy obyektlar fuqaroviy-huquqiy bitimlar obyektiga aylanmoqda. Shu bois fuqarolik huquqini tom ma’noda «bozor» deb ataluvchi o‘zini o‘zi boshqaradigan iqtisodiy mexanizmning zaruriy elementi desa bo‘ladi. Binobarin, respublikamizda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bir paytda, fuqarolik huquqining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati o‘sib boradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi juda keng va xilma-xildir. Biz ularni fuqarolik huquqining predmeti sifatida shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin:

– mulkiy munosabatlar;
– shaxsiy-nomulkiy munosabatlar;
– tashkiliy-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolik huquqining predmeti hisoblangan «mulkiy munosabatlar» haqidagi masala munozaralidir. Ayrim sivilist olimlar mulkiy munosabatlarni moddiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlardan ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar[1]. Ularning fikricha, mazkur ajratishning zarurligi quyidagicha izohlanadi: moddiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar obyektiv xususiyatga ega va shunga ko‘ra, huquq normalari bilan tartibga solinishi mumkin emas. Shu bilan birga, inson o‘zi ishtirokida rivojlanadigan moddiy, ishlab chiqarishga oid va iqtisodiy qonunlarni o‘zgartira olmaydi. Biroq ushbu qoida ularning taraqqiyotini tezlashtirishi yoki mazkur munosabatlar rivojini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Buni ko‘rib chiqilayotgan munosabatlarga muayyan ta’sir ko‘rsatish, xususan ularni huquqiy tartibga solish vositasi orqali ham amalga oshirsa bo‘ladi.

«Ishlab chiqarish», «moddiy, iqtisodiy va mulkiy munosabatlar» kabi tushunchalar moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarning ifodasi bo‘lib, ayni vaqtda turli xususiyatlarni aks ettiradi. Jumladan, «moddiy» atamasi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan munosabatlar insonlar hayotining moddiy sharoiti bilan bog‘liqligini bildiradi. Bundan tashqari, mazkur ijtimoiy munosabatlar ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi, shu bois ishlab chiqarishga oid munosabatlar deb ataladi. «Iqtisodiy» atamasi «ishlab chiqarish jarayonida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etadi», deb ta’kidlash muhim bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunday munosabatlar, moddiy ne’matlar (mol-mulk) bilan bog’liqligini aks ettirish maqsadida, «mulkiy munosabatlar» deb ataladi. Shuningdek, ayrim huquqshunos olimlar tomonidan fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarni, boshqa sohalarning predmetiga kiruvchi mulkiy munosabatlardan ajratish uchun turli mezonlar taklif etiladi. Masalan, I. B. Zokirovning ta’kidlashicha, fuqarolik huquqi asosan muayyan ekvivalent barobarida belgilanadigan, qiymat va baho bilan ifodalanadigan hamda ishtirokchilari teng bo‘lgan

[1] Qarang: *Зокиров И. Б.* Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. – Т., 1996. – Б. 7.

mulkiy munosabatlarni tartibga soladi[1]. H. Rahmonqulovning fikricha, mulkiy munosabatlarga tovar-pul xususiyatiga egalik xosdir[2].

Mazkur qarashlarning ayrimlari amaldagi qonunchilikda ham o‘z aksini topgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (FK)ning 1 va 2-moddalarida fuqarolik qonun hujjatlari ishtirokchilarning tengligiga asoslangan mulkiy va u bilan bog‘liq shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi, degan qoidalar mustahkamlangan.

Yuqorida bayon qilingan nuqtai nazarlar uchun yagona umumiy belgi, ya’ni fuqarolik huquqi predmetining o‘ziga xos belgisi sifatida ijtimoiy munosabatga doir xususiyatlar emas, balki ularning ishtirokchilari yoki mol-mulki (ularga ko‘ra vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar) bilan bog‘liq xususiyatlardan keng foydalaniladi. Shu bilan birga, mulkiy munosabatlar ishtirokchilarining o‘ziga xos jihati (huquqiy holati) ular ishtirok etayotgan mazkur mulkiy munosabatlarning xususiyatiga bog‘liq.

Bundan tashqari, mol-mulkning iqtisodiy belgilari mazkur mol-mulk bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bois, fuqarolik huquqining predmetli belgisini mulkiy munosabatlar ishtirokchilarining holatidan yoki ushbu munosabat yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan mol-mulkning emas, balki aynan mulkiy munosabatlarning xususiyatlaridan izlash maqsadga muvofiq. Bunda mulkiy munosabatlarning qiymatini belgilash xususiyatidan foydalanish mumkin. Shunday qilib, *mulkiy munosabatlar* deganda, iqtisodiy munosabatlar, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, iste’mol buyumlari, umuman kishi mehnatining har qanday mahsulini vujudga keltirish, egallash, foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Boshqacha aytganda, fuqarolik huquqi iqtisodiy munosabatlarni maxsus yuridik mulkiy-huquqiy munosabatlar shaklida rasmiylashtirib mustahkamlaydi.

Fuqarolik huquqining predmeti nafaqat mulkiy munsabatlar, balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan *shaxsiy-nomulkiy munosabatlar* ham hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni ikki turga:

– *mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy munosabatlar;*

---

[1] O‘sha joyda.

[2] Qarang: *Раҳмонқулов Ҳ.* Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар. – Т., 1997. – Б. 74.

– *mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarga (shaxsiy nomulkiy)* ajratish mumkin.

Mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy munosabatlarga intellektual faoliyat natijalari va mualliflik huquqiga doir munosabatlarni misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Bu munosabatlar faqat mulkiy huquqlarni emas, balki shaxsiy huquqlarni ham, chunonchi, shaxsning asarni o‘z nomi bilan yoki anonim tarzda nashr ettirish, asarning daxlsizligi huquqlari, ixtironing muallifi bo‘lib tanilish huquqi va boshqa huquqlarni ham belgilaydi.

Nomulkiy shaxsiy munosabatlarga sha’n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni misol sifatida keltirsa bo‘ladi (FK 100-m.). Boshqacha aytganda, nomulkiy shaxsiy munosabatlar shaxsning o‘zi bilan bevosita bog‘liq huquqlardir. Ammo har qanday shaxsiy-huquqiy munosabatlar ham fuqarolik huquqi bilan tartibga solinmaydi. Jumladan, fuqarolarning saylash va boshqa siyosiy huquqlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko‘rsatilganidek, fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari davlat tomonidan muhofaza qilinadi (24-31-m.).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-moddasining 4-qismiga asosan, shaxsiy-nomulkiy munosabatlar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki bu munosabatlarning mohiyatidan o‘zgacha hol anglashilmasa, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Hozirgi rivojlangan fuqarolik huquqi nazariyasida predmet doirasining kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bugun sivilistlar tomonidan fuqarolik huquqi predmetiga mulkiy munosabatlar va nomulkiy munosabatlardan tashqari *tashkiliy-huquqiy munosabatlarni* ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda. Professor O.Oqyulov ta’kidlaganidek, ba’zan subyektlar o‘rtasida, shunday munosabatlar ham vujudga keladiki, ular o‘z mohiyatiga ko‘ra, na mulkiy, na shaxsiy-nomulkiy bo‘lib hisoblanmaydi. Bu o‘rinda gap fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarini muayyan tuzilmalar tuzish bo‘yicha tashkiliy munosabatlarga kirishishi (yuridik shaxslar tashkil etish, birgalikda notijorat hamkorlik qilish) haqida bormoqda. Masalan, IIV Akademiyasining «Fuqarolik huquqi fanlari» kafedrasi bilan Toshkent davlat yuridik institutining «Fuqarolik huquqi» kafedrasi o‘rtasida o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik shartnomasini misol keltirish mumkin. Bu shartnoma tashkiliy-huquqiy munosabatni vujudga keltirgan yozma hujjatdir.

Xususiy mulkning iqtisodiyotda o‘z o‘rnini mustahkamlab borishi va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi aynan tashkiliy-huquqiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu munosabatlar garchi FKning 2-moddasida nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Har bir huquq sohasi muayyan tamoyil (prinsip)larga egadir. Huquq tamoyillari degani, huquqning rahbariy qoidalari ma’nosini anglatadi. Adabiyotda prinsip va tamoyil iboralari bir xil sinonim so‘zlar ma’nosida ishlatiladi. Fuqarolik huquqi prinsiplari deganda, ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish qoidalari tushuniladi. Fuqarolik huquqi prinsiplari barcha fuqarolik qonunlarining mazmuniga singdirilgan asosiy, boshlang‘ich qoidalardir. Shu bois, fuqarolik huquqining umumiy prinsiplarini hisobga olgan holda, fuqarolik qonun hujjatlarining normalarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llash mumkin.

Fuqarolik huquqi prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida ko‘rsatilgan bo‘lib, ular fuqarolik huquqining predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, fuqarolik huquqi prinsiplari fuqarolik qonun hujjatlarida bo‘shliqlar bo‘lganida, shuningdek huquq analogiyasini ishlatish zarurati yuzaga kelganida qo‘llaniladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik huquqining aniq normalari bo‘lmasa, fuqarolik qonunchiligidagi rahbariy qoidalar, ya’ni fuqarolik huquqi prinsiplari qo‘llaniladi.

Fuqarolik huquqining asosiy prinsiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi;

– barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilinishi;

– mulkning daxlsizligi;

– shartnoma tuzish erkinligi;

– O‘zbekiston Respublikasining butun hududida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatda bo‘lishi;

– xususiy ishlarga biron kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi va sh.k.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi prinsipi. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi va Fuqarolik kodeksining 1-moddasida o‘z ifodasini topgan. Fuqarolik qonunlarida ushbu konstitutsiyaviy prinsipdan

kelib chiqib, barcha fuqarolar uchun huquq layoqati teng ravishda belgilangan va ularning huquq va muomala layoqatlari cheklanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Boshqacha aytganda, fuqarolik huquqida hech qaysi subyekt boshqa fuqarolik huquqi subyektlaridan ustun emas. Chunonchi, ilgari amalda bo‘lgan fuqarolik qonunchiligida da’vo muddatining ikki turi: fuqarolar ishtirokidagi munosabatlar uchun uch yil, tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun bir yil belgilangan bo‘lsa, hozir amalda bo‘lgan fuqarolik qonunchiligida fuqarolik huquqining barcha subyektlari uchun da’vo muddatining yagona turi – uch yillik da’vo muddati belgilangan.

Barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilinishi prinsipi. Mazkur prinsip Konstitutsiyaning 53-moddasi va Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, iqtisodiyotda mulkiy tartibning asosini belgilab beradi. Ushbu prinsip asosida fuqarolik huquqining normalari mulkdorlarga o‘zlariga tegishli mol-mulklarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish vakolatlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. Mulk huquqining bekor bo‘lish asoslari Fuqarolik kodeksining 197, 206-moddalarida o‘z aksini topgan.

Mulkning daxlsizligi prinsipi. Bu prinsip FKning 1-moddasida o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, FKning 166-moddasiga muvofiq, mulk daxlsizdir va qonun bilan qo‘riqlanadi. Mulkdor o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishga haqli. Mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yish yoki mulkdorlik huquqlarini cheklashga faqatgina qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Shartnoma tuzish erkinligi prinsipi. Ushbu prinsip FKning 354-moddasida yanada ochib berilgan. Unga ko‘ra shartnoma tuzuvchi shartnoma tuzish bo‘yicha sherigini (kontragenti) tanlash huquqi, shartnoma predmetini tanlash huquqi, shartnoma shartlarini tanlash huquqi kabi huquqlarga ega.

Mazkur prinsip fuqarolik huquqining subyektlariga shartnoma turlarini hamda unda belgilanishi lozim bo‘lgan shartlarni erkin tanlash huquqini ham nazarda tutadi. Ushbu prinsipning fuqarolik qonunchiligida o‘z aksini topishi qonun chiqaruvchining ma’muriy-rejali aktlar asosida taraflar uchun majburiy bo‘lgan shartnomadan voz kechganligini anglatadi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolik muomalasiga ma’muriy aralashuvning yo‘l qo‘yilmasligida muhim hisoblanadi.

Ammo, fuqarolik qonun hujjatlarida alohida hollarda mazkur prinsipning qo‘llanilmasligi holatlari (masalan, jamoat manfaatlari yo‘lida) ham uchrab turadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 358-moddasining 3-qismiga binoan, tashkilotning iste’molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko‘rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo‘la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatda bo‘lishi prinsipi. Ma’lumki, iqtisodiy infratuzilma hisoblangan «bozor» qandaydir ichki chegara yoki to‘siqqa «chiday olmaydi». Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-moddasining 3-qismi tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo‘lishini belgilaydi. Mazkur prinsipga binoan, O‘zbekiston Respublikasidagi ma’muriy-hududiy tuzilmalar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, tuman, shahar hokimliklari) va boshqa mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy hududida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishiga to‘sqinlik qiluvchi biror-bir mahalliy qoidani belgilash huquqiga ega emas.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning erkin harakat qilishiga to‘sqinlik qiladigan bojxona chegarasi to‘lovi yoki boshqa tarzda undiriladigan yig‘imlar belgilanishi mumkin emas.

Xususiy ishlarga biron-bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi prinsipi. Fuqarolik qonunchiligida o‘z aksini topgan normalar birinchi navbatda fuqaroviy munosabat ishtirokchilarining xususiy manfaatlarini aks ettiradi. Shu bois ko‘rsatilgan normalarda xususiy ishlarga biron-bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi prinsipi mustahkamlangan. Mazkur prinsipga ko‘ra, agar fuqarolik huquqi subyektlari o‘z faoliyatlarini qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirayotgan bo‘lsalar, ularning xususiy ishlariga mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa har qanday shaxslarning aralashishlari mumkin emas. Boshqacha aytganda, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga ular qanday tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishlari yoki ularni qanday bahoda sotishlari bo‘yicha ko‘rsatma berish huquqiga ega emas.

Ammo xususiy manfaatlar jamiyat manfaatlariga to‘sqinlik qilsa, bunday hollarda fuqarolik qonun hujjatlarida yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy ishlariga aralashishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu hollarda fuqarolik qonun hujjatlari hech qanday fuqarolik jamiyatida istisno etilmaydigan ommaviy-huquqiy elementlarni mustahkamlaydi. Jumladan, Fuqarolik kodeksi 41-moddasining 4-qismiga asosan, yuridik shaxs (masalan, O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi «Qo‘riqlash» birlashmasi) qonunda ro‘yxati belgilangan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug‘ullanishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinuvchi munosabatlar doirasi juda keng va turli tumandir. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi natijasida fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilmagan yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelishi mumkin va bu o‘z navbatida fuqarolik huquqi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar doirasini kengaytirib boradi. Qonun chiqaruvchi fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinuvchi munosabatlar doirasining keng qamrovli ekanligini inobatga olib, fuqarolik huquqi subyektlari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan munosabatlarni ham amalga oshirishga ruxsat beradi. Faqat bu munosabatlar insonparvarlik prinsiplariga va qonun hujjatlariga zid kelmasligini belgilaydi. Boshqacha aytganda qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo‘lsa, ruxsat berilishi prinsipiga asoslangandir.

Fuqarolik huquqida bunday tamoyilning mavjudligi fuqarolik huquqi subyektlariga erkinlik va tashabbus berishi bilan birga iqtisodiyotning rivojlanishiga hamda bozor munosabatlarining erkinlashuviga xizmat qiladigan yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga kelishini ta’minlaydi.

2. Fuqarolik huquqining tizimi va manbalari

Huquq nazariyasida huquqning xususiy va ommaviy huquq tizimiga ajratilishi bizga ma’lum. Fuqarolik huquqi xususiy huquq tizimiga kiradi va ayni vaqtda uning o‘zi ham muayyan tizimga solingan.

Taraflarning yuridik tengligi asosida mulkiy-qiymatli va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqining normalari muayyan tizimda joylashgan. Mazkur tizim obyektiv ravishda shakllanib, fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari negizida rivojlanadi. Bu esa fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning umumiy jihatlaridan kelib chiqib, ularni yagona bir tizim asosida tartibga solish lozimligini belgilab beradi.

Fuqarolik huquqi normalarining muayyan tizimda joylashuvi nafaqat huquq ijodkorligi bilan shug‘ullanadigan shaxslar, balki huquqni qo‘llovchi idoralar uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunonchi, fuqarolik huquqiy normalarini aks ettirgan yangi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda uning mazmuni amaldagi huquq normalariga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa fuqarolik huquqi normalari muayyan tizimga joylashganida oson kechadi. Boshqacha aytganda, muayyan mezonlar bo‘yicha bir tizimga solingan fuqarolik huquqi normalarini alohida shaxslarga nisbatan izlash hamda qo‘llash oson amalga oshiriladi. Shu bois fuqarolik huquqi ikki – *umumiy* va *maxsus* qismlarga bo‘linadi.

Fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning ayrimlari har qanday mulkiy-qiymatli va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda qo‘llash uchun zarur fuqarolik huquqi normalari ajratib olinishini talab etadi. Ushbu huquqiy normalar yig‘indisi fuqarolik huquqining umumiy qismini tashkil etadi. Umumiy qismning ahamiyatini esa fuqarolik huquqida baholash qiyin. U fuqarolik huquqi sohasiga taalluqli barcha normalarni birlashtiradi, ulardagi yuridik mazmunning umumiyligini tavsiflab beradi. Umumiy qism fuqaro va tashkilotlar faoliyatining ayrim tarmoqlarida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning yagona mexanizmini ta’minlaydi. Jumladan, hozirgi kunda fuqarolik huquqining umumiy qismiga oid normalar orqali fuqarolar yoki yuridik shaxslar o‘rtasida yoxud fuqarolar bilan yuridik shaxslar o‘rtasida yuzaga kelayotgan mulkiy-qiymatli munosabatlarni (masalan, tadbirkorlik, maishiy yoki intellektual faoliyat; sanoat, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-joy shirkatlari va boshqa sh.k.) tartibga solinmoqda.

Fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarga, umumiy turdosh belgilar bilan bir qatorda, fuqarolik huquqining ichki tuzilishini ifodalovchi xususiyatlar ham xosdir. Huquqiy tartibga solishga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlar ijtimoiy munosabatlarni quyidagi turlarga, ya’ni mulkiy, iqtisodiy, shaxsiy-nomulkiy, intellektual (aqliy) faoliyat natijasida vujudga keladigan hamda oilaviy, merosga oid munosabatlarga ajratadi.

Yuqoridagilarga asosan, fuqarolik huquqining ichki tuzilishini oltita kichik bo‘limga taqsimlash mumkin:

1) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar;
2) majburiyat huquqi;
3) shaxsiy nomulkiy huquqlar;

4) intellektual (aqliy) faoliyat natijalariga bo‘lgan huquq;

5) oila huquqi;

6) vorislik huquqi .

Mazkur bo‘limlar o‘z predmeti va huquqiy tartibga solish metodiga ega. Masalan, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar bo‘limining predmetini moddiy boyliklarni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tashkil etsa, majburiyat huquqining predmetini moddiy boyliklar bilan iqtisodiy muomalada bo‘lish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tashkil etadi.

Fuqarolik huquqi tarkibiga kiruvchi u yoki bu kichik bo‘limning predmeti hisoblangan alohida turdagi ijtimoiy munosabatlar xos xususiyatlariga ko‘ra o‘zining ichki tuzilishini fuqarolik huquqining tegishli institutlari orqali tartibga soladi. Jumladan, majburiyat huquqi *shartnoma bilan bog‘liq* va *shartnomadan tashqari* yuzaga keladigan majburiyatlar institutidan iborat. Shuningdek, mazkur huquqiy institutlarning har biri yana subinstitutlarga bo‘linadi. Chunonchi, shartnoma majburiyatlari instituti quyidagi subinstitutlarga bo‘linadi: mol-mulkni sotish, mol-mulkni foydalanish uchun taqdim etish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatish, tashish, hisob-kitoblar, kreditlash, sug‘urta, birgalikdagi faoliyat bo‘yicha majburiyatlar va aralash majburiyatlar. Subinstitutlar, o‘z navbatida, nisbatan kichikroq bo‘lgan fuqarolik huquqining ichki bo‘linmalariga bo‘linadi.

Fuqarolik huquqi normalari *fuqarolik huquqining manbalari* deb atalgan turli normativ-huquqiy aktlarning (bundan buyon – normativ yoki huquqiy akt) moddalarida o‘z aksini topgan. Mazkur normativ aktlar yig‘indisi fuqarolik qonun hujjatlarini tashkil etadi. Ta’kidlash joizki, Fuqarolik kodeksida «fuqarolik qonun hujjatlari» tushunchasi keng ma’noda qo‘llaniladi. Fuqarolik kodeksining 3-moddasida «fuqarolik qonun hujjatlari» tushunchasi faqat Fuqarolik kodeksi va uning asosida chiqarilgan boshqa qonun hujjatlarini o‘z ichiga olishi belgilab berilgan.

Shu bois, *fuqarolik huquqi normalari qonun bilan bir qatorda, qonun osti normativ aktlarida mustahkamlanishi mumkin. Barcha normativ aktlar yuridik darajasiga qarab muayyan qat’iy iyerarxik tizim bo‘yicha joylashadi.* Normativ aktning yuridik kuchi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning mavqei ham fuqarolik qonun hujjatlarida shu kabi yuqori bo‘ladi. Fuqarolik qonunchiligi tarkibiga kiruvchi normativ aktlar sonining ko‘pligi, ammo qonun chiqarish texnikasining takomillashmaganligi tufayli muayyan masalaning har xil normativ aktlar bilan turlicha hal etilishi hollari ham uchrab turadi. Bunda yuqori kuchga ega bo‘lgan normativ akt

qo‘llaniladi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1105-moddasining 3-qismida: «Tovar belgisiga bo‘lgan huquqning boshqa shaxsga o‘tishi, shu jumladan uni *shartnoma asosida* yoki *huquqiy vorislik tartibida* boshqa shaxsga berish patent idorasida ro‘yxatdan o‘tkazilmog‘i lozim» – deyilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida»gi qonuni[1] 30-moddasining 5-qismida esa buning aksi – «tovar belgisiga doir huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi *shartnoma* yoki *litsenziya shartnomasi* patent idorasida ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak» ekanligi ko‘rsatilgan. Boshqacha aytganda, tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari hamda tovar kelib chiqqan joy nomi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi ushbu qonunda tovar belgisiga bo‘lgan huquqni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga berish haqida so‘z yuritilmagan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 27, 36, 42, 53, 54, 56-moddalari bevosita fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik munosabatlarini fuqaroviy-huquqiy tartibga solish asoslari Konstitutsiyaning 36, 53, 54-moddalarida aks ettirilgan. Inson sha’ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy, yozishma va telefonda so‘zlashuvlar siri kabi ma’naviy boyliklar bo‘yicha vujudga keladigan shaxsiy-nomulkiy munosabatlar Konstitutsiyaning 24–31-moddalarida ifodalangan.

Fuqarolik qonunchiligi tizimida sohaviy kodifikatsiyalashtirilgan normativ akt – *O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi* alohida o‘rin egallaydi. Sohaviy kodifikatsiyalashtirilgan normativ aktlar odatda, fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarining rivojlanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi va ikkinchi qismlari o‘zining yuridik darajasi bo‘yicha ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik kodeksining birinchi qismi Oliy Majlis tomonidan 1995-yil 21-dekabrda, ikkinchi qismi esa 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan bo‘lib, ikkala qism ham 1997-yil 1-martdan boshlab kuchga kiritilgan.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Товар белгилари, хизмат кўрсатиш белгилари ва товар келиб чиққан жой номлари тўғрисида»ги 2001йил 30 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9-10. – 178-м.

Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqining amaldagi tizimiga obyektiv tayangan holda tuzilgan. Shu bilan birga, fuqarolik huquqining tizimi bilan Fuqarolik kodeksining tuzilishi o‘rtasida obyektiv va subyektiv sabablarga bog‘liq ayrim tafovutlar mavjud.

Fuqarolik kodeksi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida sohaviy kodifikatsiyalashtirilgan normativ akt sifatida mulkiy-qiymatli va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Shu sababli, Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqining predmetiga kiruvchi barcha ijtimoiy munosabatlarda ahamiyat kasb etuvchi fuqarolik qonun hujjatlarining nisbatan muhim qoidalarini mustahkamlaydi. Boshqacha aytganda, Fuqarolik kodeksi bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqaroviy-huquqiy munosabatlar uchun normativ asoslarni o‘zida aks ettirgan. Unda tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ko‘pgina huquqiy normalar jamlangan. Fuqarolik kodeksi 3-moddasining 2-qisimiga binoan, boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridagi fuqarolik qonun hujjatlarining normalari Fuqarolik kodeksiga mos bo‘lishi shart. Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolik huquqi normalarini belgilaydigan boshqa har qanday qonunlarga nisbatan Fuqarolik kodeksi «tenglar ichida birinchi»dir[1].

Ta’kidlash joizki, fuqarolik qonunchiligi tizimini kodifika-siyalash-tirilgan normativ aktlar bilan bir qatorda, fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning alohida turlarini tartibga soluvchi max-sus qonunlar ham tashkil etadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonuni[2] respublikamizda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, xususan dehqon, fermer xo‘jaliklari, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari kabi tijoratchi yuridik shaxslar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solsa, «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni[3] tadbirkorlar va iste’molchilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Aytish joizki,

---

[1] Qarang: *Брагинский М. И., Витрянский В. В.* Договорное право. Общие положения. – М., 1997. – С. 41.

[2] Ўзбекистон Республикасининг «Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги 1998 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1998. – № 9. – 170-м.

[3] Ўзбекистон Республикасининг «Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги 1996 йил 26 апрель қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1996. – № 5–6. – 59-м.

shunga o‘xshash boshqa maxsus qonunlar ham Fuqarolik kodeksi singari umumiy hajmli xususiyatga ega bo‘lmay, balki ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning u yoki bu jabhasi yuridik jihatdan mustahkamlangan.

Fuqarolik qonunchiligi tizimida *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan chiqariladigan huquqiy aktlar* asosiy o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari qonunosti normativ akt sifatida qonunlarga zid bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari ham qonunosti normativ aktlar jumlasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining hukumati Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining talablarini bajarish maqsadida, fuqarolik huquqi normalaridan iborat qarorlar qabul qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining mazkur qarorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga zid bo‘lishi mumkin emas. Aks holda ushbu qarorlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan bekor qilinishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 16-bandi).

Fuqarolik huquqida o‘z ifodasini topgan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari fuqarolik qonunchiligi tizimiga mansubdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan obyektlarni qo‘riqlash to‘g‘risidagi namunaviy shartnomani tasdiqlash haqida»gi 1992-yil 15-dekabr farmoyishi yoki «Uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy ustavini va uy-joylarni uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga berish va uy-joy fondini saqlash va tuzatish masalalarida davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida»gi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 1999-yil 4-oktabr qarori o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra fuqarolik-huquqiy normativ aktlar jumlasiga kiradi.

Bundan tashqari, fuqarolik-huquqiy normalar vazirliklar va boshqa davlat boshqaruv organlarining normativ hujjatlarida ham aks etgan bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Moddiy-texnika va harbiy ta’minot boshqarmasining «Pudrat, xizmatlar ko‘rsatish, tovar (mahsulot)lar tayyorlash, mahsulot yetkazib berish va boshqa shartnomalarni tayyorlash, tuzish va qayd etish tartibi to‘g‘risida»gi 1999-yil 30-oktabr buyrug‘i buning yaqqol misolidir.

Shu o‘rinda, Fuqarolik kodeksi 3-moddasining 3-qismiga asosan, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari Fuqarolik kodeksi, o‘zga qonunlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi hujjat chiqarishlari mumkinligini hisobga olish zarur. Ya’ni, Fuqarolik kodeksi ayni vaqtda vazirliklar va boshqa davlat boshqaruv organlarining huquq ijodkorligi faoliyati doirasini amalda cheklab qo‘ygan.

Ta’kidlash joizki, fuqarolik huquqi normalari kompleks normativ aktlarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lishi mumkin. *Kompleks deganda, turli huquq sohalarining normalari bayon etilgan normativ aktlar nazarda tutiladi*. Kompleks normativ aktlar inson faoliyatining muayyan sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni turli huquq sohalari orqali tartibga solish uchun qabul qilinishi mumkin. Qisqacha aytganda, inson faoliyatining har qanday sohasi turli tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq. Bu esa ma’muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan tashkiliy munosabatlarni vujudga keltiradi. Shu bois, odatda, fuqarolik huquqi normalari ifodalangan kompleks normativ aktlar ayni vaqtning o‘zida ma’muriy huquq normalaridan ham iborat bo‘lishi mumkin. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi shu turdagi kompleks normativ-huquqiy aktlar jumlasiga kiradi. Xususan, unda uy-joy ijarasi bo‘yicha mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqi normalari bilan bir qatorda, ijtimoiy maqsadda uy-joylarni fuqarolarga foydalanish uchun taqdim etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi ma’muriy huquq normalari ham aks ettirilgan. Kompleks normativ aktlar nafaqat qonun darajasida, balki qonunosti normativ aktlar darajasida ham qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlari xalqaro huquq normalari va umum e’tirof etgan prinsiplari hamda O‘zbekiston ishtirok etgan xalqaro shartnomalarning qoidalariga zid bo‘lishi mumkin emas. Binobarin, ushbu qonun-qoidalar O‘zbekiston huquq tizimining muayyan qismi hisoblanadi. Bu esa ular fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida qo‘llanishini anglatadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lgan xalqaro shartnomalarning qoidalarini fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi munosabatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash uchun davlatning ichki normativ hujjati qabul qilinishi zarur. Zero, Fuqarolik kodeksining 7-moddasida, agar xalqaro shartnomada yoki bitimda fuqarolik qonun hujjatlaridagiga qaraganda boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari

qo‘llanilishi qayd etib o‘tilgan. Bu esa O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga kirib borishida muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi davrda ish muomalasi odatlari tadbirkorlik faoliyati sohasida keng qo‘llanilmoqda. Ish muomalasi odatlari asosida sud organlari tomonidan qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilmagan, tadbirkorlik faoliyatida vujudga keladigan nizolar hal etilishi mumkin. *Ish muomalasi odati* deganda, tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo‘llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi tushuniladi (FK 6-m.). Masalan, u yoki bu majburiyatni bajarish an’analari va hokazo. Ish muomalasi odati, biron-bir hujjatda yozilgan-yozilmaganidan qat’i nazar, qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlarida, boshqa xorijiy davlatlar (masalan, Rossiya davlati) fuqarolik qonunchiligi tizimidan farqli o‘laroq, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an’analar ham qo‘llanilishi belgilab qo‘yildi (FK 6-m., 2-q.). Ammo mahalliy odat va an’analar qo‘llanilishining asosiy sharti shundaki, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo‘lmasligi lozim. Ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo‘lgan qonun hujjatlarining normalari yoki shartnomaga zid bo‘lganida qo‘llanilmaydi.

Odob-axloq qoidalari odatda fuqarolik huquqining manbai hisoblanmaydi. Biroq odob va axloq qoidalari fuqarolik qonun hujjatlari tizimiga kiruvchi aniq normativ aktda mustahkamlangan bo‘lsa, huquq normalari sifatida qo‘llaniladi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 192-moddasida yo‘qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo‘qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo‘lgan o‘ziga ma’lum shaxslardan birortasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi zarurligi to‘g‘risidagi odob va axloq qoidalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ayrim hollarda odob va axloq qoidalari nafaqat fuqarolik huquqi manbai, balki fuqarolik qonun hujjatlarining mazmunini tushunib olish hamda unda mustahkamlangan huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llashda ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga binoan, qonun hujjatlarining talablariga to‘g‘ri kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy hisoblanmaydi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumi sud organlari amaliyotida O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan rahbariy tushuntirishlar beradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari

umumiy yurisdiksiyaga ega bo‘lgan sudlar uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur tushuntirishlar normativ akt hisoblanmaydi. Ular huquqni qo‘llash aktlaridir. Nazarimizda, sud organlari plenumlarining qarorlari fuqarolik huquqining yangi normalarini yaratishga emas, balki fuqarolik qonun hujjatlarining mazmunini tushuntirish va to‘g‘ri qo‘llashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bois, *sud organlari plenumlarining qarorlari fuqarolik huquqining manbalari bo‘lib hisoblanmaydi.*

Hozirgi davrda xo‘jalik sudlari va umumiy yurisdiksiyaga ega sudlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida»gi 16-sonli 1999 yil 24 sentabr qarori, «Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 7-sonli 2000 yil 28 aprel qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining «Xo‘jalik sudlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining javobgarlik to‘g‘risidagi qoidalarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida»gi 77-sonli 1999 yil 5 fevral qarori ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos-sivilist olim I. B. Zokirovning fikricha, «fuqarolik qonun hujjatlarini to‘g‘ri sharhlash va tatbiq etish uchun sud tajribasi muhim bo‘lsa ham, ammo u huquq manbai hisoblanmaydi. Fuqarolik ishi bo‘yicha sud tomonidan chiqarilgan qaror faqat mazkur ish uchungina majburiydir»[1]. Albatta, sud organlari plenumlarining rahbariy tushuntirishlari fuqarolik muomalasining barcha ishtirokchilari uchun emas, balki barcha sudlar uchun majburiy hisoblanishi va sudlar tomonidan og‘ishmay ijro etilishi lozim.

Shuningdek, *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari ham fuqarolik huquqi manbalari qatoriga kirmaydi*. Ayrim hollarda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan fuqarolik qonunchiligi tizimiga kiruvchi normativ akt yoki uning alohida qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga asosan, o‘z kuchini yo‘qotadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari orqali fuqarolik huquqining yangi normasini yaratish emas, balki u yoki bu normasini bekor qilish mumkin.

Bundan tashqari, *sud pretsedenti, ya’ni aniq ish bo‘yicha sudning chiqargan qarori ham fuqarolik huquqining manbalari tizimiga kirmaydi.* Mazkur qaror faqat muayyan ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun majburiy hisoblanadi, ya’ni shunga o‘xshash ishlarni ko‘rib chiquvchi sudlar uchun majburiy kuchga ega bo‘lmaydi.

---

[1] *Зокиров И. Б.* Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. – Т., 1996. – Б. 20.

3. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amalda bo‘lishi

Ma’lumki, fuqarolik qonun hujjatlarida ifodalangan normalar fuqarolik huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Zero, fuqarolik qonun hujjatlari muntazam yangilanib turadi. Bunda fuqarolik huquqining yangi normalari vujudga kelib, eskirgan normalar o‘z kuchini yo‘qotadi. Boshqa tarafdan esa, O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘zining belgilari bo‘yicha fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlar doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Shu bois, fuqarolik huquqining u yoki bu normasi qaysi vaqtdan boshlab kuchga kirishi va qanday munosabatlarga tatbiq etilishini aniq belgilab olish muhimdir.

Fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tadbirkorlik yoki kundalik maishiy faoliyatida amal qiladigan normalarni o‘z ichiga oladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari mazkur normalarning mazmuni bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan taqdirdagina ularga amal qiladilar. Ushbu maqsadga esa fuqarolik qonun hujjatlarini rasmiy nashr etish orqali erishiladi. Faqat shu holda fuqarolik muomalasi ishtirokchilaridan fuqarolik qonunlarining bajarilishini talab qilish va ularni mazkur qonunlardagi normalarni buzganlik uchun javobgarlikka tortish mumkin. Fuqarolik qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasida belgilangan tartibda, rasmiy nashrlar («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi», «Халқ сўзи» va «Народное слово» gazetalari)da e’lon qilinganidan so‘ng yuridik kuchga kiradi.

Odatda, yangi fuqarolik qonun hujjatining barcha normalari bir vaqtning o‘zida kuchga kiradi. Ammo, bir qator davlatlarda hajmi va amal qilish doirasi katta bo‘lgan fuqarolik qonun hujjatlari ayrim qoidalari oldin, asosiy qismi esa keyinroq kuchga kirishi mumkin. Masalan, Rossiya davlati Fuqarolik kodeksi birinchi qismining bir qator qoidalari 1995-yil 1-yanvardan kuchga kirgan bo‘lsa, Fuqarolik kodeksining 4-bobi esa uning birinchi qismi rasmiy nashr etilgan kundan, ya’ni 1994-yil 8-dekabrdan boshlab kuchga kirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 4-moddasiga binoan, fuqarolik qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shu bilan birga, «fuqarolik qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas» degan umumiy qoidadan istisno tariqasida ba’zan, fuqarolik qonun

hujjatining amal qilishi uning kuchga kirguniga qadar vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan ta’sir qilishi mumkin. Ammo mazkur qoida qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollarda amal qiladi. Odatda orqaga qaytish kuchi ilgari fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan munosabatlarga tatbiq etish ko‘zda tutilgan fuqarolik huquqining normalariga yoki fuqarolik muomalasi ishtirokchilari uchun yanada imtiyozli tartiblarni belgilaydigan, yoxud ularning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoyasini yuqori darajada ta’minlaydigan huquq normalariga beriladi. Xususan, egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddatga ko‘ra, mol-mulkka nisbatan mulk huquqini vujudga keltirish imkoniyatini belgilaydigan Fuqarolik kodeksining 187-moddasiga orqaga qaytish kuchi berilgan. Ya’ni, mazkur moddada o‘z aksini topgan qoidalarga binoan egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida mulk huquqiga ega bo‘lish imkoniyati qonunchiligimizda belgilangan bo‘lsa hamda ushbu munosabatlar Fuqarolik kodeksi kuchga kirgunga qadar davom etsa, qo‘llaniladi[1].

Shuningdek, ko‘pgina fuqarolik-huquqiy munosabatlar uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Masalan, 50 yil muddatga tuzilgan shartnomada vujudga keladigan ijara majburiyatlari, uy-joy majburiyatlari, mualliflik huquqiga oid munosabatlar va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur huquqiy munosabatlar amal qilgan davr mobaynida ularni tartibga solishga doir bir qancha qonunlar qabul qilinishi hamda yuqorida ko‘rsatilgan huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar vujudga kelishi yoki tugatilishi mumkin. Fuqarolik qonun hujjati amalga kiritilgunga qadar yuzaga kelgan bu qonun hujjati u amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan huquq va burchlarga nisbatan qo‘llaniladi (FK 4-m. 3-q.).

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonunchiligi kuchga kirar ekan, o‘z navbatida, fuqarolik-huquqiy normalardan tashkil topgan normativ-huquqiy aktlar ham uning butun hududida amal qiladi. Lekin, fuqarolik-huquqiy normativ aktni chiqargan davlat organi mazkur hujjatning amal qilish doirasini cheklab qo‘yishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy viloyati xalq xo‘jaligi tarmoqlari xodim-larining ish haqini hududiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 1992 yil 20 aprel qarori bilan faqat Navoiy viloyatida joylashgan ayrim shahar

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексини амалга киритиш тартиби тўғрисида»ги 1996 йил 29 август қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1996. – № 2. илова. – 6-м.

va tumanlardagi korxona, tashkilot va muassasalar xodimlarining ish haqiga muayyan miqdorda hududiy koeffitsiyentlar belgilangan.

Xuddi shunday fuqarolik qonun hujjatlari shaxslar bo‘yicha ham amal qiladi. Umumiy qoidaga asosan, fuqarolik qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha shaxslarga qo‘llaniladi. Mazkur shaxslar doirasiga fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat kiradi. Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, fuqarolik qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan qoidalar chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarga qo‘llaniladi (FK 2-m. 3-q.). Agar fuqarolik qonun hujjatlarining O‘zbekiston Respublikasi hududining muayyan qismida amal qilishi belgilangan bo‘lsa, u holda mazkur hujjat faqat ushbu hududdagi shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Biroq, ayrim hollarda fuqarolik qonun hujjatlarining amal qilish joyi belgilangan bo‘lsa-da, ammo mazkur hududdagi barcha shaxslar uchun emas, balki muayyan guruhdagi shaxslar uchun qo‘llanilishi uning mazmunida aks ettiriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun normasi asosan, iste’molchi va tadbirkorlar guruhiga kiruvchi fuqarolik huquqi subyektlariga nisbatan amal qilishi belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, fuqarolik qonun hujjatlarida keltirilgan huquqiy normalar nafaqat ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari, balki huquqni qo‘llash organlari tomonidan ham (masalan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari o‘rtasida nizoli holatlar vujudga kelganda) qo‘llaniladi. Fuqarolik huquqi normalarini to‘g‘ri qo‘llash uning xarakteri va mazmunini aniqlashni taqozo etadi. Fuqarolik-huquqiy normalarning xarakteri esa undagi qoidalarning fuqaroviy-huquqiy munosabat ishtirokchilari uchun majburiyligi darajasiga bog‘liq. Shu bois, fuqarolik huquqining dispozitiv va imperativ normalarini farqlash zarur.

Agarda fuqarolik huquqining normalarida fuqarolik munosabati ishtirokchilari o‘zlarining xohish-irodalari bo‘yicha o‘zgartira olmaydigan qoidalarni aks ettirgan bo‘lsa, u holda mazkur normalar imperativ hisoblanadi. Aksincha, fuqarolik huquqi normalari o‘zida fuqarolik munosabati ishtirokchilarining xohish-irodalari bo‘yicha o‘zgartira oladigan qoidalarni aks ettirgan bo‘lsa, ushbu normalar dispozitiv hisoblanadi. Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga ko‘ra, fuqarolik huquqining ko‘pgina normalari dispozitiv xarakterga ega hisoblanadi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 185-moddasida qayd etilganidek, shartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa,

ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Fuqarolik huquqining ushbu dispozitiv normasi, ya'ni mulk huquqining vujudga kelish vaqti to‘g‘risida qayd etilgan qoidalar shartnomada taraflarning o‘zaro kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, taraflarning olinadigan ashyoga nisbatan mulk huquqi shartnoma tuzish yoki ashyoning narxini to‘lash paytida vujudga kelishi to‘g‘risida kelishishlari mumkin. Dispozitiv normalarda ijtimoiy munosabat ishtirokchilari manfaatlarining eng maqbul balansi aks ettiriladi. Boshqacha aytganda, dispozitiv normalarning mazmuni odatda ko‘p takrorlanadigan va tekshirilgan qarordan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, fuqarolik qonun hujjatlarida imperativ normalar ham uchrab turadi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 152-moddasi, da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin emasligini nazarda tutadi. Bu esa Fuqarolik kodeksi 150-158-moddalari qoidalarining imperativ xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Ko‘p hollarda, u yoki bu fuqarolik-huquqiy normaning dispozitiv yoxud imperativ xarakterga egaligi qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ya'ni, fuqarolik huquqining dispozitiv xarakterga ega moddalarida, odatda, «shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa» iborasi qo‘llaniladi. Imperativ xarakterga ega normalar aks etgan huquqiy aktlarning tegishli moddalarida «yo‘l qo‘yilmaydi», «mumkin emas», «haqiqiy emas» kabi man etuvchi iboralar ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli moddalarida huquqiy normaning xarakterini aniqlashga imkon beradigan biror-bir yo‘nalish bo‘lmasa, bu holda unga nisbatan sharhlashning tegishli usullari qo‘llaniladi.

Fuqarolik huquqiy normalarni sharhlash – undagi noaniqliklarni tuzatish yo‘li orqali uning mazmuni (ma'nosi)ni aniqlash va tushuntirib berishdan iborat. Fuqarolik huquqi normalari mazmunining noaniqligi turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi, ya'ni normativ hujjat ixcham, lo‘nda qisqa ifodalanishi natijasida, uning mazmunida aks etgan ijtimoiy munosabatlar yoki hayotiy shart-sharoitlarni to‘liq, batafsil ochib bera olmasligi mumkin. Shu bois, mazkur holat bo‘yicha fuqaroviy-huquqiy normalarni sharhlashning turli usullaridan foydalaniladi.

Subyektlar bo‘yicha sharhlash – autentik, rasmiy, sud tartibida va ilmiy sharhlash kabi turlarga bo‘linadi.

Autentik sharhlash huquqiy normaning mazmuni mazkur norma ifoda etgan qonun hujjatini qabul qilgan organ tomonidan sharhlanadi.

Shuning uchun autentik sharhlash sharhlanadigan huquqiy norma kabi yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Rasmiy sharhlash – huquqiy normaning mazmuni mazkur normativ hujjatni qabul qilgan organ tomonidan emas, balki amaldagi qonun hujjatlariga asosan, ushbu normativ hujjat mazmunini tushuntirish huquqiga ega boshqa organ tomonidan amalga oshiriladi.

Sud tartibida sharhlash – ish bo‘yicha aniqlash yoki qaror qabul qilish jarayonida sud organlari tomonidan huquqiy normaning mazmunini bilishda kerak bo‘ladi. Sud tartibida sharhlash tegishli qaror qabul qilinadigan muayyan ishda qatnashuvchilar uchun majburiy kuchga ega bo‘ladi.

Ilmiy (doktrinal) sharhlash – huquqiy normaning mazmuni sivilist-olimlarning yuridik adabiyot, fuqarolik qonun hujjatlari, ilmiy anjumanlar va hokazolarga sharhlar yozishida qo‘llaniladi. Ilmiy sharhlash majburiy kuchga ega emas. Lekin, ilmiy sharhlar majburiy kuchga ega bo‘lgan organlar tomonidan qonun hujjatlarining mazmunini tushunishga ijobiy ta’sir (yordam) ko‘rsatadi.

Usullar bo‘yicha sharhlash *grammatik, mantiqiy, tizimli (sistematik) va tarixiy sharhlashga* bo‘linadi.

Sharhlashning grammatik (tilga oid) usulidan fuqarolik huquqi normalari mazmunini grammatika (til) qoidalari yordamida to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 30-moddasida shunday deyiladi: «Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi». Bu yerda qonun chiqaruvchi organ fuqaroni ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida muomalaga layoqatsiz deb topishi uchun ikki oqibatdan biri: o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaslik yoki ularni boshqara olmaslik yetarli ekanligini ifodalash maqsadida, «yoki» ajratuvchi bog‘lovchi so‘zini qo‘llaydi.

Sharhlashning mantiqiy usulidan fuqarolik huquqi normalari mazmunining bir-biri bilan ichki bog‘liqligi va uzviyligini mantiqiy jihatdan aniqlashda foydalaniladi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 30-moddasida «Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin», deb belgilangan. Demak,

voyaga yetgan fuqaro ruhiy kasal bo‘lsa ham, to sud tomonidan «muomalaga layoqatsiz» deb topilguniga qadar muomalaga layoqatli, deb faraz qilinadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligining rivojlanish bosqichlari va xususiyatlarini tushuntiring.
2. Ichki ishlar organlari o‘z faoliyatlarida qanday fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi?
3. Fuqarolik huquqi manbalarining qanday turlari mavjud?
4. Fuqarolik huquqi fanining boshqa huquqiy fanlar bilan qanday bog‘liqligi bor?
5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi haqida ma’lumot bering.
6. Fuqarolik qonun hujjatlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amal qilish tartibini tushuntiring.
7. Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash usullari haqida so‘zlab bering.

2-MAVZU.
FUQAROLAR (JISMONIY SHAXSLAR) – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA

1. Fuqarolik huquqi subyekti sifatida fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi, fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqati.
2. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish tartibi va asoslari.
3. Fuqarolik holati hujjatlari va ularni qayd etish.

1. Fuqarolik huquqi subyekti sifatida fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi, fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqati

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martdan amalga kiritilgan Fuqarolik kodeksiga muvofiq, fuqarolar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning birinchi va asosiy ishtirokchi (subyekt)laridan biridir. FKning 16-moddasiga muvofiq, «Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi».

Fuqarolik huquqida jismoniy shaxs va fuqaro tushunchalari bir xil ma’noni anglatadi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, Fuqarolik kodeksining qoidalari barcha fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuningdek, FKning 1-moddasi mazmuniga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari teng huquqli va bu qoida fuqarolar uchun ham taalluqlidir. Binobarin, qonunda belgilanuvchi ayrim istisnolardan tashqari, Fuqarolik kodeksining qoidalari barcha fuqarolar uchun teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) qo‘llaniladi. Teng deganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi tushuniladi.

Mazkur qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasi mazmuniga to‘liq mos keladi. Unga ko‘ra, barcha odamlar erkinlik, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar. Imtiyozlar odatda faqat qonun yo‘l qo‘ygan hollarda ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib beriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) deganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning uchinchi shaxslar aralashuvi va to‘sqinligisiz amalga oshirilishi

tushuniladi. Ya’ni fuqarolar fuqarolik huquqlariga o‘z xohish-irodalariga muvofiq ega bo‘ladilar va bu huquqlarini o‘z manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiradilar. Ular fuqarolik-huquqiy munosabatning shakllaridan biri bo‘lgan shartnoma shartlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishda erkindirlar. Demak, fuqarolarning mazkur munosabatlardagi ishtiroki va qatnashuvini xarakterlovchi asosiy huquqiy xususiyatlar – huquq va muomala layoqatlaridan iborat.

Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.

Fuqarolarning ma’lum fuqarolik huquqiga ega bo‘lish va shunga muvofiq majburiyat (burch)ni ola bilish layoqatiga fuqarolik huquq layoqati deyiladi. Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish – fuqarolik huquq layoqati demakdir.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar fuqarolik huquq layoqatiga egadilar. Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei fuqarolik huquq layoqatiga hech qanday ta’sir qilmaydi. Ayni vaqtda, shaxs fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lmay turib, fuqarolik huquqi subyekti bo‘la olmaydi.

Davlat hayotning moddiy sharoitlariga qarab fuqarolarning huquq layoqati, ya’ni muayyan huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqatini belgilaydi. Huquq layoqatining belgilari va mazmuni jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlaridan kelib chiqadi. Demak, fuqarolik huquq layoqati fuqarolarga o‘zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkonini beradi.

Shunday qilib, huquq layoqatiga ega fuqaro mulkni sotib olish, ayirboshlash, ijaraga qo‘yish yoki hadya qilish bo‘yicha shartnomalar tuzishi, vafoti oldidan mulkni meros qoldirishi, o‘ziga turar-joy tanlashi va shu kabi harakatlarni amalga oshirishi, ya’ni o‘zining moddiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun bemalol huquqiy munosabatlarga kirishishi mumkin. Bu ma’nodagi huquq layoqati yuqorida aytganimizdek, yuridik imkoniyatlarning umumiy yig‘indisi bo‘lib, fuqaroga amaldagi qonunlar doirasida har qanday huquqqa ega bo‘lish va o‘ziga majburiyatlar olish ixtiyorini beradi.

Huquq layoqatiga ega har bir fuqaro qonun yo‘l qo‘ygan huquqlarni xohlagan vaqtda amalga oshirishi mumkin, biroq buning uchun ma’lum yuridik faktlarning bo‘lishi talab etiladi. Masalan, amaldagi qonunchilikka

ko‘ra, fuqaro xususiy mulk huquqi asosida uy sotib olishi mumkin. Ammo buning uchun fuqaro o‘z uyini sotish istagini bildirishi, xaridor esa o‘z roziligini izhor qilishi hamda ular o‘rtasida belgilangan tartib bo‘yicha shartnoma tuzilishi talab qilinadi.

Binobarin, fuqarolik huquq layoqatiga ega bo‘lish uchun bir qator aniq holatlar va yuridik faktlarning bo‘lishi zarur.

Huquq layoqatiga fuqaroning tug‘ma sifati deb emas, balki uning davlat tomonidan e’tirof etilgan ma’lum huquqiy holati sifatida qarash kerak.

Mamlakatimizda fuqarolik huquq layoqatining real va kafolatlanganligi uning o‘ziga xos jihatidir. O‘zbekiston Respublikasi davlati fuqarolarning turli huquqlarini e’lon qilish bilan bir qatorda bu huquqlarning amalga oshishini ham kafolatlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi hamda «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonunning 1-moddalari talablariga ko‘ra, har kim mulkdor bo‘lish huquqiga ega. Mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi. Aynan «qonun bilan muhofaza qilinish» borasida qonun quyidagi holatlarni belgilaydi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik munosabatlarining barqarorligiga kafolat beradi. Shunga ko‘ra, mulkdorning mol-mulkini majburan tortib olishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo qonunda nazarda tutilgan quyidagi hollar bundan mustasno:

– jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoyat predmeti, ya’ni qurol va vositalari hamda jinoiy faoliyat natijasida orttirilgan mol-mulki sud hukmi bilan musodara qilinganda;

– sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra qarzdorning majburiyatlari uchun haq undirish uning mol-mulkiga majburiy tartibda qaratilganda;

– tabiiy ofatlar, falokatlar, kishilar, hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi va boshqa favqulodda hollarda davlat hokimiyati organlarining qarorlariga ko‘ra, jamiyat manfaatlarini ko‘zlab mulkdorning mol-mulki haq baravariga olib qo‘yilganda;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasida mulkiy huquqni bekor qiladigan qonun hujjati qabul qilingan taqdirda mazkur hujjatni qabul qilishdan yetkazilgan zarar mulkdorga to‘la hajmda to‘lanadi;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi barcha mulkdor (fuqarolar va yuridik shaxslar)larga ularning mulkiy huquqlarini himoya qilish uchun teng sharoit yaratib beradi.

Fuqarolarning huquq layoqati, asosan, u tug‘ilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Faqat bir holatda, ya’ni meros ochilgan paytda meros

qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin. Fuqarolik kodeksining 18-moddasi talabiga ko‘ra, mulkni meros qilib olish va vasiyat qilib qoldirish huquq layoqatining alohida turlaridan hisoblanadi. Shunga ko‘ra FKning 1118-moddasida, «qonunga asosan meros qoldiruvchi vafot etgan, ya’ni qonun belgilagan tartibda meros ochilganidan so‘ng tug‘ilgan bolalari ham voris bo‘la oladilar», deb belgilab qo‘yilgan. Demak, ochilajak merosda homilaning huquq layoqati ham mavjud ekan.

Odatda, inson tug‘ilganidanoq uning hayoti bilan birga huquq subyekti sifatidagi faoliyati ham boshlanadi. Insonning tug‘ilishi fakti muayyan yuridik ahamiyatga ega bo‘lganligi tufayli bu hodisa fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo‘limida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ro‘yxatdan o‘tkazmaslik tug‘ilgan bolaning huquqiga ta’sir etmasa-da, faqat uni amalga oshirish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishda qiyinchilik tug‘diradi.

Huquqiy layoqat huquq subyekti bo‘lgan fuqaroning vafoti bilan tamom bo‘ladi. Vafot etgan kishining o‘limiga qadar ega bo‘lgan huquq va burchlarining bir qismi (mulkiy, shaxsiy-nomulkiy huquqlari) bekor bo‘ladi, ba’zi mulkiy huquqlari vorislariga o‘tadi. O‘lim qator huquqiy oqibatlar tug‘diradigan faktdir. Shuning uchun o‘lim ham tug‘ilish fakti singari FHDYO bo‘limida qayd etiladi. Bu haqda keyinroq batafsil so‘z yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar huquq layoqatining mazmuni va hajmi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik, Mehnat kodekslari va boshqa ko‘plab qonun hujjatlarida belgilangan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36, 37, 38, 39, 42, 53, 54-moddalarida fuqarolarning huquqiy layoqatini tashkil etuvchi asosiy huquqlari haqida so‘z yuritildi.

Jamiyatda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosiy obyekti mulk hisoblanar ekan, mulkdorlik huquqini e’tirof etish tabiiydir. Shu bois Konstitutsiyaning 36-moddasi shaxsning mulkdorlik huquqini tartibga soladi. 37-moddasi – fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqlarini, 53-modda esa iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq layoqati O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 18-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Unga asosan fuqarolar:

– mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari;

– mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari;

– bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari;

– tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari;

– yollanma mehnatdan foydalanishlari;

– o‘zlari mustaqil ravishda yoki boshqa fuqaro va yuridik shaxs bilan birgalikda yuridik shaxslar tashkil etishlari;

– qonunga zid bo‘lmagan har qanday bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda qatnashishlari;

– boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari;

– mashg‘ulot turi va yashash joyini tanlashlari;

– fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtirolarning, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqlariga ega bo‘lishlari;

– shuningdek, boshqa mulkiy va shaxsiy huquqlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqaroning huquq va muomala layoqatidan to‘la yoki qisman voz kechishi, huquq layoqati va muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi (FK 23-m.).

Huquq layoqati kishi tug‘ilganidan o‘limiga qadar undan ajralmaydi. Aqli zaif va ruhiy kasallar ham huquq subyekti hisoblanadilar. Ular davolanish, pensiya olish va boshqa huquqlarga egadirlar. Ularning mulkiy huquqlari to‘la saqlanadi.

Fuqarolar yuqorida ko‘rib o‘tilganlardan tashqari boshqa mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin. Hozirgi vaqtda fuqarolarning huquq layoqati mazmuni amaldagi Fuqarolik kodeksi va qabul qilinayotgan joriy qonun hujjatlarida yanada soddaroq ta’rif-lanayotganligini ta’kidlash joizdir. Biroq fuqarolarning ko‘pdan ko‘p mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquq va burchlarini na Konstitutsiya, na Fuqarolik kodeksi yagona bir tizimda belgilab bera olmaydi.

Fuqarolik kodeksining 23-moddasi talabiga ko‘ra, qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Biroq fuqaroning harakatlari jamiyat manfaatlariga xilof bo‘lsa, uning alohida huquq layoqati cheklanishi mumkin. Amaldagi qonunlarga ko‘ra, fuqaro basharti jinoyat sodir etsa, jinoyat sudlov ishlarini yuritish tartibida unga jazo tayinlash yo‘li bilan

uning huquq layoqati cheklanadi. Fuqaroning huquq layoqati umrbod yoki muddatsiz cheklanmaydi. Masalan, Jinoyat kodeksining 45-moddasiga koʻra, muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida – bir yildan besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

Shunday qilib, fuqarolarning fuqarolik huquqlari alohida hollarda va qonunda belgilangan tartibda sudning hukmi yoki hal qiluv qaroriga koʻra cheklanishi mumkin. Masalan, shaxs oʻz qilmishi uchun ozodlikdan mahrum qilinganida u turar-joyi va jamiyatdan ajratilib muayyan boshqa bir joyga (masalan, jazoni ijro etish koloniyasiga) majburiy ravishda joylashtiriladi. Yoxud Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 87-moddasi talabiga koʻra, bolaning hayoti va sogʻligʻi bevosita xavf ostida qolganida vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani oʻz qaramogʻiga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi chiqargan tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi. Bola olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi bolani olish toʻgʻrisida hujjat qabul qilgandan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash toʻgʻrisida sudga da’vo bilan murojaat etishi shart.

Fuqaroning muomala layoqati xuddi huquq layoqati kabi umumiy tavsifga ega boʻlib, aniq subyektiv fuqarolik huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Shu bilan birga, muomala layoqati huquq layoqati kabi oʻziga xos huquqdir. Ba’zi yuridik adabiyotlarda huquq layoqati bilan muomala layoqati umumiy bir huquqiy subyektiv tushunchaga birlashtiriladi. Muomala layoqati huquq layoqatining mavjudligini e’tirof etadi va u shaxs voyaga yetishi bilan toʻliq holda vujudga keladi. Voyaga yetish, odatda, 18 yosh hisoblanadi.

Demak, fuqaroning oʻz harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega boʻlish va ularni amalga oshirish, oʻzi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni oʻn sakkiz yoshga toʻlgach toʻla hajmda vujudga keladi (FK 22-m.).

Shuningdek, quyidagi hollarda ham fuqarolar muomala layoqatiga toʻliq ega boʻladilar:

– voyaga yetgunga qadar, qonuniy asosda nikohdan oʻtgan fuqaro, nikohdan oʻtgan vaqtdan e’tiboran;

– emansipatsiya holati bo‘yicha, ya’ni 16 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa, yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa.

Odatda, fuqarolik bo‘yicha voyaga yetish konstitutsiyaviy huquqqa binoan siyosiy voyaga yetishga mos keladi. Mamlakatimiz fuqarolari 18 yoshida to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘ladilar.

Fuqaroning muomala layoqatiga ega bo‘lishi uning oqilona va ma’qul ravishda harakat qilishining samarasi hisoblanadi. Muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqaro o‘zining barcha harakatlari natijasini baholay bilishi va uning uchun javob bera olishi lozim. Shuning uchun ham qonun muomala layoqatining vujudga kelishini ma’lum yoshning to‘lishi bilan bog‘laydi.

Binobarin, fuqaroning muomala layoqatiga ega bo‘lishi, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mustaqil ravishda ishtirok etishi uchun aqliy va jismoniy jihatdan kamolga yetganini bildiradi. Kamolga yetgan shaxs mustaqil holda turli yuridik harakatlarni amalga oshirishi va o‘z harakatlari uchun javob bera olishi mumkin.

Demak, fuqaroning mustaqil ravishda bitimlar tuza olishi, majburiyatlar qabul qilishi va o‘zining nomunosib harakatlari tufayli keltirgan zarari uchun javob bera olishi uning muomala layoqati mazmunini tashkil qiladi.

To‘la muomala layoqati o‘n sakkiz yoshga yetgan fuqarolarga berilgani sababli bu yoshga to‘lmagan shaxslarning huquqiy holatini belgilashda ular ikkiga bo‘linib, ya’ni o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan va o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar muomala layoqati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to‘la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar.

Olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalar:

1) mayda maishiy bitimlar;

2) tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial guvohlantirish yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar (FK, 29-m.).

N.Ashurovaning fikricha, kichik yoshdagi bolalar mustaqil tuza oladigan mayda maishiy bitim deganda, bola yoki uning oila a’zolarining odatdagi, xar kungi ehtiyojini qondirishga qaratilgan va yuqori bo‘lmagan bahodagi bitim tushuniladi. Bitimning mayda maishiy bitim ekanligini

belgilovchi ikki shart mavjud bo‘lishi talab etiladi. Birinchisi, odatdagi, har kungi ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi va ikkinchisi, yuqori bo‘lmagan bahoda bo‘lishi talab etiladi[1].

O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzadilar.

Birovga yetkazilgan zararlari uchun ham kichik yoshdagi bolalar javobgar bo‘lmaydilar. Ular uchun ota-onalari yoki boshqa nazoratchilari javobgardir. O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning banklarga omonat qo‘yish va ularni tasarruf qilish huquqlari qonun bilan belgilanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar (o‘smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo‘lib, qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylari)ning roziligi bo‘lgan taqdirda o‘z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.

O‘smirlar bitimlarni ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular mustaqil ravishda o‘zlarining ish haqlari yoki stipendiyalarini tasarruf qilishga, o‘z asarlari, ixtirolariga bo‘lgan mualliflik hamda ixtirochilik huquqlarini, o‘z kash-fiyotlariga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishga, kredit muassasalariga mablag‘lar qo‘yish va ularni tasarruf etishga, shuningdek mayda maishiy bitimlarni tuzishga haqlidirlar. Ular 16 yoshdan kooperativlarga a’zo bo‘lib kirishlari mumkin.

Yetarli asoslar mavjud bo‘lganida sud qonuniy vakillari yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga ko‘ra o‘smirning o‘z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf qilish huquqini cheklashi yoki bu huquqdan mahrum etishi mumkin (FK 27-m. 8-b.).

O‘smirlar boshqa shaxslarga yetkazilgan zararlari uchun FK bilan belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Ruhiy kasallar va aqli zaiflar butunlay muomalaga layoqatsiz hisob-lanadilar. Biroq har qanday ruhiy bemorlik yoki aqli zaiflik shaxsni fuqa-rolik muomalasida qatnashish huquqidan mahrum qilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasida ko‘rsatilganidek, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin, bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

---

[1] *Ашурова Н*. Муомала лаёқати // Ҳаёт ва қонун. 2003.– № 2.– Б. 47.

Ruhiy kasal yoki aqli zaif kishini sud tayinlagan psixiatr ishtirokida maxsus vositachilar orqali tekshirish va uning natijalari haqida dalolatnoma tuzish sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish haqida hal qiluv qarori chiqarishga asos bo‘ladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uning vasiylari tuzadilar.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi (FK 30-m.).

Qonun ba’zi hollarda voyaga yetgan fuqarolarning muomala layoqatini cheklashni nazarda tutadi. Chunonchi, Fuqarolik kodeksining 31-moddasida ko‘rsatilishicha, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati Fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud tomonidan cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda javobgar bo‘ladi.

Fuqarolik huquqida shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida vasiylik va homiylik instituti joriy qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom» tasdiqlangan. Mazkur nizomda vasiylik va homiylik belgilanish asoslari, tartibi va boshqa qoidalar belgilab berilgan.

Vasiylikda muomalaga layoqatsiz shaxs, 14 yoshga to‘lmagan fuqarolar, ruhiy kasal va aqli zaiflar nomidan vasiy harakat qiladi va o‘zining harakatlari bilan vasiylikka olingan shaxsning nomidan uning majburiyatlarini ijro etadi.

Homiylikda, – homiylar qisman muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslarga (14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarga) o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarishda yordam ko‘rsatadilar, shuningdek, ularni ayrim uchinchi shaxslarning g‘araz niyatli harakatlaridan saqlaydilar. Homiylik, ba’zi hollarda, jismoniy kamchiliklari bo‘lgan, masalan, ko‘zi ojizlik, mayibligi sababli o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va himoya qila olmaydigan, ammo to‘liq muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bunday shaxslarga nisbatan homiylikning vazifasi ular uchun muayyan huquqlarni

amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarni bajarib, yordam ko‘rsatishdan iborat.

Mahalliy organlar vasiylik yoki homiylik organlari bo‘la oladilar. Yosh bolalarga nisbatan vasiylikni – xalq ta’limi bo‘limlari, ruhiy kasal va aqli zaiflarga – sog‘liqni saqlash bo‘limlari, vasiylikka olinuvchilarning boshqa toifalariga – ijtimoiy ta’minot bo‘limlari amalga oshiradilar. Agar vasiylikka olinuvchining mulki uning turar joyida bo‘lmasa, u holda ikki vasiy tayinlanishi mumkin: ulardan biri uning o‘ziga, ikkinchisi esa mulkiga belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, huquq layoqati va muomala layoqati jismoniy shaxslarni fuqarolik huquqining subyekti sifatida belgilashda muhimdir. Chunki, huquq layoqatiga barcha fuqarolar ega bo‘lishlari mumkin, biroq muomala layoqatiga hamma fuqarolar ega bo‘ladilar, deb bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, huquq layoqati deganda fuqarolarning huquqlarga ega bo‘lish layoqati, muomala layoqatida esa har bir fuqaroning huquq va majburiyatlarini o‘zi tomonidan amalga oshirish layoqati tushuniladi.

2. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish tartibi va asoslari

Fuqarolik huquqida shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish instituti katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu institut orqali bedarak yo‘qolgan fuqaroning, uning qarindoshlari va boshqa manfaatdor shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlari ta’minlanadi. Chunki, fuqaroning bedarak yo‘qolishi oqibatida kelib chiqadigan u yoki bu noaniq huquqiy holat bartaraf etiladi.

Ba’zan hayotda shunday voqealar ham bo‘ladiki, biror-bir fuqaro o‘zi doimiy yashab turgan joyga uzoq muddat davomida kelmay qo‘yadi yoki o‘zining qayerda yashayotgani to‘g‘risida xabar bermaydi yoxud uning qayerda ekanligini aniqlab bo‘lmaydi. Umuman u tirikmi yoki vafot etganmi, noaniq bo‘ladi. Bunday hollarda fuqaroning mulkiy huquqlarini amalga oshirish yoki mol-mulkini boshqarish yoxud majburiyatlarini bajarish zarurati vujudga keladi.

Qolaversa, huquqiy munosabat qatnashchisi bo‘lgan fuqaroning uzoq vaqt yo‘qolib ketishi uning huquqiy munosabatidagi taqdiriga ta’sir qilmasligi kerak. Odatda, bunday hollarda, fuqaroning doimiy yashash joyida qandaydir mulklari qoladi. Mazkur shaxs u yoki bu majburiyatda qarzdor yoki kreditor bo‘lishi mumkin. U shunday huquq va majburiyatning egasi bo‘lgani bois boshqa shaxs bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi, chunonchi nikohda bo‘lishi, ota-onalik huquqi va majburiyatida

bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Fuqaroning uzoq vaqt bedarak yo‘qolib ketishi ko‘p vaqtga cho‘zilmasligi kerak. Chunki davlat fuqarolik-huquqiy munosabatning bunday beqarorligiga befarq qaray olmaydi. Bedarak yo‘qolgan shaxsning yaqin kishilari, kreditorlari, davlat va nihoyat, uning shaxsiy manfaatlari bunday noaniqlik va beqarorlikning tugatilishini talab qiladi.

Mana shunday holatlarni bartaraf etish maqsadida, fuqarolik huquqida bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish tartibi belgilangan.

Ammo, fuqaro aliment to‘lashdan bosh tortib yoki jinoyat sodir etib qochib yurgan bo‘lsa va u doimiy yashaydigan joyiga bila turib kelmasa, bunday vaziyatlarda ushbu institut qoidalarini qo‘llab bo‘lmaydi.

Basharti, bedarak yo‘qolgan fuqaro vafot etgan bo‘lsa, unga nisbatan huquqiy munosabatlar saqlanib qolmaydi. Unga tegishli huquq va burchlar boshqalarga o‘tadi. Bunda manfaatdor shaxslar vorislarga nisbatan o‘zlarining tegishli da’vo va e’tirozlarini keltirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin.

Modomiki, bedarak yo‘qolgan fuqaro hayot bo‘lsa-yu, lekin ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, o‘zining doimiy yashash joyiga qaytish imkoniyati bo‘lmasa, unga tegishli mulklarning saqlanishiga oid barcha zaruriy choralarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunday holatda u bilan huquqiy munosabatda bo‘lgan boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlarini uning qaytishini kutmasdan, qanoatlantirish zarur.

Fuqarolik kodeksining 33-moddasida qanday hollarda fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish to‘g‘risidagi qoida berilgan. Shunga ko‘ra, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

Yo‘qolgan shaxs to‘g‘risidagi oxirgi ma’lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo‘lmasa, bunday ma’lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni aniqlash mumkin bo‘lmaganda esa kelgusi yilning birinchi yanvaridan hisoblanadi.

Bir yil mobaynida qayerda ekanligi to‘g‘risida xabar kelmagan fuqaroning ota-onasi, eri yoki xotini, bolalari, qarindoshlari va boshqa manfaatdor shaxslarning talabiga muvofiq sud bedarak yo‘qolgan deb topadi. Masalan, fuqaro M.To‘xliyeva 2010-yilning 18-oktabrida sudga murojaat qilib, eri B.Boltayev bilan 2000-yil 15– yanvardan beri qonuniy nikohda bo‘lganligi, 2009-yil 1-aprelda uning uydan ketib qolganligi sababli, turmushlari buzilganligi, e’lon qilingan qidiruv ijobiy natija

bermagani va hozirgacha eri bilan nikohi bekor qilinmagani to‘g‘risida sudga ariza beradi. Sud 2010-yil 20-oktabr kuni ushbu arizani ko‘rib chiqib, Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga asosan, fuqaro B.Boltayevni bedarak yo‘qolgan deb topadi. Ushbu holda sud chiqargan hal qiluv qarori to‘g‘ri, chunki fuqaro B.Boltayev deyarli bir yarim yil mobaynida o‘zining qayerda ekanligi to‘g‘risida biron marta xabar qilmagan, qidirish esa ijobiy natija bermagan.

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy ravishda boshqarib turish zarur bo‘lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to‘g‘risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Ushbu mol-mulkdan bedarak yo‘qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo‘lgan fuqarolarga ta’minot beriladi hamda uning soliqlar hamda boshqa majburiyatlar bo‘yicha qarzlari to‘lanadi.

Manfaatdor shaxslarning arizalari bo‘yicha vasiylik va homiylik qiluvchi organ bedarak yo‘qolgan fuqaroning mulkini qo‘riqlash va boshqarish uchun uning qayerda ekanligi to‘g‘risidagi oxirgi ma’lumot olingan kundan e’tiboran bir yil o‘tishini kutmay mulkka boshqaruvchi tayinlashi mumkin.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish boshqa huquqiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish topshiriq shartnomasining bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, agar fuqaro jinoyat qilgan yoxud aliment to‘lashdan bo‘yin tovlab yashirinib yurgan bo‘lsa, bunday hollarda u bedarak yo‘qolgan deb topilmaydi.

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi (FK 35-m.).

Fuqarolik kodeksining 36-moddasiga muvofiq, faqat sud fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish uning oxirgi yashab turgan joyida amalga oshiriladi.

Sud amaliyoti fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi ish ko‘rilayotgan vaqtda sud o‘lim paytini emas, balki vafot etgan deb gumon qilishga asos bo‘luvchi holatning borligini aniqlashi kerak.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qarori qonuniy kuchga kirgan kun vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning o‘lgan kuni deb hisoblanadi.

Fuqaroning vafot etgan deb e’lon qilinishi to‘g‘risidagi asosiy qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda qayd etilishicha, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo‘lgan kundan e’tiboran kamida ikki yil o‘tganidan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin.

Fuqaro vafot etgan deb e’lon qilinganida uning mulkiga nisbatan meros ochiladi hamda shaxsiy majburiyatlari tamom bo‘ladi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi (FK 37-m.).

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinganidan so‘ng u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o‘tib qolgan mol-mulkini o‘ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli. Biroq Fuqarolik kodeksi 229-moddasining 2,4-qismlari talablariga ko‘ra, bunday shaxsning mol-mulki sud qarorini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan va puli, taqdim etuvchiga deb yozilgan qimmatli qog‘ozlari insofli egallovchida bo‘lsa, u talab qilib olinmaydi. Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo‘lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to‘lamagan bo‘lsalar, bunday hollarda to‘lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o‘tadi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroga qarashli mulkni haq to‘lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib olganliklari isbotlansa (insofsiz egallovchi), ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli hamda qaytarib berishning imkoni bo‘lmasa, uning qiymati to‘lanadi.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki meros huquqi bo‘yicha davlatga o‘tgan va sotib yuborilgan bo‘lsa, fuqaroni vafot

etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinganidan so‘ng unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi (FK 37-m.).

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo‘lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to‘lamagan bo‘lsalar, to‘lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o‘tadi.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo‘yicha davlatga o‘tgan va sotib yuborilgan bo‘lsa, fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi (FK 37-m.).

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur huquqiy institutlar ichki ishlar organlari faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bedarak yo‘qolgan fuqaroni qidirish harakatlari asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Fuqarolik holati hujjatlari va ularni qayd etish

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko‘ra, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoyalashni hamda davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda, fuqarolar hayotidagi muhim voqealar – tug‘ilish, nikoh tuzish, o‘lim va insonning muhim subyektiv huquqlari va majburiyatlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishiga sabab bo‘ladigan boshqa holatlar vakolatli organlarda qayd etilishi belgilangan.

Fuqarolik holatini qayd etish fuqarolarning huquq va burchlarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib xizmat qiluvchi hujjat (gerbli guvohnoma) berish uchun asos bo‘ladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning ahamiyati shundaki, unga asosan FHDYO organi tomonidan berilgan guvohnoma, unda ko‘rsatilgan faktning to‘g‘riligini tasdiqlovchi shaksiz dalil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari» tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 38-moddasiga asosan quyidagi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak:

1) *tug‘ilish;* 2) *o‘lim;* 3) *nikoh tuzilganligi;* 4) *nikohdan ajralish*.

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish fuqarolik holati dalolat-nomalarini yozish organlari (FHDYO) tomonidan fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish daftariga (hujjatlar daftariga) tegishli yozuvlarni

kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvohnomalar berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjat bo‘lib, ikki nusxada tuziladi va FHDYO organlarida qayd etilgan vaqtdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (FHDYO) o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga, FHDYO organlarida ish yuritish tartibi haqidagi yo‘riq-nomaga va FHDYO organlari faoliyatiga taalluqli boshqa qonun hujjat-lariga muvofiq amalga oshiradi. FHDYO organlarining faoliyatiga umumiy rahbarlik, FHDYO organlarini tashkil etish, qo‘shib yuborish, tugatish, qayta tashkil etish va ular faoliyatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Adliya vazirligi FHDYO organlarini hamda O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi konsullik muassasalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan, qat’iy hisobda turuvchi gerbli guvohnomalarning davlat blanklari bilan ta’minlaydi.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish, jinsning o‘zgartirilishi kabi voqea va faktlar tug‘ilish, o‘lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish hujjatlariga tegishli o‘zgartishlar kiritish yo‘li bilan ifodalanadi.

FHDYO organlari xodimlari, shuningdek konsul o‘zi, eri yoki xotini va bolalari to‘g‘risida dalolatnoma yozuvlarini qayd etishga yoki ularga tegishli o‘zgartirish, tuzatish va qo‘shimchalar kiritishga haqli emas.

Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarini tuzatish va o‘zgartirish yetarli asoslar bo‘lsa hamda manfaatdor shaxslar o‘rtasida nizo bo‘lmasa, fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda fuqarolik holati dalolatnomasi yozuvlarini qayd etish rad qilinishi mumkin:

– agar dalolatnoma yozuvini qayd etish qonunga zid bo‘lsa;

– agar dalolatnoma yozuvini qayd ettirish uchun murojaat qilgan shaxs bunga huquqli bo‘lmasa yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa.

Manfaatdor shaxslar o‘rtasida nizo bo‘lsa yoki fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi yozuvni tuzatish yoki o‘zgartirishni rad etsa, nizo sud tomonidan hal qilinadi.

Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarini bekor qilish va tiklash fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi tomonidan, manfaatdor shaxslar o‘rtasida

nizo bo‘lsa yoki fuqarolik holati hujjatlaridagi yozuvlarda jiddiy tafovutlar bo‘lsa – sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Konsulning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari bo‘yicha harakatlari ustidan shikoyatlar bo‘ysunish tartibiga ko‘ra ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatdagi diplomatik vakolatxonasi boshlig‘iga yoki O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

Bolaning tug‘ilishini qayd etish majburiy bo‘lib, bola tug‘ilgan joydagi yoki ota-onasidan birining doimiy yashash joyidagi FHDYO organida amalga oshirilishi lozim. Ota-onaning istagiga ko‘ra, FHDYO organi bolaning tug‘ilganligini qayd etishni tantanali vaziyatda o‘tkazishi mumkin.

Tug‘ilganlik haqidagi ariza bola tug‘ilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida berilishi zarur. Bola tug‘ilganligi to‘g‘risidagi ariza ota-onasi yoki ulardan biri, alohida hollarda esa qarindoshlari, qo‘shnilari, tibbiyot muassasalari ma’muriyati, ichki ishlar yoki vasiylik va homiylik organlari tomonidan berilishi mumkin. Belgilangan muddatning o‘tib ketganligi tug‘ilganlikning qayd etilishiga to‘sqinlik qila olmaydi.

Tug‘ilganlikni qayd etish uchun:

– tibbiyot muassasasining bola tug‘ilganligi to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnomasi;

– ota-onalarining pasportlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlari;

– nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi gerbli guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza taqdim etiladi.

Tibbiyot muassasasi tomonidan beriladigan tug‘ilganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomada:

– onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;

– bolaning tug‘ilgan vaqti va sanasi, jinsi;

– berilgan vaqti to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi zarur.

Ma’lumotnoma tibbiyot muassasasi mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Tug‘ruqxonalardan tashqari joylarda va tibbiy yordamsiz tug‘ilgan bolaning tug‘ilganligini qayd etish uning shu onadan tug‘ilganligiga guvohlik beruvchilar imzolagan va uchastka shifokori yoki feldsherining imzosi bilan tasdiqlangan dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Ota-onalardan birining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmagan alohida hollarda FHDYO organi tug‘ilganlikni qayd etishni rad qilishi mumkin emas. Bunda hujjatlari bo‘lmagan ota yoki ona haqida ma’lumotlar nikoh

yoki avvalgi bolalarining tug‘ilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvlari asosida ko‘rsatiladi.

Ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmaganda bolaning tug‘ilganligini qayd etish tibbiyot muassasasi ma’muriyatining yoki vasiylik va homiylik organining arizalariga asosan amalga oshiriladi.

Bola tug‘ilgunga qadar uning otasi vafot etgan vaqtdan, ota-onasi nikohi bekor qilinganligidan yoki ota-onasining nikohi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgandan keyin 300 kundan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa, otasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar shu otadan tug‘ilgan tartibda yoziladi.

Bunday hollarda ariza beruvchi tomonidan nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, sudning nikohdan ajratish haqidagi qaroridan ko‘chirma (nusxa) yoki nikohni haqiqiy emas deb topganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan qaroridan ko‘chirma (nusxa) yoki otasi o‘limi haqidagi guvohnoma taqdim etilishi kerak. Dalolatnoma yozuvining «Belgilar uchun» ustunida nikohdan ajralish yoki o‘limning qayd etilgan joyi va sanasi, dalolatnoma yozuvining tartib raqami, qarorni chiqargan sudning nomi va qarorning sanasi ko‘rsatiladi.

Bolaning nasl-nasabi xususidagi barcha nizolar sud tartibida hal qilinadi.

Agar ota-onalari o‘rtasida nikoh qayd etilmagan bo‘lsa (tug‘ilishni qayd etishda onasi ishtirok etmagan taqdirda) bolaning otasi haqidagi yozuv onaning notarial yoki tibbiy muassasa tomonidan tasdiqlangan arizasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Bolaning tug‘ilganligini qayd etishda unga familiya ota-onasining kelishuviga ko‘ra ota yoki onaning familiyasi, bobolaridan birining yoxud otaning ismi bo‘yicha beriladi. Kelishuv bo‘lmagan taqdirda nizolar vasiylik va homiylik organi, konsullik okrugida esa konsul tomonidan hal etiladi.

Ota-onasining pasportlariga bolasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar: familiyasi, ismi, ota ismi, jinsi, tug‘ilgan vaqti yozib qo‘yiladi.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug‘ilganligini qayd etish ichki ishlar bo‘limi, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa ma’muriyati yoki tibbiyot muassasasining arizasiga binoan amalga oshiriladi. Bolani topib olgan shaxs bu haqda yigirma to‘rt soat ichida ushbu tumandagi ichki ishlar bo‘limiga yoki vasiylik va homiylik organiga xabar berishi kerak.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug‘ilganligini qayd etish haqidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) ichki ishlar bo‘limi yoki vasiylik va homiylik organining bolaning topib olingan vaqti, joyi va topib olingan paytdagi holati to‘g‘risidagi dalolatnomasi;

b) tibbiy muassasaning topib olingan yoki tashlab ketilgan bolaning yoshi va jinsini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi.

Uning ota-onasining familiyasi, ismi va millati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bolaning tug‘ilishi haqidagi dalolatnoma yozuviga ichki ishlar bo‘limi, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa ma’muriyati yoki tibbiyot muassasasining ko‘rsatmalari asosida kiritiladi. Bunday holda bolaning va bolaning ota-onasi sifatida ko‘rsatilgan shaxslarning familiyasi bir xilda yoziladi. «Belgilar uchun» ustuniga «Bola topilgan» yoki «Tashlab ketilgan» deb yoziladi va ota-onasi haqidagi ma’lumotlar kimning ko‘rsatmasiga asosan yozilganligi ko‘rsatiladi.

O‘lik tug‘ilgan bolaning tug‘ilganligini, shuningdek hayotining birinchi haftasida o‘lgan (perinatal o‘lim) bolalarning tug‘ilganligi va o‘limini qayd etish tibbiy muassasa arizasiga binoan shu hududdagi FHDYO organi tomonidan 24 soat ichida amalga oshiriladi. Agar bola tug‘ilgandan keyin vafot etsa, hatto u bir necha daqiqa yashasa ham, tug‘ilishi hamda o‘limi haqidagi ikkita yozuvdan iborat dalolatnomalar tuziladi.

Bunday hollarda tug‘ilish haqidagi dalolatnoma yozuvi tug‘ilganlik haqidagi tibbiy ma’lumotnoma asosida, o‘lganligi haqidagi dalolatnoma yozuvi esa perinatal o‘lim haqidagi tibbiy guvohnoma asosida amalga oshiriladi. Bunda tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvida onasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq keltiriladi, «Belgilar uchun» ustunida esa o‘lganligi qayd etilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvining tartib raqami va sanasi ko‘rsatiladi. Bunday hollarda bolaning tug‘ilganligi haqida (o‘lik tug‘ilganda ham) qabriston uchun ma’lumotnoma beriladi. Zarur hollarda ota-onasining iltimosiga ko‘ra (tirik tug‘ilib, so‘ng vafot etgan bola uchun) o‘limi haqida guvohnoma berilishi mumkin.

Tug‘ilishni qayd etishning barcha hollarida bola tug‘ilgan ma’muriy hudud uning tug‘ilgan joyi sifatida yoziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14 va 15-moddalariga muvofiq, nikohlanuvchilarning o‘zaro roziliklari va ularning nikoh yoshiga yetganliklari nikoh tuzishning asosiy shartlari hisoblanadi. Ayrim hollarda tuman (shahar) hokimining qarori bilan nikoh yoshi ko‘pi bilan 1 yilga kamaytirilishi mumkin.

Nikoh nikoh tuzishni xohlovchi shaxslar bu to‘g‘rida ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organiga belgilangan shakldagi ariza bilan

murojaat etgan kundan bir oy o‘tgach qayd etiladi. FHDYO organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslarning nikohini qayd etish to‘g‘risidagi arizasini qabul qilishda belgilangan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma beriladi (O‘zR VM 25.08.2003 y. 365-sonli Qarori)

Alohida hollarda, istisno tariqasida (agar ota-onasi va nikoh tuzayotgan yoshlar O‘zbekiston Respublikasining turli viloyat yoki tuman (shahar)larida yashab turgan bo‘lsalar) otasi yoki onasining yozma arizasiga ko‘ra nikoh ota-onasining yoki ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organida ham qayd etilishi mumkin.

FHDYO organi mudiri uzrli sabablar bo‘lganda, arizachilarning iltimoslariga ko‘ra bir oylik muddatni qisqartirishi mumkin. Bunda uzrli sabablarni tasdiqlovchi – bolalarining tug‘ilganligi haqidagi guvohnomalari, tibbiyot muassasasining kelinning homiladorligi haqidagi ma’lumotnomasi, xizmat safari to‘g‘risidagi va shu kabi hujjatlar ko‘rsatiladi.

FHDYO organi nikohni qayd etish vaqtini belgilayotganda nikohdan o‘tuvchilardan uni tantanali vaziyatda o‘tkazilishiga roziligini aniqlashi lozim. Tantanali nikoh faqat nikoh tuzuvchilarning xohishlariga ko‘ra o‘tkaziladi. Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan nikoh ularning qarindoshlari, tanishlari ishtirokida qayd etiladi. Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan ortiq ham kam ham bo‘lmasligi kerak.

Nikohga kirish haqidagi arizani berishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser yoki praporshikning shaxsiy guvohnomasi ko‘rsatilishi kerak. Agar nikoh tuzishni xohlovchi harbiy xizmatchi nikohga kirish haqidagi arizani xizmatni o‘tayotgan joyida bersa, tegishli harbiy qism yoki muassasa joylashgan manzil harbiy xizmatchining yashash joyi hisoblanadi.

Agar biron-bir sabab bilan nikoh tuzuvchilarning ikkalasi ayni bir vaqtda kelishi imkoniyati bo‘lmasa, u holda FHDYO organiga arizani ulardan biri berishi mumkin, Bu holda kela olmagan shaxsning imzosi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Nikohni qayd etish faqat nikohlanuvchi shaxslarning ishtirokida amalga oshiriladi. Nikohning ishonchnoma bo‘yicha yoki vakil orqali, shuningdek tibbiy tekshiruvdan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma bo‘lmaganda qayd etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. FHDYO organlari xodimlari nikohni qayd etish vaqtida ularga ma’lum bo‘lgan shifokorlik sirlaridan iborat bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etganligi uchun javob beradilar (O‘zR VM 25.08.2003 y. 365-son Qarori).

Nikohlanuvchilardan biri betobligi sababli FHDYO organiga kela olmagan istisnoli hollarda nikoh shifoxonada, uyda yoki boshqa tegishli joyda nikohlanuvchi ikkala shaxsning ishtirokida amalga oshiriladi. Dalolatnoma yozuvining «Belgilar uchun» ustunida bu haqda tegishlicha yozib qo‘yiladi.

Harbiy xizmatga majbur bo‘lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchining nikoh qayd etilganligi sababli familiyasi o‘zgartirilganda FHDYO organi 7 kun muddatda bu haqda harbiy xizmatga majbur bo‘lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchi ro‘yxatda turgan tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limiga xabar qiladi.

Nikohni qayd etganlik uchun belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Jazoni ijro etish muassasasida jazoni o‘tayotgan shaxslar bilan nikohni qayd etish shu muassasa joylashgan hududdagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs, nikohga kirish haqidagi maxsus shakldagi arizaning o‘ziga taalluqli qismini to‘ldirib o‘zi doimiy yashayotgan yoki jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi FHDYO organiga topshiradi. FHDYO organi arizada keltirilgan ma’lumotlarni ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan solishtiradi, arizada qayd etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini va arizachining imzosini tasdiqlaydi va unga arizani qaytaradi. Shundan so‘ng mahkum bilan nikohga kirishni xohlovchi shaxs bu arizani mahkumga berishi uchun jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatiga topshiradi.

Mahkum bilan nikohga kirish haqidagi arizani olgandan keyin, jazoni ijro etish muassasa ma’muriyati uni tegishli joyini to‘ldirish uchun mahkumga taqdim etadi. Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati to‘ldirilgan arizadagi ma’lumotlarni mahkumning shaxsiy yig‘majildidagi ma’lumotlar bilan solishtiradi, ularning haqiqiyligini va imzosini tasdiqlaydi va arizani jazoni ijro etish muassasasi joylashgan mazkur hududdagi FHDYO organiga yuboradi.

Agar mahkumning shaxsiy yig‘majildida uning oilaviy ahvoli to‘g‘risida ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa, kam yoki noaniq bo‘lsa, u holda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati bu ma’lumotlarni tegishli tashkilotlar va muassasalar orqali ularni talab qilib olish yoki aniqlash choralarini ko‘radi.

Jazoni o‘tash muassasalari ma’muriyati sudlanganlarni nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan belgilangan tartibda o‘tkazadi (O‘zR VM 25.08.2003 y. 365-son Qarori taxriridagi xat boshi)

Mahkum bilan nikohni qayd etish FHDYO organi bilan kelishilgan holda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan belgilangan binoda nikohga kiruvchilarning ishtirokida amalga oshiriladi.

Mahkum bilan nikohga kiruvchi shaxsga FHDYO organi tomonidan nikoh qayd etilganligi haqida guvohnoma beriladi.

Mahkumning shaxsiy yig‘majildidagi anketasiga FHDYO organi tomonidan shtamp bosiladi, er yoki xotinning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan yili, FHDYO organining nomi va nikoh tuzilgan sana va dalolatnoma yozuvi raqami yozib qo‘yiladi. Xuddi shunday ma’lumotlar er-xotinlarning pasportlariga ham kiritiladi.

Sudgacha ehtiyot chorasi sifatida qamoqda ushlab turilgan shaxslar bilan nikohni qayd etish tergov ishini olib borayotgan mansabdor shaxs yoki organ ruxsati bilan shu hududdagi FHDYO organi tomonidan tergov izolatori (qamoqxona)da amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42 va 218-moddalariga muvofiq FHDYO organi mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo‘lmagan er-xotinlardan nikohdan ajralish to‘g‘risidagi arizani qabul qiladi.

Alohida yashovchi er-xotinni nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan ulardan birining yashash joyidagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to‘g‘risidagi arizani berish uchun FHDYO organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki er-xotin yashab turgan joydagi FHDYO organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Arizada er-xotin ajralishga o‘zaro rozi ekanliklari, voyaga yetmagan bolalari yo‘qligi, shuningdek ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDYO organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi. Arizani qabul qilishda arizachining shaxsini tasdiqlovchi hujjatda voyaga yetmagan farzandlari to‘g‘risida belgi bor-yo‘qligi tekshirilishi lozim.

Agar nikohdan ajralishga er-xotinning o‘zaro roziligi bo‘lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta’minoti haqida nizolar bo‘lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi.

Nikohdan ajratishni qayd etish er-xotinning yoki ulardan birining ishtirokida nikohdan ajratish haqida FHDYO organiga ariza berganlaridan

keyin uch oy o‘tgach amalga oshiriladi va sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beriladi.

Er yoki xotindan birining nikohgacha bo‘lgan familiyasiga qaytishi to‘g‘risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko‘rsatilishi kerak.

Nikohdan ajratish qayd etilganidan so‘ng nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga uning tugatilganligi haqida belgi qo‘yiladi va u arizachilarga qaytariladi.

Nikohdan ajratishni qayd etishda, er va xotinning o‘zaro kelishuviga ko‘ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Er yoki xotindan birining ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etishda davlat boji to‘liq miqdorda undiriladi.

Er yoki xotindan birining arizasi asosida nikohdan ajratish Oila kodeksining 43 va 219-moddalariga muvofiq:

– sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa;

– sud tomonidan ruhiyati buzilishi(ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa;

– sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, o‘rtada voyaga yetmagan bolalari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko‘ra FHDYO organlarida nikohdan ajratish qayd etiladi. Bunday hollarda arizaga qo‘shimcha ravishda quyidagilar ilova qilinadi:

– er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo‘qolgan deb topilganligi to‘g‘risida qonuniy kuchga kirgan sud qarori;

– er (xotin)ning uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to‘g‘risida qonuniy kuchga kirgan sud hukmidan ko‘chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning nikohdan ajratishga o‘rtada bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo‘qligi to‘g‘risidagi roziligi.

Bolalari to‘g‘risida, birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo‘lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er(xotin)ga ta’minoti uchun mablag‘ to‘lash haqida nizo mavjud bo‘lsa nikohdan ajratish sud tartibida amalga oshiriladi.

Sudning er-xotindan birining bedarak yo‘qolgan deb topilganligi to‘g‘risidagi qarori bo‘yicha nikohdan ajratish er yoki xotindan birining turar joyidagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. Sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan shaxs qaytib kelganda uning murojaati bo‘yicha FHDYO organi unga ham nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beradi.

Oila kodeksining 47-moddasiga muvofiq nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarori nusxasi nikohdan ajratilganlik to‘g‘risidagi guvohnomaga tenglashtiriladi. Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, 10 kun ichida sud nikoh tuzilganligi ro‘yxatga olingan joydagi FHDYO organiga ushbu qarordan ko‘chirma yuborishi shart.

MDH mamlakatlari sudi tomonidan qonuniy kuchga kirgan qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan tuzilgan nikohni bekor qilish (qaror qachon chiqqanidan qat’i nazar) agar davlatlararo bitimda boshqa hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, arizachining turar joyidagi FHDYO organida qayd etiladi.

O‘limni qayd etish marhumning yashash joyi yoki o‘lim sodir bo‘lgan joydagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. O‘limni qayd etish to‘g‘risidagi ariza o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnoma berilgan vaqtdan boshlab 3 kundan kechikmay berilishi kerak. O‘limni qayd ettirish to‘g‘risida marhumning qarindoshlari yoki yaqin kishilari, shuningdek tibbiy muassasa ma’muriyati murojaat etishlari mumkin, ular o‘lim to‘g‘risida tibbiy guvohnoma va marhumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etadilar.

Chet elda vafot etgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining o‘limini qayd etish marhum yashab turgan yoki o‘lim sodir bo‘lgan joydagi konsullik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar o‘limni qayd etish marhumning yashash joyidan boshqa okrugda amalga oshirilsa, u holda o‘limni qayd etgan konsullik muassasasi marhum hisobda turgan konsullik muassasasiga uning familiyasi, ismi, otasining ismi, o‘lgan sanasi, shuningdek o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvining raqami va o‘lim qayd etilgan sana ko‘rsatilgan xabarnoma yuboradi.

Agar o‘limni qayd etishda marhumning homiysiz qolgan voyaga yetmagan bolalari borligi ma’lum bo‘lsa, u holda konsul shu kunning o‘zidayoq bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasiga xabar beradi.

O‘lim qayd etilgandan keyin marhumning hujjatlari diplomatik pochta orqali O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasiga jo‘natiladi. Marhumning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatining yo‘qligi o‘limni qayd etish uchun to‘siq bo‘la olmaydi, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi xabardor qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasalarida vafot etgan shaxslarning o‘limini qayd etish mazkur muassasa ma’muriyatining xabariga ko‘ra, vafot etgan kishining ozodlikdan mahrum qilingunga qadar doimiy yashagan joyidagi

yoki jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘limni qayd etishda marhumning pasporti, harbiy bileti, 16 yoshgacha vafot etganlarning esa tug‘ilganlik haqida guvohnomasi taqdim qilinadi. Bunda FHDYO organi xodimi (konsul) hujjatlarning birinchi sahifasiga o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvining raqami va sanasini yozadi.

Vafot etanlarning pasportlari va 50 yoshgacha vafot etganlarning harbiy biletlari har oyda bir marta, ro‘yxat bo‘yicha IIB va mudofaa ishlari bo‘limiga topshiriladi, tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar esa har chorakda bir marta, dalolatnoma asosida yo‘q qilinadi. O‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvi qayd etilgandan so‘ng o‘lim haqida gerbli guvohnoma yoziladi va arizachiga taqdim etiladi. Ayni bir vaqtda qabristonga taqdim etish uchun tegishli shakldagi ma’lumotnomalar beriladi.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o‘limini qayd etish sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnomasiga asosan shu muassasa joylashgan hududdagi FHDYO organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hollarda o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvidagi barcha ma’lumotlar o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnoma asosida ko‘rsatiladi va faqat qabristonga taqdim etish uchun ma’lumotnoma beriladi.

Shaxsning jamiyatdagi huquqiy holatini belgilash, uni fuqarolik va oila huquqining subyekti deb topish uchun muhim hisoblangan yuqoridagi faktlar davlatning tegishli organlari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining «huquqiy layoqati» va «muomala layoqati» tushunchalarining o‘zaro aloqadorligini aniqlab bering.
2. Muomalaga layoqatsiz fuqaroning shaxsini, huquq va manfaatlarini himoya qilish, uning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish hamda vasiylik va homiylikni belgilash tartibini aytib bering.
3. Fuqarolik holati hujjatlaridagi yozuvlarni tasniflang hamda ularni tuzatish va bekor qilish tartibini aytib bering.
4. Bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan fuqarolarning qayerdaligi aniqlangan yoki ular paydo bo‘lgan holatlarda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarni aytib bering.

3-MAVZU.
YURIDIK SHAXSLAR VA DAVLAT – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI

1. Yuridik shaxs tushunchasi, belgilari va turlari, uning huquq layoqati va muomala layoqati.
2. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi, qayta tashkil etilishi va tugatilish asoslari.
3. Davlat fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatidagi tushunchasi va xususiyatlari, uning fuqarolik huquq layoqati.

1. Yuridik shaxs tushunchasi, belgilari va turlari, uning huquq layoqati va muomala layoqati

Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida huquqiy munosabatlarda qatnashish va shunga asosan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati faqat fuqarolarga emas, balki yuridik shaxslarga ham davlatga ham beriladi. Chunki FKning 2-moddasida «Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo‘ladilar» degan norma belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonuni va 1997-yil 1-martdan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan vujudga kelgan mulk shakllariga ko‘ra «yuridik shaxs» maqomiga ega tuzilmalar, xususan, xo‘jalik shirkatlari, ochiq va yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari, unitar va qo‘shma korxonalar hamda firmalar tashkil etildi. Bu tuzilmalarning maqomini o‘rganish hozirgi paytda yuridik fan, xususan, fuqarolik huquqi oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning butun bir turkumi vujudga keltirilgan. Ularning har birida turli xo‘jalik yuritish shakliga ega bo‘lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o‘ziga xos ta’riflar, tushunchalar berilgan. Yuridik shaxslar to‘g‘risidagi huquqiy ma’lumotlarni FKda qo‘proq uchratish mumkin. Xususan, FKning 4-bobi yuridik shaxslarga bag‘ishlangan. Ushbu bob 3-paragraf va 39-78-moddalardan tashkil topadi. 1-paragraf umumiy qoidalardan (39-57-moddalar) iborat, 2-paragraf tijorat tashkilotlariga (58-72-moddalar), 3-paragraf tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga (73-80-moddalar) bag‘ishlanadi. Mazkur paragraflar moddalarida mantiqiy bog‘lanish

jihatdan talabga javob beradigan tartibda yuridik shaxs tushunchasi va turlari, yuridik shaxsning huquq layoqati, uning vujudga kelishi, ta'sis hujjatlari, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, uning organlari, nomi, vakolatxonalari va filiallari, yuridik shaxsning javobgarligi, qayta tashkil etilishi, tugatilishi, tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar tushunchasi, turlari va boshqa bozor munosabatlari talablariga javob beradigan hamda iqtisodiyotni boshqarishda demokratik tamoyillarni qo'llash uchun zarur bo'lgan qoidalar nazarda tutiladi.

FKning 39-moddasida esa ularning barchasini umumlashtirib yuridik shaxsga quyidagicha ta'rif beradi: «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi».

Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, har qanday tashkilot emas, balki muayyan belgilarga ega bo'lgan tashkilotlargina yuridik shaxs bo'la oladi. Ya'ni yuridik shaxslar:

1) tashkiliy birlik;

2) mulkiy mustaqillik;

3) mustaqil mulkiy javobgarlik;

4) fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy birlik – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishligini bildiradi.

Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishini ko'rsatadigan Nizomi yoki Ustavi bo'lishi kerak. Ba'zi davlat muassasalari va davlat budjetida bo'lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida Nizomga ega bo'lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy Nizom asosida ish olib borishlari mumkin. Bular sirasiga ichki ishlar organlarini ham kiritish mumkin. Chunki, ichki ishlar organlari tizimidagi barcha tuzilmalari alohida Nizomga ega emas.

Mulkiy mustaqillik – fuqarolik huquqining subyekti bo'lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o'ziga xos mulki bo'lishi, har qaysi davlat tashkilotining o'ziga biriktirilgan mulki bo'lishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak (FK, 39-m. 2-b.).

Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning Ustav doirasida aks ettiriladi. Davlat tashkilotlari davlatga qarashli mulkka nisbatan to‘la xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqigagina egadirlar. Kooperativlar va jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o‘zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mulkni egallaydi. Alohida mulkka ega bo‘lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo‘jalik munosabatlarida bo‘la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyekti bo‘lib hisoblanmaydi.

Mustaqil mulkiy javobgarlik – shundan iboratki, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli bo‘lgan (davlat tashkiloti esa, o‘ziga biriktirib qo‘yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo‘lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydilar. Davlat budjetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag‘ berish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning yuqori organi o‘ziga qarashli yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlarning qarzlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. Ammo yuridik shaxsning yuqori organi o‘ziga bo‘ysunadigan tashkilotning qarzlari uchun qonunda yoki Nizomda nazarda tutilgan hollarda javobgar bo‘lishi mumkin. *Masalan,* tuman IIBning shartnomaviy majburiyati bo‘yicha yuqori turuvchi viloyat IIB javobgar bo‘ladi. Quyi tashkilotlar ham o‘zlarining yuqori tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydilar.

Yuridik shaxslar o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo‘lmaganida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar (qo‘shimcha) javobgar bo‘ladi.

Fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilishi – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo‘lmagan huquqlarga ega bo‘la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi, demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo‘jalik sudida mustaqil ravishda da’vogar va javobgar bo‘la oladi.

Har bir yuridik shaxs o‘z firma nomiga ega bo‘lishi talab etiladi. Firma nomi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi. Shuningdek, yuridik shaxslar rasmiy nomda, ya’ni davlat nomida bo‘lishlari ham mumkin. Yuridik shaxslarga rasmiy nomni berishda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ruxsat beradi.

Yuridik shaxslarning turlari jamiyatda mavjud bo‘lgan mulk shakllariga bevosita bog‘liq. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy va ommaviy mulk shakllariga bo‘linadi, yuridik shaxslar davlatga tegishli va xususiy (nodavlat) yuridik shaxslardan tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasida aytilganidek, foyda olishni o‘z faoliyatining maqsadi qilib olgan (*tijoratchi tashkilot*) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (*tijoratchi bo‘lmagan tashkilot*) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

Tijoratchi yuridik shaxslar jumlasiga xo‘jalik shirkatlari, aksionerlik jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari va unitar korxonalar kiradi.

Tijoratchi bo‘lmagan yuridik shaxslarga jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va mulkdorlar tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasalar kiradi. Ammo, ta’kidlash joizki, tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar o‘z nizomida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug‘ullanishlari mumkin va albatta, bunday tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Yuridik shaxsning huquq layoqati uning muomala layoqati bilan bir vaqtning o‘zida birgalikda vujudga keladi, shu bilan u jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatini vujudga kelishidan farq qiladi. Shuning uchun ham FKda va fuqarolik qonun hujjatlarida yuridik shaxsning faqat huquq layoqati to‘g‘risida qoidalar nazarda tutiladi.

Yuridik shaxslarning huquq layoqati asosan maxsus va umumiy (universal) huquq layoqatiga bo‘linadi. Maxsus huquq layoqati deganda yuridik shaxs faoliyatini uning ta’sis hujjatlarida, ustavida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq amalga oshirilishi tushuniladi. Ustavda yuridik shaxs shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyatining turlari belgilangan bo‘ladi.

Umumiy huquq layoqati deganda yuridik shaxsning qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish, har qanday fuqarolik huquqiga ega bo‘lish va u bilan bog‘liq har qanday majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga olishi mumkinligi tushuniladi.

Tijorat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari asosan umumiy huquq layoqatiga ega. Faqat davlat korxonalari maxsus huquq layoqatiga ega. Ularning ustavida faoliyatning *turi va maqsadi* aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi (FK 70, 71, 72-moddalari).

Maxsus huquq layoqati tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar uchun ham taalluqli. Maxsus huquq layoqatiga rioya qilmasdan, yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy emas deb topilishi mumkin (FKning 125-moddasi). Masalan, bank, sug‘urta va shunga o‘xshash tashkilotlar

uchun qonun hujjatlarida belgilangan faoliyatning turlariga va maqsadiga to‘g‘ri kelmaydigan bitimlarni tuzishlari mumkin emas. Bunday tuzilgan bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi (FK 116-m.).

Yuridik shaxs o‘z faoliyatida o‘z ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo‘ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi (FK 41-m. 3-b.).

Yuridik shaxs hisoblangan tashkilot yoki korxona qatnashadigan munosabatlarning doirasi uning tashkil qilinish maqsadlari bilan hamda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning xarakteri bilan belgilanadi. Yuridik shaxs o‘zi qatnashadigan munosabatlarga qarab ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Shunday qilib, yuridik shaxsning huquq layoqati, unga maxsus yuklangan vazifalar bilan belgilanadi. Yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug‘ullanishi mumkin.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati ham fuqarolik muomala layoqatidan farq qiladi. Agar fuqarolarda huquq layoqatidan farq qilib, muomala layoqati muayyan yoshga yetgach vujudga kelsa, muomala layoqati yuridik shaxslarda huquq layoqati bilan bir vaqtda tashkil topadi. Shu bilan birga, fuqarolik muomala layoqatidan farq qilib yuridik shaxslarning muomala layoqatini cheklash va uni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas.

Yuridik shaxs o‘z ustavi yoki nizomi asosida harakat qiladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati, uning ustavi yoki nizomi tasdiqlangan paytdan boshlab yoxud tegishli vakolatli idora ushbu yuridik shaxsni tashkil etish haqidagi qaror chiqargandan keyin vujudga keladi. Yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi (FK 44-m. 4-b).

Umumiy qoida bo‘yicha, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari qonun talablari darajasida bo‘lsa, uni uch ish kunida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish lozim. Ayrim yuridik shaxslarni tashkil qilish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qonun bilan taqiqlab qo‘yilgan. Masalan, Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining maxfiy jamiyat va uyushmalarning tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Yuridik shaxsning ustavi yoki u haqdagi nizom shunday hujjatki, bunda uning faoliyati uchun yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan qoidalar mustahkamlanadi. Ustavda yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan yeri, tashkil bo‘lish maqsadi va tartibi, uning tashkiliy tuzilishi, a’zolarga ega bo‘ladigan tashkilot bo‘lsa, a’zolikka qabul qilish shartlari, mulkning tarkibi singari qator qoidalar belgilanadi.

Yuridik shaxsning organlari ham bo‘ladi. Yuridik shaxs qonun, ustav yoki nizom bo‘yicha belgilangan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi o‘z organlari orqali fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo‘ladi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati, ya’ni o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlarini olish layoqati, yuqorida ko‘rsatilganidek, ularning organlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning organlari qonun, ustav yoki nizomga muvofiq ravishda yuridik shaxsning erk-irodasini ifodalaydi va yuridik shaxs nomidan faoliyat olib boradi. Yuridik shaxslarning organlari yakka boshchilikka asoslanib, direktor, rais, boshqaruvchi yoki kollegial boshqaruv, vakillar majlisi, umumiy majlis (yoki yig‘ilish) singari tartibida boshqaradigan organ bo‘lishi mumkin.

Davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari, qoida bo‘yicha, yakka boshchilik asosida belgilanadi. Kooperativ va jamoat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari ikki turga: yakka (tartib) boshchilikka asoslangan (masalan, boshqaruv raisi) yoki kollegial tartibda boshqarishga asoslangan (masalan, a’zolarning umumiy majlisi, boshqaruvi) bo‘lishi mumkin.

2. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi asoslari

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida tashkilotlarning yuridik shaxs sifatida vujudga kelishi va tan olinishiga, shuningdek, ularning tugatilishiga bag‘ishlangan qoidalarga mutlaqo boshqacha mazmun berilgan. Ya’ni 1963 yildagi sobiq Grajdanlik kodeksining 25-moddasiga binoan yuridik shaxslarning vujudga kelishi uchun asos hisoblangan tartiblar ichida vakolatli davlat organlarining buyruqlari birinchi o‘rinda turardi. Amaldagi FKning 42-moddasida esa yuridik shaxs birinchi navbatda mulk egasi bo‘ladi yoki u vakolat bergan shaxsning erki, xohishi bilan vujudga keladi, uning ta’sischilari mulk egalari bo‘lishi yoki bo‘lmasligi nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, 1963 yilgi Grajdanlik kodeksiga binoan deyarli barcha yuridik shaxslarni tashkil qilish uchun ularning yuqori davlat boshqaruv idorasi tomonidan tasdiqlanishi majburiy bo‘lsa, amaldagi FKga binoan esa yuridik shaxs qonunda belgilangan

tartibda davlat idoralari tomonidan ro‘yxatga olinadi (ya’ni tasdiqlanmaydi) va o‘sha paytdan boshlab tashkil topgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibga ko‘ra yuridik shaxslar quyidagi usullarda vujudga kelishi mumkin:

1. *Buyruq (farmoyish) orqali.* Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IIV Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori bunga misol bo‘la oladi. Odatda, bunday usul bilan davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslar tashkil topadi.

Qolgan ikki usulda esa yuridik shaxslarning ta’sischisi, mulkdorlar yoki ular vakil qilgan shaxslar qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa tashkilotlar va fuqarolar hisoblanadi.

2. *Murojaat qilish usuli.* Bunda muassislar tomonidan tuziladigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyati qonun tomonidan oldindan belgilab qo‘yilmagan bo‘ladi. Binobarin, bunday hollarda davlat organi xuddi shunday yuridik shaxsning bo‘lish-bo‘lmasligi maqsadga muvofiqligini tekshiradi.

3. *Ruxsat olish usuli.* Bunday usulda tashkil topadigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyatlari qonunlarda oldindan belgilab qo‘yiladi va binobarin, ularning tashkil bo‘lish-bo‘lmasligi maqsadga muvofiqligi tekshirilmaydi, balki ta’sis hujjatlarining (yuridik shaxslarni tashkil etish haqidagi ta’sis shartnomasi va ularning ustavi) qonunga muvofiqligi tekshiriladi, xolos. Yuridik shaxs ta’sis shartnomasi ishtirokchilar tomonidan tuziladi, ustavi esa ro‘yxatga olinadi (nizomi tasdiqlanadi).

Ta’sis hujjatlarida yuridik shaxslarning tarkibi va vakolatlari, boshqa zaruriy ma’lumotlar bo‘lmog‘i kerak. Ta’sis shartnomasida ishtirokchilar yuridik shaxs faoliyatini amalga oshirishda vujudga kelgan foyda va zararni taqsimlash, yuridik shaxsni boshqarish tartibini belgilaydilar.

Yuridik shaxs murojaat qilish va ruxsat olish usullari orqali tashkil topganda, albatta, uni tashkil qiluvchilar tashabbuskor guruh bo‘ladi. Bu guruh fuqarolar (jismoniy shaxslar)dan ham, yuridik shaxslardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Ular muassislar yoki ta’sischilar deb ataladi. Ta’sischilar orasida davlat ham uning organlari bo‘lishi mumkin. Muassislar ko‘p hollarda yuridik shaxsning mol-mulkini vujudga keltirishga o‘z ulushini qo‘shadi. Bu ulushlar asosida ustav fondi tashkil topadi.

Fuqarolik qonun hujjatlarida «ta’sischi» va «muassis» atamalarining izohi hamda ular o‘rtasidagi farqli jihatlar berilmaydi. Ko‘p hollarda ayniqsa, keyingi paytda «ta’sischi» atamasi huquq normalarida deyarli

qo‘llanilmayapti. Yuridik shaxsni tashkil etayotgan shaxs (yoki shaxslar) huquq normalarida muassis (yoki muassislar) atamasi bilan nomlanmoqda. Bu holat esa o‘z o‘zidan kundalik hayotda ishlatilayotgan «ta’sischi» va «muassis» atamalarining bir xil ma’noga egaligini ifodalaydi.

Yuridik shaxs bekor bo‘lganida ularning tijorat turlarida, yuridik shaxs hamma kreditorlar bilan hisob-kitob qilganidan keyin mol-mulki muassislar o‘rtasida taqsimlab olinadi. Notijorat xarakteridagi yuridik shaxslarda esa qolgan mol-mulkka nisbatan muassislar haq-huquqqa ega bo‘lmaydilar. Yuridik shaxslarning davlat ro‘yxatidan o‘tishiga oid ma’lumotlar, shuningdek o‘ziga xos nomi davlat reyestriga kiritiladi.

Yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishni tashkil etishning maqsadga muvofiq emasligi haqidagi asos bilan uni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish faqat yuridik shaxslarni murojaat etish usuli bilan tashkil qilish tartibida qo‘llaniladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish rad etilganda sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytidan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Yuridik shaxsni qayta tuzish bu haqdagi tegishli qaror bilan amalga oshiriladi. Qarorda muassislarni shartnomaga qo‘shilish va shartnomadan chiqish tartibi kabilar ko‘rsatiladi. Odatda, tijoratchi yuridik shaxslarning ustavlari qonunda belgilangan tartibda tuman hokimliklarida davlat ro‘yxatiga olinadi. Jamoat birlashmalari maqomiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek yirik qo‘shma korxonalar, davlat tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar nizomlari maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan (Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirli-gi kabi) tasdiqlanadi. Respublikamiz hozirgi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida yuridik shaxslar ko‘pincha qayta tashkil etish yo‘li bilan bekor bo‘ladi. Qayta tashkil etish turli shakllarda jumladan, qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish shakllarida amalga oshirilishi mumkin (FK 49-m.).

Yuridik shaxs birlashganida ikki yoki bir necha tashkilot o‘zining mustaqil ravishda ish olib borishini bekor qiladi va yagona tashkilotga qo‘shiladi, ularning huquq va majburiyatlari yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi.

Yuridik shaxs bo‘linganda o‘z faoliyatini bekor qiladi va uning negizida ikki yoki bir necha yuridik shaxs paydo bo‘ladi hamda avvalgisining huquq va majburiyatlari yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o‘tadi.

Yuridik shaxsning qo‘shilishida uning huquq va majburiyatlari uni qo‘shib olayotgan yuridik shaxsga o‘tadi hamda qo‘shilgan yuridik shaxs o‘zining mustaqil ravishda faoliyat yuritishini to‘xtatadi. Ajralish shaklida

esa faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs tarkibidan mustaqil tashkilot ajralib chiqadi va alohida yuridik shaxs huquqini oladi.

Kooperativ jamoat tashkilotlarining birlashishiga, bo‘linishiga a’zolarning umumiy majlislari (yig‘ilishlari) va vakillari majlisi (yig‘ilish)ning qarori asosidagina yo‘l qo‘yiladi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari yoki o‘zlarining ustavlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslar qayta tashkil etilganida universal huquqiy vorislik vujudga keladi.

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.

Yuridik shaxsni tugatish – bu yuridik shaxsni davlat ro‘yxatidan chiqarib yuborish bilan uning huquq va muomala layoqatining tugatilishidan iborat.

Yuridik shaxsni tugatish, uni qayta tashkil etishdan farq qiladi. Ushbu farq FK 53-moddasining 1-qismida shunday deb ta’riflanadi: «Yuridik shaxsni tugatish, uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilishga olib keladi".

Demak, yuridik shaxs qayta tashkil qilinganda uning barcha huquq va majburiyatlari vorislik huquqi tartibida to‘la hajmda boshqa shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lsa, yuridik shaxsning tugatilishida bunday tartib qo‘llanilmaydi. Yuridik shaxsning tugatilishida vorislik huquqi qisman (singulyar) tartibda qo‘llanilishi yuz berishi mumkin. Tugatilayotgan yuridik shaxsning ayrim huquqlari qarzidan qutilishi evaziga uning kreditorlariga o‘tishi mumkin, kreditorlarning talablari qanoatlantirilganidan keyin mol-mulkidan qolgan qismi uning ta’sischilariga o‘tadi. Tugatilayotgan yuridik shaxsning qarzlari bo‘yicha javobgarlik subsidiar tartibda uning muassasalariga ham yuklatilishi mumkin (FK 48-m.).

FKning 53-moddasida yuridik shaxslarni tugatish asoslari quyidagicha belgilangan:

1. Yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta’sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan, yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida.

2. Yuridik shaxs faoliyati ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonun bilan taqiqlab qo‘yilgan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, shuningdek FKda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq tugatiladi.

3. FKning 57-moddasida aytilganidek, yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

Yuridik shaxs hisoblangan davlat korxonalarini tugatish uchun alohida tartib o‘rnatiladi, ularga nisbatan bankrotlik to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanilmaydi. Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin (FK 72-m.). Davlat korxonasi yagona davlat ro‘yxatida bu haqda tegishli yozuv kiritilganidan keyin tugatilgan deb hisoblanadi.

Yuridik shaxs tugatilayotganda, tugatish komissiyasi tayinlanadi. Tugatish komissiyasi yuridik shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi ma’lumotlar bosib chiqarilgan matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlar tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e’lon qiladi (FK 55-m.). Bu muddat tugatish haqida xabar e’lon qilingan paytdan boshlab ikki oydan kam bo‘lishi mumkin emas.

Yuridik shaxsni tugatilishi bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – bu yuridik shaxsning kreditorlari tomonidan belgilangan muddatda da’vo qo‘zg‘atishdan iborat. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu muddat ikki oydan kam bo‘lmasligi kerak. Ikkinchi bosqich – bu yuridik shaxs qarzdorlarining majburiyatlarini va uning kreditorlarining talablarini aniqlashdan iborat. Zarur bo‘lgan hollarda tugatilayotgan yuridik shaxsni qarzdorlariga nisbatan sudda da’vo qo‘zg‘atiladi. Tugatish komissiyasining topshirig‘iga asosan banklarda yuridik shaxsning hisob-kitobidan pullarni o‘tkazish to‘xtatiladi. Davlat korxonalarining kreditorlariga ularning talablarini kafolatlovchi huquqlar beriladi. FKda birinchi marta ularga o‘z talablarini undira olmagan qismini davlat korxonasining mulkdorlaridan undirib olish haqida sudga murojaat qilish uchun huquq beriladi.

Yuridik shaxs tugatilayotganida uning kreditorlarining qaysi talablarini birinchi galda qanoatlantirish zarurligi haqida turli fikr va tortishuvlar yuz berdi. FK loyihasining birinchi nusxasida birinchi galda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni undirish ko‘zda tutilgan edi. Lekin Mehnat kodeksida o‘rnatilgan tartibga monand bo‘lishi nuqtai nazardan mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarni undirish birinchi o‘ringa qo‘yiladi. So‘ngra alimentlarni

undirishga, mualliflik shartnomalari bo‘yicha mukofot to‘lash, fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablarga e’tibor berildi. Shuning bilan birga ushbu to‘lovlar oldindan kapitallashtirilgan bo‘lishi, ya’ni yuridik shaxs tugatilishidan oldin o‘z faoliyatini samarali amalga oshirish davrida kelajakda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yuqoridagi talablar hisobga olinib, ularni qanoatlantirish uchun maxsus jamg‘arma (fond) ajratilgan bo‘lishi nazarda tutiladi.

1994-yil 5-mayda O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun yangi tahrirda birinchi marta 1998-yil 28-sentabrda, ikkinchi marta 2003-yil 24-aprelda qaytadan qabul qilindi. Qonunda bankrotlik tushunchasi va uning alomatlari, uning sabablari va oqibatlari haqida qoidalar mavjud. Shunga qaramay, bankrotlik yuridik shaxs faoliyatiga bevosita taalluqli ekanligi hisobga olinib, Fuqarolik kodeksida bankrotlikka uchraydigan korxonalar kimlardan iborat bo‘lishi haqida qisqa aniqlik kiritildi. Bankrot deb hisoblanadigan korxonalar asosan yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lishlari kerak. Lekin ushbu qoida yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi va yuridik shaxs hisoblanmagan fuqarolarga taalluqli emas. Ular yuridik shaxs bo‘lmasalar-da, yuridik shaxs kabi bankrot deb hisoblanishlari mumkin (FK 26-m.). Shuning bilan birga yuridik shaxs bo‘lgan davlat korxonasining tugatilishi uni bankrot deb hisoblash yo‘li bilan emas, balki uni tashkil qilgan davlat organinig qaroriga asosan tugatiladi. Bankrot deb hisoblanadigan yuridik shaxs tijoratchi va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlardan iborat bo‘lishi mumkin. Tijoratchi bo‘lmagan matlubot kooperativlari va ijtimoiy fondlarni bankrot deb hisoblashning alohida qoidalari belgilandi. Yuridik shaxsni bankrot deb hisoblash sudning qarori hamda yuridik shaxsning o‘z kreditorlari bilan birgalikda bu haqda e’lon qilishi bilan amalga oshiriladi.

FKning 67-moddasiga asosan, yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

3. Davlat fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatidagi tushunchasi va xususiyatlari, uning fuqarolik huquq layoqati

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, mustaqil davlat hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmasdir. Shunga ko‘ra, davlat – fuqarolik-huquqiy munosabatda yakkayu-yagona subyekt deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan teng huquqli ishtirokchi hisoblanadi. Biroq u oliy hokimiyat –

suverenitet sohibi bo‘lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida muayyan xususiyatlarga ega.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil deb e’lon qilinishi, uning xalqaro huquq subyekti, mustaqil suveren davlat sifatida tan olinishi o‘z mulkini o‘zi mustaqil ravishda tasarruf qilish imkonini berdi. Boshqaruvning bozor munosabatlariga o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi endilikda iqtisodiy aloqalarning turlari va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega.

Davlat va uning tegishli tuzilmalari (munitsipialitetlari)ning fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarida ishtirok etishidan asosiy maqsad ular o‘z oldida turgan umummilliy, ijtimoiy (mintaqa va mahalliy) ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifalarni hal qilish va mulkiy munosabatlarda ishtirok etishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan obyektlardan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali hamkorlik o‘rnatishga hamda bu hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy harakatlarni ro‘yobga chiqarish uchun foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 21-fevraldagi farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining yagona tashqi iqtisodiy siyosatini o‘tkazish, tashqi bozorda umumdavlat manfaatlarini ta’minlash, chet mamlakatlar bilan iqtisodiy, texnikaviy va savdo sohasida hamkorlik samaradorligini oshirish hamda bu sohada boshqaruvni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro miqyosda samarali ishlarda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga zarur shart-sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar va fuqarolarning huquq hamda manfaatlarini ta’minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bevosita o‘zaro foydali aloqalar o‘rnatish maqsadida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar huzurida O‘zbekiston Respublikasining savdo vakolatxonalari ta’sis etildi. Bu vakolatxonalar o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, tegishli nizomga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining vakolatxonasi joylashgan davlatlar ishtirokidagi xalqaro shartnomalarga amal qiladi.

Chet el vakolatxonalari to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish borasida fuqarolik huquqining mustaqil subyekti sifatida mamlakat ichida va xorijda chet davlatlar hamda boshqa subyektlar bilan bo‘ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashib, o‘z nomidan harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1–3-moddalarida aytilganidek, O‘zbekiston – suveren demokratik respublika bo‘lib, o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi hamda ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan teng huquqli ishtirokchi hisoblanadi.

Davlat, *birinchidan,* fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida mazkur subyektlar amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi;

ikkinchidan, fuqarolik huquq va burchlari qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hujjatlaridan vujudga keladi (FK 8-m., 2-q. 2-b.);

uchinchidan, davlat immunitetidan foydalanadi;

to‘rtinchidan, huquq va muomala layoqatini cheklash bo‘yicha boshqa subyektlarga taalluqli qoidalar davlatga tatbiq etilmaydi. Biroq, ayni paytda, davlatning huquqlari ham mutlaq cheksiz emas. Masalan, davlat alohida xususiyatlarga ega subyekt bo‘lganligi bois shaxsiy huquqlarga ega bo‘la olmaydi;

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi davlati – mamlakatning ichki oborotida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodekning 79-moddasiga asosan, davlat – fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etadi.

Davlatning mamlakat ichki oborotidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) davlatga qarashli mol-mulkka nisbatan mulkdor sifatida harakat qiladi;

b) egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum bo‘lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi va u sud qarori bilan davlat egaligiga o‘tkaziladi (FK 191-m.);

d) Fuqarolik kodeksi 193-moddasining 2-qismiga binoan ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o‘tadi;

e) har bir fuqaro vasiyat bo‘yicha o‘zining butun mulkini yoki uning bir qismini davlatga meros tariqasida vasiyat qilib qoldirishi mumkin (FK 1120-m.);

g) O‘zbekiston Respublikasi davlati huquq subyekti sifatida ba’zi fuqaroviy-huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan kredit munosabatlarida,

masalan, davlat zayomi obligatsiyalarini sotish yoki qarz shartnomasida ishtirok etishi mumkin;

h) tabiiy ofatlar, avariyalar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tusdagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to‘lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo‘yilishi mumkin (rekvizitsiya). Rekvizitsiya o‘tkazilishiga sabab bo‘lgan vaziyatlarning amal qilishi to‘xtatilganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o‘ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli (FK 203-m.);

i) qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o‘zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to‘lamasdan mulkdordan olib qo‘yilishi (musodara qilinishi) mumkin (FK 204-m.);

j) davlat ba’zi hollarda: mualliflikka oid huquqiy munosabatlarda asarni nashr etish huquqini sotib olganida, ixtirolik munosabatlarida yoxud ixtiroga bo‘lgan patentni sotib olganda, huquq subyekti sifatida ishtirok etishi mumkin. Bunday huquqiy munosabatlar natijasida olingan daromadlar ham davlat budjetiga o‘tkaziladi;

y) davlat chet el mamlakatlarida ko‘chmas mulk sotib olishi mumkin va hokazo.

Davlat o‘zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo‘yicha o‘z mulki bo‘lgan mablag‘lari bilan javob beradi.

Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari hamda ularning maxsus vakili bo‘lgan boshqa organlar ishtirok etadilar.

Mamlakat ichidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, ya’ni uning ichki oborotida davlat nomidan aksariyat hollarda O‘zbekiston Respublikasining tegishli vazirliklari yoki davlat qo‘mitalari qatnashadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlati nomidan harakat qiladi. Davlat nomidan harakat qiluvchi organlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish qo‘mitasi, Moliya vazirligi hamda Markaziy Bank alohida mavqega ega. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi 1991-yil 19-noyabr qonuniga binoan u:

– davlat nomidan davlat mulkini idora etadigan va boshqaradigan organ sifatida ishtirok etadi;

– mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bog‘liq munosabatlarni davlat nomidan amalga oshiradi;

– xususiylashtirish to‘g‘risidagi bitimlarni tuzadi;

– xususiylashtirish va ijaraga berish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa huquqiy munosabatlarni amalga oshiradi.

Davlat idoralarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Davlat nomidan muayyan organ harakat qiladi va davlat uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi (Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining chet el kompaniyalari bilan tuzadigan shartnomalari bunga misol bo‘la oladi).

2. Davlat organi fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qiladi.

Davlat ba’zi hollarda, fuqarolik huquqi subyekti sifatida o‘zining mansabdor shaxslari yoki organlari tomonidan yetkazilgan mulkiy zararni to‘lashda javobgar bo‘ladi (masalan, dastlabki tergov, prokuratura, sud organlari mansabdor shaxslarining fuqarolarga nisbatan g‘ayriqonuniy harakatlari natijasida ularga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 15-moddasida aytilganidek, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan to‘lanishi kerak.

FKning 80-moddasiga binoan davlat o‘zi tuzgan yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari). Davlat majburiyati yuzasidan yuridik shaxs ham javobgar bo‘lmaydi. Ushbu qoidalar davlat tuzgan shartnoma asosida yuridik shaxsning majburiyatlari bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergan) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergan) hollarga taalluqli emas.

Xulosa qilib aytganda, davlat bevosita turli mulkiy va majburiyat huquqiy munosabatlarida o‘zi va uning tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar orqali ishtirok etadi. Masalan, davlat nomidan chiqariladigan obligatsiyalar, sotiladigan qimmatbaho qog‘ozlar, jumladan, aksiyalar bo‘yicha davlatning o‘zi fuqarolik huquqiy munosabatlarida ishtirok etadi; davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, pudrat shartnomasi

bo‘yicha majburiyatlarda davlatning o‘zi va uning yuridik shaxslari ishtirok etadi; davlatlararo savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlarda, shuningdek, davlat mol-mulkini xususiylashtirish bo‘yicha shaxsan davlatning o‘zi yoki u vakil qilgan davlat hokimiyati yoinki davlat boshqaruv organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarida qatnashadilar; davlatga tegishli mol-mulk (obyektlar)ni kim oshdi savdosi bo‘yicha viloyat, tuman hokimliklari tasarruf etadilar; vakolatli davlat organinig davlat mulki bo‘lgan mol-mulkka nisbatan ishonchli boshqarish majburiyatida ishtirok etishi; davlat budjeti mablag‘lari hisobidan majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha majburiyatlar olishi; lotereyalar, totalizatorlar va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarda davlat tomonidan o‘tkazilishi bo‘yicha majburiyatlarda ishtirok etishi; patent bilan bog‘liq mualliflik munosabatlarida davlat yuridik shaxslarning ishtirok etishi; mol-mulkka nisbatan meros munosabatlarida davlatning va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtirok etishi; davlat va davlat organlarining zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlari va h.k. Demak, davlat fuqarolik huquqi subyekti sifatida fuqarolik muomalasida bevosita o‘zi yoki o‘zi tashkil etgan yuridik shaxslar orqali ishtirok etadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqatini aniqlashda Ustav (Nizom)ning huquqiy ahamiyatini aytib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy munosabatlarda fuqarolik huquqining subyekti sifatida qanday ishtirok etishini tushuntiring.
3. Yuridik shaxslarning turlarini sanab o‘ting.
4. Yuridik shaxslarning maxsus huquq layoqatini tushuntirib bering.

4-MAVZU.
FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTLARI. BITIMLAR

1. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi va turlari.
2. Fuqarolik huquqining obyektlari hisoblangan moddiy va nomoddiy ne'matlar tasnifi.
3. Bitim tushunchasi, turlari, shakllari va tasnifi.

1. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi va turlari

Ma'lumki, ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy hayotning o'sib borishi hamda bozor iqtisodiyotining shiddatli rivoji fuqarolik huquqi obyektlari doirasini ham doimiy ravishda kengaytirib va chuqurlashtirib bormoqda. Misol tariqasida ilgarigi sobiq ittifoq tuzumi davrida intellektual mulklarni yoki insonning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si bilan bog'liq huquqlarini fuqarolik huquqining obyekti sifatida tan olinmaganligi va bugungi kunda esa amaldagi FKda alohida fuqarolik huquqining obyekti sifatida o'rin olganligini aytish mumkin.

Huquq nazariyasidan ma'lumki, huquqiy munosabatlarning obyekti huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan narsalardir. Shunga ko'ra, fuqarolik huquqining obyektiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: fuqarolik huquqi subyektlarining harakatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, huquq va majburiyatlar nima ustida belgilansa, shu narsalar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Akademik H.Rahmonqulovning ta'kidlashicha: shaxsning muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi ne'matlarga yo'naltirilgan fuqarolik huquqi subyektlarining harakatlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti deb hisoblanadi[1].

Fuqarolik huquqining obyektlari fuqarolarga, yuridik shaxslarga va fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida davlatga tegishli bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasida fuqarolik huquqining obyektlari ro'yxati keltirilgan bo'lib, ularga:

– ashyolar, pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar;

– ishlar va xizmatlar;

---

[1] *Раҳмонқулов Ҳ. Р.* Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари: Дарслик.1-қисм. – Т., 2010. – Б. 291.

– ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san’at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari;

– shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi.

Boshqacha aytganda, jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi va tasarruf etishini amalga oshira oladigan, erkin suratda olish, sotish huquqi va odob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki taqiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va qimmatliklar, shuningdek qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining obyekti bo‘la oladi. Fuqarolik huquqi obyektlarini xususiyatlari va belgilariga ko‘ra bir necha turlarga yoki guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, moddiy ko‘rinishdagi obyektlar (mol-mulk va ashyolar) va moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan obyektlar (ishlar va xizmatlar, axborot, shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa sh.k.) sifatida guruhlashtirish mumkin. Ammo, fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada bo‘lish-bo‘lmasligi qarab muhim xususiyatini belgilash va ularni aniqlash fuqarolik huquqida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihati (xususiyati)ga ko‘ra fuqarolik huquqi obyektlarini quyidagicha farqlash mumkin:

– erkin muomaladan chiqarilgan obyektlar (masalan: yer, yer osti boyliklari, madaniy va tarixiy boyliklar, budjet mablag‘lari va sh.k.). Ular sotilishi, garovga qo‘yilishi, hadya qilinishi mumkin emas. Ularga nisbatan mulkiy huquqlar alohida qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ta’kidlash o‘rinliki, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan obyektlarga nisbatan mulk huquqi har doim davlatga tegishli bo‘ladi;

– muomalada bo‘lishi cheklangan obyektlar (masalan, o‘qotar qurollar, ayrim dori-darmonlar, muhr va sh.k.) alohida ruxsat bilan olinishi, sotilishi mumkin. Ulardan foydalanish hamda ularni saqlash tartibi ham tegishli hujjatlar bilan belgilab qo‘yiladi. Masalan, ov qurolini maxsus ruxsatnoma asosida olgan shaxs, ov qurolini saqlash va undan foydalanish qoidalari bilan mukammal tanishgan bo‘lishi talab etiladi;

– erkin muomaladagi obyektlar. Ular turli-tuman bo‘lib, erkin, ya’ni ushbu obyekt egasining erk-irodasi, xohishi bilan sotilishi, ayirboshlanishi, hadya qilinishi, meros qilib qoldirilishi, garovga qo‘yilishi mumkin. Erkin muomaladagi obyektlar doirasi muomaladan chiqarilgan va muomalada bo‘lishi cheklangan obyektlarga qaraganda son va hajm jihatdan ham kengdir. Boshqacha aytganda, qonun bilan muomaladan chiqarilmagan va muomalada bo‘lishi cheklanmagan obyektlarning barchasini erkin muomaladagi obyektlar sirasiga kiritsa bo‘ladi.

Fuqarolik huquqining obyektlarini FKning umumiy mazmuniga koʻra asosan ikki turga ajratish mumkin, bular:

– *moddiy ne'matlar* (ya'ni, moddiy-ashyoviy koʻrinishda boʻlgan, muayyan qiymatga ega boʻlgan);

– *nomoddiy ne'matlar* (ya'ni, moddiy-ashyoviy koʻrinishda boʻlmagan).

Moddiy ne'matlar moddiy shaklga ega boʻlgan jonli va jonsiz ashyolar va buyumlar tushunilsa, *nomoddiy ne'matlar* esa koʻp hollarda moddiy koʻrinishga ega boʻlmagan va shaxsdan begonalashtirilishi yoki boshqa birovga oʻtkazilishi mumkin boʻlmagan ne'matlar tushuniladi.

Moddiy ne'matlarning turlari juda koʻp boʻlib, ularni xususiyatiga koʻra bir necha turlarga boʻlish mumkin. Xususan, Fuqarolik kodeksida moddiy ne'matlarga quyidagi moddalar bagʻishlangan: 1. Mol-mulkning turlari (FK 83-m.); 2. Koʻchmas mol-mulkni davlat roʻyxatidan oʻtkazish (FK 84-m.); 3. Korxona (FK 85-m.); 4. Ashyolarning tasnifi (FK 86-m.); 5. Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar (FK 87-m.); 6. Boʻlinadigan va boʻlinmaydigan ashyolar (FK 88-m.); 7. Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar (FK 89-m.); 8. Asosiy va mansub ashyolar (FK 90-m.); 9. Murakkab ashyolar (FK 91-m.); 10. Hosil va daromadlarga boʻlgan huquq (FK 92-m.); 11. Hayvonlar (FK 93-m.); 12. Pul (valuta) (FK 94-m.); 13. Valuta qimmatliklari (FK 95-m.); 14. Qimmatli qogʻozlar (FK 96-m.).

Moddiy ne'matlar sifatida mol-mulk asosiy turlarining roʻyxati FKning 83-85 – moddalarida keltiriladi. Ushbu roʻyxatda 83-moddaning 3-qismida koʻrsatib oʻtilganidek, mol-mulkning barcha turlari toʻliq koʻrsatilgan deb boʻlmaydi. Mol-mulkning turlari har xil va juda ham koʻp, ularni bitta roʻyxat bilan toʻliq qamrab olishning iloji yoʻq. Shuning uchun ushbu moddaning 3-qismida moddiy ne'matlar qatoriga boshqa mol-mulklar kiritilishi mumkinligi haqidagi qoida nazarda tutilgan. Shunday qilib, moddiy ne'matlar deganda fuqarolik huquqi subyektlarining faoliyat obyekti va ularning moddiy va boshqa ehtiyojlarini qanoatlantirish mumkin boʻlgan va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning tarkibiga kiritilgan barcha moddiy predmetlar va boshqa boyliklar, qimmatliklar, jumladan, ashyolar va moddiy shakldagi ishlar va xizmatlar tushuniladi.

Nomoddiy ne'matlar fuqaro tugʻilishi bilan ega boʻladi yoki qonun boʻyicha tegishli boʻlgan shaxsning hayoti, sogʻligʻi, sha'ni, shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmati va pok nomi, kasb-kor nufuzi, xususiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va ommaviy sirlari, erkin koʻchib yurish, turish va

yashash joyini tanlash, mualliflik va boshqa shaxsiy mulkiy huquqlari nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan begonalashtirilmaydi yoki boshqacha tarzda boshqa birovga o'tkazilishi (berilishi) mumkin emas. Ayni vaqtda qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda marhumga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining merosxo'rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkinligini ham qonun nazarda tutadi. Masalan, fuqaroning vafotidan so'ng uning merosxo'rlari uning pok nomi tiklanishini yoki unga nisbatan chiqarilgan sudning oqlov hukmi e'lon qilinishini talab qilish huquqlari vujudga keladi.

FKning 8-bobi nomoddiy ne'matlarga bag'ishlangan. Nomoddiy ne'mat fuqarolik huquqi obyektlarining alohida guruhini tashkil etadi.

Nomoddiy ne'matlar deganda, qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan hamda egasini (sohibini) shaxsidan ajratish mumkin bo'lmagan ne'matlar va erkinliklar tushuniladi.

Nomoddiy ne'matlar FKning 99-moddasida bayon etilgan. Unga ko'ra: shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug'ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlardan iborat.

FKning quyidagi moddalari nomoddiy ne'matlarning quyidagi turlarini alohida e'tirof etadi:

– intellektual faoliyat natijalari (FK 97-m.);

– xizmat va tijorat siri (FK 98-m.);

– shaxsiy nomulkiy huquqlar (FK 99-m.).

Nomoddiy ne'matlarning bir qismi, ya'ni intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat sirlari iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, tovar shakliga kiradi va mulkiy muomalada mutlaq huquqlar obyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa fuqarolik muomalasida o'ziga xos tarzda, tovar shakliga kirmagan va iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan holda namoyon bo'ladi.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda huquqshunoslar ishlar va xizmatlarni ham moddiy ko'rinishda bo'lmagani sababli nomoddiy ne'matlar guruhiga kiritadilar. Ushbu fikrni ham garchi FKning 8-bobida nazarda tutilmagan bo'lsa ham, shartli ravishda qabul qilish mumkin. Keyingi vaqtlarda axborot fuqarolik huquqining alohida obyekti sifatida e'tirof etilmoqda.

Axborot fuqarolik huquqining moddiy yoki nomoddiy ko‘rinishdaligi masalasi olimlar tomonidan bahs munozaraga sabab bo‘lmoqda. Nazarimizda axborot qanday shaklda yetkazilmasin (internet orqali, ommaviy axborot vositalari orqali yoki reklamalar orqali) uning nomoddiy ko‘rinishi birlamchi xususiyatga ega bo‘lib qolaveradi.

Fuqarolik huquqida obyektlar to‘g‘risidagi ta’limotlar va ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar o‘ta dolzarb va ahamiyatlidir. Fuqarolik huquqining obyektlari turlari xar xil va juda ham ko‘p, ular kundalik ijtimoiy hayotning mazmunini tashkil etadi, xususiyatlariga qarab tegishli axloqiy va huquqiy qoidalar vositasida tartibga solinadi va himoya qilinadi.

Bugungi rivojlangan sivilistika fani nazariyasida fuqarolik huquqining obyekti va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti tushunchalari farqlanishi kerakligi to‘g‘risidagi fikrlar mavjud. Akademik H. Rahmonqulov moddiy yoki nomoddiy ne’matlar bevosita fuqarolik huquqlari obyekti emas, balki ushbu obyektlar tufayli vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti bo‘lishi mumkin degan fikrni aytadi[1]. Darhaqiqat fuqarolik huquqi normalari subyektlar harakatlarini tartibga solar ekan, demak ushbu hatti-harakatlar fuqarolik huquqining obyekti degan tushuncha to‘g‘ridir.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, fuqarolik huquqining obyektlari doirasi jamiyatning taraqqiy etib borishi va bozor munosabatlarining takomillashib borishi oqibatida kengayib boraveradi. Sivilistlar tomonidan u yoki bu narsaning fuqarolik huquqining obyekti sifatida e’tirof etilishi to‘g‘risidagi bahs munozaralar hali hanuz yakun topmaydi.

2. Fuqarolik huquqining obyektlari hisoblangan moddiy va nomoddiy ne’matlar tasnifi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 3-kichik bo‘limi «Obyektlar» deb nomlanib, uning 7-bobi «Moddiy ne’matlar» va 8-bobi esa «Nomoddiy ne’matlar» deb nomlangan. FKda fuqarolik huquqi obyektlarini moddiy va nomoddiy ne’matlar sifatida turlarga ajratilishi bejiz emas. Chunki, fuqarolik huquqi subyektlarining o‘zaro munosabatlarida obyektning yoki mol-mulkning moddiy va nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari moddiy va nomoddiy ne’matlarga

[1].*Раҳмонқулов Ҳ.Р.* Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари: Дарслик. 1-қисм. –Т., 2010. – Б. 295–296.

nisbatan mulk huquqini amalga oshirish, ya’ni unga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish tartibi ham bir xil mazmunga ega deb bo‘lmaydi.

Insoniyat tarixida moddiy ne’matlar shaxslar o‘rtasidagi aloqalarning, bugungi tilimiz bilan aytganda fuqarolik muomalasining dastlabki obyektlaridan bo‘lgan. Boshqacha aytganda moddiy ne’matlar nomoddiy ne’matlarga qaraganda ancha oldin fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida jamiyat tomonidan e’tirof etilgan. Keyinchalik esa jamiyatning rivojlanishi, insoniyatning taraqqiy etib borishi nomoddiy ne’matlarni mulk sifatida e’tirof etish tushunchalarini paydo qilgan.

Moddiy va nomoddiy ne’matlarni bir biridan ajratish yoki farqlash unchalik murakkab bo‘lmasa-da u bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini alohida ekanligini ta’kidlash kerak. Shuningdek, moddiy ne’matlarga zarar yetkazilganda zararni aniqlash masalasi unchalik murakkab emasligini, ammo nomoddiy ne’matlarga yetkazilgan zararni aniqlash jarayoni esa ancha munozarali ekanligini e’tirof etish lozim.

Fuqarolik huquqining moddiy obyektlari ichida ashyolar alohida ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik huquqining moddiy ko‘rinishga ega obyektlaridan biri bo‘lgan *ashyolar* muayyan moddiy qiymatga ega hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo‘la oladigan narsalardir. *Ashyolar* xalq farovonligi uchun hamda respublika fuqarolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Fuqarolik huquqida jonli narsalar ham (masalan, uy hayvonlari), jonsiz ashyolar ham (masalan, uy-joylar, ishlab chiqarish qurollari, asbob-uskunalar, kiyim-kechak va boshqa narsalar) insonlarning yashashi uchun birdek muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik huquqi fanida ashyolar huquq normalarida aks ettirilgan shakli, xossasi va boshqa xususiyatlariga qarab bir necha turlarga bo‘linadi (tasniflanadi). Ashyolarning muayyan xususiyatlariga qarab ham maxsus qoidalar belgilanishi mumkin. Masalan, o‘z xususiyatlari bo‘yicha tevarak-atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan ashyolar (portlovchi moddalar, qattiq ta’sir qiluvchi zahar kabilar) to‘g‘risida alohida qoidalar belgilangan. Bunday ashyolarni erkin olish-sotishga yo‘l qo‘yilmaydi. Muomalada bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydigan fuqarolik huquqi obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak (masalan, O‘zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonuni 19-moddasining 1-bandida ko‘rsatilgan va O‘zbekiston Respublikasining mutlaq mulki hisoblanuvchi obyektlar).

Muayyan muomala ishtirokchilariga qarashli bo‘lgan yoki muomalada bo‘lishga maxsus ruxsatnoma bilan yo‘l qo‘yiladigan (muomalada harakati

cheklangan obyektlar) fuqarolik huquqi obyektlarining turli qonunlarida ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi (masalan, yopiq tipdagi aksionerlik jamiyatining aksiyalari fond birjasida erkin sotilishi mumkin emas, ov miltig‘i faqat ruxsat olish va ro‘yxatdan o‘tish tartibida jismoniy shaxs egaligiga o‘tishi mumkin va hokazo). Shu sababli, qonunda ashyolar birinchi navbatda, muomalada harakat qilish xususiyatiga qarab farqlanadi. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolar va tashkilotlar egaligida bo‘lishi mumkin emas. Yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar davlatga xos mulk bo‘lganligidan ular faqat foydalanishga berilishi mumkin. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolar yoki boshqa tashkilotlarga sotilishi mumkin emas. Bu ashyolar garovga qo‘yilmaydi va kreditorlarning talabini qondirish uchun ular hisobidan haq undirilmaydi.

Fuqarolik huquqining moddiy obyektlaridan yana biri valuta qimmatliklaridir. *Valuta qimmatliklari:* chet el valutasi (banknotlar, qog‘oz pullar, tanga-chaqalar); chet el valutasi hisobida yozilgan to‘lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar) hamda qimmatliklar (aksiya, obligatsiya va boshqalar); bankning chet el valutasi sotib olinadigan va shunday valutaga almashtirish huquqiga ega so‘m hisobidagi to‘lov hujjatlari (cheklar va boshqalar); har qanday shakl va holatdagi qimmatbaho metallar: oltin, kumush, platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy); xom va ishlangan shakldagi qimmatbaho tabiiy toshlar (olmos, gavhar, la’l, zumrad, yoqut, marvarid va boshqalar) faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va doiralarda oldi-sotdi buyumi bo‘lishi mumkin. Mazkur qimmatbaho metall yoki toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlar hamda shunday buyumlarning siniq parchalari bundan mustasno.

Fuqarolik muomalasida moddiy obyektlarning doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ular jumlasiga, eng avvalo, xilma-xil iste’mol buyumlari ham kiradi. Ular:

Iste’mol qilinadigan va iste’mol qilinmaydigan ashyolar. Bir karra foydalanish natijasida yo‘qolib ketadigan yoki dastlabki holatida mavjud bo‘lmay qoladigan narsalar (yoqilg‘i, oziq-ovqat mahsulotlari, xom ashyo kabilar) iste’mol qilinadigan ashyolar hisoblanadi. Qayta-qayta foydalanishga mo‘ljallangan, bunda o‘zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari) istemol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi (masalan, binolar, uskunalar, transport vositalari kabilar) ajralib turadigandir.

Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar. Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar jumlasiga noyob, ya'ni bir dona bo‘lgan ashyolar, shuningdek muayyan usul bilan ajratib qo‘yilgan ashyolar (muhr bosish, alohida belgi tushirish nomer, raqam berish va sh. k.) kiradi.

Turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolar o‘lchov va og‘irlik darajasi bilan ko‘rsatiladigan, boshqasi bilan almashtirsa bo‘ladigan narsalardir. Masalan, 100 dona shifer, 100 metr chit, 100 tonna paxta, 50 qop bug‘doy, 50 kg un va hokazo.

Bo‘linadigan va bo‘linmaydigan ashyolar. Bo‘lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarini o‘zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o‘zining xo‘jalik (maqsadli) ahamiyatini yo‘qotmaydigan ashyo bo‘linadigan ashyo hisoblanadi (bir qop kartoshka, bir bidon paxta yog‘i, 100 litr benzin).

Bo‘lish natijasida qismlari dastlabki ashyoning xossalarini yo‘qotadigan, uning xo‘jalik (maqsadli) ahamiyatini o‘zgartiradigan ashyo bo‘linmaydigan ashyo hisoblanadi (shkaf, stol, televizor va hokazo) (FK 88-m.).

Ashyolarning *asosiy va mansub ashyolarga* bo‘linishi ham huquqiy ahamiyatga egadir. Mansub ashyo deb asosiy ashyoga xizmat qilishga mo‘ljallangan va u bilan umumiy xo‘jalik maqsadi (FK 90-m.) orqali bog‘liq bo‘lgan ashyolarga aytiladi. Masalan, asosiy ashyo qulf bo‘lsa, unga mansub ashyo kalitdir. Mansub ashyo, agar qonunlar yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, asosiy ashyoning taqdiriga bog‘liq bo‘ladi. Chunki asosiy ashyoga oid shartlar mansub ashyoga ham tegishlidir. Masalan, asosiy ashyo birovning egaligiga yoki vaqtincha foydalanishiga o‘tsa, mansub ashyo ham u bilan birga o‘tadi. Ammo qonun yoki shartnomada boshqacha hollar ham belgilanishi mumkin, ya'ni asosiy ashyo birovga o‘tkazilganida, mansub ashyoning qoldirilishi to‘g‘risida alohida kelishuv ham bo‘lishi mumkin. Mansub ashyodan uning tarkibiy qismini ajratish kerak. Ashyoga zarar yetkazmay va qiymatini keskin tushirmay ajratish mumkin bo‘lmagan har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar, velosipedning nasosi mansub ashyo bo‘lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Murakkab ashyolar. Agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo‘yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada

boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, uning barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo‘ladi (FK 91-m.).

Hosil va daromadlarga bo‘lgan huquq. Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, ashyo egasiga tegishlidir (FK 92-m.). Jumladan, Fuqarolik kodeksining 230-moddasida mulkni birovlarning qonunsiz egallashidan talab qilib olishda daromad va xarajatlarning to‘lanishi ham talab qilishga aytiladi.

Pul va qimmatli qog‘ozlar. Pul fuqarolik huquqining obyekti bo‘lib, mamlakat xo‘jalik iqtisodiy hayotida, (xususan savdoda) katta ahamiyatga ega. Pul o‘zining uzoq yillik tadrijiy rivojlanishida, mol, zaytun yog‘i, oltin va kumush yombisi ko‘rinishidagi ayirboshlash vositalaridan hozirgi elektron pullar va kredit kartochkalariga qadar murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Pul bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida»gi 1994-yil 16-iyun farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi, «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabr qaroriga muvofiq, 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

Yuqoridagi Farmonning 4-bandiga muvofiq 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida so‘m qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi. So‘m va tiyinlar O‘zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, barcha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha turdagi to‘lovlarga, shuningdek banklar tomonidan omonatlar va hisob varaqalariga qo‘shib qo‘yish uchun hech qanday cheklovlarsiz qabul qilinishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida pul muomalasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir qator qarorlar qabul qildi. «Muomaladagi naqd pullarni kamaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1994-yil 12-iyul, «O‘zbekiston Respublikasi milliy valutasining ichki erkin almashuvini ta’minlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1994-yil 23-iyul qarorlari shular jumlasidandir.

Pul har xil bitimlar (masalan, oldi-sotdi shartnomasi, qarz shartnomasi va boshqa shartnomalar) predmeti bo‘lib, xalq xo‘jaligida, shuningdek fuqarolik-huquqiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov aytganidek, «milliy valuta – milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir».

Pul (valuta), valuta qimmatliklari to‘g‘risidagi qoida Fuqarolik kodeksining 94–95-moddalarida berilgan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 96-moddasida ko‘rsatilganidek, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar *qimmatli qog‘ozlar* hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan barcha huquqlar ham o‘sha shaxsga o‘tadi.

Qimmatli qog‘ozlar jumlasiga, Fuqarolik kodeksi 96-moddasining 3-qismida ko‘rsatilganidek, obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, konosament, aksiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

Aksiyalar, obligatsiyalar va xazina majburiyatlarida aks ettiriladigan rekvizitlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, depozit sertifikatlari va veksellarda aks ettiriladigan rekvizitlarni esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi. qimmatli qog‘ozlarda egasining nomi yozilgan va «taqdim etuvchiga tegishli» deb ko‘rsatilishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar muomalasi deganda, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan tartibda qimmatli qog‘ozlarning egasi tomonidan uni sotib olish va sotish, almashtirish bilan bog‘liq boshqa harakatlar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qimmatli qog‘ozlarni (depozit sertifikatlari va veksellardan tashqari) muomalaga chiqarish hamda ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlaydi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda belgilangan tartibda ro‘yxat raqamini olgan qimmatli qog‘ozlargina O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilishi mumkin. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish g‘ayriqonuniy hisoblanadi. Bunday harakat mazkur qimmatli qog‘ozlarni hamda ularni sotishdan tushgan pullarning olib qo‘yilishiga va boy berilgan foydaning qoplanishini hisobga olgan holda investorlarga qaytarib berilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qimmatli qog‘ozlar bozorining ishlash samaradorligini oshirish va uni davlat yo‘li bilan tartibga solish, uning qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, sarmoyadorlarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi davlat mulki qo‘mitasi huzurida qimmatli qog‘ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish

markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi 1996-yil 26-mart Farmoni asosida qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan munosabatlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan «Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida»gi 1996-yil 25-aprel Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishida qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan munosabatlarining huquqiy mexanizmini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Fuqarolik huquqida ashyolar va mol-mulklar fuqarolik huquqining moddiy obyektlari ichida alohida o‘rin tutadi. Nazarimizda, ashyo va mol-mulk bir qarashda o‘xshash ma’noda bo‘lsa-da, ularni bir biridan ajratadigan xususiyatlari mavjuddir. Ashyo iqtisodiy mazmun kasb etsa, mol-mulk ko‘p hollarda yuridik ma’noni anglatishi mumkin. Chunki, mol-mulk deganda ko‘p hollarda kimningdir egaligida bo‘lgan ashyo yoki ashyolar yig‘indisini tushunishimiz mumkin.

Mol-mulk deganda, ma’lum shaxs (fuqaro yoki tashkilot)ga tegishli ayrim ashyolar yoki bu ashyolarning yig‘indisi nazarda tutiladi.

Mol-mulk tarkibiga majburiyat huquqi, mualliflik va ishtirokchilikka oid mulkiy huquqlar, oila huquqi bilan bog‘liq majburiyatlardan kelib chiqadigan mulkiy talablar (masalan, qarz berilishida olingan tilxatlar) ham kiradi.

«Mol-mulk» atamasi tor ma’noda faqat muayyan shaxsga tegishli mulkiy huquqlarning aktivligini (mulkni talab qilish huquqlarini) anglatadi. Keng ma’noda shaxsning huquqlari bilan bir qatorda uning uchinchi shaxs oldidagi majburiyatlari, ya’ni passivi ham nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasida mol-mulk turlari ko‘rsatilgan. Unga asosan mol-mulk fuqarolik huquqlari obyekti sifatida *ko‘chmas mulkka va ko‘char mulkka* bo‘linadi.

Belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar *ko‘chmas mulk* hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk yer uchastkalari va yer osti boyliklari, ko‘p yillik dov-daraxtlar, shuningdek bino va inshootlardan iboratdir. Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq huquqlarga ega bo‘lish, uni cheklash va bekor qilish qoidalari Fuqarolik kodeksining 84-moddasida belgilangan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibida amalga oshiriladi. Fuqarolik kodeksi 83-moddasining 3-bandida boshqa mol-mulk ham ko‘chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkinligi belgilangan. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrdagi 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy shaxslarning mulki bo‘lgan binolar va inshootlarni baholash, qayta baholash to‘g‘risida»gi nizomda turar joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining bog‘-uychalari, garaj va boshqa imoratlari, bino va inshootlari ham jismoniy shaxslarning mol-mulki deb hisoblanishi qayd etilgan.

Vazifasi va mo‘ljallangan maqsadiga zarar yetkazmagan holda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan hamda ko‘chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk *ko‘char mulk* hisoblanadi.

Intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri, boshqa harakat va xizmatlar fuqarolik huquqining obyekti sifatida *nomoddiy ne’matlarning* tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma’lumki, inson intellektual faoliyati mahsuli uni yaratish jarayoni va xususiyatlariga ko‘ra odatdagi moddiy ashyolardan farq qiladi. Shuning uchun ularga fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘ziga xos obyekt sifatida qaraladi.

Intellektual faoliyat ijodiy faoliyat hisoblanadi. U ko‘p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, o‘qituvchilar, injener-texnik xodimlar va shu kabilar faoliyatining mahsulidir. Bu mahsulot yangi, o‘ziga xos (original), takrorlanmas (nodir) belgilarga ega. Huquq fanida bu mahsulotning aksariyat hollarda g‘oyaviy-nomoddiy shaklda bo‘lishi qayd etiladi. Shu sababli, ularga odatdagi ashyo, moddiy obyektga nisbatan qo‘llaniladigan huquq normalarini qo‘llab bo‘lmaydi.

Insoniyatning ijodiy tafakkuri mazkur obyektlar doirasini muttasil kengaytirib bormoqda. Intellektual faoliyat natijalarini yaratish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va huquqiy muhofaza qilishda vujudga keladigan munosabatlar Fuqarolik kodeksining tegishli normalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi 2006-yil 20-iyul qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi 2002-yil 29-avgust qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida»gi 1994-yil 6-may qonuni va boshqa shu kabi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 98-moddasiga asosan, xizmat va tijorat sirlari ham nomoddiy ne’matlar tarkibiga kiradi. Oshkor etilishi O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma’lumotlar xizmat sirini tashkil etadi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida»gi 1993-yil 7-may

qonuni, 3-m.). Korxonaning tijorat siri deganda, ishlab chiqarish, texnologiya axboroti, boshqaruvi, rejalashtirilishi, moliyasi va boshqa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hamda e’lon qilinishi uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, davlat siri bo‘lmagan ma’lumotlar tushuniladi (O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni, 34-m., 1-q.).

Xizmat va tijorat sirlarini fuqarolik huquqi obyekti sifatida himoya qilish uchun:

birinchidan, xizmat yoki tijorat siri bo‘lgan ma’lumotlar uchinchi shaxslarga noma’lumligi sababli, haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo‘lishi kerak;

ikkinchidan, bu ma’lumotlardan uchinchi shaxslarning xabardor va bahramand bo‘lishiga qonuniy asoslar bo‘lmasligi talab etiladi;

uchinchidan, sir saqlanadigan axborotning egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralar ko‘rgan bo‘lishi zarur.

Korxonalar va boshqa subyektlarning atrof muhitni ifloslanti-rayotganligi yoki jamiyatga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan boshqa salbiy faoliyati haqidagi ma’lumot xizmat yoki tijorat siri hisoblanmaydi.

Tijorat sirlari egasi ulardan o‘z faoliyatida foydalanishga, shuningdek, boshqalarga foydalanish uchun litsenziya shartnomasi asosida ruxsat berishga, sotishga hamda boshqacha usullarda tasarruf etishga haqli.

Fuqarolik huquqining obyekti sifatida moddiy shakldagi ne’matlar (ashyolar) bilan bir qatorda nomoddiy ne’matlar ham fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida «nomod-diy ne’matlar» tushunchasi berilgan bo‘lib, unga asosan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmati va pok nomi, kasb-kor nufuzi, xususiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va ommaviy sirlari, erkin ko‘chib yurish, turish va yashash joyini tanlash, mualliflik va boshqa shaxsiy mulkiy huquqlari nomoddiy ne’matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan tartib olinmaydi va boshqacha tarzda birovga o‘tkazilishi (berilishi) mumkin emas. Ayni vaqtda, qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda marhumga tegishli shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining merosxo‘rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkinligi ham qonunda nazarda tutiladi.

Har qanday nomoddiy ne’mat fuqarolik tartibida himoya qilinishi uchun u qonunda bevosita nazarda tutilgan bo‘lishi kerak. Nomoddiy ne’matlarning fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi xususiyatiga ko‘ra bunda, *birinchidan,* buzilgan nomoddiy huquq mazmunidan, *ikkinchidan,*

bunday buzilish oqibatlari xarakteridan kelib chiqib, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalaniladi.

Nomoddiy ne'matlarga nisbatan huquqlari buzilgan huquq sohibiga ko'p hollarda moddiy emas, balki ma'naviy zarar yetadi. Ma'naviy zarar huquqi buzilgan shaxsdagi jismoniy yoki ruhiy iztiroblar, qayg'u-alam, g'am-tashvishda namoyon bo'ladi. Qonunga asosan, agar fuqaroning shaxsiy-nomulkiy huquqlari buzilsa, yoxud tegishli boshqa nomoddiy ne'matlarga tajovuz qiluvchi harakatlar orqali unga ma'naviy zarar yetkazilsa, qonunda nazarda tutilgan hollarda sud huquqbuzar zimmasiga ko'rsatilgan zararni pul orqali (moddiy shaklda) tovon to'lash bilan qoplash vazifasini yuklashi mumkin.

Ma'naviy zararni qoplash xarajatlarini belgilashda sud huquq-buzarning aybdorlik darajasini va boshqa e'tiborga molik holatlarni hi-sobga oladi. Sud ma'naviy zarar yetkazilgan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq jismoniy va ma'naviy zarar (iztiroblar, ruhiy azoblar) darajasini ham hisobga olishi shart.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish... huquqiga ega» ekanligi mustahkamlangan bo'lib, bu borada qonunlarda tegishli qoidalar belgilangan.

Fuqarolik kodeksiga binoan, fuqaro yoki tashkilotning sha'niga dog' tushiradigan va qadr-qimmati, ishbilarmonlik obro'sini yerga uradigan ma'lumotlarni tarqatuvchi shaxs ularning haqiqat ekanligini isbot qila olmasa, jabrlangan fuqaro yoki tashkilot sud orqali raddiya talab qilishga haqli. Qonun ushbu shaxsiy huquqlarni himoya qilishda shaxsning jamiyatda (o'z mehnati bilan) tutgan o'rni, topgan obro'sini nazarda tutadi. Fuqarolik qonunchiligida bunday qoidalarning mavjudligi fuqarolarning huquqlari himoya qilinishiga e'tibor berilayotganini bildiradi.

Shaxsiy huquqlar deganda, mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar nazarda tutiladi. Shaxsiy huquqiy munosabatlar, masalan, birovning hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazishda, birovning mualliflik yoki ixtirochilik huquqining buzilishida mulkiy munosabatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi mumkin. Ammo aksariyat hollarda, shaxsiy huquqiy munosabatlar mulkiy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan holda ham vujudga kelishi mumkin.

Shaxsiy huquqlarning obyektlari shaxsning o'ziga xos shaxsiy manfaatlari: shaxs, fuqaro yoki tashkilotning nomi, sha'ni va qadr-

qimmati, fuqaroning shaxsiy daxlsizligi va boshqa ba’zi shaxsiy huquq va manfaatlaridan iborat.

Nom olish, ya’ni nasab, ism va ota ismini olish yoki nomni o‘zgartirish maxsus qonunlar bilan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Nikoh va Oila kodeksi yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish to‘g‘risidagi qoidalar bilan tartibga solinadi.

Tug‘ilishni qayd etish vaqtida olingan ism, ota ismi va familiya umumiy qoida bo‘yicha abadiy bo‘ladi. Ammo familiya nikohga kirishda o‘zgartirilishi mumkin. Bolaning begona shaxslar tomonidan farzand qilib olinishida ham familiyasi va otasining ismi o‘zgartirilishi mumkin. Boshqa hollarda nasab va ismni o‘zgartirishga fuqaro 18 yoshga to‘lganidan keyin yo‘l qo‘yiladi (faqat ikki holda: *birinchisi,* fuqaroning xatti-harakati tekshirilganda, tergov yoki sudda bo‘lganida yoxud sudlanganida, *ikkinchisi,* ismning o‘zgartirilishiga davlat hokimiyati organlari qarshi bo‘lganida yo‘l qo‘yilmaydi).

Sha’n, qadr-qimmat, ishchanlik obro‘siga bo‘lgan huquq fuqaroning muhim huquqlaridan hisoblanadi. Kishiga va jamoaga hurmat bilan qaralishi, fuqaro va tashkilotlarning sha’ni va qadr-qimmatini qo‘riqlashga qonunda alohida e’tibor beriladi. Sha’n – fuqaroning muayyan darajada erishgan ijtimoiy mavqeidir. Qadr-qimmat esa mazkur mavqening sohibi ongida aks etishi, ya’ni shaxsning jamiyatdagi mavqeidan kelib chiqib o‘ziga bergan bahosidir. Masalan, mehnat sohasida o‘zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 6-moddasiga binoan kamsitishni bartaraf etish va o‘ziga yetkazilgan moddiy hamda ma’naviy zararni to‘lash to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Ishchanlik obro‘si jismoniy yoki yuridik shaxsning fuqarolik muomalasida ishtirokchiligi, insofli yoki insofsiz harakat qilishini bildiradi. Fuqarolik qonunida javobgarlik nazarda tutilgan ma’lumotlar, *birinchidan,* birovning sha’niga dog‘ tushiradigan yoki qadr-qimmatni, ishchanlik obro‘sini pastga uradigan bo‘lishi, *ikkinchidan,* bu ma’lumotlar tarqatilgan bo‘lishi va, *uchinchidan,* mazkur ma’lumotlar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan bo‘lishi kerak.

Shaxsning obro‘siga dog‘ tushiradigan ma’lumotlar deganda, bir shaxsning ikkinchi shaxsning axloqiga, ishchanlik holatiga baho berishi tushuniladi. Bunday ishlar bo‘yicha javobgar taraf faktlarning haqiqatda bo‘lganligini isbotlasa yoki keltirilgan baho va tavsif dalillarga to‘g‘ri kelishini isbotlasa, da’vogar oldida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Agar javobgar da’vogar tarafni tavsiflovchi dalillarning bo‘lganligini

isbotlay olmasa yoki sud javobgarning bergan bahosi bilan kelishmasa, javobgarni javobgarlikka tortishi mumkin.

Basharti, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim (FK 100-m. 3-q.).

Basharti, bunday ma'lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak (FK 100-m. 4-q.).

Obro'ga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan shaxs bunday ma'lumotlarni rad etish bilan birga ularning tarqatilishi natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni ham to'lashi lozim.

Fuqarolarning ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi qoida yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo'sinda tatbiq etiladi (FK 100-m. 9-q.).

Xulosa sifatida aytganda fuqarolik huquqining moddiy va nomoddiy obyektlari o'z xususiyatiga ko'ra farqlanadi va tavsiflanadi.

3. Bitim tushunchasi, turlari, shakllari va tasnifi

Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi (FK 101-m.).

Har qanday bitim shaxslarning xohish-irodasi bilan bog'liq bo'lib, muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqarishga qaratiladi. Bitimda fuqaro va tashkilotlarning muayyan moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xohishlari ifodalanadi.

Bitim shaxslarning xohishi bilan bog'liq, ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo'lganligi tufayli bitimda ifodalanadigan xohish izhor qilinishi, ya'ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitim tuzish natijasida muayyan huquqiy oqibat hosil qilish uchun bitim tuzuvchi shaxslar bitimda o'z xohishlarini ifodalashdan tashqari muayyan harakatni bajarishlari lozim. Bu harakat kelishilgan ishni bajarish, muayyan mulkni topshirish yoki pulni to'lashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Yuridik fakt tarkibiga kiradigan bitimlar fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan holatlar sifatida boshqa yuridik faktlardan farq qiladi. Masalan, yuridik fakt hisoblangan hodisa shaxslarning xohishidan tashqarida vujudga kelsa, bitimlar faqat shaxslar xohishi bilan tuziladi.

Bitimda quyidagi shartlar muhim hisoblanadi:

a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadi;

b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish xohishi bo‘lishi va bu xohish muayyan huquqiy oqibat tug‘dirishga qaratilgan bo‘lishi lozim;

d) shaxsning xohishi muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o‘z ifodasini topishi, ya’ni ma’lum bir shaklda izhor qilinishi kerak.

Fuqarolik huquqi fanida bitimlar o‘zlarining belgilari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:

Bitim tuzuvchilarning xohishlari ifoda etilishiga qarab bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p taraflama bitimlarga bo‘linadi.

Bir taraflama bitimda faqat bir tarafning xohishi ifodalanib, huquq va majburiyatlar faqat bir tarafning irodasi bo‘yicha vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor qilinadi. Bir taraflama bitimlarga misol qilib vasiyat, merosdan voz kechish, ishonch qog‘ozi berish, vakolat olmasdan vakillik qilgan kishining harakatlarini ma’qullashni ko‘rsatsa bo‘ladi. Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi.

Ikki taraflama bitimlar deb har ikki tomonning xohishiga muvofiq tuziladigan bitimga aytiladi. Bunday bitimlar – shartnomalardir. Oldi-sotdi, mulk ijarasi, pudrat, sug‘urta va boshqa shartnomalarni ikki taraflama bitimga misol qilish mumkin.

Ko‘p taraflama bitimlar deb uch va undan ortiq shaxsning xohishi ifodalanadigan bitimlarga aytiladi. Ko‘p taraflama bitimga misol qilib, birgalikdagi faoliyat shartnomasini ko‘rsatsa bo‘ladi. Ko‘p taraflama bitimlar ikki taraflama bitimlar singari o‘zaro kelishuv, ya’ni shartnoma asosida tuziladi.

Demak, har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, biroq har qanday bitim shartnoma hisoblanmaydi. Faqat aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi mumkin.

Bitimlar muqobil ijroning bo‘lish-bo‘lmasligiga qarab haq baravariga va tekin tuziladigan bitimlarga bo‘linadi.

Haq baravariga tuziladigan bitimlarda taraflardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to‘lash, ishni bajarish yoki bironta xizmat ko‘rsatish kabi harakatlarni bajarish majburiyatini oladi. Haq baravariga tuziladigan bitimlarda qarshi muqobil ijro nazarda tutiladi. Oldi-sotdi, ayirboshlash, pudrat, sug‘urta shartnomalari haq baravariga tuziladigan bitimlarga kiradi. Chunki ulardan har biri qarshi tomon foydasiga biror harakatni bajaradi. Masalan, sotuvchi pul baravariga ma’lum mulkni topshiradi va hokazo.

Tekin, ya’ni haq to‘lanmay *tuziladigan bitimlarda* taraflardan biri ikkinchi taraf foydasiga biron-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo‘q. Bunday bitimlarga misol qilib, hadya, foizsiz qarz, bepul omonat saqlash va mulkdan tekin foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalarni ko‘rsatish mumkin.

Bitimlar qaysi vaqtdan e’tiboran tuzilgan deb hisoblanishini aniqlash maqsadida konsensual va real bitimlarga bo‘linadi.

Konsensual bitim deb huquq va majburiyatlarni o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni tegishli darajada rasmiylashtirish paytida vujudga keladigan bitimga aytiladi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya shartnomalari konsensual bitim hisoblanadi.

Real bitim deb o‘zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyat vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Real bitimga misol qilib qarz, yuk tashish shartnomalarini ko‘rsatsa bo‘ladi.

Huquq obyektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi yoki bekor bo‘ladi. Agar bitimda huquq va majburiyatning vujudga kelishi yoki bekor bo‘lish vaqti ko‘rsatilgan bo‘lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha:

a) ma’lum kun, oy, yil bilan (masalan, 1997-yil 15-sentabr);

b) ma’lum vaqtning o‘tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o‘tishini ko‘rsatish);

d) ma’lum bir voqea yuz berishi (masalan, daryo orqali yuk tashishmuz erish vaqti) bilan bog‘lab belgilanishi mumkin va hokazo.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday bitim muddatsiz hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 242-moddasida ko‘rsatilganidek, agar majburiyatni bajarish muddati ko‘rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa – ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo‘ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Shartli bitim deb taraflar o‘rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo‘lishi biron-bir shartga bog‘liq qilib qo‘yilishiga aytiladi. Shartli bitimlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi. Ular:

a) shartli kechiktirilgan;

b) bekor bo‘lish sharti bilan tuziladigan bitimlar.

Fuqarolik kodeksi 104-moddasining 1-qismida aytilganidek, agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishini yuz berishi yoki bermasligi noma'lum bo‘lgan holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, *bitim kechiktirish sharti bilan* tuzilgan hisoblanadi. Masalan, uy egasi turar joyning ijaraga berilishi to‘g‘risida o‘g‘lining ma'lum vaqt boshqa shaharga o‘qishga ketishi sharti bilan bitim tuzadi. Agar o‘g‘li boshqa shaharga ketmasa, taraflar o‘rtasida hech qanday huquq ham, majburiyat ham vujudga kelmaydi.

Fuqarolik kodeksi 104-moddasining ikkinchi qismida *bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitimga* ta'rif beriladi. Unga ko‘ra, agar taraflar huquq va burchlarning bekor bo‘lishini yuz berishi yoki bermasligi noma'lum holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bunday bitim bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi. Masalan, turar joyni ijaraga beruvchi fuqaro muayyan bir vaziyatda, o‘g‘li harbiy xizmatdan qaytgach, uyni bo‘shatib berishi sharti bilan ijara shartnomasini tuzgan bo‘lsa, o‘g‘li qaytishi bilan u bekor bo‘ladi.

Shartli ravishda majburiyat olgan shaxs shartga bog‘liq bo‘lgan huquqni o‘zgartirish yoki bekor qilishga oid harakatlar qilmasligi kerak.

Agar shartning yuz berishiga ushbu shartning yuz berishidan manfaatdor bo‘lgan taraf insofsizlik bilan yordamlashgan bo‘lsa, bu shart sodir bo‘lmagan hisoblanadi (FK 104-m. 4-q.). Masalan, mol-mulkini sug‘urta qildirgan shaxs sug‘urta summasini olish maqsadida mol-mulkiga o‘t qo‘yib yondirsa, sug‘urta kompaniyasi sug‘urta summasini to‘lamaslikka haqli.

Bitim tuzishda xohish-irodani erkin ifodalash usuliga *bitim shakli* deb aytiladi. Bitimlar og‘zaki va yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi (FK 105-m. 1-q.).

Fuqarolik kodeksining 106-moddasiga binoan qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo‘yilmagan, jumladan, u tuzilgan vaqtning o‘zidayoq bajariladigan bitim *og‘zaki* tuzilishi mumkin.

Jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish yo‘li bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, og‘zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi.

Yozma shaklda tuzilgan shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizda qadimdan mavjud «sukut – rizolik alomati» qoidasi amal qiladi. Biroq, bunday usulda bitim tuzishga faqat cheklangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Fuqarolik

kodeksining 105-moddasiga asosan, sukut saqlash qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo‘lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi.

Shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatlaridan bitim tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan hollarda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi. Bu usulda tuzilgan bitimlarning nomi lotincha «konklyudo» so‘zidan olingan bo‘lib, «tuzaman» degan ma’noni anglatadi. Konklyudent harakatlar shunday harakatlarki, ular og‘zaki shaklda ham, yozma shaklda ham ifoda etilmagan bo‘lsa-da, shaxsning niyati, maqsadi haqida o‘z-o‘zidan guvohlik berib turadi.

Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:

a) oddiy yozma;

b) notarial idoralarda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo‘linadi.

Bitim shartlarini o‘z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga *oddiy yozma bitim,* deb aytiladi. Yozma bitim uni tuzuvchilar yoki vakillari tomonidan imzolanishi kerak. Agar fuqaro jismoniy kamchiligi, kasalligi yoki boshqa biron sabab tufayli bitimni imzolay olmasa, u holda uning iltimosiga binoan boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bu fuqaroning imzosi bitim tuzuvchi fuqaroning ishlab yoki o‘qib turgan tashkiloti va yashash joyidagi uy boshqarmasi yoki u davolanayotgan muassasa ma’muriyati yoxud notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bunday hollarda bitim tuzgan shaxsning o‘zi qanday sabab bilan bitimni imzolay olmasligi albatta ko‘rsatilishi kerak.

Tashkilotlar tomonidan tuziladigan yozma bitimlarda mazkur tashkilot rahbarining imzosi va muhri bo‘lishi lozim. Ba’zi yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan bitimlarda ikkita imzo: tashkilot rahbari va boshqa mansabdor shaxs, odatda, bosh buxgalter yoki buxgalterning imzosi bo‘ladi.

Xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasi mazmunini belgilaydigan boshqa hujjatlarni o‘zaro ayirboshlash, agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi.

Ba’zi hollarda yozma tuziladigan bitim qo‘shimcha talablarga ham javob berishi lozim (muayyan shakldagi blankada tuzilishi, muhr bilan tasdiqlanishi va hokazo).

Yozma shaklda tuzilgan bitimni bajargan taraf ikkinchi tarafdan ijroni tasdiqlovchi hujjat talab qilishga haqli. Bu qoida og‘zaki tadbirkorlik bitimiga nisbatan ham joriy qilinadi.

Bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy bo‘lmasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko‘rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi (FK 109-m.).

Ya’ni, oddiy yozma shaklga rioya qilmasdan tuzilgan bitim qonun yoki taraflarning kelishuviga bevosita zid bo‘lmay, o‘zicha haqiqiy deb hisoblansa-da, nizo chiqqan taqdirda, bitimning tuzilganligini va uning mazmunini guvohlarning ko‘rsatmalari bilan isbotlab bo‘lmaydi.

Notarial tasdiqlangan bitim deb belgilangan shaklda notarial xati bo‘lgan, notarius tomonidan imzolangan va gerbli muhr bosilgan yozma hujjatga aytiladi. Notarial shakldagi bitim uni tuzuvchilar yoki vakillari tomonidan notarius huzurida imzolanadi.

Bitimlarni notarial tartibda tasdiqlash faqat qonunda ko‘rsatilgan yoki taraflardan biri talab qilgan hollardagina majburiydir, jumladan: uy-joylarni olish-sotish, garovga qo‘yish shartnomalari va boshqa ba’zi shartnomalar, shuningdek, mulkni vasiyat qilish to‘g‘risidagi bitim (vasiyatnoma)ning ham notarial tartibda tasdiqlanishi talab qilinadi.

Bitimlarning oddiy yozma va notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishi ba’zi muhim asoslar bo‘yicha belgilangan, chunonchi:

birinchidan, bitimning yozma shakli bitim tuzilganligi faktini bir tarafning bayonotiga yoki guvohlarning ko‘rsatmalariga qaraganda asosliroq isbotlaydigan dalil bo‘la oladi;

ikkinchidan, bitimning yozma shakli bitimning haqiqiy mazmunini aniqlashga og‘zaki shaklidan ko‘ra yaxshiroq yordam beradi va zarur hollarda uning tegishli davlat organlari tomonidan tekshirilishini yengil-lashtiradi. Shu nuqtai nazardan, ba’zi hollarda ma’lum darajada bitimning insofsiz ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan suiiste’mollarga qarshi garov bo‘lib xizmat qiladi;

uchinchidan, bitimning yozma shakli taraflar uchun majburiy bo‘lishi – yuridik faktlarni hujjatlashtirish va taraflarning faoliyatlari ustidan nazorat olib borish imkoniyatini beradi;

to‘rtinchidan, bitimlarning yozma shakli rasmiylashtirilishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini muayyan tartibga, o‘z xohishlarini aniq ifoda etishga va bitimda nazarda tutilgan shartlarni puxta bajarishga o‘rgatadi.

Qonun ba’zi hollarda, bitimlarning, yozma yoki notarial shaklda rasmiylashtirilishidan tashqari, tegishli davlat muassasalarida qayd

etilishini (ro‘yxatdan o‘tkazilishini) talab qiladi. Masalan, yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq bitimlar (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara, merosni qabul qilib olish va boshqalar) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak (FK 111-m.).

Qonun bo‘yicha talab qilinadigan shaklga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy hisoblanmasligiga sabab bo‘ladi. Jumladan, bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi (FK 112-m. 1-q.). Ushbu hollarda bitim tuzgan taraf har qaysi bitimga ko‘ra olingan hamma narsani qaytarishi shart, buning imkoni bo‘lmaganida, haqiqiy bo‘lmagan bitimning boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning qiymatini pul bilan to‘lashga majbur.

Agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan bitimni to‘la yoki qisman bajargan bo‘lsa, ikkinchi taraf esa – bitimni notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud bitimni bajargan tarafning talabi bo‘yicha uni haqiqiy deb hisoblashga haqlidir. Bu holda bitimni keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmaydi (FK 112-m. 2-q.).

Agar davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim kerakli shaklda tuzilgan bo‘lib, ammo taraflardan biri uni ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli. Bunday holda bitim sud qaroriga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi (FK 112-m. 3-q.).

Birja bitimlari. Bitimlar orasida birja bitimlari alohida xususiyatga ega. Birja – avvaldan tayinlanadigan manzil va vaqtda belgilangan qoidalar asosida ochiq savdo-sotiq o‘tkazish orqali birja tovarlari bilan erkin ulgurji savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, yuridik shaxs hisoblanadigan korxonadir (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida»gi 1992-yil 3-iyul Qonuni 1-m.).

Birjalarda quyidagi bitimlar tuzilishi mumkin:

– bor (mavjud) tovarlarning oldi-sotdi bitimlari, shu jumladan, tovarlarni darhol berib yuborish yoki yetkazib berish yoxud tovarga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar topshirishni ko‘zda tutuvchi oldi-sotdi bitimlari;

– *forvard bitimlar,* ya’ni bir tovarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirgan holda xarid qilish va sotishga doir bitimlar;

– *fyuchers bitimlar,* ya’ni standart kontraktlarga doir oldi-sotdi bitimlari;

– *opsion bitimlar,* ya’ni tovarlarni yoki tovarlar yetkazib berish kontraktlarini belgilangan narxlar bo‘yicha kelgusida xarid qilib olish yoki sotish huquqlariga doir oldi-sotdi bitimlar.

Forvard, fyuchers hamda opsion bitimlarda savdoni amalga oshiruvchi birja o‘zining hisob-kitob (kliring) markazlari orqali bitimlar ijrosini kafolatlashi shart.

Birjalarda tuzilgan bitimlarda tegishli taraflardan tashqari vositachilar ham qatnashadi. Bunda vositachilik vazifasini broker (oldi-sotdi bitimlar tuzilishida o‘z mijozlarining topshirig‘i bo‘yicha va ularning nomidan vositachilik xizmatini amalga oshiruvchi shaxs) yoki diler (bir joyda o‘z nomi va o‘z hisobidan vositachilikni amalga oshiruvchi shaxs) amalga oshiradi.

Birja bitimlari birjalarda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va ular notarial tasdiqlashni (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari) talab etmaydi.

Birja bitimlarining mazmuni (tovarning nomi, miqdori, narxi, ijro o‘rni va muddatidan bo‘lak) oshkor etilishi mumkin emas.

Birja bitimlari birja nomidan va uning hisobidan tuzilishi mumkin emas.

Birja bitimlari faqat yozma ravishda tuziladi.

Bitim bilan bog‘liq nizolar oldin birjalarning hakamlik (ixtilof) komissiyasida hal etiladi. Qarordan norozi taraf hakamlik sudiga murojaat etishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Birja va yarmarka savdosini, fyuchers asosidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1995-yil 26-sentabr qarori birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish.

Bitimlar haqiqiy hisoblanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

birinchidan, bitimlarning mazmuni qonunga, qonun asosida chiqarilgan aktlarga hamda umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi;

ikkinchidan, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo‘lishlari;

uchinchidan, bitimlar shunchaki tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat hosil qilish maqsadida tuzilgan bo‘lishi;

to‘rtinchidan, notarial guvohlantirilishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan bitimlar haqiqiy hisoblanmasligi xavfi bo‘lganida qonunda belgilangan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablarga rioya qilinmay tuzilgan bitimlar o‘sha paytdan e’tiboran o‘z-o‘zidan haqiqiy hisoblanmaydi. Bunday

bitimlar mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar deb atalib, hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qonun talablariga muvofiq bo‘lmagan (FK 116-m.), O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan (JK 175-m.), o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxs tomonidan tuzilgan (FK 117-m.) hamda qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FK 124-m.) haqiqiy hisoblanmaydi.

Haqiqiy hisoblanmagan bitim yuzasidan ijroni, mulk topshirilishini yoki pul to‘lanishini talab qilish mumkin emas.

Bitim butunlay haqiqiy bo‘lmagani kabi ba’zi hollarda uning ayrim qismi ham haqiqiy bo‘lmasligi mumkin. Bitimning muhim qismi, ya’ni uning predmeti, yuridik tabiati yoki maqsadi va boshqa muhim shartlarini ko‘rsatuvchi bandlari haqiqiy bo‘lganda bitim butunlay yuridik kuchga ega bo‘lmaydi. Masalan, fuqaroning o‘ziga uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkasini sotishi to‘g‘risida tuzgan bitimi mutlaqo haqiqiy hisoblanmaydi.

Bitimning muhim bo‘lmagan qismlari, ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan ahamiyatga ega bo‘lmagan bandlari qonunga muvofiq kelmagan taqdirda, uning qonunga xilof bo‘lmagan qolgan qismlari haqiqiy hisoblanadi. Bu haqda Fuqarolik kodeksining 128-moddasida: «bitimning bir qismi haqiqiy sanalmasligi bitimga haqiqiy sanalmagan qism qo‘shilmasa ham u tuzilgan bo‘lar edi, deb taxmin qilish mumkin bo‘lsa, uning boshqa qismlarining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘lmaydi», deb ko‘rsatilgan.

Haqiqiy bo‘lmagan bitim, bu to‘g‘rida da’vo qilinishi yoki qilinmasligidan qat’i nazar, tuzilgan paytdanoq o‘z-o‘zidan mutlaqo haqiqiy emas deb topiladi. Agar bitim sud yoki xo‘jalik sudi muhokamasida bo‘lsa, bunda uning haqiqiy emasligi ta’kidlanadi va shunga binoan qonunda ko‘rsatilgan oqibatlarning tatbiq etilishi lozimligi ko‘rsatiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan bitimlardan tashqari nizoli bitimlar ham mavjud. Bunday bitimlar yuzaga kelmasligi uchun: *birinchidan,* bitim tuzuvchi shaxs o‘zi tuzayotgan bitimning xarakteri va huquqiy oqibatlarini unda aniq-ravshan bayon etishi; *ikkinchidan,* bitim tuzuvchi shaxsning xohishi o‘zi tomonidan, boshqa birovlarning ta’siridan xoli holda ifodalanishi; *uchinchidan,* bitim tuzuvchi shaxsning xohishi yetarli darajada mukammal bo‘lishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan bitim tuzilishi paytida haqiqiy sanalsa ham, keyinchalik ular yuzasidan nizo qo‘zg‘atilishi mumkin. Bunday bitimlar tuzilganidan so‘ng taraflarga

nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar bo‘yicha da’vo qo‘zg‘atilib, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nizoli bitimlar jumlasiga o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK 121-m.), yanglishish ta’sirida tuzilgan (FK 122-m.), aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og‘ir holatlar yuz berishi ta’sirida tuzilgan (FK 123-m.), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar (FK 120-m.) hamda yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FK 125-m.) kiradi.

Bunday nizoli bitimlar to‘g‘risida da’voni jabrlangan shaxsning o‘zi, prokuror yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan davlat organlari, jamoa xo‘jaligi, shirkat va boshqa jamoat tashkilotlari hamda ayrim fuqarolar qo‘zg‘ata oladilar.

Haqiqiy emas deb topilgan bitim tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bitimning mazmunidan uning faqat kelajak vaqt uchun bekor qilinishi mumkinligi anglashilsa, haqiqiy emas deb topilgan bitim kelajak vaqt uchun harakatdan to‘xtaydi (FK 127-m.).

Haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim, Fuqarolik kodeksining 116-moddasida ko‘rsatilganidek, o‘z-o‘zidan haqiqiy emas. Bu moddada ko‘rsatilgan «qonun» so‘zi keng ma’noda qo‘llaniladi. Bu modda nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan chiqarilgan qonunchilik hujjatlarini buzib tuzilgan bitimlarga, balki tegishli qonunlar asosida chiqarilgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni buzib tuzilgan bitimlarga ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga zid maqsadlarda tuzilgan bitim haqiqiy sanalmaydi. g‘arazli, yomon niyat bilan atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan bitimga qonunni jiddiy ravishda buzish deb qaraladi. Zero, bunday bitimlarni tuzuvchilar uchun huquq normalarida qat’iy mulkiy javobgarlik belgilanadi hamda bu bitim mutlaqo haqiqiy sanalmaydi. Masalan, fuqaroga uy-joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkasini butunlay yoki qisman olish-sotish to‘g‘risidagi yoki muomalada chiqarilgan ashyolar, chunonchi: qoradori nasha va boshqalarni olish-sotish to‘g‘risidagi yoxud davlat tomonidan jamg‘arilgan materiallarni olish-sotish to‘g‘risidagi bitimlar mutlaqo haqiqiy sanal-maydigan bitimlar jumlasiga kiradi.

Bitim atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilganligi sababli haqiqiy sanalmaganida quyidagi huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi:

1) bitim tuzuvchilarning har qaysisida ham g‘arazli niyat bo‘lsa, har ikki tarafdan bajarilgan bitim yuzasidan olingan hamma narsalar undirilib, davlat daromadiga o‘tkaziladi;

2) bitim faqat bir tarafdan bajarilganida, ikkinchi tarafdan uning olgan hamma narsasi va buning evaziga birinchi tarafga to‘lashi lozim bo‘lgan narsalari undirilib, davlat daromadiga o‘tkaziladi;

3) bitimlar tuzishda bir tarafdangina g‘araz bo‘lgan taqdirda, uning bitim bo‘yicha olgan hamma narsasi ikkinchi tarafga qaytarib berilishi lozim, ikkinchi taraf olgan yoki bitimning ijrosi evaziga olishi lozim bo‘lgan narsalar undirilib, davlat daromadiga o‘tkaziladi. Jinoyat kodeksining 175-moddasida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik maqsadida tuzilgan bitimlar ham kiradi.

Qalbaki, ya’ni taraflarning kelishuvi bo‘yicha yuridik oqibatlar tug‘dirish niyati bo‘lmagan holda, nomigagina tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir (FK 124-m.).

Ko‘zbo‘yamachilik maqsadida tuzilgan bitim deb boshqa bir bitimni niqoblash maqsadida tuzilgan bitimga aytiladi. Agar bitim boshqa bir bitimni yashirish uchun tuzilgan bo‘lsa, u holda taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitimga oid qoidalar qo‘llaniladi. Ko‘zbo‘yamachilik maqsadida tuzilgan bitim ba’zi hollarda haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitim qonun talablariga javob berish-bermasligiga qarab haqiqiy yoki haqiqiy emas deb topiladi.

Muomalaga layoqatsiz shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar to‘g‘risida shuni aytish joizki, bitim haqiqiy sanalishi uchun uni tuzuvchi shaxslar muomalaga layoqatli bo‘lishlari kerak. Muomalaga layoqatsiz fuqarolar, masalan, ruhiy kasallar yoki o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalar uchun bitimlarni ularning qonuniy vakillari – ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari – tuzadilar.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan, shuningdek, ruhiy kasal yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy sanalmaydi, taraflar olgan hamma narsalarni ikkinchi tarafga qaytarishga, agar olingan narsani natura baravarida qaytarishning iloji bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘lashga majbur.

Bundan tashqari, muomalaga layoqatli taraf ikkinchi tarafning muomalaga layoqatsizligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lsa, voyaga yetmagan shaxsning

bitim tufayli qilgan xarajatlarini, mulkining yo‘qolishi yoki zararlanishidan kelgan zararlarni to‘lashga majbur.

Nizoli bitimlarning turlari va ularning haqiqiy sanalmasligi oqibatlari. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smirlar qisman muomala layoqatiga ega bo‘lsalar-da, bitimlarni ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslar yoki homiylari roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va o‘zlari uchun zararli bo‘lmagan maishiy bitimlarni mustaqil ravishda tuzishlari mumkin. O‘smir tuzgan bitim (agar bu bitim uning ota-onasi yoki farzandlikka olgan shaxs yoxud homiylari roziligidan tashqari tuzilgan bo‘lsa) ota-onalarining yoki farzandlikka olganlarning yoxud homiylarining da’vosiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Demak, bunday bitimlar umuman haqiqiy sanalsa-da, ular to‘g‘risida nizo qo‘zg‘atilishi va bitim tuzuvchilarning qonuniy vakillari tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu holda mazkur bitimga ko‘ra taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olgan narsalarining hammasini ikkinchi tarafga qaytarishga, olgan narsani natura baravarida qaytarishning iloji bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘latishga majbur.

Spirtli ichimliklarni yoki narkotik vositalarni suiiste’mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining roziligisiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin (FK 120-m.).

Shuningdek o‘z harakatlarining ahamiyatini tushunishga yo ularni boshqarishga layoqati bo‘lmagan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim deb muomalaga layoqatli bo‘lsa-da, bitim tuzish paytida qandaydir (masalan, gipnoz, psixotrop modda) omil ta’sirida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan holatda bo‘lgan shaxs tomonidan tuzilgan bitimga aytiladi. Bunday bitim ham sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan ikki holdan birinchisida da’voni muomalaga layoqati cheklangan fuqaro nomidan uning homiysi qo‘zg‘atsa, ikkinchi holda, ya’ni bitim muomalaga layoqatli shaxs tomonidan tuzilganida, uning o‘zi qo‘zg‘atishi mumkin. Agar bunday bitimlar haqiqiy emas deb topilsa, taraflarning har biri bitim yuzasidan olingan barcha narsalarni ikkinchi tarafga qaytarishga, agar olingan narsani natura baravarida qaytarish mumkin bo‘lmasa, uning qiymatini to‘lashga majbur bo‘ladi.

Aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish ta’siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoxud fuqaro uchun og‘ir holatlarning yuz berishi oqibatida tuzilgan bitim jabrlanuvchining da’vosi bo‘yicha haqiqiy sanalmasligi mumkin.

Aldash ta’siri ostida bitim tuzilishida bitim tuzuvchi ikkinchi tarafni atayin yomon niyat bilan yanglishtiradi. Bu holda aldanuvchi taraf bitimning predmeti yoki uning shartlari to‘g‘risida xato tasavvur hosil qiladi. Shunday hol yuz berganida uy-joylarni egalikka berish haqidagi qaror va unga asosan egalik huquqi to‘g‘risida berilgan order bitimlari fuqarolik qonunchiligida belgilangan asoslarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qo‘rqitish ta’siri ostida bitim tuzilishida jabrlangan shaxs o‘ziga yoki yaqin kishilariga biror mulkiy yoki shaxsiy zarar yetkazilishidan qo‘rqib, bitim tuzishga majbur bo‘ladi.

Zo‘rlik deb bir shaxsning boshqa shu shaxsni bitim tuzishga majbur qilish maqsadida uning o‘ziga yoki yaqin kishilariga jismoniy azob yetkazishdan iborat bo‘lgan g‘ayriqonuniy ta’siri tushuniladi.

Bir taraf vakilning ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi tufayli bitim tuzilsa, vakilning yoki u bilan bitim tuzuvchining manfaatlari nazarda tutilib, vakil qilinuvchining zarariga harakat qilinadi. Masalan, muayyan narsani sotib olish uchun vakil qilingan shaxs sotuvchi bilan yomon niyatda o‘ziga ma’lum bir mukofot berilishi sharti bilan narsani yuqori bahoda sotib olish to‘g‘risida kelishsa, yuqoridagi hol yuz beradi.

Og‘ir holatlarning vujudga kelishi tufayli tuzilgan bitimda taraflardan biri qattiq muhtojlik holati ta’sirida harakat qiladi va o‘zi uchun zararli ekanligi oshkora ko‘rinib turgan bitimni tuzadi.

Aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta’sirida tuzilgan bitim, shuningdek og‘ir holatlar yuz berishi tufayli tuzilgan bitim (asoratli bitim) haqiqiy emas deb topilsa, bu holat ikkinchi tarafning bitim yuzasidan olgan narsasini natura baravarida qaytarishi mumkin bo‘lmasa, uning qiymatini to‘lashi lozim. Bitim yuzasidan jabrlanuvchining ikkinchi tarafdan asossiz olingan mulki davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bundan tashqari, ikkinchi taraf bitimning haqiqiy emas deb topilishi tufayli vujudga kelgan xarajatlarni, yo‘qotilgan mol-mulk va yetkazilgan zararni jabrlanuvchiga to‘lashi shart (FK 123-m.).

Fuqarolik kodeksining 125-moddasiga asosan, yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Moddiy ne’matlar» tushunchasi va ahamiyatini tavsiflang.

2. Muomaladan chiqarilgan va muomalada bo‘lishi cheklangan obyektlar deganda nimani tushunasiz?

3. Haqiqiy sanalmaydigan bitimning umumiy oqibatlari va shartlari nimalarda ifodalanadi?

4. Quyidagi haqiqiy sanalmaydigan bitim turlarining bir-biridan farqi va xususiyatlarini sanab o‘ting.

a) 14 yoshga to‘lmagan shaxslar, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlar;

b) muomalaga layoqatsiz deb topilganlar tomonidan tuzilgan bitimlar;

d) muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar;

e) o‘z harakatlarining ahamiyatini tushunib yetmagan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan hamda yanglishish ta’sirida tuzilgan bitimlar;

f) aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoki og‘ir holatlar yuz berishi ta’sirida tuzilgan bitimlar.

5-MAVZU.
VAKILLIK, ISHONCHNOMA VA DA’VO MUDDATI

1. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi.
2. Ishonchnomaning tushunchasi, turlari, shakllari, muddatlari va bekor bo‘lish asoslari.
3. Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va turlari. Da’vo muddati, uning ahamiyati va turlari.

1. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi

Vakillik avvalo fuqarolik-huquqiy munosabatdir. Ya’ni, vakillik – vakilni vakolat beruvchi shaxs bilan bog‘laydigan fuqarolik-huquqiy munosabatdir. Bu munosabatda bir tomondan (vakolat beruvchi) va ikkinchi tomondan (vakil) ishtirok etadi. Vakillikdan ko‘zlangan maqsad vakolat beruvchi nomidan vakil, qonuniy yuridik harakat (bitimni)ni amalga oshiradi. Fuqarolik kodeksining 10-bobi «Vakillik va ishonch-noma» deb nomlanadi. FKning 129-moddasida vakillikka huquqiy tushuncha beriladi. Unga ko‘ra, ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi (FK 129-m.).

Demak vakil vakolat beruvchining nomidan ish yuritadi. Bunda vakilning yuridik harakatlari vakolat beruvchida fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Vakil yuridik harakatlarni amalga oshirish vakolatini ishonchnomaga, qonunga, sudning qaroriga yoki davlat organining hujjatiga asosan amalga oshiradi.

Vakil o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida ish yuritadi. Vakil vakolat beruvchining vakolatlari doirasidan tashqari chiqib yoki vakolatni suiiste’mol qilib amalga oshirgan harakatlari va tuzgan bitimlari vakolat beruvchida hech qanday huquq va majburiyatni vujudga keltirmaydi. FKning 132-moddasiga asosan, vakolat bergan shaxs tomonidan bitimning keyinchalik ma’qullanishi bundan mustasno.

Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, o‘z xarakteriga ko‘ra shaxsan tuzilishi mumkin bo‘lgan va qonunda ko‘rsatilgan bitimlar vakillik orqali tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, nikoh tuzish yoki vasiyat tuzishni vakillik orqali amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Vakillikning mohiyati shundaki, unga asoslanib tuzilgan bitimlar faqat vakolat beruvchi uchungina muayyan huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Vakilning shaxsan o‘zi esa bitimlar yuzasidan hech qanday huquq va majburiyatlar olmaydi.

Vakillik orqali huquq layoqatini amalga oshirish, ya’ni huquqlar olish va majburiyatlarni bajarish mumkin bo‘lganligi sababli, vakillarning xizmatiga ham fuqarolar, ham yuridik shaxslar birdek muhtoj bo‘ladilar. Masalan, fuqaro o‘ziga qarashli uy-joyni vakil orqali boshqarishi yoki sotishi, tashkilotlar esa, vakillar orqali bir-birlari bilan turli shartnomalar tuzishlari mumkin.

Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo‘lishlari, ya’ni vakillik qilishlari mumkin. Ayrim hollarda istisno sifatida o‘n olti yoshga to‘lib, pasport olgan fuqaro ham vakil bo‘lishi mumkin. Faqat bunda 16 yoshdagi fuqaro qila olishi mumkin bo‘lgan yuridik harakatlar uchun vakillik qiladi.

Fuqarolarning faqat bir-birlari uchun emas, balki ba’zi hollarda, tashkilotlar uchun ham vakil bo‘lishlariga qonun yo‘l qo‘yadi. Masalan, savdo va ta’minot bo‘limlarining agentlari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar tashkilotlarning vakillari sifatida ish bajaradilar.

Yuridik shaxs faqat o‘z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o‘z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo‘lgandagina fuqarolarning vakili yoki boshqa yuridik shaxsning vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

Sudda voyaga yetmagan shaxslar, vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar fuqarolarning vakillari sifatida qatnasha olmaydilar. Sudyalar, tergovchilar va prokurorlar qonuniy vakil sifatida (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek, tegishli sud yoki prokuraturaning vakili sifatida qatnashish hollaridan tashqari, sudda vakil bo‘la olmaydilar (FPK 5-m.).

Vakolat beruvchi har qanday shaxs (muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz fuqarolar ham), shuningdek, yuridik shaxs ham bo‘lishi mumkin.

Vakolat va uning turlari. Vakil o‘zida bo‘lgan vakolatga binoan o‘zini vakil qiluvchiga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Binobarin, *vakolat* deb vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu orqali uning uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquqi tushuniladi. Vakilning vakolatlari *qonunga, sud qaroriga,* vakil qilingan *davlat organlarining hujjatlari* yoki *ishonchnomaga* asoslangan bo‘lishi mumkin.

Vakil o‘z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirishga majbur. Binobarin, vakil o‘ziga vakolat bergan shaxs nomidan shaxsan o‘ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo‘lgan hollar bundan mustasno (FK 129-m. 3-q.).

Agar boshqa shaxs nomidan harakat qilish uchun hech qanday vakolat bo‘lmasa yoki vakolatli bo‘lsa ham bu vakolat doirasidan chetga chiqilgan bo‘lsa, u holda tuzilgan bitimlar kimning nomidan harakat amalga oshirilgan bo‘lsa, mazkur shaxs uchun huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi.

Fuqarolik kodeksining 132-moddasida ko‘rsatilganidek, vakil qilinmagan shaxs tomonidan boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergan shaxs ushbu bitimni keyinchalik ma’qullagan taqdirdagina uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham bunday bitim ma’qullangan hisoblanadi.

Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs tomonidan bitimning kelgusida ma’qullanishi uni tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy deb hisoblashga huquq beradi.

Bitimlar tuzishda vakil o‘z xohishi bilan harakat qiladi. U o‘ziga berilgan vakolat hajmiga, amaldagi huquqiy normalarning qoidalariga, vakolat beruvchining ko‘rsatmalariga asoslanib ish yuritadi. Bitim tuzilishida vakilning xohishi ham vakolat doirasida ifodalanganligi bois, vakilning jiddiy ravishda yanglishishi, aldanishi, qo‘rqitilishi yoki zo‘rlik ta’sirida tuzgan bitimi sud tomonidan haqiqiy emas topilishi mumkin.

Vakil komissionerdan farq qiladi. Agar vakil bitim tuzishda boshqa bir shaxs nomidan harakat qilsa, komissioner boshqa bir shaxs, – komitent topshirig‘i bo‘yicha va uning hisobiga harakat qilsa ham bitimni o‘z nomidan tuzadi.

Vakolat beruvchi vakil tomonidan yuridik harakatlar qilish, o‘zi uchun uning muayyan fuqarolik huquqlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish niyatida bo‘lganligini o‘zi bilan bitim tuzuvchi shaxslarga aniq-ravshan bildirishi lozim. Vakilning bunday niyatdaligi vakil harakat qilayotgan vaziyatning o‘zida ham ko‘rinib turishi mumkin. Masalan, chakana savdo korxonasidagi sotuvchi, hazinachi va boshqalarning harakatlari, ularning muayyan bir tashkilot vakillari ekanliklarini bildiradi.

Vakil bilan vakolat beruvchi o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardan vakilning yuridik harakatlari tufayli, jumladan, u tomondan tuzilgan bitimga asosan vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxs o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatni ajratish kerak. Agar vakil bilan vakolat beruvchi o‘rtasidagi munosabat (ichki munosabat) shartnomaga, masalan, topshiriq yoki mehnat shartnomasiga asoslangan bo‘lsa, yoxud boshqa turdagi yuridik faktlarga, chunonchi, tug‘ishganlik, vasiylik, farzandlikka olish faktlariga asoslanganida vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxs o‘rtasidagi huquqiy munosabat (tashqi munosabat) vakilning uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimi asosida vujudga keladi.

Vakolatning qanday asoslardan vujudga kelishiga qarab, *vakillik ikki turga:* qonun bo‘yicha vakillik va shartnoma bo‘yicha, ya’ni ixtiyoriy vakillikka bo‘linadi.

Vakillik va uning vakolati me’yoriy hujjat bilan belgilangan taqdirda bunday vakillik *qonuniy vakillik* deb ataladi. Qonun bo‘yicha vakillik muomalaga layoqatsiz shaxslar, yosh bolalar, ruhiy kasallar va aqli zaiflarning huquq va manfaatlari qo‘riqlanishini ta’minlashga qaratiladi. Sud organlarida vakillik qilish to‘g‘risidagi qoidalar tegishli qonunlar bilan belgilanadi.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar, Fuqarolik kodeksining 131-moddasida belgilanganidek, muomalaga layoqatsiz shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar. Muomalaga layoqatsizlar uchun vakillik qilish va ularning nomidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning doirasini qonun qat’iy belgilaydi. Bular bolalarning xususiy mulkini fuqarolik qonunchiligi bilan belgilangan tartibda boshqarish va tasarruf etishga hamda muomalaga layoqatsiz-larning nomidan bitimlarni ishonchnomasiz amalga oshirishga haqli bo‘lgan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 74-moddasiga muvofiq, bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalariga yuklatiladi. Ota-onalar o‘z bolalarining qonuniy vakillari bo‘lib, har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, jumladan sudlarda maxsus vakolatlarsiz ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilib chiqadilar.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar tomonidan vasiylik ostidagilarning mulki bilan amalga oshiradigan bitimlarining qonuniyligi ustidan nazoratni homiylik va vasiylik idoralari amalga oshiradi, ular bitimlarning qonuniyligiga gumon tug‘ilgan holda sud tartibida ota-onalar,

farzandlikka oluvchilar va vasiylar tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

Shartnomali, ya'ni *ixtiyoriy vakillik* vakil va uning nomidan vakolat beruvchining xohishi bilan belgilanadi. Bunday vakillikda vakil va uning vakolati vakolat beruvchi tomonidan ko'rsatiladi.

Shartnoma bo'yicha vakillikda mehnat shartnomasiga ko'ra, tashkilot nomidan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi xizmatchi, masalan, tashkilotlarning yurist maslahatchilari, ta'minot vakillari va boshqalar vakil bo'lib hisoblanadilar. Topshiriq shartnomasiga binoan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi shaxslar ham shartnoma bo'yicha vakil bo'la oladilar.

Fuqarolik kodeksining 133-moddasiga milliy fuqarolik huquqi uchun yangi bo'lgan vakillik turi kiritilgan bo'lib, bu tijorat vakilligidir. Tijorat vakili doimo tadbirkorlar nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni surunkali va mustaqil suratda amalga oshiradigan tadbirkordir. Ushbu vakillikning boshqa vakillikdan farqi shundaki, odatdagi bitimlardan tashqari undan boshqa hech kim tuza olmaydigan bitimlarni ham tuzishlari mumkin. Ya'ni, ayni bir vaqtda ikkala tomonning (sotuvchi va xaridor, qarz beruvchi va qarzdor, pudratchi va buyurtmachi va sh.k.) vakili bo'lgan tijorat vakili tomondan bitim tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

Tijorat vakiliga FK bilan tegishli huquqlar beriladi va majburiyatlar yuklatiladi. Tijorat vakilligi tadbirkorlik faoliyati sohasida amalga oshirilishi tufayli, tijorat vakili va uning vakolat beruvchilari o'rtasida shartnomalar haq evaziga amalga oshiriladi. Shuningdek, tijorat vakilining o'zi amalga oshirayotgan savdo bitimlari to'g'risida ma'lumotlarni sir saqlash majburiyati belgilab qo'yilgan. Hatto topshiriq bajarilganidan keyin ham bu sirni oshkor qilmaslikni qonun nazarda tutadi.

Umuman aytganda vakillik ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilishi mumkin. Faqat qonunda shaxsning shaxsan o'zi tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ishlarni va o'zi tomonidan tuzilishi belgilangan bitimlarni vakillik orqali amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

2. Ishonchnomaning tushunchasi, turlari, shakllari, muddatlari va bekor bo'lish asoslari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 134-moddasida ta'riflanishicha, bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxs oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat *ishonchnoma* hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga

ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnomaga vakil uchun vakolat belgilashga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida qaraladi. Ishonchnoma topshiriq shartnomasi, mehnat shartnomasi, ekspeditsiya shartnomasi va boshqa shartnomalar asosida beriladi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko‘rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FK 134-m. 2-q.).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek, bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. Chunonchi, uy-joy qurish shirkatining vakili shirkat a’zolarining barchasi yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.

Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo‘lishi uchun beriladi.

Ishonchnomaning mazmunidan ishonchli vakilning qanday vakolatlarga ega ekanligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqli ekanligi ko‘rinib turadi. Binobarin, ishonchli vakil ishonchnomada ko‘satilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzgan bo‘lsa, ishonch bildiruvchi bu shartnomani bajarishdan bosh torta olmaydi.

Ishonchnoma umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi. Ammo, ishonchnomaning mazmuniga keng ma’noda yondashsak, uni uchta turga bo‘lish mumkin:

Bir martalik ishonchnoma. Bunda bitta muayyan harakatni amalga oshirish uchun beriladi, masalan, uy-joyni sotish yoki ish haqini olish uchun berilgan bo‘lishi mumkin.

Maxsus ishonchnoma. Bunda vakilni ishonch bildiruvchi uchun bir qancha turdagi harakatlarni, asosan, ma’lum vaqt davomida amalga oshirishga vakolat beradi. Bu turdagi ishonchnoma bir vaqtda yoki ma’lum muddatlarda har xil hududlarda bir turdagi mahsulotlarni sotib olish uchun berilishi mumkin.

Bosh ishonchnoma. Bunda vakilni ishonch bildiruvchining butun huquqlari hajmi yuzasidan bitimlarni va boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun vakolatlaydi. Bunday ishonchnoma, odatda, yuridik shaxsning vakolatxonalariga beriladi, u tijorat vakiliga, ustidan patronaj shaklida vasiylik o‘rnatilgan fuqaroning vakiliga, ishonchli boshqaruvda berilishi mumkin.

Ishonchnoma ma’lum tarzda rasmiylashtirilishi lozim. U alohida hujjat tarzida bo‘lishi yoki vakolat beruvchining va vakilning ichki munosabatlarini belgilaydigan shartnomaga kiritilishi mumkin.

Ishonchnoma doimo yozma shaklda bo‘lishi talab etiladi, qonunda ko‘rsatilgan hollarda esa notarial tasdiqlanishi yoki FKning 136-moddasida ko‘rsatilgan tashkilotlar va shaxslar tomonidan tasdiqlanishi talab etiladi.

Fuqarolar tomonidan berilgan ishonchnomada ishonch bildiruvchining imzosi bo‘lishi talab etiladi. Yuridik shaxsning nomidan berilgan ishonchnomani uning rahbari yoki ta’sis hujjatlari bilan vakolatlangan shaxs imzolashi kerak va bu imzo o‘sha tashkilotning muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Ishonchnomada berilgan muddat, uning amal qilishi muddati muhim hisoblanadi. Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko‘rsatilishi lozim, aks holda u haqiqiy sanalmaydi. *Ishonchnoma ko‘pi bilan uch yil muddatga* berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o‘z kuchini saqlaydi.

Berilgan kuni ko‘rsatilmagan ishonchnoma FKning 139-moddasiga asosan haqiqiy emas deb topiladi.

Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda ularning amal qilish muddati albatta ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risida»gi Qonunning 90-moddasiga (Chet elda amal qilishga mo‘ljallangan ishonchnomalar) asosan, notarius tomonidan tasdiqlangan, chet elda amal qilishga mo‘ljallangan, amal qilish muddati ko‘rsatilmagan ishonchnomalar ularni bergan shaxs tomonidan bekor qilinguniga qadar o‘z kuchida qoladi.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Fuqarolik kodeksining 136, 137, 138-moddalarida nazarda tutilgan hollar va qonun hujjatlari bilan ishonchnomaning o‘zgacha shakli belgilab qo‘yilgan boshqa hollar bundan mustasno (FK 135-m. 2-q.). Ishonchnomaning notarial tartibda tasdiqlanishining majburiyligi maxsus qonunlarda ko‘rsatilishi mumkin.

Ishonchnomalarning notarial idoralardan tashqari, boshqa tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi Fuqarolik kodeksining 136, 137-moddalarida belgilangan. Chunonchi, xat-xabarlar, shu jumladan pul va jo‘natmalar ish haqi hamda mehnat munosabatlari bilan bog‘liq boshqa to‘lovlarni olishga, mualliflar va kashfiyotchilarga to‘lanadigan haqlar, pensiya, nafaqa va

stipendiyalarni, shuningdek, bank muassasalaridan summalarni olish haqidagi ishonchnoma fuqaro yashab turgan joydagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan u ishlaydigan yoki o‘qiydigan tashkilot, u yashaydigan uyga xizmat ko‘rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti, davolanib turgan joyida esa – davolanish muassasasining ma’muriyati tomonidan, harbiy xizmatchiga ishonchnoma berilganda – tegishli harbiy qism qo‘mondonligi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo‘lgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarga beriladigan ishonchnomalar tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risidagi» Qonuning 26-moddasiga (Notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladigan vasiyatnomalar va ishonchnomalar) asosan, Quyidagilar notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladi:

kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari va bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga o‘xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo‘lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxslarning, ular oila a’zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a’zolarining harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno.

Vasiyatnomalar va ishonchnomalarni ushbu moddada aytib o‘tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilab qo‘yadigan tartibda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirish uchun beriladigan ishonchnoma shu yuridik shaxsning bosh (katta) buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi (FK 138-m.).

Vakillik shaxsiy ishonchga bog‘liq bo‘lganligi tufayli vakolat olgan shaxs qanday harakatlarni amalga oshirishga vakil qilingan bo‘lsa, ularni shaxsan o‘zi bajarishi lozim. Vakil olgan vakolati yuzasidan bu harakatlarni bajarishni faqat ishonchnomada ko‘rsatilgan hollarda yoki vakolat beruvchining manfaatlarini qo‘riqlash uchun muayyan sharoitlar tufayli birovga topshirishga majbur bo‘lgan taqdirda boshqa shaxsga topshirishga haqli. Vakolatning vakil tomonidan boshqa shaxsga o‘tkazilishi ehtimoli bo‘lganda ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishonchnoma, Fuqarolik kodeksining 141-moddasida ko‘rsatilganidek, quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

1) muddati tugashi bilan;

2) ishonchnoma beruvchi tomonidan bekor qilinishi bilan;

3) vakolat olgan shaxsning vakillikdan bosh tortishi bilan;

4) nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining tugatilishi bilan;

5) nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to‘xtatilishi bilan;

6) ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb hisoblanishi yoxud uning vafot etishi bilan.

Ishonchnoma beruvchi ishonchnomani xohlagan paytida bekor qila oladi, ishonchnoma oluvchi ham xuddi shu tartibda undan bosh torta oladi.

Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning tugashi tufayli ishonchnoma bekor qilinganida, bu vazifa vakolat beruvchining huquqini olgan shaxslarga yuklatiladi. Vakolat beruvchining vafot etishi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda esa bu vazifa uning vorislariga yuklatiladi.

Ishonchnoma bergan shaxs uning bekor qilinganligi to‘g‘risida ishonchnoma olgan shaxsni, shuningdek, ishonchnoma yo‘naltirilgan o‘ziga ma’lum uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi shart. Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs bekor bo‘lgan, ishonchnoma bergan

fuqaro vafot etgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda ishonchnoma bekor bo‘lgani haqida xabardor qilinib, ishonchnoma bergan shaxs huquqi uni qabul qilib oluvchi boshqa shaxs zimmasiga yuklatiladi.

Ishonchnoma bekor bo‘lganidan so‘ng vakolat olgan shaxs tomonidan qilingan harakatlar to‘g‘risida Fuqarolik kodeksining 142-144-moddalarida bayon qilingan. Ishonchnomaning bekor bo‘lganligini bilgunicha yoki bilishi lozim bo‘lganiga qadar ishonchnoma bergan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan qilingan harakatlar ishonchnoma beruvchi yoki uning huquqlarini oluvchilar uchun o‘z kuchini saqlab qoladi.

Ishonchnoma olgan shaxsning ishonchnoma bekor bo‘lgani yoki tugatilganini bilganidan yoki bilishi lozim bo‘lganidan so‘ng qilgan harakatlari vakolatnoma beruvchi uchun huquq va majburiyat tug‘dirmaydi. Ishonchnoma bekor bo‘lganidan so‘ng vakolat olgan shaxs yoki uning vorislari (huquq va majburiyat oluvchilar) ishonchnomani darhol qaytarishlari lozim.

Ishonchnoma bekor bo‘lgani bilan bu ishonchnoma yuzasidan boshqa shaxslarga topshirilgan vakolat (o‘tkazilgan vakolat) ham o‘z kuchini yo‘qotadi.

FKning 144-moddasi «Ishonchnomani qaytarib berish majburiyati» deb nomlanadi. Unga ko‘ra, bekor bo‘lgan ishonchnoma uning keyingi noqonuniy ishlatilishi imkoniyatining oldini olish uchun vakil (uning huquqiy vorislari) tomonidan uni bergan shaxsga qaytarib berilishi lozim. Ishonchnomaning nusxalari, jumladan, notarial tasdiqlangan nusxalari emas, faqat uning asl nusxasigina yuridik kuchiga ega bo‘ladi.

3. Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va turlari. Da’vo muddati, uning ahamiyati va turlari

Fuqarolik huquqida aniq belgilangan vaqtga *muddat deb* aytiladi. Muddatning o‘tishi ma’lum yuridik fakt hisoblanadi, chunki uning o‘tkazib yuborilishi natijasida, qonunda nazarda tutilgan hollarda, muayyan huquqiy oqibatlar vujudga keladi, biron-bir huquq va majburiyat olinadi, o‘zgartiriladi yoki yo‘qotiladi. Masalan, Uy-joy kodeksining 68-moddasiga ko‘ra, ijaraga oluvchi va uning oila a’zolari turar joydan vaqtincha, olti oydan ortiq muddatga ketib qolsalar, turar joy maydoniga bo‘lgan huquqlarini yo‘qotishlari mumkin.

Vaqt majburiyat huquqiga oid munosabatlarda ham ahamiyatga ega. Masalan, o‘zaro shartnoma tuzgan shaxslar ma’lum vaqt ichida biron-bir harakatni qilishlari; shartnoma predmeti bo‘lgan ashyoni topshirishlari,

muayyan ishni bajarishlari; pul to‘lashlari, ikkinchi taraf tomonidan bajarilgan ijroni qabul qilishlari lozim.

Fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda muddatlarning to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida tatbiq etilishi – munosabatlarda qatnashuvchilarning huquqlarini qo‘riqlash, qonuniylikni ta’minlash, tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarda esa – xo‘jalik hisobini mustahkamlash, korxonalarning normal ishlashini yo‘lga qo‘yish hamda topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishda katta rol o‘ynaydi.

Muddatlar kim tomonidan belgilanishiga qarab, amalda uchga bo‘linadi: a) qonuniy muddatlar; b) shartnomali muddatlar; v) sud, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan belgilangan muddatlar.

Qonuniy muddatlar – huquq normalarida belgilangan muddatlar. Bu muddatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning o‘zaro kelishuvlari bilan umumiy qoida bo‘yicha o‘zgartirilishi mumkin emas. Bunday muddatlarga misol qilib fuqarolarning to‘la yoki qisman muomala layoqatiga ega bo‘lish muddatlari (FK 22-27-m.), ishonchnoma muddati (FK 139-m.), umumiy da’vo muddati (FK 150-m.) va boshqa muddatlarni ko‘rsatish mumkin.

Shartnomali muddatlar FKning 357-moddasida ko‘rsatilgan bitimlar bilan belgilanadigan shartnomali muddatlarning bir turi hisoblanadi. Bu muddatlar shartnoma tuzuvchi shaxslarning o‘zaro kelishuvlari bo‘yicha belgilanishi, o‘zgartirilishi, qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. *Masalan,* ular imoratlar qurilishi, ta’mirlanishi, uy-joylarning ijaraga berilishida tuziladigan shartnomalarda ko‘rsatiladi.

Sud, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan belgilangan muddatlar biron-bir huquq va majburiyatni olish, o‘zgartirish yoxud bekor qilish to‘g‘risida tayinlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha turdagi muddatlarga rioya qilish buyurtma topshiriqlarini bajarish yuzasidan tuziladigan mahsulot yetkazib berish, kapital qurilishiga oid, pudrat, yuk tashish va boshqa shartnomalarning o‘z vaqtida bajarilishini, shartnoma tuzuvchi tashkilot va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning qat’iyligini ta’minlash hamda qonun bilan belgilangan davlat va shartnoma intizomiga rioya qilishni ta’minlashda ahamiyat kasb etadi.

Muddatlar huquqiy oqibatlari bo‘yicha quyidagicha tasniflanadi.

Da’vo muddatlari, ya’ni buzilgan huquqning himoya qilinishi uchun qonun belgilagan muddatlar. Masalan, qarz olgan fuqaro qarzini qaytarmasa, unga nisbatan uch yil mobaynida da’vo qilinishi mumkin.

Agar bu muddat davomida uzrsiz da’vo qilinmasa, da’vo predmeti bo‘lgan huquq yo‘qotilishi mumkin.

E’tiroz bildirish muddatlari – shartnomalar bo‘yicha olingan majburiyatlar qarzdor tomonidan butunlay yoki lozim darajada bajarilmaganida tashkilotlarning bir-birlariga talablarini bildirish uchun belgilangan muddatlar. Tashkilotlar o‘rtasidagi ko‘pgina huquqiy munosabatlarda nizolarni hal qilish uchun e’tiroz bildirish tartibi belgilangan. Masalan, temir yo‘l korxonasiga tashish uchun topshirilgan yuk yo‘qotilsa, unga nisbatan olti oylik muddat davomida e’tiroz bildirilishi mumkin. E’tiroz bildirish muddatining o‘tkazib yuborilishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda, talablarning xo‘jalik sudi tomonidan qondirilmasligiga asos bo‘ladi.

Kafolat muddatlari – bu muddatlar davomida sotib olingan, buyurtma qilingan ashyoda yoxud bajarilgan ishda kamchiliklar topilgan taqdirda, oluvchi yoki buyurtmachi mazkur nuqsonlarning tekinga bartaraf etilishini yoki ashyoning almashtirilishini yoxud qayta topshirib to‘langan pulning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega. Kafolat muddatining o‘tkazib yuborilishi oluvchi yoki buyurtmachini yuqorida ko‘rsatilgan huquqlardan mahrum qiladi. Masalan, 6 oylik kafolat muddati belgilangan buyumni olgan fuqaro mazkur muddat davomida undagi kamchiliklar to‘g‘risida arz qilmasa, keyinchalik uni almashtirish yoki pulini olish huquqini yo‘qotadi.

Majburiyatlarni bajarish va huquqni amalga oshirish vaqtini belgilaydigan muddatlarga misol qilib qarz shartnomasi bo‘yicha 15 aprelda olingan qarzning qarzdor tomonidan ikki oydan so‘ng, ya’ni 15 iyunda qaytarish majburiyati olinganligini ko‘rsatish mumkin. Mazkur muddat bir tomondan majburiyat vaqtini belgilasa, ikkinchi tomondan kreditor uchun huquqni amalga oshirish vaqti kelganligini bildiradi.

Muddatlarni belgilash usullari har xil bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining 145-147-moddasida ko‘rsatilganidek, muddatlar, *birinchidan,* kalendar sanasi bilan; *ikkinchidan,* yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan; *uchinchidan*, muqarrar yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeani ko‘rsatish bilan ham belgilanishi mumkin.

Odatda, muddatlar aniq kalendar sanasi bilan belgilanadi. *Masalan*, turar joy haqi o‘tgan oy uchun yangi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan to‘lanishi ko‘rsatiladi.

Yillar va oylar bilan hisoblanadigan muddatning o‘tishiga misol qilib umumiy da’vo (FK 150-m.) hamda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da’vo muddatlarini (FK 151-m.) ko‘rsatish mumkin. Muddatni kunlar

bilan hisoblash ko‘pincha transport korxonalari faoliyatiga taalluqlidir. Elektr ta’minoti korxonalarida vaqt, muddat asosan soat bilan belgilanadi.

Muddatlar o‘tishining boshlanishi va tamom bo‘lishi. Muddatlar o‘tishining boshlanish vaqtini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, muddat tamom bo‘lishi vaqtini to‘g‘ri aniqlab olish imkonini beradi. Bu esa yuridik fakt, ya’ni ma’lum huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan yoki bekor qiladigan holatlar bilan bog‘liq.

Muddatning tamom bo‘lishini aniqlash to‘g‘risida shuni aytish joizki, yillar bilan hisoblanadigan muddat, uning oxirgi yilidagi tegishli oy va kunda tamom bo‘ladi. Muddatning boshlanishiga to‘g‘ri kelgan kun e’tiborga olinmaganligi sababli, muddatning boshlanish va tamom bo‘lish kunlari tegishincha qo‘shiladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat, shu muddatning oxirgi oyidagi tegishli kunida, tegishli kuni bo‘lmagan oyga to‘g‘ri kelib qolsa, bu holda mazkur muddat shu oyning oxirgi kunida o‘tadi. Ba’zi muddatlar yarim yil yoki yarim oy qilib ham belgilanishi mumkin. Bunda hisoblash tartibi quyidagicha belgilanadi: yarim yil deb belgilangan muddatga nisbatan oylab hisoblanadigan muddatlarga doir qoidalar qo‘llanilib, yarim oy deb belgilangan muddatga kunlar bilan hisoblanadigan muddat deb qaraladi va u o‘n besh kunga teng bo‘ladi (FK 147-m. 5-q.).

Haftalar bilan o‘lchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi (FK 147-m. 7-q.). Agar muddatning oxirgi kuni ish kuni bo‘lmagan kunga to‘g‘ri kelib qolsa, muddatning tamom bo‘lishi bundan keyingi ish kuni hisoblanadi.

Muddatning tamom bo‘lishini belgilash to‘g‘risida yana shuni aytish mumkinki, agar rus tilida yozilgan hujjatlarda oxirgi muddat, masalan, «do 5-go yanvarya» deb yozilgan bo‘lsa, 5 yanvar kuni hisobga o‘tmaydi, «po 5-oye yanvarya» deb yozilgan bo‘lsa, bu kun hisobga olinadi.

Muddatning oxirgi kunida harakat qilish tartibi Fuqarolik kodeksining 148-moddasida ko‘rsatilgan. Qonunda ta’kidlanilishicha, agar muddat biron-bir harakatni amalga oshirish uchun tayinlangan bo‘lsa, bu harakat muddatning oxirgi kunidagi soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi mumkin.

Masalan, qarzdor shartnomada olgan qarzini qaytaradigan kun 5 yanvar deb belgilangan bo‘lsa, olingan qarz 5 yanvar soat yigirma to‘rtgacha to‘lansa, qarzdor majburiyatini o‘z vaqtida bajargan bo‘ladi. Agar majburiyatni bajarishga qaratilgan harakat tashkilotda qilinishi lozim bo‘lsa, u holda muddat shu tashkilotda belgilangan qoidalarga muvofiq tegishli operatsiyalar (ishlar) tamom bo‘ladigan oxirgi soatda tugaydi.

Tegishli tashkilotlarga yuboriladigan barcha yozma hujjat (ariza, bildirish)lar muddatning oxirgi kuni soat yigirma to‘rtga qadar aloqa bo‘limiga yoki telegrafga topshirilgan bo‘lsa, muddat o‘tmagan hisoblanadi. Bu qoida umumiy xarakterga ega bo‘lib, sud, xo‘jalik sudi, prokuratura va boshqa tashkilot hamda muassasalarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan, fuqaro o‘z da’vo arizasini muddat tamom bo‘ladigan kun soat yigirma to‘rtga qadar aloqa bo‘limiga topshirgan bo‘lsa, da’vo muddati o‘tmagan hisoblanadi. Bu qoida tashkilotlar o‘rtasida tuziladigan yetkazib berish hamda yuk tashish singari shartnomalar yuzasidan bo‘ladigan da’vo, talab va shikoyatlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Da’vo muddati – shaxs o‘zining buzilgan huquqini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir.

Fuqarolik kodeksining 10-moddasida ko‘rsatilganidek, fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar yoki shartnomada belgilab qo‘yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo‘lishiga qarab, sud, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan himoya qilinadi. Zero, huquqlari buzilgan shaxs (fuqaro yoki tashkilot)lar yuqorida ko‘rsatilgan sud, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudiga da’vo arizasi berib, buzilgan huquqlarining himoya qilinishi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atishlari mumkin.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi, da’vo muddatining o‘tganligidan qat’i nazar, sudda ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi (FK 153-m.).

Agar da’vo arizasi qonun bilan belgilangan muddat davomida berilgan bo‘lsa, sud, tomonlarning da’vo ishini ko‘rib, ishning mazmuni bo‘yicha da’voni qondirish yoki qondirmaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi. Agar da’vo arizasi qonun bilan belgilangan muddatdan o‘tkazib berilgan bo‘lsa, sud muddatning o‘tkazilishi sababini muhokama qiladi. Agar da’vo muddati uzrsiz sabablar bilan o‘tkazilganligi aniqlansa, o‘tkazilgan muddat tiklanishi va ishning mazmuni bo‘yicha qaror chiqarilishi mumkin.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da’vo muddatlarining qonun bilan belgilanishi ahamiyatga ega. *Da’vo muddatining belgilanishi* fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to‘g‘risidagi talablar o‘z vaqtida bajarilishiga tashkilotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni tezlatishga, shartnoma va moliya intizomiga rioya etilishini ta’minlashga, xo‘jalik hisobini yaxshilashga yordam beradi. Da’vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, da’voni belgilangan muddatda to‘g‘ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to‘plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab uzoq

muddat o‘tgan bo‘lsa, dalillarni to‘plash qiyinlashadi. Chunki ishning sudda ko‘rilishi vaqtida ba’zi guvohlarning bo‘lmasligi (ko‘chib ketgan, vafot etganligi), ba’zilari esa bo‘lgan voqealarni, faktlarni unutgan bo‘lishi yoki bu faktlarni buzib tasvirlashi, ish to‘g‘ri hal qilinishi uchun zarur xarajatlar yo‘qotilganligi kabilar bunga sabab bo‘ladi. Agar da’vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo‘lsa, bitim tuzgan yoki birovning biror huquqini buzgan shaxs uzoq vaqt mobaynida o‘ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da’vo qilinishi xavfi ostida bo‘ladi.

Da’vo muddatlari va ularning turlari. Huquqi buzilgan shaxslarning da’volari yuzasidan ularning huquqini himoya qilish qonun bilan belgilangan bo‘lib, *da’vo muddatlari huquqiy munosabatning ishtirok-chilari va mazmuniga qarab umumiy va maxsus (qisqartirilgan yoki uzaytirilgan) muddatlarga bo‘linadi.*

Umumiy da’vo muddati – huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning barchasi uchun uch yil etib belgilanadi (FK 150-m.).

Fuqarolik kodeksining 151-moddasiga asosan ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da’vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da’vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Maxsus da’vo muddatlarini tartibga solish temir yo‘llar ustavi, Havo kodeksi va boshqa normativ hujjatlarda ko‘zda tutilishi mumkin.

Maxsus da’vo muddatlari faqat qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollardagina qo‘llaniladi. Chunonchi, *olti oy davom etadigan qisqartirilgan da’vo muddati:*

1) neustoyka (jarima, penya) undirish to‘g‘risidagi da’volar;

2) sotilgan ashyoning kamchiliklari to‘g‘risidagi da’volar;

3) sifati lozim darajada bo‘lmagan mahsulotlarni yetkazishdan kelib chiqadigan da’volarga joriy qilinadi.

Da’vo muddatlari imperativ, ya’ni qat’iy belgilanganligi sababli, bu muddatlar va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin emas (FK 152-m.).

Da’vo muddatining o‘ta boshlashi. Da’vo muddatini to‘g‘ri hisoblash uchun uning qay vaqtda tugashini belgilash zarur. *Da’vo muddatining tugashi da’vo qilish huquqi vujudga kelgan kundan boshlanadi.* Bunday huquq, ya’ni da’vo muddati shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan o‘ta boshlaydi.

Da’volarning turlariga qarab da’vo muddati o‘tishining boshlanish payti bir xil bo‘lmaydi, jumladan, bajarish muddati ko‘rsatilgan majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddatining o‘tishi uchun shu ko‘rsatilgan bajarish muddatining oxirgi kunidan keyingi kundan boshlanadi. Masalan,

fuqaro boshqa birovga 2005 yil 20 oktabrda to‘lash sharti bilan qarz bergan bo‘lsa, da’vo muddatining o‘tishi shu yil 21 oktabr soat 00.01 daqiqada boshlanadi. Bu vaqtdan avval kreditor qarzdorga nisbatan o‘z talabini qo‘yishga haqli emas.

Bajarish muddati ko‘rsatilmagan yoki kreditor tomonidan talab qilinish payti belgilangan majburiyatlar bo‘yicha da’vo muddatining o‘tishi jabrlangan shaxs o‘zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan e’tiboran boshlanadi.

Bu qoidadan istisnolar Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar bilan belgilanadi. Chunonchi, yuk tashish shartnomasi yuzasidan yuk ta-shuvchiga nisbatan da’vo qilish uchun belgilangan ikki oylik muddatning o‘tishi e’tiroz bildiruvchi tomonidan javob olingan yoki javob berish uchun belgilangan muddatning o‘tgan kunidan boshlansa, sifati lozim darajada bo‘lmagan mahsulotlar yetkazib berishdan kelib chiqadigan da’volar uchun belgilangan da’vo muddatining o‘tishi yetkazib berilgan mahsulotdagi kamchiliklar xaridor tomonidan tegishli tartibda belgilangan kundan boshlanadi.

Da’vo muddati o‘tishining to‘xtatilishi, uzilishi va tiklanishi. □oida bo‘yicha, da’vo muddatining o‘tishi uzluksiz davom etadi. Ammo ba’zi hollarda da’vo muddati davom etib turganda da’vo qilish uchun obyektiv xalaqit beradigan biror holat yuz berishi mumkin.

Da’vo muddatining o‘tishini to‘xtatadigan bunday holatlar qonunda (Fuqarolik kodeksining 156-m.) belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) da’vo qilish uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo‘lmas kuch) to‘sqinlik qilsa, masalan, toshqin, zilzila singari hodisalar yuz bersa;

2) majburiyatlarni bajarishni kechiktirish (moratoriy) to‘g‘risida hukumat qarori bo‘lsa;

3) agar da’vogar yoki javobgar harbiy holatga o‘tkazilgan Qurolli Kuchlar, chegara qo‘shinlari va ichki qo‘shinlar tarkibida bo‘lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo‘lmasa;

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarning amal qilishi to‘xtatilgan bo‘lsa, da’vo muddatining o‘tishi to‘xtatiladi.

Agar yuqorida ko‘rsatilgan holatlar da’vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo‘lsa, da’vo muddatida vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo‘lsa, da’vo muddatining o‘tishi to‘xtatiladi.

Muddatning to‘xtatib turilishiga asos bo‘lgan holat barham topgan kundan boshlab da’vo muddatining o‘tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da’vo muddati olti oydan kam bo‘lsa, da’vo muddatiga qadar uzaytiriladi (FK 156-m.).

Da’vo muddatining o‘tishi yuqorida ko‘rsatilgan umumiy asoslardan tashqari yana maxsus asoslar bo‘lgan taqdirda ham to‘xtatib turilishi mumkin. Bunday maxsus asoslar qonunlarda nazarda tutiladi.

Da’vo muddati o‘tishining uzilishi da’vo muddati o‘tishining to‘xtatilishidan qisman farq qiladi. Agar da’vo muddatining o‘tishi to‘xtaganda muddat yangidan hisoblanmasa, da’vo muddatining o‘tishi uzilgan holda, da’vo muddati uzilgunga qadar vaqt yangi muddatga qo‘shilmaydi va da’vo muddatining o‘tishi uzilganidan so‘ng yangidan hisoblanadi.

Da’vo muddatining o‘tishi ikki holda: birinchidan, belgilangan tartibda da’vo qo‘zg‘atilishi bilan, ikkinchidan, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko‘rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi (FK 157-m.).

Da’vo muddatining tiklanishi. Agar sud, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudi da’vo muddatining o‘tkazib yuborilishi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi lozim. Bu holda o‘tkazilgan da’vo muddati tiklanadi va taraflar o‘rtasidagi nizo mazmunan ko‘rib hal qilinadi.

Da’vo muddatining o‘tkazilishi sabablarini qanday hollarda uzrli deb topish to‘g‘risida qonun muayyan holatlarni ko‘rsatmaydi, binobarin, da’vo muddatini o‘tkazib yuborish sabablarini tekshirish va uzrli yoki uzrsiz deb topish huquqi sudga beriladi. Sud har safar muayyan ishning holatlarini e’tiborga olib, o‘tkazilgan da’vo muddatini uzrli yoki uzrsiz deb topishi mumkin.

Ba’zi hollarda fuqarolar va tashkilotlar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bilan qonunda belgilangan muddat davomida da’volarni qo‘zg‘ata olmasliklari mumkin. Masalan, fuqaro kasalligi, qariligi yoxud voyaga yetmaganligi, uzoq muddat davomida xizmat safarida bo‘lganligi sababli yoki javobgarning qayerda bo‘lishi noma’lum bo‘lganda va boshqa ba’zi hollarda o‘tkazib yuborilgan da’vo muddatlari sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Tashkilotlar tomonidan o‘tkazib yuborilgan da’vo muddatlari ham ba’zi hollarda sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Chunonchi, tashkilotlar o‘z mansabdor shaxslarining aybli harakatlari, nazoratchi organlarning noto‘g‘ri bergan buyruqlari, sud yoki xo‘jalik sudining xato harakatlari tufayli da’vo muddati o‘tkazib yuborilganda va boshqa istisnoli hollarda da’vo muddatining o‘tkazib yuborilganligi uzrli sabab deb topilishi va ishning hal qilinishiga olib kelishi mumkin.

Da’vo muddatining to‘xtalishi, uzilishi va tiklanishi to‘g‘risidagi qoidalar, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, maxsus da’vo muddatiga nisbatan ham joriy qilinadi (FK 151-m. 2-q.).

Da’vo muddati o‘tishining oqibatlari. Da’vo qo‘zg‘atilgunga qadar da’vo muddatining o‘tishi da’voni rad qilish uchun asos bo‘ladi. Demak, da’vogar (birovda haqi bo‘lgan shaxs) o‘z huquqini majburiy ravishda amalga oshirish imkoniyatini yo‘qotadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan da’vo muddati o‘tishining asosiy oqibatini belgilaydigan qoidadan tashqari qonunda shu yuridik fakt bilan bog‘liq boshqa qoidalar ham belgilanadi. Jumladan, asosiy talab bo‘yicha da’vo muddati o‘tishi bilan qo‘shimcha talablar (neustoyka, garov, kafolat va shu kabilar) bo‘yicha da’vo muddati ham o‘tgan hisoblanadi (FK 162-m.).

Ba’zi hollarda qarzdor o‘z majburiyatini da’vo muddati o‘tganidan so‘ng bajarishi hollari ham uchraydi. Bunday hollarda avval majburiyatni bajargan shaxs narsasi yoki to‘langan summaning qaytarilishi to‘g‘risidagi talabni qo‘ya olmaydi. Fuqarolik kodeksida da’vo muddati o‘tganidan keyin majburiyatni bajargan shaxs ijro etish paytida da’vo muddatining o‘tib ketganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lganligidan qat’i nazar bajargan narsasini qaytarishni talab qilishga haqli emas, deb ko‘rsatiladi (FK 161-m.).

Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar. Buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish uchun ko‘p hollarda da’vo muddati belgilansa, *da’vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:*

– shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

– omonatchilarning o‘z omonatlarini berish to‘g‘risida bankka qo‘yadigan talablariga;

– fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablariga. Da’vo muddati o‘tganidan keyin qo‘zg‘atilgan talablar da’vo qo‘zg‘atilishidan oldin ko‘pi bilan uch yil bo‘yicha qondiriladi;

– jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga;

– mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o‘z huquqini har qanday buzishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan buzishlarni bartaraf etish haqidagi talablariga;

– mamlakatda mustaqillik e’lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;

– qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga (FK 163-m.).

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Vakillik va ishonchnomalarning vazifalari nimadan iborat?
2. E’tiroz bildirish va kafolat muddatlarining ahamiyati haqida gapirib bering.
3. Hozirgi davrdagi tijorat vakilligining xususiyatlarini sanab bering.
4. Da’vo muddatining o‘tishi, to‘xtatilishi, uzilishi va tiklanishining oqibatlarini tasniflang.
5. Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablarning mohiyati va boshqa talablardan farqli jihatlarini tushuntirib bering.

6-MAVZU.
MULK HUQUQI. MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH

1. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: tushunchasi, mazmuni, turlari va shakllari.
2. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi asoslari.
3. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari: tushunchasi va tizimi.

1. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: tushunchasi, mazmuni, turlari va shakllari

Fuqarolar va shaxslar tomonidan tabiat boyliklari va boshqa ashyolarni o‘zlashtirish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar tizimi yuridik ma’noda «mulk» tushunchasi orqali qo‘llaniladi va u mulk huquqi sifatida ko‘rib o‘tiladi.

Mulk huquqi, o‘z navbatida, obyektiv va subyektiv mulk huquqlariga bo‘linadi.

Obyektiv ma’nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o‘zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va uni mustahkamlash uchun halq manfaatlarini ko‘zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig‘indisi nazarda tutiladi. Mulk to‘g‘risidagi umumiy qoidalar ob’yektiv huquq normalari hisoblanadi.

Subyektiv ma’nodagi mulk huquqi deb ayrim shaxslar, ya’ni huquq subyektlarining (davlat, shirkat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytiladi.

Mulkni o‘z xohishiga ko‘ra va o‘z manfaatini ko‘zlab egallash, mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o‘z mulk huquqini har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi mulk huquqining mazmunini tashkil etadi. Subyektiv mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan bu elementlar, mulk egasiga qonunda belgilangan doiralarda beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, mulkdor o‘ziga tegishli mol-mulkka o‘z ixtiyoriga ko‘ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shunga ko‘ra mulkdor o‘z mulkiga bo‘lgan huquqlarini ixtiyoriy, o‘z xohishiga ko‘ra amalga

oshiradi. Mulkdorning o‘z xohishi deganda, uning erki, irodasi bilan o‘zi va boshqalarning ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab, birovning tazyig‘i va zo‘rlashlarisiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Bunday holatda mulkdorga nisbatan zo‘rlik, tazyiq ko‘rsatilgan bo‘lsa, qonun mulkdorning xohish-irodasini erkin amalga oshirishini kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Ayni vaqtda mulkdorning o‘z xohishiga ko‘ra ish tutishi qonunga zid bo‘lmasligi kerak.

Mulkni egallash huquqi deb mulkni o‘z qo‘lida yoki o‘z huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytiladi. Mulkni qonunga muvofiq o‘z qo‘lida yoki o‘z xohish-irodasi ta’siri ostida saqlab turgan shaxs mulkni egallash huquqiga ega. Bunday huquq, avvalo, mulk egasiga tegishli bo‘ladi. Ammo mulkni egallash huquqi qonun yoki shartnomaga asosan boshqa shaxsda ham bo‘lishi mumkin. Masalan, mulk shartnomasi bo‘yicha uning ijaraga qo‘yilishida, vaqtincha tekin foydalanish uchun topshirilishida, omonat qo‘yilishida yoki ma’muriy dalolatnomalarga binoan vaqtincha saqlash uchun biron tashkilot yoki fuqaroga o‘tkazilishida egalik huquqi mulk egasi hisoblanmagan shaxsda ham bo‘lishi mumkin.

Qonuniy asoslar bo‘lmay turib, birovlarga qarashli mulkni egallashga, masalan, birovning o‘g‘irlangan yoki yo‘qotgan mulkini saqlashga mulkni qonunsiz egallash deb aytiladi.

Mulkdan foydalanish deb mulkning foydali xususiyatlarini olish va mulkdan iqtisodiy ma’noda foydalanishga aytiladi. Mulkdan qonunga muvofiq foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Mulkdan foydalanish huquqi shu mulkni egallash huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mulkni egallamay, saqlamay turib undan foydalanib bo‘lmaydi. Mulkdan ishlab chiqarishda yoki kundalik hayotda foydalanishda u butunlay iste’mol qilinadi yoki muayyan vaqt davomida eskiradi.

Agar birovning mulkidan qonun yoki shartnomada belgilangan asoslar bo‘lmay turib foydalanilsa, bunday foydalanish qonunsiz foydalanish hisoblanadi (masalan, o‘g‘irlangan yoki yo‘qotilgan mulkdan foydalanish).

Mulkni tasarruf etish huquqi deb mulkning yuridik taqdirini belgilashga, ya’ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo‘ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqqa aytiladi.

Mulk egasi tasarruf etish huquqiga ko‘ra mulk yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, chunonchi, ashyoni sotish, hadya qilish, ijaraga qo‘yish to‘g‘risidagi shartnomalarni tuza oladi. Agar ashyo butunlay

yaroqsiz bo‘lib qolsa, mulk egasi bunday ashyoni tashlab yuborishi, o‘zidan biron-bir usul bilan soqit qilishi mumkin. Bu huquq mulkdorning o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishiga imkon beradi.

Bu huquq tugashi bilan mulkka egalik huquqi ham yakunlanadi. Masalan, mulkni omonat qo‘yishda ashyoni egallash huquqi, ijaraga qo‘yishda ashyoni egallash va undan foydalanish huquqi ashyoning sotilishi yoki hadya qilinishida esa subyektiv mulk huquqining har uch elementi: egallash, tasarruf etish va mulkka egalik huquqi butunlay boshqa shaxsga (yangi egasiga) o‘tadi.

Mulk egalarining o‘zlariga tegishli mulk huquqidan g‘ayriqonuniy maqsadlarda yoki birovning zarariga foydalanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mulkdor huquqlarining, vakolatlarining chegarasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan. Konstitusiyaning 54-moddasiga asosan mulkdor o‘z vakolatlarini amalga oshirishda ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Bu konstitutsiyaviy norma Fuqarolik kodeksining 172-moddasida batafsil talqin qilingan. *Ushbu moddaga asosan mulk huquqini amalga oshirish shartlari quyidagilardan iborat:*

birinchidan, mulkdorning o‘z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart;

ikkinchidan, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo‘l qo‘yishga majbur. Masalan, ko‘chmas mulk (yer uchastkasi) egasi qo‘shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa – boshqa yer uchastkasining egasidan ham o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqli. Odatda, servitut piyodalar va transport yo‘li, elektr, aloqa, gaz yoki suv quvurlari o‘tkazish uchun zarur bo‘lishi mumkin. Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer egasining mulk huquqidan aslo mahrum qilmaydi. Servitutdan foydalanuvchi bilan yer uchastkasi egasi o‘rtasida servitut haqida bitim tuzilib, u ko‘chmas mulkka oid bitimlar kabi ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Servitut belgilangan uchastkaning egasi agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, servitut kimning foydasini ko‘zlab belgilangan bo‘lsa, o‘sha shaxsdan uchastkadan foydalanganlik uchun mutanosib haq talab qilishga haqlidir (FK 173-m.);

uchinchidan, mulkdor o‘zining ustunlik mavqeini suiiste’mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o‘zga harakatlarni qilishga haqli emas;

to‘rtinchidan, mulkdor o‘z huquqini amalga oshirganida fuqarolarning sog‘lig‘iga va atrof muhitga zarar yetkazilishining oldini olish choralarini ko‘rishga majbur.

«Mulk huquqi» tushunchasi mazmunida nafaqat mulkdorning huquqlari, balki mol-mulkni saqlab turish burchi ham tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 174-moddasiga asosan, o‘ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdor zimmasida bo‘ladi. Agar mulkdor bu majburiyatni bajarmasa, uning mulkiy huquqlari chegaralab qo‘yilishi yoki mol-mulk undan olib qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (36, 53, 54-m.), Fuqarolik kodeksi (164, 165, 172, 228, 231-m.) va boshqa qonunlarda mulk huquqining quyidagi asosiy prinsiplari o‘z ifodasini topgan:

– O‘zbekiston Respublikasida mulk daxlsiz, mulkdorning mulkiy huquqi qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin;

– iqtisodning samarali amal qilishi va halq farovonligining o‘sishiga yordam beradigan har qanday shakldagi mulkchilikning yaratilishiga ruxsat etiladi;

– mulkchilik barcha shakllarining himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning rivojlanishiga teng sharoit yaratib beriladi;

– mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday xatti-harakatlarni o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishga haqli;

– mulk huquqi amalga oshirilishida atrof muhitga zarar yetkazilmasligi, fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat huquqlari buzilmasligi hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga putur yetkazilmasligi shart;

– har kim mulkdor bo‘lishga haqli.

Iqtisodiy ma’nodagi mulk shakli – moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir. Bunday usullar yakka tartibda, jamoa bo‘lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik ma’nodagi mulk shakli – moddiy ne’matlarni muayyan subyektlarga tegishli ekanligini (biriktirilganligini) mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqiy tartibini belgilovchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida mulkchilikning xususiy mulk va ommaviy mulk shakllari mavjud.

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta’minlaydi va uning himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumlashtirish uchun mulk subyektining maqomi va mol-mulk tartibining uzviy birligi asosiy mezon hisoblanadi. O‘z navbatida, xususiy mulk quyidagi shakllarda (turlarda) namoyon bo‘ladi:

a) yakka shaxsga (individga) tegishli mulk (fuqarolar mulki);

b) nodavlat yuridik shaxslar mulki.

Ommaviy mulk tarkibiga esa quyidagilar kiradi:

a) O‘zbekiston Respublikasining mulki;

b) ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga asosan, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslardir (FK 208-m.).

Xususiy mulk huquqi subyektlari garchi turli-tuman va keng doirada bo‘lsa ham ularni birlashtiruvchi belgi mulkning vujudga kelishi, undan foydalanish, boshqarish, tasarruf etish, uning natijalaridan bahramand bo‘lishda jismoniy shaxs (xususiy shaxs)ning u yoki bu darajada ommaviy mulkdagi kabi fuqaro (davlatga mansub shaxs) yoki maxsus vakolatli mansabdor shaxs sifatida emas, balki mulkdor shaxs sifatida ishtirok etishidir. Bunday ishtirok etish bevosita (masalan, fuqarolarga tegishli mol-mulk bo‘yicha mulkdor vakolatlarini amalga oshirishda) yoki bilvosita (masalan, yuridik shaxsning ta’sis etuvchisi yoki yuridik shaxs mol-mulkidan bahramand bo‘luvchi subyekti sifatidagi huquqlarini amalga oshirishda) namoyon bo‘ladi. Har ikki shaklda ham shaxsga ma’lum mulkiy huquqlar tegishli bo‘ladi va u bu huquqlarni o‘ziga xos tarzda amalga oshiradi.

Fuqaro mulki xususiy mulkning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u mulkning boshqa turlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1) mulkdor har doim aniq shaxs bo‘ladi;

2) mulkdor mulkka nisbatan eng yaqin va majburiyati ko‘p bo‘ladi, shu sababli, unga ta’sir qilishda muayyan ustunliklarga egadir;

3) bunday mulk tashmachilik, o‘g‘rilik va xo‘jasizlikning qurboni bo‘lish ehtimolidan uzoq bo‘lishi uchun Fuqarolik kodeksining 207-

moddasiga asosan kafolatlanadi, ya’ni xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Boshqacha aytganda, xususiy mulkning bu turini fuqarolarga yakka tartibda tegishli bo‘lgan mol-mulk ma’nosida tushunish mumkin. Bu mulkning asosiy belgilaridan biri bu mulkdorning yakka shaxs, ya’ni fuqaro ekanligi va u mol-mulkka bo‘lgan huquqlarini xususiy tarzda amalga oshirishga haqli ekanligidir.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin (FK 209-m.).

Demak, qonunga binoan fuqaro yoki yuridik shaxs sotib olishi, foydalanishi va hadya qilishi mumkin bo‘lgan har qanday narsa xususiy mulk obyekti bo‘lishi mumkin. Xususiy mulk huquqiy tartibiga ko‘ra, fuqarolik muomalasida erkin harakat qiladigan va fuqarolik muomalasida harakati cheklangan mulklarga bo‘linadi.

Fuqarolik muomalasida harakati cheklangan mol-mulk obyektlarini erkin ravishda sotish va xarid qilish mumkin emas. Bunday obyektlarning fuqarolik muomalasidagi harakati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Yer xususiy mulk sifatida xususiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi Farmoniga asosan, savdo obyektlari joylashgan yer uchastkalarini xususiy mulk sifatida sotilishiga ruxsat beriladi. Bunday sotish tanlov yoki kimoshdi(auksion) savdolari asosida amalga oshiriladi. Turar-joy yoki ma’muriy binolar joylashgan yer uchastkalari xususiy mulk sifatida sotilmaydi.

Fuqarolarning mulki bo‘la olmaydigan mol-mulk tegishli qonun hujjatlarida ko‘rsatib o‘tilgan. Ularga asosan quyidagilar fuqarolarga tegishli mulk bo‘la olmaydi:

– qurol-yarog‘, shu jumladan, o‘qotar qurol (silliq stvolli ov miltiqlari, sport qurollari, shuningdek mukofotga berilib belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan qurollardan tashqari), armiya o‘q-dorilari va harbiy texnikasi;

– portlovchi moddalar va materiallar, asboblar va qurilmalar;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop, zaharli, qattiq ta’sir etuvchi va zaharlovchi moddalar;

– maxsus taqiqlab qo‘yilgan boshqa mol-mulk.

Agar fuqaro ixtiyorida bunday mol-mulk insofli va qonuniy asoslarda paydo bo‘lsa (meros tariqasida o‘tish va h.k.), u buni o‘zidan begonalashtirishi lozim. Agar bunday mol-mulk g‘ayriqonuniy va

noinsoflik asosida xarid qilingan yoki unga egalik qilingan bo‘lsa, davlat foydasiga musodara etilishi lozim.

Fuqarolarga qarashli mol-mulk oila mulki shaklida bo‘lishi ham mumkin. Oila – kishilarni bir-birlari bilan qon-qarindoshlik yoki nikoh asosida birgalikda yashab, umumiy xo‘jalik yurituvchi uyushmasi. Oilaviy mulkning tarkibiga quyidagilar kiradi:

«Er-xotinning birgalikdagi mulki;

oila a’zolarining har biriga shaxsan tegishli bo‘lgan mulk, shu jumladan nikohgacha bo‘lgan mulk.

Oilaviy umumiy mulk oila a’zolarining umumiy kelishuvi asosida boshqariladi. Umumiy qoidaga ko‘ra, oila yuridik shaxs emas. Biroq oila zamirida dehqon xo‘jaligi tashkil etilsa, u yuridik shaxs huquqidan foydalanadi.

Davlatga qarashli bo‘lmagan yuridik shaxslar mulkining iqtisodiy mazmuni tashkiliy jihatdan uyushgan kishilar guruhiga moddiy ne’matlarning tegishli ekanligida ifodalanadi. Ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda yuridik shaxsning mulki shu jamoa a’zosi hisoblangan barcha shaxslarning umumiy hissali mulki deb ko‘rsatiladi. Bu fikr noto‘g‘ri. Mazkur mulkning subyekti faqat yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mulkida umumiy mulkdagi kabi ko‘p subyektlilik emas, balki bir subyektlilik belgilangan. *Yuridik shaxslar mulkining quyidagi turlari mavjud:* a) mahalla mulki; b) kooperativ mulki; d) jamoa korxonalarining mulki; e) ijara korxonasining mulki; f) xo‘jalik shirkati va jamiyati mulki; ye) xo‘jalik uyushmalari va birlashmalarining mulki; j) diniy tashkilotlarning mulki.

Davlat mulki mulkning mustaqil shakli hisoblanadi. Davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

– davlat organlari faoliyatini tashkil etish;

– davlat xavfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;

– ilm-fan va madaniyatni ta’minlash;

– kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;

– tabiiy ofatlar va favqulodda holatlarga qarshi kurash hamda oqibatlarini bartaraf etish;

– ba’zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg‘i energiyasi va sh.k.).

Davlat mulkining manbalari quyidagilardan iborat:

a) soliqlar; b) har xil to‘lovlar; d) ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromad; e) kreditlar, zayomlar; f) davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan daromadlar; g) boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy mulkning quyidagi turlari mavjud:

– davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk: yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi, respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga molik madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budjetining mablag‘lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o‘quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budjet yoki davlatning o‘zga mablag‘lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo‘lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo‘lishi mumkin.

Respublika mulki bo‘lgan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, tasarruf qiladilar (FK 214-m.).

Respublika mulki bo‘lgan mol-mulk davlat yuri dik shaxslariga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo‘yilishi mumkin.

Respublika mulki respublika budjetiga tushadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlardan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

– ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal yoki kommunal mulk), mahalliy budjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, halq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulk munitsipal mulk tarkibiga kiradi.

Munitsipal mol-mulkni qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar.

Mulkiy huquqlar tizimida mulk huquqi bilan bir qatorda ashyoviy huquqlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, mulkdor har doim o‘z mol-mulkiga nisbatan barcha vakolatlarini shaxsan o‘zi amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi. Ba’zi hollarda, obyektiv sabablarga ko‘ra (masalan, davlat mulkini idora qilishda) yoxud mulkdorning voyaga yetmaganligi, mulkni shaxsan o‘zi boshqarish huquqidan foydalana olmasligi va boshqa sabablar tufayli mol-mulk boshqa shaxslar ixtiyoriga vaqtinchalik topshirilishi mumkin. Shunday hollarda mulkdor bo‘lmagan

shaxs boshqalarning mol-mulkiga egalik qilishi, foydalanishi va mulkdor ruxsat bergan doirada tasarruf qilishi ashyoviy huquqlar orqali amalga oshiriladi. Binobarin, ashyoviy huquq mulkdorning roziligi bilan uning mol-mulkini boshqa shaxslar tomonidan egallash va foydalanish tartibini belgilovchi huquqiy vositalar sifatida tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 165-moddasiga asosan mulk huquqi bilan bir qatorda xususan quyidagilar ashyoviy huquqlar hisoblanadi:

– xo‘jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi;

– meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi;

– yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi;

– servitutlar.

Fuqarolik kodeksining 216-moddasida aytilganidek, ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo‘lgan mol-mulk ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi.

Umumiy mulk huquqi obyektini ma’lum ashyo yoki ashyolarning to‘plami tashkil etishi mumkin. Masalan, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda qurgan yoki sotib olgan imorati, ikki yoki undan ortiq jamoa xo‘jaligi birgalikda qurgan g‘isht zavodi kabi obyektlar bo‘lishi mumkin. Umumiy mulk huquqi obyektlari (ishtirokchilari) ikki yoki undan ortiq shaxs, tashkilot yoki fuqaro bo‘lishi mumkin.

Umumiy mulk huquqi subyektlari bir necha shaxsdan iborat bo‘lganligi tufayli sheriklarning har qaysi bunday mulkni o‘z holicha tasarruf qilmay, balki o‘ziga qarashli obyektlarni birgalikda, o‘zaro kelishuv asosida egallaydi, ulardan foydalanadi va tasarruf qiladi.

Umumiy mulk huquqi quyidagi asoslarda vujudga keladi:

birinchidan, birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomadan, masalan, bir necha fuqaroning birgalashib uy-joy qurishi yoki bir necha jamoa xo‘jaligining birgalashib elektr stansiyasi qurishida;

ikkinchidan, bir necha fuqaroning muayyan umumiy mulkka ega bo‘lish uchun mablag‘ qo‘shib birga mehnat qilishlari, masalan, umumiy oilaviy mulk;

uchinchidan, bir necha shaxslarning qonun yoki vasiyat bo‘yicha meros olishlarida vujudga keladi.

Umumiy mulk huquqi, aksariyat hollarda, birgalikdagi faoliyat shartnomasi asosida, umumiy xo‘jalik maqsadiga erishish uchun, jamoa xo‘jaliklari korxona yoki boshqa tashkilotlar qurish va ekspluatatsiya qilish, suv xo‘jaligi inshootlari, maktablar, turar-joy binolari va shu kabilarni qurish uchun birgalikda harakat qilishlari va buning uchun pul,

mulk qo‘shib, umumiy mehnat qilishlarida vujudga keladi. Fuqarolar ham o‘zlarining shaxsiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun pul, mulk qo‘shib va birga mehnat qilib, (masalan, uy-joy qurish maqsadida birgalikda shartnoma tuzib) umumiy mulk huquqini oladilar.

Fuqarolik kodeksining 216-moddasida ko‘rsatilganidek, umumiy birgalikdagi mulk ikki turga:

birinchidan, mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo‘yilgan *ulushli mulk;*

ikkinchidan, ulushlari aniqlab qo‘yilmagan *birgalikdagi mulk* umumiy mulkka bo‘linishi mumkin.

Ularning o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha:

– taqsimlanadigan umumiy mulkning har bir ishtirokchisi ashyoda aniq belgilangan hissaga ega bo‘ladi. Masalan, yarmi, uchdan biri va hokazo;

– taqsimlanmaydigan birgalikdagi umumiy mulk esa, ulushlarga ajralmasligi bilan farq qiladi. Bunday umumiy mulk hamma ishtirokchilar o‘rtasida, ularning umumiy roziligi bilan va tenglik asosida egallanadi, foydalaniladi va tasarruf etiladi.

Ulushli mulk subyektlari fuqaro ham, tashkilot ham bo‘lishi mumkin.

Umumiy birgalikdagi mulk huquqida subyektlar o‘z ulushlarini mustaqil tasarruf qilolmaydilar, chunki, birinchidan, ular har birining ulushi alohida belgilanmagan bo‘ladi; ikkinchidan, oilaviy munosabatda bo‘lgan umumiy mulk egasi oiladan chiqqanda, uni boshqa ikkinchi shaxs bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Ulushli mulk ulushlarga ajralmaydigan umumiy mulkdan vujudga kelishi asoslari va tartibi bilan ham farq qiladi.

Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etishda mulkdagi sheriklarning huquqlari ikki turga: barcha umumiy mulkka va umumiy mulkdagi ulushga bo‘lgan huquqlarga bo‘linadi. Binobarin, umumiy ulushli mulk egalarining har qaysi o‘z ulushini mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo‘lsa ham, ya’ni o‘z ulushini agar qonun yoki ustav (nizom)da boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, boshqa shaxsga o‘tkazish huquqiga ega bo‘lsa ham, umumiy mulkni sheriklarining roziligisiz tasarruf qila olmaydi.

Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish davomida mulk egalarining o‘rtasida bo‘ladigan nizolar umumiy mulk ishtirokchilaridan har qaysining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan hal qilinadi.

Mulk egalari umumiy mulk yuzasidan soliq, yig‘im va boshqa to‘lovlarni to‘lashda, shuningdek, mol-mulkni boshqarish, saqlash va asrash xarajatlarida o‘z ulushiga qarab qatnashishga majbur.

Umumiy mulkni saqlash yoki umumiy majburiyatni bajarish yuzasidan xarajatlar qilgan shaxs boshqa sheriklaridan o‘zining qilgan chiqimlarini har birining hissasiga muvofiq qoplashini talab qilish huquqiga ega.

Fuqarolik kodeksining 218-moddasida aytilganidek, ulushli mulk ishtirokchisi o‘z xohishiga qarab o‘z ulushini boshqa shaxsga o‘tkazishga haqli. Bunda ulushni haq baravariga yoki tekinga birovga o‘tkazish nazarda tutiladi. Umumiy mulkning ishtirokchilari tashkilot bo‘lgan taqdirda, ular o‘z ulushlarini birovga haq baravariga o‘tkazadi, ya’ni uni sotadi. Fuqarolar esa, o‘z ulushlarini haq baravariga ham, tekinga ham birovga o‘tkazishi, ya’ni sotishi, hadya etishi, shuningdek, vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Mulkdorlardan biri o‘z ulushini boshqa shaxsga sotgan vaqtida qolgan mulkdorlar sotilayotgan ulushni u sotilayotgan narxda va boshqa teng shartlarda imtiyozli sotib olish huquqiga egadirlar, kim oshdi savdosi orqali sotish hollari bundan mustasno (FK 224-m.).

Umumiy mulkdagi ulushni sotuvchi o‘z ulushini o‘zga shaxsga sotish niyati haqida boshqa mulkdorga yozma ravishda ma’lum qilib, ulushning narxini va uni sotishning boshqa shartlarini ko‘rsatishi shart.

Agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishdan voz kechsalar yoki bu huquqni xabar qilingan kundan e’tiboran ko‘chmas mulkka nisbatan bir oy davomida, boshqa mol-mulkka nisbatan esa – o‘n kun davomida amalga oshirmasalar, sotuvchi o‘z ulushini har qanday shaxsga sotishga haqli bo‘ladi.

Davlat, kooperativ yoki boshqa yuridik shaxs uy-joyga bo‘lgan umumiy mulk huquqidagi o‘z ulushini sotmoqchi bo‘lgan taqdirda – uy-joyning mazkur ulushini sotib olishda imtiyozli huquq uyning shu qismida yashovchi shaxslarga beriladi, ular sotib olishni xohlamaganlari yoki bu huquqni amalga oshirmaganlarida esa ulushni sotib olish huquqi umumiy mulkning qolgan ishtirokchilariga o‘tadi.

Ulush sheriklarning imtiyozli sotib olish huquqini buzib sotilgan bo‘lsa, mulk ishtirokchisi bo‘lgan boshqa shaxs uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o‘ziga o‘tkazilishi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atib, sudga murojaat qilishi mumkin. Ammo bu huquq va majburiyat mulkni olib-sotishda belgilangan narx va sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash sharti bilan unga o‘tkazilishi mumkin.

Agar xaridor ulushni sotib olish to‘g‘risida rozilik bergan bo‘lsa-da, lekin u notarial idoraga kelishdan bosh tortsa, notarius sotuvchining xohishi bo‘yicha boshqa shaxs bilan shartnomani rasmiylashtirish huquqiga ega.

Umumiy mulk bo‘lgan uydan tegishli ulush soqit qilinganda, masalan, sotilganda, uyga bo‘lgan ulushlar real (natura shaklida) ko‘rsatilmay, balki arifmetik ulushlarda belgilanadi. Ammo shu bilan birga sotuvchi foydalanish uchun qaysi kvartira yoki xonaning o‘tishini ko‘rsatishi mumkin. Agar umumiy ulushli mulk bo‘lgan turar-joyning ayrim xonalaridan foydalanish to‘g‘risida ishtirokchilar o‘rtasida oldindan kelishuv bo‘lsa, bunday kelishuv ham notarius tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda, boshqa mulkdorlar uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini o‘zlariga o‘tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar (FK 224-m. 4-q.).

Fuqarolik kodeksining 223-moddasida ko‘rsatilganidek, umumiy ulushli mulk ishtirokchisi o‘z ulushini umumiy mol-mulkdan ajratib berishni talab qilishga haqlidir. Uning bu huquqi umumiy mulkdagi ulushni tasarruf etishga bo‘lgan huquqdan kelib chiqadi.

Ulushni ajratishning asosiy usuli, mulkning xo‘jalikda foydalanish holatiga zarar yetkazmaslik sharti bilan ulushni asl holida ajratishda ishtirokchilar o‘zaro kelisha olmasalar, sud yoki nizoni hal qiluvchi organ umumiy mulkdan qanday ashyolar asl holida ajratilishini, masalan, sheriklik asosida olingan hosilning qanday taqsimlanishini belgilaydi.

Umumiy mulkdan ulushni uning xo‘jalikda foydalanish holatiga zarar yetkazmasdan ajratishning iloji bo‘lmaganda, ulush ajratib oluvchi mulk ishtirokchisining roziligiga ko‘ra, ulush miqdoriga yarasha pul baravarida haq olishi mumkin. Agar pul baravarida ulush to‘lash imkoniyati bo‘lmasa, umumiy mulk sotilib, uning summasi sheriklar o‘rtasida taqsimlanadi.

Uy-joyga bo‘lgan umumiy ulushli mulk egalari o‘zlariga tegishli ulushga yarasha uy-joyni taqsimlashga haqli bo‘lib, buning natijasida ularning har biriga uy-joyning alohida qismi (kvartira yoki alohida xona) biriktirib qo‘yilishi mumkin.

Agar ulushni ajratish usuli to‘g‘risida sheriklar o‘zaro kelisha olmasalar, mulk har qaysi sherikning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan taqsimlanadi. Amalda shunday hollar ham uchraydiki, umumiy mulkdan ulush ajratish haqidagi qonunning qoidalari xususiylashtirilgan turar-

joylarga tatbiq qilinishi mumkin emas va bunday turar-joylarni taqsimlashda Uy-joy kodeksi normalari tatbiq etilishi lozim.

Ushbu masala bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1994-yil 9-sentabrdagi 21-sonli qarorining 19-bandida berilgan.

Ammo bunday taqsimlash aholi yashaydigan joyning rejalashtirish loyihasiga zid bo‘lmasligi kerak. Uy-joyni taqsimlash to‘g‘risidagi bitim notarial tartibda tasdiqlanishi va tuman hokimligi idoralarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Ba’zi hollarda, umumiy mulkdan tegishli ulush mulk egalaridan birining qarzini qoplash uchun uning kreditori talabi bo‘yicha ham ajratilishi mumkin. Agar bu to‘g‘rida kelishuv bo‘lmasa, tegishli ulush sud tartibida Fuqarolik protsessual kodeksining 419-429-moddalarida belgilangan qoidalarga rioya qilingan holda ajratiladi.

Oila kodeksida er-xotinning nikoh davomida orttirgan mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bunda u yoki bu mulkning kim tomonidan sotib olinganligi, kimning nomiga rasmiylashtirilganligi, er yo xotindan birortasining qancha maosh olishi yo butunlay olmasligining mutlaqo ahamiyati yo‘q. Umumiy mulkni orttirish masalasiga kelganda, oilada uy yumushlarini qilish, farzandlarni tarbiyalash har qanday maosh to‘lab qilinadigan ijtimoiy ishga tenglashtiriladi. Bu esa mamlakatimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqligi, ayollarning salomatligi, ularning mehnatlari qadrlanishi va onalarga cheksiz hurmat bilan qaralayotganligini bildiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga asosan Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit

muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulklari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat’i nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotin o‘rtasidagi umumiy mulk huquqining taqdiri nikohning bekor qilinishi bilan o‘zgarishi mumkin. Bu holda dastlab er va xotinning nikoh tuzganiga qadar o‘zlariga tegishli bo‘lgan mulklari, shuningdek, nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari har birining shaxsiy mulki qilib ajratilishi va ular o‘rtasidagi umumiy mulkka qo‘shilmasligi kerak.

Er-xotinning majburiyatlari ularning qanday asoslardan kelib chiqqaniga qarab umumiy mulk hisobidan bajarilishi mumkin. Agar majburiyat er va xotinning umumiy xo‘jalik yoki oila manfaatlarini ko‘zlab qilgan harakatlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, qarz so‘zsiz umumiy mulk hisobidan undiriladi.

Majburiyat er yoki xotinning shaxsiy qarzlaridan kelib chiqqan bo‘lsa, majburiyat qarzlari ularning shaxsiy mulkidan yoki ularga tegishli umumiy mulk ulushidan undiriladi. Agar er-xotinning umumiy mulki jinoyat hisobiga jamg‘arilgani yoki ko‘paytirilganligi sud hukmi bilan isbot qilinsa, jinoyat tufayli kelgan hamma mulk hisobidan undiriladi.

Er va xotinning yuqorida bayon qilingan umumiy mulki haqidagi qoidalar FHDYOda qayd etilgan nikohda turuvchi shaxslarga nisbatan tatbiq qilinadi. FHDYOda ro‘yxatdan o‘tmaganlarga nisbatan Oila kodeksida bayon qilingan mulk haqidagi qoidalar tatbiq etilmaydi. Ular o‘rtasidagi umumiy munosabatga Fuqarolik kodeksining umumiy mulk huquqi to‘g‘risidagi normalari qo‘llaniladi.

2. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi asoslari

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq yuridik faktlar nazarda tutiladi.

Mulk huquqining olinishi asoslari jamiyatning iqtisodiy tizimida o‘z ifodasini topadi. Mulk huquqining olinishi ikkiga: *dastlabki va hosila* asoslarga bo‘linadi.

Mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan dastlabki asoslar bo‘yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo‘lmagan mulkka nisbatan yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan

bog‘liq bo‘lmagan holda vujudga keladi. Mulk huquqining *dastlabki asosda vujudga kelishi:*

birinchidan, tabiat ne’matlarini o‘zlashtirish;

ikkinchidan, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida yangi ashyolarni vujudga keltirish;

uchinchidan, egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi;

to‘rtinchidan, egasi bo‘lmagan mulkka yoki egasi bo‘lsa ham xo‘jasizlik bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan topilgan ashyolar, xazinalar (boshqa usulda yashirilgan narsalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

Natsionalizatsiya (FK 202-m.), rekvizitsiya (FK 203-m.) va musodara (FK 204-m.) qilish orqali ham mol-mulkni oluvchida mulk huquqi dastlabki asosda vujudga keladi. Mulk huquqining vujudga kelishida egalik huquqini hosil qiluvchi muddat o‘ziga xosdir. Mulkdor bo‘lmagan, lekin ko‘chmas mol-mulkka o‘n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi, ya’ni to‘liq ma’noda mulkdor huquqlariga ega bo‘ladi (FK 187-m.).

Mulk huquqi vujudga kelishining *dastlabki asoslaridan yana biri* hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashyolarni mulkka aylantirishdir. Fuqarolik kodeksining 189-moddasida ko‘rsatilishicha, qonun hujjatlarida yovvoyi mevalar, yong‘oq, zamburug‘lar, rezavor mevalar hamda o‘simlik, hayvonot dunyosi va jonsiz tabiatning hamma olishi mumkin bo‘lgan boshqa obyektlarini yig‘ish yo‘li bilan fuqarolar mulkiga aylantirish tartibi va shartlari belgilab qo‘yilishi mumkin.

Egasiz ashyoga nisbatan ham mulk huquqi dastlabki asosda vujudga keladi. Egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko‘char ashyolarni egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo‘lga kiritish mumkin. Bunday ashyo tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi arizasiga muvofiq ko‘chmas mol-mulk davlat ro‘yxatiga oluvchi organda hisobga olinib, uch yil o‘tgach tegishli davlat organi talabi asosida sud tomonidan davlatga o‘tkazilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 192-moddasida *topilmaga* nisbatan mulkiy huquqlarning vujudga kelishi xususiyatlari belgilangan. Unga ko‘ra yo‘qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo‘qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo‘lgan o‘zga ma’lum

shaxslardan birortasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart.

Basharti, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo‘lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo‘lmish shaxsga topshirilmog‘i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo‘lga kiritadi va uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs noma’lum bo‘lsa yoki uning manzili ma’lum bo‘lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to‘g‘risida militsiyaga, tegishli davlat organlari yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ma’lum qilishi shart.

Qonunga asosan, agar olti oy mobaynida topilmaning egasi aniqlanmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi (agar u bu huquqdan voz kechsa, topilma davlat mulkiga o‘tadi).

Fuqarolik kodeksining 196-moddasida xazinaga nisbatan *mulk huquqining vujudga kelishi* xususiyatlari belgilab qo‘yilgan. Egasi aniqlanishi mumkin bo‘lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo‘qotgan xazina, ya’ni yerga ko‘milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoki qimmatbaho buyumlar, xazina yashirib qo‘yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va sh.k.) mulkdori bo‘lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, teng ulushlarda o‘tadi.

Xazina u yashirib qo‘yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining roziligisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi shart.

Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat ixtiyoriga o‘tadi. Biroq xazina topilgan yer uchastkasi egasi va xazinani topgan shaxs xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olishga haqli.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslar (masalan, arxeologlar, geologlar)ga nisbatan ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmaydi (FK 196-m. 5-q.).

Mulkka nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi hosila usuli muayyan shaxs tomonidan olinayotgan mulk huquqining dastlabki mulk egasining huquqiga bog‘liq bo‘lgan usulidir. Bu usul mulk huquqining ma’lum ashyoga nisbatan paydo bo‘lishi yoki bu ashyoga nisbatan mulk huquqining ilgari ma’lum shaxsga tegishli bo‘lishi bilan bog‘liq. Shu

ma’noda mulk huquqining boshqa shaxsga o‘tishi haqida so‘z yuritiladi. Zero, hosila usulida vujudga kelgan mulk huquqi bu mulkka bo‘lgan huquqning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishini bildiradi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi tuzilishi bilan o‘zgalarga tegishli ashyoga nisbatan egalik huquqi bir shaxsda, ya’ni sotib oluvchida paydo bo‘ladi.

Mulk huquqining hosila usulida vujudga kelishiga misol qilib oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, qarz shartnomalari, shuningdek, qonun va vasiyat bo‘yicha meros olish hamda davlat mulkining xususiylashtirilishini ko‘rsatsa bo‘ladi.

Qonunda uy-joy (kvartira)ga nisbatan mulk huquqi belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytidan boshlab vujudga keladi.

Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazilgan taqdirda agar uning tegishli organlardan ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart bo‘lsa, ashyoga nisbatan egalik huquqi shartnomaning qayd etilishi paytidan e’tiboran vujudga keladi.

Mulk huquqining bekor bo‘lish usullari xilma-xil bo‘lib, ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

1) mulkdorning o‘z xohish-irodasi bo‘yicha mulk huquqining bekor bo‘lishi (masalan, mol-mulkni sotish, hadya qilish va sh.k.);

2) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish (yo‘q qilish) yoki uning nobud bo‘lishi natijasida mulk huquqining bekor bo‘lishi (FK 198-m.);

3) mulkdorning xohish-irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo‘yilishi natijasida mulk huquqining bekor bo‘lishi. Mol-mulkni mulkdordan olib qo‘yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda, mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo‘l qo‘yiladi.

Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo‘la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo‘lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo‘yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to‘lanadi (FK 199-m.).

Ashyolarga nisbatan egalik huquqi ba’zi hollarda, mulk egasining xohishidan qat’i nazar bekor bo‘lishi mumkin. Masalan, ashyolar tabiiy ofatlar, yong‘in, suv toshqini, zilzila natijasida tasodifan nobud bo‘lishida mulk huquqi mulk egasining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan qarzni qoplash uchun ijro varaqasi bo‘yicha haq undirilishida yoki mol-mulkning musodara qilinishida egalik huquqi mulk egasining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi mumkin.

1991-yil 19-noyabrda «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» maxsus qonun qabul qilingan. Mazkur qonunning qabul qilinishiga quyidagi obyektiv holatlar sabab bo‘ldi:

1) shaxsning mulkdan begonalashuvi oqibatlarini tugatish;

2) ilgari davlat mulkining haddan tashqari markazlashuvi oqibatida undan samarali foydalanish, boshqarish va nazorat qilishni ta’minlay olinmaganligi;

3) davlat mulkiga nisbatan tashmachilik va xo‘jasizlikka barham berish;

4) bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida davlat mulkining haddan ortiq markazlashuviga chek qo‘yish.

Davlat tasarrufidan chiqarish deganda, davlat korxonalari va tashklotlarini jamoa, ijara korxonalari, aksiyali jamg‘armalar, davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa korxona hamda tashkilotlarga aylantirish tushuniladi.

Xususiylashtirish – fuqarolar va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlari yoki davlat aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat organlari xususiylashtirish subyekti bo‘la olmaydi. Xususiylashtirish obyektlarini davlat budjeti tomonidan sotib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Amaliyotda xususiylashtirishni amalga oshirishning u yoki bu me’yori bilan bog‘liq bo‘lgan davlat boshqaruvi organlarining aktlarini haqiqiy emas deb topishga oid nizolar ham kuzatiladi.

Masalan, Farg‘ona viloyati bo‘yicha berilgan oltita da’voning ikkitasi viloyat davlat mulkini boshqarish tashkiloti tomonidan xususiylashtirish natijasiga ko‘ra berilgan orderlarni, to‘rttasi esa hokimlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’volarni tashkil etadi.

Masalan, mustaqil ekspertizalar markazining (MEM) Farg‘ona bo‘limi Marg‘ilon shahar hokimining 1994-yil 110-sentabrdagi 348-sonli qarori bilan Marg‘ilon shahar, Mashrab ko‘chasi, 1-uyni «Farg‘ona ekspertiza» firmasiga biriktirish to‘g‘risidagi qarorini haqiqiy emas deb topish haqidagi da’vo talabi viloyat xo‘jalik sudining qarori bilan rad etilgan. Nizoli bino 1985-yilda Marg‘ilon shahar ijroiya qo‘mitasining farmoyishi bilan tovar ekspertizalari byurosining bir guruh ekspertlari uchun ajratilgan. Ammo mustaqil ekspertizalar markazining «Farg‘ona ekspertiza» firmasi (tarqatib yuborilgan tovar ekspertizalari byurosining huquqiy vorisi) xizmat yuzasidan, hech qanday aloqada bo‘lmagan MEM

Farg‘ona bo‘limining Marg‘ilon shahridagi xizmat xonasini o‘ziga biriktirishni talab qila boshlagan. Bu talabga bo‘lim yuqori sud tomonidan Marg‘ilon shahar ijroiya qo‘mitasining farmoyishi haqiqiy emas deb topilganligini asos qilib olgan. Ish materiallariga qaraganda ushbu farmoyish faqat «Xona ajratish qo‘mita raisining farmoyishi bilan emas, balki ijroiya qo‘mita tomonidan qaror qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak», – degan asos bilan haqiqiy emas deb topilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uchun ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizomning 11-bandiga ko‘ra, bunday ariza berilgan paytdan boshlab va ijobiy qaror qabul qilinganidan so‘ng, bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va boshqarish huquqini boshqa mulkdorga o‘tkazilgan paytga qadar ma’muriy boshqarish organlari korxonaning qayta tuzilishi, tugatilishi, shtat jadvali tuzilishini o‘zgartirishi va xodimlarni ishdan bo‘shatishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni 26-moddasiga muvofiq, davlat uy-joy fondi kvartiralarini, uylarini (uyning bir qismini) xususiylashtirishda yuzaga keladigan nizolar sud yoki xo‘jalik sudi tomonidan hal qilinadi.

3. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari: tushunchasi va tizimi

Mulk huquqini himoya qilishda fuqarolik huquqi normalari muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik huquqi normalari bilan mulk huquqini himoya qilishning asosiy usullari quyidagicha:

– mulkni birovning noqonuniy egallashidan talab qilib olish (vindikatsion da’volar);

– mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan huquqbuzarliklardan himoya qilish (negator da’volar);

– mulk huquqini buzishga qaratilgan g‘ayriqonuniy bitimlar (shartnomalar)ni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida qarorlar chiqarish bilan qo‘riqlash;

– asossiz olingan mulkni qaytarish yo‘li bilan qo‘riqlash.

Mulk huquqini himoya qilishning yuqorida ko‘rsatilgan usullaridan birinchi va ikkinchisi ashyoviy huquq normalariga asoslangan da’volar bo‘lsa, uchinchi va to‘rtinchi usullar majburiyat huquqi normalariga asoslanib qilinadigan da’volar hisoblanadi.

Ashyoviy huquqqa asoslangan da’volar – ashyoning (mulkning) asl holida qaytarilishiga yoki mulkdan foydalanishda qilinayotgan to‘sqinlik-larni bartaraf etishga qaratiladi.

Majburiyat huquqiga asoslangan da’volar esa bitimda (shartnomada) ishtirok etayotgan mulk egasi (kreditor)ning manfaatini qo‘riqlash, g‘ayriqonuniy ravishda tuzilgan shartnoma asosidan olingan narsani mulk egasiga qaytarish, zarar ko‘rgan shaxs (jabrlangan shaxs)ning zararlarini to‘latishga hamda asossiz olingan narsalarni qaytarish yoki uning qiymatini to‘lashga qaratiladi. Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksining 233-moddasida mulkdorning huquqi qonuniy ravishda to‘xtatilgan taqdirda ham uning manfaatlarini himoya qilish kafolatlari belgilab qo‘yilgan. Ayni vaqtda qonunda mulkdor huquqini buzuvchi hujjatlar qabul qilinishining huquqiy oqibatlari ham o‘z ifodasini topgan. Binobarin, yuqoridagi asoslarga mulk huquqini himoya qilishning o‘ziga xos turi sifatida qaralishi mumkin. Bunday holatlar – mulkdor huquqining buzilishi davlat idorasi tomonidan normativ yoki huquqni qo‘llovchi hujjat qabul qilinishi orqali ro‘y beradi. Bunda mulk huquqining bekor bo‘lishi qonuniy asoslangan yoxud aksincha g‘ayriqonuniy bo‘lishi mumkin. Lekin har ikkala holatda ham mulkdorning qonuniy manfaatlari kafolatlanadi. Masalan, mulkdorga qarashli uy, boshqa binolar, inshootlar, dov-daraxtlar joylashgan yer uchastkasini olib qo‘yish haqida qaror qabul qilinishi munosabati bilan yoki davlat idorasining mulkdordagi mol-mulkni bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan boshqa qarori sababli, mulkdor huquqini to‘xtatib qo‘yishga qonunda belgilangan hollar va tartibdagina yo‘l qo‘yiladi. Bunda mulk huquqi bekor bo‘lishi munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan barcha zararlar mulkdorga batamom to‘lanadi. Agar mulkdor bunday qarordan norozi bo‘lsa, u holda nizo sud tomonidan hal etilmaguncha mulk huquqini bekor qilishga sabab bo‘luvchi qaror ijrosi to‘xtatiladi.

Davlat boshqaruv idorasi yoki davlat hokimiyati mahalliy idorasi tomonidan qonunga xilof bo‘lgan hujjatning qabul qilinishi natijasida mulkdorning mulkiy huquqlari buzilsa, bunday hujjat mulkdorning da’vosiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi. Mazkur hujjatni qabul qilgan davlat organi o‘z ixtiyoridagi mablag‘ hisobidan mulkdorga yetkazilgan zararlarni to‘lashi lozim.

Mulkdorga qarashli mulk biron-bir shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs)ning qonunsiz egaligida bo‘lsa, mulkdor o‘z mulkini asl holatida qaytarish haqida bu shaxsga nisbatan sudda da’vo qo‘zg‘atishga haqli, ya’ni mulkdor o‘z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan

talab qilib olishga haqli (FK 28-m.). Fuqarolik huquqi nazariyasida bunday da'volar «*vindikatsion da'volar*» deyiladi.

Vindikatsion da'vo mulkni insofsiz egallovchilarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Insofsiz egallovchi deb, mulkka nisbatan o'zi egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan shaxs nazarda tutiladi. Insofli egallovchi deganda, mulkning o'ziga g'ayriqonuniy yo'l bilan o'tishini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan egallovchi tushuniladi.

Fuqarolik kodeksining 229-moddasida ko'rsatilganidek, agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan haq to'lab olingan bo'lsa, oluvchi buni bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan (insofli egallovchi) bo'lsa, mol-mulk mulkdor tomonidan yoki egalik qilish uchun mulkdor bergan shaxs tomonidan yo'qotib qo'yilgan yoxud mulkdordan yoki u mol-mulkni bergan shaxsdan o'g'irlangan, yo bo'lmasa ularning ixtiyoridan tashqari boshqacha yo'l bilan ularning egaligidan chiqib ketgan bo'lsa, mulkdor bu mol-mulkni olgan shaxsdan talab qilib olishga haqli.

Mazkur moddadagi umumiy qoidada ba'zi istisnolar ham nazarda tutilgan, ya'ni agar mol-mulk sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan bo'lsa, mol-mulkni yuqorida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha talab qilib olishga yo'l qo'yilmaydi; agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan haq to'lamasdan olingan bo'lsa, mulkdor mol-mulkni barcha hollarda ham talab qilib olishga haqli. Pul, shuningdek, «taqdim etuvchiga» deb yozilgan qimmatli qog'ozlar insofli egallovchidan talab qilib olinishi mumkin emas.

O'zining g'ayriqonuniy ravishda boshqa shaxsga o'tkazilgan mulklarini talab qilib olishda mulkdor bir vaqtning o'zida:

birinchidan, insofsiz egallovchidan, masalan, sotib oluvchidan mulkni egallaganidan boshlab, o'tgan barcha vaqt mobaynida olgan yoki olinishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishi yoki to'lanishini;

ikkinchidan, insofli egallovchidan esa u o'zi bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan paytdan boshlab yoxud mulkning qaytarilishi to'g'risida mulk egasining da'vosi bo'yicha chaqiruv qog'ozi olgan paytdan boshlab olgan yoki chiqarib olishi lozim bo'lgan hamma daromadlarning qaytarilishi yoki to'lanishini talab qilishga haqli.

O'z navbatida, insofli egallovchi ham, insofsiz egallovchi ham mol-mulkdan olingan daromad qancha vaqt davomida mulkdorga qaytarilishi kerak bo'lsa, mulkdordan shuncha vaqt davomida mol-mulkka qilingan zarur xarajatlarni qoplashni talab qilishga haqli.

Qonunda mulk uchun sarflangan narsalarni, agar ashyoni uni buzmasdan ajratib olish mumkin bo‘lsa, insofli egallovchi o‘zida qoldirishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. Agar mulkdan ajratib olish mumkin bo‘lmasa, insofli egallovchi mulkning ko‘payishi uchun sarf qilingan xarajatlarning o‘ziga to‘lanishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik kodeksida mulk huquqi himoya qilinishining kuchaytirilishini ta’minlovchi qator muhim qoidalar belgilangan. Bunday qoidalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

birinchidan, mulk egasi mulkini yo‘qotgan yoki o‘g‘irlatgan hollarda uni topib insofli egallovchidan talab qilib olishdan tashqari yana mulk egasi ixtiyoridan tashqari bo‘lgan mulk egaligi (qo‘lidan) ketgan taqdirda ham o‘z mulkini talab qilib olish;

ikkinchidan, mulk birovga ishonib topshirib qo‘yilganda uning ixtiyoridan tashqari qo‘lidan chiqib ketgan bo‘lsa ham, u mulkni insofli egallovchidan talab qilib olish;

uchinchidan, agar mulk birovga topshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsdan bepul olingan bo‘lsa, u vaqtda mulk egasi barcha hollarda o‘z mulkini talab qilib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, vindikatsion da’vo birovning qonunsiz egaligida bo‘lgan ashyoni qaytarib olish haqida mulk egasining da’vosidir. Vindikatsion da’voni boshqa turdagi da’volardan ajratib turadigan asosiy belgilari: da’volashuvchi taraflar, da’vo asosi va da’vo predmeti (narsasi), uning maqsadidir.

Ashyoga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan, lekin ashyosi qo‘lida bo‘lmagan shaxs vindikatsion da’vo bo‘yicha da’vogar bo‘ladi. Vindikatsion da’vo qilishga nafaqat ulushlari bo‘lgan ayrim mulk egasi, balki ulushlari bo‘lgan mulkdorlarning har qaysisi ham da’vo qilishga haqli. Bundan tashqari, mulkni qonun va shartnomaga binoan egallab (saqlab) turgan shaxslar ham vindikatsion da’vo bo‘yicha javobgar bo‘ladilar.

Egalik huquqi vindikatsion da’vo qilishga asos bo‘ladi. Mulkdor mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli ashyoga nisbatan subyektiv huquqi asosida bu mulkni egallash (qo‘lida saqlash), undan foydalanish yoki uni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum bo‘lganida, u mazkur huquqlarning o‘ziga qaytarilishini talab qila oladi.

Vindikatsion da’voning *maqsadi* – buzilgan mulkiy huquqni tiklash va ashyoni bevosita mulk egasi ixtiyoriga qaytarishdan iborat.

Vindikatsion da’voning *predmeti* (narsasi) – turga xos alomatlar (son, og‘irlik, o‘lchov) bilan belgilanadigan, shuningdek, individual (xususiy) alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar bo‘lishi mumkin.

Vindikatsion da’vo bo‘yicha faqat individual ashyolar emas, balki boshqa barcha mulklar asl holatda qonunsiz egallovchidan talab qilib olinishi mumkin.

Mulk egasiga qarashli ashyo o‘rniga uning qiymatini to‘lash barcha hollarda ham mulk egasining manfaatlarini ta’minlay olmaydi. Binobarin, mazkur masalani hal qilishda moddiy yoki individual alomatga ega mulklarni egallovchidan majburiy tarzda olib berish huquqining sudlarga o‘tkazilishi majburiyatlarning turmushda real ijro etilishini, shuningdek, mulk huquqining yanada to‘laroq himoya qilinishini ta’minlashga qaratiladi.

Vindikatsion da’vo huquqni buzish faktidan kelib chiqsa ham, biroq zarar yetkazishdan kelib chiqadigan da’vo hisoblanmaydi. Vindikatsion da’voga ko‘ra ashyoning asl holatda qaytarilishi talab qilinsa, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatda ashyo o‘rniga uning qiymati ham talab qilinishi mumkin.

Agar ishni hal qilishda shartnomaga oid javobgarlik belgilash uchun asoslar bo‘lsa, ayni vaqtda da’vo shartnoma majburiyatlari to‘g‘risidagi normalarning qoidasi bo‘yicha hal qilinadi. Binobarin, vindikatsion da’vo ashyoviy-huquqiy da’vo sifatida ko‘rilganligi tufayli shartnoma yuzasidan qilinadigan da’vo bilan aralashtirib yuborilmasligi lozim. Masalan, ijara yoki omonat to‘g‘risidagi shartnomalar yuzasidan mulk egasi ashyoni asl holida qaytarish to‘g‘risida da’vo qilganda, ashyoni qaytarib olish haqidagi talab shu shartnomani tartibga soladigan huquqiy normalar bo‘yicha qanoatlantiriladi. Demak, bunday hollarda mulk egasi shartnoma bo‘yicha vindikatsion da’vo qilishga haqli emas.

Mulkni egallash qonuniy va noqonuniy bo‘lishi mumkin. Mulkni huquq normalari yoki shartnomaga asoslangan holda egallash qonuniy egallash hisoblanadi. Bunda mulk ijozat etilgan (qonun yoki boshqa huquqiy akt bilan yo‘l qo‘yilgan) usul bilan qo‘lga kiritiladi.

Mulkni noqonuniy egallashda ashyoni yetarli huquqiy asoslarga ega bo‘lmagan holda qo‘lda saqlab turishga aytiladi. Noqonuniy egallovchi deb mulkni o‘zboshimchalik bilan egallab oluvchi, o‘g‘irlovchi yoki topib olingan narsani o‘zlashtiruvchi, shuningdek, ashyoni egasidan qonun yoki shartnoma asosida olmaydigan shaxsga aytiladi. Mulk qonunda taqiqlangan usul bilan sotib olinganda yoki qo‘lga kiritilganida ham uni egallash uchun huquqiy asos bo‘lmasa, bunday egallash ham noqonuniy egallash bo‘ladi. Masalan, fuqaro A. fuqaro B. dan muayyan ashyoni sotib oladi. Ammo keyinchalik fuqaro B. sotilgan ashyoning egasi emasligi tufayli xaridor A. ga mulkka bo‘lgan huquqni o‘tkaza olmasligi ma’lum

bo‘ladi. Fuqaro A. huquqiy nuqtai nazardan garchi ashyoni fuqaro B. dan sotib olgan bo‘lsa-da, noqonuniy egallovchi hisoblanadi.

Da’vo qo‘zg‘atilgan vaqtda faqat nizoli mulk noqonuniy egaligida bo‘lgan shaxsgina vindikatsion da’vo bo‘yicha javobgar hisoblanishi mumkin.

Ba’zi hollarda mulkiy huquqning buzilishi ashyoni egallash huquqidan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin. Ashyo mulk egasining ixtiyorida (egaligida) bo‘lgan bir vaqtda mazkur ashyodan biron-bir shaxsning harakati to‘sqinlik qilishi oqibatida foydalanishning qiyinlashishi yoki umuman foydalanish imkoni bo‘lmasligi mumkin. Masalan, fuqaro A. ning qarzi uchun fuqaro B. ning mulki noto‘g‘ri xatlanganida fuqaro B. mulkning ro‘yxatdan chiqarilishini va shu bilan o‘z mulkidan foydalanishga qilingan to‘sqinlikning bartaraf etilishini talab qila oladi.

Mulk egalarining mulkni egallash va undan foydalanish huquqini buzish (garchi bu egalik huquqidan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham) yoki yo‘qotish haqidagi talablar fuqarolik huquqi nazariyasida «*negator da’volar*» deb ataladi. Fuqarolik kodeksining 231-moddasida mulkdor o‘z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzilish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Mazkur da’voning maqsadi mulk egasining ushbu to‘sqinlikni yo‘q qilish haqidagi talabi hisoblanadi. Chunki u mulk egasiga mulkidan foydalanishda o‘z huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Sudda negator da’voni nafaqat mulk egasi, balki ashyoni qonuniy asoslar bo‘yicha, masalan, qonun yoki shartnomaga asosan egallovchi shaxs ham qo‘zg‘atishga haqli. Bunday qonuniy egallovchilar o‘zlarining talablarini Fuqarolik kodeksining 231-moddasi asosida emas, balki mulkni egallashning qonuniyligini belgilovchi huquq normalari (FK 232-m.) asosida ilgari sura oladilar. Masalan, mulkni ijaraga oluvchi, ya’ni mulk egasi bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha ashyodan vaqtincha foydalanuvchi shaxs bu mulkni egallash va undan foydalanish huquqi buzilganida har kimga, shu jumladan, mulk egasiga nisbatan ham da’vo qo‘zg‘atishga haqli. Qonunga asosan garchi mulkdor bo‘lmasa ham, lekin mol-mulkka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, xo‘jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi asosida yoki qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan boshqa asosga ko‘ra egalik qilayotgan shaxs ham Fuqarolik kodeksining 228-231-moddalarida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo‘ladi (FK 232-m.).

Sud tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda negator da’vo bilan sudga kamdan-kam murojaat qilinadi. Ammo bundan mulk egalarining huquqlarini himoya qiluvchi mazkur huquq normasi o‘z ahamiyatini yo‘qotdi, degan noto‘g‘ri xulosa kelib chiqmaydi. Birovning mulkiy huquqini buzishga

uringan har qanday shaxsni tartibga chaqiruvchi bunday normalarning amalda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Biz yuqorida mulk huquqining ashyoviy-huquqiy vositalari yordamida (vindikatsion va negator da’volar bilan) himoya qilinishi masalalari bilan tanishdik. Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda mulk egalarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari ikki ko‘rinishda: shartnomali va shartnomadan tashqari munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishida tuziladigan xilma-xil shartnomalar ko‘p hollarda qonunga hamda shartnoma shartlariga rioya qilinib, to‘g‘ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba’zan shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan majburiyatlarini butunlay yoki lozim darajada bajarmasliklari hollarida tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarini tiklash va shuning o‘zida mulkiy huquqlarni har tomonlama va to‘la himoya qilish masalasi qo‘yiladi.

Shartnomadan tashqari munosabat mulkiy huquqlarning himoya qilinishida o‘zaro kelishuv asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqmay, bevosita qonun bilan belgilanishi ham mumkin. Bunday hollarda tashkilotlar va fuqarolar qonunga asosan o‘zaro majburiyat munosabatlarida bo‘ladilar va huquq subyektlari (tashkilotlar va fuqarolar) bir-birlariga nisbatan muayyan majburiyatlarni oladilar. Agar qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida mulkiy zarar ko‘rilsa, buzilgan mulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi vujudga keladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mulkdor bo‘lmagan shaxslarning ashyoviy huquqlari mazmunini tasniflang.
2. Servitut huquqining mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
3. Mulk huquqining bekor bo‘lish asoslarini tasniflang:
4. Ommaviy mulkning alohida belgilariga tavsif bering.
5. Vindikatsion va negator da’volarning alohida belgilari va o‘zaro alo-qadorliklarini qanday aniqlash mumkin?
6. Xususiy mulk va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘zlab bering.

7-MAVZU.
«MAJBURIYAT» TUSHUNCHASI. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHI

1. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati.
2. Majburiyat subyektlari, regress (qaytarma) majburiyat.
3. Majburiyatlarning vujudga kelishi, bajarilishi va bekor bo‘lishi asoslari.

1. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati

Fuqarolik huquqida majburiyat – fuqarolik-huquqiy munosabat bo‘lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa – qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi (FK 234-m.).

Ushbu ta’rifga ko‘ra, majburiyat keng ma’noda huquq subyektlari hisoblangan shaxslar (tashkilotlar va fuqarolar) o‘rtasida bo‘ladigan fuqarolik huquqi xarakteridagi munosabatlarni ifodalaydi.

«Majburiyat» tushunchasidan huquqning boshqa, chunonchi, ma’-muriy huquq, oila huquqi, mehnat huquqi sohalarida ham foydalanilgan. «Majburiyat» atamasi boshqa ma’nolarda ham ishlatiladi, masalan, majburiyat deb faqat bir muayyan harakatni qilishga, chunonchi: ijara haqini to‘lash, sotib olingan narsaning qiymatini to‘lashga qaratilgan burchga ham aytiladi.

Majburiyatning subyektlari va obyektlari uning muhim elementlari hisoblanadi.

Majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo‘lgan va zim-masiga muayyan majburiyatlarni olgan shaxslardir. Har bir majburiyatda, albatta, ikki taraf ishtirok etadi. *Muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan bir harakatni qilishdan saqlanishni talab etishga haqli taraf – kreditor deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur taraf esa qarzdor* deb ataladi. Demak majburiyat munosabat ekan, uning bir tomoni kreditor va ikkinchi tomoni esa qarzdor hisoblanadi.

Majburiyatda ishtirok etuvchi kreditorning huquqi nisbiy bo‘ladi, chunki kreditor faqat ma’lum shaxs yoki shaxslarga (bir qarzdor yoki bir necha qarzdorlarga) nisbatan talab qo‘yish huquqiga ega.

Majburiyatda kreditorning talab qilish huquqi va qarzdorning burchi nimaga qaratilgan bo‘lsa, shular majburiyat obyektlari hisoblanadi. Jumladan, huquq va burchlar biron-bir ashyoni olishga, topshirishga, muayyan pul summasini to‘lashga yoki biron-bir ishning bajarilishiga qaratilgan huquqiy harakatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Majburiyat huquqi deb mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish yoki pul to‘lash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalarning yig‘indisiga aytiladi. Majburiyat huquqi jamiyatimizda mulkiy munosabatlarning eng muhim va keng sohasini o‘zining fuqarolik-huquqiy xarakterdagi qoidalari bilan tartibga solib turadi. U tashkilotlar bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni, jumladan fuqarolarga xilma-xil tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda, ularga har xil turdagi xizmatlarni ko‘rsatishda, turar-joy berish va boshqa hollarda vujudga keladigan munosabatlarni ham tartibga soladi.

Jamiyatda majburiyatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolar va tashkilotlarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, ta’minlash maqsadida o‘rnatiladi. Majburiyatlar to‘g‘risidagi normalar mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishini, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari orqali xilma-xil xizmatlar ko‘rsatilishini tartibga soladi. Majburiyatlar vositasida mulk yoki mulkiy huquqlarning qo‘riqlanishi ta’minlanadi. Shuningdek majburiyat huquqi tashkilotlar va fuqarolarga yetkazilgan mulkiy zararlarni to‘lanishini, noqonuniy yoki qonuniy asos-larsiz olingan narsalarning qaytarilishini ta’minlaydigan huquqlarni ham o‘z ichiga oladi.

Majburiyat huquqining tizimi ikki asosiy bo‘limdan: *majburiyatlar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar va majburiyatlarning ayrim turlariga oid maxsus qoidalardan iborat.*

Majburiyat to‘g‘risidagi umumiy qoidalarda (FK 234–252-m.) majburiyatlarning kelib chiqishi va bajarilishi, majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, talab qilish huquqini birovga o‘tkazish va qarzni ko‘chirish, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik va nihoyat, majburiyatlarning bekor qilinishi asoslari belgilangan.

Fuqarolik kodeksining majburiyatlarning alohida turlariga bag‘ishlangan normalari majburiyat huquqi orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning nihoyatda ko‘p va xilma-xil ekanligini bildiradi.

Majburiyat huquqining mazkur maxsus qismi normalari mazmuni va ko‘lami bo‘yicha teng bo‘lmagan ikki turkumga: *shartnomali majburiyatlar* va *shartnomasiz (shartnomadan tashqari) majburiyatlar* institutlariga bo‘linadi.

Shartnomali majburiyatlarga oid huquqiy institutlar jumlasiga: oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, qarz, kontraktatsiya, pudrat, mulk ijarasi, turar-joy ijarasi, yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomalari va boshqa turdagi shartnomalar asosida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar kiradi.

Shartnomalardan tashqari majburiyatlarga oid huquq institutini zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, mulkni asossiz olish yoki tejashdan va shu kabi boshqa asoslardan kelib chiqadigan majburiyatlar tashkil etadi.

Majburiyatlar mazmuni deganda, kreditorning qarzdordan muayyan harakatlarni qilishni (yoki qilmaslikni) talab qilish huquqi hamda qarzdorning shunday harakatlarni bajarishga bo‘lgan burchi tushuniladi. Qarzdor tomonidan qilinishi lozim bo‘lgan harakatlar har-xil: ashyoni egasiga (kreditorga) topshirish, ashyolarni foydalanish uchun topshirish, ma’lum summadagi pulni to‘lash, bironta ishni qilish yoki xizmat ko‘rsatish, yetkazilgan zararni to‘lash, asossiz olingan yoki tejalgan mulkni qaytarish va hokazolar to‘g‘risida bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan majburiyat obyektlarida ko‘rsatilishicha, majburiyatning mazmuni asosan mulkiy xarakterdagi huquq va burchlardan iborat bo‘lsa-da, huquq subyektlari o‘zaro mulkiy xarakterda bo‘lmagan majburiyatlarni ham belgilashlari mumkin. Masalan, ma’lum asar mualliflaridan biri o‘zaro kelishuv bo‘yicha muayyan vaqt ichida asarning bir qismini tuzatib, qayta ishlab kelish to‘g‘risida o‘z zimmasiga majburiyat olishi mumkin va hokazo.

Demak, majburiyatlar mazmunida qonunga xilof bo‘lmagan har qanday mulkiy va nomulkiy xarakterdagi harakatlarni qilishni talab etishga qaratilgan huquqlar va bu harakatlarni qilish yuzasidan olingan majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

Majburiyatlar mazmuni, obyektlari va subyektlariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ijobiy va salbiy mazmunli majburiyatlar. Agar majburiyat yuzasidan qarzdor muayyan harakatni qilishga burchli bo‘lib, kreditor aynan shu harakatning qilinishini talab qilishga haqli bo‘lsa, bunday majburiyat *ijobiy mazmunli* majburiyat, deb ataladi. Huquqiy munosabatning ko‘pchiligida ijobiy mazmunli majburiyatlar yotadi.

Masalan, oldi-sotdi, mulkni ijaraga berish, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida olinadigan majburiyatlar – ijobiy mazmunli majburiyatlardir.

Agar majburiyat yuzasidan qarzdor muayyan harakatni qilishdan saqlanishga burchli, kreditor esa qarzdordan muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab etish huquqiga ega bo‘lsa, bunday majburiyat *salbiy mazmunli* majburiyat deb ataladi. Masalan, nashriyot shartnomasi bo‘yicha muallif shartnoma kuchda bo‘lgan davrda o‘z asarini boshqa nashriyotga topshirishdan saqlanish majburiyatini olsa, nashriyot muallifning boshqa nashriyot bilan shartnoma tuzishdan saqlanishini talab etish huquqini oladi.

2. Bir tomonlama va ikki tomonlama majburiyatlar. Agar majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi (yoki huquqlari), ikkinchi tomonda esa faqat majburiyat (majburiyatlar) bo‘lsa, bunday majburiyatlarga bir tomonlama majburiyatlar deb aytiladi. Bunga misol qilib, qarz shartnomasini ko‘rsatish mumkin. Qarz shartnomasi bo‘yicha qarz bergan shaxs uning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, qarzdor o‘z zimmasidagi qarzini qaytarishga burchlidir.

Agar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi ham huquq, ham majburiyatga ega bo‘lsa, bunday majburiyat ikki tomonlama majburiyat hisoblanadi. Ikki tomonlama majburiyatga oldi-sotdi, ijara, pudrat kabi shartnomalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Masalan, oldi-sotdi munosabatida sotuvchida sotilgan narsani topshirish majburiyati bo‘lsa, oluvchida sotib olingan narsaning qiymatiga yarasha haq to‘lash majburiyati bo‘ladi. Aksariyat majburiyatlar ikki tomonlama bo‘ladi.

3. Muayyan harakatni bajarishga qaratilgan va muqobil majburiyat. Agar huquqiy munosabat bo‘yicha kreditor qarzdordan muayyan bir harakat qilinishini, masalan, ma’lum ishning bajarilishi, biron-bir ashyoning topshirilishi yoki ma’lum summa pul to‘lanishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, bunday majburiyat *muayyan harakatni bajarishga qaratilgan majburiyat* deb ataladi. Agar huquqiy munosabatda kreditorning talabi bo‘yicha qarzdor bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo‘lsa, bunday majburiyat *muqobil majburiyat* sanaladi. Muqobil majburiyat bo‘yicha huquqiy munosabatda bir necha harakat ko‘rsatilgan bo‘lsa ham, majburiyatning mazmunini qarzdorning faqat birgina majburiyati va kreditorning shu majburiyatning bajarilishini talab qilishga bo‘lgan huquqi tashkil etadi. Huquqiy munosabatda nazarda tutilgan harakatlardan birining bajarilishi bilan majburiyat ijro etilgan hisoblanadi. Muqobil majburiyatning bajarilishi to‘g‘risidagi qoida Fuqarolik kodeksining 250-moddasida berilgan. Mazkur moddada ko‘rsatilishicha, agar qarzdor ikki yoki bir necha

harakatlardan birini qilish yoxud kreditorga bir yoki boshqa mol-mulkni topshirishi lozim bo‘lsa, basharti qonun hujjatlari, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining bir qancha moddalarida qanday majburiyatni bajarishni tanlash huquqi kreditorga berilganligi ko‘rsatiladi. Chunonchi: sotilgan ashyoning sifati lozim darajada bo‘lmaganda, sotib oluvchi o‘z xohishi bilan ana shu ashyoni boshqa sifatli ashyoga almashtirish yoki xarid bahosini tegishli darajada kamaytirishni yoxud sotuvchining shu ashyodagi mavjud kamchiliklarni haq olmay tuzatib berishini yoki shu kamchilikni tuzatish uchun qilgan xarajatlarini to‘lashni, yo bo‘lmasa shartnomani bekor qilib, o‘ziga yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishga haqli bo‘ladi, deb ko‘rsatiladi. Bu qoidaga ko‘ra qarzdor sifatidagi sotuvchi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlardan birini tanlash huquqi kreditorga, ya’ni sotib oluvchiga beriladi.

4. Shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan majburiyatlar va shaxsiy xarakterga ega bo‘lmagan majburiyatlar. Ba’zi majburiyatlar huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning har qaysi yoki birining shaxsi bilan qat’iy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vujudga keladigan majburiyat vakil (topshiriqni bajaruvchi)ning ishonchli shaxs bo‘lishiga qarab belgilanadi. Bunday shaxsiy xarakterga ega majburiyatlarning bajarilishini, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, boshqa shaxsga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, kreditor ham boshqa shaxs bilan almashinishi mumkin emas. Bunday majburiyat qarzdor yoki kreditor vafot etishi bilan bekor bo‘ladi.

Aksariyat huquqiy munosabatlarda majburiyatning kim tomonidan bajarilishi ahamiyatga ega emas. Masalan, qarz shartnomasi bo‘yicha majburiyat fuqaro G. tomonidan yoki uning uchun fuqaro B. tomonidan ham bajarilishi mumkin. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo‘lmagan majburiyatlar bo‘yicha kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxs bilan almashinishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday majburiyatlar bo‘yicha kreditor yoki qarzdorning vafot etishi majburiyatning bekor qilinishi uchun asos bo‘lmaydi.

Majburiyat huquqidagi sanksiya masalasiga kelganda, fuqarolik huquqi normalariga muvofiq majburlash choralari ko‘pincha huquq buzilishida, majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli darajada bajarmaslik hollarida qo‘llaniladi.

Sanksiya – fuqaroviy-huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan taraflar o‘z zimmalaridagi majburiyatlarini bajarmaganlarida yoki lozim darajada bajarmaganlarida huquq normalariga muvofiq qo‘llaniladigan majburlash

chorasidir. Buzilgan majburiyatlar yuzasidan qo‘llaniladigan sanksiyalar har xil bo‘ladi. Majburiy chora sifatida qo‘llaniladigan sanksiyalar umumiy xarakterga ega bo‘lishi bilan birga maxsus, ya’ni muayyan huquqiy munosabatdan yuzaga kelgan harakatlarga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘lishi mumkin. Umumiy xarakterdagi sanksiyalar majburiyatning bajarilishini kechiktirish yoki biron ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik hollarida qo‘llaniladi.

Maxsus sanksiyalarga misol qilib, sotilgan ashyolarning sifati tegishli darajada emasligiga sotuvchining javobgar ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Sanksiya majburiyatlarda ishtirok etuvchi va o‘z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarmagan taraf – kreditor va qarzdorga nisbatan qo‘llaniladi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan sanksiyalar quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

– ixtiyoriy bajarilmagan burchni majburiy ijro ettirishga qaratilgan sanksiya. Masalan, olingan qarz ixtiyoriy ravishda to‘lanmaganidan so‘ng uni majburan undirish mumkin bo‘ladi;

– shartnomada ko‘rsatilgan majburiyat bajarilmaganida uni bir tomonlama bekor qilish huquqini berishga qaratilgan sanksiya. Masalan, ijaraga oluvchi o‘z majburiyatini bajarmaganda ijaraga beruvchining talabi bilan shartnoma muddatidan avval bekor qilinishi mumkin;

– majburiyatning ijro etilishi tartibini o‘zgartirishdan iborat sanksiya. Masalan, mahsulot oluvchi tashkilot olgan mahsulotlari uchun haq to‘lashni kechiktirganidan mahsulot yetkazuvchi u bilan «aksept» shakli bo‘yicha hisob-kitob qilmay, balki xaridor tashkilotga noqulay bo‘lgan «akkreditiv» shakli bo‘yicha hisoblashish tartibiga o‘tishi mumkin;

– tuzuk taraf zimmasida bo‘lgan majburiyatlar hajmini kamaytirishga qaratilgan sanksiyalar. Bunga misol qilib xaridor o‘ziga shartnoma shartlariga nomuvofiq sifatdagi ashyo sotilganida, uning narxini tegishincha kamaytirishni talab qila olishini ko‘rsatish mumkin;

– notuzuk tarafning zimmasida bo‘lgan majburiyatlar hajmini oshirishga qaratilgan sanksiyalar. Mazkur sanksiyada majburiyatni buzgan notuzuk taraf noqulay bo‘lgan ba’zi vazifalarni, ya’ni qo‘shimcha majburiyatlarni bajarishga majbur qilinadi. Masalan, sifatli narsa o‘rniga sifatsiz ashyo topshirgan sotuvchi bu ashyoning nuqsonlarini tuzatish uchun yoki kamchiliklarini yo‘qotish uchun xaridor tomonidan qilingan xarajatlarni to‘lashga majbur qilinishi mumkin.

2. Majburiyat subyektlari, regress (qaytarma) majburiyat

Majburiyat munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning biri – kreditor, ikkinchisi – qarzdor hisoblanadi. Fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘la oladigan shaxslar majburiyat munosabatlarida qarzdor va kreditor bo‘lib qatnasha oladilar.

Fuqarolik-huquqiy majburiyat munosabatlarida kreditor va qarzdor sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar hamda ba’zi hollarda O‘zbekiston Respublikasi (davlat) ham ishtirok etishi mumkin.

Majburiyat munosabatlarida ba’zida kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud xar ikkala tarafda ham ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlarga esa *ko‘p shaxsli majburiyatlar* deb ataladi. Masalan, qarz oluvchilar ikki yoki undan ortiq shaxslar bo‘lganda bunday majburiyat ko‘p shaxsli majburiyatlar hisoblanadi.

Majburiyatda ko‘pchilik bo‘lib qatnashuvchi shaxslar aktiv va passiv yoki aralash ishtirokchilarga ajratilishi mumkin. Majburiyatda kreditor taraf ko‘pchilik bo‘lganda – aktiv ishtirokchilar, qarzdor tarafida qatnashuvchi shaxslar esa – passiv ishtirokchilar deb ataladi. Agar majburiyatda qatnashuvchi shaxslar har ikki tarafda ham ko‘pchilik bo‘lib ishtirok etsa – aralash ishtirokchilar deb ataladi.

Ko‘p shaxslar ishtirok etgan majburiyatlar ulushli va sherik majburiyatlarga bo‘linadi.

Ulushli majburiyatlardaqatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, ulushli qarzdorlardan har biri o‘ziga tegishli ulushni bajarishga majbur bo‘ladi.

FKning 251-moddasida ko‘rsatilganidek, agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa – bu talabni bajarishi shart.

Sheriklik majburiyatlarida qarzdor bitta-yu, kreditorlar bir necha bo‘lishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor bo‘lishi mumkin. Sheriklik asosida majburiyat olganlar-sherik qarzdorlar bo‘lsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega bo‘lganlar – sherik kreditorlar deb ataladi.

Sheriklik majburiyatida kreditorlarning talablari yoki qarzdorlarning majburiyatlari ulushlarga bo‘linmaydi. Ammo kreditorlardan biri yoki bir nechtasi qarzning qisman bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Sheriklik (solidaritet) asosida belgilanadigan majburiyatga ko‘ra, qarzdorlardan biri tomonidan majburiyat bajarilmaganida, uning uchun

boshqa sherik qarzdorlar javobgar bo‘lishadi va aksincha sherik qarzdorlar bajarmagan majburiyatning bajarilishini bunday qarzdorlarning biridangina talab qilish ham mumkin.

FKning 252-moddasida ko‘rsatilganidek, qarzdorlarning sheriklik majburiyati belgilanganida kreditor majburiyatning qarzdorlarning barchasidan birgalikda, shuningdek har qaysisidan ayrim-ayrim holda to‘la yoki qisman bajarilishini talab qilishga haqlidir.

Sherik qarzdorlarning biridan to‘la qanoat hosil qilmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa sherik qarzdorlardan talab qilishga haqli. Sherik qarzdorlar to majburiyat to‘la bajarilgunga qadar qarzdor bo‘lib qolaveradi.

Sheriklik majburiyatining qarzdorlardan biri tomonidan to‘la bajarilishi boshqa qarzdorlarni kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan ozod qiladi.

Sheriklik majburiyatini bajargan qarzdor, qonun yoki shartnomalarda boshqacha tartib belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, majburiyatni bajargan qarzdor o‘z ulushini chegirib tashlab boshqa qarzdorlarga teng ulushlarda regress talab qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Majburiyatini bajargan qarzdorga to‘lanmagan haq bu va boshqa qarzdorlar zimmasiga teng ulushlarda tushadi (FK, 254-m.).

Qo‘shimcha (subsidiar) majburiyatlar faqat qarzdorlar tarafida vujudga keladi. Majburiyat asosiy qarzdor tomonidan bajarilmaganida kreditor uning bajarilishini qo‘shimcha qarzdordan talab qilishga haqli. Subsidiar javobgarlik asoslari FKning 329-moddasida nazarda tutilgan. Bunga asosan qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘shimcha ravishda bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin. Kreditor asosiy qarzdorga bo‘lgan o‘z talabini qondirilishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o‘tkazish yoki mablag‘larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo‘li bilan qondirilishi mumkin bo‘lsa, subsidiar javobgar shaxs o‘ziga kreditor tomonidan qo‘yilgan talabni qondirilishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirish, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa – asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilish kerak. Aks holda asosiy qarzdor o‘zining kreditorga qarshi e’tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo‘yish huquqiga ega.

Sheriklik majburiyati bo‘yicha boshqalar uchun majburiyatni bajargan qarzdor regress (qaytarma) da’vo huquqiga ega bo‘lsa, qo‘shimcha majburiyatni uchinchi shaxsga nisbatan bajargan qarzdor, agar qonun yoki shartnomalarda boshqacha hol belgilanmagan bo‘lsa, shu bajarilgan narsani qaytarib olish huquqiga ega bo‘lmaydi. Masalan: ota-onalar farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmagan bolalarning harakati natijasida yetkazilgan zararni uchinchi shaxsga to‘laganlarida mazkur haqni qaytarib olish huquqiga ega emaslar.

Qo‘shimcha majburiyat qonun yoki shartnomalarda ko‘rsatilgan taqdirdagina vujudga keladi. Chunonchi, qonunda aytilishicha, o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smir tomonidan yetkazilgan ziyon uchun ularning ota-onalari, vasiy va homiylari qo‘shimcha javobgardirlar. Qo‘shimcha majburiyatga yana bir misol qilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, boshqa shaxs majburiyatining butunlay yoki qisman bajarilishi uchun uning kreditori oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan kafilning qo‘shimcha javobgarligini ko‘rsatish mumkin. Ammo bu holda majburiyatni bajargan kafil regress (qaytarma) da’vo qilish huquqiga ega bo‘ladi.

«Regress» fuqarolik huquqida «qaytarish» tushunchasini, masalan, birov uchun to‘langan pulning qaytarish to‘g‘risidagi talabni bildiradi. Qaytarma majburiyat sheriklik va qo‘shimcha majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqadi. Sherik qarzdorlardan biri kreditorga nisbatan majburiyatni to‘la hajmda bajarib, keyinchalik ular uchun to‘langan summani, qilingan ish xarajatlarini qolgan qarzdorlardan qaytarma talab asosida qoplata oladi.

Qaytarma (regress) majburiyat deb bir taraf ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatni qaytarish to‘g‘risida talab qila olish huquqiga aytiladi. Regress (qaytarma) talabda ham boshqa majburiyatlar singari ikki taraf ishtirok etadi. Masalan, qarz shartnomasiga asosan qarzdorlardan biri qarzni to‘la hajmda to‘lasa, qarz majburiyati bekor bo‘ladi. Lekin boshqa qarzdorlar uchun qarzni to‘lagan qarzdor ulardan tegishli summani undirish uchun qaytarma talab qila oladi. Agar majburiyatni to‘la hajmda bajargan qarzdor bu to‘g‘rida boshqa sherik qarzdorlarini ogohlantirmasa, sherik qarzdorlar majburiyatni bajarmagan bo‘lsa, zarar ko‘rgan qarzdor qolgan qarzdorlarga nisbatan qaytarma da’vo qo‘zg‘ata olmaydi. U faqat kreditorga nisbatangina uning asossiz olganini qaytarishi to‘g‘risida da’vo qila oladi. Qaytarma talab uchinchi shaxsga nisbatan qilingan xarajatning umumiy miqdoridan oshmasligi kerak.

Qaytarma majburiyat xo‘jalik tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘proq tarqalgan. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotdan sotib

oluvchi tashkilotga mahsulot sifatsiz bo‘lgani uchun jarima to‘laganida – bunday sanksiyaga (jarima) tortilishi mahsulot tayyorlovchi tashkilotning shartnoma shartlarini buzganligi sababli vujudga kelganligi ko‘rsatilib, keyinchalik bu jarima summasining o‘ziga qaytarilishi to‘g‘risida mahsulot tayyorlovchi tashkilotga qaytarma da’vo qo‘zg‘ata oladi.

Binobarin, qaytarma da’vo tashkilotlar o‘rtasida har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z majburiyatiga nisbatan javobgarligini oshiradi va u muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi.

Regress majburiyatning asosiy belgilari muayyan xususiyatlarga ega. Ushbu majburiyat vujudga kelishidan avval uning taraflari, ya’ni kreditor yoki qarzdor boshqa asosiy deb hisoblanuvchi majburiyatning ishtirokchisi bo‘lib keladi. Regress majburiyati ushbu asosiy majburiyatni bajarishni amalga oshirish sharoitida vujudga keladi. Shunday ekan, regress majburiyat o‘ziga xos quyidagi belgilari bilan ta’riflanadi: a) regress majburiyat asosiy majburiyatning hosilasi hisoblanadi; b) unda ishtirok etuvchilarning bittasi yoki barchasi asosiy majburiyatning subyektlaridan hisoblanadi; d) asosiy majburiyatni regress majburiyat taraflaridan biri tomonidan bajarilishi yoki regress majburiyatning o‘zini vujudga kelishi unda ishtirok etuvchi shaxslarning harakati yoki harakatsizligi bilan bog‘liq.

Regress majburiyat bo‘yicha qatnashuvchi kreditor *regrediyent* deb ataladi. U albatta asosiy majburiyatda qatnashuvchi hisoblanadi. Regress majburiyat bo‘yicha qarzdor *«regressatom»* deb nomlanadi. Regressatom asosiy majburiyatda qatnashgan yoki qatnashmagan bo‘lishi ham mumkin, lekin asosiy majburiyatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uning muayyan harakatlarni amalga oshirishi yoki oshirmasligiga, shuningdek regrediyent uchinchi shaxs oldidagi vazifasini bajarilishiga bog‘liq.

Fuqarolik huquqiga muvofiq regress majburiyatning vujudga kelishi quyidagi hollarda yuz beradi.

Birinchidan, asosiy majburiyatni qarzdorning o‘rniga uchinchi shaxs bajargan holatlarda. Asosiy majburiyatni bajargan uchinchi shaxs regress majburiyatning kreditoriga aylanadi, uning qarzdori esa yangi majburiyat munosabatlarida ham qarzdor hisoblanadi. Masalan, qarz shartnomasi (asosiy majburiyat) bo‘yicha kafil kreditorning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo‘lsa, shuncha hajmda unga o‘tadi. Kafil kreditorga to‘langan summani va boshqa xarajatlarni to‘lashni regress majburiyati asosida talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Solidar majburiyatni bajargan qarzdorlardan biri, boshqa solidar qarzdorlarga nisbatan talab qo‘yishi mumkin. Bunday talab regress talab deyiladi va regress majburiyatga asoslanadi. Masalan, qarzdorlarni birgalikda

kafillikka olgan shaxslar kreditor oldida solidar javob beradilar (FK 293-m. 3-q.). Majburiyat kafillardan biri tomonidan bajarilgan bo‘lishi mumkin. Bunday holda majburiyatni bajargan kafil kreditor sifatida boshqa kafillarga nisbatan regress majburiyati bo‘yicha talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Regress majburiyati bo‘yicha kreditor boshqa qarzdorlardan ular uchun to‘langan pul, topshirilgan mol-mulk hajmda qaytarishni ulardan talab qilish huquqiga ega.

Solidar majburiyatni bajargan qarzdorlardan biri uchun regress talab boshqa qarzdorlarning aybi bo‘lish yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar vujudga keladi. Agar solidar majburiyatni to‘la hajmda bajargan qarzdor bu haqda boshqa qarzdorlarni xabardor qilmasa, ularga nisbatan regress huquqidan mahrum bo‘ladi. Regress talab hajmi bo‘yicha asosiy majburiyat bo‘yicha to‘langan summadan oshiqcha bo‘lmasligi kerak.

Ikkinchidan, regress majburiyat uchinchi shaxsning aybi bilan majburiyat bajarilmaganligi hollarda vujudga keladi. Bunday regress majburiyat bo‘yicha asosiy majburiyatning qarzdori kreditor bo‘lsa, qarzdor esa, asosiy majburiyatni bajarilishini amalga oshirish uchun aybdor bo‘lgan uchinchi shaxs hisoblanadi. Masalan, bosh pudratchi buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi (uchinchi shaxs) o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatlari uchun javobgar bo‘ladi. Bosh pudratchi yordamchi pudratchining aybi bilan majburiyat lozim darajada bajarilmaganligi tufayli buyurtmachiga to‘langan jarimani regress tartibda yordamchi pudratchidan talab qilish huquqiga ega.

Uchinchidan, regress majburiyat uchinchi shaxslarning aybi bilan ular tomonidan o‘z mehnat va xizmat vazifalarini bajarish jarayonida vujudga keladi. Masalan, boshqa shaxs (mehnat majburiyatini bajarayotgan xodim, transport vositasini boshqaruvchi shaxs va h.k.) tomonidan yetkazilgan zararni to‘lagan shaxs bu shaxsga nisbatan, agar qonunda boshqacha miqdor belgilanmagan bo‘lsa, to‘langan tovon miqdorida qayta talab qilish (regress) huquqiga ega.

Zarar bir necha shaxslarning ishtirokida yetkazilgan bo‘lishi mumkin. Birgalikda zarar yetkazgan shaxslar jabrlanuvchining oldida solidar javobgar bo‘ladilar. Jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra va uning manfaatlarini ko‘zlab, sud birgalikda zarar yetkazgan shaxslarga hissali javobgarlikni yuklashi mumkin. Birgalikda yetkazilgan zararni to‘la miqdorda to‘lagan zarar yetkazuvchi zarar yetkazuvchilarning har biridan jabrlanuvchiga to‘langan tovonning har bir zarar yetkazuvchining aybi darajasiga mos ulushni regress tartibda talab qilishga haqli. Aybning darajasini aniqlash imkoniyati bo‘lmaganda ulushlar teng baravar deb hisoblanadi.

Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararni to‘lagan davlat bunday shaxslarning aybi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan hollarda, bu shaxslarga nisbatan regress huquqiga ega bo‘ladi (FK 1001-m. 1, 2, 3-q.).

Demak, regress majburiyat deb, unga muvofiq bir tarafning ikkinchi tarafdan uning majburiyati bo‘yicha yoki uning aybi oqibatida uchinchi shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun to‘langan summani qoplashni talab qilish huquqiga aytiladi.

Regress majburiyat shartnoma intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi, fuqarolar va yuridik shaxslarning majburiyatlar bo‘yicha mas’uliyatini oshiradi. Regress majburiyat vositasida fuqarolarning hayotini va sog‘lig‘ini, ularning mehnat huquqlarini samarali muhofaza qilish ta’minlanadi. Ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot organlarining fuqarolarga yetkazilgan zarar uchun javobgar tashkilotlar va shaxslarga nisbatan regress da’volari ushbu organlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

3. Majburiyatlarning vujudga kelishi, bajarilishi va bekor bo‘lishi asoslari

Majburiyatlar shartnomadan, zarar yetkazish natijasida hamda Fuqarolik kodeksida ko‘rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi (FK 234-m.). Fuqaroviy huquq va burchlarning vujudga kelish asoslari (yuridik faktlar) Fuqarolik kodeksining 8-moddasida ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, fuqarolik qonunining deyarli barcha normalari shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solishga qaratilgan. Mazkur huquqiy normalar vositasida tartibga solinadigan majburiyatlarga mulkni boshqa shaxsning egaligiga topshirish (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya shartnomalari)dan, mulkni operativ boshqarish huquqini o‘tkazish (mahsulot yetkazib berish shartnomasi), foydalanish huquqini o‘tkazish (mulk ijarasi va turar-joy ijarasi, mulkdan bepul foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalar), biror ishni bajarish yoki xizmat ko‘rsatish (pudrat, yuk tashish, topshiriq, komissiya, omonat, ekspeditsiya shartnomalari) va boshqa shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar kiradi. Hozirgi bozor sharoitida turli tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuziladigan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar alohida ahamiyatga ega.

Davlat organlarining qonunda fuqarolik huquqi va majburiyatlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan hujjatlari ham muayyan majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hujjatlar turli ko‘rinishda davlat buyurtmasi yoki ma’muriy hujjatlar shaklida bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarga turar-joydan foydalanish huquqini beradigan order ma’muriy dalolatnoma sifatida uy-joy boshqarmasi bilan order olgan fuqaro o‘rtasida turar-joy ijarasi shartnomasini tuzishga va shu bilan muayyan majburiyatlarni vujudga keltirishga asos bo‘ladi.

Fuqarolik huquqiy majburiyat sudlar tomonidan chiqarilgan hujjatlar (hal qiluv qarorlari, ajrimlar, hukmlar) asosida ham vujudga kelishi mumkin. Qonun yo‘l qo‘ygan asoslarda mol-mulkning mulk sifatida olinishi natijasida ham (masalan, egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat hosil bo‘lganligi sababli) majburiyat kelib chiqishi mumkin. Bir tomonlama bitimlar ham fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik faktlar jumlasiga kiradi. Ushbu bitimga muvofiq bir shaxsning xohishi ikkinchi bir shaxsga huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi. Bir tomonlama bitimlarga misol qilib vasiyatni ko‘rsatish mumkin. Vasiyat yuzasidan mulk olish huquqi va marhumning qarzlarini to‘lash majburiyati vujudga kelishi mumkin.

Yaratilgan ixtiro va foydali model, buyumlarning sanoat namunalari, fan, adabiyot va san’at asarlari qonun talablariga javob berishi kerak. Tegishli qonunlardagi normalarga muvofiq yaratilgan mazkur narsalar uni ixtiro qilgan shaxs bilan tegishli davlat tashkilotlari o‘rtasida majburiyatlarning kelib chiqishiga asos bo‘ladi.

Fuqaro yoki tashkilotga ziyon yetkazish natijasida ham majburiyat yuzaga keladi. Ziyon yetkazgan shaxsda jabrlangan shaxsga yetkazilgan ziyon uchun muayyan majburiyatlar vujudga keladi. Bunday majburiyatlar *shartlashilmagan majburiyatlar* deb ataladi.

Majburiyatlar qonunda belgilanganidek, yetarli asos bo‘lmasa ham, boshqa birovning mulkini olish yoki boshqa shaxsning mulkini asossiz tejashdan ham kelib chiqadi. Agar asossiz olingan mulkni asl holida qaytarishning imkoni bo‘lmasa, uning asossiz olingan paytda belgilangan qiymati baravarida haq to‘lash majburiyati vujudga keladi.

Boshqa shaxslarning ishlarini topshiriqsiz yurgizganlik sababli kelib chiqadigan majburiyatlar to‘g‘risidagi qoidalar ham qonunda mavjud. Masalan, boshqa shaxs manfaatlarini ko‘zlab topshiriq olmay harakat qilgan shaxs, shu munosabat bilan qilgan zarur xarajatlarning to‘lanishini talab qilishga haqli. Agar manfaatdor shaxs topshiriq olmay harakat qilgan shaxsning ishini ma’qullasa, bu holda Fuqarolik kodeksining topshiriq shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi va majburiyatlarning kelib chiqishiga asos bo‘ladi. Fuqarolik huquqiy majburiyatlar tanlov e’lon qilishdan ham kelib chiqishi mumkin. Mukofot to‘lashni oshkora va’da qilish (tanlov e’lon qilish)dan kelib chiqadigan majburiyatlarda muayyan ishni yaxshi ijro etganlik uchun davlat, kooperativ yoki jamoat tashkiloti tomonidan

maxsus haq, mukofot to‘lanishini oshkora va’da qilish – tashkilotni tanlov shartlariga muvofiq mukofotga sazovor bo‘lgan shaxsga va’da qilingan haqni to‘lashga majbur qiladi.

Majburiyatga oid huquqiy munosabatlar turli hodisalardan ham kelib chiqadi. Bunga tabiiy hodisalar, masalan, yong‘in yoki zilzila natijasida ijaraga topshirilgan mulkning zararlanishi tufayli sug‘urta organiga nisbatan kelib chiqadigan majburiyatlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Majburiyatlar qonunda ko‘rsatilgan hollarda boshqa asoslardan ham kelib chiqishi mumkin.

Majburiyatlarni bajarish deb qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, ma’lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish va hokazolardan iborat.

Tashkilotlar va fuqarolar tomonidan olingan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, mulkni mustahkamlash, jamiyatning tobora o‘sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishda katta rol o‘ynaydi.

Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo‘lsa, ularda ko‘rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar davlat hujjatlarida majburiyatlarni bajarish sharti ko‘rsatilmagan bo‘lsa, majburiyatlar o‘zaro kelishilgan talablarga muvofiq bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki tomon xalq xo‘jaligining rivojini ko‘zlab, tejamkorlik bilan va o‘zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Majburiyatlarni bajarish prinsiplari asosan tegishli darajada, kelishilgan va maqbul usulda bajarish, majburiyatni tegishli shaxs uchun, aniq, tejamkorlik va o‘zaro hamkorlikda bajarishdan iborat bo‘ladi.

Majburiyatlarni tegishli darajada bajarish prinsipi deganda majburiyatlar qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradigan darajada, bekami-ko‘st va belgilangan muddatda bajarilishi nazarda tutiladi. Bunda huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarilishi uchun bab-baravar manfaatdor bo‘lishlari va bir-birlariga ko‘maklashishlari shart hisoblanadi.

Majburiyatlarning tegishli ravishda bajarilishi jamiyat manfaatlari hamda uning tobora o‘sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Majburiyatlarni tegishli ravishda bajarish ularni qonun hujjatlari, shartnoma shartlari, ish muomalasi tartibi va qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda shartnoma predmeti sifati, miqdori, hajmi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarilishini anglatadi. Bozor munosabatlari tizimida

majburiyatlarni tegishli ravishda bajarilishidan nafaqat majburiyat o‘z foydasiga bajarilayotgan subyekt, balki pirovard natijada jamiyatning har bir a’zosi manfaatdor bo‘ladi. Chunki barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgani sababli qaysidir subyekt tomonidan o‘z majburiyatini lozim darajada bajarmasligi boshqa subyektlar uchun ham, garchi ular bevosita bunda kreditor sifatida qatnashmasalar-da, salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Majburiyatlar bajarilishining yana bir prinsipi – majburiyatlarning kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishi.

Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa va qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lish kerak (FK 238-m.). Ushbu prinsip mazmuniga ko‘ra, majburiyatlarni real (asl holicha) bajarilishi, uning bajarilishida tejamli usullardan foydalanish, majburiyat bajarilishida taraflarning hamkorlik qilish haqidagi qoidalarni anglatadi. Bu qoidalarni ham shartli ravishda, garchi qonunda bevosita sanab o‘tilmagan bo‘lsa-da, majburiyatlarni bajarish prinsiplari safiga qo‘shish mumkin.

Majburiyatlarning aniq bajarilishi shartnomada ko‘rsatilgan harakatning aynan o‘zi bajarilishini, topshirilishi lozim bo‘lgan narsa (mahsulot)ni asl holatida topshirilishini bildiradi.

Majburiyatning qarzdor aybi bilan kechiktirilishi yoki lozim darajada bajarilmasligi hollarini nazarda tutib, belgilangan neustoyka, jarima, penya hamda majburiyatning zarur darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan zararning undirilishi qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

Qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardan tashqari, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi (FK 237-m.). Ammo bu qoida, yuqorida aytilganidek, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba’zi majburiyatlar uchun qo‘llanilmaydi. Chunonchi, pudrat shartnomasi bo‘yicha topshiriq beruvchi bergan topshirig‘ini xohlaganida bekor qila olgani kabi, topshiriq olgan shaxs ham istagan vaqtida topshiriqni bajarishdan bosh torta oladi. Temir yo‘l va boshqa turdagi transport vositasida yo‘lovchilar tashish munosabatida ham yo‘lovchi talabi bilan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Majburiyatlarni bajarishda tejamkorlik qoidasiga muvofiq majburiyatni bajarishda taraflar kam xarajat bilan ko‘p foyda keltirishga qaratilgan harakatlarni qilishlari lozim. Bu qoida kreditor va qarzdorning majburiyatni bajarish jarayonida eng qulay hamda eng foydali usuldan foydalanishi

lozimligini belgilaydi. Chunonchi, pudrat shartnomasi bo‘yicha pudratchi ishni buyurtmachi materialidan bajarishda materialni tejamkorlik bilan sarflashi va u to‘g‘ri ishlatilishida javobgar bo‘lishi belgilangan. Yuk tashish shartnomasiga asosan yuk tashuvchi yukni eng qisqa yo‘ldan tashishi ko‘rsatilgan.

Majburiyatni bajarishda o‘zaro hamkorlik prinsipiga ko‘ra har ikki tomon majburiyatni bajarishda bir-birlariga zarur bo‘lgan yordamni ko‘rsatishlari lozim. Chunonchi, kreditor majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lishi bilan birga qarzdorning majburiyatini bajarishda unga yordam berish va ko‘maklashishga ham majbur. Masalan, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo‘jalik mahsulotlarini davlat yo‘li bilan xarid qilinishida kontraktant (mahsulot qabul kiluvchi) tashkilotlar qishloq xo‘jalik korxonalariga mahsulotlar yetishtirish va ularni tashishni tashkil qilishda yordam ko‘rsatishi zarur.

Majburiyatlarni tegishli shaxs uchun bajarilishi prinsipi Fuqarolik kodeksining 240-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, agar boshqacha tartib taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo‘lmasa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor majburiyatni bajarish chog‘ida ijroni kreditorning o‘zi yoki bu ish uchun u vakolat bergan shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli va bunday talabni qo‘ymaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo‘ladi.

Majburiyatlarning bekor bo‘lishi – bu huquqiy munosabatlar jarayonida qonunda ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda yoki shartnomada nazarda tutilgan zaruriy natijalarga erishilganda muayyan majburiyat turi bo‘yicha bir tarafning talab qilish huquqi va unga muvofiq bo‘lgan ikkinchi tarafning majburiyati bekor bo‘lishi bilan bog‘liq holatdan iborat yakunlovchi bosqichdir. Asosiy majburiyatning bekor bo‘lishi bilan majburiyatni lozim darajada bajarilishini ta’minlash vositasi sifatida xizmat qilishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha majburiyatlar ham bekor bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 340-352-moddalarida majburiyatlarning bekor bo‘lish asoslari ko‘rsatilgan.

Majburiyatlar bekor bo‘lishining alohida usullari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

1. *Majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo‘lishi*. Majburiyatning bekor bo‘lishini asosiy va keng tarqalgan usullaridan biri uni lozim darajada bajarishdir (FK 341-m.).

2. *Majburiyatni bekor qilish usuli sifatida voz kechish haqi*. Taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyat uni bajarish o‘rniga voz kechish haqini berish (pul to‘lash, mol-mulk berish va shu kabilar) bilan bekor qilinishi mumkin.

3. *Hisobga o‘tkazish yo‘li bilan majburiyatning bekor bo‘lishi*. Muddati to‘lgan yoki muddati ko‘rsatilmagan yoxud talab qilish vaqti bilan belgilangan muqobil o‘xshash talab hisobga o‘tkazilishi bilan majburiyat to‘liq yoki qisman bekor bo‘ladi. Hisobga o‘tkazish uchun bir tarafning arizasi kifoya qiladi (FK 343-m.).

4. *Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganda majburiyatning bekor bo‘lishi* (FK 346-m.). O‘zaro majburiyat-huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir yuridik shaxsning boshqasi tomonidan qo‘shib olish yoki ularni qo‘shib yuborish yo‘li bilan yuridik shaxslar qayta tashkil etilganda majburiyat bunday tarzda bekor bo‘lishi mumkin.

Fuqarolar o‘rtasida qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganda majburiyatning bo‘lishi qarzdor vafot etgan kreditorning mol-mulkini meros qilib olgan hollarda sodir bo‘ladi.

5. *Majburiyat yangilanishi bilan, ya’ni taraflarning o‘z o‘rtalaridagi dastlabki majburiyatni yangi majburiyat bilan almashtirish haqidagi kelishuvi natijasida bekor bo‘ladi.* Turar-joyni ijaraga olish shartnomasini aynan shu turar joy yuzasidan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga yoki oldi-sotdi shartnomasidan vujudga kelgan qarzni qarz majburiyatiga almashtirilishi bunga misol bo‘la oladi.

6. *Qarzdan voz kechish orqali majburiyatning bekor bo‘lishi*. Kreditor qarzdorni uning zimmasidagi majburiyatlardan ozod qilishi bilan, agar bu hol boshqa shaxslarning kreditor mol-mulkiga nisbatan huquqlarini buzmasa, majburiyat bekor bo‘ladi (FK 348-m.).

7. *Bajarilishi mumkin bo‘lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo‘lishi.* Agar taraflardan birontasi ham javob bermaydigan vaziyat tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmay qolsa, u bekor bo‘ladi. Basharti, qarzdor majburiyatni kreditorning aybli harakatlari tufayli bajarishi mumkin bo‘lmasa, kreditor o‘zining majburiyat bo‘yicha bajarganlarini qaytarib berishni talab qilishga haqli emas (FK 349-m.).

8. *Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo‘lishi.* Tegishli majburiyatning bajarilishi qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa yoki qonun tomonidan taqiqlangan bo‘lsa, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun ularda maxsus ruxsatnoma (litsenziya) bo‘lmagan hollarda davlat organlarining, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari va tegishli vakolatli davlat organlarining hujjatlari bilan bekor qilinishi mumkin.

9. *Fuqaroning vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo‘lishi.* Agar majburiyatni qarzdorning shaxsiy ishtirokisiz bajarish mumkin bo‘lmasa yoki majburiyat boshqacha tarzda qarzdorning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq

bo‘lsa, qarzdor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo‘ladi (FK 351-m. 1-q.). Masalan, badiiy asar yaratish bo‘yicha tuzilgan buyurtma shartnomasi bo‘yicha majburiyat muallifning vafotidan keyin bekor bo‘ladi; topshiriq shartnomasi vakilning vafotidan keyin bekor bo‘ladi, chunki u shaxsiy xarakter kasb etadi.

10. *Yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo‘lishi.* Yuridik shaxs (qarzdor yoki kreditor) tugatilishi bilan majburiyat bekor bo‘ladi, qonun hujjatlari bilan yuridik shaxsning majburiyatlarini bajarish boshqa shaxs zimmasiga yuklatilgan hollar bundan mustasno (FK 352-m.).

Majburiyatning bekor bo‘lish asoslari va usullari ko‘p sonli va turli xildir. Biz faqat amaliyotda ko‘proq uchrab turadiganlarini keltirdik.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar kimlar, tavsiflab bering.
2. Regress, alternativ, muqobil, ulushli va solidar majburiyatlarni tasniflang.
3. Majburiyatlarning bajarilishi prinsiplarini sanab o‘ting.
4. Majburiyatlarning bekor bo‘lish asoslarini tasniflang:

a) bajarilishi bilan;
b) voz kechish haqini berish bilan;
d) hisobga o‘tkazish bilan;
e) talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilganida hisobga o‘tkazish orqali;
f) qarzdan voz kechish orqali;
g) majburiyatlarni bajarish mumkin bo‘lmaganligi tufayli;
h) davlat organlari hujjati asosida;
i) fuqaro vafot etishi bilan;
j) yuridik shaxs tugatilishi bilan.

8-MAVZU.
MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA’MINLASH. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

1. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash tushunchasi va ahamiyati.
2. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari.
3. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari.

1. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash tushunchasi va ahamiyati

Majburiyatning bajarilishi – bu o‘zining ahamiyati bo‘yicha shartnoma munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi davrida asosiy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan eng asosiy va yakunlovchi bosqichdan iborat. Majburiyatning bajarilishi bilan shartnoma taraflarining birgalikda izhor etilgan xohish-irodalarini amalga oshirish, ularning o‘zaro muqobil manfaatlarini qanoatlantirish, majburiyat qabul qilishdan oldinga qo‘yilgan natijaga erishish ta’minlanadi. Shartnomaga muvofiq vujudga kelgan taraflar huquq va burchlarining tugash payti ham majburiyatlarning bajarilishi bilan belgilanadi.

Majburiyatning qanday darajada bajarilishiga qarab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarning harakatlariga baho beriladi, ularning o‘z vazifalarini bajarishda halol (insofli), oqilona, adolatlik tamoyillariga og‘ishmay amal qilishlari ayon bo‘ladi, bu esa jamiyatda bozor munosabatlarining jadal tarkib topishga olib keladi.

Majburiyatning bajarilishini ta’minlash deb qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo‘lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan choraga aytiladi. Bunday chora qonun yoki shartnomaga ko‘ra asosiy majburiyatga qo‘shimcha qilib belgilanadi. Majburiyat bajarilishini ta’minlashning mohiyati shundaki, qarzdor zimmasidagi majburiyatni belgilangan muddatda bajarmasa yoki boshqacha tarzda buzsa, kreditorda ziyonni undirishga bo‘lgan huquqdan tashqari majburiyatning obyektini tashkil etgan harakatni qilishga qarzdorni majbur qiladigan boshqa mulkiy ta’sir choralarining qo‘shimcha tatbiq etilishini talab qilish huquqi paydo bo‘ladi.

Majburiyatlarni bajarish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar FKning 236-moddasida quyidagicha nazarda tutiladi: «Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa – ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarlishi kerak".

Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi – bu odatda yuz beradigan normal holatlardan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnomalar va boshqa asoslardan kelib chiqadigan majburiyatlar ko‘pchilik holatlarda ixtiyoriy bajariladi. Majburiyatlarning bunday ravishda bajarilishi uchun nafaqat uning ishtirokchilari, shuningdek boshqa barcha shaxslar va umuman olganda davlat ham manfaatdor.

Shartnoma majburiyatlarining lozim darajada bajarilishi aholini kerakli bo‘lgan tovarlar bilan uzluksiz ta’minlash, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishining bir maromda rivojlanishi, turli obyektlarning o‘z vaqtida qurilishi, kishilarning madaniy-maishiy ehtiyojlarini to‘la-to‘kis ta’minlashni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi uchun davlatning o‘zi har tomonlama manfaatdor. Chunki majburiyatlarning bunday darajada bajarilishi bozor munosabatlarining faol harakatda bo‘lishiga va tadbirkorlik faoliyatidan undiriladigan soliqlar hisobiga davlat budjetiga mablag‘lar tushumiga yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasida shartnoma majburiyatlarining lozim darajada bajarilishi qanchalik ahamiyatga ega ekanligi hisobga olingan holda fuqarolik qonun hujjatlarida majburiyatlarning bunday darajada bajarilishini ta’minlash uchun lozim bo‘lgan ma’lum choralardan foydalanish zarurligi nazarda tutiladi. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tegishli huquqiy vositalar shartnoma bilan ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy vositalar majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun qo‘llaniladigan javobgarlikdan farqlanadi. Qonunga asosan qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashga majbur bo‘lishi shartnoma buzilganligi uchun qo‘llaniladigan javobgarlik hisoblanadi (FK 324-m. 1-q.).

Demak, majburiyatning bajarilishini ta’minlash deb, asosiy majburiyatning bajarilishini amalga oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan qo‘shimcha majburiyatga

aytiladi. Qo‘shimcha majburiyatlar asosiy majburiyatning bajarilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi usullardan tashkil topadi. Ular qarzdorni asosiy majburiyatni bajarishga majbur qiluvchi va u bajarilmagan taqdirda kreditorning talablarini qanoatlantiruvchi huquqiy vosita (chora)lardan hisoblanadi.

Majburiyatning bajarilishini ta’minlovchi usullar birinchi galda kreditor manfaatini ko‘zlab o‘rnatiladi. Masalan, agar majburiyatning bajarilishi qarzdorga tomonidan tegishli bo‘lgan mol-mulkni ushlab qolish majburiyati bilan ta’minlangan bo‘lsa, qarzdorga yoki qarzdor tomonidan ko‘rsatilgan shaxsga topshirishi lozim bo‘lgan mol-mulkni saqlayotgan kreditor ushbu mol-mulk haqini yoki u bilan bog‘liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to‘lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli (FK 290-m. 1-q.). Kreditorning manfaati kafillik shartnomasi bo‘yicha ham ta’minlanadi. Kafil boshqa shaxs tomonidan o‘z majburiyatini to‘la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi (FK 292-m. 1-q.). Qarzdor kafillik bilan ta’minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar, basharti, qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lmasa.

Majburiyatni bajarilishi har xil usullar bilan ta’minlanadi. Mazkur usullar qonun bilan belgilanishi yoki shartnomaga asoslangan bo‘lishi mumkin.

Majburiyatning bajarilishini ta’minlashning qonun bilan belgilangan turlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

– neustoyka;
– garov;
– qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish;
– kafillik;
– kafolat;
– zakalat.

Fuqarolik kodeksining 259-moddasiga ko‘ra qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham majburiyatlarning bajarilishi ta’minlanishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan usullarning hech qaysisi mustaqil ravishda qo‘llanilmaydi. Ularning barchasi biron-bir majburiyatning mavjudligini ko‘rsatib, mazkur majburiyatning bajarilish maqsadlari ko‘zlab belgilanadi. Bu majburiyat asosiy majburiyat bo‘lib, uning bajarilishini

ta’minlash usuli esa qo‘shimcha majburiyat hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot yetkazib berish yoki pudrat shartnomasidan kelib chiqadigan asosiy majburiyatning bajarilishini ta’minlash uchun belgilangan neustoyka mazkur asosiy majburiyatning amalga oshirilishini ta’minlaydigan qo‘shimcha majburiyat hisoblanadi.

Ba’zi majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash maxsus qonunlarda nazarda tutilmagan bo‘lsa, bunday majburiyat munosabatlarini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida berilgan umumiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga muayyan majburiyatning bajarilishini ta’minlash usullari bir vaqtning o‘zida qonun bilan ham, shartnoma bilan ham belgilanishi mumkin. Masalan, neustoyka va garov bir vaqtning o‘zida shartnoma bilan ham, qonun bilan ham nazoratda tutilishi mumkin, biroq boshqa usullar esa masalan, zakalat faqat kelishuv bo‘yicha belgilanadi.

Fuqarolik huquqining mazkur instituti majburiyatlarning qarzdor tomonidan bajarilmasligi natijasida kreditorga keladigan zararning oldini olishga qaratiladi. Ammo mazkur usullar vositasida ko‘rsatilgan maqsadga erishish har xil bo‘ladi.

Neustoyka va zakalat qarzdor tomonidan majburiyatning asl holatida bajarilishini ta’minlaydi va majburiyat ijro etilmagan taqdirda qarzdor muayyan javobgarlikka tortilishi muqarraligini ifodalaydi. Neustoyka va zakalat ba’zi hollarda majburiyatning bajarilmasligi tufayli yetkazilgan zararning kreditor tomonidan undirilishini yengillashtiradi. Qarzdor tomonidan mulkning garovga qo‘yilishi uning asosiy majburiyatni muayyan darajada bajarishini ta’minlaydi va mazkur majburiyatlar bajarilganligi tufayli vujudga kelgan kreditor talablarini qondirishga ko‘proq e’tibor beradi.

Uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov, kafolat va kafillik majburiyati bajarilmaganida keltirilgan zarar qoplanishi, foiz yoki neustoykalarning to‘lanishi kreditor tomonidan qo‘yilgan talablarning qondirilishini ta’minlaydi.

Majburiyatning bajarilishi mazkur majburiyat yuzasidan kreditor bo‘lgan shaxs bilan majburiyatning amalga oshirilishini ta’minlagan uchinchi shaxs o‘rtasida majburiyatga oid huquqiy munosabatni va asosiy majburiyatga nisbatan qo‘shimcha huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Mazkur majburiyatning qo‘shimcha xarakterda bo‘lishi qator huquqiy masalalarda namoyon bo‘ladi. Majburiyatning bajarilishini ta’minlash to‘g‘risidagi kelishuvning haqiqiy emasligi ushbu majburiyatning (asosiy majburiyatning) haqiqiy emasligiga olib kelmaydi (FK 259-m.).

Umumiy qoidaga binoan asosiy majburiyat qo‘shimcha majburiyat taqdiriga quyidagi usullar vositasida ta’sir etadi:

a) asosiy majburiyatning bekor bo‘lishi qo‘shimcha (ta’minlovchi) majburiyatning bekor bo‘lishiga olib keladi. Masalan, garov bilan ta’minlangan majburiyat bekor bo‘lganda garov ham bekor bo‘ladi (FKning 283-moddasi 1-qismi); kafillik bilan ta’minlangan majburiyat bekor bo‘lgach kafillik ham bekor bo‘ladi (FKning 298-moddasi 1-qismi). Kafolat ushbu qoidadan mustasno, uning taqdiri asosiy majburiyat bilan bog‘liq emas. FKning 301-moddasiga muvofiq kafilning benefitsiar oldidagi kafolatda nazarda tutilgan majburiyati ular o‘rtasidagi munosabatlarda bajarilishini ta’minlash uchun shu kafolat berilgan asosiy majburiyatga, garchi kafolatda ushbu majburiyatga havola qilingan bo‘lsa-da, bog‘liq emas;

b) asosiy majburiyatni qanday darajada bajarilgan bo‘lishi kreditorning roziligi bilan qo‘shimcha (ta’minlovchi) majburiyatning miqdoriy ko‘rsatkichlarini kamaytirishga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, garovga qo‘yilgan muomaladagi tovarlar qiymatining kamayishiga garov bilan ta’minlangan majburiyatning bajarilgan qismiga mos keladigan darajada yo‘l qo‘yiladi (FK 288-m. 2-q.); agar to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligi ko‘rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli (FK 326-m. 1-q.);

v) asosiy majburiyatning haqiqiy emasligi uning bajarilishini ta’minlaydigan majburiyatning haqiqiy emasligiga olib keladi (FK 259-m. 3-q.). Bunday majburiyatlarga nisbatan bitimlarning haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi umumiy qoidalar qo‘llaniladi.

Ma’ruzamizning 2-rejasida majburiyatning bajarilishini ta’minlashning alohida usullarini ko‘rib chiqamiz.

2. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari

Fuqarolik qonunchiligida majburiyatning bajarilishini ta’minlash usullari haqida FKning 259-moddasida, shuningdek «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi 1998 yil 29 avgustdagi qonunning 14-moddasida aytib o‘tilgan. Shunday usullardan biri neustoykadir.

Neustoyka qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi (FK 260-m.).

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo‘ladi. Majburiyatning bajarilishini ta’minlash usullari bo‘lgan jarima bilan penya o‘rtasida jiddiy

farq yo‘q. Ular faqat hisoblanish metodlari jihatidangina bir-biridan farq qiladi.

Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda qo‘llaniladi va muayyan vaqt, masalan, 10, 20, 30 kun davomida hisoblanadi. Penya majburiyatning bajarilishi kechiktirilganda, kechiktirishning barcha muddati davomida hisoblanib, bajarilmagan summasi yuzasidan belgilangan foizlar bilan undiriladi. Majburiyatning bajarilish vaqti kechiktirilgani sari penya summasining ham o‘sib borishi qarzdorni majburiyatni mumkin qadar tezroq ijro etishga majbur qiladi.

Agar penya faqat muayyan kunlar, masalan, 30 kun davomida hisoblansa, mazkur kunlar o‘tgandan so‘ng uning hisoblanishi to‘xtatiladi. Odatda, keyinchalik kreditorga qarzdordan birdaniga 2 % dan 5 % gacha neustoyka olish huquqi paydo bo‘ladi. Tor ma’nodagi neustoyka majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, shu jumladan, shartnoma majburiyatlarining ijrosini kechiktirganlik uchun undiriladi va yetkazib berilmagan mahsulotning yoki tovarning qiymati summasidan yoki pudrat shartnomasi bo‘yicha bajarilmagan ishlar summasidan va shu kabi boshqa summalarga nisbatan foiz bilan, masalan, 2, 3, 4, 5 % miqdorida neustoyka olinadi.

Neustoykaning xususiyati shundaki, u majburiyat bajarilishining buzilishida har qanday fakt uchun, miqdori esa majburiyat kechiktirilishining qanchalik uzoq bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar belgilanadi.

Fuqarolik qonunchiligi neustoykani ikki huquqiy asosini: qonun va shartnomadan kelib chiqishini belgilaydi.

Qonuniy neustoyka deb majburiyatlarning muayyan turlari uchun qonun bilan maxsus belgilangan neustoyka tushuniladi. Bu holda qonun neustoykaning miqdori, uning undirilishi tartibi va shartlarini belgilaydi. Qonun bilan belgilanadigan neustoykaning xarakterli tomoni shundaki, uni to‘lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qatyi nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to‘lashni talab qilishga haqli. Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqiqlamasa, taraflarning kelishuvi bilan ko‘paytirilishi mumkin (FK 263-m.).

Taraflar qonunda nazarda tutilgan neustoykani undirishdan bosh torta olmaydilar va uning miqdorini ham kamaytira olmaydilar. Agar shartnomada bunday shartlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular haqiqiy sanalmaydi.

Qonuniy neustoyka xo‘jalik tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘p qo‘llaniladi va maxsus normativ hujjatlarda nazarda tutiladi.

Shartnomali neustoyka taraflarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha belgilanadi. Mazkur neustoyka asosiy majburiyatning neustoyka bilan ta’minlanishi yoki ta’minlanmasligi to‘g‘risidagi masala, uning miqdori, undirish tartibi va shartlari faqat taraflarning o‘zlari tomonidan belgilanadi. Masalan, ikki jamoa xo‘jaligi bir-biriga qurilish uchun g‘isht yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzganlarida majburiyatni buzganlik uchun neustoyka to‘lanishini ko‘rsatishlari mumkin.

Neustoyka (jarima, penya) to‘g‘risidagi kelishuv Fuqarolik kodeksining 262-moddasida ko‘rsatilganidek, yozma shaklda tuzilishi kerak. Bunday kelishuv maxsus shartnoma yoki asosiy shartnomaga qo‘shimcha kelishuv shaklida rasmiylashtirilishi mumkin. Kelishuvning yozma shaklda bo‘lishiga rioya qilmaslik neustoyka (jarima, penya) to‘g‘risidagi kelishuvning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligi neustoykaning 4 turini belgilaydi. Bular: hisobga o‘tkaziladigan neustoyka, jarimali neustoyka, alohida neustoyka, alternativ (muqobil) neustoykadan iborat.

Hisobga o‘tkaziladigan neustoyka agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo‘lsa, zararning neustoyka bilan qoplanmagan qismi to‘lanadi (FK 325-m.).

Jarimali neustoyka kreditorga qarzdordan nafaqat neustoykaning o‘zini, balki neustoykadan tashqari zararni ham to‘la hajmda undirish huquqini beradi.

Alohida neustoyka shu bilan xarakterliki, bunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 325-moddasida ko‘rsatilganidek, kreditorga zararni emas, balki neustoykaning o‘zini undirib olish huquqi beriladi. Majburiyatning bajarilishini kechiktirganligi uchun undiriladigan alohida neustoyka penya shaklida belgilanadi. Masalan, kvartira haqining to‘lanishi yoki boshqacha pul to‘lovlari kechiktirilganda odatda, alohida neustoyka undiriladi.

Muqobil neustoykaning yuqoridagi neustoykalardan farqi shundaki, bunda kreditorga qarzdordan belgilangan neustoyka (jarima, penya)ni undirish yoki majburiyatning bajarilmasligi tufayli ko‘rilgan zararlarni undirish huquqi beriladi. Neustoykaning bunday turi rag‘batlantirish ahamiyatiga ega bo‘lishidan tashqari, avvaldan muayyan summada belgilanishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash imkoniyatini ham beradi. Shuning uchun bunday neustoyka, ba’zi hollarda, baholanadigan neustoyka deb ham ataladi.

Neustoykani undirishdan asosiy maqsad majburiyatning bajarilishini ta’minlashdir. Fuqarolik qonunida ko‘rsatilgan neustoyka faqat pul bilan

belgilanadi. Neustoyka miqdori qonun bilan yoki shartnoma bilan belgilanishi lozim. Odatda, neustoyka bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyat summasiga nisbatan foiz bilan yoki qat'iy summa bilan belgilanadi (FK 261-m.).

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi *garov* hisoblanadi.

Garovga ko‘ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo‘yicha o‘z talabi garovga qo‘yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo‘lgan shaxs (garovga qo‘yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirishiga, qonunda belgilab qo‘yilgan chegirishlardan keyin, haqli bo‘ladi (FK 264-m., 2-q.).

Yuqoridagi normada ko‘rsatilganidek, subyektiv huquq – garov huquqi bo‘lib, mulkni garovga bergan shaxs «garovga qo‘yuvchi» va mulkni olgan shaxs esa «garovga oluvchi» deb ataladi. Mulkni garovga qo‘yuvchi shaxs qarzdorning o‘zi ham, shuningdek, uchinchi bir shaxs ham bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 266-moddasida ko‘rsatilganidek, garovga qo‘yuvchi garovga qo‘yilayotgan ashyoning egasi bo‘lishi lozim. Basharti, qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdorning roziligisiz ashyoviy huquqni garovga qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Garovning mohiyati shundan iboratki, qarzdor tomonidan majburiyat ijro etilmaganida kreditor o‘zining talabini garovga qo‘yilgan mulk hisobidan birinchi navbatda undirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kreditorning talablari qondirilgandan so‘ng garovga qo‘yilgan mulkni sotishdan hosil qilingan summaning qolgani boshqa kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin.

Har qanday mol-mulk, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo‘lishi mumkin. Muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan talabnomalar, xususan, hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablar, alimentlar to‘g‘risidagi talablar hamda shaxsga berish qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Odatda faqat kreditorning haqiqiy talabigina garov bilan ta'minlanishi mumkin. Demak, shartnoma, haqiqiy emas deb topilsa, u holda garov to‘g‘risidagi shartnoma ham haqiqiy sanalmaydi. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi, xususan, foizlar, neustoyka ijroni

kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar to‘lanishini, shuningdek, garovga oluvchining garovga qo‘yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to‘lanishini ta’minlaydi.

Asosiy majburiyat yuzasidan kreditor bo‘lgan shaxs talab bilan bog‘liq huquqlarini boshqa shaxsga topshirsa, u holda qonunga binoan uning garov huquqi ham yangi kreditorga o‘tadi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi yoki xo‘jalik yuritish huquqi mulkni garovga bergan shaxsdan boshqa shaxsga o‘tganida garov huquqi o‘z kuchini saqlab qoladi. Binobarin, garovga beruvchi – kreditor garovga qo‘yilgan mulkining egasi yoki uni boshqaruvchi subyekt boshqa shaxs bo‘lganida ham o‘z huquqini garovga qo‘yilgan mulk hisobidan undirishga haqli. Masalan, bankdan qarzdor bo‘lgan fuqaro olingan ssuda hisobiga qurilgan uy-joyni sotsa, bank uy-joyni garovga olgan shaxs sifatida mazkur uy-joy hisobidan o‘z haqini yangi egadan ham undirib olishi mumkin.

Garov huquqi shartnoma yoki qonunga binoan, ya’ni me’yoriy hujjatda maxsus ko‘rsatma bo‘lgandagina vujudga keladi. Ko‘p hollarda majburiyat biror-bir mulkni garovga qo‘yish to‘g‘risida shartnoma tuzish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Fuqarolik kodeksining 265-moddasiga asosan garovning quyidagi turlari mavjud:

a) zakalat – bunda garov narsasi (predmeti) garovga oluvchida saqlanadi;

b) ipoteka – bunda ko‘chmas mol-mulk garovga olinadi;

v) mulkiy huquqlar garovga olinadi.

Fuqarolik kodeksining 269-moddasiga asosan, agar shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garovga qo‘yilgan mol-mulk garovga qo‘yuvchida qoladi. Ipoteka deb belgilangan mol-mulk, shuningdek, garovga qo‘yilgan muomaladagi tovarlar ham garovga oluvchiga topshirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Garov to‘g‘risida»gi qonunining 36-moddasiga asosan, yer bilan bog‘liq mol-mulk, imorat, inshoot, ko‘p qavatli uydagi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, qonunlar bilan ko‘chmas mulk, shuningdek, transport vositalari ipoteka narsasi bo‘lishi mumkin.

Garov shartnomasi yozma ravishda tuzilishi kerak. Ipoteka haqidagi shartnoma, shuningdek, notarial tasdiqlanishi kerak bo‘lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta’minlash yuzasidan ko‘char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo‘lgan huquqlarni garovga qo‘yish to‘g‘risidagi

shartnoma notarial tasdiqlanishi shart. Bundan tashqari, garov shartnomasi qiymatiga qarab tegishli adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

Garov shartnomasining shakli, uni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi talablarga rioya qilinmay tuzilganda mutlaqo haqiqiy hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 278-moddasining 1-qismida ko‘rsatilganidek, garovga oluvchi o‘z ixtiyorida bo‘lgan yoki bo‘lishi lozim bo‘lgan garovga qo‘yilgan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egallashidan, shu jumladan garovga qo‘yuvchining egallashidan talab qilib olishga haqli (FK 228–232-m.).

Garov bilan kafolatlangan majburiyat qarzdor tomonidan bajarilganda garovga qo‘yilgan mulk sudning, xo‘jalik sudi yoki xolislar sudining qaroriga asosan sotiladi va birinchi navbatda tushgan summa hisobidan boshqa shaxslardan oldin kreditorning talabi qondiriladi.

Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish majburiyatning bajarilishini ta’minlash bo‘yicha amaldagi O‘zbekiston Respublikasi FKda mavjud bo‘lgan alohida yangi usullardan hisoblanadi.

Ushlab qolish deb, bir taraf majburiyat bo‘yicha o‘z talablarini qanoatlantirish maqsadida ikkinchi tarafning foydasi uchun ma’lum harakatlarni amalga oshirishdan saqlanishiga aytiladi.

Majburiyatning bajarilishini ta’minlovchi usul sifatida ushlab qolishning ahamiyati shundan iboratki, ushbu usul bo‘yicha qarzdorga yoki qarzdor ko‘rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo‘lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog‘liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to‘lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab turishga haqli (FK 290-m. 1-q.).

Majburiyatning bajarilishini ta’minlash usuli sifatida *kafillikning* ahamiyati shundan iboratki, majburiyat qarzdor tomonidan bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, kafillik shartnomasi bo‘yicha kreditor o‘z talablarini kafil oldida qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu kreditorda uning talablarining bajarilishini haqiqatda ro‘yobga chiqarilishiga ham ishonch yaratadi.

Kafillik shartnomasi bo‘yicha kafil boshqa bir shaxs, ya’ni qarzdor o‘z majburiyatini to‘la yoki qisman bajarish uchun uning kreditori oldida javob berishni o‘z zimmasiga oladi (FK 292-m. 1-q.).

Kafillik huquqiy munosabat sifatida asosiy majburiyat bo‘yicha kreditor bilan qarzdor tomonidan qatnashuvchi kafil o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra vujudga keladi. Shu bilan birga qarzdorning

majburiyati bajarilishi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan kafil bilan qarzdor o‘rtasidagi aloqa turlicha bo‘lishi mumkin. Bu alohida tuzilgan shartnomadan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday aloqa huquqiy ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Kafillik shartnomasi uchun qarzdor bilan kafil o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asoslangan kelishuvning sabablari ahamiyat kasb etmaydi. Kafillik bo‘yicha huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi uchun qarzdorning kreditori bilan kafil o‘rtasida tuzilgan shartnoma hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin kreditor uchun kafillik majburiyatini kim tomonidan o‘z zimmasiga olishi va uning to‘lov imkoniyatlari qanday holatda ekanligi ahamiyatsiz emas. Bu esa ishonchga sazovor bo‘lmagan shaxs bilan kafillik shartnomasini tuzishdan bosh tortish uchun asos bo‘lishiga olib kelishi tabiiy.

Majburiyatni ta’minlash usullaridan biri *kafolat* hisoblanadi. *Kafolatga* binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug‘urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko‘ra kafil o‘z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benifitsiar) pul summasini to‘lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to‘lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FK 299-m.).

Kafolatning xususiyatlaridan biri shundaki, bunda har doim kafil sifatida bank, boshqa kredit muassasasi yoxud sug‘urta tashkiloti qatnashadi.

Ko‘p hollarda kafil prinsipalga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Shu sababli, kafil prinsipalning bankda saqlanayotgan pul mablag‘lari hisobidan uning kreditorlari oldidagi majburiyatni bajaradi.

Kafolatning asosiy mohiyati u prinsipalning benifitsiar oldidagi o‘z majburiyatini (asosiy majburiyatni) lozim darajada bajarilishini ta’minlaydi.

Kafolat haq baravariga tuziladi. Kafolat bergan bank (kredit muassasasi yoki sug‘urta tashkiloti)ka prinsipal tegishli miqdorda haq to‘laydi.

Kafolat bo‘yicha benifitsiarga tegishli bo‘lgan kafilga talab qo‘yish huquqi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa shaxsga o‘tkazilishi mumkin emas. Agar kafolatda boshqacha tartib nazar-da tutilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kafil benifitsiarning talabini olganidan so‘ng bu haqda darhol prinsipalni xabardor qilishi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlar bilan topshirishi kerak.

Kafil benetsifiarning talabini unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga kafolatda ko‘rsatilgan muddatda ko‘rib chiqishi, muddat ko‘rsatilmaganda

esa – mutanosib muddatda bu talab hamda unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun oqilona jonkuyarlik ko‘rsatishi kerak (FK 306-m.).

Kafilning kafolat bo‘yicha benifitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

kafolat berilgan summa benifitsiarga to‘lanishi;

kafolatda belgilangan muddat tamom bo‘lishi;

benifitsiar kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berish oqibatida;

benifitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo‘li bilan kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi oqibatida (FK 309-m.).

Agar kafilning prinsipal bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kafil benifitsiarga kafolat shartlariga nomuvofiq tarzda yoki kafilning benifitsiar oldidagi majburiyatni buzganligi uchun to‘langan summalarni qoplashni prinsipaldan talab qilishga haqli emas (FK 310-m.).

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta’minlash yuzasidan beradigan pul summasi *zakalat* deb ataladi.

Zakalat to‘g‘risidagi kelishuv zakalatning summasidan qat’i nazar yozma ravishda tuzilishi kerak (FK 311-m).

Zakalat quyidagi 3 ta vazifani bajaradi:

birinchidan, zakalat muayyan pul summasi berib tuzilgan shartnoma haqiqatdan tuzilganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi;

ikkinchidan, zakalat – shartnoma bo‘yicha avvaldan to‘lanadigan pul summasi bo‘lib, tegishli to‘lovlar hisobiga muayyan summani to‘lagan taraf shartnomani qisman ijro etgan hisoblanadi. Zakalat oluvchi taraf uchun bu hol muayyan ahamiyatga ega. Chunonchi, biror-bir uy-joy ijaraga berilishidan avval uy-joy egasi turar-joyni yashash uchun yaroqli holga keltirish maqsadida ta’mirlaydi va hokazo.

uchinchidan, zakalat shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning ijrosini ta’minlash uchun belgilanadi. Zakalatning mazkur vazifasi shundan iboratki, zakalat bergan taraf shartnoma yuzasidan olgan o‘z majburiyatlarini bajarmaganida bergan zakalatini yo‘qotadi.

Agar zakalat bergan taraf shartnomadan voz kechsa, bu holda u bergan zakalatining qaytarib berilishini talab qila olmaydi. Agar zakalat olgan taraf o‘z majburiyatlarini bajarmasa, u ikkinchi tarafga zakalat summasining ikki barobarini to‘lashga majbur.

Agar zakalat summasi zarar summasidan bir muncha ko‘p bo‘lsa, u holda faqat zakalat undiriladi. Agar majburiyatni bajarmaslik natijasida ko‘rilgan zarar zakalat summasidan ko‘p bo‘lsa, u holda ham zakalat summasi, ham zararlarni qoplash uchun yetishmagan summa undiriladi.

3. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari

Qarzdor tomonidan majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Buning uchun umumiy qoida sifatida faqat muayyan shartlar mavjud bo‘lganda qarzdor, ya’ni majburiyatni buzgan shaxs mulkiy javobgarlikka tortiladi.

Fuqarolik huquqida majburiyatni buzganlik uchun qarzdor yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun to‘rtta shartning bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ular, *birinchidan,* huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik; *ikkinchidan,* zarar yetkazilishi; *uchinchidan,* huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar o‘rtasida sababli bog‘lanishning bo‘lishi va *to‘rtinchidan,* qarzdor yoki ziyon yetkazuvchining muqarrar aybi bo‘lishi shartlaridir.

Agar kreditorning talabi zararni undirishga qaratilgan bo‘lsa, u holda albatta quyidagi shartlar: zararning mavjudligi, qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning ko‘rgan zarari o‘rtasida sababli bog‘lanishlar bo‘lishi va nihoyat, qarzdorning aybi bo‘lishi talab etiladi. Agar kreditorning talabi faqat neustoyka, penya yoki jarima undirishga qaratilgan bo‘lsa, qarzdor faqat aybi bo‘lganda mulkiy javobgarlikka tortiladi.

Qarzdorga nisbatan mulkiy javobgarlikni belgilashdan oldin, ya’ni kreditorga yetkazilgan zarar undirilishidan oldin sud har bir aniq holatda, mazkur zararlar qarzdorning o‘z majburiyatini buzishidan yuzaga kelgan-kelmaganligini aniqlashi, ya’ni qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning zararlari o‘rtasida sababiy bog‘lanish bor yoki yo‘qligini aniqlashi lozim. Masalan, temir yo‘l transporti korxonasi yuk oluvchiga zararlangan yukni yetkazib bersa, sud kreditorga bunday zararni kim yetkazganligini, ya’ni mahsulot yuboruvchi tashkilot yoki temir yo‘l korxonasi tomonidan yetkazilganligini, mazkur zarar sifatsiz tovar yuboruvchi tashkilotning aybi yoki huquqqa xilof harakati bilan sodir bo‘lganligini yoki tashish uchun qabul qilingan yukning yo‘lda saqlanishini ta’minlamagan temir yo‘l korxonasining huquqqa xilof harakati natijasida yuzaga kelgan (kelmagan)ligini aniqlashi lozim.

Qonunga binoan qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shart (FK 324-m.). Bundan ham shartnoma bilan belgilanadigan majburiyat munosabatlarida sababli bog‘lanish muammosini hal qilish zarurati kelib chiqadi.

Fuqarolik huquqida sababiy bog‘lanish masalasini tahlil qilishda barcha mualliflar yakdillik bilan quyidagi ilmiy qoidalarga asoslanadilar:

Birinchidan, tabiat va jamiyatda har bir hodisa atrofdagi boshqa hodisalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelishini ko‘rish mumkin. Har bir holatning kelib chiqishi atrofdagi hodisalar bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bir hodisaning kelib chiqishiga ikkinchisi aloqador bo‘lishi, shu bilan birga shu hodisa boshqa hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik – sababiy hodisalar o‘rtasidagi mavjud obyektiv aloqadorlikdan tashkil topadi. Bunday aloqadorlik kishilar tomonidan o‘rganilib, amaliyotda tekshiriladi.

Shularga asosan sud sababiy aloqadorlikka oid masalani hal qilishda mazkur natijaning, ya’ni kreditorga nisbatan, yuzaga kelishida qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi sodir bo‘lgan boshqa holatlar o‘rtasida qanday rol o‘ynaganligiga e’tibor berishi, o‘zining mulohazasida mazkur hodisaga, subyektiv ravishda mavjud qonuniyatlarga amal qilishi, har bir muayyan ishni hal qilishda barcha muhim holatlarni ajratib olishi lozim.

Agar kreditorga yetkazilgan zararning qarzdor tomonidan huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligi oqibatida yuzaga kelganligi ma’lum bo‘lsa, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy aloqadorlik bo‘lsa, u holda masalaning hal etilishi qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Masalan, mebel fabrikasiga qarashli yukni kirakash avtopark mashinasida tashish vaqtida yong‘in chiqib, fabrikaga mulkiy zarar yetkaziladi. Da’vo ishining xo‘jalik sudida ko‘rilishida avtopark yong‘inda aybi yo‘qligini isbotlay olmaydi. Shu sababli, yong‘in natijasida ko‘rilgan zararni to‘lashga avtopark majbur qilinadi.

Mazkur vaziyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy aloqadorlik mavjudligini ko‘ramiz. Chunki, avtopark yo‘lga nosoz mashina chiqarganligi va shu bilan uning harakati natijasi beparvolikning bo‘lishi muayyan zararli oqibat yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Qarzdor o‘z harakatlari muayyan zararli oqibatlarning bo‘lishiga sababchi ekanligi yoki emasligini belgilash uchun sud holatning sababiy aloqadorlikka ta’siri bor yoki yo‘qligini belgilashi kerak. Jumladan, dalil to‘plash uchun ekspertiza tayinlanishi, masalan, yuk tashishdan kelib

chiqadigan da’volar bo‘yicha tovarni tekshirish ekspertizasini tayinlash yoki bajarilgan ishlarning sifati to‘g‘risidagi da’volar bo‘yicha texnikaviy ekspertizalar tayinlashga to‘g‘ri keladi.

Qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan sodir bo‘lgan natija o‘rtasidagi sababiy aloqadorlik qarzdorning majburiyatni butunlay yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikka tortilishiga obyektiv asos bo‘ladi. Shu bilan birga, qonun javobgarlikning subyektiv asosini ham, ya’ni qarzdorning aybini ham nazarda tutadi.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini belgilaydigan shart sifatida ko‘riladigan ayb qonunda nazarda tutilgan. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 333-moddasida ko‘rsatilganidek, qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi.

Agar majburiyat har ikki tarafning aybi bilan bajarilmagan bo‘lsa, u holda sud yoki xo‘jalik sudi qarzdorning javobgarligini tegishincha kamaytiradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, olingan majburiyatning tashkilotlar va fuqarolar tomonidan lozim darajada bajarilishi uchun barcha moddiy shart-sharoitlar mavjud. Shu sababli, qarzdordan faqatgina o‘z ijodiy qobiliyati va irodasini muayyan darajada kuchaytirish talab etiladi.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish, ularni bajarishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun har ikki taraf – qarzdor va kreditorning ham ma’lum darajada tashabbus ko‘rsatishi, o‘z vazifasiga e’tiborli bo‘lishi hamda faol harakat qilishi zarur.

Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan ayb, deb shaxsning majburiyatini bajarishga talab darajasida munosabatda bo‘lmaganligi, qonun va axloq talablariga rioya qilmaganligi va natijada majburiyat to‘liq bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tushuniladi.

Fuqarolik huquqida, ayb yo qasd, yoki ehtiyotsizlik (beparvolik) shaklida ko‘rilishi va ifodalanishi mumkin.

Qasd shaklidagi aybda shaxs majburiyatni ongli ravishda, atayin bajarmaydi yoki lozim darajada bajarmaydi.

Fuqarolik muomalasida majburiyatni bajarishga nisbatan bunday munosabatda bo‘lish faqat ayrim hollarda istisno sifatida uchraydi. Qolgan hollarda tashkilot va fuqarolar o‘zlariga olgan majburiyatlarni bajarishga vijdonan munosabatda bo‘ladilar.

Majburiyatlarning ayrim turlari bo‘yicha qasd shaklidagi ayb qonunlarda bevosita nazarda tutiladi. Tashkilotlar tomonidan majburiyatlarning qasddan bajarilmasligi ularning fuqaroviy-huquqiy yoki mulkiy javobgarlikka tortilishiga, ba’zi hollarda esa mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Beparvolik shaklidagi ayb shu bilan ta’riflanadiki, bunda qarzdor majburiyatni bajarishga intilmaydi (harakat qilmaydi) barcha kuch yoki qobiliyatini yetarli darajada safarbar qilmaydi hamda ishni bajarishda sovuqqonlik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yadi. Beparvolik shaklidagi ayb to‘g‘risida Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida so‘z yuritiladi.

Fuqarolik kodeksida qo‘pol ehtiyotsizlik oddiy ehtiyotsizlik va oddiy beparvolikdan farq qilinadi. Qonun ba’zi hollarda qarzdorga nisbatan javobgarlik belgilash uchun oddiy ehtiyotsizlik (beparvolik) emas, balki qo‘pol ehtiyotsizlik bo‘lishini shart qilib qo‘yadi.

Qo‘pol ehtiyotsizlik mavjud bo‘lganda qarzdor xatti-harakatidagi e’tiborsizlik oddiy ehtiyotsizlikka nisbatan birmuncha qo‘pol bo‘lib ko‘rinadi yoki turmush va ishbilarmonlik nuqtai nazaridan qarasak, bunday qo‘pol ehtiyotsizlikka nisbatan qattiqroq javobgarlik belgilanishi yoki jazo berilishi talab etiladi.

Qarzdor qo‘pol ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yganda fuqarolik muomalasida bo‘lgan talablarga atayin e’tiborsizlik bilan qaragan bo‘ladi. Masalan, qarzdor tomonidan omonatga olingan ashyolar havo bulut vaqtda ochiq joyda qoldirilib, yomg‘ir ta’sirida zararlansa, bu hol qo‘pol ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yilganligini aks ettiradi.

Fuqarolik huquqi fanida ehtiyotsizlik shaklidagi ayb sodir qilinganligini belgilash birmuncha murakkab ko‘rinadi. Majburiyatni bajarishga qaratilgan munosabatlarga baho berishda qarzdorning individual xususiyatlariga ham e’tiborni qaratish kerak. Chunonchi, fuqaroning aqliy yoki jismoniy tomondan yetarli darajada kamolotga yetmaganligi aniqlansa, bunday shaxsga nisbatan mulkiy javobgarlik belgilanmasligi masalasi qo‘yiladi. Ba’zi hollarda esa har bir shaxs yoki muayyan xo‘jalik korxonasi xizmatchisi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan g‘amxo‘rlik choralarining ko‘rilmaganligiga qarab baho berish masalasi vujudga keladi.

Shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlarni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qarzdorga mulkiy javobgarlikni yuklash to‘g‘risidagi masalani hal qilishda uning tajribasizligi, ma’lum bir ishlarni bajarishga qobiliyatsiz ekanligiga qarab muayyan chekinishlarga yo‘l qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi.

Sudlar fuqarolik huquqiy xarakteridagi nizolarni hal qilishda yuridik shaxslarning aybi to‘g‘risidagi masalani tekshirishi va tahlil qilishiga to‘g‘ri keladi. Yuridik shaxsning aybi bo‘lish-bo‘lmasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rishda sud korxona, muassasa yoki tashkilotning mazkur sharoitda majburiyatni bajarish uchun barcha kuch va tashabbusini ko‘rsatgan (ko‘rsatmagan)ligi, buning uchun bozor iqtisodiyotida talab qilinadigan barcha imkoniyatlardan foydalangan (foydalanmagan)ligini e’tiborga olishi taqozo etiladi.

Agar yuridik shaxs majburiyatni bajarish uchun barcha zarur choralarni ko‘rgan bo‘lsa, biroq majburiyatni to‘liq yoki qisman bajara olmasa, javobgarlik belgilash uchun talab etilgan subyektiv asos – ayb bo‘lmaganligi sababli bunday tashkilot mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Majburiyatni bajarmaslik aybi yuridik shaxs – mazkur tashkilot organlari vakillari hisoblangan va o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilgan ayrim shaxslarning aybi bilan ko‘riladi. Tashkilotlarning aybi – ular tomonidan berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi vakillarining, muayyan xizmat vazifalarini bajaruvchi ishchi-xizmatchilarining aybi bilan belgilanadi.

Tashkilotlarning aybi – tashkilot vakilining yuridik harakatlarida, masalan, ishni noto‘g‘ri tashkil qilish yoki uning malakasi yetarli emasligi tufayli sifatsiz mahsulotlar tayyorlanishi hollarida ham ko‘rilishi mumkin.

Yuridik shaxslarga mulkiy javobgarlik yuklashda, sud ularning ayrim vakillari, jumladan, zavod direktorlari, jamoa xo‘jaligi rahbarlari, ishchi-xizmatchilar; kooperativ tashkilotlarining a’zolari va boshqa ayrim shaxslarning aybi emas, balki yuridik shaxsning aynan o‘zi, ya’ni davlat korxonasi, muassasasi va shu kabi tashkilotlarning aybiga oid masala qo‘yiladi va ko‘rib chiqiladi. Sud va xo‘jalik sudi amaliyotida ham xuddi shunday fikr quvvatlab kelinmoqda.

Yuridik shaxs shartnoma bo‘yicha olingan majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mulkiy jarimani (sanksiya) to‘laganidan so‘ng to‘langan summani regress huquqi tartibida majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybli bo‘lgan xodimlardan to‘la hajmda yoki qisman undirib olinishi mumkin. Bu hollarda muayyan ishchi-xizmatchining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ishchi-xizmatchilarning javobgarligi nafaqat fuqarolik huquqi normalari bilan, balki mehnat huquqi, ma’muriy huquq va ba’zi hollarda, jinoyat huquqi normalari bilan ham tartibga solinishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 202-moddasining 6-bandiga asosan, xodim korxona (muassasa, tashkilot)

tijorat sirlarini oshkor etganligi uchun to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi va buning natijasida yetkazilgan zararni to‘lashi lozim.

Fuqarolik ishlarini hal qilishda xo‘jalik sudi organlari shartnoma intizomining qo‘pol tarzda buzilishiga aybdor shaxslarni shaxsiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani tegishli tashkilotlar oldiga qo‘yadi.

Kreditor qarzdorning harakati yoki harakatsizligining huquqqa xilofligini, ya’ni u tomondan majburiyatning bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmaganligi faktini va qarzdorning aybi natijasida zarar ko‘rganligini isbotlashi lozim. Qarzdor esa javobgarlikdan ozod bo‘lishi uchun o‘z harakatida ayb yo‘qligini isbotlashi, ya’ni majburiyatni lozim darajada bajarish uchun barcha zarur choralarni ko‘rganligini tasdiqlaydigan faktlarni keltirishi darkor.

Qarzdorni aybli deb topishni qonun barcha holatlarni e’tiborga olib belgilaydi. Biroq majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa-da, uning bajarilmaganligi qarzdorning aybli harakati natijasi hisoblanadi.

Qarzdorning yetkazilgan zararni to‘lash majburiyati. Fuqarolik kodeksining 324-moddasida qarzdor maj buri yatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shartligi uqtirilgan.

Qarzdorning majburiyatni ijro etmasligi natijasida vujudga kelgan va to‘lanishi lozim bo‘lgan xarajatlar bu, kreditorning mazkur majburiyat yuzasidan qilgan xarajatlari va qarzdorning o‘z vazifasini bajarmaganligi bilan bog‘liq xarajatlardir. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan mahsulotning belgilangan muddatda yetkazilmaganligi sababli korxonaning ishsiz qolgan vaqtida yo‘qotilgan xarajatlar to‘lanishi lozim.

Majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mulk shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda kreditor mulkni qarzdorga qaytarish yoki mulk uchun to‘langan pul summalarining o‘ziga qaytarilishini talab qilishga haqli.

Kreditor qarzdorning o‘z vazifasini bajarmaganligi tufayli yo‘qotgan mulkining qiymatini yoki mulkning zararlanishi natijasida uning qiymati kamayishidan kelib chiqqan summaning to‘lanishini talab qilishi mumkin. Ma’lumki, bozor munosabatlari sharoitida erkin narx amal qiladi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, ba’zi hollarda majburiyat vujudga kelgan paytdagi narx bilan zararni undirish vaqtidagi narxlar o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Qonunda ushbu holatlar ham ko‘zda tutiladi. Unga ko‘ra agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan

bo‘lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo‘lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo‘lmasa, – da’vo qo‘zg‘atilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlar e’tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to‘lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlarni e’tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin (FK 324-m. 2-q.).

Kreditor tomonidan olinmagan va to‘lanishini qarzdordan talab qilishga haqli daromadlar deganda, qarzdor o‘z majburiyatini lozim darajada bajarganida, kreditorning olishi mumkin bo‘lgan daromadlari tushuniladi. Bu, ayniqsa, pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga asosan boshqa shaxslarning pul mablag‘larini g‘ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to‘lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg‘arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag‘lar summasiga foiz to‘lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo‘lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo‘lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida sud kreditorning talabini da’vo qo‘zg‘atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilangan bo‘lmasa qo‘llaniladi.

Kreditorning pul mablag‘laridan qonunsiz foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga asosan unga tegishi kerak bo‘lgan foizlar summasidan oshib ketsa, kreditor qarzdordan zararning bu summadan ortiqcha bo‘lgan qismini to‘lashni talab qilishga haqli.

Zarar ko‘rilganligini va ushbu zarar qarzdorning majburiyatini bajarmasligidan kelib chiqqanligini isbotlash, shuningdek, zararning miqdorini hisoblab ko‘rsatish vazifasi zararning undirilishiga talabgor bo‘lgan kreditorga yuklatiladi.

Fuqarolik kodeksining 332-moddasida majburiyatlarning ayrim turlari bo‘yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qonunda zararni to‘la qoplashga bo‘lgan huquq cheklab qo‘yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik).

Bu normada cheklangan javobgarlikning huquqiy shakllari ko‘r-satilmagan bo‘lib, u alohida hollarda va maxsus qonunlarda nazarda tutiladi. Chunonchi, qarzdorning harakatida har qanday ayb emas, faqat

qasd yoki qo‘pol ehtiyotsizlik bilan bog‘liq ayb bo‘lganida javobgarlikning cheklanishi belgilanadi.

Qonunda kreditor qarzdordan yo‘qotilgan ashyoning faqatgina qiymatinigina talab qilishga haqli bo‘lib, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi natijasida olinmay qolgan daromadlarni talab qilishga haqli emasligi ko‘rsatilgan hollar ham mavjud.

Qonun ba’zi hollarda zararni to‘lagan qarzdorga nisbatan majburiyatni asl holida bajarish vazifasini ham belgilaydi.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda neustoyka to‘lash va zararni qoplash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi (FK 330-m.).

Xususiy belgili ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari qonunning 331-moddasida ko‘rsatilgan.

Agar ashyoni biror shaxs egaligiga topshirish to‘g‘risida shartnoma tuzilmay, shu ashyoni kreditorga foydalanish uchun topshirish to‘g‘risida ikki yoki bir necha shartnoma ketma-ket tuzilgan bo‘lsa, ashyo kreditorlardan biriga topshirilishi, avval shartnoma tuzgan kreditorlarning huquqini yo‘qqa chiqaradi. Agar ashyo kreditor bilan birdek huquqqa ega bo‘lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo‘lsa, bu huquq bekor bo‘ladi. Bu holda avval shartnoma tuzgan kreditor ko‘rgan zararlarining to‘lanishi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atishga haqli.

Xususiy belgili ashyoni egalikka o‘tkazish yoki xo‘jalik yuritishni operativ boshqarishda foydalanish uchun topshirish to‘g‘risidagi ketma-ket tuzilgan ikki yoki bir necha shartnomalar bo‘lgani holda ashyo kreditorlardan qaysi biri foydasiga oldinroq vujudga kelgan bo‘lsa, ya’ni ashyoni topshirish to‘g‘risida kim bilan avval shartnoma tuzilgan bo‘lsa, shunisi ustunlik huquqiga ega bo‘ladi.

Agar ish majburiyatlarining qachon vujudga kelganligini, ya’ni shartnoma kim bilan avval tuzilganligini belgilash mumkin bo‘lmasa, ashyoning topshirilishi to‘g‘risida kim avval da’vo qo‘zg‘atgan bo‘lsa, shu shaxs imtiyozga ega bo‘ladi.

Muayyan ishni bajarish, majburiyatni bajarmaslik oqibatlari to‘g‘risidagi qonun 330-moddasining mazmunida belgilanganidek, majburiyatni real ravishda, aslicha bajarilishini ta’minlashga qaratiladi. Fuqarolik kodeksining mazkur normasi qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmaganda shartnoma yuzasidan bajarilishi lozim bo‘lgan ishni birinchi navbatda o‘zi bajarishi yoki bajarishni boshqa shaxsga topshirishi

va mazkur ishni bajarish uchun zarur xarajatlarning to‘lanishini qarzdor zimmasiga qo‘yish huquqini beradi.

Fuqarolik protsessual qonunlarida javobgarni muayyan harakatlar qilishga majbur etadigan da’volar berilishi va bu to‘g‘rida sud qarorining chiqarilishi nazarda tutiladi. Majburiyat bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlarni bevosita ijro etishga majburlash mumkin emasligi tufayli qonunda, agar javobgar qarorni belgilangan muddatda bajarmasa, da’vogar bu harakatlarni o‘zi bajarishi va shu munosabat bilan qilingan zarur xarajatlarni esa undan undirishga haqli bo‘lishi to‘g‘risida sud o‘z qarorida ko‘rsatishga haqli bo‘ladi, deb belgilanadi. Agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiyatni bajarmagan qarzdor hisobiga ishning kreditor tomonidan bajarilishiga yoki u bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha boshqa shaxs tomonidan bajarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar qarzdor, ya’ni javobgar tomonidan bajarilmagan harakat faqat uning tomonidangina bajarilishi mumkin bo‘lsa, bunday harakatlarni qilishga qarzdorni majbur etadigan qarorda majburiyatning ijro muddati belgilanadi, agar bu qaror belgilangan muddatda ijro etilmasa, javobgarga qonunda ko‘rsatilgan tartibda jarima solinishi mumkin.

Ba’zi hollarda ishni ijro etish mumkin bo‘lmaganda, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi tufayli o‘ziga yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qila oladi.

Fuqarolik kodeksining 333-moddasi fuqarolik qonunchiligining asosiy tamoyillaridan birini, ya’ni qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan istisnolardan tashqari, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik belgilashda uning harakatlarida huquqni buzuvchi aybning bo‘lishi tamoyilini belgilaydi. Shartnomali, shuningdek, shartnomasiz majburiyatlarda ham, zarar yetkazuvchining aybi deganda, huquqqa xilof harakatni qiluvchi shaxsning qasdi yoki ehtiyotsizligi nazarda tutiladi. Ammo yuqorida ko‘rsatilgan qoida bilan belgilangan ayb qarzdorda bo‘lishi talab qilinadi. Binobarin, qarzdor o‘ziga qo‘yilgan aybni bartaraf qilishda majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini va o‘zining aybsizligini isbotlashi kerak.

Qarzdor tomonidan majburiyatning qasddan buzilishi hollari sud amaliyotida kamdan-kam bo‘lsada uchraydi. Tashkilot o‘zi tomonidan buyurtma qilingan mahsulotni qasddan qabul qilmaslik va soxta bankrot holatlari bunga misol bo‘ladi.

Agar majburiyat tashkilot xizmatchisining aybi bilan bajarilmasa, u holda majburiyatni bajarmaslikda tashkilot aybdor deb topiladi. Ba’zi

hollarda sud majburiyatni bajarish uchun tashkilot barcha imkoniyatlardan foydalangani, biroq bari bir majburiyat bajarilmay qolganligida uni aybdor emas deb belgilashi ham mumkin.

Aybning qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli kelib chiqishi, shuningdek, ehtiyotsizlik darajasi, umumiy qoida bo‘yicha, qarzdorning fuqarolik javobgarligini belgilash uchun ahamiyatli emas. Qarzdor qaysi shaklda bo‘lsa ham o‘z majburiyatini buzishda aybdor hisoblansa, buzish natijasida kelgan zarar va neustoykani to‘lashga majbur bo‘ladi. Ammo ba’zi hollarda qonun majburiyatning qarzdor tomonidan faqat qasddan yoki qo‘pol ehtiyotsizlik natijasida bajarilmagani uchungina javobgar bo‘lishini belgilaydi. Bundan tashqari, qarzdor aybining shakli va darajasi majburiyat faqat qarzdorning aybli harakatlari bilangina emas, balki kreditor aybi bilan ham bog‘liq bo‘lgan hollarda va har ikki tarafning aybini qarzdorning javobgarligi hajmini belgilash uchun solishtirib ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda ahamiyatga ega bo‘ladi.

Qonunchilikda, Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan, umumiy qoidadan istisno tariqasida qarzdorning ba’zi hollarda majburiyatlarni buzgani uchun javobgarligi aybning bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’i nazar belgilanadi. Bunda Fuqarolik kodeksining, birinchi navbatda, birovning aybi uchun javobgarlik belgilaydigan 334-moddasida ko‘rsatilgan hollar nazarda tutiladi. Ular jumlasiga majburiyatni o‘z aybi bilan emas, balki qarzdorga nisbatan olgan majburiyatlarini buzgan shaxslarning boshqa qarzdorlar aybi bilan buzilgan majburiyatlar uchun javobgarligini belgilash hollari kiradi. Birovning aybi bilan bo‘lgan bunday javobgarlikni sud amaliyotida mahsulot tayyorlovchi bilan birga mahsulot yetkazib berishga mas’ul tashkilotlarning aybli harakatlari natijasida majburiyat buzilganda, javobgarlik mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotlar zimmasiga tushishi holatlari ham uchraydi.

Ba’zi hollarda qonun biron-bir tarafning harakatida aybning bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, javobgarlikni belgilaydi.

Bunday javobgarlikning belgilanishi, odatda, qarzdor harakatlarida aybning bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Ammo ba’zida qonun istisno tariqasida qarzdor tomonidan majburiyatlarning boshqa uchinchi shaxsning aybli harakati natijasida bajarilmagani uchun ham javobgar bo‘lishini belgilaydi.

Fuqarolik kodeksining 334-moddasida ko‘rsatilishicha, basharti, qonun hujjatlari yoki shartnomada bevosita ijrochi bo‘lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni

bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi.

Mazkur hollarda qarzdorning javobgarligini belgilashda quyidagi shartlar, jumladan: qarzdorga majburiyatni boshqa shaxslar bajarishi uchun muayyan qoidalar bilan yuklatilgan bo‘lishi yoki bunday harakatlar ularning qarzdor bilan tuzgan shartnomasiga asosan bajarilgan bo‘lishi; ma’muriy jihatdan bo‘ysunishi tufayli bajarilgan bo‘lishi; mazkur shaxslarning harakati aybli qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida ko‘rilgan bo‘lishi lozim.

Agar kreditor uchinchi shaxsning aybi bilan mahsulotni kechikib olsa, mahsulot yuboruvchi tashkilot, ya’ni mahsulot tayyorlovchining topshirig‘i bo‘yicha tovarni yuboruvchi uchinchi tashkilot emas, balki qarzdorning bevosita o‘zi, ya’ni mahsulot tayyorlovchi tashkilot javobgar bo‘ladi.

Majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, aybi bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, mulkiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holda mulkiy javobgarlikning belgilanishi xalq xo‘jaligi manfaatlarini, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadidan kelib chiqadi. Masalan, avtotransport yuk tashish yuzasidan olingan rejali majburiyatlarni bajarmaslik uchun har ikki tomon – yuk yuboruvchi hamda avtotransport tashkiloti o‘zlarining ayblari bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, mulkiy javobgarlikka tortiladilar.

Avtoransport bilan yuk tashish to‘g‘risidagi maxsus qonunlarda yuk tashish rejasini bajarish yuzasidan olingan majburiyatlar bajarilmaganda avtotransport tashkiloti va yuk tashuvchini javobgarlikdan ozod qiladigan holatlar ham ko‘rsatiladi.

Qarzdor majburiyatni butunlay bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar bu holat uning aybisiz sodir bo‘lgan yoki kreditorning aybi bilan bog‘liq bo‘lsa, umumiy qoida bo‘yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

Qarzdor tomonidan majburiyatning aniq bajarilishiga to‘sqinlik qilgan yuqorida ko‘rsatilgan yuridik faktlardan birining bo‘lishi majburiyatni bajarishning iloji yo‘qligini bildiradi.

Oddiy tasodifiy holat yuridik ma’noda, majburiyatning qarzdor tomonidan uning va kreditorning aybi bo‘lmay turib bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi holatlari hisoblanadi. Bunday holatlar uchinchi shaxslarning, ya’ni boshqa shaxslarning harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Masalan, begona bir shaxsning harakatlari natijasida

qarzdor yo‘qligida oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha kreditorga topshirilishi lozim bo‘lgan uyga o‘t tushib, yonib ketishini misol sifatida ko‘rsatish mumkin

Qonun bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda tadbirkorlar uchun muhim kafolatni ko‘zda tutadi. Fuqarolik kodeksi 333-moddasining 3-qismiga asosan, basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch – zimmasida majburiyat bo‘lgan shaxsning ixtiyoridagi barcha vositalar bilan oldini olish, qaytarish mumkin bo‘lmagan favqulodda hodisa hisoblanadi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch oddiy tasodifiy hol kabi majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikda taraflarning aybi yo‘qligi va mazkur aniq holatlarda uni qaytarish mumkin bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, mazkur holat, odatdan tashqari, favqulodda yuzaga kelgan bo‘lishi kerak. Amalda bu holat tabiiy ofatlar, masalan, suv toshqini, zilzila, kuchli bo‘ron sifatida ko‘rsatiladi. Qonunda ba’zi hollarda «yengib bo‘lmaydigan kuch» iborasi o‘rniga «tabiiy holatlar» to‘g‘risida gapiriladi.

Sud qarorlarida majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qarzdorni javobgarlikdan ozod qilishga asos bo‘ladigan tabiiy holatlar ko‘rsatilishi kamdan-kam uchraydi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni zilzila, toshqin, yong‘in kabi tabiiy hodisalarni asos qilib, javobgarlikdan ozod qilish yoki qilmaslikda mazkur hodisalarning qanday sharoitda, joyda va vaqtda sodir bo‘lganligi e’tiborga olinadi. Shartnomani yoki majburiyatni bajarishga to‘sqinlik qilgan holat o‘ziga xos ichki xususiyatlariga ko‘ra yengib bo‘lmaydigan kuch sifatida ko‘rilmaydi, balki bir qator sharoitlar va muayyan holatlar yig‘indisi va kuchi ta’sirida mulkka zarar yetganligi isbotlanganda mulkiy javobgarlik bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga ayrim hollarda, yengib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida yetkazilgan zararning to‘lanishi ham fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan. Chunonchi, havo transportidan foydalanishda yo‘lovchilarning ko‘rgan barcha zararlari O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksiga muvofiq to‘lanadi.

Yengib bo‘lmaydigan kuch tushunchasini aniqlash fuqaroviy-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilish uchun zarur. Chunki qarzdor tabiiy ofat tufayli yuzaga kelgan tasodifiy holat uchun javobgar bo‘lganligi sababli, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Chunonchi, avtoransport orqali yuk jo‘natuvchi va yuk tashuvchi tashkilot yuk tashish rejasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni tasodifiy holatlar sababli bajarmaganda javobgarlikka tortilsada, uning tabiiy hodisalar tufayli sodir bo‘lganligi isbotlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Yengib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida majburiyatni bajarmaganlik uchun qarzdorni javobgarlikdan ozod qilish huquqi agar qarzdor tadbirkorlik faoliyatini amalga oshi-rayotganda sodir bo‘lsagina qo‘llaniladi. «Tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining tovar mollar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish hamda foyda yoki daromad olishga qaratilgan amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan faoliyat ko‘rsatishdir» (O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonuni 1-m.). Binobarin, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlarga nisbatan Fuqarolik kodeksi 333-moddasining, 3-qismi qo‘llanilmaydi. Ta’kidlash joizki, qarzdor shartnoma bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq majburiyatni bajarmasligiga majburiyatni bajarish uchun bozorda zarur tovarlarning yo‘qligi, qarzdorda zarur pul mablag‘larining bo‘lmaganligiga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holati sifatida qaralmaydi va qarzdorni 333-moddaning 3-qismi bilan javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo‘lmaydi.

Kreditorning aybini aniqlash ham ahamiyatga ega. Qonunda aytilganidek, agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko‘payishiga ko‘maklashgan bo‘lsa, shuningdek, kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko‘rmagan bo‘lsa, sud ishning holatlariga qarab to‘lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to‘lashni batamom rad etishga haqli (FK 335-m.).

Mazkur qoidada majburiyatlar qarzdor hamda kreditorning xatti-harakatlari tufayli bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bunday hollarda qarzdorning javobgarligi hajmi ham kamaytirilishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra sud, xo‘jalik sudi yoki javobgarlik yuklaydigan boshqa organ har ikki tarafning ayb darajasini belgilashi va qarzdorning javobgarligi miqdorini tegishincha kamaytirishi, kreditor ko‘rgan

zararlarni qisman to‘lashga majbur qilishi va kreditorga to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka summasini kamaytirishi lozim.

Modomiki, majburiyatlarni bajarishda har ikki taraf o‘zining manfaatini ko‘zlab harakat qilar ekan, kreditor o‘z aybi bilan kelgan zararning kamaytirish choralarini ko‘rmasa, o‘z majburiyatini bajarmagan hisoblanadi, uning bu aybi keyinchalik majburiyatni lozim darajada bajara olmagan qarzdorning javobgar bo‘lish darajasini belgilashda e’tiborga olinadi.

Majburiyatni bajarmaslikda har ikki taraf teng darajada aybli bo‘lsa, ko‘rilgan zarar taraflar o‘rtasida bab-baravar taqsimlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, qarzdor kreditor tomonidan ko‘rilgan zararning faqat yarmini to‘lashga majbur qilinadi. Zararning ikkinchi yarmi esa kreditorga to‘lanmaydi. Ammo bunday javobgarlik har doim ham bir xil bo‘lmaydi. Chunonchi, sud va xo‘jalik sudi qarorlarida har ikki tarafning aybi taqqoslab ko‘rilib, to‘lanadigan zarar summasining birmuncha kamaytirilishi hollari uchraydi.

Ba’zida qarzdor majburiyatni bajarish uchun barcha choralarni ko‘rsada, kreditor o‘zining harakatsizligi va beparvoligi bilan majburiyatning bajarilishiga to‘sqinlik qiladi. Bunda sud yoki xo‘jalik sudi organlari qarzdorni majburiyat bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikdan ozod qiladi.

Majburiyat ijrosining qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlari. Fuqarolik kodeksining 337–339-moddalari majburiyatning bajarilishi qarzdor yoki kreditor tomonidan kechiktirilgani uchun javobgarlik masalalarini tartibga soladigan qoidalarni ifodalaydi.

Ijroning qarzdor tomonidan kechiktirilishi deb uning majburiyatni belgilangan muddatda bajarmasligi tushuniladi.

Majburiyatning bajarilishini kechiktirgan qarzdor uning natijasida kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashga majbur bo‘ladi. Mazkur zararning to‘lanishi qarzdorni o‘z majburiyati asl holida bajarishidan ozod qilmaydi.

Kreditorning aybi bilan majburiyat ijro etilishining kechiktirilishi keyinchalik majburiyat ijro etilishining imkoniyati yo‘qligi sababli qarzdorning javobgarligini oshiradi.

Agar majburiyat ijrosi kechiktirilgan davrda mazkur majburiyatni qarzdorning aybidan qat’i nazar ijro etish mumkin bo‘lmasa ham, u o‘z aybi bilan majburiyatni ijro etmaganida qanday javobgarlikka tortiladigan bo‘lsa, unga nisbatan xuddi shunday javobgarlik belgilanadi. Bunda javobgarlik belgilash uchun qarzdorning ijroni kechiktirishi asos qilib

olinadi. Chunki qarzdor sotilgan narsa yoki ijaraga berilgan ashyoni o‘z vaqtida topshirsa, ashyo tasodifan nobud bo‘lmagan edi, deb topiladi.

Agar majburiyatning bajarilishi qarzdor tomonidan kechiktirilganligi tufayli uning keyinchalik bajarilishiga zarurat qolmagan bo‘lsa, kreditor Fuqarolik kodeksi 337-moddasining 2-qismida ko‘rsatilganidek, ijroni qabul qilishdan bosh tortishi va zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

Kreditorning ijroni kechiktirishi ham muhim huquqiy oqibat tug‘diradi. Fuqarolik qonunchiligi yuqorida aytilganidek, majburiyatning bajarilishida ham qarzdor, ham kreditorning manfaatlari bir bo‘lishi zarurligini belgilaydi. Modomiki, taraflar majburiyatni bajarishda bir-birlariga ko‘maklashishlari lozim ekan, kreditor o‘zining xatti-harakati bilan majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to‘sqinlik qilmasligi ijroni og‘irlashtirmasligi kerak.

Kreditorning ijroni kechiktirishi deganda, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to‘sqinlik qilishi yoki ijroning qiyinlashtirilishiga qaratilgan harakati tushuniladi. Mazkur harakat oqibatida kreditor mulkiy javobgar bo‘lishi, ya’ni bunday harakatning mulkiy oqibati kreditorning zimmasiga qo‘yilishi kerak.

Kechiktirish oqibatlari Qonunning 338-moddasida ko‘rsatilgan. Bu moddada kreditorning shartnoma bo‘yicha o‘ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi, qarzdorga kechiktirib yuborish tufayli yetkazilgan zararni undirib olish huquqini berishi va keyinchalik majburiyatni ijro etishning iloji bo‘lmasa, uni javobgarlikdan ozod qilishi, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo‘pol ehtiyotsizlik qilishi hollari bundan mustasno ekanligi, pul majburiyati bo‘yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foiz to‘lashga majbur emasligi ko‘rsatilgan.

Kreditorning ijroni kechiktirishi ikki turdagi harakatdan, ya’ni kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan lozim darajada bajarilganini qabul qilmasligidan va qarzdorning o‘z majburiyatini bajarishga qadar kreditor tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatning qilinmaganligidan iborat bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarni ba’zi misollar bilan tushuntirsa bo‘ladi. Chunonchi, agar mahsulot oluvchi mahsulot tayyor ekanligi to‘g‘risida xabardor qilingan bo‘lsa-yu, biroq uni belgilangan muddatda olib ketmasa, qasddan majburiyatni kechiktirishga yo‘l qo‘ygan hisoblanadi.

Kreditor o‘ziga yuklatilgan harakatlarni bajarmaganligi natijasida qarzdor majburiyatni ijro eta olmasa, u holda kreditor ijroni kechiktirgan hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha

mahsulot sotib oluvchiga taqsimotga muvofiq bevosita yuborilmay, shartnomada qatnashmagan boshqa tashkilotga jo‘natilgan taqdirda mahsulotning taqsimot bo‘yicha belgilangan muddatda berilmasligi kreditorning ijroni kechiktirishini anglatadi. Boshqa bir misol: kapital qurilishga oid pudrat shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi pudrat shartnomalari to‘g‘risidagi qoidaga ko‘ra o‘z zimmasidagi harakatlarni bajarmaganda ham kreditorning aybi namoyon bo‘ladi..

Kreditor majburiyatni kechiktirishda o‘z aybi yoki o‘ziga qarashli shaxslarning aybi yo‘qligini isbotlay olmasa, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan ziyonni to‘lashga majbur. Shu sababli, belgilangan muddatda olib ketilmagan mahsulotlarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lashi shart. Odatda, bunday hollarda neustoyka (penya, jarima) undiriladi.

Kreditorning ijroni kechiktirishiga doir masala ko‘pincha majburiyatning bajarilmaganligida aybdor bo‘lgan qarzdorning javobgarligi to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atilganda ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda kreditorning aybi e’tiborga olinib, qarzdorning javobgarligi darajasi birmuncha kamaytirilishi mumkin.

Agar ijroni kechiktirish kreditorning o‘z aybi, qonunga yoxud kreditorning topshirig‘iga binoan ijroni qabul qilish yuklatilgan boshqa shaxslarning qasdidan yoki qo‘pol ehtiyotsizligi sababli emasligini kreditor isbotlasa, u ijroni kechiktirish javobgarligidan ozod bo‘ladi.

Majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida uning bergan tilxat yoki hujjatini kreditor qarzdorga qaytarib berishdan bosh tortganda ham kreditor ijroni kechiktirgan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida unga ko‘maklashishga majbur. Agar u mazkur majburiyatni bajarmasa, buning oqibatlari uchun ham javobgar bo‘ladi. Kreditorning majburiyatni kechiktirish oqibatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

birinchidan, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to‘latish, masalan, qarzdor majburiyatni bajarish yuzasidan kerakli mahsulotni o‘z vaqtida yetkazgan bo‘lsa-yu, kreditor bo‘sh ombor yo‘qligini bahona qilib, mahsulotni qabul qilishdan bosh tortsa, qarzdor mahsulotning tashish va saqlash bilan bog‘liq ortiqcha xarajatlar (zarar)ni kreditordan undirishga haqli. Bu holda kreditor ushbu kechiktirishni ataylab yoki ehtiyotsizlik bilan bog‘liq bo‘lmaganligini yoxud bunday kechiktirish qonun yoki kreditorning topshirig‘i bilan majburiyatni bajarishni o‘z zimmasiga olgan boshqa shaxslarning qasddan

yoki ehtiyotsizligi oqibatida kelib chiqmaganligini isbotlasa, qarzdorning ko‘rgan zararlarini to‘lashdan ozod qilinadi;

ikkinchidan, kreditorning ijroni kechiktirish vaqti uchun qarzdor pul majburiyatlari bo‘yicha foizlar to‘lamaydi;

uchinchidan, agar kreditor qarzdorga uning bergan tilxati yoki boshqa qarz hujjatini qaytarishdan yoxud tilxatda qarz hujjatining nima uchun qaytarilishi mumkin emasligini ko‘rsatishdan bosh tortsa, qarzdor ijroni to‘xtatishga haqli.

Qarzdordan majburiyatning aniq bajarilishini ayrim sharoit va asoslarga ko‘ra talab qilib bo‘lmaydi. Mazkur asoslarga misol qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) majburiyatni aniq bajarishning iloji yo‘qligi, ya’ni majburiyat predmeti (narsasi) xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyo bo‘lib, uni aslicha topshirish mumkin bo‘lmagan holatlarning mavjudligi yoki biron-bir holatning sodir bo‘lishi sababli qarzdor majburiyatini ma’lum bir joyda bajara olmasligi va hokazo;

2) majburiyatning huquqiy jihatdan bajarilishi mumkin bo‘lmasligi, ya’ni ba’zi hollarda, majburiyat vujudga kelgandan so‘ng normativ hujjat va qonunlarga xilof keladigan bo‘lsa, mazkur majburiyat bajarilmasligi mumkin;

3) ba’zi hollarda majburiyatning aniq bajarilishi nihoyatda qiyin bo‘lishi mumkin. Bunga misol qilib, shartnoma bo‘yicha biron-bir majburiyatni shaxsan bajarishga majbur qarzdorning qattiq kasal bo‘lib qolishini ko‘rsatish mumkin.

Majburiyatning bajarilishi mumkin bo‘lmasligi qarzdorni kreditor oldida javobgarlikdan ozod qilmaydi. Qarzdor faqat majburiyatning bajarilishi mumkin bo‘lmaganligida aybi yo‘qligini isbot qilsa, javobgarlikdan ozod bo‘ladi. Masalan, xususiy alomatlar bilan belgilangan ashyolar ijaraga oluvchining qo‘lida bo‘lgan vaqtda, qarzdorning ishtirokidan tashqari nobud bo‘lsa, qarzdor kreditorga yetkazilgan ziyon yoki jarimani to‘lashdan ozod bo‘ladi.

Agar qarzdor mazkur ashyolarga beparvolik bilan, ehtiyotsiz muomalada bo‘lganligi tufayli ashyolar nobud bo‘lsa, kreditorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ijtimoiy hayotda fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarni ta’minlash usullarini va ushbu usullarni qo‘llashga taalluqli hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish tartibini tasniflang.

2. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullarining alohida belgilari nimalardan iborat?

3. Majburiyatlarni bajarilishini ta’minlashning quyidagi usullariga tavsif bering:

a) neustoyka;

b) garov;

d) qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish;

e) kafolat;

f) kafillik;

g) zakalat.

4. Majburiyatlarni buzganlik uchun subsidiar javobgarlikning alohida belgilarini tasniflang.

5. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslarining xususiyatlarini aytib bering.

9-MAVZU.
SHARTNOMA HAQIDA UMUMIY QOIDALAR. OLDI-SOTDI, HADYA VA AYIRBOSHLASH SHARTNOMALARI

1. Shartnoma tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati.
2. Oldi-sotdi shartnomasi tushunchasi va mohiyati.
3. Hadya shartnomasi tushunchasi va ahamiyati.
4. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi va mazmuni.

1. Shartnoma tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati

Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o‘zaro kelishuvlarga *shartnoma* deb ataladi.

Shartnoma atamasi uch ma’noda – yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar to‘g‘risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) o‘zaro nima haqida kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma’nosida ishlatiladi. Quyida uning birinchi ma’nosi, ya’ni yuridik fakt sifatidagi o‘rni ko‘riladi va o‘rganiladi.

Yuridik fakt haqida «Fuqarolik huquqiy munosabat» mavzusida tushuncha berilgan edi. Bunda yuridik faktlar mazmun jihatidan ikki asosiy toifaga: yuridik hodisalar va harakatlarga bo‘linishi qayd etib o‘tilgan edi. Yuridik harakat, o‘z navbatida, *huquq yo‘l qo‘ygan* va *huquq yo‘l qo‘ymagan* harakatlarga bo‘linib, huquq yo‘l qo‘ygan harakatlarga bir va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) ko‘rsatilgan edi. Ikki tomonlama bitimlar (oldi-sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Bir tomonlama bitim, *masalan,* vasiyatnoma shartnoma bo‘la olmaydi. Binobarin, har qanday shartnoma bitim deyilsa ham, biroq har qanday bitimni shartnoma deb atab bo‘lmaydi.

Shartnoma huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi. Agar boshqa yuridik faktlar umumiy qoidaga ko‘ra huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bilan tugallansa, shartnoma mazkur yuridik faktlardan farq qilib, yuqoridagi vazifalardan tashqari huquq me’yorlari bilan belgilangan doiralarda huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning xatti-

harakatlarini tartibga soladi hamda huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi.

Fuqaroviy-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma mulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu – adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog‘liq shartnomalar bo‘lib, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinossenariy va boshqa shartnomalar uchun xosdir.

Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquq va burchlarini, chunonchi, mualliflik haqi to‘g‘risidagi shartlar va ijro muddatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilamay, balki nomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o‘z asarining nomini ko‘rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi yoki asari matniga o‘zgartish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni belgilaydi.

Shartnomalarning turlari. Shartnomalar o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarning o‘zaro taqsimlanishiga qarab bir va ikki tomonlama shartnomaga bo‘linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida hech qanday majburiyat bo‘lmay, faqat huquqi bo‘lsa, ikkinchi tarafda faqat majburiyat bo‘ladi. *Masalan*, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o‘z vaqtida qarz beruvchiga qaytarishga majbur bo‘lsa, qarz beruvchi qarzga bergan pul summasini talab qilish huquqiga ega.

Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf xam huquqqa, ham majburiyatga ega bo‘ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnomaga ko‘ra sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo‘lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa olayotgan ashyoning bahosini to‘lashi zarur bo‘lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

Haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalar. Haq baravariga tuziladigan shartnomalarda bir taraf topshirgan mulki yoki qilgan xizmati evaziga pul yoxud mulk bilan haq oladi. Masalan, mulkdan vaqtincha foydalanish uchun ijaraga olgan taraf undan foydalangani uchun ijara haqini to‘lashga majbur. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa shartnomalarni misol qilish mumkin. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki shartnomaning mazmun-mohiyatidan o‘zgacha hol

anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf ikkinchi taraf foydasiga haq olmay biror-bir mulkni topshirishi yoki biror ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo‘yicha mulk egasi o‘z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Mulkdan bepul foydalanish yoki foizsiz qarz shartnomalari bepul tuziladigan shartnomalar guruhiga kiradi.

Shartnomalar tuzilish payti va mazmuniga qarab ***konsensual va real*** shartnomalarga bo‘linadi.

Konsensual shartnomalar yuzasidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvi va shartnomani qonuniy shaklda rasmiylashtirilgan zahoti paydo bo‘ladi. «Konsensual» so‘zi lotincha «konsensus» so‘zidan olingan bo‘lib, «kelishuv» ma’nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, pudrat yoki mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Fuqarolik huquqidagi aksariyat shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

Real shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlarning paydo bo‘lishi uchun taraflarning nafaqat o‘zaro kelishuvi yoki shartnomani rasmiylashtirishlari, balki shartnoma predmeti bo‘lgan ashyo yoki pulning topshirilishi talab qilinadi.

«Real» so‘zi – lotincha «ges» so‘zidan olingan bo‘lib, «ashyo» ma’nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya va mulkdan bepul foydalanish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar. Umumiy qoidaga ko‘ra shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun taalluqli bo‘ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga ham tuzilishi mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga misol qilib, sug‘urta shartnomasini ko‘rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf bo‘lib hisoblanmaydi, biroq Fuqarolik kodeksining 362-moddasining 2-qismida ko‘rsatilganidek, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, uchinchi shaxs shartnoma bo‘yicha o‘z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o‘zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o‘zgartirishlari mumkin emas.

Shartnoma tuzgan shaxs shartnomadan majburiyatlarining uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan va bu haqda shartnomada

boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani tuzgan shaxs bilan birga majburiyatning bajarilishidan manfaatdor uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxs shartnoma bo‘yicha o‘ziga berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma tuzgan shaxs, shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o‘zi foydalanishi mumkin.

Shartnomalar, shuningdek, ochiq shartnoma, qo‘shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma (ahdnoma) kabi turlarga ham bo‘linadi.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o‘z faoliyati xususiyatiga ko‘ra o‘ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo‘lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo‘lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta’minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh. k.) belgilab qo‘yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko‘rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste’molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi.

Tashkilotning iste’molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko‘rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo‘la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida unga nisbatan FK 377-moddasining oltinchi va yettinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llaniladi (FK 358-m.).

Shartlarini taraflardan biri formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta’riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin bo‘lgan shartnoma *qo‘shilish shartnomasi* deyiladi (FK 360-m.). Bunday shartnomaga misol qilib, havo va temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin. Odatda mazkur shartnomalarning mazmuni hamma uchun deyarli bir xil bo‘lib, oldindan belgilab qo‘yiladi va mijoz uning shartlarini boshqacha tuzishni taklif etish imkoniyatiga ega emas. Biroq bu shartnomaga mijoz o‘z ixtiyori, xohishi va irodasi bilan qo‘shiladi. Bunday shartnomalarni aslo bir tomonlama bitim deb hisoblash mumkin emas. Qo‘shilish shart-

nomasini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari FKning 360-moddasida nazarda tutilgan.

Dastlabki shartnoma bo‘yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini oladilar.

Dastlabki shartnoma asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordi-yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuziladi. Dastlabki shartnomaning shakli to‘g‘risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek boshqa muhim shartlarini belgilab qo‘yish imkonini beradigan shartlar bo‘lishi kerak.

Dastlabki shartnomada taraflar qancha muddatda asosiy shartnomani tuzish majburiyatini olishi ko‘rsatiladi. Agar dastlabki shartnomada bunday muddat belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, asosiy shartnoma dastlabki shartnoma tuzilgan paytdan boshlab bir yil ichida tuzilishi shart (FK 361-m).

Shartnoma tuzish. Shartnomaning tuzilishi Fuqarolik kodeksining 364-moddasida ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi *ikki davr bilan* belgilanadi:

Birinchi davr – shartnoma tuzishga taklif qilish davri, u *oferta,* shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, *oferent,* deb ataladi.

Ikkinchi davr – shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni qabul qilish, bu *aksept* va taklifni qabul qiluvchi esa, *akseptant* deb aytiladi.

Shartnoma tuzish uchun taraflar kelishuvining o‘zi kifoya emas. Bu kelishuv tegishli shaklda rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart. Shartnomalarning shakli Fuqarolik kodeksining 366-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi shart. Unga asosan, agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma’lum bir shakl belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa – shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran tuzilgan hisoblanadi.

Oferta muayyan yoki nomuayyan shaxsga qaratilgan bo‘lishi mumkin. *Masalan*, mahsulotni reklama qilish, o‘z xizmatini taklif etib e’lon berish – nomuayyan shaxslar doirasiga yo‘llangan oferta hisoblanadi.

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi. Aksept to‘liq va pisandasiz bo‘lmog‘i shart. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo‘yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma’no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo‘lmaydi.

Agar Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunlarga muvofiq shartnoma tuzishi majburiy bo‘lgan taraf uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur etish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli. Shartnoma tuzishdan asossiz bo‘yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilgan zararni boshqa tarafga to‘lashi kerak.

Shartnomalarni o‘zgartirish va bekor qilish. Umumiy qoidaga ko‘ra shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

1. ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;
2. Fuqarolik kodeksi, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bosh tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuvida bunga yo‘l qo‘ysa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan va o‘zgartirilgan hisoblanadi.

Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo‘lgan vaziyatning jiddiy o‘zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilishga asos bo‘ladi.

Vaziyatni taraflar oldindan ko‘ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo‘lgan darajada o‘zgarishi jiddiy o‘zgarish hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, manfaatdor tarafning talabi bilan Fuqarolik kodeksining 383-moddasida ko‘rsatilgan shartlar mavjud bo‘lgan hollarda, shartnoma sud tomonidan

bekor qilinishi, ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga koʻra esa oʻzgartirilishi mumkin.

Shartnoma qanday shaklda tuzilgan boʻlsa, uni oʻzgartirish yoki bekor qilish toʻgʻrisidagi kelishuv ham, basharti qonun hujjatlaridan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, shunday shaklda tuziladi.

Bir taraf shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda koʻrsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat boʻlmaganida esa – oʻttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qoʻyilgan boʻlmasa, taraflar shartnoma oʻzgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat boʻyicha oʻzlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emas.

2. Oldi-sotdi shartnomasi va uning ahamiyati

Oldi-sotdi shartnomasi insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon qoʻllanib kelayotgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda tovar-pul munosabatlari qaror topishi bilan turli kasb-hunar kishilari oldi-sotdi shartnomasi orqali boshqa kasb-hunar kishilari mehnati mahsulotlarini iste'mol uchun sotib olish va ayni vaqtda, oʻz mehnat mahsulotlarini sotish imkoniyatiga ega boʻldilar.

Oldi-sotdi shartnomasi boʻyicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni toʻlash majburiyatini oladi (FK 386-m. 1-q.).

Oldi-sotdi shartnomasi huquqiy tabiatiga koʻra mol-mulkka nisbatan mulk huquqi yoxud ashyoviy huquqlarni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga oʻtkazish majburiyatlari turkumiga kiradi. *Ayni vaqtda ushbu shartnomaning boshqa oʻxshash shartnomalardan farq qiluvchi huquqiy belgilari mavjud boʻlib, unga quyidagilar kiradi.*

Birinchidan, oldi-sotdi shartnomasi haq baravariga tuziladigan (pulli) shartnoma hisoblanadi. Bunda har doim sotuvchi topshiradigan mol-mulk (tovar) evaziga sotib oluvchi muayyan miqdorda pul (soʻm, valuta) bilan belgilangan haqni toʻlaydi.

Ikkinchidan, oldi-sotdi shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub. Boshqacha aytganda, bu shartnomada taraflar oʻrtasidagi huquq va

majburiyatlar shartnomaning barcha muhim shartlari to‘g‘risida o‘zaro kelishilgan va shartnoma tegishli shaklda rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab vujudga keladi.

Uchinchidan, shartnoma munosabatlari tarkibiga ko‘ra, u ikki tomonlama shartnoma bo‘lib hisoblanadi. Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan yuqoridagi ta’rifdan ham ko‘rinib turibdiki, ushbu shartnomada ikki taraf – sotuvchi va sotib oluvchi qatnashadi hamda har ikkala taraf ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi: sotuvchi ashyoni topshirish va buning uchun haq olish huquqiga ega bo‘lsa, oluvchi ashyo (tovar) qiymatini to‘lashi va sotilgan ashyoning o‘ziga topshirilishini talab qilish huquqini oladi.

Ta’kidlash joizki, oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha sotilgan ashyo (tovar)ga nisbatan mulk huquqi sotuvchidan sotib oluvchiga o‘tadi va bu holat shartnomaning eng asosiy belgisi bo‘lib hisoblanadi. Bunda tovarlar muomalasida bevosita tovar egalari, ya’ni bu tovarlarni tasarruf qilishga haqli shaxslar ishtirok etadilar.

Bozor munosabatlari tizimida oldi-sotdi shartnomasi xo‘jalik yurituvchi turli subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni rasmiylashtirishning eng muhim va asosiy huquqiy vositalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ayni vaqtda, u kishilarning kundalik turmushida eng ko‘p qo‘llaniladigan shartnoma sifatida ham e’tirof etiladi.

Oldi-sotdi shartnomasi savdo munosabatlarining xususiyatlari va shakllariga qarab, bir necha turlarga bo‘linadi: ulgurji savdo, chakana savdo, kim oshdi savdosi, nasiyaga tovarlarni sotish va hokazo. Shartnoma predmetiga ko‘ra turar-joy, korxona, ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdi shartnomalari, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, energiya ta’minoti va shu kabi shartnomalarga bo‘linadi.

Tashqi savdo munosabatlarida oldi-sotdi shartnomasining huquqiy asoslari.

Oldi-sotdi shartnomasi mamlakatning nafaqat ichki muomalasida, balki tashqi iqtisodiy munosabatlarida ham eng ko‘p qo‘llaniladigan shartnoma hisoblanadi. Ushbu shartnoma xalqaro miqyosda keng qo‘llanilayotgani sababli ham xalqaro tashkilotlar tomonidan uning huquqiy negizlarini shakllantirilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, 1980 yili BMTning Venada qabul qilingan «Tovarlarni xalqaro oldi-sotdi shartnomalari haqida»gi konvensiyasi, savdo-sotiqda qo‘llaniladigan «Inkoterms» atamalarini talqin etish bo‘yicha xalqaro qoidalar, shuningdek, iste’molchilarning huquqlari haqida xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Vena Konvensiyasi xalqaro savdo-sotiqda ko‘pchilik davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan o‘ziga xos umumiy (universal) huquqiy hujjat sifatida ahamiyatga ega.

Konvensiya, asosan, tadbirkorlik sohasidagi xalqaro oldi-sotdi shartnomalarini tartibga soladi. Shu sababli shaxsiy, oilaviy yoxud uyda foydalanish uchun tovarlar xarid qilishda qo‘llanilmaydi. Ayni vaqtda, Konvensiya undiruvga qaratilgan mol-mulkni auksionlarda sotish, qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar, ta’minlov qog‘ozlari va muomala hujjatlari, suv va havo transporti hamda elektr energiyasini sotib olishga nisbatan ham qo‘llanilmaydi.

Vena Konvensiyasi faqat oldi-sotdi shartnomasining tuzilishini va ushbu shartnoma asosida taraflarda huquq va majburiyatlar vujudga kelishini tartibga soladi. Shu bois agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ushbu Konvensiya shartnomaning o‘ziga, uning shartlari haqiqiyligi, shuningdek, sotilgan tovarga nisbatan mulk huquqi haqida shartnoma belgilagan oqibatlarga taalluqli emas. Shu bilan birga, Konvensiya sotuvchining tovar biror shaxsning sog‘lig‘i shikastlanishi yoxud o‘limiga sabab bo‘lgan holatlar uchun javobgarlik masalalariga nisbatan ham qo‘llanilmaydi.

Konvensiyaning 11-moddasiga asosan oldi-sotdi shartnomasining yozma shaklda tuzilishi shart qilib qo‘yilmagan va umuman, shartnoma shakliga nisbatan talablar mavjud emas. Vena Konvensiyasida oldi-sotdi shartnomasining tuzilishi masalalari hal etilgan. Unda sotuvchi va xaridor majburiyatlari, taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilganda huquqiy muhofaza vositalari belgilab qo‘yilgan, shuningdek, unda tovar shikastlangan yoki nobud bo‘lgan hollarda xaridorga zarar tahdidi (xavfi) qanday o‘tishi haqidagi qoidalar, taraflarni javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shu kabi normalar mavjud.

Konvensiyaning 28-moddasiga asosan tuzuk taraf shartnoma shartlarini buzgan tarafdan majburiyatni asl (natura) holicha bajarishni yoxud yetkazilgan zararlarning to‘la qoplanishini talab qilishga haqli.

Oldi-sotdi shartnomasining shakli. Oldi-sotdi shartnomasining shakliga nisbatan bitimlarning shakli haqidagi qoidalar (FK 108-112-m.) hamda shartnomaning shakli haqidagi qoidalar (FK 336-m.) qo‘llaniladi. Bunda shartnomaning turi va tovarning xususiyatlari ahamiyatga ega. Oldi-sotdi shartnomasi shaklini belgilashda, birinchidan, fuqarolik muomalasining talablari, ikkinchidan esa, oldi-sotdi bitimlari qonuniyligining ustidan nazorat qilish zarurati kelib chiqadi. Mazkur munosabatlarda jamiyat yoxud ayrim shaxslar manfaati himoyasini

ta’minlash zarurati bilan bog‘liq holatlar belgilovchi omil bo‘lib hisoblanadi. Masalan, naqd pul hisobiga amalga oshiriladigan chakana savdoda taraflarga qulaylik yaratish uchun oldi-sotdi shartnomasini maxsus rasmiylashtirish talab etilmaydi. Naqd pul baravariga tuziladigan va tuzilish vaqtining o‘zidayoq ijro etiladigan oldi-sotdi shartnomasi, umumiy qoida bo‘yicha summasidan qatyi nazar, og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin. Binobarin, savdo do‘konlarida, bozorlarda tuziladigan oldi-sotdi shartnomalari tovarlarning xaridorlarga darhol topshirilgani va shu ondayoq haq to‘langani sababli, og‘zaki rasmiylashtirilishi mumkin.

Agar oldi-sotdi shartnomasini amalga oshirishda haq to‘lash va sotilgan tovarni topshirish bir vaqtning o‘zida, sotuvchi va xaridor tomonidan muqobil ijro etilmasa, masalan, tovar haqini oldindan to‘lash, nasiyaga tovar sotish, tovar haqini bo‘lib-bo‘lib to‘lash (FK 420-422-m.) hollarida shartnomaning yozma ravishda tuzilishi maqsadga muvofiq, yoxud bunday hollarda tegishli harakatlarning sodir etilganligi (masalan, pul oldindan to‘langan, tovar nasiyaga sotilgani) fakti chek, jeton, tilxat orqali guvohlantirilishi lozim. Bu esa kelgusida taraflar o‘rtasida nizolar kelib chiqishining oldini oladi yoxud bunday nizolarning adolatli hal etilishiga xizmat qiladi.

Ko‘chmas mol-mulk, shu jumladan, turar-joylar oldi-sotdisi, avtomobil, o‘q otar ov qurollari va shu kabi narsalar oldi-sotdisi ustidan nazorat o‘rnatish ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu sababli, bunday shartnomalarning yozma tuzilishi, notarial guvohlantirilishi, maxsus davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi talab etiladi. Shartnomaning tegishli shaklda rasmiylashtirilmasligi uning haqiqiy sanalmasligi yoki qonunda belgilangan boshqa oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ushbu talablar tashqi savdo bitimlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Oldi-sotdi shartnomasida taraflar. Oldi-sotdi shartnomasida taraflar sotuvchi va xaridor hisoblanadi. Bunda taraflar sifatida fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Muayyan hollarda shartnomada taraf sifatida davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Shartnomada ishtirok etuvchi fuqaro muomala layoqatiga ega bo‘lishi shart. Ayni vaqtda, qonun muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz fuqarolarning ham oldi-sotdi shartnomasida taraf sifatida qatnashish holatlarini nazarda tutadi. Masalan, olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar mayda maishiy bitimlar tuzishga, masalan, kichik summada tovarlar (muzqaymoq, chanqov bosdi ichimliklar, qalam, daftar, havo sharlari va sh. k.) sotish yoki sotib olishga haqli (FK 29-m. 2-q. 1-b.). O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz

yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlari hisobiga tovarlar sotib olish yoxud ularni sotishga haqli (FK 27-m. 2q. 1-b.).

Har xil tashkiliy tuzilmalar oldi-sotdi shartnomasida ishtirok etishlari uchun quyidagi ikki talabga javob berishlari shart: ***birinchidan,*** bunday tuzilmalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishlari va *ikkinchidan,* ular tuzayotgan oldi-sotdi shartnomasi ularning ta’sis hujjatlariga zid bo‘lmasligi lozim.

Oldi-sotdi shartnomasining predmeti, bahosi va muddatlari

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi mumkin bo‘lgan, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan har qanday ashyolar tovar bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan obyektlar oldi-sotdi predmeti bo‘la olmaydi. Sotilishi hamda sotib olinishi mumkin bo‘lmagan korxonalar, mol-mulk turlari va guruhlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31– avgustdagi 119-sonli qaroriga 1-ilovada ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan obyektlar, tarixiy-madaniy va tabiiy meros obyektlari, harbiy-texnikaviy mol-mulk, harbiy qurol-yarog‘, portlovchi va radioaktiv modda, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, qabriston va shu kabi obyektlar kiradi. Ayrim obyektlar fuqarolik muomalasida cheklangan harakatda bo‘ladi. Ularni maxsus ruxsat asosida sotib olish yoki sotish mumkin (masalan, kuchli narkotik dorilar faqat maxsus retsept asosida, ro‘yxatga qayd etilib sotiladi).

Valuta qiymatlarini olish-sotish davlatning vakolatli idoralari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oldi-sotdi shartnomasida baho (narx) xaridor tomonidan sotib olinayotgan tovar uchun sotuvchiga to‘lanadigan ma’lum miqdordagi pul summasidir. Agar xaridor olinayotgan tovar evaziga sotuvchiga pul emas, biror-bir ashyo topshirsa, shuni yoki muayyan xizmat ko‘rsatish, ish bajarish yoxud tekinga olish nazarda tutilgan bo‘lsa, u holda oldi-sotdi bahosi hisoblanmaydi.

Oldi-sotdi shartnomasida tovarning bahosi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (tariflar, rassenkalar, stavkalar va hokazo) qo‘llaniladi (FK 356-m. 2-q.). Masalan, ayrim turdagi tovarlar faqat bir yoki cheklangan doiradagi bir necha korxona tomonidan ishlab chiqarilishi va bu korxonalar tovarlar bahosini belgilashda o‘zlarining ustun va monopol mavqeidan foydalanib,

suiiste'molliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorida monopolistik holatni va raqobatni cheklash to‘g‘risida»gi (1996-yil 27-dekabr qonuni), va «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi (1997-yil 27-aprel qonuni) hamda shu kabi boshqa qonunlarda tovarlarning muayyan narxi belgilab qo‘yilishi mumkin. Biroq bozor munosabatlari tizimida ko‘pchilik tovarlarning bahosi taraflar tomonidan o‘zaro kelishuv asosida belgilanadi.

Tovarning bahosi uning og‘irligiga qarab belgilanadigan bo‘lsa, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, u sof og‘irligi (netto) bo‘yicha aniqlanishi lozim. Bunda tovarning idish yoki o‘ralgan holidagi og‘irligi (brutto) asos bo‘lib hisoblanmaydi.

Oldi-sotdi shartnomasining mazmunini taraflarning huquq va burchlari tashkil etadi.

Sotuvchining asosiy burchi va huquqi sotilgan ashyoni shartnomaga muvofiq oluvchining ixtiyoriga topshirishdan va buning uchun tegishli haqni olishdan iborat.

Oluvchining asosiy huquqi va burchi sotilgan tovarni qabul qilib olish va buning uchun belgilangan haqni to‘lash, agar sotilgan tovar shartnoma shartlariga muvofiq topshirilmagan bo‘lsa, uni qayta topshirishni talab qilishdan iborat bo‘ladi.

Qonun ayni vaqtda taraflar zimmasiga yana bir qator qo‘shimcha majburiyatlarni ham yuklaydi.

Sotuvchi sotilgan mol-mulk (tovar)ni xaridorga topshirgunga qadar saqlashi shart. Bu qoida Fuqarolik kodeksining 391-moddasida mustahkamlangan. Mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq mol-mulkni topshirishdan oldin sotib oluvchiga o‘tgan hollarda, sotuvchi mol-mulkning yomonlashishiga yo‘l qo‘ymay, uni topshirgunga qadar saqlashi shart. Buning uchun qilingan zarur chiqimlar xaridor zimmasiga yuklatiladi.

Sotuvchi zimmasiga qonunda yana bir majburiyat belgilab qo‘yilgan. Sotuvchi tovarni sotib oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirishi shart, sotib oluvchi shaxslarning huquqlari bo‘lgan tovarni qabul qilishga rozilik bergan hollar bundan mustasno (FK 393-m.). Sotuvchi ushbu majburiyatni bajarmagan hollarda xaridor tovar bahosini kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, ko‘rilgan zararlar qoplanishini talab qilishga haqli (sotib oluvchi bu tovarga uchinchi shaxslarning huquqlari borligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgani isbotlanadigan hollar bundan mustasno).

Agar uchinchi shaxs oldi-sotdi shartnomasi bajarilgunga qadar vujudga kelgan asos bo‘yicha tovarni olib qo‘yish to‘g‘risida sotib oluvchiga da’vo qilsa (eviksiya), sotib oluvchi sotuvchini ishda qatnashishga jalb qilishga haqli, sotuvchi ham bu ishda sotib oluvchi tomonida qatnashishi shart. Masalan, A. ismli shaxs B. ismli shaxsga sigir sotadi. Oradan ko‘p o‘tmay, D. ismli shaxs ushbu sigir uning mulki ekanligi va uni o‘g‘irlab ketilganini bildirib, sigirni o‘ziga qaytarish haqida sudga vindikatsion da’vo bilan murojaat qiladi. Bunday holda D. B.ga nisbatan da’vo qiladi. Ayni vaqgda B. ushbu ishga A. ni jalb etishi lozim.

Agar sotuvchi basharti ishda qatnashganda sotilgan tovarni sotib oluvchidan olib qo‘yilishining oldini olgan bo‘lishi mumkinligini isbotlab bersa, sotib oluvchining sotuvchini ishda qatnashishga jalb qilmasligi sotuvchini sotib oluvchi oldidagi javobgarlikdan ozod qiladi.

Sotib oluvchi tomonidan ishda qatnashishga jalb qilingan, biroq unda qatnashmagan sotuvchi (masalan, tovar uchinchi shaxs tomonidan da’vo qo‘zg‘atish asosida sotib oluvchidan olib qo‘yilgan bo‘lsa) sotib oluvchining ishni noto‘g‘ri yuritganligini isbotlash huquqidan mahrum bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining 395-moddasida sotib oluvchidan tovar olib qo‘yilganda sotuvchining javobgarligi belgilab qo‘yilgan. Agar yuqoridagi misolga murojaat qilsak, D. ning B. ga nisbatan da’vosi qanoatlantirilgan, ya’ni sigir undan olinib, D. ga berilgan takdirda A. B. ning barcha zararlarini qoplashi lozim. (B. sigirning o‘g‘irlanganligini va A. uni sotishga haqli emasligini bilgan hollar bundan mustasno).

Sotuvchining tovarni xaridorga topshirish majburiyatini bajarish muddati oldi-sotdi shartnomasida belgilanadi, agar shartnoma bu muddatni aniqlash imkonini bermasa, u Fuqarolik kodeksining 242-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq aniqlanadi (FK 389-m.).

Oldi-sotdi shartnomasi shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi. Oldi-sotdi shartnomasida qatnashuvchi har ikkala taraf qonun yoki shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

Sotuvchi quyidagi holatlarda xaridor oldida javobgardir:

a) sotilgan tovarni topshirmasa yoki topshirishni kechiktirsa;

b) sotilayotgan tovarda uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi haqida xaridorni ogohlantirmasa;

c) sotilayotgan tovar miqdori, assortimenti haqidagi shartlarni buzsa yoki sifatsiz tovar sotsa.

Sotib oluvchi ham o‘z navbatida sotuvchi oldida quyidagi hollarda *javobgar* bo‘ladi:

a) sotilgan tovar uchun haqni to‘lamasa yoki to‘lashni kechiktirsa;

b) sotilgan tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olmasa yoxud qabul qilib olishni kechiktirsa.

Taraflar yuqoridagi holatlardan biri sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘ygan hollarda ularga nisbatan fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llaniladi. Bunday choralar majburiyatni bajarish shartnomadan bir tomonlama bosh tortish va zararlarni qoplash shaklida bo‘lishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko‘ra sotuvchi xaridorni sotilayotgan tovarning kamchiliklari haqida ogohlantirmog‘i lozim.

Sotuvchi sifatiga o‘zi kafolat bergan tovardagi kamchiliklar uni sotib oluvchiga topshirganidan so‘ng:

– sotib oluvchi tovardan foydalanish yoki saqlash qoidalarini buzganligi sababli;

– uchinchi shaxslar harakati tufayli;

– oldini olib bo‘lmaydigan kuch ta’sirida paydo bo‘lganligini isbot qilib bera olmasa, bu tovarning kamchiliklari uchun javobgar bo‘ladi (FK 409-m. 2-q.).

Qonunda topshirilgan tovarning kamchiliklarini aniqlash muddatlari ham belgilab qo‘yilgan. Kamchilik yoki nuqson ushbu muddat davomida aniqlansa, xaridor tegishli talab bilan sotuvchiga da’vo qilishga haqli bo‘ladi. Bular qonunda yoki oldi-sotdi shartnomasida belgilab qo‘yilgan yoxud kafolat muddati bilan yoki tovarning yaroqlilik muddati bilan belgilanadi.

Kamchiliklar oqilona muddatda, biroq tovar sotib oluvchiga top-shirilgan kundan boshlab ikki yil davomida aniqlanganida ham (agar yuqoridagi muddatlar belgilanmagan bo‘lsa) xaridor sotuvchiga talab qo‘yishga haqli.

Tovarning kamchiliklari xaridor tomonidan kafolat muddati yoki yaroqlilik muddati tugaganidan keyin aniqlangan hollarda, xaridor bu kamchiliklar tovar unga topshirilgunga qadar yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli paydo bo‘lganligini isbot qilib bergan hollarda javobgarlik sotuvchi zimmasiga yuklanadi.

Kontraktatsiya shartnomasi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasida kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga – tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul

qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to‘lash (to‘lab turish) majburiyatini oladi, deb belgilangan.

Kontraktatsiya shartnomasi qishloq xo‘jalik korxonalari, shu jumladan, qishloq xo‘jalik shirkatlari, fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan mahsulot xarid qiluvchi (tayyorlovchi, savdo, qayta ishlovchi) o‘rtasida tuziladigan huquqiy hujjatdir.

Kontraktatsiya shartnomasi oldi-sotdi, vositachilik va boshqa shartnomalar kabi xo‘jaliklarning o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini realizatsiya qilish (sotish), uning huquqiy shakli hisoblanadi.

Kontraktatsiya shartnomasining huquqiy belgilari: birinchidan, konsensual bo‘lib, shartnoma taraflar o‘rtasida kelishilib (tuzilib) imzolangandan so‘ng darhol kuchga kiradi hamda muayyan huquq va majburiyat yuklaydi; ikkinchidan, u ikki tomonlama bo‘lib, unda xo‘jalik va tayyorlovchining huquq va majburiyatlari aks etadi; uchinchidan, u haq baravariga tuziladi, ya’ni yetkazib berilgan mahsulot evaziga ikkinchi taraf uning haqini to‘lashga majbur; to‘rtinchidan, shartnoma ham rejali, ham erkin kelishuv asosida bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishning ahamiyati. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllantirishda qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega. U respublikamizda ishlab chiqarishining asosiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimov qishloqda tub islohotlar o‘tkazish, qishloq xo‘jaligini taraqqiy ettirish, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbai ekanligi xususida o‘z asarlarida ko‘p bor ta’kidlab o‘tgan.

Haqiqatan ham, qishloq xo‘jaligi respublikamizda eng ustuvor soha, asosiy va hal qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qatnashayotganlarning soni 4 millionga yaqin kishini tashkil etadi. Lekin bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda.

Ma’lumki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnatga yaroqli aholi 5–6 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizda 50 foizga yaqin desak xato qilmaymiz. Rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichiga yetib olish uchun: respublikamizda birinchidan, qishloqda xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga keltirish va yuksaltirish; ikkinchidan, qishloq joylarida, qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlovchi, ixcham sanoat korxonalari va sexlarini vujudga keltirish; uchinchidan, qishloq aholisining mulk va mehnatga munosabatini o‘zgartirish, ular ongida xo‘jayinlik tuyg‘usini shakllantirish; to‘rtinchidan,

xalq xo‘jaligining xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini shakllantirish va unga qishloq aholisini jalb etish, u bilan shug‘ullanishning huquqiy tartibi va mexanizmini soddalashtirish taqozo etiladi.

Shartnomada taraflar. Kontraktatsiya shartnomasining taraflari bo‘lib, bir tomondan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi (xo‘jalik), ikkinchi tomondan esa mahsulot xarid qiluvchi (tayyorlov, savdo, qayta ishlovchi) – kontraktantlar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtiruvchi va yetkazib beruvchi xo‘jaliklar sifatida qishloq xo‘jalik shirkatlari, fermer va dehqon xo‘jaligi, kooperativlar, jamoa xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jalik tovari ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

Shartnomada kontraktantlar sifatida davlat buyurtmalarini amalga oshiruvchi tayyorlov, savdo, qayta ishlovchi idora, baza, korxona va boshqa tashkilotlar ishtirok etadi.

Shartnoma predmeti. Xom ashyo shaklidagi yoki dastlabki ishlov berilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomasining predmeti bo‘lib, hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganidek, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga (masalan, quruq meva va boshqalar) shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga asosan xo‘jaliklar tomonidan dastlabki ishlov berilgan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda shartnomada qayta ishlangan mahsulotning miqdori, assortimenti va topshirish muddatlari ko‘rsatiladi.

Shartnoma predmeti hisoblangan mahsulot shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan xo‘jalik tomonidan yetishtirilgan va qayta ishlangan bo‘lishi lozim. Jumladan, paxta, don, pilla, poliz ekinlari, sut, chorva mollari, parrandalar, quyonlar, ho‘l hamda quruq mevalar va boshqalar.

Shartnoma shakli. Kontraktatsiya shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuviga muvofiq imzolanadi va taraflar yuridik shaxs bo‘lsa, ularning muhri bilan yoki notarial idoralarda tasdiqlanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining alohida turlari bo‘yicha shartnoma tuzishda kontraktatsiya shartnomalarining namunaviy blankalaridan foydalaniladi. Ular O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo‘ladi. Lekin bu namunaviy shakldagi shartnomalar taraflar uchun majburiy xarakterga ega emas, ular tavsiyaviy xarakterga ega bo‘ladi. Kontraktatsiya shartnomasi taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

Shartnoma muddati. Kontraktatsiya shartnomasi xo‘jalik va tayyorlovchining kelishuviga ko‘ra, bir yildan besh yil muddatgacha tuzilishi mumkin.

Shartnoma shartlariga: mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (mahsulotlar turlari bo‘yicha), sifati, narxi, shartnomaning umumiy summasi, yetkazib berish tartibi va shartlari, mahsulotni topshirish, qabul qilish punktlari va davrlari (muddatlari) kiradi.

Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi. Kontraktatsiya shartnomasining ijrosini bir tomonlama rad etish va uning shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Shartnomani bekor qilish yoki uning shartlarini o‘zgartirish to‘g‘risida taklif olgan tomon taklif olingan kundan e’tiboran 5 kun mobaynida kechikmay javob berishga majbur. Agar u 5 kun mobaynida javob bermasa, taklif qabul qilingan deb hisoblanadi. Tomonlar shartnomani bekor qilish yoki uning shartlarini o‘zgartirish to‘g‘risida bir qarorga kelmasalar, tomonlar o‘rtasidagi nizoni hal etish uchun belgilangan tartibda xo‘jalik sudiga murojaat etiladi.

Mulkiy javobgarlikni belgilash tartibi. Kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning mulkiy javobgarligi normativ tartibda (qonun hujjatlari asosida) va shartnoma tartibida (taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida) belgilanadi.

Energiya ta’minoti shartnomasi. Energiya ta’minoti shartnomasiga muvofiq, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga (iste’molchiga) energiya berib turish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya haqini to‘lash, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan energiya iste’mol qilish tartibiga rioya etish, tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini hamda o‘zi foydalanadigan energiya iste’mol qiluvchi asbob va uskunalarning sozligini ta’minlash majburiyatini oladi (FK 468-m.).

Jamiyat taraqqiyotining o‘tgan asrlarga nisbatan XXI asr boshida jadal rivojlanishi shu darajaga yetdiki, bu davrda energiya ta’minoti iqtisodiyotni rivojlantirishning eng zarur vositasiga aylandi. Chunki hozirgi kunda mashina va asbob-uskunalar, uy-joy, qurilish va ishlab chiqarish obyektlarining barchasi energiyaga muhtoj bo‘lib qoldi. Shu sababli, iste’molchilarga energiya berib turishni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi energiya ta’minoti shartnomasi yuzaga keldi.

Energiyaga fuqarolik huquqining obyekti sifatida baho beradigan bo‘lsak, u oddiy, bo‘linadigan va iste’mol qilinuvchi ko‘char mulk

ekanligini ko‘ramiz. Shu bilan bir qatorda, energiya – ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz ishlab turishini ta’minlovchi manba ekanligi hamda undan tejamkorlik bilan foydalanish zarurligini his qilamiz.

Energiya ta’minoti shartnomasining asosiy huquqiy belgilari to‘g‘risida yana ta’kidlash joizki, bu shartnomalar iste’molchilar o‘rtasida rejali ravishda, haq baravariga tuziladigan, ikki tomonlama va konsensual shartnomalar guruhiga kiradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, energiya ta’minoti shartnomasi mahsulot va tovarlar yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomaga o‘xshab ketsada, ammo o‘ziga xos ba’zi belgilari bilan bu shartnomadan farq qiladi. *Birinchidan,* energiya ta’minoti shartnomasida qatnashuvchi taraf hisoblangan iste’molchining burchlari energiya manbaini qabul qilib olish, buning uchun belgilangan haqni to‘lash va energiya manbalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish majburiyatidan iborat bo‘lib, mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha mahsulot yoki tovar oluvchining burchlariga nisbatan birmuncha kengroq; *ikkinchidan,* bunday shartnomalar yuzasidan vujudga keladigan fuqaroviy-huquqiy munosabatlar ma’muriy-huquqiy munosabatlar bilan uzviy bog‘langan; *uchinchidan,* agar mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha shart-noma predmetidan lozim darajada foydalanish sharti qo‘yilmasa, energiya ta’minoti shartnomasida bunday shart albatta qo‘yiladi; *to‘rtinchidan,* boshqa shartnomalarda belgilanganidek, burchlarni real ravishda bajarish prinsipi bu shartnomalarda ma’lum darajada cheklanadi. Jumladan, shart qilingan muddatda berilmagan energiyani keyinchalik berish majburiyati ozod qilinishi mumkin. Bunday hollarda faqat jarima undirish bilan cheklanadi; *beshinchidan,* energiyani albatta to‘la miqdorda qabul qilish majburiyati iste’molchiga yuklatilmaydi va agarda iste’molchi energiyani shartnomada ko‘rsatilgan miqdordan kamroq olsa ham hech qanday mulkiy javobgarlikka tortilmaydi.

Energiya ta’minoti shartnomasini tuzish va muddatini uzaytirish. Energiya ta’minoti shartnomasida qatnashuvchi taraflardan biri energiya yoki gaz bilan ta’minlovchi tashkilot, ikkinchi tomondan iste’molchi tashkilot (abonent) bo‘ladi.

Energiya bilan ta’minlovchi tashkilot tuman energetika boshqarmasi bo‘lishi mumkin. Iste’molchi tashkilotlar mazkur energetika boshqarmasi bilan shartnomalar tuzish asosida energiya olib, o‘z navbatida mayda iste’molchi tashkilot va fuqarolarga sotadi. Jumladan, mayda iste’molchi tashkilot va fuqarolar kommunal elektr energiyasini shaharlarda elektr bilan ta’minlovchi idoralar orqali oladilar. Energiya ta’minoti

shartnomasining predmetini elektr energiyasi hamda issiqlik energiyasi, jumladan, issiq suv va bug‘ (par) tashkil qilishi mumkin.

Energiya ta’minoti shartnomasiga muvofiq, energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro abonent bo‘lgan taqdirda, abonent tarmoqqa belgilangan tartibda amalda birinchi marta ulangan paytdan boshlab, u bilan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Energiya ta’minoti shartnomasining muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o‘zgartirish haqida ariza bermasa, u shartnomada nazarda tutilgan muddatga va shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi. Shartnoma yangi muddatga uzaytirilganida uning shartlari taraflar kelishuviga binoan o‘zgartirilishi mumkin.

Agar taraflardan biri shartnomaning amal qilish muddati tugashidan oldin yangi shartnoma tuzish haqida taklif kiritsa, taraflarning o‘zaro munosabatlari yangi shartnoma tuzilgunga qadar avval tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Energiya miqdori, sifati va uning haqini to‘lash. Energiya ta’minoti shartnomasining mazmunini tashkil etuvchi zarur shartlari bo‘lib, energiya manbaining miqdori, sifati, yetkazib berish muddati, bahosi va hisob-kitob qilish tartibi hisoblanadi. Elektr va issiqlik energiyasi bilan ta’minlash shartnomasi bir yil muddatga tuziladi va shu muddat davomida beriladigan energiyaning umumiy miqdori ham shartnomada ko‘rsatiladi. Gaz bilan ta’minlash shartnomasida esa umumiy muddatlar (yillik va kvartal muddatlar)dan tashqari yana oylik va sutkalik muddatlar ham ko‘rsatiladi.

Energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro energiya ta’minoti shartnomasiga muvofiq abonent bo‘lgan taqdirda, u energiyadan o‘zi uchun zarur bo‘lgan miqdorda foydalanishga haqli hisoblanadi.

Elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari tok quvvati bilan, issiqlik energiyasi harorat, bug‘ va issiq suv bosim darajasi, gazning sifati esa bosim kuchi va kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi. Elektr va issiqlik energiyasi hamda gazning narxi O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan maxsus tariflar bilan belgilanadi.

Shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi. Energiya ta’minoti shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda energiya bilan ta’minlovchi tashkilot yoki abonent shu tufayli yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashi shart.

Agar energiya berishdagi uzilishlar quvvat va energiya yetishmasligi sababli, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot tomonidan qonun hujjatlari asosida iste’molni tartibga solish natijasida yuz bergan bo‘lsa, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot aybdor bo‘lgan taqdirdagina shartnoma

majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli darajada bajarmagani uchun javob beradi.

Energiya ta’minoti shartnomasining muhim shartlarini buzganlik uchun mulkiy javobgarlik maxsus qoidalarga muvofiq belgilanadi. Jumladan, ta’minotchi energiya quvvatini abonentga to‘la miqdorda yetkazib bermaganligi uchun jarima to‘laydi, ammo u o‘tgan muddatda berilmagan energiya va gazni keyinchalik yetkazib berishga majbur emas. Energiya ta’minoti shartnomasi o‘zining aynan shu belgisi bilan ham ko‘pchilik xo‘jalik shartnomalaridan tubdan farq qiladi.

Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasi va uning turlari. Ko‘chmas mulkni oldi-sotdi shartnomasiga binoan sotuvchi yer uchastkasi, bino, inshoot, kvartira yoki boshqa ko‘chmas mulkni sotib oluvchiga mulk qilib topshirishni o‘z zimmasiga oladi. Sotib oluvchi esa buning uchun tegishli haqni to‘lashi lozim. Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga asosan, ko‘chmas mulk yer osti boyliklari, ko‘p yillik dov-daraxtlar, shuningdek, binolar va inshootlardan iboratdir. Ko‘chmas mulkning muhim belgilaridan biri shuki, u yer bilan uzviy bog‘liq. Bunday bog‘liqlikning tabiiy holda (masalan, buloq, kon) yoki inson mehnati orqali (masalan, bino, quduq, bog‘ va shu kabilar) vujudga kelganligi ahamiyatga ega emas. Ko‘chmas mol-mulk yer bilan uzviy bog‘liqligi sababli ikkinchi bir belgisi yuzaga keladi, ya’ni mazkur mol-mulkni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish mumkin emas yoki ko‘chirish jarayonida qiyinchiliklar vujudga keladi. Uni bu qiyinchiliklar, eng avvalo, ko‘chmas mol-mulkni ko‘chirganida o‘z tabiiy xususiyatlarini yo‘qotishi, undan mo‘ljallangan maqsadi bo‘yicha foydalanib bo‘lmasligi, shaklan yoki jisman o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladi. Ko‘chmas mol-mulkning muhim belgisi sifatida uning alohida qiymatga ega ekanligi ham adabiyotlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, ba’zi mamlakatlar qonuniga ko‘ra dengiz va daryo kemalari, kosmik obyektlar (masalan, yerning sun’iy yo‘ldoshlari) ham ko‘chmas mol-mulk jumlasiga kiritilgan.

Ko‘chmas mol-mulkning quyidagi turlari mavjud:

a) mol-mulk majmui sifatida korxona;

b) turar-joy binolari;

d) yer osti qatlamida, yer bag‘rida joylashgan obyektlar (kon, shaxta, g‘or, yer osti suv havzalari va tonnellar);

e) joylashgan o‘rni yer sathi bilan mustahkam uzviy bog‘liq bo‘lgan obyektlar (bino, bog‘, inshoot, o‘rmon, ko‘l, daryo va ariqlar);

f) yer uchastkalari;

g) garchi yer bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, alohida qiymatga egaligi sababli, fuqarolik muomalasida ko‘chmas mol-mulkning huquqiy tartibi joriy qilingan obyektlar – dengiz, havo kemalari va fazo obyektlari.

Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasining shakli. Fuqarolik kodeksining 84-moddasiga asosan, ko‘chmas mulkka egalik qilish huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq mulk davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda mulkdorga mulkdor ekanligi haqidagi hujjat berish, shuningdek, uni maxsus davlat reyestrida qayd etish orqali amalga oshiriladi. Ko‘chmas mol-mulkning sotuvchisi, mulkdor sifatida tegishli hujjatga ega bo‘lishi, ko‘chmas mulkning o‘zi va mulkdori davlat reyestrida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi shart. Aks holda, u ko‘chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi sifatida qatnasha olmaydi. Qonunga asosan, ko‘chmas mol-mulkni sotish shartnomasi taraflar imzolagan yozma shakldagi bitta hujjat tarzida tuziladi (FK 480-m.). Bunda hujjatlarni almashish yo‘li bilan shartnoma tuzish mumkin emas. Yuqorida ta’kidlanganidek, shartnoma yozma shakldagi bitta hujjat sifatida mavjud bo‘ladi. Mazkur talablarga rioya qilmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi. Qonun talab qilgan hollarda ko‘chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasi notarial guvohlantirilishi lozim (masalan, korxona, turar-joy binolarining oldi-sotdi shartnomasi va hokazo). Fuqarolik kodeksining 481-moddasiga asosan, ko‘chmas mulkni sotish shartnomasiga binoan, ko‘chmas mulkka bo‘lgan mulk huquqining sotib oluvchiga o‘tganligi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Shartnomaning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shartnoma matniga vakolatli davlat idorasi tomonidan ustxat yozish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda sotib oluvchi mulkdor sifatida maxsus davlat reyestrida qayd etiladi va unga mulkdorlik huquqini tasdiqlovchi hujjat beriladi. Mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tganligi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgunga qadar taraflarning ko‘chmas mulkni sotish shartnomasini bajarishi ularning uchinchi shaxs bilan munosabatlarini o‘zgartirishi uchun asos bo‘lmaydi.

Agar taraflardan biri ko‘chmas mulkka bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan bo‘yin tovlasa, boshqa tarafning talabiga binoan sud mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli. Mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan asossiz ravishda bo‘yin tovlayotgan taraf boshqa tarafning ro‘yxatdan o‘tkazish kechikkanligi sababli ko‘rgan zararini qoplashi shart.

Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasining predmeti va bahosi. Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida shartnoma bo‘yicha sotib oluvchiga topshirilishi lozim bo‘lgan ko‘chmas mulkni aniq belgilash imkonini beradigan ma’lumotlar, shu jumladan, ko‘chmas mulk tegishli yer uchastkasida yoki boshqa ko‘chmas mulkning tarkibida qanday joylashganligini belgilash imkonini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi shart. Masalan, Yer kodeksining 18-moddasida belgilangan asoslar bo‘yicha xususiylashtirilgan yer uchastkasi sotilganda, u joylashgan hududdagi yerning toifasi, umumiy maydoni va chizma rejasi, inshootlar, turar-joy hisoblanmaydigan imoratlar sotilganda ularning manzilgohi, mo‘ljallangan maqsadi, maydoni, necha qavat ekanligi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Ko‘chmas mulk xususiy alomatlari bilan belgilanadigan mol-mulk bo‘lganligi sababli, uning aynan xuddi ana shu sifat xususiyatlari shartnomada aniq-ravshan belgilangan bo‘lishi kerak. Bu holat taraflar o‘rtasida har xil nizolar vujudga kelishining oldini oladi. Agar shartnomada ko‘chmas mulk haqida yuqoridagi ma’lumotlar bo‘lmasa, ko‘chmas mulk haqidagi shartni taraflar o‘zaro kelishib olmagan, shartnoma esa tuzilmagan hisoblanadi. Binobarin, ko‘chmas mulk sotish haqidagi shartnomaning muhim shartlaridan biri u, shartnoma predmeti va xususiy alomatlarining shartnomada belgilab qo‘yilishidir. Ko‘chmas mulkni sotish haqidagi shartnomada yana shu mulkning bahosi nazarda tutilgan bo‘lishi shart. Shartnomada taraflar yozma ravishda kelishgan ko‘chmas mulkning bahosi to‘g‘risida shart bo‘lmasa, uni sotish to‘g‘risidagi shartnoma tuzilmagan hisoblanadi. Chunki, taraflar ko‘chmas mulkning bahosi haqida o‘zaro kelishuvga erishgan va bu kelishuv yozma shaklda shartnomada o‘z ifodasini topgan bo‘lishi lozim. Agar shartnomada baho haqidagi shart mavjud bo‘lmasa, unga nisbatan Fuqarolik kodeksi 356-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan bahoni belgilash qoidasi qo‘llanilmaydi.

Agar qonunda yoki ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yer uchastkasida joylashgan bino, inshoot yoki boshqa ko‘chmas mulkning shartnomada belgilangan bahosi ana shu ko‘chmas mulk bilan birga topshirilayotgan yer uchastkasi, tegishli qismining bahosini yoki unga bo‘lgan huquqni o‘z ichiga oladi. Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida ko‘chmas mulkning bahosi uning maydon birligiga (masalan, 1 kv. m. ga 500 so‘mdan) yoki boshqa miqdor ko‘rsatkichi (masalan, bog‘da joylashgan mevali daraxtlar soni)ga qarab belgilangan bo‘lsa, bunday ko‘chmas mulkning to‘lanishi lozim bo‘lgan umumiy bahosi sotuvchiga topshirilgan ko‘chmas mulkning amaldagi miqdoriga asoslangan holda belgilanadi (FK 485-m. 1–2-q.).

Binobarin, bunday hollarda ko‘chmas mulkning umumiy bahosi belgilangan bo‘lishi shart emas. Masalan, 20 kv. m. kvartira sotilgan bo‘lib, har bir kvadrat metr uchun 10.000 so‘mdan baho kelishilgan va ma’qul narx shartnomada o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, kvartiraning bahosi 200.000 so‘m qilib belgilanadi.

Uy-joy binolarini sotishning xususiyatlari. Fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, tegishli sanitariya, yong‘inga qarshi va texnik talablarga javob beradigan binolar uy-joy deb e’tirof etiladi. Uy-joy ko‘chmas mulk hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 488-moddasida uy-joy binolarini sotishning xususiyatlari belgilab qo‘yilgan. Birinchidan, sotuvchi uy-joy binosini sotib olganidan keyin qonunga muvofiq undan foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladigan shaxslar yashab turgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini sotish shartnomasining muhim sharti – bu shaxslarning ro‘yxatini sotilayotgan uy-joy binosidan foydalanish huquqlari ko‘rsatilgan holda tuzishlari taqozo etiladi. Agar sotuvchi sotib oluvchidan bunday shaxslar mavjudligini yashirsa, oldi-sotdi shartnomasi ushbu turar-joydan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning da’vosiga ko‘ra, sud tomonidan haqiqiy emas, deb topiladi.

Shuningdek, uy yoki kvartirani, uyning yoki kvartiraning bir qismini sotish shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Chunki, uy-joy binolarini sotish haqidagi shartnomaning og‘zaki yoki oddiy yozma shaklda rasmiylashtirilganligi uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Korxonani sotish. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, korxona deb, yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, mulkchilik huquqi yoki xo‘jalikni to‘la yuritish huquqi bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko‘rsatadigan, raqobat hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o‘z faoliyatini ro‘yobga chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektga aytiladi.

Fuqarolik qonunchiligida korxona huquq subyekti bo‘lib hisoblanishi bilan birga, mulklarning majmuasi sifatida huquqiy obyekt bo‘lishi ham mumkin. Korxonani sotish ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi turlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 489-moddasida ko‘rsatilganidek, korxonani sotish shartnomasiga muvofiq sotuvchi sotib oluvchiga butun korxonani mulkiy majmua sifatida topshirish majburiyatini oladi. Mulkiy majmua bo‘lgan korxona tarkibiga uning faoliyati uchun mo‘ljallangan

barcha mulk turlari, shu jumladan, yer uchastkalari, binolar, inshootlar, uskuna, inventar, xom ashyo, mahsulot, talab qilish huquqi, qarzlar, shuningdek, korxonani, uning mahsuloti, ishlari va xizmatlarini aks ettiruvchi xususiy alomatlarga (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari)ga ega va boshqa mutlaq huquqlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, kiradi.

Fuqarolik huquqi obyekti sifatida korxona xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida mulk turi hisoblanadi.

Korxona fuqarolik obyekti sifatida ko‘chmas mulk tarkibiga kiritilganligi sababli, qonunda o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, korxonaning oldi-sotdi shartnomasiga ko‘chmas mulkni sotish va oldi-sotdi to‘g‘risidagi qoidalar tatbiq etiladi.

3. Hadya shartnomasi va uning ahamiyati

Hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o‘ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabini) beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni o‘zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi (FK 502-m.). Bunda mulk tekin topshiriladi, ya’ni hadya qiluvchining tasarrufida bo‘lgan ashyo hadya oluvchiga mulk sifatida o‘tkaziladi.

Bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borgan sari shartnomalarning mazmuni va ko‘lami kengayib bormoqda. Chunonchi, *1963-yildagi fuqarolik qonunchiligiga asosan, hadya shartnomasi* bir taraf (hadya qiluvchi) mulkni ikkinchi tarafning (hadya oluvchining) egaligiga tekinga topshirishi bilan belgilangan edi. Amaldagi Fuqarolik kodeksida esa, bu holat sezilarli takomillashtirildi. Buning natijasida yuqoridagi hadya predmeti doirasi kengaytirilib, u o‘z ichiga:

birinchidan, bir taraf boshqa tarafga tekinga mol-mulk qilib beriladigan ashyolarni;

ikkinchidan, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga o‘ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradigan yo berish majburiyatini olgan hollarda mulkiy huquqni;

uchinchidan, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ni o‘zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladigan yoxud ozod qilish majburiyatiga ega bo‘lgan hollarda ham mulkiy huquqni olishi mumkin.

Shartnoma real bo‘lsa-da, ayni vaqtda hadya qiluvchi hadya oluvchiga kelgusida hadya qilish majburiyatini beradi. Ammo barcha hollarda ham hadya shartnomasi vujudga kelavermaydi. Masalan, ashyo yoki huquq muqobil berilganida yo bo‘lmasa, muqobil majburiyat mavjud bo‘lganida shartnoma hadya deb tan olinmaydi (FK 502-m. 2-q.). Bunday shartnomalarga nisbatan, Fuqarolik kodeksining 250-moddasi, 124-moddasining 2-qismi qoidalari qo‘llaniladi.

Shuningdek, yuqoridagi *uchta holatga to‘rtinchi mustaqil holatni ham* kiritish mumkin. Ya’ni, biron-bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va’da qilish (hadya etishni va’da qilish), agar va’da tegishli shaklda berilgan bo‘lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi (FK 502-m. 3-q.).

Hadya shartnomasi bir tomonlama, real va tekinga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Shubhasiz, hadya bir tomonlama bitim bo‘lib, taraflarning o‘zaro kelishuviga asoslanadi. U hadya oluvchining taklif qilingan mulkiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalanadi va aynan shu belgisi bilan hadya qarz shartnomasidan farq qiladi.

Fuqarolik qonunchiligida hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnoma tan olinmaydi. Bunday hadyaga nisbatan vasiyatnoma to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi. Hadyaning vasiyatnomadan farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining tirikligida topshiriladi, bu uning mulki kamayishiga olib keladi. Vasiyatnoma esa insonning hayotligida mavjud mulkiy huquqlarida aks etmaydi. Vasiyatnoma bekor qilinishi, o‘zgartirilishi mumkin, biroq hadya qoida tariqasida, orqaga qaytmaydi. Hadyani shartnoma deyish mumkin, vasiyatnoma esa odatda bir tomonlama bitim bo‘lib ko‘riladi.

Hadya shartnomasining predmeti fuqarolik muomalasidagi ob’yektlar ashyolar, mulkiy huquqlar, ko‘char va ko‘chmas mulklar bo‘lishi mumkin.

Ba’zi hollarda shartnoma hadya qiluvchining o‘zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilish yoki ozod qilish majburiyatini olish orqali amalga oshiriladi. Bunday holda shartnomaning tuzilish vaqti mulk huquqining o‘tish davri bilan mos kelmasligi mumkin. Bunda majburiyat huquqi munosabatlari vujudga keladi, uning mazmunida hadya qiluvchi o‘z mulkini kamaytirish hisobiga hadya oluvchini boyitish yotadi. Shartnomada hadya predmeti aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Noma’lum ashyoni hadya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki ular hech qanday huquqiy

ahamiyatga ega emas. Hadya oluvchini qarzdan ozod qilish haqida qilingan va'dada ham ushbu qarz summasini aniq ko'rsatish lozim.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Umumiy holda hadya qilish, ya'ni hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha, hadyani topshirish, taqdim qilish uni ramziy topshirish (masalan, yangi kvartira yoki avtomobil kalitini topshirish yoxud mulkiy huquqni guvohlantiruvchi biron-bir hujjatni taqdim etish yo'li) bilan amalga oshiriladi.

Ko'char mulklar bo'yicha quyidagi hollarda hadya shartnomasi yozma shaklda tuziladi:

– hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;

– fuqarolar o'rtasida eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganida;

– shartnoma bo'yicha kelajakda hadya qilish va'da qilingan hollarda.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Hadya shartnomasi odatdagi shartnomalardan ba'zi huquqiy belgilariga ko'ra farq qiladi. Buni mazkur turdagi shartnomaning haqiqiy sanalmasligi hollarida ham ko'rish mumkin. Bitimlarning haqiqiy sanalishi uchun odatda qo'yiladigan shartlardan tashqari, hadyada, birinchidan, ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklidagi hadya ashyosini (predmetini) aniq ko'rsatish kerak; ikkinchidan, hadya predmeti hadya oluvchiga hadya qiluvchining tirikligida topshirilishi kerak. Shuningdek, yuqoridagi uchta holat bo'yicha tuzilgan shartnomalar, albatta, oddiy yozma shaklda tuzilishi, ko'chmas mulklarni hadya qilish esa, ayni paytda, notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ham kerak.

Haqiqiy sanalmaslik holati hadya oluvchining nomi va predmeti ko'rsatilmagan hadyani vakil tomonidan amalga oshiriluvchi ishonch-nomalarga ham taalluqli.

Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari. Shartnomada qatnashuvchi taraflar hadya qiluvchi va hadya oluvchi deb atalib, ular o'z navbatida fuqaro, yuridik shaxs yoki davlat ham bo'lishi mumkin. Hadya fuqaroviy-huquqiy xarakterdagi shartnoma bo'lganligi bois, hadya qiluvchi va hadya oluvchi muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Ba'zan muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuzadilar.

Ayni paytda qonunchilikda istisnoli holatlar ham bo'lib, qonunga asosan, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat

ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar (FK 29-m. 2-q. 2-b.). O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘zlari mustaqil ravishda hadya qiluvchi va hadya oluvchi sifatida qatnashib, shartnomani o‘z stipendiyalari, ish haqlari va qonunda ko‘zda tutilgan boshqa daromadlari miqdorida tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ashyolarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlarni amalga oshirish uchun u qonuniy vakillarining roziligini olishi kerak. Chunki hadya ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazishi, yashirin daromadlarga ega bo‘lishiga olib kelishi, pirovardida ularning huquqlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ayrim shaxslarga nisbatan hadya shartnomasini tuzishda rad qilish va Fuqarolik kodeksining 505-moddasi tartibida cheklash belgilab qo‘yilgan.

Qonun er va xotinlar o‘rtasida hadya shartnomasi tuzilishini cheklamaydi. Hadya qilingan mol-mulk, ashyo yoki mulkiy huquq hadya oluvchining shaxsan o‘zigagina tegishli bo‘ladi. Aytaylik, er-xotinning nikoh davomida (yoki nikohga qadar) hadya hisobiga orttirgan mol-mulklari ulardan har birining o‘z mulki hisoblanadi. Binobarin, undan haq undirish yoki boshqacha tarzda o‘zlashtirishga faqat mulkdorning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Xayr-ehson. Rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarida turli-tuman shartnomalar vujudga kelmoqda. Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvlarning huquqiy ifodasi, shakli sifatida fuqaroviy-huquqiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutmoqda. Ana shunday shartnomalardan biri xayr-ehsondir.

Xayr-ehson hadyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda qilinadigan hadya umum foydali maqsadlarga xizmat qilishi bilan farqlanadi. Demak, xayr-ehson keng ommaning umum foydali maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi. Qonunchilik xayr-ehson, asosan, notijorat subyektlariga (davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalari, xayriya ilmiy muassasalari, fondlar, muzeylar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar va boshqa shunga o‘xshash subyektlarga), shuningdek, fuqarolarga va davlatga qilinishi mumkinligini belgilaydi. Xayr-ehson qilingan mol-mulk kelgusida uni qabul qilib olgan shaxsning mablag‘lari jumlasiga kiradi va uning operativ boshqaruviga o‘tadi. Jumladan, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi amaldagi qonunning 24-moddasi hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 15-moddasi mazmuniga ko‘ra, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr-ehsonlari mazkur yuridik shaxslar mol-mulkining tashkil topish manbalaridan hisoblanadi va ular tomonidan tegishli tartibda mustaqil tasarruf etiladi.

Xayr-ehsonning predmeti fuqarolik muomalasida bo‘lgan ob’yektlar, ya’ni pul, qimmatli qog‘oz, mol-mulk, ashyo, bino, inshoot (yoki uning bir qismi), avtomobil va hokazolar bo‘lishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning (ya’ni, uchinchi shaxsning) ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi.

Mulkni xayr-ehson qilish quyidagi bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi:

birinchidan, xayr-ehson qiluvchi mulkni topshirayotganda undan ma’lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo‘yishi lozim. *Masalan,* «xayr-ehson qilingan uy-joydan faqat bolalar yaslisi uchun foydalanish lozim»ligini shart qilishlari mumkin. Bunday shart qo‘yilmasa, u oddiy hadya deb hisoblanadi va xayr-ehson qilingan mol-mulkdan hadya oluvchi uning vazifasiga muvofiq foydalanadi;

ikkinchidan, aniq maqsadda foydalanishga mo‘ljallangan xayr-ehsonni qabul qilib olayotgan yuridik shaxs xayr-ehson qilingan mulkdan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning alohida ro‘yxatini yuritishi lozim;

uchinchidan, vaziyat o‘zgarganligi bois bunday mol-mulkdan ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lmasa, undan boshqa maqsadda faqat xayr-ehson qiluvchining roziligi bilan, mol-mulkni xayr-ehson qilgan fuqaro vafot etgan bo‘lsa yoki mulkni xayr-ehson qilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoxud tugatilgan bo‘lsa, sudning qaroriga muvofiq foydalanish mumkin.

Fuqarolik kodeksining 511-moddasiga ko‘ra, xayr-ehson qilingan mulkdan ko‘rsatilgan maqsadga zid holda foydalanish yoki ushbu maqsadni mazkur modda oltinchi qismining qoidalarini buzgan holda o‘zgartirish xayr-ehson qiluvchiga, uning merosxo‘rlariga yoki boshqa huquqiy vorisiga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

4. Ayirboshlash shartnomasi va uning ahamiyati

Ayirboshlash shartnomasi tovar va pul munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyotida muayyan ahamiyatga ega. Shu bois u amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida o‘zining huquqiy asoslariga ega. **Ayirboshlash** barter deb ham yuritiladi.

Ayirboshlash deb shunday shartnomaga aytiladiki, unga ko‘ra shartnomada qatnashuvchi har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo‘li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi (FK 497-m.). Uning mohiyati shundaki, shartnoma predmeti bo‘lgan biror-bir tovar ikkinchi tarafning mazkur tovar qiymatini umumiy ekvivalent bo‘lgan yoki unga deyarli teng keladigan boshqa bir tovariga ayirboshlanadi. Demak, mazkur huquqiy munosabat odatdagi shartnoma, masalan, oldi-sotdi yoki mahsulot yetkazib

berish shartnomalari kabi taraflarga ushbu shartnoma orqali kelishi mumkin bo‘lgan muayyan pul summalariga talab ehtiyojlaridan emas, balki bevosita mazkur shartnomaning predmeti bo‘lgan tovarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Biroq bu shartnoma ko‘p hollarda, subyektlar o‘rtasida hisob-kitoblar yo‘lga qo‘yilmagan yoki o‘zaro ishonch bo‘lmagan inflyasiya sharoitida keng qo‘llaniladigan shartnomalardan biri bo‘lib qolmoqda. Rivojlangan bozor tizimida u ahyon-ahyonda qo‘llaniladi.

Shartnomaning yana bir xususiyati shundaki, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, ayirboshlanayotgan tovarlar teng qiymatli deb taxmin qilinadi. Ayni paytda tovarni topshirish va uni qabul qilish xarajatlarini esa har bir holda tegishli majburiyatlarni bajaradigan taraf amalga oshiradi. Shubhasiz, boshqa shartnomalarda bo‘lgani singari ayirboshlashda ham uning predmeti hisoblangan tovarning bahosi muayyan ahamiyatga ega. Ba’zan amaliyotda ayirboshlash predmetining qiymati bir xil bo‘lmaydi. Bunday hollarda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo‘lgan tovarni topshirayotgan taraf, agar shartnomada haq to‘lashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovar yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlari topshirilgandan so‘ng kechiktirmasdan baholardagi farqni to‘lashi lozim bo‘ladi. Agar qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, qarzdor hisoblangan taraf bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart (FK 242-m.).

Ayrim hollarda tovarlar o‘rtasidagi yuqorida tilga olingan farq doimo aniq belgilanavermaydi. Bunday hollarda shartnomani bajarganlik uchun mazkur vaziyatlarda, odatda, shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baholar – haq to‘lanishi kerak. Aynan bunday hollarda ish muomalasi odatlari, ya’ni Fuqarolik kodeksining 6-moddasi tartibida odatdagi huquq normalari qo‘llaniladi.

Ayirboshlash shartnomasi quyidagi huquqiy belgilari bilan farqlanadi:

birinchidan, ayirboshlash konsensual shartnoma hisoblanadi, ya’ni unga ko‘ra taraflarning huquq va burchlari shartnoma qonun talablari doirasida rasmiylashtirilgan paytda vujudga keladi;

ikkinchidan, ayirboshlash haq evaziga tuziladigan shartnomadir, ya’ni shartnoma bo‘yicha taraflar zimmasiga muqobil ijro majburiyatlarini bajarish yuklangan bo‘lib, ya’ni tovarlar o‘zaro ayirboshlanadi, shuningdek, tovarlar qiymati teng bo‘lmaganda – qiymat o‘rtasidagi farq pul shaklida to‘lanadi;

uchinchidan, ayirboshlash ikki tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. Shartnoma ishtirokchilarining har biri bir vaqtning o‘zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi hisoblanadilar. Demak, har ikki taraf ham huquq, ham burchga

ega bo‘ladi. Bu shartnomaning mohiyatidan, aniqrog‘i, taraflar o‘rtasidagi o‘zaro huquq va burchlarga egalik nisbatidan kelib chiqadi;

to‘rtinchidan, ayirboshlanadigan mulkning egasidagi mulk huquqi (egallash, foydalanish, tasarruf etish huquqi) ikkinchi tarafga o‘tadi va aksincha. Shartnomaning muhim jihatlaridan biri – ayirboshlanadigan tovarlarga bo‘lgan mulk huquqining ikkinchi tarafga qachondan boshlab o‘ta boshlashidir. Agar qonunda yoki ayirboshlash shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ayirboshlanadigan tovarlarga mulk huquqi ayirboshlash shartnomasiga muvofiq sotib oluvchi hisoblanadigan taraflarga ikkala taraf tegishli tovarlarni topshirish majburiyatini bajarganidan so‘ng bir vaqtda o‘tadi (FK 500-m.).

Ayirboshlash shartnomasining predmeti muayyan moddiy qiymatga ega hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo‘la oladigan, ayni paytda kishilarning u yoki bu ehtiyojlarini qondira oladigan narsalar, ya’ni ashyolar bo‘la oladi. Ashyolar ishlab chiqarish vositalari va iste’mol buyumlari, ko‘char va ko‘chmas mulk shakllarida bo‘lishi mumkin. Biroq, eng muhimi, ashyolarning fuqarolik muomalasida bo‘lishi masalasidir. Fuqarolik kodeksining 82-moddasiga ko‘ra, fuqarolik huquqining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo‘lishi cheklab qo‘yilmagan bo‘lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi mumkin.

Ayirboshlash shartnomasining predmeti bo‘lishi uchun ashyolar mulk huquqi asosida mulkdorlarning haqiqiy egaligi, foydalanuvi va tasarrufida bo‘lmog‘i kerak (FK 164, 207-m. tartibida). Masalan, fuqaro M. 2004-yil 1-sentabrda fuqaro N. bilan ayirboshlash shartnomasini tuzdi. Shartnomaga muvofiq, N. hovlisini M. hovlisining 1/3 qismiga almashdi. M. ning qizi A. 2004-yil 1-dekabrda sudga murojaat qilib, uyning yarmi o‘ziga tegishli ekanligini va otasi uning roziligisiz hovlining bir qismini almashtirganligini ko‘rsatib, mazkur shartnomani bekor qilishni so‘radi. U o‘z talabini asoslash uchun uyning bir qismi onasidan meros ekanligini, hali otasi bilan bo‘lib olmaganligi sababli, uyni almashtirish natijasida egalik huquqining buzilganligini ko‘rsatadi. Albatta, bunday hollarda sud fuqaro A. ning talabini qondirishi lozim.

Yoki quyidagi misolni ko‘raylik, fuqaro K. egasiz turar-joyga halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan va u 2004-yil 1-aprel kuni bu uyni fuqaro D. ga qarashli avtomobil bilan ayirboshlash to‘g‘risida shartnoma tuzgan. Aniqlanishicha, K. bu uyga 1992-yilning 1-yanvaridan to 2004-yilning 1-apreligacha, ya’ni 12 yil davomida egalik qilgan. Fuqarolik kodeksining 187-

moddasi talablariga ko‘ra, bu muddat 15 yilni tashkil etishi lozim edi. Demak, fuqaro K. da hali bu uy-joyga nisbatan mulk huquqi vujudga kelmagan, binobarin, u mazkur obyekt yuzasidan shartnomada taraf sifatida ishtirok eta olmaydi.

Shartnomada sotuvchi va oluvchi bo‘lib fuqarolik huquqining barcha subyektlari, shu jumladan, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar hamda davlat tuzilmalari ishtirok etishlari mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida ba’zi hollarda tovar ishlab chiqaruvchi (tadbirkorlar) bilan iste’molchi o‘rtasida fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi asoslardan biri sifatida barter ayirboshlash shartnomasi qo‘llaniladi. Barter inglizcha «bagteg» so‘zidan olingan bo‘lib, «bevosita tovar almashuvi» ma’nosini bildiradi. U, ayniqsa, bozor tizimiga o‘tish davrida, o‘zaro hisob-kitoblar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan davr uchun birmuncha xarakterlidir. Valuta beqaror bo‘lgan hozirgi zamon xalqaro savdosida barter shartnomasi yanada keng tarqalmoqda. Barter bitimi vaqtida pul to‘lovlarining yo‘qligi tovar yetkazib berish baholarini va ularni pul shaklida hisobga olishni istisno qilmaydi. Barter bitimi tushunchasi ayirboshlash shartnomasida vujudga keluvchi majburiyatlar mazmunini to‘la qamrab ololmaydi yoki unga to‘la javob berolmaydi, degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, shartnomada taraflar sifatida jismoniy va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.

Yuridik shaxslarning bu boradagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barter asosida amalga oshiriladigan, eksport-import operatsiyalari bo‘yicha tartib buzilishlari va suiiste’molliklarga chek qo‘yish to‘g‘risida»gi 1993-yil 9-iyul farmoni bilan mustahkamlangan. Unga ko‘ra, kelishilgan miqdordagi bir tovarni boshqa bir tovarga o‘zaro hisob-kitoblarni valutada amalga oshirmasdan almashtirishni nazarda tutuvchi shartnoma barter shartnomasi hisoblanadi. Shartnomada o‘zaro yetkazib beriladigan tovarlarning miqdori va qiymati yoxud tomonlar ekvivalentlik asosida yetkazib berish majburiyatini olgan tovarlarning summasi oldindan kelishib qo‘yiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, shartnomada taraflar bir paytning o‘zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi sifatida qatnashadi. Shuning uchun ham shartnomada qatnashuvchi taraflar deyarli bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha taraflar:

birinchidan, ayirboshlanayotgan tovarni o‘z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilib olish;

ikkinchidan, qabul qilingan tovar evaziga ayirboshlanishi lozim bo‘lgan tovarni o‘z vaqtida topshirish;

uchinchidan, topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti yaxshi bo‘lishini ta’minlash kabi majburiyatlarga egadirlar.

Ayni paytda, taraflar quyidagi huquqlarga ega:

birinchidan, shartnoma majburiyatlarini muqobil bajargan taraflar ikkinchi tarafdan tovarning topshirilishini talab qilishga haqli;

ikkinchidan, shartnoma shartlari qo‘pol ravishda buzilgan bo‘lsa, xususan, sifatsiz tovar ayirboshlangan yoki tovarni topshirish muddati uzrsiz uzoq muddatga kechiktirilgan hollarda bir taraf shartnomani bekor qilishga haqli;

uchinchidan, ayirboshlash shartnomasi shartlari ikkala taraf tomonidan to‘liq bajarilgan bo‘lsa, har ikkisida ham tovarlarga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

Shartnomaning shakli, muddati. Shartnoma bo‘yicha taraflarning javobgarligi. Ayirboshlash shartnomasi, odatda, fuqarolar o‘rtasida tuzilganda va shartnoma predmetining bahosi Respublikada o‘rnatilgan eng kam oylik ish haqining o‘n baravarigacha bo‘lgan hollarda og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin. Shuningdek, yozma shaklda tuzilgan shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin (FK 106-m. 3-q.). Qolgan hollarda, ya’ni yuridik shaxslarning o‘zaro yoki fuqarolar bilan tuzgan bitimlari, ya’ni fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlari yozma shaklda tuziladi. Ba’zi hollarda shartnomaning predmeti yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mulklar bo‘lganda, bunday bitimlar notarial tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi talab qilinadi (FK 110, 111-m.). Shubhasiz, shartnoma shakliga doir yuqoridagi talablarga rioya qilmaslik bir qancha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (FK 109, 112-m.).

Ayirboshlash shartnomasining muddati bevosita taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Shartnoma bo‘yicha javobgarlik oldi-sotdi shartnomasidagi javobgarlikka juda o‘xshab ketadi. Umumiy holda Fuqarolik kodeksining 393-moddasiga ko‘ra, sotuvchi tovarni sotib oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirishi shart, deb belgilab qo‘yilgan. Qonunda agar topshirilgan tovarni sotib oluvchidan uchinchi shaxslar olib qo‘yadigan bo‘lsa, sotuvchi tarafning bevosita javobgarligi belgilab qo‘yilgan. Qonunga ko‘ra, ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha olgan tovarini uchinchi shaxslar olib qo‘ygan taraf, Fuqarolik kodeksining 395-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, boshqa tarafdan ayirboshlash asosida olingan tovarni qaytarishni va (yoki) zararning qoplanishini talab qilishga haqli (FK 501-m.). Bu o‘rinda, ayirboshlanayotgan tovarni uchinchi shaxslar huquqidan ozod qilmasdan

ayirboshlash keyinchalik bunday harakatni amalga oshirgan tarafning javobgarligini keltirib chiqaradi. Biroq shuni esda tutish kerakki, sotib oluvchi uchinchi shaxslarning huquqlari bo‘lgan tovarni qabul qilishga rozilik bergan hollar bundan mustasno.

Umuman, ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha ko‘p hollarda oldi-sotdiga doir qoidalar qo‘llanilgani bois, bu haqdagi normalar oldi-sotdi shartnomasiga bag‘ishlangan bobda batafsil keltirilgan.

Qonunda belgilanganidan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma bo‘yicha ayirboshlash natijasida ham javobgarlikning boshqa turlari nazarda tutilishi mumkin, ya’ni ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha javobgarlik faqat bir tomon emas, balki har ikki tomon uchun ham yuzaga kelishi mumkin.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Shartnomaning namunaviy shartlari va qoidalari nimalardan iborat?
2. Shartnomaning asl ma’nosini sharhlashning mohiyati va ahamiyatini so‘zlab bering.
3. Majburiy tartibda shartnoma tuzish asoslarini qayd eting.
4. Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish asoslari qanday vujudga keladi?
5. Oldi-sotdi shartnomasida tovarning bahosi va uning haqini to‘lashning ahamiyatini so‘zlab bering.
6. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tganda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning ahamiyatini tasniflang.
7. Sotiladigan korxona tarkibini aniqlash va qiymatini baholashning mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.

10-MAVZU.
MULK IJARASI SHARTNOMASI

1. Mulk ijarasi shartnomasi va uning qo‘llanish sohasi.
2. Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari.
3. Mulk ijarasi shartnomasining alohida turlari va o‘ziga xos xususiyatlari.

1. Mulk ijarasi shartnomasi va uning qo‘llanish sohasi

Hozirgi bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida mulk ijarasi bilan bog‘liq munosabatlar tobora rivojlanib, ko‘lami yanada kengayib bormoqda.

Lekin ijara bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida kelib chiqqan butunlay yangi huquqiy munosabat emas, albatta. Ijara mamlakatimizda ilgari ham mavjud bo‘lgan va tegishli qonun-qoidalar bilan tartibga solingan. Ammo bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni mulk ijarasi bilan bog‘liq munosabatlarning yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Endilikda «ijara», «ijarachi» va «ijaraga beruvchi» degan iboralar va tushunchalar kundalik turmushda keng qo‘llanilmoqda, chunki ijara jamiyatning hamma sohalariga tobora chuqurroq kirib bormoqda.

Ayniqsa, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish shakllari orasida ijara munosabatlari sezilarli o‘rin egallamoqda. Mulkchilikda yangicha munosabatlarning vujudga kelishi tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazishga, xo‘jalikni har tomonlama samarali yurgizishga yordam bermoqda.

Ijara – mulk egasining o‘zaro kelishuviga muvofiq, ishlab chiqarish vositalari va boshqa buyumlarini muayyan to‘lovlar evaziga vaqtincha foydalanish uchun boshqa birovga topshirish. Mulk egasi (ijaraga beruvchi) o‘z mulkini boshqa birovga (ijarachiga) ishlatish yoki foydalanish uchun beradi. Ayni vaqtda har ikkala tomon foyda olishni ko‘zda tutadi.

Ijara shartnomasi deb bir taraf ijaraga beruvchi, ma’lum bir mulkni ikkinchi taraf, ya’ni ijaraga oluvchiga haq baravariga vaqtincha foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Ijarachi shartnoma muddati tugashi bilan ijara mulkini qaytarishga majbur.

Mulk ijarasi shartnomasi *arenda* yoki *prokat* deb ham ataladi. Ijaraning ana shunday atalishi shartnoma obyektining bir joydan ikkinchi joyga koʻchirish mumkin yoki mumkin emasligiga qarab belgilanadi.

Agar mulkni bir joydan ikkinchi joyga koʻchirib boʻlmasa, masalan, turar-joy boʻlmagan binolar, savdo uylari, saroylar va shunga oʻxshashlar ijaraga olinganida odatda «*arenda shartnomasi» tushunchasi yuritiladi.*

Ijara obyekti bir joydan ikkinchi joyga koʻchirilishi mumkin boʻlgan va fuqarolarning maishiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan ashyolar, ya'ni sport buyumlari, uy-roʻzgʻor buyumlari va shunga oʻxshash boshqa mulklar ijaraga berilganida «prokat» deb ataladi. Ushbu atamalar huquqiy jihatdan bir-biridan tubdan farq qilmaydi.

Tomonlar shartnoma shartlariga rozi boʻlib, oʻzaro kelishgan va uni belgilangan shaklda rasmiylashtirganlaridan soʻng ularning har qaysilarida aniq huquq va shunga yarasha burch paydo boʻladi.

Ijaraga beruvchi ashyoni ma'lum muddatga foydalanish uchun ijaraga oluvchiga berish majburiyatiga, ijaraga oluvchi shartnoma boʻyicha kelishilgan ashyoni oʻziga topshirishni talab qilish huquqiga, ijaraga beruvchi buning uchun haq olish huquqi, ijaraga oluvchi esa haq toʻlash majburiyatiga ega boʻladi. Huquq va burchlar bir-biriga qarama-qarshidek koʻrinsada, ular bir maqsad sari yoʻnaltirilgan boʻladi.

Mulk ijarasi shartnomasi oʻziga xos belgilarga ega. Masalan, ijara shartnomasi boʻyicha ijarachiga mulkka egalik qilishning ikki – mulkni egallash va undan foydalanish huquqlari oʻtib, mulkni tasarruf etish huquqi esa mulk egasida qoladi. Mulk ijarasi shartnomasi mamlakatimiz iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida tuzilmoqda.

Chunonchi, undan tashkilotlar oʻrtasidagi qurilish uskunalari va qishloq xoʻjalik mashinalarini ijaraga berishda, savdo binolari, maishiy xizmat va umumiy ovqatlanish maskanlari, kino qurilmalari hamda kinolentalarni ijaraga olishda, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa sohalarida keng foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan ma'lum bir haq evaziga tuziladi.

Ijara shartnomasi tomonlar oʻrtasida tuzilayotganida, ular, asosan, oʻzaro foyda olishni maqsad qilib qoʻyadilar, shu tufayli ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzadilar va bunda qonun talablariga rioya qiladilar hamda shunga koʻra, oʻzaro teng huquq va majburiyatlarga ega boʻladilar.

Shartnoma – ijarachi va ijaraga beruvchining oʻzaro munosabatlari aks ettirilgan asosiy hujjatdir.

Shartnomada ijarachiga beriladigan yer va buyumlar ro‘yxati, ularning qiymati aniq ko‘rsatiladi. Shuningdek, unda yana ijara muddatlari, ijara to‘lovi va boshqa to‘lovlar, ijaraga olingan buyumlarga nisbatan tomonlar majburiyati, ijaradagi ishlab chiqarishni moddiy texnika bilan ta’minlash shartlari, ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish va yangi texnika joriy etish tadbirlarining ijtimoiy rivojlanish masalalari, kadrlar tayyorlash masalalari, tuproq unumdorligini oshirish, chorva mollari zotini yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari, tabiiy ofatdan kelgan zararlarni qoplash tartiblari, olingan o‘zaro majburiyatlarni bajarmaganligi yoki uni buzganligi uchun tomonlarning moddiy javobgarligi turlari va miqdori ijara muddati tugaganida uni qayta yangilash uchun kafolatlar va hokazolar ko‘rsatiladi.

Ijara narsasi (predmeti). Shartnoma obyekti iste’mol qilinmaydigan va xususiy alomatlari mavjud ashyolardir. Ijara ashyolari bo‘lib, uy-ro‘zg‘or buyumlari, sport buyumlari, muzika asboblari, transport vositalari, qurilish mashinalari, turar-joy bo‘lmagan kichik hujralar, omborlar, garajlar, savdo binolari va shu kabi boshqa inshootlar hisoblanadi. Ijara obyekti, ayniqsa, respublikamizning «Ijara to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq yanada ko‘paydi. Jumladan, qishloq xo‘jaligida yer-bog‘lar va tokzorlar, o‘rmonzorlar, hovuzlar, ko‘llar, chorva mollari va parrandalar, korxona, birlashma, tashkilotlar, fermalar, asalari uyalari, ustaxonalar, garajlar, g‘isht zavodlari, qayta ishlovchi sexlar, punktlar, tegirmonlar, xirmonjoylar, yonilg‘i quyish shahobchalari, omborxonalar, traktor, kombayn, avtomobillar, tirkama, osma mashinalar hamda mexanizmlar, dastgohlar, asbob-uskunalar ijara obyekti hisoblanadi. Shuningdek, arava, chang‘i, egar-jabduqlar, texnika jihozlari, inshootlar, binolar, yo‘llar, madaniyat uylari, klublar, kutubxonalar, bolalar bog‘chalari, yaslilar, stadionlar va sport maydonchalari ham ijaraga beriladigan bo‘ldi.

Agar maishiy turmushda foydalaniladigan zarur ashyolar ijaraga berilsa, bunda prokat shartnomasi tuziladi.

Maishiy prokat shartnomasida taraf sifatida prokat punkti va fuqarolar qatnashadilar.

Mulk ijarasi shartnomasi belgilangan muddatga tuziladi. Agar muddat shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma noaniq muddatda tuzilgan hisoblanadi. Shartnomani bekor qilishni xohlagan taraf ikkinchi tarafni bir oy oldin, agarda ko‘chmas mulk ijaraga berilgan bo‘lsa, uch oy oldin ogohlantirib, shartnomani bekor qilishi mumkin. Qonun yoki shartnomada

noaniq muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasini bekor qilish haqida ogohlantirishning boshqa muddatlari ham belgilanishi mumkin.

Qonunda mulk ijarasining ayrim turlari uchun, shuningdek, mulkning ayrim turlarini ijaraga olish uchun eng ko‘p (oxirgi) muddatlar belgilangan bo‘lishi mumkin. Basharti ijara muddati shartnomada belgilanmagan bo‘lsa va qonunda belgilangan oxirgi muddat tugaguncha taraflardan hech qaysisi shartnomadan voz kechmasa, bu holda oxirgi muddat o‘tishi bilan shartnoma bekor bo‘ladi. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Ijaraga oluvchi ham, ijaraga beruvchi ham shartnomaga muvofiq ma’lum huquq va burchlarga ega. Ijaraga beruvchining asosiy majburiyati mulkni shartnoma shartlari va mulkning vazifasiga muvofiq holda ijarachiga topshirishdan iborat.

Mulkni ijaraga berish uchun tayyorlash hamda topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolashga taqdim etish ijaraga beruvchining burchi hisoblanadi. Agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, mulk barcha mansub ashyolari va unga aloqador hujjatlar (texnik pasport, sifat sertifikati va hokazolar) bilan birga ijara oluvchiga topshiriladi. Mansub ashyolar yoki tegishli hujjatlar ijara mulkiga qo‘shib topshirilmasa va buning natijasida ijaraga oluvchi ijara mulkidan uning o‘z vazifasiga muvofiq foydalana olmasa, u mazkur mansub ashyolar va hujjatlarning topshirilishini yoxud shartnomani bekor qilib, o‘ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga ijaraga berilgan mulkni shartnomada belgilangan muddatda, basharti shartnomada bunday muddat belgilanmagan va ijaraga beruvchi mulkni maqbul muddatda topshirmagan bo‘lsa, ijaraga oluvchi Fuqarolik kodeksining 331-moddasiga muvofiq, bu mulkni undan talab qilib olish va ijroning kechikkanligi tufayli yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish yoki shartnomani bekor qilish va uning bajarilmaganligi sababli yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Ijarachi ijaraga olingan mulkka nisbatan faqat mulkni egallash va undan foydalanish huquqiga ega. Mulkni tasarruf etish huquqi ijarachiga o‘tmaydi. Shu sababli Fuqarolik kodeksining 545-moddasida belgilanganidek, ijaraga oluvchi ijara mulkidan shartnomaga muvofiq, agar bunday shartlar shartnomada belgilangan bo‘lmasa, mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishi lozim.

Agar mulk ijaraga olinadigan bo‘lsa, ijaraga oluvchi mulkdan qay tarzda foydalanish zarurligiga oid belgilangan qoidalar bilan tanishtirilishi, ushbu mulkdan faqat shartnomada ko‘rsatilgan maqsad uchun foydalanishi hamda ijaraga beruvchining ruxsatisiz boshqa shaxslarga ijaraga berilmasligi xususida ogohlantirilishi lozim.

Ayrim hollarda ijaraga olingan mulk yana ijaraga topshirilishi mumkin. Bu ikkilamchi ijara deb ham ataladi.

Ikkilamchi ijara ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa mulkning bir qismini yana boshqa ijarachiga berishdir. Mazkur ikkilamchi ijara ijarachilarni xo‘jalik jihatidan bir-birlari bilan bog‘laydi. Jumladan, ikkilamchi ijarada:

ijaraga beruvchi, ijarachi, ijarachidan yana ikkilamchi ijaraga oluvchi o‘zaro munosabatda bo‘ladilar.

Ikkilamchi ijarada ijarachining o‘zi qisman ijaraga beruvchi rolida namoyon bo‘ladi. Tabiiy obyektlar va maishiy prokat buyumlarni ikkilamchi ijaraga berishga ruxsat etilmaydi.

2. Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari

Taraflarning javobgarligi qonun yoki shartnoma bilan belgilanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Ijara to‘g‘risida»gi qonunining 32-moddasida taraflarning javobgarligi belgilangan. Jumladan, shartnoma tuzish tartibi va shartlarini buzishda, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikda, shartnomani bir tomonlama o‘zgartirish yoki bekor qilishda, shartnomani o‘zgartirish va to‘xtatish tartibi hamda shartlarini buzishda aybdor taraf, shuningdek, davlat idoralarining mansabdor shaxslari ham qonunda belgilanganidek javobgarlikka tortiladilar.

Yuridik shaxslar va fuqarolar o‘zlari yetkazgan zararni, shu jumladan, boy berilgan foydani O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda to‘lashlari shart deb ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 541-moddasida ijaraga oluvchiga nisbatan mol-mulkni topshirmaganligi yoki topshirishni kechiktirganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Agar mulk ijarachiga topshirilmasa, ijarachi bu mulkni o‘ziga topshirilishini talab qilish bilan birga, ijroning kechiktirilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish yoki shartnomani bekor qilish va uning bajarilmaganligi sababli yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarda kechiktirilgan ijroni qabul qilishdan bosh tortishga faqat qonun va shartnomada belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Ijaraga berilgan mol-mulkdagi kamchiliklar uchun ijarachi javobgar bo‘ladi. Ijara mulkidagi kamchiliklar aniqlanganida, Fuqarolik kodeksining 542-moddasiga muvofiq, ijarachi o‘z xohishiga ko‘ra, ijaraga beruvchidan yo mol-mulkdan kamchiliklarni tekinga bartaraf etishni yoki mol-mulkdagi foydalanganlik haqini mutanosib kamaytirishni yoxud mol-mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilgan o‘z xarajatlarini qoplashni talab qilishga; ijaraga beruvchini oldindan ogohlantirgan holda o‘sha kamchiliklarni bartaraf etishga sarflagan xarajatlari summasini mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqdan bevosita chegirib qolishga; shart-nomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

Ijaraga berilgan mol-mulkdagi kamchiliklar xususida xabardor bo‘lgan ijaraga beruvchi ushbu mulkni darhol tegishli holatda bo‘lgan mol-mulkka almashtirib berishi yoki mol-mulkdagi kamchiliklarni tekinga bartaraf etishi mumkin.

Agar ijaraga oluvchining talablarini qanoatlantirish yoxud uning kamchiliklarni bartaraf etish xarajatlarini mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqdan chegirib qolish ijaraga oluvchi ko‘rgan zararni qoplamasa, u zararning qoplanmagan qismini to‘lashni talab qilishga haqli.

Shuningdek, ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramay, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlari yoki mol-mulkning vazifasiga nomuvofiq foydalansa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi va zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchi shartnoma muddati tugashi bilan ijaraga olingan mol-mulkni o‘ziga topshirilgan holatda, yoki shartnomada belgilangan darajada qaytarishi lozim.

Agar ijaraga oluvchi ijaraga olgan mol-mulkni qaytarmasa yoki kechiktirib qaytarsa, ijaraga beruvchi kechiktirilgan barcha vaqt davomida mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lashni talab qilishga haqli. Bu haq ijaraga beruvchi ko‘rgan zararini qoplamagan taqdirda zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

Ijaraga olingan mol-mulk o‘z vaqtida qaytarilmaganligi uchun shartnomada neustoyka undirish nazarda tutilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, neustoykadan tashqari zarar to‘liq miqdorda undirilishi mumkin (FK 554-m.).

Mulk ijarasi shartnomasining bekor bo‘lishi. Mulk ijarasi shartnomasi shartnoma muddati tugab, ijara mulki qaytarilishi bilan bekor bo‘ladi. Ayrim

hollarda shartnoma ijaraga beruvchining talabi bilan ham bekor bo‘lishi mumkin, Jumladan, Fuqarolik kodeksining 551-moddasida belgilanganidek, ijaraga oluvchi olingan mulkdan shartnoma shartlariga yoki belgilangan maqsadga muvofiq foydalanmasa, mol-mulkni jiddiy yomonlashtirsa, ijara haqini to‘lash muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lamasa, ijaraga oluvchi olingan mulkni ta’mirlash majburiyati qonun yoki shartnoma bo‘yicha uning o‘ziga yuklatilgan hollarda mulkni ta’mirlamasa, shartnoma muddatidan avval bekor qilinishi mumkin.

Maishiy prokat shartnomasi ham tipovoy shartnoma va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish qoidalarida belgilangan tartibda muddatidan avval bekor bo‘lishi mumkin.

Odatda maishiy prokat shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi manfaatdor tomonlarning talabiga binoan amalga oshiriladi.

Masalan, prokat yomon saqlanganida, ijarachining qasddan yoki ehtiyotsizligi tufayli yaroqsiz holga kelganida, prokat obyektidan shartnomada ko‘rsatilganidek foydalanilmaganida prokatga beruvchi shartnomani muddatidan avval bekor qilishi mumkin.

Shuningdek, prokatga beruvchi ijarachiga shartnomada ko‘rsatilgan obyektni taqdim qilmasa yoki ta’mirlashni o‘z vaqtida bajarmasa, ijarachi ham shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli. Demak, ijarachi ham istagan paytida shartnomani bekor qilishi mumkin. Biroq u prokatga beruvchidan olgan narsasini butun holida qaytarib berishi shart.

Ijara mulkini sotib olish. Ijara shartnomasining yana bir muhim xususiyati shundaki, ijarachi ijaraga olingan mulkni sotib olishi ham mumkin. «Ijara to‘g‘risida»gi qonunning 18-moddasida belgilanganidek, ijarachi ijaraga olingan mulkni ijaraga beruvchining roziligi bilan butunlay yoki bir qismini sotib olishi mumkin. Qonunlarda ijaraga olingan mol-mulkni sotib olishni taqiqlash hollari belgilab qo‘yilishi mumkin.

Mulkni sotib olish haqida shartnoma tuziladi. Sotib olish shartnomasida sotib olinayotgan mol-mulkning turi va bahosi, sotib olish shakli va manbalari, sotib olish tartibi va muddatlari, sotib olishda uchinchi shaxslarning, jumladan, kreditorlarning qatnashuvi, kafolatlar, sotib olinayotgan mol-mulkning sifati va boshqa qoidalar belgilab qo‘yilishi mumkin.

Korxonalarni ijaraga olish. Fuqarolik kodeksining 579–586-moddalarida korxonalarni ijaraga berish qoidalari belgilangan.

Ijarachilar jamoasi boshqaruv idoralarini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qaror mehnat jamoasining umumiy yig‘ilishi (konferensiya)da

qatnashganlarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz berganida qabul qilingan hisoblanadi.

Ijara korxonasi davlat korxonasi mulkiga egalik qiladi, uning vazifalarini bajaradi, ijtimoiy o‘z-o‘zini boshqarish, demokratiya va oshkoralik asosida ish olib boradi.

Ijara korxonasi, agar shartnomada boshqa kelishuv ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, ijaraga olingan buyumlarni mustaqil o‘zgartirish, qayta tiklash, kengaytirish va qiymatini oshirish uchun texnik tomondan qayta jihozlash huquqiga ega bo‘ladi.

Ijara korxonalarining mulki – ijaraga olingan mulk, jamoa (umum) mulki hamda ijara korxonalarining xodimlari hissasiga tushgan ulushli mulkdan iborat.

Mehnat jamoasi a’zosining ijara korxonasi mulkidagi ulushi qiymatiga qarab, korxona nizomiga binoan, unga qimmatbaho aksiyalar hamda shunga ko‘ra daromadlar berilishi mumkin.

Xo‘jalik ichki ijara pudrati. O‘zbekiston Respublikasi «Ijara to‘g‘risida»gi qonunining 27-moddasida xo‘jalik ichki ijara pudrati to‘g‘risida tushuncha berilgan. Jumladan, bu qonunda korxona o‘z bo‘linmalarining xodimlariga mol-mulkni xo‘jalik ichidagi ijara pudrati shaklida ijaraga berishi mumkin, deb belgilangan.

Xo‘jalik ichki ijara pudratiga xo‘jalik hisobining bir turi sifatida qaraladi. Xo‘jalik ichki ijara pudrati davlat korxonalarida, uning bo‘limlarida, jamoat tashkiloti korxonalarida joriy etiladi.

Bunday ijara pudratini boshlashdan avval kasaba uyushmasi xo‘jalik ichki ijara pudrati to‘g‘risidagi nizomni, mahsulot va xizmatlar uchun ichki xo‘jalik hisobi bahosi va tariflarini, xarajatlarni va daromadlarni hisobga olish usullarini ishlab chiqadi.

3. Mulk ijarasi shartnomasining alohida turlari va o‘ziga xos xususiyatlari

Prokat shartnomasi. Aholiga xizmat ko‘rsatish yuzasidan tuziladigan shartnomalardan biri prokat shartnomasidir. Prokat shartnomasining ta’rifi Fuqarolik kodeksining 558-moddasida berilgan bo‘lib, unda belgilanishicha, prokat shartnomasi bo‘yicha doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida mol-mulkni ijaraga beruvchi haq evaziga ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun ko‘char mol-mulkni topshirish majburiyatini oladi.

Prokat shartnomasi bo‘yicha topshirilgan mol-mulkdan, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa yoki u majburiyat mohiyatidan kelib chiqmasa, iste’mol maqsadlarida foydalaniladi.

Prokat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Prokat shartnomasi ommaviydir. Prokat shartnomasi hamma bilan, ya’ni bu shartnomani tuzishni xohlovchilar bilan tuziladi.

Prokat shartnomasining predmeti. Xususiy alomatlari bilan belgilangan va iste’mol maqsadlarida foydalaniladigan har xil ashyolar prokat shartnomasining predmeti bo‘la oladi. Bularga, masalan, sport inventarlari, muzika asboblari, mashina, uy-ro‘zg‘or buyumlari, turar-joy hisoblanmaydigan bino va inshootlar, turli texnika vositalari, qisqasi, bir marta foydalanish bilan o‘zining dastlabki qiymatini yo‘qotmaydigan hamda iste’mol maqsadlarida foydalaniladigan ko‘char mulklar hisoblanadi.

Prokat shartnomasining muddati. Bu muddat Fuqarolik kodeksining 559-moddasida belgilab berilgan. Unga ko‘ra, prokat shartnomasi bir yilgacha muddatga tuziladi.

Mulk ijarasi shartnomasini nomuayyan muddatga qaytadan tuzish va ijaraga oluvchining mulk ijarasi shartnomasini qaytadan tuzishga imtiyozli huquqi haqidagi qoidalar prokat shartnomasiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Bundan tashqari, ijaraga oluvchi prokat shartnomasini bajarishni istagan vaqtda rad etishga haqli.

Prokat shartnomasining ishtirokchilari. Shartnomada buyumlarni ijaraga beruvchi sifatida doimo tadbirkorlik mulkining egalari, ya’ni fuqaro yoki tashkilotlar qatnashsa, ijaraga oluvchi bo‘lib, faqat fuqarolar qatnashadi.

Shartnomaga muvofiq, fuqaro ashyoni olishi uchun prokatga beruvchiga o‘zining pasporti yoki pasport o‘rniga o‘tadigan boshqa hujjatlarini, agar shunday hujjatni faqat ijarachi talab etsa, ko‘rsatishi mumkin.

Avtomashina, mototsikl yoki moped prokatga olinganida, fuqaro bu texnikani boshqara olish huquqi borligi to‘g‘risidagi guvohnomasini ham ko‘rsatishi lozim.

Prokat shartnomasi bo‘yicha mol-mulkdan foydalanganlik haqi vaqti-vaqti bilan yoki bir yo‘la to‘lanadigan qatyiy summadagi to‘lovlar shaklida belgilanadi.

Ijaraga oluvchi mol-mulkni muddatidan oldin qaytargan taqdirda ijaraga beruvchi unga mol-mulkdan foydalanganlik uchun olingan haqdan tegishli qismini mol-mulk amalda qaytarilgan kunning ertasidan boshlab hisoblangan holda qaytaradi.

Mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijaraga oluvchining qarzlari notariusning ijro ustxati asosida so‘zsiz undirib olinadi.

Prokat shartnomasiga muvofiq, tomonlar ma’lum huquq va burchlarga ega bo‘ladilar. Buyumlarni ijaraga beruvchi tadbirkorning burchi – shartnomaga muvofiq foydalanish uchun yaroqli ashyoni taqdim etish, prokatga berilayotgan ashyoning foydalanishga yaroqli ekanini ijaraga oluvchi huzurida tekshirish, ashyodan foydalanish usul va qoidalarini tushuntirish hamda prokatga olingan ashyo buzilganida, yo‘qotilganida yoki komplektsiz qaytarilganida mulkiy javobgarligi to‘g‘risida ijarachini ogohlantirish kabilardan iborat.

Prokatga olingan ashyo prokatga oluvchining aybi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda buzilib qolsa, ijaraga beruvchi bu to‘g‘rida xabardor bo‘lgan kundan e’tiboran tezlik bilan boshqasiga almashtirib berishi mumkin. Prokat shartnomasi bo‘yicha ijaraga topshirilgan mol-mulkni kapital va joriy ta’mirlash ijaraga beruvchining burchidir (FK 563-m.). Agar ijaraga oluvchi ashyodan noto‘g‘ri foydalanayotgan yoki shartnoma shartlarini boshqacha tarzda buzayotgan bo‘lsa, bundan xabardor ijaraga beruvchi ashyoni muddatidan oldin qaytarib olishi mumkin.

Prokat shartnomasida prokatga oluvchining burchlari belgilangan bo‘lib, bu burchlar ijara haqini o‘z vaqtida to‘lash, mulkdan uning vazifasiga muvofiq foydalanish, prokatga olingan ashyoni o‘z-boshimchalik bilan ta’mirlamaslik, uni boshqa shaxsga foydalanish uchun bermaslik va shartnoma muddati tugashi bilan ashyoni butun holda ijaraga beruvchiga qaytarib topshirishdan iborat.

Prokat shartnomasiga ko‘ra, zimmasidagi burchlarni bajarmaganlik uchun tomonlarga mulkiy javobgarlik yuklatiladi. Jumladan, prokatga oluvchining ixtiyorida bo‘lgan mol-mulk uning aybisiz zararlansa, uning kamchiligi ta’mirlash jarayonida aniqlansa, shu mulkni ta’mirlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar ijaraga beruvchi zimmasida bo‘ladi. Agar prokatga olingan ashyo ijarachining aybi bilan yaroqsiz holga kelsa, u xuddi shunday narsani qaytarishga yoki uning qiymatini to‘lashga majburdir. Prokatga olingan ashyoning ayrim qismlari qaytarilmasa, ijaraga oluvchi bunday qismlarning qiymatini to‘liq miqdorda to‘laydi.

Agar chinni, billur yoki shunga o‘xshash idishlar singan, almash-tirilgan, yo‘qotilgan bo‘lsa, bu haqda mulk egasi dalolatnoma tuzib, uni ijaraga oluvchiga taqdim etadi. Ijaraga oluvchi xuddi shu turdagi buyumni prokat punktiga tezlik bilan keltirib topshirishi shart. Agar kelishilgan muddat ichida yangisi olib kelib topshirilmasa, singan idishlarning chakana qiymati undiriladi. Agar ijaraga oluvchi ana shu singan

buyumlarning yangisini prokat punktiga taqdim etmasa, uning qiymati maishiy prokat qoidalarining 18-bandiga koʻra uch baravar miqdorda undirib olinadi.

Prokat shartnomasi tomonlarning xohishi bilan muddatidan oldin ham bekor qilinishi mumkin. Shartnoma ijaraga beruvchi talabi bilan muddatidan avval faqat quyidagi hollarda, ya'ni ijaraga olingan mulkdan shartnomaga yoki belgilangan maqsadga muvofiq foydalanilmasa, ijaraga oluvchi qasddan yoki beparvoligi tufayli mulkni yomonlashtirsa, ijara haqini toʻlash muddati oʻtganidan soʻng bir oy davomida toʻlamasa, bekor qilinishi mumkin.

Ijaraga oluvchi shartnomani muddatidan avval bekor qilsa, ijaraga beruvchi ijara haqining tegishli qismini qaytarishga majbur.

Agar ijaraga topshirilgan mol-mulkdagi kamchiliklar ijaraga oluvchi tomonidan mol-mulkdan foydalanish va uni saqlash qoidalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan boʻlsa, ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga mol-mulkni ta'mirlash va transportda tashish xarajatlarini toʻlaydi (FK 561-m.).

Prokat shartnomasi boʻyicha ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkni ikkilamchi ijaraga berishga, ijaraga oluvchi prokat shartnomasi boʻyicha oʻz huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga oʻtkazishiga, bu mol-mulkning bepul foydalanish uchun berib qoʻyilishiga, ijaraga oluvchining huquqlarini garovga qoʻyishga va ularni xoʻjalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga (qiymatiga) hissa tariqasida, ishlab chiqarish kooperativlariga pay badallari tariqasida qoʻshishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Transport vositalari ijarasi shartnomasi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari huquq tizimiga koʻplab oʻzgarishlar kiritilishiga sabab boʻldi. Ana shunday oʻzgarishlardan biri Fuqarolik kodeksining (564-572-m.) moddalarida transport vositasiini ijaraga berish shartnomasi ijara shartnomalarining alohida turi sifatida keltirilganligidir. Mazkur shartnoma ijara shartnomalarining alohida turi sifatida koʻrsatilishi uning predmetidan kelib chiqadi. Shartnoma predmetini har qanday transport vositalari, ya'ni yuk, yoʻlovchi va bagaj tashish boʻyicha makonda harakatlanadigan texnik qurilmalar tashkil etadi. Transport vositasi, murakkab texnik qurilma boʻlib, u ayni vaqtning oʻzida atrof uchun xavf manbai ham hisoblanadi. Aynan shuning uchun, ya'ni shu ikki sifatning mavjudligi ushbu shartnomani ijara shartnomalarining alohida turi sifatida ajratishga sabab boʻladi.

«Transport vositasini ijaraga berish shartnomasi» tushunchasi Fuqarolik kodeksining 564-moddasida belgilangan boʻlib, unga koʻra transport vositasini ekipaji bilan ijaraga berish shartnomasi boʻyicha ijaraga beruvchi transport vositasini vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun haq evaziga

ijaraga oluvchiga beradi va o‘z kuchi bilan uni boshqarish hamda undan texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi.

Transport vositasini ekipaji bilan ijaraga berish shartnomasining mazmunidan unda ikki turdagi majburiyat birlashtirilganligini aniqlash mumkin:

a) bevosita tavsiya etilayotgan transport ijarasiga vaqtincha egalik qilish va haq evaziga undan foydalanish;

b) ijaraga beruvchi o‘z kuchi bilan uni boshqarishi hamda texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatishi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismi esa transport vositasini ekipajsiz ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi transport vositasini boshqarish va texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatmagan holda vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun ijaraga oluvchiga haq evaziga berilishini ko‘zda tutadi.

Transport vositalari ijarasi shartnomasining bu ikki turi bilan bog‘liq boshqa holatlar va shartlar taraflar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarda hamda qonun hujjatlarida belgilangan.

Transport vositalarini ijaraga olish shartnomasi *ikki tomonlama, ya’ni haq baravariga tuziladigan va konsensual shartnomadir.*

Taraflar o‘rtasidagi transport vositalarini ijaraga olish shartnomasini nomuayyan muddatga qayta tuzish va ijaraga oluvchining ijarasi shartnomasini yangi muddatga qaytadan tuzishga imtiyozli huquqi haqidagi qoidalari transport vositasini ijaraga berish shartnomasiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Agar ijaraga oluvchida transport vositalarini qaytadan ijaraga olish istagi paydo bo‘lsa, umumiy asoslarga ko‘ra qayta shartnoma tuzishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 565-moddasiga ko‘ra, transport vositasini ijaraga berish shartnomasi, uning muddatidan qatyi nazar, yozma shaklda tuzilishi shart. Bunday shartnomaga Fuqarolik kodeksi 539-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ijara shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanilmaydi. Biroq, havo, dengiz va ichki suv transporti vositalarini ijaraga olish (charter, handa, kabotaj) shartnomasiga nisbatan bu qoidalar qo‘llaniladi, chunki ushbu transport vositalari ko‘chmas mulk turi qatoriga kiritilgan.

Bundan tashqari, bir taraf yuridik shaxs bo‘lgan taqdirda muddatidan qatyi nazar, shartnoma yozma shaklda tuzilib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart.

«O‘zavtotrans» korporatsiyasi korxonalarida yengil avtomobil-taksini sotib olish huquqi bilan ichki xo‘jalik ijarasiga berish to‘g‘risidagi 1997-yil 27-mart nizomiga muvofiq, ijaraga beruvchi (taksi saroy, avtobus-taksomotor saroyi va boshqa korxonalar) tomonidan haydovchiga (ijaraga) avtomobil-taksini belgilangan to‘lovlarni to‘lab, sotib olish huquqi bilan ichki xo‘jalik ijarasiga berish shartlari belgilangan.

Ichki xo‘jalik ijara shartnomasi ijaraga beruvchi va haydovchi (ijarachi) o‘rtasida tuziladi. Ijaraga beruvchi korxona nomidan shartnomani korxona rahbari imzolaydi.

Taraflar o‘rtasida nizolar kelib chiqishining oldini olish uchun birlashma (konsern) bilan kelishilgan holda tuzilgan shartnoma nusxasi, o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan imzolangandan keyin bir oy muddatda tekshirish va ro‘yxatga olish, shuningdek, keyinchalik uning ijrosi ustidan nazorat qilish uchun «O‘zavtotrans» korporatsiyasidan ro‘yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. Ro‘yxatga olish uchun shartnoma birlashma (konsern) tomonidan taqdim etiladi.

Ijaraga berilayotgan har bir avtomobilga narxlar dalolatnomasi tuzilib, unda uning rusumi va modeli, harakat tarkibi hamda asosiy uzel va agregatlarining texnik holati aks ettiriladi. Ularning yaroqlilik foizi belgilanadi va amaldagi chakana narxlarda ularning narx qiymati ko‘rsatiladi.

Transport vositalari ijarasi shartnomasining transport vositalarini ekipaji bilan ijaraga berish, transport vositalarini ekipajsiz ijaraga berish turlari mavjud.

Fuqarolik kodeksi 564-moddasining 1-qismida transport vositalarini ekipaji bilan ijaraga berish shartnomasining quyidagi uch xususiyati o‘z ifodasini topgan:

birinchidan, shartnoma predmeti har qanday turdagi transport vositalari: temir yo‘l, avtomobil, suv, havo, kosmik va shunga o‘xshash makonda mustaqil harakatlana oladigan texnik qurilmalardan tashkil topadi;

ikkinchidan, transport vositalarini boshqarish va ulardan texnik foydalanish bo‘yicha ijaraga beruvchining o‘z kuchi bilan, ya’ni ekipaj yordamida mehnat qilish yoki boshqa ishlarni bajarishiga doir munosabatlarini bildiradi. Masalan, pudrat shartnomasiga asoslangan xodimlar orqali xizmat ko‘rsatadi;

uchinchidan, transport vositasini ijaraga oluvchiga egalik qilish va foydalanish huquqi o‘tadi. Ijaraga beruvchi shartnoma predmetiga egalik qilish huquqini o‘zida saqlab qola olmasa-da, transport vositasini

boshqarishni ijaraga beruvchining xodimlari davom ettiradilar va odatda tegishli mulkka egalik qiladilar. Shuning uchun ham vaqtincha xodimlar transport vositalarini boshqara turib, ish bajaruvchining emas, balki begona shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishlarini nazarda tutish kerak bo‘ladi.

Vaqtincha fraxtlash (yollash) shartnomasining maqsadi, ijaraga oluvchiga transport vositalaridan (kemadan) tijoratda foydalanishni amalga oshirish imkoniyatini yaratib berishdir, ayni vaqtda, ijaraga beruvchi texnikani yaxshi bilgan mutaxassis sifatida texnik xizmatni amalga oshiradi.

Qonunga binoan transport vositasini ekipaji bilan ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi transport vositasini vaqticha egalik qilish va foydalanish uchun haq evaziga ijaraga oluvchiga beradi va o‘z kuchi bilan uni boshqarish hamda texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi. Biroq bu shartnomani aralash deb aytish mumkin emas, chunki u kodeks bilan alohida tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksi 564-moddasining 2-qismida transport vositalarini ekipajsiz ijaraga berish shartnomasi quyidagicha bayon etilgan:

1) shartnoma predmeti – turli xildagi transport vositasi; transport vositasini ekipajsiz ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi transport vositasini boshqarish va texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatmagan holda vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun ijaraga oluvchi haq evaziga beradi.

2) transport vositasini boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish ijaraga oluvchining o‘zi yoki uchinchi shaxs (hech qachon ijaraga beruvchi emas) yordamida amalga oshiriladi;

3) transport vositasi ijaraga oluvchining egaligi va foydalanishiga o‘tadi. Ijaraga beruvchi egalikni o‘zida saqlab qolmaydi.

Binolar va inshootlarni ijaraga berish shartnomasi. Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga bino yoki inshootni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoxud vaqtincha foydalanish uchun topshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi (FK 573-m.).

Bu shartnoma mulk ijarasi shartnomasining alohida shakli sifatida uning predmetidan kelib chiqadi. Binolar va inshootlar ijarasi shartnomasining predmeti bo‘lib, binolar yoki inshootlar yoxud ko‘chmas mol-mulklar hisoblanadi. Bundan tashqari, shu bino va inshootlar joylashgan yer uchastkasi ham shartnomaning predmeti bo‘lib

hisoblanadi. Aynan shu holat bu shartnomaga alohida turdagi shartnoma sifatida qaralishiga asos bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksida bino bilan inshoot tushunchalari o‘rtasidagi farq ko‘rsatilmagan. Biroq bu so‘zlarning umumfoydalanishdagi ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, binodan odamlarning doimiy yashashi yoki ishlashi uchun foydalanilsa, inshoot ko‘pincha texnik maqsadlarga xizmat qiladi va unda odamlar vaqtincha bo‘ladilar. Ammo Fuqarolik kodeksida obyektlarning bino va inshootlarga bo‘linishining yuridik talqini bayon etilmaydi.

Bino va inshoot ijarasi to‘g‘risidagi qoidalar bino va inshootning bir qismini ijaraga berganda ham qo‘llaniladi. Bunda shu qismdan foydalanish uchun zarur yer uchastkasini ijaraga oluvchiga topshirishda bir oz murakkablik vujudga keladi. Agar amalda bino yoki inshootning shu qismidan foydalanish uchun zarur bo‘lgan yer uchastkasini ajratishning iloji bo‘lmasa, ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquq ijaraga oluvchiga o‘tmaydi.

Fuqarolik kodeksining 574-moddasiga ko‘ra, bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolaydigan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi.

Bu shartnomani xatlar, yozishmalar (faqat bir taraf tomonidan tuzilgan hujjatlar) orqali tuzish mumkin emas.

Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasining shartlariga rioya etmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga olib keladi.

Bir yildan kam bo‘lmagan muddatga tuzilgan bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim va ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (FK 574-m. 2–3-q.).

Bu norma Fuqarolik kodeksi 539-moddasining 2-qismida ko‘rsatilgan bo‘lib, ko‘chmas mulk ijarasi shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim, degan umumiy qoidadan istisno tariqasida keltirilgan. Lekin Fuqarolik kodeksi 574-moddasining 3-qismida keltirilgan istisnoni boshqa ijara shartnomalariga, masalan, yer ijarasi va korxona ijarasiga nisbatan tatbiq etib bo‘lmaydi.

Bino va inshootlar ijarasi shartnomasining zaruriy shartlariga ijara haqi ham kiradi. Shartnoma ijara haqi miqdorini ham ko‘zda tutgan bo‘lishi lozim.

Bu haqda Fuqarolik kodeksining 577-moddasida qayd etilganidek, bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasida ijara xaqining miqdori nazarda tutilishi lozim. Ijara haqining miqdori to‘g‘risida taraflar yozma shaklda

kelishgan shartlar bo‘lmagan taqdirda, bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi. Bunda ushbu Kodeks 356-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan narx belgilash qoidalari qo‘llanilmaydi.

Bino va inshootlar ijarasi shartnomasining mazmuni odatdagi ijara shartnomasining mazmunidan farq qilmaydi. Tomonlarning asosiy majburiyatlari mulk ijarasi shartnomasiniki singari bo‘lsa-da, bunda ba’zi bir majburiyatlar aniqroq belgilangan, xolos.

Bino yoki inshootni ijaraga beruvchi tomonidan topshirish va ijaraga oluvchi tomonidan qabul qilib olish majburiyatlarining ijrosi taraflar imzolaydigan topshirish dalolatnomasi yoki topshirishga doir boshqa hujjat bo‘yicha amalga oshiriladi.

Agar qonunda yoxud bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijaraga beruvchining bino yoki inshootni ijaraga oluvchiga topshirish majburiyati bino yoki inshoot ijaraga oluvchining egaligiga yoki foydalanishiga topshirilganidan va taraflar topshirish to‘g‘risida tegishli hujjat imzolaganlaridan keyin bajarilgan hisoblanadi.

Taraflardan birining bino yoki inshootni shartnomada nazarda tutilgan shartlarda topshirish to‘g‘risidagi hujjatni imzolashdan bosh tortishi tegishli bo‘lishiga qarab, ijaraga beruvchining mol-mulkni topshirish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini, ijaraga oluvchining esa, mol-mulkni qabul qilib olish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi deb qaraladi (FK 578-m. 1–3-q.).

Ijaraga oluvchining bino yoki inshootni ijaraga beruvchiga qaytarishi tegishli hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi bekor qilinganida ijaraga olingan bino yoki inshoot ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalarga rioya etilgan holda ijaraga beruvchiga qaytarilishi lozim (FK 578-m. 4-q.).

Bino yoki inshoot ijarasi shartnomasida ijara haqi, odatdagi mulk ijarasi shartnomasidan bir oz kengroq yoritiladi. Qonunda bu holat shunday ifodalanadi:

«Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasida belgilangan bino yoki inshootdan foydalanganlik haqiga, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bino yoki inshoot joylashgan yer uchastkasidan yoxud yer uchastkasining bino yoki inshoot bilan birga topshirilayotgan tegishli qismidan foydalanganlik haqi ham kiradi.

Shartnomada bino yoki inshootning ijara haqi bino (inshoot) maydonining birligi yoki uning boshqa o‘lchov ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgi-

langan bo‘lsa, ijara haqi ijaraga oluvchiga topshirilgan bino yoki inshootning haqiqiy o‘lchoviga qarab aniqlanadi» (FK 577-m. 2–3-q.).

Bino (inshoot)ning umumiy maydoni haqiqiy o‘lchovi shartnomada o‘z aksini topmog‘i lozim.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi. Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida butun korxonani yoki uning bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi, ijaraga beruvchi boshqa shaxslarga o‘tkazishi mumkin bo‘lmagan huquq va majburiyatlar bundan mustasno (FK 579-m. 1-q.).

O‘zbekiston Respublikasi «Ijara to‘g‘risida»gi qonunining 20-moddasiga ko‘ra korxona yoki uning tarkibiy birligi, mehnat jamoasi uning asosida ijara korxonasini barpo etish uchun ijarachilar jamoasini tuzishga haqlidir.

Korxonalar, korxona sexlari, bo‘limlar, firmalar va boshqa ijaraga oluvchilar ijara shartnomasining subyektlaridir.

Ijarachilar jamoasi va uning boshqaruv idoralarini tuzish to‘g‘risidagi qaror mehnat jamoasining qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan umumiy yig‘ilishida hozir bo‘lganlarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilinadi. Shundan so‘ng ijarachilar jamoasi ijara shartnomasi loyihasini ishlab chiqadi va uni korxonani ijaraga berish uchun vakolatli idoraga yuboradi. Bu idora shartnoma loyihasini olgach, o‘ttiz kunlik muddat ichida uni ko‘rib chiqishi lozim. Agar loyiha ko‘rsatilgan muddat davomida ko‘rib chiqilib, biron-bir javobi ma’lum qilinmasa, ijaraga oluvchi mehnat jamoasi tegishli sudga murojaat qilishga haqli. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining «Ijara to‘g‘risida»gi qonunida belgilab qo‘yilgan.

Ijara korxonalarini tuzish uchun quyidagilar zarur:

1) mehnat jamoasining qarori;

2) ijara shartnomasi;

3) yangi korxonaning nizomi;

4) yangi korxonani shahar yoki tuman hokimiyatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi;

5) moddiy vositalarning hujjatlar asosida qabul qilinishi;

6) markazlashgan kapital mablag‘, moddiy-texnika ta’minoti, jamg‘arma va limitlarni rasmiylashtirish. Ana shu zaruriy ishlarni bajargandan keyin ijarachi korxona mulkining shartnoma va nizomda ko‘rsatilgan qismiga egalik qiladi va o‘z zimmasidagi vazifalarni amalga oshiradi.

Har qanday ijarachi korxona quyidagi mustaqil faoliyatga ega:

1) o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlashni amalga oshirish;

2) ishlab chiqarish vositalarini sotish va ayirboshlash;

3) o‘zi uchun qulay bozor aloqalarini o‘rnatish;

4) moddiy boyliklarni vaqtincha, bepul yoki qarzga foydalanishga berish;

5) buyumlarni ikkilamchi ijaraga berish va boshqalar. Yuqoridagi loyiha haqida taraflar xabardor bo‘lgach, korxona qonunga binoan ijara shartnomasini imzolaydi. Umumiy majlis (konferensiya)da nizom tasdiqlanganidan keyin ijara korxonasi maqomiga ega bo‘ladi va yuridik shaxs deb tan olinadi.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi ikki tomonlama shartnoma bo‘lib, ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchilar shartnoma taraflari hisoblanadi. Shartnoma konsensual, haq baravariga tuziladigan shartnomadir. Ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun haqni o‘z vaqtida to‘lab turishi shart. Haq to‘lash tartibi, sharti va muddati shartnomada belgilanadi. Ijara muddati ham shartnomada aniq qayd etib qo‘yiladi.

Korxonalar uchun ushbu muddat 5 yildan kam bo‘lmasligi lozim. Ijaraga olingan korxona ijaraga oluvchiga topshirish dalolatnomasi bo‘yicha topshiriladi.

Amaldagi qonunga muvofiq, ijara shartnomasida quyidagilar:

– korxonani ijaraga berish va ijaraga berilgan mol-mulkni ishlatish shartlari;

– ijara korxonasi xo‘jalik faoliyatiga oid shartlar;

– tomonlarning ijara shartnomasini bajarish yuzasidan o‘zaro majburiyatlari;

–tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun o‘zaro javobgarligi shartlari;

– ijara muddati;

– ijara haqi miqdori va ularning to‘lovini amalga oshirish tartibi bilan bog‘liq shartlar;

– ijaraga beriladigan mol-mulkning tarkibi va qiymati;

– ijara beruvchining mol-mulkni ijarachiga shartnomada ko‘rsatilgan holatda berish majburiyati;

– ijarachining mol-mulkdan shartnoma shartlariga muvofiq foydalanish majburiyati;

– tomonlarning mol-mulkni ta’mirlash va to‘la tiklash yuzasidan o‘zaro taqsimlangan majburiyatlari;

– ijarachining shartnoma muddati tugagandan so‘ng mol-mulkni ijaraga beruvchiga shartnomada ko‘rsatilgan holatda qaytarish yuzasidan majburiyati;

– shartnoma subyektlari o‘zaro kelishilgan holda zarur deb topgan boshqa shartlar o‘z ifodasini topishi lozim.

Ijara shartnomasida ijaraga berilgan mol-mulkning qiymati ushbu mol-mulk ijaraga berilayotgan vaqtdagi qiymatidan kelib chiqqan va uning eskirganligi darajasi hisobga olingan holda belgilanadi. Demak, ijaraga berilgan mol-mulkning kelgusida xizmat qilishi va ishlatish muddati tomonlarning kelishuviga muvofiq shartnomada ko‘rsatilishi kerak, biroq bu muddat foydalanish muddatidan, to‘liq eskirib, ishdan chiqish muddatidan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Korxonalarni ijaraga olish shartnomasi qonunga muvofiq huquqiy maqomga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun esa quyidagilarga amal qilish zarur:

birinchidan, ijara shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim, chunki og‘zaki tuzilgan shartnoma yuz berishi ehtimoli bo‘lgan nizoli holatlarda sud ajrimlari uchun yuridik asos bo‘lib xizmat qilolmaydi;

ikkinchidan, huquq va majburiyatlar qonun bo‘yicha shartnomada ko‘rsatilgan, hujjatlar o‘z vaqtida rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim;

uchinchidan, korxonalarni ijaraga olish shartnomasi faqat muomala layoqatiga ega yuridik shaxs va fuqarolar o‘rtasida tuzilishi kerak;

to‘rtinchidan, ijara shartnomasi ixtiyoriy tuzilgan va aniq bir huquqiy maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lishi darkor, ya’ni shartnomada o‘z ifodasini topgan maqsadlar ijarachi va ijaraga beruvchining haqiqiy maqsadlariga mos tushishi kerak. Ijara shartnomasi yuqori idoraning buyrug‘i hujjati ta’sirida yoki aldash orqali tuzilmasligi lozim.

Taraflarning huquq va majburiyatlari.

Ijaraga beruvchining majburiyatlari quyidagicha:

– ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida butun korxonani yoki uning bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi;

– ijaraga beruvchi mol-mulkni ijaraga oluvchiga shartnoma shartlari va mol-mulkning vazifasiga muvofiq holatda topshirmog‘i lozim;

– mol-mulkni topshirishga tayyorlash, shu jumladan, topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolashga taqdim etish ijaraga beruvchining burchi bo‘lib, uning hisobidan amalga oshiriladi.

– agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mol-mulk barcha mansub ashyolari va unga aloqador hujjatlar (texnik pasport, sifat sertifikati va h.k.) bilan birga ijaraga topshiriladi;

– ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga ijaraga berilgan mol-mulkni shartnomada ko‘rsatilgan muddatda topshirishi lozim. Basharti shartnomada bunday muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, maqbul muddatda topshirilmagan bo‘lsa, ijaraga oluvchi Fuqarolik kodeksining 331-moddasiga muvofiq, bu mol-mulkni undan talab qilib olish va ijroning kechikkanligi yoki shartnomani bekor qilish hamda uning bajarilmaganligi sababli yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni undan foydalanishda to‘liq yoki qisman to‘sqinlik qiladigan kamchiliklari uchun, hatto shartnoma tuzish vaqtida u bular haqida bilmagan bo‘lsa ham javobgardir.

Bunday *kamchiliklar aniqlanganda* ijarachi o‘z xohishiga ko‘ra:

– ijaraga beruvchidan mol-mulkdagi kamchiliklarni tekinga bartaraf etishni yoki mol-mulkdan foydalanganlik haqini mutanosib kamaytirishni yoxud mol-mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilgan o‘z xarajatlarini qoplashni talab qilishga;

– ijaraga beruvchini oldindan ogohlantirgan holda o‘sha kamchiliklarni bartaraf etishga sarflangan xarajatlari summasini mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqdan bevosita chegirib qolishga;

– shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining talablari yoki uning mol-mulkdagi kamchiliklarni ijaraga beruvchi hisobidan bartaraf etish niyatidan xabardor qilingan ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni tegishli holatda bo‘lgan boshqa shunday mol-mulk bilan darhol almashtirib berishi yoki mol-mulkdagi kamchiliklarni tekinga bartaraf etishi mumkin.

Shartnoma tuzish vaqtida ijaraga beruvchi oldindan aytib qo‘ygan yoki ijaraga oluvchiga oldindan ma’lum bo‘lgan yoxud shartnomani tuzishda yoki mol-mulkni ijaraga topshirish paytida uni ko‘zdan kechirganda yoxud uning sozligi tekshirilganda ijaraga oluvchi aniqlash kerak bo‘lgan kamchiliklar uchun ijaraga beruvchi javobgar bo‘lmaydi.

Shartnoma tuzishda ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini ijaraga topshirilayotgan mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning barcha huquqlari haqida ogohlantirishi lozim. Ijaraga beruvchi tomonidan bu majburiyatning bajarilmasligi ijaraga oluvchiga mol-mulkdan

foydalanganlik uchun to‘lanadigan haqni kamaytirishni yoxud shartnomani bekor qilish va zararni to‘lashni talab qilish huquqini beradi.

Agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni o‘z hisobidan kapital ta’mirlashi shart.

Kapital ta’mirlash mulk ijarasi shartnomasida belgilangan muddatda, agar bu muddat shartnomada belgilanmagan yoki taraflarning zarurati tufayli o‘tkazilsa, maqbul muddatda amalga oshirilmog‘i lozim.

Ijaraga beruvchining kapital ta’mirlash majburiyatining bajarilmasligi ijaraga oluvchiga o‘z xohishiga ko‘ra:

– shartnomada belgilangan yoxud taraflarning zarurati taqozo etayotgan kapital ta’mirlashni amalga oshirib, ta’mirlash qiymatini ijaraga beruvchidan undirib olish yoxud mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq hisobiga o‘tkazish;

– haqni tegishincha kamaytirishni talab qilish;

– shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va zararning qoplanishini talab qilish huquqini beradi.

Ijaraga oluvchining majburiyatlari. Ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga muvofiq, agar bunday shartlar shartnomada belgilangan bo‘lmasa, mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishi lozim.

Agar ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramay, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoki mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanmasa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi va zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun haqni o‘z vaqtida to‘lab turishi shart. Mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tartibi, sharti va muddati mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi. Mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq ijaraga olingan barcha mol-mulk uchun yaxlit holda yoki uning har bir tarkibiy qismi uchun alohida-alohida holda quyidagi shakllarda belgilanadi:

– vaqti-vaqti bilan yoki bir yo‘la to‘lanadigan qatyiy summada belgilangan to‘lovlar tariqasida;

– ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot yoki daromadning belgilangan ulushi tariqasida;

– ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga beruvchiga shartnomada kelishilgan ashyoni mulk qilib yoki ijaraga topshirish tariqasida;

– ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash bo‘yicha shartnomada kelishilgan xarajatlarni ijaraga oluvchi zammasiga yuklash tariqasida.

Ijaraga oluvchi ijara shartnomasi amal qilib turgan butun vaqt mobaynida korxonani tegishli texnik holatda saqlab turishi, shu jumladan, uni joriy ta'mirlashi va shartnomada nazarda tutilgan holatlarda kapital ta'mirlashi shart.

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ijaraga olingan korxonani ishlatish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek ijaraga olingan mol-mulkni sug‘urtalash bo‘yicha to‘lovlar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ijaraga oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan korxona mol-mulki tarkibiga kiruvchi moddiy boyliklarni ijaraga beruvchining roziligi bilan sotish, ayirboshlash va uning roziligisiz vaqtincha foydalanishga yoxud qarzga, qo‘shimcha ijaraga berishga, shuningdek, korxona bahosini pasaytirmaslik va ijara shartnomasining boshqa bandlarini buzmaslik sharti bilan bunday boyliklarga nisbatan ijara shartnomasi bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o‘tkazishga haqli.

Agar korxonani ijaraga berish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan korxonani ijaraga beruvchining roziligisiz qayta qurishga, uni kengaytirishga, texnik qayta jihozlab, qiymatini oshirishga haqli (FK 583-m).

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, korxonani ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining ruxsatidan qatyi nazar, ijaraga olingan mol-mulkni ajratib bo‘lmaydigan tarzda yaxshilash qiymatini olishga haqli (FK 584-m.).

Shartnomaning bekor bo‘lishi. Korxonalarni ijaraga berish shartnomasi odatda shartnoma muddati tugagandan so‘ng ijaraga olingan mol-mulk ijaraga beruvchiga qaytarilishi bilan bekor bo‘ladi.

Ba'zi hollarda mulk ijarasi shartnomasi muddatidan avval ham bekor qilinishi mumkin. Shartnomaning bunday bekor qilinishi ijaraga beruvchining ham, ijaraga oluvchining ham tashabbusi bilan bo‘lishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 552-moddasida ko‘rsatilganidek, ijara shartnomasi ijaraga oluvchining talabi bilan quyidagi hollarda *muddatidan avval bekor qilinadi*:

– agar ijaraga beruvchi mol-mulkni foydalanish uchun ijaraga oluvchiga bermasa yoxud mol-mulkdan vazifasiga muvofiq foydalanishga to‘sqinlik qilsa;

– ijaraga beruvchi shartnomada belgilangan muddatlarda, agarda shartnomada muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda o‘z zimmasidagi mol-mulkni kapital ta'mirlash vazifasini bajarmasa;

– ijaraga oluvchi javobgar bo‘lmagan holatlar tufayli mol-mulk foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolsa.

Shartnoma ijaraga beruvchining tashabbusi bilan ham bekor qilinishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 551-moddasida ko‘rsatilganidek, shartnoma ijaraga beruvchining talabi bilan quyidagi hollarda sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar ijaraga oluvchi:

– ijara beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramasdan mol-mulkdan shartnoma shartlarini yoki mol-mulkning vazifalarini jiddiy ravishda buzgan yoxud bir necha marta buzgan holda foydalansa;

– mol-mulkni jiddiy yomonlashtirsa;

– shartnomada belgilangan to‘lov muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lamasa;

– qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq kapital ta’mirlash ishlarini bajarish ijaraga oluvchi zimmasidagi majburiyat bo‘lgan hollarda shartnomada belgilangan muddatlarda, shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda mol-mulkiga nisbatan kapital ta’mirlashni amalga oshirmasa.

Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini yozma ravishda ogohlantirganidan va unga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun imkoniyat berganidan keyingina shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

Lizing shartnomasi. Lizing – inglizcha «Foglease» so‘zidan olingan bo‘lib, «ijara olmoq» ma’nosini anglatadi.

Lizing – zavodlar, sanoat tovarlari, uskunalar va ko‘chmas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadida ishlatish uchun ijaraga berish to‘g‘risidagi shartnoma.

O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi 1999-yil 14-aprel qonunida aytilishicha, *lizing* ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchi)ning topshirig‘iga binoan uchinchi taraf (sotuvchi)dan haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo‘yish maqsadida mol-mulk (lizing obyekti)ni oladi.

Lizing uch taraflama (sotuvchi, lizing beruvchi, lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi, lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Lizing beruvchi va sotuvchi o‘rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo‘shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Bunda tovarlar ijaraga beruvchi tomonidan sotib olingan bo‘ladi, shu sababli ijaraga berilgan tovarlarga nisbatan mulk huquqini saqlab qoladi. Lizing shartnomasida banklar yo lizing firmalari ijaraga beruvchi hisoblanadi.

Lizing jahon banki amaliyoti uchun yangilik emas. Unga o‘xshash operatsiyalarning miloddan 2 ming yil muqaddam qadimgi Bobilda mavjud bo‘lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Lizingning asosan operativ lizing va moliyaviy lizing kabi turlari mavjud.

Operativ lizing – ko‘p marotaba ishlatiladigan predmetlar (ekskavator, yuk ko‘taruvchi kran, EHM, transport vositalari va hokazolar)ni ularning xizmat muddatidan ancha kam bo‘lgan davrga ijaraga berish ko‘zda tutiladi. Operativ lizingda asbob-uskunalar nisbatan qisqa vaqtga, odatda, 3–5 yilga ijaraga beriladi. Lizing muddati tugagandan keyin uskunalar yangi lizing shartnomasining obyekti bo‘ladi, yo egasiga qaytariladi.

Moliyaviy lizing – amalda uzoq muddatli kreditlashning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Moliyaviy lizingning muddati tugagandan so‘ng ijarachi ijara obyektini egasiga qaytarishi, shartnoma muddatini uzaytirishi, eski lizing obyektining qoldiq qiymatini to‘lab, sotib olishi mumkin. Operativ lizinglardan farqli o‘laroq moliyaviy lizingda asbob-uskunalar uzoqroq muddatga ijaraga beriladi va amortizatsiya to‘liq yo uskuna qiymatining katta qismiga nisbatan hisoblanadi.

Lizingning oddiy ijaradan asosiy farqi shundaki, unda ijaraga berilgan asbob-uskunalarni shartnoma muddati tugagandan so‘ng ularning qoldiq qiymati yig‘indisida sotib olish ko‘zda tutiladi. uning farqli xususiyatlardan yana biri shundaki, lizing kompaniyalarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun o‘z mablag‘lari yetishmaydi, shu sababli, ko‘pincha lizing operatsiyalarida jalb qilingan mablag‘lar keng qo‘llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda 85 foiz mablag‘lar lizing operatsiyalariga jalb qilinganligi qayd etiladi. Bunda, odatda, bankning uzoq muddatli kreditlaridan foydalaniladi. Ijarachi ijaraga berilayotgan uskunalarning qiymati 80 foizgacha uzoq muddatli kredit bilan ta’minlangan bo‘lsa, ular ijara to‘lovlari uchun yetarli hisoblanadi.

Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchining o‘z mablag‘i va (yoki) qarz mablag‘larini investitsiyaga kiritishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati lizing faoliyatidir.

Banklar lizing faoliyatini o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradi.

Xalqaro lizing tashkilotlari. Ma’lumki, hozir jahonda juda ko‘p lizing tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Eng yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan «Ebikliz» va Milliy lizing assotsiasiyalarining Yevropa Federatsiyasi «Lizyurop»ni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

a) ularga a’zo mamlakatlarning qonunchiligini qiyoslab o‘rganish;

b) barcha soliq va moliyaviy masalalarni huquqiy hal etish;

d) lizing bitimlarining shartlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotni to‘plash;

f) lizing firmalarini tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish.

Lizing shartnomasi obyekti va subyekti. Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi (FK 587-m.).

Iste’mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar *lizing obyekti* bo‘lishi mumkin, yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari bundan mustasno (FK 588-m.).

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir.

Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo‘yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o‘ziga mulk qilib oluvchi shaxs *lizing beruvchi* deb tan olinadi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing obyektini oladigan shaxs *lizing oluvchi* deb hisoblanadi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo‘lsa, shu shaxs *sotuvchi* deb e’tirof etiladi.

Lizing beruvchi – mol-mulkni bo‘lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo‘yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag‘ bilan ta’minlagan taqdirda bir shaxsning o‘zi ham lizing oluvchi, ham ishlab chiqaruvchi bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi (FK 589-m.).

Lizing to‘lovi lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko‘p qismi, shuningdek lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchining daromadidan iborat bo‘ladi (FK 590-m.).

Ma’lumki, lizing shartnomasi muayyan tarkibiy qismlardan iborat. Lizing shartnomasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak:

– lizing obyekti;
– yetkazib berish muddati;
– ijara muddati;
– ijaraga beruvchining mulk huquqi;
– xavf-xatar, javobgarlik, uskunaning soz ekanligi;
– uskunalardan foydalanish yo‘riqnomalari;
– uskunani ta’mirlash va unga xizmat ko‘rsatish;
– zararlar, tasodifiy hodisalar;

– sug‘urtalash;
– ijara to‘lovi;
– to‘lovni kechiktirganlik uchun jarima;
– sotib olish imkoniyati;
– shartnomani bekor qilish shartlari;
– uskunani qaytarish vaqti;
– soliq;
– tomonlarning qo‘shimcha huquqlari;
– lizing shartnomasining kuchga kirishini kechiktiruvchi sharoit;
– zarur ma’lumotlarni yetkazish majburiyatlari;
– tomonlarning joylashgan o‘rni;
– bankning kafolati;
– fors-major holatlar, lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi va boshqalar.

Lizing shartnomasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar xam kiritilishi mumkin.

Lizing shartnomasi hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega yangi shartnomalardan bo‘lib, iqtisodiy turmushga jadal sur’atlarda kirib bormoqda.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mulk ijarasi shartnomasining obyektlari va subyektlari nimalardan tashkil topgan?
2. Mulk ijarasi shartnomasining muhim shartlari sifatida shartnomada muddatlar va baholar qanday rol o‘ynaydi?
3. Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan mol-mulkni sotib olish va yaxshilash shartlarini tushuntirib bering.
4. Quyidagi mulk ijarasining ayrim turlari va ayrim turdagi mol-mulkni ijaraga berish xususiyatlarini tasniflang:

a) prokat shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish shartlari;

b) transport vositasini ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha transport vositasiga yoki transport vositasi bilan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;

d) bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning zarurati;

e) korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan korxonani topshirishda topshirish dalolatnomasining ahamiyati;

f) lizing shartnomasida lizing to‘lovining boshqa to‘lovlardan farqli jihatlari.

11-MAVZU.
PUDRAT SHARTNOMASI

1. Pudrat shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi.
2. Pudrat shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari.
3. Pudrat shartnomasining alohida turlari va ularning tavsifi.

1. Pudrat shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek «...bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste’mol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to‘lashni yanada oshirish, xizmat ko‘rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e’tibor berishdir»[1].

Pudrat shartnomasi – fuqarolik subyektlari o‘rtasida tuziladigan va ishni bajarishga qaratilgan shartnomalardan biri. Shunga ko‘ra, pudrat shartnomasi asosida bir necha turdagi ishlar, xususan, maishiy ehtiyojni ta’minlash, qurilish ishlarini bajarish, loyihalash, qidiruv, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlarini bajarib berish yuzasidan bitimlar tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 631-702-moddalari bo‘yicha huquqiy tartibga solinadi. Bundan tashqari, pudrat ishlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda Fuqarolik kodeksining majburiyat to‘g‘risidagi umumiy qoidalari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda mulk to‘g‘risidagi, kichik yoki xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi va boshqa qonunlar, farmonlar, qarorlar hamda pudrat ishlarining alohida turlarini tartibga solishga qaratilgan boshqa normativ huquqiy hujjatlar joriy etiladi.

Pudrat shartnomasi haqida Fuqarolik kodeksi 631-moddasining 1-qismida tushuncha berilgan bo‘lib, unda belgilanishicha, pudrat shartnomasi bo‘yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning

---

[1] *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ќонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги 2010 йил 12 ноябр. маърузаси // Халқ сўзи.–2010.– 13 нояб.

topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi.

Pudrat shartnomasining ayrim turlari, xususan, maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyihalash yoki qidiruv ishlari pudrati, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati Fuqarolik kodeksining mazkur shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalari, ya’ni 656-702– moddalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, pudrat to‘g‘risidagi umumiy qoidalar qo‘llaniladi.

Pudrat shartnomasiga oid qoidalarni huquqiy munosabatlarga to‘g‘ri tatbiq etish uchun uning o‘ziga yaqin bo‘lgan turdosh shartnomalardan farqlash lozim. Pudrat shartnomasining mulkni topshirishga qaratilgan shartnomalardan, ya’ni oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, tovarlar yetkazib berish to‘g‘risidagi davlat kontrakti, korxonani sotish, ko‘chmas mulkni sotish to‘g‘risidagi shartnomalardan farqi shundaki, ushbu shartnoma qoidalarida ishni bajarish manbai va jarayoni mutlaq ahamiyatsiz bo‘lib, shartnomaga muvofiq mulk topshirish yetarli hisoblanadi. Pudrat shartnomasining obyekti bo‘lib ma’lum bir bajarilgan ishning natijasi hisoblanadi.

Pudrat shartnomasi mehnat shartnomasiga o‘xshab ketsa-da, biroq undan tubdan farq qiladi. Farqi shundan iboratki, mehnat shartnomasida xizmatchi, ya’ni topshiriqni bajaruvchi faqat fuqaro bo‘lsa, pudrat shartnomasida pudratchi fuqarolar bilan bir qatorda turli tashkilotlar ham mavjud. Mehnat shartnomasi obyekti xodimning mehnat faoliyati bo‘lsa, pudrat shartnomasida shartnomaning *obyekti* pudratchining mehnati natijasi bo‘ladi. Mehnat shartnomasiga muvofiq xodimlar muayyan tashkilotga qo‘shilgan holda, undagi ichki tartib-qoidalarga rioya qilib mehnat qilsalar, pudrat shartnomasida pudratchi mustaqil holda ishni tashkil qiladi va ishning natijasi uchun barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga olib, faoliyat yurgizadi. Mehnat shartnomasiga ko‘ra vazifasini uyida bajaradigan xodimlar faoliyati pudrat shartnomasiga juda o‘xshash bo‘lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Uyda ish bajaruvchi (masalan, uyda kiyim tikib beruvchi) aniq bir buyurtmani ishxonasidan olib, korxonadagi ichki tartib-qoidalardan yiroqda, ya’ni uyda bajarsa-da, bari-bir shu korxonaning ishchisi tarkibida turadi va unga nisbatan qonunlarda belgilangan ijtimoiy kafolat tatbiq etiladi.

Xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonunlarda fuqarolar yuridik shaxs tashkil etmasdan ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mum-

kinligi belgilangan. Bunda mehnat qilayotgan shaxsga biron-bir korxonaning ichki tartib-qoidasi joriy etilmasa ham unga nisbatan ijtimoiy sug‘urta joriy etiladi. Mehnat qonunchiligiga muvofiq mehnat sharoitini o‘zi yaratadi va qilgan mehnatidan foyda yoki daromad oladi. Bu faoliyat ijtimoiy mehnatga tenglashtiriladi va unga qonunda belgilangan ijtimoiy kafolat joriy etiladi.

Keyingi paytda *ijara pudrati* nomi bilan bir korxonada mehnat qiluvchi yakka shaxs yoki alohida bir guruh shaxslar jamoa yoki brigada pudrati tashkil etib, ish beruvchi – buyurtmachining topshirig‘iga muvofiq uning materiallari (xom ashyo, urug‘ va hokazo)dan foydalangan holda haq evaziga ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqaradi. Bunday munosabat amaliyotda ma’lum bir anglashilmovchiliklarga olib kelmoqda. Shu sababli shartnomalarni huquqiy jihatdan turkumlashda ularning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish kerak.

Agar pudratchi sifatida korxonaning ishchisi yoki ishchilar guruhi ishtirok etsa, unda bu munosabatga mehnat qonunchiligi qoidalari tatbiq etiladi va uni «ijara pudrati» deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu munosabat na pudrat va na ijaraga to‘g‘ri keladi. Agar ishni bajaruvchilar, korxonaning ish beruvchi xodimlari tarkibi (shtati)da turmagan shaxs yoki shaxslar guruhi bo‘lsa va ish beruvchining topshirig‘ini bajarib, pul yoki natura shaklidagi haq evaziga o‘z mehnati natijasini topshirsa, bu munosabat oddiy pudrat shartnomasi hisoblanadi. Bunda pudratchi topshiriq beruvchining materiali va yeridan foydalanishi yoki mehnat haqi sifatida yetishtirilgan mahsulotning bir qismini olib qolishi pudrat shartnomasining huquqiy tabiatiga ta’sir etmaydi. Shu sababli uni ijara pudrati deb atashga hech qanday asos yo‘q va to‘liq holda pudrat shartnomasiga mansub bo‘ladi.

Pudrat shartnomasi bilan tuziladigan majburiyatlarning *konstitutiv belgilari* quyidagilardan iborat:

– pudratchi buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha buyurtmachining u yoki bu individual topshiriqlarini qondirish maqsadida ishni bajaradi;

– pudratchi yangi ashyoni yaratish yoki qayta tiklash, yaxshilash, mavjud bo‘lgan ashyoni o‘zgartirish kabi natijaga ega bo‘lgan belgilangan ishni bajarishga majburiyatini oladi;

– pudrat shartnomasi bo‘yicha yaratilgan ashyo to buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilganga qadar pudratchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi;

– pudratchi shartnomaga asoslangan natijaga erishish usul va vositalarini mustaqil tanlash huquqiga ega (shartnomada va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

– pudratchi ishni bajarish jarayonida uning natijasiga nisbatan tavakkalchilik qiladi.

Pudrat shartnomasi o‘ziga xos *huquqiy belgilarga* ega. Jumladan, pudrat shartnomasi *konsensual, ikki tomonlama, haq baravariga* tuziladigan va ishni bajarishga qaratilgan shartnomalar guruhiga kiradi.

Bu shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan tuziladi va tuzilgan vaqtdan boshlab, kuchga kirgan hisoblanadi. Uning bu xususiyati konsensual shartnoma ekanligini anglatadi.

Pudrat shartnomasi ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Shartnomada qatnashgan taraflar bir-biriga nisbatan huquq va burchga ega. Pudratchi shartnomaga muvofiq ishni bajarib berish majburiyatiga, buyurtmachi esa bir vaqtning o‘zida ishning kelishilgan narxini to‘lash majburiyatiga va uni o‘z vaqtida bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Pudrat shartnomasi haq baravariga tuziladi. Bajariladigan ishning bahosi taraflar kelishuvi bilan belgilanadi.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ish ma’lum bir ashyoni tayyorlash, masalan, ishlab chiqarish texnikasiga oid mahsulotni yetkazib berish shartnomasiga ko‘ra sotib olishning imkoni bo‘lmagan asbob-uskunalar va shunga o‘xshash mahsulotlarni yasattirish, fuqarolarning maishiy ehtiyojlari uchun buyumlar tayyorlash, yoki ashyolarni qayta ishlab, ta’mirlash, xom ashyoga qayta ishlov berish yoxud boshqacha tartibda ishni bajarib, buyurtmachiga topshirish yoki buyurtmachining topshirig‘iga muvofiq, u tomonidan vakil qilingan shaxslarga yetkazishdan iborat.

Pudrat shartnomasida *ikki taraf* ishtirok etadi. Ularning biri *pudratchi* – ishni bajaruvchi bo‘lsa, ikkinchisi, *buyurtmachi* – ish yuzasidan topshiriq beruvchidir. Davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, xususiy korxonalar, shuningdek, tadbirkor hamda ishbilarmon fuqarolar pudratchi yoki buyurtmachi bo‘lishlari mumkin.

Ma’lum bir ashyoni tayyorlash, ishlab chiqarish texnikasiga oid bo‘lgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha olishi mumkin bo‘lmagan asbob-uskunalar va shunga o‘xshash mahsulotlarni yasatib olish, maishiy ehtiyoj uchun buyumlar tayyorlash, ashyolarni qayta ishlash hamda ta’mirlash, xom ashyoga qayta ishlov berish kabi bir qator topshiriqlarni beruvchi shaxs buyurtmachi hisoblanadi.

Buyurtmachi fuqaro bo‘lgan taqdirda, u iste’molchi huquqlaridan foydalanadi. Agar u yakka tadbirkor yoki yuridik shaxs yoxud davlat va uning organlari bo‘lsa bunday huquqdan foydalana olmaydi.

Pudrat shartnomasida agar fuqaro ish natijasidan foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun buyurtma bersa u iste’molchi maqomiga ega bo‘ladi. *Iste’molchi deb*, bunday munosabatlarda, ish natijasidan shaxsiy, oilaviy, uy-ro‘zg‘or va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq bo‘lmagan, ya’ni foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan holda foydalanayotgan jismoniy shaxs – fuqaro tushuniladi.

Davlat korxonalari nizomlarida bunday ishlarni bajarishga ruxsat etilgan taqdirda xodimlar pudratchi bo‘lib ishtirok etishlari mumkin.

Shartnomada kelishilgan buyurtmani bajarish uchun majburiyat olgan shaxs pudratchi hisoblanadi. Odatda shartnomada belgilangan ishni pudratchining o‘zi bajarishi lozim. Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvi bilan ishni pudratchining shaxsan o‘zi bajarishi belgilangan bo‘lmasa, pudratchi ma’lum bir ishlarni bajarish yuzasidan boshqa pudratchi bilan shartnoma tuzishi mumkin. Bu holda pudratchi *bosh pudratchi*, muayyan qo‘shimcha ishni bajarish uchun bosh pudratchi bilan shartnoma tuzgan shaxs *yordamchi pudratchi* deb ataladi.

Bosh pudratchi shartnoma bo‘yicha ishni bajarish uchun yordamchi pudratchini zarur barcha materiallar bilan ta’minlashga majbur. Ishni bajarish muddati bosh va yordamchi pudratchi o‘rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi. Yordamchi pudratchi ishni bajarish bilan bog‘liq muddat va boshqa barcha shartlarga qat’iy rioya etishga majbur. Yordamchi pudratchi bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomasi bo‘yicha ishni bajarish muddatini kechiktirganda yoki shartnoma shartlarini boshqacha tarzda buzganda, u bosh pudratchi oldida javobgar bo‘ladi. Bunda bosh pudratchi buyurtmachi, yordamchi pudratchi esa, pudratchi sifatida ko‘riladi. Majburiyat bajarilmagani uchun, basharti qonun hujjatlari yoki shartnomada yordamchi pudratchining javobgar bo‘lishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnoma bo‘yicha pudratchi javobgar bo‘ladi.

Bosh pudratchi ham yordamchi pudratchi oldida shartnoma bo‘yicha javobgar bo‘lishi mumkin. Bosh pudratchi yoki buyurtmachi asosiy pudrat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoxud lozim darajada bajarmaganligi tufayli yordamchi pudratchi oldida javobgar bo‘ladi. Bosh pudratchi buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzilganda shartnomaning bajarilishi yuzasidan faqat pudratchi javobgar bo‘ladi. Bosh pudratchi ishni sifatli bajarish uchun yordamchi pudratchi jalb qilganda ham bajarilgan ish yuzasidan buyurtmachi oldida o‘zi javobgar bo‘ladi. Buyurtmachi shartnoma bo‘yicha faqat pudratchi bilan huquqiy munosabatda bo‘ladi. Buyurtmachi bilan yordamchi pudratchi o‘zaro hech qanday huquqiy munosabatda bo‘lmaydi. Shu sababli, buyurtmachi ham, yordamchi pudratchi ham bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalari shartlari buzilishi bilan bog‘liq talablarini bir-biriga quyishga haqli emas. Qonunda bosh pudratchi bilan tuzilgan shartnoma shartlari buzilgani uchun buyurtmachi bilan yordamchi pudratchining o‘zaro bir-biriga talablar qo‘yishi bundan mustasno.

Agar qonun yoki shartnomada pudratchining ishni shaxsan o‘zi bajarishi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, pudratchi ishni bajarish uchun yordamchi pudratchi jalb qilgan bo‘lsa va mazkur yordamchi pudratchi shartnomani bajarishda qatnashib, mahsulotga zarar yetkazsa, shu zarar uchun buyurtmachi oldida pudratchi javobgar bo‘ladi.

Buyurtmachi ishni bajarish yuzasidan bosh pudratchidan tashqari boshqa shaxslar bilan ham shartnoma tuzishi mumkin. Bu paytda, albatta, buyurtmachi bosh pudratchining roziligini olishi shart. Bosh pudratchi ishning bir qismini bajargan boshqa shaxslar bilan ish bo‘yicha hech qanday huquqiy munosabatda bo‘lmaydi. Shu tufayli bosh pudratchi ishni bajarishda ishtirok etgan boshqa shaxslarning ishini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun buyurtmachining oldida hech qanday javobgar bo‘lmaydi. Ishning ma’lum bir qismini bajargan bosh pudratchidan boshqa shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun buyurtmachi oldida bevosita o‘zlari javobgar bo‘ladilar.

M.I. Braginskiy va V.V. Vitryanskiyning fikricha, natijasi o‘zidan ajratilgan har qanday ish bajarish to‘g‘risida so‘z ketganda pudrat shartnomasi iborasi ishlatiladi va ushbu ish, albatta, pudratchi tomonidan tashkil etiladi. Odatda ishning natijasi yangi yaratilgan ashyo bo‘ladi – bu tikilgan kostum ham barpo etilgan bino yoki inshoot ham bo‘lishi mumkin. Lekin buyurtmachining muayyan ashyoni qayta ishlash yoki unga ishlov berish uchun topshirishi haqidagi shartnoma ham pudrat shartnomasi hisoblanadi[1]. B.Ibratovning fikricha, pudrat shartnomasi tuzish orqali

[1] *Брагинский М.И., Витрянский В.В.* Договорное право. Кн. 3. Договоры о выполнении работ и оказании услуг. – М., 2000. – С. 11.

ishlab chiqarish texnikasiga oid texnika vositalarini tayyorlash, yasab berish, uy-joylar, binolar, inshootlar qurib berish, qayta tiklash, ta'mirlash, loyihalash, qidiruv ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish kabi munosabatlar vujudga keladi[1].

Pudrat munosabatlari nafaqat ashyoni buyurtmachiga topshirish, balki ushbu ashyoni yaratish jarayoni bilan bog‘liq munosabatlarni ham qamrab oladi[2]. Pudrat shartnomasi bilan ashyoviy natijaga ega bo‘lgan ish bajarish jarayoni va ushbu natijani buyurtmachiga topshirish munosabatlari ham tartibga solinadi[3].

Demak, pudrat shartnomasi ishni bajarish bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar turkumiga kirganligi sababli uning *predmeti moddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan ashyoni yaratish yoki ta'mirlashga qaratiladi*.

FKning 632-moddasiga asosan pudrat shartnomasi ashyoni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ish pudratchining materiallari, uning kuchi va mablag‘lari hisobidan bajariladi.

Agar buyurtmachi bergan materialdan foydalangan holda ishni bajarish shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa pudratchi buyurtmachi bergan materialdan tejab-tergab va rejali foydalanishi, ish tugaganidan so‘ng ishlatilgan material to‘g‘risida buyurtmachiga hisobot berishi, shuningdek uning qoldig‘ini qaytarib berishi yoxud o‘z ixtiyoridagi foydalanilmay qolgan materialning qiymatini hisobga olib, buyurtmachining roziligi bilan ishning bahosini kamaytirishi shart.

Pudratchi buyurtmachi bergan materialni tegishli suratda qabul qilib olayotganida undagi kamchiliklarni aniqlash mumkin bo‘lmaganligini isbot qila olmasa, u buyurtmachi bergan materialning kamchiliklari tufayli ishning lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Pudrat shartnomasini bajarish munosabati bilan buyurtmachi bergan material, uskuna, qayta ishlashga (ishlov berishga) topshirilgan ashyo va

---

[1] Fuqarolik huquqi. II qism / *M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Axmadjonov va boshq*. –T., 2007. – B.210.

[2] *Гришаев С.П.* Гражданское право в вопросах и ответах. Часть вторая. 3-е изд. перераб.и доп: – М., 2009.– С.144.

[3] Гражданское право: В 2 т. Том II. Полутом 1. Отв. ред. *Е. А. Суханов*. – М., 2003. – С. 501.

pudratchi ixtiyoriga o‘tgan boshqa mol-mulk saqlanmaganligi uchun pudratchi javobgar bo‘ladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachining topshirig‘ini bajarish usullarini pudratchi mustaqil belgilaydi.

Pudratchi o‘zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo‘lmaganligi uchun, shuningdek uchinchi shaxslar huquqlari bo‘lgan materiallar va uskunalarni berganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Pudratchi bajargan ish pudrat shartnomasining shartlariga, shartlar bo‘lmaganida yoki to‘liq bo‘lmaganida esa, odatda tegishli turdagi ishlarga qo‘yiladigan talablarga mos kelishi kerak. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bajarilgan ish natijasi buyurtmachiga topshirish paytida shartnomada ko‘rsatilgan yoki odatda qo‘yiladigan talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lishi va oqilona muddat davomida shartnomada nazarda tutilganidek foydalanish uchun, agar u shartnomada belgilangan bo‘lmasa, bunday turdagi ishning natijasidan odatdagidek foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi kerak.

Agar qonun hujjatlarida pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ishga qo‘yiladigan majburiy talablar nazarda tutilgan bo‘lsa, tadbirkor sifatida ish olib borayotgan pudratchi ishni bunday majburiy talablarga amal qilgan holda bajarishi shart.

Pudratchi belgilangan majburiy talablarga nisbatan sifat jihatidan birmuncha yuqori talablarga javob beradigan ishni bajarishni pudrat shartnomasi asosida o‘z zimmasiga olishi mumkin.

Qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchi buyurt-machiga ishning sifatiga kafolat berishi nazarda tutilgan bo‘lsa, pudratchi butun kafolat muddati davomida FK 647-moddasining birinchi qismi talablariga mos keladigan ish natijalarini buyurtmachiga topshirishi shart. Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ishlar natijasining sifatiga berilgan kafolat ishning natijasini tashkil etuvchi hamma narsaga tegishli bo‘ladi.

Pudrat ishini bajarish muddatlari shartnomaning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Odatda, shartnomada ishni tamomlash muddati ko‘rcatiladi. Ammo taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan ishni boshlash, shuningdek, ishning ayrim qicmini tamomlash muddati (oraliq muddatlapi) ham belgilanishi mumkin. Masalan, tyrar-joyni ta’mirlash shartnomasi bo‘yicha, xususan, buyurtmachining manfaatlari nuqtai nazaridan ishning boshlanishi va oraliq muddatlari ko‘rsatilishi mumkin. Maishiy pudrat

shaptnomasi bo‘yicha ishni bajaruvchi tomonidan bajariladigan ishlar, chunonchi, kiyim tikish va ta’mirlash ishlarining oxirgi muddatlari ko‘rcatilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ishni bajarishning boshlang‘ich va oxirgi muddatlari, shuningdek, oraliq muddatlarini buzganlik uchun pudratchi javobgar bo‘ladi. Macalan, turar-joy va yordamchi binolarni fyqarolarning byyurtmalari bo‘yicha ta’mirlashda ishning oxirgi muddatini byzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ayrim ishlarni bajarish bo‘yicha oraliq muddatlar nazarda tytilgan bo‘lib, ana shy oraliq muddatlarni buzganlik uchun javobgarlik belgilanadi. Ammo ish shartnomada belgilangan oxirgi muddatda to‘liq bajarilca, pudratchi oraliq muddatni buzganlik uchun belgilangan javobgarlikdan ozod bo‘ladi.

Taraflarning hesh biri o‘z xohishi bilan bir tomonlama shartnomani bajarishning belgilangan muddatlarini o‘zgartirishga haqli emas. Faqat pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishni bajarishning boshlang‘ish, oxirgi va oraliq muddatlari shartnomada nazarda tutilgan holat va tartibda o‘zgartirilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan aniqlanadi yoki bahoni aniqlash usullari ko‘rsatiladi. Agar bajariladigan ishning bahosi yoki bahoni aniqlash usullari pudrat shartnomasida belgilanmagan bo‘lsa, ishning bahosi Fuqarolik kodeksi 356-moddasining 4-qismda belgilanganidek aniqlanadi. Bu qonunda haq to‘lashni nazarda tutadigan shartnoma baholari nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari bo‘yicha belgilanishi mumkin bo‘lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o‘xshash vaziyatlarda odatda shunday tovar, ish yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo‘yicha haq to‘lanishi kerakligi qayd etilgan.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ishning bahosi ishni bajarish bilan bog‘liq pudratchining ketgan barcha xarajatlarini qoplash (masalan, tikish, yasash, yamash, yaratishga sarflangan buyumlar qiymati, agar ular buyurtmachi tomonidan taqdim etilmagan bo‘lsa) hamda bajarilgan ish uchun to‘lanadigan haqdan iborat bo‘ladi.

Pudratchi tomonidan bajariladigan ishning bahosi smeta tuzish yo‘li bilan aniqlanadi. Smeta *qat‘iy* yoki *taxminiy* bo‘lishi mumkin. Agar shartnoma tuzish paytida keyinchalik bajarilishi lozim bo‘lgan ish va zarur materiallarning miqdorini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmasa, bu holda, taxminiy smeta tuziladi. Smetaning taxminiy bo‘lishi shartnomada yoki smetaning o‘zida alohida qayd qilingan bo‘lishi kerak. Qatyiy smeta

bo‘yicha shartnomaning aniq qiymati muayyan ishlar uchun kelishilgan bahoda taraflarning roziligi bilan aniq belgilangan bo‘ladi. Agar ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo‘yicha bajarilgan taqdirda smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Smeta tasdiqlangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega va pudrat shartnomasining bir qismi hisoblanadi. Agar pudratchi tomonidan bajariladigan ishning bahosi (smeta) shartnomada qat’iy yoki taxminiy ekanligi aniq-ravshan belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma bo‘yicha bajariladigan ishning bahosi qat’iy hisoblanadi.

Pudratchi tomonidan ishni bajarish jarayonida qo‘shimcha ishlarni bajarish zarur bo‘lib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini ancha oshirishga to‘g‘ri kelsa, pudratchi bu haqda buyurtmachini vaqtida ogohlantirishi shart. Buyurtmachi ogohlantirish olganidan so‘ng taxminiy smetani oshirishga rozi bo‘lmasa, pudratchi shartnomadan voz kechishga haqli. Bu holda shartnomani bekor qilgan pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismi uchun haq to‘lashni talab qilish huquqiga ega. Agar smeta qiymatining oshirilishi pudratchining aybi bilan bog‘liq bo‘lsa, buyurtmachi smetadan ortiqcha sarflangan xarajatlarni to‘lamagan holda majburiyatning bajarilishini pudratchidan talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Buyurtmachi pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosi (smeta)ni oshirish zarurligi haqida o‘z vaqtida ogoxlantirilishi shart. Agar pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosini oshirish zarurligi haqida buyurtmachini o‘z vaqtida ogohlantirmagan bo‘lsa, pudratchi smetadan ortiqcha xarajatlarni o‘z hisobiga o‘tkazib, shartnoma bo‘yicha olingan majburiyatini bajarishga majbur bo‘ladi. Lekin u shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajaradi va qo‘shimcha mehnati uchun haq olish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha qat‘iy smetani taraflar o‘zgartirishga haqli emas. Shartnoma bo‘yicha belgilangan qat‘iy bahoni pudratchi oshirishni talab qilishga haqli emas. Buyurtmachi ham qat’iy smetani kamaytirishni talab qilishga haqli emas. Hatto bajarilishi kerak bo‘lgan ishning to‘la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo‘lmagan hollarda ham taraflar smetani oshirish yoki kamaytirishni talab qilishga haqli emaslar.

Shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, quyidagi hollarda

shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan *sud tomonidan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin*:

1) pudrat shartnomasini tuzish paytida taraflar ish uchun ketadigan materiallarning narx-navosida bu darajada o‘zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar;

2) vaziyatning o‘zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo‘lganidan keyin manfaatdor taraf (pudratchi, buyurtmachi) pudrat shartnomasining xususiyatiga va muomala shartlariga ko‘ra o‘zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyotkorlik qilgan bo‘lishiga qaramay, bu sabablarni yenga olmagan bo‘lsa;

3) pudrat shartnomasini uning baho haqidagi shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy manfaatlarining shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o‘zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Baho borasida vaziyatning jiddiy o‘zgarishi oqibatida pudrat shartnomasi bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini ular o‘rtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi. Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomaning o‘zgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo‘lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o‘zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.

Ayrim hollarda pudratchi ishni bajarish jarayonida qo‘shimcha ishlarni ham bajarishga majbur bo‘lib qoladi. Shu sabab ishning taxminiy bahosi shu nuqtai nazarda oshishi mumkin. Agar bu bahoning oshish ehtimoli yuzaga kelsa buyurtmachini darhol ogohlantirishi shart bo‘ladi. Taxminiy smetani oshirish to‘g‘risidagi ogohlantirishga buyurtmachi rozi bo‘lmasa, u holda pudratchi shartnomadan voz kechishga haqli. Bu holatda pudratchi agar ishning ma’lum bir qismi bajarilgan bo‘lsa, shu qismining bahosini mutanosib ravishda buyurtmachidan talab qilishga haqli. Agar smeta qiymatining oshirilishi pudratchining aybi bilan bog‘liq bo‘lsa, buyurtmachi smetadan ortiqcha sarflangan xarajatlarni to‘lamagan holda majburiyatni bajarilishini pudratchidan talab qilishi mumkin.

Agar smetani oshirish haqida buyurtmachi o‘z vaqtida ogoh-lantirilmasa pudratchi smetadan ortiqcha xarajatlarni o‘z hisobiga o‘tkazib, shartnoma bo‘yicha olingan majburiyatni bajarishga majbur. Lekin u shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Natijada u qilgan qo‘shimcha mehnat uchun buyurtmachidan haq undirib olish imkoniyatini yo‘qotadi. Pudrat shartnomasida qat’iy smeta o‘zgartirilishi mumkin emas.

Pudratchining amaldagi xarajatlari ish bahosini aniqlash vaqtida (smeta tuzilayotganda) nazarda tutilgan xarajatlardan kam bo‘lgan hollarda, basharti buyurtmachi pudratchining tejami bajarilgan ish sifatiga ta’sir etganligini isbotlay olmasa, pudratchi ishlar uchun pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Pudrat shartnomasida pudratchining tejami taraflar o‘rtasida taqsimlanishi nazarda tutilishi mumkin.

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish tegishli tarzda va kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to‘lashi shart. Pudratchi qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va miqdordagina o‘ziga bo‘nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli.

Shartnomaning bajarilishi munosabati bilan buyurtmachi pudratchiga belgilangan tegishli haqni yoki boshqa summani to‘lash majburiyatini bajarmagan taqdirda, buyurtmachi tomonidan tegishli summa to‘langanga qadar pudratchi ishning natijalarini, shuningdek buyurtmachiga tegishli uskunalarni, qayta ishlash (ishlov berish) uchun berilgan ashyolarni, foydalanilmay qolgan material qoldig‘i va pudratchining ixtiyoridagi boshqa mol-mulkni ushlab qolish huquqiga ega, bu pudratchining buyurtmachi o‘z majburiyatini bajarishi uchun qilgan ta’minlash usuli hisoblanadi.

2. Pudrat shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari

Pudrat shartnomasi buyurtmachining topshirig‘iga muvofiq tuziladi. Shu sababli buyurtmachi ish jarayonini va sifatli bajarilayotganligini pudratchining ish faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtda tekshirib turishga haqli.

Buyurtmachi pudrat ishining bajarilishi jarayonini tekshirib, pudratchi shartnomani bajarishga o‘z vaqtida kirishmaganligi yoki ishni sust bajarishi natijasida uni shartnomada belgilangan muddatda tugata olmasligini aniqlasa, shartnomadan voz kechishi va pudratchidan o‘ziga etkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Buyurtmachi pudrat ishini tekshirib, ishning shartnomada belgilangan vaqtda tegishli darajada bajarilmasligini aniqlasa, pudratchi bilan ana shu kamchiliklarni yo‘qotish uchun kelishib, boshqa muayyan bir muddatni belgilashga haqli. Agar ana shu muddatda ham kamchiliklar tugatilmasa, buyurtmachi pudrat shartnomasidan voz kechishga yoki bu kamchiliklarni pudratchi hisobidan tuzatishni boshqa shaxsga topshirishga (agar shartnomada buyurtmachining ana shunday huquqi ko‘rsatilgan bo‘lsa), shuningdek, etkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Agar pudrat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, buyurtmachi istalgan vaqtda shartnomadan voz kechishi mumkin. Bu holda u pudratchini shartnomadan bir tomonlama voz kechganligi haqida ogohlantirishi shart.

Buyurtmachi pudrat shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ishning natijasini shartnomada nazarda tutilgan muddat va tartibda qabul qilish chog‘ida uni pudratchi ishtirokida ko‘rib chiqib, qabul qiladi. Ish natijasini qabul qilayotganda uni yomonlashtiradigan darajada shartnomadan chekinish bo‘lsa, yoki boshqa kamchiliklar aniqlansa, buyurtmachi bu xaqda pudratchini darhol xabardor qilishi kerak.

Bajarilgan pudrat ishi yozma tartibda qabul qilinsa, ishning qabul qilinganligi yozma tartibda rasmiylashtiriladi. Ishni qabul qilish vaqtida uning kamchiliklari aniqlansa, ularni tuzatish to‘g‘risida alohida hujjatda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Ana shundagina buyurtmachi bu kamchiliklarni vaj qilib ko‘rsatishga haqli bo‘ladi.

Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilib topshiriladigan pudrat ishini albatta ko‘rib, tekshirib va sinab ko‘rishi lozim. Masalan, televizor, radio, mashina va shunga o‘xshash texnika vositalarini qabul qilib olishda, ularning qanchalik sozligi hamda ishlash darajasini sinab ko‘rib, qabul qilishi lozim. Agar buyurtmachi ishni tekshirmasdan qabul qilgan bo‘lsa-yu, biroq uni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo‘lgan, ya’ni ochiq ko‘rinib turgan kamchiliklar keyinchalik aniqlansa, u mazkur kamchiliklarni dalil qilib keltirish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Pudratchi tomonidan bajarilgan pudrat ishida yashirin kamchiliklar ham yuzaga kelishi va ular shartnoma shartlaridan chekinish tufayli yoki pudratchi tomonidan qasddan sodir etilgan bo‘lishi ham mumkin.

Buyurtmachi ishni qabul qilib olganda yashirin kamchiliklar, ya’ni shartnomadan chekinishlar yoki ishni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanmagan boshqa nuqsonlar keyinchalik aniqlansa, qasddan yashirgan kamchiliklar ma’lum bo‘lib qolsa, ular aniqlangandan so‘ng 10 kunlik muddat davomida bu to‘g‘rida pudratchiga xabar qilishi shart. Bu muddat uzrli sababsiz o‘tib ketsa, buyurtmachi tomonidan qo‘yilgan talabni pudratchi qanoatlantirmasligi mumkin.

Bajarilgan pudrat ishining kamchiliklari yoki shu kamchiliklarning kelib chiqish sabablari yuzasidan pudratchi bilan buyurtmachi o‘rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, pudratchi yoki buyurtmachi ekspertiza tayinlashni talab qilishi mumkin. Bunday paytda talab qanoatlantirilishi shart. Ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar pudratchi zimmasida bo‘ladi.

Ammo ekspertiza natijasida pudrat shartnomasi buzilmaganligi aniqlansa yoki shartnomaning buzilishi bilan pudratchining harakatlari o‘rtasida hech qanday sababiy bog‘lanish bo‘lmasa, ekspertiza xarajatlarini qoplash pudratchi zimmasiga qo‘yilmaydi. Bu holda ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash mazkur ekspertizani o‘tkazishni talab qilgan taraf zimmasida bo‘ladi. Agar ekspertiza o‘tkazishni har ikki taraf birgalikda talab qilgan bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar har ikkala tomondan teng miqdorda qoplanadi.

Buyurtmachi bajarilgan pudrat ishini o‘z vaqtida qabul qilib olishi lozim. Agar ish o‘z vaqtida qabul qilib olinmasa, Fuqarolik kodeksining 646-moddasida belgilangan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Jumladan, qonunda belgilanganidek, taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa va buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortganida pudratchi shartnomaga binoan ish natijasi buyurtmachiga topshirilishi kerak bo‘lgan kundan boshlab bir oy o‘tgach va shundan keyin buyurtmachini ikki marta ogohlantirgan holda ish natijasini sotib yuborishga haqli.

Cotib yuborilganligi tufayli olingan puldan pudratchi o‘ziga tegishli hamma to‘lovlarni hisoblab olib, qolgan summani notarial idoraning depozitiga buyurtmachining nomiga kiritib qo‘yishga haqli. Buyurtmachi bildirilgan ishni qabul qilishdan bosh tortganda pudratchi shartnoma bo‘yicha bajarilgan ish natijasini sotib yuborish o‘rniga uni ushlab turish va keltirilgan zararni buyurtmachidan undirib olish huquqiga ham egadir.

Bajarilgan ishning tasodifan buzilishi yoki tayyorlangan ashyoning tasodifan nobud bo‘lishi xavfi shu ishni topshirish yoki qabul qilishni kechiktirgan taraf zimmasiga qo‘yiladi. Agar buyurtmachi bajarilgan ishni

belgilangan muddatda qabul qilib olmagan bo‘lsa, tayyorlangan yoki qayta ishlangan ashyoning tasodifan buzilish yoki nobud bo‘lish xavfi ashyo topshirilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab buyurtmachiga o‘tgan hisoblanadi.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ish sifatli bo‘lishi lozim. Bajarilgan ishni sifatli deb hisoblash uchun ish pudrat shartnomasi shartlariga muvofiq bo‘lishi, agar shartnomada ishning sifati haqida tegishli shart bo‘lmasa yoki shart to‘liq bo‘lmaganda, o‘xshash ishlarga qo‘yiladigan odatdagi talablarga mos bo‘lishi kerak.

Tadbirkor sifatida ish olib borayotgan pudratchining pudrat shartnomasi bo‘yicha bajaradigan ishiga qo‘yiladigan majburiy talablar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, ishni u bunday majburiy talablarga rioya qilgan holda bajarishi shart.

Bundan tashqari, pudratchi qonun hujjatlarida belgilangan majburiy talablarga nisbatan sifat jihatidan birmuncha yuqori bo‘lgan talablarga javob beradigan ishni bajarishni shartnoma asosida o‘z zimmasiga olishi ham mumkin.

Pudratchi quyidagilarni aniqlagan taqdirda darhol buyurtmachini ogohlantirishi va undan *ko‘rsatmalar olganga qadar ishni to‘xtatib turishi shart:*

-buyurtmachi bergan material, uskunalar, texnik hujjatlar yoki qayta ishlash (ishlov berish) uchun topshirilgan ashyoning yaroqsizligi yoki sifatsizligini;

-buyurtmachining ishni bajarish usuli to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini bajarish uning uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini;

-pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan, bajarilayotgan ish natijalarining yaroqliligi yoki pishiqligini xavf ostiga qo‘yadigan yoxud ishni belgilangan muddatda nihoyasiga yetkazish mumkin bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan boshqa holatlarni.

Yuqoridagi holatlar to‘g‘risida buyurtmachini ogohlantirmagan yoki ogohlantirishga javob olish uchun shartnomada ko‘rsatilgan muddat o‘tishini, bunday muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, oqilona muddat o‘tishini kutmasdan yoxud buyurtmachi ishni to‘xtatib turish to‘g‘risida o‘z vaqtida ko‘rsatma bergan bo‘lishiga qaramasdan ishni davom ettiravergan pudratchi buyurtmachi unga yoki pudratchi buyurtmachiga tegishli talablar qo‘yganida mazkur holatlarni vaj qilib keltirishga haqli emas.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ishning sifatiga kafolat berilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchi tomonidan buyurtmachiga bajarilgan ishning sifatiga kafolat

berilishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, qonunda belgilanganidek, pudratchi bajargan ish pudrat shartnomasining shartlariga shartlar bo‘lmaganida yoki to‘liq bo‘lmaganida esa, odatda tegishli turdagi ishlarga qo‘yiladigan talablarga mos kelishi kerak. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bajarilgan ish natijasi buyurtmachiga topshirish paytida shartnomada ko‘rsatilgan yoki odatda qo‘yiladigan talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lishi va oqilona muddat davomida shartnomada nazarda tutilganidek foydalanish uchun, agar u shartnomada belgilangan bo‘lmasa, bunday turdagi ishning natijasidan odatdagidek foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi kerak (FK 647-m. 1-q.).

Qonun hujjatlarida ham pudratchiga majburiy ishni bajarish uchun talablar qo‘yilishi mumkin. Shu hollarda pudratchi mazkur talablarga amal qilishga majbur bo‘ladi. Agar qonun hujjatlarida pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ishga qo‘yiladigan majburiy talablar nazarda tutilgan bo‘lsa, tadbirkor sifatida ish olib borayotgan pudratchi shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, ishni bunday majburiy talablarga amal qilgan holda bajarishi shart.

Ishning sifati bo‘yicha kafolat berish talab qilinadigan bo‘lsa, bu kafolat pudratchi tomonidan berilishi shart. O‘zbekiston Respublikasining Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni 12-moddasiga asosan iste’molchi o‘zi sotib olgan tovar (*ish*, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo‘lishiga va uning hayoti, sog‘lig‘i, atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishiga, shuningdek uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga yega.

Ushbu modda talablaridan kelib chiqqan holda bajarilgan ish buyurtmachining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa pudratchining kafolati bilan bog‘liq talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni 12-moddasiga asosan pudratchi ishning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, tovar iste’molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e’tiboran o‘n yil mobaynida uning xavfsiz bo‘lishini ta’minlashi shart.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 650-moddasiga asosan *ishning sifati lozim darajada bo‘lmaganligi uchun pudratchi javobgar* bo‘ladi.

Agar ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqqan holda bajarilib, ish natijasini yomonlashtirgan bo‘lsa, yoki uni shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun yoxud shartnomada yaroqsizlik haqida tegishli shartlar bo‘lmagan taqdirda, odatdagi maqsadlar uchun foydalanishga yaroqsiz qilib qo‘yadigan boshqa kamchiliklar bilan bajarilgan bo‘lsa, buyurtmachi, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, o‘z xohishiga ko‘ra pudratchidan:

– kamchiliklarni oqilona muddatda bepul bartaraf etishni;

– ish uchun belgilangan bahoni mutanosib ravishda kamaytirishni;

– shartnomada buyurtmachining kamchiliklarni bartaraf etish huquqi nazarda tutilgan bo‘lsa, ularni bartaraf etishga qilgan o‘z xarajatlarini qoplashni talab qilishga haqli.

Pudratchi ishdagi o‘zi javobgar bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish o‘rniga, buyurtmachiga shartnomani bajarishni kechiktirganlik natijasida yetkazgan zararni qoplagan holda ishni yangidan bepul bajarib berishga haqli. Bunday holda buyurtmachi ilgari o‘ziga topshirilgan ish natijasini, agar ishning xarakteriga ko‘ra uni qaytarib berish mumkin bo‘lsa, pudratchiga qaytarib berishi shart.

Agar ishdagi pudrat shartnomasi shartlaridan chetga chiqishlar yoki boshqa xil kamchiliklar jiddiy va bartaraf etib bo‘lmaydigan darajada bo‘lsa yoxud aniqlangan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan belgilangan oqilona muddatda bartaraf etilmagan bo‘lsa, buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortishga va keltirilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Pudrat shartnomasining muayyan kamchilik uchun pudratchini javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi sharti, agar bunday nuqsonlar pudratchining aybli harakatlari yoki harakatsizligi tufayli vujudga kelganligi isbotlansa, pudratchini javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Ishni bajarish uchun material bergan pudratchi uning sifati uchun sotuvchining sifati lozim darajada bo‘lmagan tovar uchun javobgarligi to‘g‘risidagi qoidalar bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

Buyurtmachi pudratchidan ishni qabul qilib olganidan so‘ng qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, belgilangan muddat davomida bajarilgan ish natijasining lozim darajada sifatli emasligi bilan bog‘liq talablarni Fuqarolik kodeksining 651-moddasida nazarda tutilgan muddatda qo‘yishi mumkin.

Pudratchi bajargan ishning sifati xususida kafolat muddatini belgilashi mumkin. Agar bu muddat belgilanmagan bo‘lsa, ish natijalaridagi

kamchiliklar maqbul muddatda, biroq ish natijasi topshirilgan kundan boshlab *ikki yil* mobaynida aniqlangan taqdirda, buyurtmachi ish natijasidagi kamchiliklar bilan bog‘liq talablarni qo‘yishi mumkin. Buyurtmachi ish natijasi lozim darajada sifatli emasligi bilan bog‘liq talablarni Fuqarolik kodeksining 651-moddasida belgilangan muddatda pudratchiga qo‘yishi uchun, albatta, qonunda, shartnomada yoki ish muomalasi odatlarida boshqacha muddat belgilangan bo‘lmasligi kerak.

Agar pudrat shartnomasiga muvofiq bajarilgan ish natijasining sifati xususida belgilangan kafolat muddati ikki yildan kam bo‘lsa, buyurtmachi ishdagi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ana shu kafolat muddati o‘tgandan so‘ng ham aniqlashi mumkin. Biroq, Fuqarolik kodeksi 651-moddasining 4-qismida belgilanganidek, bajarilgan ish natijasi buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingan yoki qabul qilib olinishi lozim bo‘lgan paytdan e’tiboran, ikki yil davomida aniqlangan taqdirda pudratchiga nisbatan talab qo‘ya oladi.

Buyurtmachi pudratchiga talab qo‘yishi uchun ishdagi kamchiliklar ish natijasi o‘ziga topshirilguncha yoki topshirish paytida yuzaga kelgan sabablarga ko‘ra paydo bo‘lganligini isbot qilishi lozim.

Pudrat shartnomasiga muvofiq, bajarilgan ish natijasining sifati lozim darajada ekanligi xususida kafolat muddati belgilanadi. Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kafolat muddati bajarilgan ish natijasi buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingan kundan yoki qabul qilinib olinishi lozim bo‘lgan paytdan e’tiboran o‘ta boshlaydi.

Kafolat muddatining *o‘tishi* belgilangan tartibda hisoblanadi. Pudrat shartnomasi bo‘yicha kafolat muddatini hisoblashda agar qonun hujjatlarida, taraflar o‘rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki u pudrat shartnomasining xususiyatlaridan kelib chiqmasa, Fuqarolik kodeksi 404-moddasining ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlarining qoidalari tegishlicha qo‘llaniladi. Pudratchi tomonidan pudrat shartnomasiga muvofiq bajarilgan ish natijasi sifatli emasligi xususida buyurtmachi da’vo qo‘zg‘atishga haqli. Da’vo qo‘zg‘atish qonunda belgilangan muddat ichida bo‘lishi kerak. Bunday muddat Fuqarolik kodeksining 150-moddasida belgilangan. Bu qonunda umumiy da’vo muddati *uch yil* qilib qayd etilgan. Buyurtmachi ishni qabul qilib olganidan so‘ng ish sifatining tegishli darajada emasligini bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab da’vo qo‘zg‘atish muddati o‘ta boshlaydi.

Agar qonun hujjatlari yoki pudrat shartnomasida pudratchining bajargan ish sifatiga kafolat berish nazarda tutilgan bo‘lib, belgilangan muddat ichida ishning sifati tegishli darajada emasligi aniqlaqnib ariza

berilganda, da’vo qo‘zg‘atish muddati ana shu kamchiliklar xususida buyurtmachi *ariza bergan kundan e’tiboran o‘ta boshlaydi.*

Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilayotgan ishni o‘zaro kelishuvga muvofiq qismlarga bo‘lib qabul qilishi ham mumkin. Bunday paytda ishning sifati lozim darajada emasligi xususida da’vo muddati pudrat ishining bir qismini qabul qilib, unda kamchiliklar aniqlanganidan so‘ng emas, balki pudrat shartnomasida belgilangan ishning hammasi butunlay qabul qilib olingan kundan e’tiboran o‘ta boshlaydi.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha taraflar *sir tutilishi* lozim bo‘lgan ma’lumotlarni saqlashlari shart. Buni hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlarida raqobatchilik kurashi, qolaversa, har bir sub’ektning qonuniy manfaati ham talab etadi. Bir taraf pudrat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarganligi tufayli ikkinchi tarafdan yangi qarorlar va texnikaviy bilimlarga oid, jumladan, tijorat siri deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar olishi mumkin. Bunday ma’lumotlarni olgan taraf ana shu ma’lumotni bergan tarafning roziligisiz uni uchinchi, ya’ni boshqa shaxslarga oshkor qilishga haqli emas. Bunday sir saqlanishi shart bo‘lgan axborotdan foydalanish tartibi va shartlari taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan belgilanadi.

Pudrat shartnomasi muddatidan avval bekor qilinganda pudratchi buyurtmachiga ish uchun bergan material va uskunalarni qaytarib berishi shart. Agar buyurtmachi Fuqarolik kodeksi 642-moddasining 4-qismida belgilanganidek, pudrat shartnomasi bajarilguncha shartnomadan bir tomonlama voz kechsa yoki Fuqarolik kodeksi 650-moddasining 3-qismiga muvofiq pudrat shartnomasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida belgilangan muddatda pudratchi uni bartaraf etmagan bo‘lsa, buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortishi mumkin. Bunday holda pudratchi buyurtmachi tomonidan berilgan materiallarni, us-kunalarni qayta ishlash (ishlov berish) uchun undan olingan ashyo va mol-mulkni buyurtmachiga qaytarib berishi shart yoki buyurtmachi ko‘rsatgan shaxsga topshirishi lozim. Agar pudratchi buyurtmachi tomonidan berilgan narsalarni qaytarishining iloji bo‘lmasa, qiymatini to‘lashi shart.

3. Pudrat shartnomasining alohida turlari va ularning tavsifi

Pudrat shartnomasining alohida turlari quyidagilar:

- maishiy pudrat;
- qurilish pudrati;
- loyihala yoki qidiruv ishlari pudrati;

- ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati.

Maishiy pudrat shartnomasi va uning huquqiy belgilari. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan *pudratchi maishiy pudrat shartnomasi* bo‘yicha buyurtmachi-fuqaroning topshirig‘i bilan uning maishiy yoxud boshqa shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma’lum ishlarni bajarish majburiyatini, buyurtmachi esa, ishni qabul qilish va ish haqini to‘lash majburiyatini oladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mulkni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi 1991-yil 19-noyabr qonuniga muvofiq, mamlakatda birinchi navbatda, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini xususiylashtirish boshlangan edi. Shu qonunga muvofiq, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari (ustaxona, modalar atelesi va shunga o‘xshashlar)ning deyarli barchasi xususiylashtirildi. Hozirgi paytda xususiy maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmoqda. Maishiy pudrat shartnomasi faqat fuqaro-buyurtmachilarning shaxsiy maishiy ehtiyojlarini ta’minlash yuzasidan tuziladi va shu sababli, maishiy pudrat shartnomasi deb ataladi va pudrat shartnomasining bir turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Fuqarolarning kundalik turmushida foydalanadigan shaxsiy va milliy ehtiyojlari uchun turli xil ashyolarni yaratib berish, xizmat ko‘rsatish xususiyatini oshirish maishiy pudrat shartnomasining obyektini tashkil qiladi. Mana shunday ehtiyojlarni ta’minlash maqsadida fuqarolar maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan shartnoma tuzadilar. Bunda pudratchi ishni bajarib berishga, buyurtmachi bajarilgan ishni o‘z vaqtida qabul qilib olishga va kelishilgan haqni to‘lashga majbur.

Fuqarolarning maishiy ehtiyojlarini ta’minlash uchun buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzilgan bo‘lishi lozim. Agar qonun hujjatlari yoki shartnomada, shuningdek, buyurtmachi qo‘shgan formulyarlar yoki boshqa standart shakllarning shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, pudratchi buyurtmachiga patga yoki buyurtma qabul qilinganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatni bergan paytdan boshlab, maishiy pudrat shartnomasi tuzilgan hisoblanadi. Maishiy pudrat shartnomasining tuzilganligini isbotlash uchun yuqorida qayd etib o‘tilgan hujjatlar buyurtmachi qo‘lida bo‘lmagan paytda ham shartnomaning tuzilganligini yoki uning shartlarini tasdiqlovchi guvoxlarning ko‘rsatmalarini vaj qilib keltirishga haqli. Demak, guvoxlarning ko‘rsatmasiga asoslanib, pudrat shartnomasi tuzilganligi yoki uning muhim shartlari xususida nizolashish mumkin.

Maishiy pudrat shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi faqat fuqaro hisoblanadi. Boshqa pudrat shartnomasida bunday buyurtmachining “faqat fuqaro bo‘lishlik” tushunchasi mavjud emas. Maishiy pudrat shartnomasi buyurtmachisi – fuqaro O‘zbekiston Pespublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan iste’molchi maqomiga ega bo‘ladi hamda unda belgilangan huquqlardan foydalanadi.

Shuningdek shartnomaning ikkinchi taraflari bo‘lgan pudratchi esa albatta tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan shaxs ya’ni tadbirkorlik subekti bo‘lishligi lozim. Maishiy pudrat bo‘yicha bajariladigan ish albatta tadbirkorlik faoliyati natijasi hisoblanadi.

Maishiy pudrat shartnomasining *huquqiy belgilari*:

Shartnoma *ikki tomonlama* shartnoma, *haq evaziga* tuziladigan *konsensual* shartnoma hisoblanadi.

Maishiy pudrat shartnomasini tuzish FK va O‘zbekiston Pespublikasi Bazirlar Mahkamasining 1995-yil 12-oktabrdagi 399-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Pespublikasi aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatish qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

Maishiy pudrat shartnomasi ommaviy shartnomalar jumlasiga kiradi. Чunki pudratchi buyurtma berishni istab o‘ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo‘lgan vazifalari belgilab qo‘yiladigan shartnoma hisoblanadi.

Maishiy pudrat shartnomasi ommaviy shartnoma sifatida bir qator muhim qoidalari mavjud:

1. Pudratchi buyurtmachilarning bir-biriga nisbatan afzallik berishga ya’ni bir buyurtmachini ikkinchisidan ustun qo‘yishga haqli emas.

2. Bajariladigan ishning bahosi barcha buyurtmachilar uchun bir xil bo‘lishi kerak.

3. Pudratchini asossiz ravishda shartnoma tuzishni rad etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shaxsiy pudrat shartnomasi bo‘yicha ish ham pudratchining, ham buyurtmachining materialidan foydalanib bajarilishi mumkin. Agar maishiy pudrat shartnomasi bo‘yicha ish pudratchining materialidan foydalanib bajarilishi taraflarning kelishuvi bilan bog‘liq bo‘lsa, buyurtmachi material haqining hammasini shartnoma tuzilayotgan vaqtda to‘laydi.

Agar taraflar materialning qiymatini bo‘lib-bo‘lib to‘lash xususida kelishib olgan bo‘lsalar va shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, buyurtmachi uning shartnomada belgilangan qismini to‘lab, pudratchi bajargan ishni buyurtmachi qabul qilib olayotganida to‘la hisob-kitob qilinadi.

Fuqarolik kodeksining 660-moddasi ikkinchi qismiga koʻra maishiy pudrat shartnomasiga binoan material pudratchi tomonidan nasiyaga shu jumladan buyurtmachi tomonidan materialning haqini boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan ham berilishi mumkin. Pudratchi tomonidan berilgan material bahosining maishiy shartnoma tuzilganidan keyin oʻzgarishi qayta hisob-kitob qilishga sabab boʻlmaydi.

Taraflarning oʻzaro kelishuvi bilan maishiy pudrat shartnomasi boʻyicha ish buyurtmachining materialidan foydalanib bajarilishi ham mumkin. Bunday hollarda pudratchi tomonidan buyurtmachiga shartnoma tuzilganligi xususida berilayotgan pattada yoki boshqa hujjatda materialning aniq nomi, ta'rifi va taraflarning kelishuvi bilan belgilangan bahosi koʻrsatilishi kerak.

Patta yoki shunga oʻxshash boshqa hujjatdagi materialning bahosi xususida buyurtmachi keyinchalik sudda nizolashishi mumkin (FK 661-m.).

Koʻrsatilgan xizmatlar qiymatini toʻlashda Aholiga maishiy xizmat koʻrsatish qoidalariga asosan quyidagi tartibga rioya qilinishi kerak:

- radioelektron apparatlar, poyabzal, kiyim-kechakni tuzatish, sartaroshlik xizmatlari uchun haq buyurtma bajarilgandan keyin olinadi;
- murakkab uy-roʻzgʻor texnikasini tuzatish xizmati uchun buyurtmachi pudratchi bilan kelishilgan, ammo 15 foizdan kam boʻlmagan miqdorda oldindan haq toʻlaydi;
- mebelni tayyorlash va tuzatish, uy-joy va turar joy boʻlmagan binolarni tuzatish va qurish, poyabzal tayyorlash va yakka tartibda kiyim tikish boʻyicha xizmatlar uchun buyurtmachi buyurtmani rasmiy-lashtirishda ish qiymatining 50 foizi miqdorida avans toʻlashi kerak;
- tantanali tadbirlarda xizmat koʻrsatish, marosimlarni oʻtkazish, aholini kurslarda oʻqitish (haqi bir oy oldin toʻlanadi) kinofotolaboratoriya va suratkashlik, kimyoviy tozalash, kir yuvish, ovoz yozib olish studiyalari, transport, ma'lumot-axborot, vositachilik va komfort xizmatlari uchun toʻlovlar buyurtmani rasmiylashtirishda toʻliq toʻlanadi.

Pudratchi buyurtmachi tomonidan berilgan materialni toʻgʻri, maqsadga muvofiq, tejamkorlik bilan sarf qilishi lozim. U ishni bajarganidan keyin ishlatilgan material toʻgʻrisida hisob berishi va uning ortib qolgan qismini buyurtmachiga qaytarishi kerak.

Maishiy pudrat shartnomasida ishning bahosi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi va u pudratchi e'lon qilgan preyskurantda koʻrsatil-ganidan yuqori boʻlishi mumkin emas.

Pudratchi ishni butunlay topshirganidan so‘ng buyurtmachi unga haq to‘laydi. Taraflarning kelishuviga muvofiq, buyurtmachi shartnoma tuzilayotganda ish uchun haqni to‘liq yoki bo‘nak berish yo‘li bilan to‘lashi mumkin (FK 662-m.).

Fuqarolik kodeksining 665-moddasida belgilanishicha, maishiy pudrat shartnomasi bo‘yicha ish tegishli darajada yoki umuman bajarilmagan taqdirda buyurtmachi Fuqarolik kodeksining 434–436-moddalariga muvofiq, sotib oluvchiga berilgan huquqlardan foydalanishi mumkin. Jumladan, agar ish sifatsiz bajarilgan bo‘lsa, buyurtmachi o‘z xohishiga ko‘ra ishni sifatli qilib, o‘xshash materialdan qaytadan bajarib berishni yoki kamchiliklarni tekinga tuzatishni, yo ishning bahosini mutanosib ravishda kamaytirish yoxud shartnomani bekor qilib, etkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqlidir.

Agar maishiy pudrat shartnomasi bajarilmagan bo‘lsa, buyurtmachi shartnomada belgilanganidek, shartnoma bajarilmaganligi sababli etkazilgan zararni undirib olishga haqli bo‘ladi.

Qurilish pudrati shartnomasi va uning huquqiy belgilari.

Fuqarolik kodeksining 666-moddasida ko‘rsatilganidek, *qurilish pudrati shartnomasi* bo‘yicha pudratchi shartnomada belgilangan muddatda buyurtmachining topshirig‘i bilan muayyan obyektni qurish uchun yoki boshqa qurilish ishini bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa pudratchiga ishni bajarish uchun zarur sharoit yaratib berish, ishni qabul qilish va kelishilgan haqni to‘lash majburiyatini oladi.

Qurilish pudrati shartnomasi pudrat shartnomasining bir turi bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari bir xil. Ammo mazkur shartnoma mamlakat iqtisodiyotida ko‘p qo‘llanishi va alohida xususiyatlari bilan maishiy pudrat, loyiha va qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati shartnomalaridan o‘ziga xos alohida belgilari bilan ajralib turadi.

Qurilish pudrati shartnomasining asosiy *huquqiy belgilari*: *birinchidan,* bu shartnoma konsensual, ya’ni taraflar o‘rtasida o‘zaro kelishuvga erishilgan va shartnoma tuzilgan paytdan boshlab huquq va burchlar vujudga keladi; *ikkinchidan,* haq baravariga tuziladi; *uchinchidan,* qurilish pudrati shartnomasi har ikki taraf uchun ham muayyan huquq va burchlar belgilaydigan ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Bunday korxona, bino, inshoot yoki boshqa bir obyektni qurish yoki qayta qurish, shuningdek, montaj, sozlash, ishga tushirish va qurilayotgan obyekt bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa ishlarni bajarish haqida tuzilishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida yoki qurilish pudrati shartnomasida pudratchining shartnomada ko‘rsatilgan ishni shaxsan o‘zi bajarishi majburiyati begilangan bo‘lmasa, pudratchi obyektni qurish bilan bog‘liq ba’zi ishlarni bajarishga shartnomaga muvofiq, o‘zga pudratchilarni ham jalb qilishi mumkin. Bunday hollarda ushbu pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Shartnomaning subyektlari sifatida buyurtmachi va pudratchi ishtirok etadi. Buyurtmachi sifatida har qanday jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Mutasaddi tashkilotlardan maxsus litsenziya olgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bunday harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar pudratchi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, pudratchi qonunga muvofiq yoki shartnomada ko‘rsatilgan hollarda mazkur qurilish obyektini tezroq bitkazib topshirish yoki ta’mirlash maqsadida boshqa shaxslar bilan subpudrat shartnomalarini tuzishi mumkin.

Qurilish pudrati shartnomasi korxonani, binoni (jumladan, uy-joy binosini), inshootni yoki boshqa obyektni qurish yoki qayta qurish haqida, shuningdek, montaj, sozlash-ishga tushirish va qurilayotgan obyekt bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa ishlarni bajarish haqida tuziladi (FK 666-m. 2-q.).

Qurilish pudrati shartnomasida ishning bahosi ko‘rsatilishi shart. Aks holda bu shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga olib kelishi mumkin.

Shartnoma bahosi, odatda, qurilish ishlarining miqyosiga mos bo‘ladi. Pudratchi qurilish va u bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni ishning hajmi, mazmuni va ularga qo‘yiladigan boshqa talablarni belgilaydigan loyiha-smeta xarajatlariga muvofiq amalga oshirishi shart. Loyiha-smeta xarajatlariga barcha xarajatlar – qurilish uchun ishlatiladigan materiallar, jihozlar va konstruktsiyalar, ishlar, to‘lanadigan haqlar va boshqa xarajatlar kiradi.

Qurilish pudrati shartnomasi odatda yozma shaklda tuziladi. Taraflar o‘zaro kelishib olishgach, uni imzolaydilar va shu vaqtdan e’tiboran ularda huquq va majburiyatlar vujudga keladi. Shartnomada buyurtmachi va pudratchining o‘zaro munosabatlari qanday amalga oshirilishi lozimligi to‘g‘risida aniq va tushunarli kelishuvga erishishlari ahamiyat kasb etadi.

Qurilish pudrati shartnomasi hozirgi bozor iqgisodiyoti sharoitida tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida tuziladi va amalga oshiriladi.

Buyurtmachi tomon vakolatli davlat organlariga murojaat qiladi. Bunday vakolatli organlar sifatida loyihalashtirilayotgan obyektning ahamiyatiga qarab, O‘zbekiston Pespublikasi Bazirlar Mahkamasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligiga qarashli, shuningdek, shahar va tuman hokimliklarining arxitektura va shaharsozlik boshqarmalari va bo‘limlari ish olib boradilar. Shaharsozlik kodeksiga binoan, davlat arxitektura qurilish ishlari nazorati vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlari, loyihalashtirish talablariga, aholi punktlarini rejalashtirish va qurilish ishlari sifati va undan foydalanishning belgilangan normalari hamda qoidalariga rioya etilishi maqsadida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham buyurtmachi, eng avvalo, qurilish to‘g‘risida bir qarorga kelishdan oldin arxitektura va shaharsozlik boshqarmasi yoki bo‘limining roziligini olishi lozim. Shuningdek, tegishli obyektni qurish va undan foydalanish uchun boshqa bir qancha ma’muriy organlarning ham roziligi talab qilinadi.

Shundan so‘ng buyurtmachi o‘zi uchun maqbul keladigan pudratchini qidirib topishi lozim. Buyurtmachi pudratchi bilan oddiy shaklda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish pudrati shartnomasini tuzishi yoki tanlov e’lon qilish orqali o‘zi uchun eng ma’qul bo‘lgan pudratchini tanlab olishi ham mumkin. Tanlov O‘zbekiston Pespublikasi Bazirlar Mahkamasining «Pudrat savdolarini o‘tkazish to‘g‘risida»gi nizom asosida amalga oshiriladi. Bunday tanlov tender asosida amalga oshirilib, bunda pudratchining malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoni, foydalaniladigan qurilish materiallarining sifati, subpudratchilarning tajribasi, eng muhimi, obyektni topshirish muddati, sifati va amalga oshirilgan ishlar qiymati mezon qilib olinadi. Shuning uchun tender e’lon qilinganda qurilishi lozim bo‘lgan obyektga oid barcha ma’lumotlar, buyurtmachi, qurilish pudrati shartnomasining loyihasi va tanlovda qatnashish shartlari hamda boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlar tanlov ishtirokchilariga ma’lum qilinadi. Tanlovda qurilish ishlari olib borishga tegishli tarzda litsenziya olgan barcha yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijiy subyektlar ishtirok etishlari mumkin. Tanlov g‘olibi bo‘lgan tashkilot bilan buyurtmachi shartnoma

tuzishga majbur bo‘ladi. Bu shartnoma tender e’lon qilingan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Pudrat shartnomasida quyidagilar ko‘rib chiqilishi lozim:

a) shartnomaning kirish qismida shartnomaning qachon va qaerda tuzilganligi, qaysi qurilish tashkiloti pudratchi va qaysi tashkilot buyurtmachi bo‘lishi;

b) barcha umumqurilish va maxsus qurilish ishlarini tasdiqlaydigan loyiha-smeta va pudratchining qurilish obyektlarining shartnomaga ilova qilingan ro‘yxatiga muvofiq uni qurib bitkazishni o‘z zimmasiga olganligi;

d) shartnomada pudratchining ko‘rsatilgan ishlarni loyiha-smeta va qurilish hujjatlariga muvofiq shartnoma bo‘yicha belgilangan muddatda o‘zining moddiy-texnika bazasi va kadrlari bilan bitkazib topshirish majburiyatini o‘z zimmasiga olganligi yoki ishga subpudratchilarni jalb qilish huquqi ko‘rsatib o‘tiladi. Obyektning sug‘urtalangani to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar ikkinchi tomonga taqdim etilishi lozim. Sug‘urtalash ikkinchi tomonni sug‘urta hodisasi yuz berishining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish majburiyatidan ozod qilmaydi. Sug‘urta xavf-xatari taxmin qilingan voqeaning ro‘y berishi ehtimoli hisoblanadi. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchiga sug‘urta xavf-xatari muqarrarligi darajasini belgilovchi holatlar haqida ma’lumot berishi shart. Pudratchi yoki buyurtmachi qurilayotgan inshoot, bino qanday materialdan qurilayot-ganligi, undan nima maqsadda foydalanish rejalashtirilayotganligi haqida sug‘urtalovchiga ma’lumot berishi kerak. Shuningdek, sug‘urta qiluvchi obyekt bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’lumotlarni ham talab qilishi va ular bilan tanishib chiqishi mumkin.

Bajarilgan ishning sifati uchun pudratchining javobgarligi masalalari Fuqarolik kodeksining 681-moddasida belgilangan.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati. Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasi mohiyatiga ko‘ra qurilish pudrati shartnomasi bilan bog‘liq hisoblanadi, chunki qonunga binoan *loyiha va qidiruv shartnomasi* bo‘yicha pudratchi (loyihalovchi, qidiruvchi) buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha belgilangan muddatda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va (yoki) qidiruv ishlarini bajarish majburiyatini, buyurmachi esa uni qabul qilib olish va haq to‘lash majburiyatini oladi (FK 668-m.). Bu shartnoma ko‘p hollarda, qurilish pudrati shartnomasi tuzilishidan oldin tuziladi. Ba’zan loyiha va qidiruv ishlari pudrati va qurilish pudrati shartnomasi

bo‘yicha pudratchi bo‘lib yakka shaxs ishtirok etishi mumkin. Bunda qurilish pudrati shartnomasini tuzishda taraflardan biri – pudratchi yoki buyurtmachi zimmasiga kelishilgan muddatda qurilishning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va ikkinchi tomonga tanishib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim qiladi. Odatda, loyihalash va qidiruv ishlari tegishli ob’ektni qurishga nisbatan murakkab, alohida malaka va bilim talab qilganligi uchun bunday faoliyat bilan maxsus muassasalar shug‘ullanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qaroriga ilova (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1994-yil 18-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan)da mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar (tashkilotlar), shu jumladan, chet el korxonalari va qo‘shma korxonalar faqat maxsus ruxsatnoma asosidagina shug‘ullanishga haqli bo‘lgan faoliyat turlarining ro‘yxatiga muvofiq: atom energetikasi obyektlari, magistral truboprovodlar, ko‘priklar, tonnellar, shuningdek, mudofaa obyektlarini loyihalash; yong‘inga qarshi avtomashina vositalarini qo‘riqlash, signalizatsiyalarni, yong‘indan darak beruvchi va yong‘indan saqlovchi signalizatsiyalarni loyihalash; magistral va xalqaro aloqa liniyalarini loyihalash, ishlab chiqarish, uy-joy va fuqarolik hamda qishloq xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan binolar qurilishini loyihalash hamda qurilish loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish uchun vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar haqli hisoblanadi. Tegishli tarzda litsenziya olgan yuridik shaxslar loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasida pudratchi bo‘lib ishtirok etishlari mumkin. Loyiha va qidiruv ishlari pudratiga tegishli maxsus qoidalar va pudrat to‘g‘risidagi umumiy qoidalarga muvofiq, taraflar shartnomani faqat loyiha yoki qidiruv ishlari bo‘yicha tuzishlari mumkin. Buyurtmachida pudratchini tanlash va unga ish topshirish huquqi saqlanib qoladi.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasining predmeti bo‘lib pudratchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va (yoki) qidiruv ishlarini bajarish hisoblanadi. Pudratchi o‘z faoliyatining yakuni sifatida buyurtmachiga tegishli texnik hujjatlarni yoki qidiruv ishlari bo‘yicha tegishli hisobotlarni topshirishi shart. Shartnoma har bir holatda xususiyatlarga ega bo‘lganligi uchun uning predmeti ham unga mutanosib ravishda o‘zgarib turadi.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasida subyektlar sifatida buyurtmachi va pudratchilar ishtirok etadilar. Buyurtmachilar sifatida har qanday jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Эng muhimi, ularning loyiha va qidiruv ishlariga bo‘lgan ehtiyoji va xohish-irodasidir, lekin fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham qonunda belgilangan asoslardan kelib chiqib, sohalar, obyektlar bo‘yicha buyurtmachi bo‘lishlari mumkin. Ular fuqarolik muomalasida bo‘lgan obyektlarga belgilangan tartibda buyurtmachi bo‘lishga haqlidirlar.

Atom energetikasi obyektlari, magistral truboprovodlar, ko‘priklarni loyihalash ishlarini buyurtma qilishga ushbu tashkilotlarning shunday faoliyatni amalga oshirish to‘g‘risidagi vakolatlari ularning nizomlarida ko‘rsatilgan va tegishli tarzda maxsus ruxsatnomalar olgan bo‘lishlari lozim. Ko‘p hollarda, qurilish pudratchilari buyurtmachi bilan kelishgan holda loyiha va qidiruv ishlarida buyurtmachilar bo‘lib ishtirok etadilar.

Pudratchi sifatida qonun hujjatlariga binoan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olgan va tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar ishtirok etadilar. Pudrat shartnomasining umumiy qoidalariga muvofiq, loyiha va qidiruv pudrati shartnomasining maxsus qoidalariga zid bo‘lmaganligi uchun buyurtmachining topshiriqlarini bajarishda subpudratchilar ham jalb qilinishi mumkin. Bunda buyurtmachi, bosh pudratchi va subpudratchi o‘rtasidagi munosabatlar pudrat va qurilish pudrati to‘g‘risidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Uning tuzilishiga buyurtmachining tegishli obyektni loyihalash yoki qidiruv ishlarini olib borish haqida pudratchiga qilingan taklifi asos bo‘ladi. Pudratchi bunday taklifni qabul qilsa, shartnoma matnini tuzishga, uning shartlarini buyurtmachi bilan kelishishga kirishadi.

Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati. Bozor munosabatlari tizimida ilmiy-tekshirish, tajriba konstruktorlik va texnologiya ishlarini bajarish bevosita shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ushbu shartnomaning ta’rifi Fuqarolik kodeksining 693-moddasida quyidagicha berilgan: «*Ilmiy-tekshirish ishlari* pudrat shartnomasi bo‘yicha pudratchi (ijrochi) buyurtmachi bergan vazifada ko‘rsatilgan ilmiy-tekshirishlarni amalga oshirish, *tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrat shartnomasi* bo‘yicha esa – yangi buyum namunasini, unga tegishli konstruktorlik hujjatlarini, yangi texnologiyani

ishlab chiqish yoki namuna nusxasini tayyorlash majburiyatini oladi. Bunda buyurtmachi pudratchiga (ijrochiga) texnikaviy topshiriq berish, ishni qabul qilib olish va uning haqini to‘lash majburiyatini oladi. Pudratchi bilan tuzilgan shartnoma tadqiqot olib borish, namunalar ishlab chiqish va tayyorlashning butun jarayonini ham, ularning ayrim bosqichlarini (elementlarini) ham qamrab olishi mumkin».

Mazkur shartnomalar *konsensual, ikki tomonlama va haq baravariga* tuziladigan shartnomalar guruhiga kiradi. Ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarishga oid munosabatlarning xususiyatlariga ko‘ra mazkur shartnomalar pudratga oid alohida xo‘jalik shartnomalarining mustaqil bir shakli ekanligini anglatadi. Ushbu shartnomalar xalq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirish yuzasidan xo‘jalik subyektlari o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu shartnomalar fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, fan va texnikaning yangi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishda, mahsulotlar hamda xalq iste’moli mollarining yuqori sifatli bo‘lishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlarini bajarish yuzasidan bo‘ladigan munosabatlarni tartibga solishda Fuqarolik kodeksining 693–702-moddalari bilan bir qatorda, boshqa huquqiy hujjatlar, jumladan, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari shartnomalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda namunaviy shartnomalar muhim o‘rin tutadi.

Ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish yuzasidan tuziladigan shartnomalarning subyektlari bo‘lib ijrochi tashkilotlar hisoblanadi. Ishlarni ijro etuvchilar sifatida har qanday tashkilotlar emas, balki o‘zlarining maxsus huquq layoqatlariga binoan ilmiy-tekshirish ishlarini amalga oshira oladigan tashkilotlargina qatnasha oladilar. Bunday tashkilotlar jumlasiga maxsus ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining institutlari, oliy o‘quv yurtlari kiradi.

Shartnoma predmeti – bu shartnomani ijro etuvchining ijodiy faoliyati natijasida ilmiy-tekshirish yoki tajriba-konstruktorlik tashkilotlari jamoasining ijodiy mehnati mahsuli bo‘lib, ilmiy-konstruktorlik masalalarini hal qilishga qaratilgan. Taraflarning shartnoma yuzasidan oladigan majburiyatlari bo‘yicha shartnomani ijro etuvchi (pudratchi)ning asosiy majburiyatlari quyidagicha bo‘ladi.

Shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlar bajarilgandan so‘ng ijro etuvchi ishlarining natijasini buyurtmachiga topshirishga majbur. Shundan so‘ng bu ishda uning aybi bilan yo‘l qo‘yilgan ba’zi kamchiliklar keyinchalik aniqlansa, mazkur nuqsonlarni mumkin qadar qisqa muddat ichida o‘z vositalari, xarajatlari bilan, ya’ni o‘z hisobidan tuzatishga majbur bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Pudrat shartnomasining huquqiy belgilari nimalarda ifodalanadi?
2. Pudrat shartnomasi ishtirokchilari (pudratchi va buyurtmachi)ning huquq va majburiyatlarini tushuntirib bering.
3. Pudrat shartnomasining predmeti va uning alohida turlarini tasniflang.
4. Pudrat shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilib olishning ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Pudrat shartnomasining bekor bo‘lish asoslarini so‘zlab bering.

12-MAVZU.
YUK VA YO‘LOVCHILAR TASHISH SHARTNOMASI. SUG‘URTA

1. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy tavsifi.
2. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi bo‘yicha taraflarning javobgarliklari.
3. Sug‘urtaning tushunchasi, shakli va turlari.

1. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy tavsifi

Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, sanoat bilan qishloq xo‘jaligi, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi aloqani zamon talablariga muvofiq rivojlantirib borishda transportning barcha turlari: temir yo‘l, ichki suv yo‘li, havo yo‘li transporti, avtomobil transporti va boshqa xil transport turlarining ahamiyati kun sayin oshib bormoqda.

Transportning asosiy vazifasi – xalq xo‘jaligi va aholining yuk tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z vaqtida sifatli va to‘la qon-dirishdan, transport ishining iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

Tashish shartnomasi deganda tashuvchi yo‘lovchi va uning qo‘l yukini yoki yukni belgi

langan manzilga eltib qo‘yish majburiyatini oladi. Yo‘lovchi yoki yuq jo‘natuvchi(yuk oluvchi) esa belgilangan tarif bo‘yicha yuk tashuvchiga haq to‘lash majburiyatini oladi.

Yo‘lovchi va yuk tashish shartnomasida uning taraflari sifatida bir tomondan yo‘lovchi (jismoniy shaxs) va ikkinchi tomondan transport tashkiloti tashuvchi sifatida ishtirok etsa, yuk tashish shartnomasida bir tomonda yuk jo‘natuvchi va ikkinchi tomonda yuk tashuvchi ishtirok etadi.

Tashish qanday yo‘llar bilan amalga oshirilishiga qarab uch turga:

ichki qatnov bo‘yicha yuk va yo‘lovchilar tashishga;

xalqaro qatnov bo‘yicha yo‘lovchi va yuk tashishga;

to‘g‘ri – aralash qatnov bo‘yicha yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘linadi.

Ichki qatnov bilan yo‘lovchi va yuk tashish deganda, bir transport korxonasi harakat qiladigan chegarada, aniqrog‘i, mamlakat doirasida tashish tushuniladi. Masalan, temir yo‘lda *ichki qatnovlar* deganda yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini O‘zbekiston Respublikasi doirasida

tashish tushuniladi, havo transtportida esa havo kemasining jo‘nash, qo‘nish manzili va nazarda tutilgan barcha oraliq qo‘nish manzillari O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan parvozi chog‘ida bajarilgan tashish ishlari havo transportida *ichki tashish* deb hisoblanadi.

Xalqaro qatnov bo‘yicha yo‘lovchi va yuk tashish deganda, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan tashish tushuniladi. Jumladan, Temir yo‘lda xalqaro qatnovlar deb yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o‘rtasida tashish tushuniladi. Havo transportida esa havo kemasining parvoz davomida yangi yuk olgan-olmaganidan yoki parvozda tanaffus bo‘lgan-bo‘lmaganidan qat’i nazar, jo‘nash va qo‘nish manzillari:

a) ikki davlat hududida:

b) agar boshqa davlat hududida oraliq qo‘nish manzili (manzillari) nazarda tutilgan bo‘lsa, bir davlat hududida bajariladigan parvozlari chog‘idagi tashish ishlari havo transportida *xalqaro* tashish deb hisoblanadi.

To‘g‘ri-aralash qatnov bo‘yicha yo‘lovchi va yuklar tashish deganda, bir necha transport va korxonalarning ishtirokida yagona transport hujjati bilan yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish tushuniladi.

«Temir yo‘l transporti to‘g‘risida»gi qonunning 8-moddasida ko‘ra, *to‘g‘ri aralash qatnovlar* – yuklarni yagona transport hujjati bo‘yicha transportning har xil turlarida tashish. To‘g‘ri aralash qatnovlar ham ichki, ham xalqaro bo‘lishi mumkin.

Mazkur turdagi shartnomalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning predmetidir, ya’ni shartnomaning predmeti tovar yoki jo‘natilayotgan moddiy boyliklar bo‘lmay, balki transport korxonasining ikkinchi taraf (mijoz) ga ko‘rsatadigan transport xizmatidir.

Yo‘lovchi va yuklar tashish shartnomasi quyidagi qonunlar va xalqaro konvensiyalar bilan ham tartibga solinadi:

1. 1964-yil 6-apreldagi «SSR Ittifoqida temir yo‘llari ustavi». Bu Ustav hozirgi kunda ham sobiq SSR Ittifoqi hududida MDH davlatlarining kelishuviga asosan saqlanib, vaqtincha amal qilib turibdi. Ayni paytda u temir yo‘llardan foydalanish bo‘yicha davlatlararo bitim maqomiga ega. Shuningdek, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 4-yanvar «Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini tuzish to‘g‘risidagi bitimni va protokolni ratifikatsiya qilish haqida»gi qarori1 ham mavjud. Hozirgi paytda temir yo‘l bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda

1 Ўзбекистон овози.– 1992. – 5 янв.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan Temir yo‘l ustavi ham muhim huquqiy manba hisoblanadi.

2. 1993-yil 7-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksi.

3. «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgust qonuni.

4. «Shahar yo‘lovchi transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgust qonuni.

5. «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprel qonuni.

6. «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgust qonuni.

7. «Temir yo‘l transporti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprel qonuni.

8. «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprel qonuni.

9. «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprel qonuni.

10. Konteynerlar to‘g‘risidagi 1972-yil Xalqaro Bojxona konvensi-yasi.

11. Yuklarni xalqaro yo‘llarda tashishga mo‘ljallangan yo‘lda tashish vositalarini soliqqa tortish to‘g‘risidagi konvensiya, 1956-yil.

12. Xalqaro havo transportida tashishlarga doir ayrim qoidalarni bir xillashtirishga oid konvensiya, Varshava, 1929-yil.

Tashish shartnomasi *transport turiga va qilinadigan xizmatlar xususiyatiga qarab quyidagi turlarga*:

– temir yo‘l orqali;

– dengiz transporti orqali;

– havo transporti orqali yuk tashish;

– shatakka olish;

– yo‘lovchilar hamda ularning bagajlarini tashish shartnomalariga bo‘linadi.

Umuman *tashish* shartnomasini quyidagi ikki turga bo‘lish mumkin:

– *yo‘lovchi tashish shartnomasi;*

– *yuk tashish shartnomasi.*

Yo‘lovchi tashish shartnomasi

Fuqarolik kodeksining 710-moddasiga ko‘ra, *yo‘lovchi tashish shartnomasi* bo‘yicha tashuvchi yo‘lovchini, yo‘lovchi bagaj topshirgan bo‘lsa – bagajni ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni

olishga vakolat bergan shaxsga topshirish majburiyatini oladi. Bunda yo‘lovchi belgilangan yo‘l haqini, bagaj topshirgan bo‘lsa, bagaj tashish haqini ham to‘lash majburiyatini oladi.

Havo kodeksining 98-moddasi 1-qismiga muvofiq, *havo transportida tashish shartnomasiga* binoan tashuvchi *yo‘lovchi* va uning qo‘l yukini chiptada ko‘rsatilgan parvozni amalga oshirayotgan havo kemasidan joy berib belgilangan manzilga eltib qo‘yish majburiyatini, yo‘lovchi qo‘l yukini topshirgan bo‘lsa – qo‘l yukini belgilangan manzilga yetkazib, uni yo‘lovchiga yoki yo‘lovchi tayinlagan shaxsga topshirish majburiyatini oladi. Yo‘lovchi belgilangan tarif bo‘yicha parvoz uchun, yuk tashuvchi belgilagan me’yordan ortiq qo‘l yuki bo‘lgan taqdirda esa — qo‘l yuki uchun ham haq to‘lash majburiyatini oladi.

Havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq havo kemasida tashilayotgan yoki tashilishi lozim bo‘lgan shaxs yo‘lovchi deb hisoblanadi. Qo‘l yuki – yo‘lovchining tashuvchi bilan shartnomaga muvofiq havo kemasida tashilayotgan shaxsiy ashyolari.

Ushbu shartnomaning tomonlari sifatida yo‘lovchi va tashuvchi ishtirok etadi.

Yo‘lovchi deganda, tashuvchi xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs tushuniladi, *bagaj* deganda esa transportda jo‘natish uchun hozirlangan narsalar, yo‘lovchining o‘zi bilan birga bo‘lgan (shaxsiy) yukini tushunamiz.

Tashuvchi esa – bu ma’lum haq evaziga yo‘lovchi va bagajni belgilangan manzilga eltuvchi shaxs.

Yo‘lovchi va bagaj tashish shartnomasining *huquqiy belgilari* quyidagilardan iborat:

1. Shartnoma *konsensual* xarakterga ega, ya’ni bilet yoki bagaj kvitansiyasi olingandan so‘ng shartnoma tuzilgan hisoblanadi, yo‘lovchi esa tashuvchidan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi;

2. Bu shartnoma ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi, ya’ni taraflarning har biri muayyan huquq va majburiyatlarga ega;

3. Yo‘lovchi tashish shartnomasi *haq baravariga* tuziladigan shartnoma hisoblanadi, ya’ni yo‘lovchi tashuvchi xizmatidan foydalangani uchun haq to‘laydi.

Fuqarolik kodeksining 710-moddasi talabiga ko‘ra, «Yo‘lovchi va bagaj tashish shartnomasi tuzilganligi tegishli chipta va bagaj pattasi bilan tasdiqlanadi». Yo‘lovchiga berilgan chiptada shartnomaning asosiy shartlari: chipta bahosi, transportning jo‘nash vaqti, chiptaning yaroqlilik

muddati yozilgan bo‘ladi. Havo transporti va qonunda belgilangan tarzda shaharlararo va xalqaro yo‘nalishda qatnaydigan poyezdlardan tashqari, boshqa transportlarga berilgan chiptada yo‘lovchining ismi, familiyasi yozilmaydi. Familiyalari yozilgan chiptalarni birovga berish taqiqlanadi. Havo transportida yo‘lovchi chiptani yo‘qotgan taqdirda, boshqa chipta berilmaydi.

Yo‘lovchilarning huquq va majburiyatlari FKning 710, 715, 720, 721, 725-moddalarida (xususan, yo‘lovchilarning huquqlari) normalanadi.

Yo‘lovchi tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda quyidagi *huquqlarga* ega:

– o‘zi bilan bolalarni bepul yoki boshqa imtiyozli shartlarda olib yurish;

– belgilangan miqdor doirasida o‘zi bilan bepul bagaj olib yurish;

– belgilangan miqdor doirasida bepul, miqdordan ortiqchasi uchun esa – tarif bo‘yicha haq to‘lab, tashish uchun bagaj topshirish huquqiga ega.

– tashuvchi bilan tariflarda nazarda tutilmagan xizmatlar ko‘rsatish xususida kelishish;

– yo‘lovchini jo‘natib yuborish kechiktirilsa va bunga uzrli sabab bo‘lmasa, tashuvchining aybi bilan yo‘lovchi bagajiga shikast yetkazilsa yoki u yo‘qolsa, shartnomadan voz kechish, zararni undirib olish huquqiga ega;

Yo‘lovchining majburiyatlari:

– belgilangan yo‘l haqini, bagaji bo‘lsa, bagaj tashish haqini tashuvchiga to‘lashi;

– transport ustavlari va kodekslarida belgilangan qoidalarga rioya etishi;

– tashuvchining talabi bilan transportda bepul yurish uchun huquq beradigan chipta yoki boshqa hujjatni taqdim etishi;

– tashuvchining talabi bilan bagaj kvitansiyasini taqdim etishi;

– poyezd, samolyotlardagi va boshqa transportlardagi ashyolardan to‘g‘ri foydalanishi lozim.

Tashuvchining huquqlari quyidagilardan iborat:

– ko‘rsatgan tashish xizmati uchun haq olish yoki kira haqini hamda bagaj tashish uchun haq to‘laganligini tasdiqlovchi hujjatni talab qilish;

– kira haqi to‘lamagan yo‘lovchilarga FKda, transport ustavlarida va kodekslarida, agar tashish shartnomasida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, shartnomada belgilangan tartibda jarima solish;

– yo‘lovchining transportda belgilangan tartib-intizomga rioya etishini talab qilish;

– bepul yurish huquqiga ega bo‘lgan shaxslardan yoki transportda imtiyozli tarzda yurish huquqiga ega bo‘lgan shaxslardan ularning huquqlarini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni talab qilish;

– transportda bepul, imtiyozli yoki boshqa tarzda yurish huquqini beradigan hujjatlarning haqiqiyligini tekshirish;

– transportda bepul, imtiyozli yoki boshqa tarzda yurish huquqini beradigan hujjatlar soxtalashtirilganligi aniqlanganda, bu hujjat egalarini javobgarlikka tortish.

Tashuvchining majburiyatlari:

– yo‘lovchini, yo‘lovchi bagaj topshirgan bo‘lsa, bagajni ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi (FK 710-m.);

– qonunchilikda belgilangan shaxslarni bepul va imtiyozli tarzda olib yurish;

– yo‘lovchi va bagajni belgilangan tarzda va muddatda belgilangan manzilga, bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, maqbul muddatda eltib qo‘yishi shart (FK 717-m.);

– transport vositalarini jo‘natish kechikganligi sababli yo‘lovchi ularda jo‘nashdan bosh tortgan taqdirda basharti bunday hol yuz berishida tashuvchi o‘zining aybsizligini isbotlay olmasa, yo‘lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart (FK 720-m.);

– transportda yo‘lovchi va bagaj tashishni tashkil etishda uning xavfsizligini ta’minlash;

– zarur hollarda yo‘lovchining talabi bilan chiptaning muddatini uzaytirish;

– tashuvchining aybi bilan yo‘lovchi yoki uning bagajiga shikast yetsa yoki u zarar ko‘rsa, zararni to‘lashi;

– qoidalar bilan nazarda tutilgan tartibda yo‘lovchilarga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish kabilar.

Temir yo‘lda yo‘lovchi va bagaj tashish.

Temir yo‘llar ustavi va «Temir yo‘l transporti to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq *yo‘lovchilar quyidagi huquqlarga* ega:

– temir yo‘l transporti korxonalari yo‘lovchilar, bagaj, yuk bagaji o‘z vaqtida manziliga yetkazilishini, vokzallarda va poyezdlarda yo‘lovchilarning xavfsizligini, ularga xizmat ko‘rsatish uchun zarur qulayliklar va sharoitlar yaratilishini, bagaj va yuk bagajining saqlanishini ta’minlash;

– yo‘lovchilar poyezdlarning jo‘nash va kelish vaqti, yo‘l haqi, bagaj, yuk bagaji tashish haqi, vokzallarda joylashgan temir yo‘l chiptasi

kassalari, saqlash kameralarining ish vaqti, yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘g‘risida vaqtida ishonchli axborot bilan, shuningdek temir yo‘l transporti korxonalari va tashkilotlarining ishi to‘g‘risidagi boshqa zarur axborot bilan ta’minlanish;

– yo‘lovchi poyezdda o‘zi bilan birga besh yoshgacha bo‘lgan bir bolani alohida joy berilmagan holda bepul olib yurish huquqiga ega. Yo‘lovchi bilan birga besh yoshgacha bo‘lgan bittadan ortiq bola ketayotgan bo‘lsa, ulardan biri bepul olib yuriladi, qolganlari esa chipta to‘liq qiymatining 50 foizi chegirilgan, alohida joy berilgan holda olib yuriladi. Besh yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalarga ham chipta to‘liq qiymatining 50 foizi chegirilgan holda alohida joy beriladi. Temir yo‘l transportida bolalarni tashish bo‘yicha bu imtiyozlar temir yo‘l transporti korxonalarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

– istagan poyezdga, xohlagan joyidan, ya’ni xohlagan vagondan joy berishni talab qilish;

– 36 kilogrammgacha, shahar atrofida yuradigan poyezdlarda esa 50 kilogrammgacha yukni tekin olib yurish;

– chiptaning muddatini o‘zgartirib olib, yo‘lda biron joyda 10 sutkagacha qolish;

– yukni bagaj qilib jo‘natish;

– tasodifan kasal bo‘lib qolgan taqdirda butun davolanish davomida chiptaning yaroqlilik muddati uzaytirilishini talab qilish huquqlariga ega.

Havo transportida yo‘lovchi va bagaj tashish.

Havo kodeksiga muvofiq *yo‘lovchi* quyidagi *huquqlarga* ega:

– belgilangan me’yor doirasida bagaj va qo‘l yukini tekin o‘zi bilan olib uchish;

– bolalarini (yoshiga qarab) tekin yoki imtiyozli shartlarda olib uchish;

– aeroportlarda maxsus ajratilgan binolardan foydalanish;

– istalgan vaqtda parvoz qilishdan voz kechish va bu voz kechish havo kemasi uchishidan oldin yoki keyin amalga oshirilganligiga qarab, aviakompaniya tariflarini qo‘llash qoidalarida belgilangan tartibda to‘langan pulning hammasini yoki uning bir qismini qaytarib olish;

– shuningdek yuk tashuvchining aybi bilan yoxud boshqa majburiy sabablar bilan ro‘y bergan parvozlarning kechiktirilishi yoki ular orasidagi tanaffuslarda mehmonxonalarda joy bilan ta’minlanish.

Tashuvchining majburiyatlari:

– tashish qoidalarida belgilangan tartibda havo kemasida yo‘lovchi uchun oldindan joy band qilib qo‘yish;

– xavfsizlikni ta’minlash yoxud parvoz boshlanayotgan, qo‘nish, tranzit yoki uchib o‘tish mo‘ljallangan mamlakatning mazkur tashishga taalluqli qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish zaruriyatidan kelib chiqib, yo‘lovchi va qo‘l yuki, pochta va yuk tashish shartnomasini bekor qilishi mumkin.

– tashish ishlarini tashkil qilish va tariflarni qo‘llash, yig‘imlar to‘lash, qatnovni kiraga sotish qoidalarini qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;

– jadvaldagi yoki jadvaldan tashqari parvozlar boshlanishidan oldin tashish tariflari, yig‘imlari va stavkalari miqdorini ishlab chiqib, ularni o‘ziga ruxsatnoma bergan davlat tomonidan tartibga soluvchi organga tasdiqlash uchun taqdim etish;

– tashishlarning tasdiqlangan tariflari, yig‘imlar va stavkalar miqdorlari, shuningdek qatnovni kiraga sotish qoidalari ayni bir yo‘nalishlarda yoki ularning uchastkalarida parvozni bajarayotgan tashuvchilarning barchasi tomonidan qo‘llash;

– tashuvchi parvoz yo‘nalishlari va jadvali, yo‘lovchilar, yuklar va pochta tariflari, yerda va havo kemasining sathida xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilishi, ulardan aholini (mijozlarni) xabardor etishi shart;

– tashuvchi yo‘lovchilarga, tashishga qabul qilingan qo‘l yuki va yuklarga, shuningdek o‘zga shaxslarga yetkaziladigan zararni qoplash yuzasidan o‘z mas’uliyatini sug‘urta qildirishi lozim (zararni qoplaydigan sug‘urta puli miqdori tashuvchi javobgarligining belgilangan miqdoridan past bo‘lishi mumkin emas);

Avtomobil transportida yo‘lovchi va bagaj tashish.

Avtomobilda tashishlar *shahardagi, shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro* tashishga bo‘linadi.

Shahardagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shahar atrofidagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan ellik kilometrgacha tashqarida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shaharlararo tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan ellik kilometrdan oshiq masofada amalga oshiriladigan tashishlar, shuningdek yo‘nalish masofasidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining ikki yoki undan ortiq viloyati hududida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Xalqaro tashishlar jumlasiga yo‘nalish masofasidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga yoki davlat chegarasi tashqarisidan amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shahar yo‘lovchilar transporti deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatga olingan, shahar doirasida yo‘lovchilar hamda bagaj tashishga mo‘ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi.

Shahar yo‘lovchilar transporti jumlasiga *avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar* kiradi.

Avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten va yo‘nalishli taksilar belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha, harakat jadvaliga muvofiq, belgilangan tarifdagi haq evaziga yo‘lovchilar tashiydi.

Yo‘nalishsiz taksilar yo‘lovchilarning talablari asosida taksometr (hisoblagich) ko‘rsatishi bo‘yicha haq evaziga tashish xizmatlari ko‘rsatadi.

«Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasiga asosan *yo‘lovchilar* shahar transportidan foydalanishda quyidagi *huquqlarga* ega:

– yo‘lovchilar tashish uchun ochiq bo‘lgan har qanday yo‘nalishga chipta sotib olish, chiptada belgilangan joyni egallash;

– shahar va shahar atrofi yo‘nalishlaridagi avtobuslarda yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘zi bilan bepul olib yurish;

– shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlardagi avtobusda besh yoshgacha bo‘lgan bir bolani alohida joy berilmagan holda bepul olib yurish, besh yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan bola uchun alohida joy berilgan holda chipta to‘liq qiymatining 50 foizini to‘lab chipta sotib olish va o‘n yoshgacha bo‘lgan ikki yoki undan ortiq bola olib yurilganda ulardan biri bepul olib yuriladi, qolganlari uchun – alohida joy berilgan holda chipta to‘liq qiymatining 50 foizini to‘lab chipta sotib olinadi;

– shahar va shahar atrofi yo‘nalishlarida yigirma kilogrammdan oshmaydigan og‘irlikdagi bagajni, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda – belgilangan o‘lchamlardagi bagajning bir o‘rnini o‘zi bilan bepul, ko‘rsatib o‘tilgan normalardagidan ortiqcha bagajni esa – haq evaziga olib yurish;

– tashish boshlanmasidan oldin chiptani topshirish va uning uchun to‘langan summani qaytarib olish;

– yo‘lovchilarni tashuvchi reyslar kechikkan yoki bekor qilingan taqdirda yetkazilgan ziyonni va ma’naviy zararni qonun hujjatlariga muvofiq to‘lattirish va qoplattirish.

– shahar yo‘lovchi transportining har qanday turidan foydalanish;

– bekatlar va to‘xtab o‘tish manzillaridan foydalanish;

– hayoti va sog‘lig‘ini shaxsiy sug‘urta qilish haqida ixtiyoriy ravishda shartnoma tuzish;

– bekatlar va oxirgi dispetcherlik manzillari dispetcherlaridan shahar yo‘lovchi transportining ishi to‘g‘risida axborot olish.

Shuningdek, «Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida»gi qonunga asosan *quyidagi shaxslar shahar yo‘lovchi transportida bepul yurish huquqiga egalar:*

– 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan bo‘lmish harbiy xizmatchilar;

– 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va 1-guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;

– 1941-1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;

– Afg‘oniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalmilalchi jangchilar jumlasidan bo‘lmish fuqarolar;

– haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, starshinalar, praporshiklar, katta praporshiklar, michmanlar va katta michmanlar;

– Chernobil AESi halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;

– ko‘zi ojiz nogironlar va ko‘zi ojiz nogironlarga hamrohlik qiluvchi shaxslar.

Shuningdek, yo‘lovchilar «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunda ko‘rsatilgan huquqlarga ham tashuvchilarning xizmatidan foydalanuvchi iste’molchilar sifatida ega.

Shuningdek, maxsus qonunlarda hamda qonunchilik aktlarida yo‘lovchilarga transport turiga qarab qo‘shimcha majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin. Xususan, shahar transportida *yo‘lovchilarning majburiyati* quyidagilardan iborat:

– yo‘lovchilarni tashish yuzasidan belgilangan qoidalarga rioya etishlari;

– yo‘l haqi va bagaj tashish haqini o‘z vaqtida to‘lashlari, chiptani manzilga yetganga qadar saqlashlari va uni nazorat qiluvchi shaxslarning talabiga binoan ko‘rsatishlari;

– transportda imtiyozli yurish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishlari;

– shahar yo‘lovchilar transportidan foydalanganda tozalik va tartibga rioya etishlari, tashuvchilarning asbob-uskunalari va mol-mulkini ehtiyot qilishlari;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishlari shart.

Qonunchilik, shuningdek yo‘lovchilarning javobgarligini ham belgilaydi. Masalan, yo‘lovchining aybi bilan tashuvchining mulkiga ziyon yetkazilsa, yo‘lovchi zararni to‘lashga majbur. Shuningdek, yo‘lovchi transportga chiptasiz chiqsa, u jarima to‘lashga majbur qilinadi.

Tashuvchining majburiyatlari:

– tashish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lishi;

– sertifikatga ega bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan ishga yaroqli transport vositalaridan foydalanishi;

– tashish shartnomasi shartlariga rioya qilishi;

– yo‘lovchilar, bagaj va yuklar tashishning belgilangan qoidalariga rioya qilishi;

– yo‘lovchi, bagaj yoki yukni tayinlangan joyiga tashish shartnomasida belgilangan muddatda eltib qo‘yishi. Agar eltib qo‘yish muddati tashish shartnomasida belgilanmagan va nazarda tutilmagan bo‘lsa, eltib qo‘yish oqilona muddatlarda amalga oshirilishi lozim;

– yo‘lovchining xavfsizligini, xizmat ko‘rsatishning zarur qulayliklari va shartlarini ta’minlashi;

– bagaj va yuklarning tashishga qabul qilib olingan paytdan boshlab oluvchiga berilgunga qadar saqlanishini ta’minlashi;

– yo‘l harakati xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta’minlashi;

– tashuvchi tashishni davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda mijoz ko‘rgan zararni qoplashi;

– avtomobilda tashishlar bo‘yicha belgilangan tartibga muvofiq hisobga olish va hisobot berish ishlarini yuritishi;

– yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash;

– mehnatni muhofaza qilish, yong‘indan saqlash xavfsizligini, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablarini bajarish;

– fuqarolarning ayrim toifalarini imtiyozli tashish va shu kabilar.

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

Tashuvchilarning belgilangan yo‘nalishdan o‘zboshimchalik bilan chetga chiqish, harakat jadvalini buzish hamda yo‘lovchilarga qonun

hujjatlarida nazarda tutilmagan talabni qo‘yishi man etiladi («Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi qonunning 23-moddasi).

Yuk tashish shartnomasi.*Yuk tashish shartnomasi* bo‘yicha yuk tashuvchi yuk jo‘natuvchi tomonidan o‘ziga ishonib topshirilgan yukni belgilangan manzilga yetkazib berish va uni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish, yuk jo‘natuvchi esa yukni tashib berganlik uchun belgilangan haqni to‘lash majburiyatini oladi.

Havo transportida tashish shartnomasiga ko‘ra *yuk* tashuvchi o‘ziga yuk jo‘natuvchi ishonib topshirgan yuk yoki pochtani belgilangan manzilga yetkazib, ularni yukni yoki pochtani qabul qilib olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi, yuk jo‘natuvchi esa yuk yoki pochta tashilgani uchun belgilangan tarif bo‘yicha haq to‘lash majburiyatini oladi (Havo kodeksining 98-moddasi 2-qismi).

Yuk – havo kemasida tashilayotgan yoki tashish uchun qabul qilingan (pochta va xalqaro pochta bitimlarining shartlariga ko‘ra tashiladigan boshqa mol-mulk, tashuvchining qo‘l yuki yoki mol-mulkidan tashqari) har qanday mol-mulk, shuningdek yuk xati bo‘yicha tashiladigan qo‘l yuki.

Yuk tashish shartnomasining *huquqiy belgilari* quyidagilardan iborat:

1. Yuk tashish shartnomasi *real* shartnoma hisoblanadi, chunki yuk yuk jo‘natuvchi tomonidan yuk tashuvchiga topshirilmaganicha shartnoma kuchga kirmaydi. Jo‘natuvchiga transport yukxati yoki boshqa tashish hujjatini tuzish va berish bir vaqtning o‘zida shartnoma tuzilganligining tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi (O‘zbekiston Respublikasi FK, 711-modda 2-bandi).

2. Yuk tashish shartnomasi ham odatda, ikki tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. Shartnoma taraflarning har biri uchun muayyan huquq va burchlar tug‘diradi;

3. Yuk tashish shartnomasi haq baravariga tuziladi, chunki jo‘natuvchi yoki oluvchi yuk tashuvchiga yukni belgilangan manzilga yetkazib berganligi uchun haq to‘laydilar.

Yuk tashish shartnomasida yuk tashuvchi sifatida faqat tegishli litsenziya olgan shaxslargina qatnasha oladilar. Masalan, «Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasi, Havo kodeksining 96-moddalariga ko‘ra, avtomobilda tashish, havo transportida tashish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan maxsus qoida va tartiblarga muvofiq, ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi. Jumladan, bunday shartnomalarning ishtirokchilari temir yo‘lda – temir yo‘l korxonasi; daryo va dengiz transportida – paroxodchilik; havo transportida – havo transporti

korxonasi; avtomobil transportida – avtoxo‘jaliklar yoki avtokolonnalar[1] bo‘ladi.

Yuk tashish shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Yuk tashish shartnomasi yukni tashuvchiga transport hujjatlari bilan birga topshirilgan paytdayoq tuzilgan hisoblanadi. Yukni tashish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida maxsus hujjat temir yo‘l va daryo transportida *kvitansiya*, dengiz transportida *konosament*, avtomoibil transportida *yuk xati*, havo transportida esa *yuk xatining nusxasi* beriladi. Mazkur hujjatlar yukni boshqa manzilga jo‘natish huquqini va yuk yo‘qotilgan va zararlangan taqdirda esa yuk tashuvchiga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish huquqini beradi.

Yuk xatida yuk jo‘natuvchi, yukni oluvchi, yuk tarifi, yukni jo‘natilgan va olinadigan manzili hamda boshqa ba’zi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Yuk tashish shartnomasining taraflari sifatida quyidagilar qatnashadi:

– *yuk jo‘natuvchi* – yukni ma’lum bir transport turida belgilangan manzilga jo‘natuvchi shaxs;

– *yuk tashuvchi* – yukni bir manzildan, jo‘natuvchidan olib, ikkinchi manzilda yuk oluvchiga topshiruvchi shaxs;

– *yuk oluvchi* – yuk jo‘natuvchilardan o‘ziga jo‘natilgan yuklarni qabul qilib oluvchi shaxs.

Yuk tashish rejasidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar transportning barcha turlari bo‘yicha yuk tashish munosabatlarini tartibga soladigan asoslarda transportning ayrim turlariga oid nizomlar va shuningdek, yuk tashish to‘g‘risidagi maxsus qoidalar bilan belgilanadi.

Mijozlar (yuk jo‘natuvchilar va yuk oluvchilar) quyidagi *huquqlarga* ega:

– tashuvchi to‘g‘risida zarur bo‘lgan axborotni olish;

– tashuvchini erkin tanlash va tashish uchun shartnoma tuzish;

– qoidalarda yoki tashish shartnomasida belgilangan tarzda tashuvchi tomonidan o‘z vaqtida va sifatli xizmat ko‘rsatilishidan bahramand bo‘lish;

– tashish tufayli yetkazilgan ziyonni va ma’naviy zararni qonun hujjatlariga muvofiq to‘lattirish va qoplattirish;

– tashish shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan shartlar tashuvchi tomonidan buzilgan taqdirda xizmat ko‘rsatishdan voz kechish;

---

[1] *Сайфуллаев Ф.* Ўзбекистон ССРнинг гражданлик ҳуқуқи. – Т., 1988. – Б. 121.

– o‘z huquqlari buzilgan taqdirda vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish va hokazo.

Yuk jo‘natuvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

– yukni belgilangan talabnomaga binoan o‘z vaqtida transport tashkilotiga yetkazib berish;

– mahsulotlarni idishga (taraga) yaxshi joylashtirish, qadoqlash;

– mahsulotlarning tabiiy xususiyatlarini va turlarini transport hujjatlarida ko‘rsatish;

– lozim hollarda o‘z vositalari va ishchi kuchlari bilan yukni transportga joylashtirish;

– mahsulotlarning tabiiy xususiyatlarini hisobga olib, ogohlantirish belgilarini ko‘rinarli qilib yozish;

– kira haqini o‘z vaqtida to‘lash kabilar.

Yuk tashuvchi quyidagi *huquqlarga* ega:

– jo‘natilayotgan yuk o‘z sertifikatiga muvofiq ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni olish;

– fuqarolar hayotiga, yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi, ekologiya va sanitariya normalari buzilishiga yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlarga sabab bo‘luvchi holatlarda tashishdan voz kechish;

– to‘lov, tovar-transport hujjatlarini o‘z vaqtida talab qilib olish va hokazo.

Yuk tashuvchining majburiyatlari quyidagilardir:

– yuk jo‘natuvchining talabnomasida ko‘rsatilgan vaqtda yuk tashish vositalarini berish;

– ushbu vositalarni berishdan oldin uning tozaligini ko‘rib chiqish, lozim bo‘lgan hollarda yuvib, tozalab berish;

– yukni qabul qilib olgandan so‘ng uni zararsizlantirmasdan saqlash;

– transport vositasiga ortgandan keyin ham tegishli ehtiyot choralarini ko‘rish;

– ayrim mahsulotlarning tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda saqlash;

– yukni tayinlangan manzilga olib borish bilan uni oluvchiga xabar qilish kabilar.

Yuk oluvchining majburiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

– yuk kelganligi to‘g‘risida xabar olishi bilanoq o‘ziga tegishli yuklarni darhol olib ketish choralarini ko‘rish;

– bordi-yu, olib ketishning iloji bo‘lmasa, yukni ehtiyot qilib saqlash choralarini ko‘rish va yukni qabul qilishga oid boshqa ba’zi burchlardan iborat.

Yuk tashish shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari yuk tashilayotgan transportning turiga qarab ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Temir yo‘l transporti bilan yuk tashish

Temir yo‘l transporti bilan yuk tashilganda *tashuvchi-temir yo‘l korxonasi quyidagi majburiyatlarni* o‘z zimmasiga oladi:

– yuk tashish majburiyatini bajarishi;

– yuk tashish uchun yaroqli bo‘lgan vagonlarni, sisterna, konteynerlarni belgilangan muddatda yuk jo‘natuvchi ixtiyoriga berishi;

– vagonlarning va yuklarning holatini ko‘rib chiqishi;

– yukning qabul qilinganligi to‘g‘risida kvitansiya yozib berishi;

– jo‘natish uchun qabul qilingan yuklarni zararlantirmay va yo‘qotmay saqlashi;

– yukni tayinlangan muddatida belgilangan manzilga yetkazib berishi;

– yukning tayinlangan joyga yetkazib keltirilganligi to‘g‘risida yuk tashuvchini darhol xabardor qilishi;

– yuk kimga berilishi tayinlangan bo‘lsa, uni shu shaxsga topshirishi.

Yuk jo‘natuvchi va oluvchilarning majburiyatlari:

– yuk tashish yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarishlari;

– yuklarni belgilangan muddatda jo‘natish uchun transport tashkiloti tomonidan berilgan yuk tashish vositalarini, ya’ni vagon, konteyner, sisternalarni ko‘zdan kechirib chiqishlari;

– yuk oluvchilar o‘zlariga kelgan yuklarni vaqtida qabul qilib olishlari;

– tarif bo‘yicha belgilangan kira haqini to‘lashlari kabilar.

Temir yo‘l transportida yuk tashish transport yukxatida rasmiylash-tiriladi. Yukxatda bir qator ma’lumotlar, chunonchi, yuk jo‘natilgan bekat va yo‘lning nomi, tayinlangan bekat va yuk oluvchining manzili, jo‘natilayotgan yuk turi, miqdori, o‘rovning xili, yuk tashish tezligi, kira haqi, yukni qabul qilish vaqti, tushirish, yuk topshirish vaqti va yukka doir boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Avtomobil transporti orqali yuk tashish

«Avtomobil transporti to‘g‘risida»gi qonunining 19-moddasiga ko‘ra *mijoz* quyidagi *huquqlarga* ega:

– tashuvchi to‘g‘risida zarur bo‘lgan axborotni olish;

– tashuvchini erkin tanlash va tashish uchun shartnoma tuzish;

– qoidalarda yoki tashish shartnomasida belgilangan tarzda tashuvchi tomonidan o‘z vaqtida va sifatli xizmat ko‘rsatilishidan bahramand bo‘lish;

– tashish tufayli yetkazilgan ziyonni va ma’naviy zararni qonun hujjatlariga muvofiq to‘lattirish va qoplattirish;

– tashish shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan shartlar tashuvchi tomonidan buzilgan taqdirda xizmatlar ko‘rsatilishidan voz kechish;

– o‘z huquqlari buzilgan taqdirda vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

Mijozning majburiyatlari:

– tashish shartnomasi shartlariga rioya qilishi;

– tashish qoidalarida o‘ziga qo‘yilgan talablarni bajarishi;

– tashilayotgan yukning tashish shartnomasiga muvofiqligini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni tashuvchining talabiga binoan taqdim etishi;

– avtotransport vositalarining tashilishi lozim bo‘lgan yuk yoki bagaj yoniga bemalol va xavfsiz kirib bora olishini ta’minlashi;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

Yuk jo‘natuvchining majburiyatlariga:

yuk jo‘natish rejasini bajarish;

yukni o‘z vaqtida tashuvchiga (avtotransport tashkilotiga) topshirish;

kira haqini to‘lash;

yuk hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish;

shartnoma bilan belgilangan holda yukni o‘z ishchi kuchi va texnik vositalari yordamida yuklash va boshqalar kiradi.

Tashuvchi quyidagi huquqlarga ega:

– umumiy foydalanishdagi barcha avtomobil yo‘llari, shuningdek idoralarga qarashli umumiy foydalanish uchun ochiq avtomobil yo‘llari orqali o‘tish;

– jo‘natilayotgan yuk o‘z sertifikatiga muvofiq ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni olish;

– fuqarolar hayotiga, yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi, ekologiya va sanitariya normalari buzilishiga yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlarga sabab bo‘luvchi holatlarda tashishdan voz kechish.

– tashuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tashuvchining majburiyatlari:

– tashish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lishi;

– sertifikatga ega bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan ishga yaroqli transport vositalaridan foydalanishi;

– tashish shartnomasi shartlariga rioya qilishi;

– yo‘lovchilar, bagaj va yuklar tashishning belgilangan qoidalariga rioya qilishi;

– yo‘lovchi, bagaj yoki yukni tayinlangan joyiga tashish shartnomasida belgilangan muddatda eltib qo‘yishi. Agar eltib qo‘yish muddati tashish shartnomasida belgilanmagan va nazarda tutilmagan bo‘lsa, eltib qo‘yish oqilona muddatlarda amalga oshirilishi lozim;

– yo‘lovchining xavfsizligini, xizmat ko‘rsatishning zarur qulayliklari va shartlarini ta’minlashi;

– bagaj va yuklarning tashishga qabul qilib olingan paytdan boshlab oluvchiga berilgunga qadar saqlanishini ta’minlashi;

– yo‘l harakati xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta’minlashi;

– tashuvchi tashishni davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda mijoz ko‘rgan zararni qoplashi;

– avtomobilda tashishlar bo‘yicha belgilangan tartibga muvofiq hisobga olish va hisobot berish ishlarini yuritishi;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

Havo transportida yuk tashish

Yuk tashishning uchinchi turiga havo transporti bilan yuk tashish shartnomasi kiradi. Bu shartnoma FK va Havo kodeksi hamda shu munosabatlarni tartibga solishga doir chiqarilgan boshqa qonunchilik aktlari normalari bilan tartibga solinadi. Havo kodeksining 98-moddasiga asosan: «*Havo transportida tashish shartnomasiga* ko‘ra yuk tashuvchi o‘ziga yuk jo‘natuvchi ishonib topshirgan yuk yoki pochtani belgilangan manzilga yetkazib, ularni yukni yoki pochtani qabul qilib olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi, yuk jo‘natuvchi esa yuk yoki pochta tashilgani uchun belgilangan tarif bo‘yicha haq to‘lash majburiyatini oladi».

Yuk tashish shartnomasi ikki xil shaklda tuzilishi mumkin:

1) shartnomaga ko‘ra yuklarni muayyan muddatda tashish; bunda yuk miqdori, yo‘nalishi, yuk tashish muddati, taraflarning majburiyatlari, hisob-kitob tartibi to‘g‘risidagi shartlar va shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik ko‘rsatiladi;

2) bir yoki bir necha samolyotni yuk jo‘natuvchiga berish sharti bilan tuzilishi mumkin. Bu shartnoma charter shartnomasi deb ataladi. Bu shartnoma shartlari FKning 712-moddasida hamda Havo kodeksining 99-moddasida normalangan. Havo kodeksiga asosan *charter* (havo kemasini kira qilish) shartnomasi bo‘yicha bir tomon (kiraga beruvchi) ikkinchi tomon (kiraga oluvchi)ga haq evaziga bir yoki bir necha havo kemasini yo‘lovchilar, qo‘l yuki, yuk va pochta tashish yoxud boshqa maqsadlarda foydalanishga bir yuki bir necha parvoz uchun to‘liq berib turish majburiyatini oladi.

Bu shartnoma bo‘yicha *havo transporti tashkilotining asosiy majburiyatlariga:*

– yukni qabul qilish;

– tayinlangan manzilga yetkazib berish va yukni egasiga topshirish;

– qabul qilingan yukni zararsizlantirmasdan saqlashni ta’minlash;

– o‘z vaqtida egasiga yetkazib berish;

– oluvchiga yukning kelganligini xabar qilish;

– yuk yo‘qolganda esa uni qidirish choralarini ko‘rish;

– kam chiqganda, shikastlanganida va sifati pasaygan hollarda zararni qoplash kabilar kiradi.

Yuk jo‘natuvchining asosiy majburiyatlari yukni aeroportga yetkazib berish va kira haqini to‘lashdan iborat.

Oluvchining majburiyatlari yukni o‘z vaqtida qabul qilib, tushirib olishdir.

Dengiz transportida yuk tashish.

Yuk tashish shartnomasining navbatdagi turi O‘zbekiston sharoitida nihoyatda kam uchraydigan *ichki suv transporti bilan yuk tashish shartnomasidir*. Bu shartnoma yuk tashuvchi tomonidan yukxat shaklida tuziladi va unda shartnoma mazmuni ifodalanadi.

Taraflarning huquq va majburiyatlari shartnomada aniq belgilanib qo‘yiladi. Chunonchi, yuk tashuvchi yukni o‘z vaqtida yetkazib berishga va yuk oluvchiga topshirishga, jo‘natuvchi esa yuk tashuvchining xizmati uchun kira haqini to‘lashga majbur bo‘ladi.

Yuk tashish shartnomasining so‘nggi turi dengiz transporti bilan yuk tashish shartnomasidir. Bu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi hududida yirik dengizlar bo‘lmaganligi sababli ichki muomalada butunlay qo‘llanilmaydi. Dengiz transporti bilan yuk tashish shartnomasiga nisbatan qonunchiligimizning tatbiq qilinishi faqat xalqaro huquq normalarida nazarda tutilgan bo‘lsagina amalga oshiriladi. Shunday bo‘lsa-da, dengiz transporti bilan yuk tashish kabotaj va chet el mamlakatlariga qatnash yo‘li bilan yuk tashishga bo‘linadi. *Kabotaj* deganda, bir davlat chegarasidagi portlar orasida yuk tashish tushuniladi.

Dengiz transporti bilan yuk tashish *konosament va charter* shartnomalari bilan rasmiylashtiriladi. Agar shartnomada yuk tashuvchining majburiyati belgilansa-yu, ammo kemadan qanchalik joy berilishi sharti bo‘lmasa, bunday majburiyat konosament shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Konosament tilxat vazifasini bajaradi va yuk topshirilganligi to‘g‘risida yuridik dalil bo‘lib sanaladi. Bundan tashqari, *konosament:*

1. Shartnoma tuzilganligi to‘g‘risidagi dalil;
2. Yukni qabul qilganlik to‘g‘risida kema kapitanining tilxati;
3. Yukni tasarruf qilish huquqini beradigan hujjat;
4. Yuk tashuvchi bilan yuk jo‘natuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan hujjat bo‘lib hisoblanadi.

Konosamentda yuk tashuvchi va yuk jo‘natuvchi, yuk jo‘natilgan va tayinlangan manzillar hamda yuk to‘g‘risidagi boshqa tegishli ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Dengiz yo‘llarida yuk tashish charter (fraxt) shartnomasi bilan ham rasmiylashtirilishi mumkin. Yuk tashishning *charter (fraxtlash)* shartnomasiga asosan dengiz kemasining bir yoki bir necha reysga qatnashi uchun tuzilsa, bunday shartnomaga reys charteri; agar kema ma’lum bir vaqt davomida kira qilishga berilsa – bunday shartnoma taym-charter deb ataladi.

Dengiz transporti bilan yuk tashish shartnomasiga asosan *yuk tashuvchining asosiy majburiyatlari:*

– yuk tashish vositalarini o‘z vaqtida berishi;

– yukni qabul qilib olgan kundan boshlab, toki tayinlangan manzilga olib borguncha saqlashi;

– yukni oluvchiga topshirishdan iboratdir. Yuk jo‘natuvchining asosiy majburiyatlari:

– yukni tashuvchiga topshirish;

– yukni qabul qilish;

– kira haqi (fraxt) ni to‘lashdan iboratdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan yuk tashish shartnomalarining ichida ahamiyatga moligi bu charter (fraxtlash) shartnomasidir. Charter (fraxtlash) shartnomasi bo‘yicha bir taraf (fraxtchi) ikkinchi tarafga (fraxtlovchiga) haq evaziga bir yoki bir necha transport vositasi sig‘imining hammasini yoki bir qismini yo‘lovchi bagaj va yuk tashish uchun bir marta yoki bir necha marta qatnashga berish majburiyatini oladi (FK, 712-modda). Charter shartnomasi tuzish tartibi, uning shakli va turlari transport ustavlari va kodekslarida belgilab qo‘yiladi.

2. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi bo‘yicha taraflarning javobgarliklari

Fuqarolik kodeksining 718–721-moddalarida yuk, yo‘lovchi va bagaj tashish shartlari hamda bunday tashish yuzasidan taraflarning *javobgarligi* ko‘rsatilgan. Bunday normativ aktlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasining temir yo‘llar ustavi;

O‘zbekiston Respublikasining ichki suv transporti ustavi;

O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi;

Avtotransport tashkilotlari va mijozlarining yuk tashish rejasini bajarish va tashiladigan yuklarning saqlanishi yuzasidan o‘zaro moddiy javobgarliklari to‘g‘risidagi nizom.

Shartnomada qatnashgan taraflar o‘rtasidagi talab va da’volar taraflarning yuk tashish qoidalariga rioya qilmasliklari, shartnomada belgilangan shartlarni bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklaridan kelib chiqishi mumkin. Yuk tashishning barcha turlari bo‘yicha haridor tashkilotlar nizoni hal qilishi uchun ho‘jalik sudi yoki sudga da’vo bilan murojaat qilishdan avval, javobgar tashkilotga talablarini bildirishlari kerak.

Fuqarolik kodeksining 719-moddasiga asosan, tashuvchi yuk tashish uchun *transport vositalarini* qabul qilingan talabnoma (buyurtma)ga yoki boshqa tashish shartnomasiga muvofiq *bermaganligi uchun*, jo‘natuvchi esa *yukni taqdim etmaganligi* yoki *berilgan transport vositalaridan boshqa sabablarga ko‘ra foydalanmaganligi uchun* transport ustavlari va kodekslari, shuningdek taraflarning kelishuvlari bilan belgilangan tarzda javobgar bo‘ladilar.

Agar transport vositalarini bermaslik yoki o‘z vaqtida bermaslik, yoxud transport vositalaridan foydalanmaslik:

– yengib bo‘lmas kuch yoki boshqa stixiyali hodisalar, shuningdek harbiy harakatlar tufayli;

– muayyan yo‘nalishlarda yuk tashish tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda to‘xtatib yoki cheklab qo‘yilganligi tufayli yuz bergan bo‘lsa, yuk tashuvchi va yuk jo‘natuvchi javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yo‘lovchi tashish uchun transport vositasini *kechiktirib jo‘natganlik* yoki bunday *transport vositasi manzilga kechikib kelganligi uchun*, shahar va shahar atrofi yo‘nalishlarida tashish bundan mustasno, tashuvchi, agar kechikish yengib bo‘lmas kuch yoxud tashuvchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar tufayli yuz berganini isbot qilib bermasa, yo‘lovchiga

jarima tariqasida neustoyka to‘laydi. Jarima miqdori va uni to‘lash tartibi transport ustavlari va kodekslari bilan belgilanadi.

Yo‘lovchiga jarima to‘lash tashuvchini transport vositasini jo‘natish kechikkanligi yoki manzilga kechikib yetib kelganligi sababli yo‘lovchi ko‘rgan zararni unga to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Transport vositalarini jo‘natish kechikkanligi sababli yo‘lovchi ularda jo‘nashdan bosh tortgan taqdirda, tashuvchi yo‘lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart (FK 720-m.)

Agar tashuvchi *yuk yoki bagajning yo‘qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida)* o‘zining aybi yo‘qligini isbot qilib bera olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk va bagaj yo‘qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo‘ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar tashuvchi tomonidan quyidagi miqdorda to‘lanadi:

– yuk yoki bagaj yo‘qolgan yoxud kam chiqqan taqdirda — yo‘qolgan yoki kam chiqqan yuk yoxud bagajning qiymati miqdorida;

– yuk yoki bagajga shikast yetkazilgan (buzilgan) taqdirda — uning qiymati qancha pasaygan bo‘lsa, shuncha summa miqdorida, shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni tiklash mumkin bo‘lmaganida esa, uning qiymati miqdorida;

– bahosini e’lon qilgan holda tashishga topshirilgan yuk yoki bagaj yo‘qolgan taqdirda — yuk yoki bagajning e’lon qilingan qiymati miqdorida.

Transport tashkiloti real zararni to‘lash bilan birga yo‘qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yukni tashish uchun olgan kira haqini, agar u yukning bahosiga kirmasa, jo‘natuvchi (oluvchi)ga qaytarib beradi.

Jo‘natuvchi tashuvchidan yuklar yo‘qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishi (buzilishi) tufayli yetkazilgan boshqa zararni ham to‘lashni talab qilishga haqli.

Yuk yo‘qolganligi, kam chiqqanligi, shikastlanganligi (buzilganligi) uchun bir yo‘nalishda har xil transportda tashuvchilar yuk jo‘natuvchi (yuk oluvchi) oldida solidar javobgar bo‘ladilar.

Agar oxirgi tashuvchi yukning kechikib kelishida tashuvchilarning aybi yo‘qligini isbot qilib bera olmasa, yukning kechikib kelganligi uchun javobgar bo‘ladi (FK 721-m.)

Temir yo‘l transportida

Temir yo‘l transporti korxonalari yo‘l haqini hamda yuk, bagaj va yuk bagajining tashish haqini to‘lagan va yo‘l hujjatlarini to‘g‘ri

rasmiylashtirgan yo‘lovchi va yuk jo‘natuvchiga, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tashishni rad etishga haqli emas.

Tashish jarayonini amalga oshiruvchi temir yo‘l transporti korxonalari yo‘lovchi yoki temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxsning, xuddi shuningdek temir yo‘l transporti faoliyati natijasida jabrlangan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Temir yo‘l transporti korxonalari yuklarni tashish chog‘ida yuklarni tashish uchun olingan buyurtmanomalarni bajarmaganlik, vagonlarni shoxobcha yo‘llariga keltirib bermaganlik va ularni shoxobcha yo‘llardan olib ketishni kechiktirganlik, yuklarni jo‘natuvchilar va oluvchilarga tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan ijaraga olingan vagonlar va konteynerlarni o‘zboshimchalik bilan egallaganlik, bu vagonlar va konteynerlarga shikast yetkazganlik yoki ularni yo‘qotganlik uchun Temir yo‘l ustavida belgilangan miqdorlarda jarimalar to‘lash tarzida javobgar bo‘ladi.

Temir yo‘l transporti korxonalari yuklarni tashishda yukni yetkazib berish muddatlarini buzganlik uchun mulkiy javobgarlik bilan bir qatorda tashilayotgan yukning saqlanishini ta’minlamaganlik uchun ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda mulkiy javobgar bo‘ladi.

Temir yo‘l transporti korxonalari yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda javobgar bo‘ladi.

Temir yo‘l transporti korxonalari atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun hamda temir yo‘l transporti yerlarini lozim darajada saqlamaganlik va ulardan foydalanmaganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Yuk jo‘natuvchilar va yukni oluvchilar quyidagilar uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda jarimalar to‘lash tarzida javobgar bo‘ladilar:

– tashishlar haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun;

– yuklarni taqdim etmaganlik uchun, yuk tashishga berilgan vagonlar, konteynerlardan foydalanmaganlik yoki buyurtmanomada ko‘rsatilgan vagonlar, konteynerlarni rad etganlik uchun;

– temir yo‘lga qarashli vagonlar va konteynerlardan ruxsatsiz foydalanganlik uchun;

– vagonlar va konteynerlarni yukni ortish, tushirish yoki qayta yuklash paytida belgilangan texnologiya normalaridan ortiqcha kechiktirganlik (bekor ushlab turganlik) uchun, shuningdek ularni yukni ortish, tushirish, qayta yuklash uchun yetkazib berish paytida kuttirib qo‘yish orqali yoki jo‘natuvchiga bog‘liq bo‘lgan boshqa sabablarga ko‘ra kechiktirganlik (bekor ushlab turganlik) uchun;

– mahsulotlarni eksportga yetkazib berish bo‘yicha bojxona, chegara organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan belgilangan talablarni vagonlar va konteynerlarning kechiktirilganligiga sabab bo‘lgan tarzda buzganlik uchun;

– vagonlar, konteynerlarga ko‘taradigan yukidan ortiqcha yuk ortganlik uchun;

– vagonlar va konteynerlarni yuklari tushirilganidan so‘ng tozalamaganlik uchun;

– temir yo‘l tomonidan berilgan vagonlar yoki konteynerlarga, chiqarib olinadigan tashish moslamalari va o‘rash-joylash vositalariga shikast yetkazganlik yoki ularni yo‘qotganlik uchun;

– tashish taqiqlangan yukni taqdim etganlik yoki tashish chog‘ida o‘ta ehtiyotkorlik choralari ko‘rishni talab etuvchi yukni uning nomi yoki xossalarini noto‘g‘ri ko‘rsatib taqdim etganlik uchun.

Yo‘lovchilar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar temir yo‘l transporti vositalaridan foydalanish, harakat xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi qoidalarini, temir yo‘l transportidagi sanitariya-gigiyena va sanitariya-epidemiyaga qarshi qoidalarni buzganlik, qurilmalar, transport vositalari va ularning ichki jihozlariga shikast yetkazganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Temir yo‘l transportiga uning kommunikatsiyalarini qasddan to‘sib (uzib) qo‘yish yoki temir yo‘l transportining moneliksiz va xavfsiz ishlashiga xalal beruvchi qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar natijasida yetkazilgan zarar temir yo‘l transporti korxonalariga aybdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lanadi.

Temir yo‘l ustavida yuk tashishdan kelib chiqqan talab yuk belgilangan stansiya bo‘ysunadigan temir yo‘l boshqarmasiga bildirilishi lozimligi ko‘rsatilgan. Yo‘lovchilar va yuk tashishdan kelib chiqqan talablar arz qiluvchining ixtiyoriga ko‘ra yoki belgilangan bekatda bo‘lgan temir yo‘l boshqarmasiga bildirilishi mumkin. Yuk jo‘natuvchilarning jarima undirish to‘g‘risidagi talablari yuk jo‘natilgan temir yo‘l boshqarmasiga bildirilishi kerak.

Talab bildirish uchun asos bo‘lgan sabablar *dalolatnoma* bilan rasmiylashtiriladi. Temir yo‘l va ichki suv yo‘li transporti bilan yuk tashishda *tijorat dalolatnomasi*, avtomobil transporti bilan yuk tashishda esa *oddiy dalolatnoma* tuziladi. Tijorat dalolatnomasi quyidagi holatlarni:

1) yuk tashish hujjatida ko‘rsatilgan yukning turi, miqdori bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi;

2) yuk yoki bagajning zararlanishi va buzilish fakti mavjudligi;

3) hujjatsiz yuk bo‘lganligini guvohlantirish uchun tuziladi.

Tijorat dalolatnomasi talab va da’volar qilish uchun yuridik dalil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday hujjat bo‘lmagan taqdirda da’vogar talab bildirish va da’vo qilish huquqidan mahrum bo‘ladi. Da’vo arizasida talabni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlar bo‘lishi zarur. Da’vo qilishga asos hisoblangan hujjat bilan birga yukning miqdori va qiymatini tasdiqlaydigan hujjatlar ham berilishi kerak.

Transport tashkiloti tijorat dalolatnomasi tuzishdan bosh tortsa va bu to‘g‘risida xaridorning shikoyati bo‘lsa, bunday dalolatnomaning yo‘qligi da’vo qilish huquqidan mahrum qilmaydi. Talab va da’vo bildirish hamda ularni hal qilish muddatlari transportning tegishli turlariga oid qonunlar bilan tartibga solinadi.

Talablar 6 oy mobaynida, jarimalar va mukofotlar to‘lash to‘g‘risidagi talablar esa 45 kun mobaynida bildirilishi mumkin. Yuk tashuvchi bildirilgan talabni 3 oy mobaynida ko‘rib chiqib, talab bildiruvchini shu talabi qondirilgan yoki rad qilinganligi to‘g‘risida xabardor qilishi, bir hujjat bo‘yicha turli xil transport orqali yuk tashuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan yuk tashishga oid talablar esa 6 oy mobaynida ko‘rib chiqilishi lozim.

Agar talab rad qilingan bo‘lsa, yoki qonunda ko‘rsatilgan muddatda olinmagan bo‘lsa, talab bildiruvchining da’vo qilishi uchun shu rad javobi olingan kundan yoki javob berish uchun belgilangan muddat o‘tgan kundan boshlab 2 oylik muddat beriladi. Yuk tashuvchining yukni jo‘natuvchilarga va qabul qiluvchilarga yoki yo‘lovchilar tashishdan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan da’vo qilishi uchun 6 oylik muddat belgilanadi.

Havo transportida

Havo kodeksining 113-127-moddalariga muvofiq, tashuvchi parvoz chog‘ida yo‘lovchining o‘limi yoki sog‘ligining yomonlashuviga olib kelgan zarar uchun, agar bu zararning oldini olish uchun tashuvchi barcha zarur choralarni ko‘rganligini yoki bunday choralarni ko‘rishning iloji bo‘lmaganligini isbotlab bera olmasa, mulkiy javobgar bo‘ladi.

Agar yo‘lovchining o‘limi yoki sog‘ligining yomonlashuvi qaytarib bo‘lmas kuch natijasida sodir bo‘lgan bo‘lsa, tashuvchi, agar yetkazilgan zarar yoki zararning ko‘payishi jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi natijasi ekanligini isbotlab bera olmasa, belgilanganiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Yetkazilgan zarar yoki zararning ko‘payishi jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi natijasi ekanligini tashuvchi isbotlab bergan boshqa hollarda fuqarolikka doir qonunlarning umumiy me’yorlariga muvofiq zarar uchun to‘lanadigan tovonning miqdori kamaytirilishi mumkin yoki zararni qoplashdan xalos etilishi mumkin.

Havo transportida yo‘lovchini tashish yo‘lovchining havo kemasiga chiqish uchun aeroport perroniga kirgan vaqtidan boshlab, tashuvchining vakolatli shaxslari kuzatuvi ostida perrondan chiqib ketgunicha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tashishlarda tashuvchining javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi va tegishli chet davlat qatnashchi bo‘lgan xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi.

Belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan qo‘l yuki tashishga qabul qilib olingan paytdan e’tiboran to u qabul qiluvchiga berilguniga yoki boshqa vakolatli shaxsga topshirilguniga qadar uning yo‘qolganligi, kamomadi yoki unga yetkazilgan zarar uchun tashuvchi javobgar bo‘ladi.

Agar yo‘lovchining yonidagi buyumlar yo‘qolsa yoki ularga zarar yetkazilsa va bu yo‘qotish yoki zarar tashuvchining aybi bilan yuz berganligi isbotlansa, tashuvchi bu buyumlar uchun moddiy javobgar bo‘ladi.

Yuk tashish uchun qabul qilingan paytdan to u qabul qiluvchiga yoki belgilangan qoidalarga muvofiq boshqa tashkilotga yetkazib berilgunicha o‘tgan davrda unga yetkazilgan zarar, kamomad yoki uning yo‘qolganligi uchun tashuvchi — agar u zararning oldini olish uchun barcha choralarni ko‘rganligini yoki bu choralarni ko‘rishning iloji bo‘lmaganligini isbotlab bera olmasa — javobgar bo‘ladi.

Tashuvchi boshqa dalil yoki isbot keltirmagunicha yetkazilgan zarar, kamomad yoki yukning yo‘qotilishi tashish davrida ro‘y bergan deb taxmin qilinadi.

Yuk, qo‘l yuki yoki yo‘lovchi yonidagi buyumlarning yo‘qolgani, kamomadi va ularga yetkazilgan zarar uchun tashuvchi:

a) tashish uchun olingan qiymati e’lon qilingan yuk yoki qo‘l yukining yo‘qolgani yoxud kamomadi uchun – e’lon qilingan qiymati miqdorida,

agar tashuvchi e’lon qilingan qiymat haqiqiy qiymatdan balandligini isbot qilsa – haqiqiy qiymat miqdorida;

b) tashish uchun olingan qiymati e’lon qilinmagan yuk yoki qo‘l yuki, shuningdek yo‘lovchi yonidagi buyumlarning yo‘qolgani, kamomadi yoki yetkazilgan zarar uchun – ularning haqiqiy qiymati miqdorida, ammo Aviatsiya ma’muriyati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda belgilagan miqdordan oshmagan holda O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etgan havo transportida tashish vaqtidagi javobgarlik to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalarda belgilangan miqdorlarda javobgar bo‘ladi.

Agar yetkazilgan zarar tashuvchi yoki uning vakolatli shaxslari o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida qasddan qilingan yoki qo‘pol ehtiyotsizliklari natijasi ekanligi isbotlansa javobgarlik me’yorlari qo‘llanilmaydi.

Tashuvchi qayd etilmagan qo‘l yuki va yo‘lovchi yonidagi boshqa buyum tashish jarayonida yo‘qotilgani, ularga zarar yetkazilgani, kamomadi uchun javobgar bo‘lmaydi.

Havo kemasida hayvonlarni kuzatib borayotgan shaxsning o‘limi yoki uning sog‘ligiga yetkazilgan zarar uchun, agar bu halokat hayvonlarning xatti-harakati tufayli ro‘y bergan bo‘lsa, tashuvchi javobgar bo‘lmaydi.

Hayvonlarning o‘limi yoki jarohatlangani uchun, agar bu ko‘ngilsizlik tabiiy sabablarga ko‘ra yoki ularni kuzatib borayotgan shaxsning xatti-harakati natijasida ro‘y bergan bo‘lsa, tashuvchi javobgar bo‘lmaydi.

Yo‘lovchi, qo‘l yuki yoki yuk tashishning kechikkani uchun tashuvchi – agar u kechikishning oldini olish uchun barcha choralarni ko‘rganligini yoki bu choralarni ko‘rishning iloji bo‘lmaganligini isbotlab bera olmasa – javobgar bo‘ladi. Javobgarlik miqdori tashish qoidalariga muvofiq aniqlanadi.

Oldini olish mumkin bo‘lmagan holatlar yuzaga kelganida tashuvchi javobgarlikdan ozod qilinadi.

Pochtani yo‘qotganlik, unga ziyon yetkazganlik yoki kechiktirganlik uchun – agar bu tashuvchi aybi bilan yuz bergan bo‘lsa – tashuvchi Jahon pochta ittifoqining pochta qoidalari va hujjatlariga muvofiq pochta jo‘natuvchilar yoki pochtani oluvchilar oldida aloqa organlari belgilaydigan miqdorda javobgar bo‘ladi.

Tashuvchining yo‘lovchilar, yuk jo‘natuvchilar yoki qabul qiluvchilar bilan Havo kodeksida ko‘zda tutilgan javobgarlik miqdorini kamaytirish to‘g‘risidagi barcha kelishuvlari g‘ayriqonuniy hisoblanadi.

Tashuvchi o‘z mas’uliyati miqdorini Havo kodeksi yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ko‘zda tutilgan miqdorlardan yuqori qilib belgilab, shartnoma tuzishga haqlidir.

Tashuvchi, yo‘lovchi, yuk jo‘natuvchi va oluvchilarning mulkiy javobgarliklari uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lgan holatlar havo transportida tashish shartnomasining buzilishi to‘g‘risidagi *dalolatnoma* bilan guvohlantiriladi. Havo transportida tashish shartnomasining buzilishi to‘g‘risidagi dalolatnoma tuzish tartibi hamda havo transportida tashish shartnomasining buzilishi to‘g‘risidagi dalolatnoma tuzishni taqozo qilmaydigan holatlar tartibi tashish qoidalari bilan belgilanadi.

Havo transportida tashish shartnomasining buzilishi to‘g‘risidagi dalolatnoma quyidagi hollarda tuziladi:

a) yukning nomi, og‘irligi yoki yuk va pochtaning o‘rinlari soni tashish hujjatida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga nomuvofiq bo‘lganida;

b) yukda kamomad bo‘lganida yoki unga zarar yetkazilganida;

d) qo‘l yukida kamomad bo‘lganida yoki unga zarar yetkazilganida;

e) pochtada kamomad bo‘lganida yoki unga zarar yetkazilganida;

f) hujjatsiz yuk, qo‘l yuki va pochta, shuningdek yuksiz, qo‘l yukisiz yoki pochtasiz hujjatlar topilganida.

Yo‘lovchi, qo‘l yuki, yuk yoki pochtani tashish yuzasidan tashuvchiga nisbatan da’vo qo‘zg‘atishdan oldin uning oldiga talab qo‘yilishi shart, aviatsiya halokati natijasida yo‘lovchining o‘limi yoki sog‘lig‘iga zarar yetishi bilan bog‘liq hollar bundan mustasno.

Da’vogarning xohishiga ko‘ra talablar tashuvchiga parvoz boshlangan yoki tugagan aeroportda, yoxud tashuvchining vakiliga bildiriladi.

Bevosita aralash transportlarda tashishdan kelib chiqadigan talablar:

a) agar tashishning so‘nggi manzili aeroport bo‘lsa – aviatsiya korxonasiga;

b) agar tashishning so‘nggi manzili temir yo‘l yoki avtomobil stansiyasi, bandargoh yoki port bo‘lsa – tegishli transport tashkilotiga taqdim etiladi.

Yo‘lovchi, yuk jo‘natuvchi, yukni qabul qiluvchi yoki ular vakolat bergan shaxslar yo‘lovchini va qo‘l yukini, pochta va yukni havo transportida tashish shartnomasi tuzilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek havo transportida tashish shartnomasi buzilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomani taqdim etib, tashuvchiga nisbatan talab qo‘yish va da’vo qo‘zg‘atish huquqiga egadir.

Havo transportida tashish shartnomasi buzilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaning yo‘qligi, agar bunday dalolatnoma tashuvchining xodimlari yoki agenti tomonidan tuzilmaganligi isbotlansa, tashuvchiga nisbatan talab qo‘yish va da’vo qo‘zg‘atish huquqidan mahrum eta olmaydi.

Yo‘lovchi, yuk jo‘natuvchi, yukni qabul qiluvchi vafot etgan yoki ular sog‘lig‘ining holati tashuvchiga nisbatan talab qo‘yish va da’vo qo‘zg‘atish imkonini bermagan taqdirda, yetkazilgan zararning o‘rnini qonun hujjatlariga muvofiq qoplatish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar talab qo‘yishi yoki da’vo qo‘zg‘atishi mumkin».

Mamlakat ichkarisidagi tashishlarda tashuvchiga *olti oylik* muddat ichida, jarima to‘lanishi to‘g‘risidagi da’volar esa – 45 kun ichida taqdim etilishi mumkin.

Ko‘rsatilgan muddat hisobi:

a) qo‘l yuki, yuk yoki pochta kamomadini yoxud yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek qo‘l yuki, yuk yoki pochta kechiktirilganligi uchun qo‘yiladigan talablar bo‘yicha – ular berilgan kundan boshlab;

b) yo‘qotilgan yuk badalini qoplash haqidagi talablar bo‘yicha – yuk yetkazib berish uchun mo‘ljallangan muddatdan 10 kun o‘tgach;

d) yo‘qotilgan qo‘l yuki yoki pochta badalini qoplash haqidagi talablar bo‘yicha – yetkazib berish muddati o‘tgandan so‘ng;

e) boshqa barcha hollarda – talab qilish uchun asos bo‘la oladigan voqea ro‘y bergan kundan e’tiboran boshlanadi.

Talab qilish muddati tugaganidan so‘ng ham, agar tashuvchi ko‘rsatilgan sabab uzrli deb hisoblasa, talablarni ko‘rib chiqish uchun qabul qilishga haqlidir.

Qo‘l yuki yoki yuk e’tiroz bildirilmasdan qabul qilingan taqdirda, agar o‘zga holat tasdiqlanmagan bo‘lsa, ular tegishli holatda va tashish hujjatlariga muvofiq yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

Qo‘l yuki yoki yukka zarar yetkazilgan taqdirda, uni olishga huquqi bo‘lgan shaxs zarar aniqlangani haqida zudlik bilan, ammo qo‘l yuki olingan kundan keyingi 7 kun hamda yuk olingan kundan keyingi 14 kundan kech bo‘lmagan muddat ichida tashuvchiga talabnoma taqdim etish lozim. Yetkazib berish kechiktirilgan taqdirda, qo‘l yuki yoki yuk oluvchiga berilgan kundan boshlab 21 kun ichida talab qo‘yilishi lozim.

Qo‘l yuki (yuk) yo‘qotilgani taqdirda tashuvchiga talablar havo kemasining belgilangan manzilga qo‘nganidan yoki tashish to‘xtatilgan kundan keyingi ikki yil davomida qo‘yilishi lozim. Ko‘rsatilgan

muddatlarda bildirilgan yozma talabnoma bo‘lmasa, tashuvchiga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilishi mumkin emas.

Tashuvchi talabni *ko‘rib chiqishi* va uning qondirilganligi yoki rad etilganligi haqida *uch oy* ichida xabar qilishi shart, bevosita aralash havo yo‘llarida tashishga doir talablar uchun bu muddat *olti oydan*, jarima to‘lash to‘g‘risidagi da’volar uchun esa *45 kundan* iborat.

Tashuvchiga nisbatan qo‘yilgan tashishga taalluqli da’vo havo kemasining belgilangan manzilga qo‘ngan, qo‘nishi lozim bo‘lgan yoki parvozi to‘xtatilgan kundan keyin ikki yil ichida da’vogar istagan joyda: tashuvchi joylashgan yerda, tashuvchining tashishga doir shartnoma tuzgan vakolatxonasi bor joyda yoki parvoz tugashi belgilangan manzildagi tegishli sudda qabul qilinadi.

Avtomobil transportida

Tashish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda, tomonlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Tomonlarning qonunda belgilab qo‘yilgan javobgarlikni cheklash yoki bartaraf etish haqidagi bitimi haqiqiy emas.

Agar tashuvchi yuk yoki bagajning yo‘qolishi, kam chiqishi yoki shikastlanishida (buzilishida) o‘zining aybi yo‘qligini isbotlay olmasa, tashish uchun qabul qilib olgan yuk yoki bagaj yo‘qolganligi, kam chiqqanligi yoki ularga shikast yetkazilganligi (buzilganligi) uchun javobgar bo‘ladi.

Yuk yoki bagajni tashish vaqtida yetkazilgan zarar yo‘qotilgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagaj qiymati, shuningdek tashuvchi yo‘qolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan (buzilgan) yuk yoki bagajni eltib berish uchun mijozdan olgan kira haqi qiymati miqdorida, agar bu kira haqi yuk yoki bagajning bahosiga kirmasa, tashuvchi tomonidan qoplanadi.

Mijoz tashuvchidan yuk yo‘qolgani, kam chiqqanligi yoki shikastlangani (buzilgani) tufayli yetkazilgan boshqa zararlar ham qoplanishini talab qilishga haqli.

Tashuvchi tashish shartnomasiga muvofiq yuk tashish uchun avtotransport vositasini bermaganligi yoki o‘z vaqtida bermaganligi uchun, berilgan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik uchun esa mijoz qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Agar avtotransport vositasini bermaganlik yoki o‘z vaqtida bermaganlik yoxud mijoz tomonidan avtotransport vositasidan foydalanmaganlik yengib bo‘lmas kuch, harbiy harakatlar, muayyan yo‘nalishda yuk tashish

to‘xtatib yoki cheklab qo‘yilganligi tufayli yuz bergan bo‘lsa, tashuvchi yoki mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yo‘lovchilarni tashish uchun avtotransport vositasini jo‘natish kechiktirilgan yoki u belgilangan manzilga kechikib kelgan taqdirda (shahar va shahar atrofida tashishlar bundan mustasno), tashuvchi, agar kechiktirish yoki kech yetib borish tashuvchiga bog‘lik bo‘lmagan holatlar tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, yo‘lovchiga jarima tariqasida neustoyka to‘laydi. Jarima miqdori va uni to‘lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yo‘lovchiga jarima to‘lash tashuvchini avtotransport vositasi kechiktirilishi yoki kech yetib borishi tufayli yo‘lovchi ko‘rgan zararni unga to‘lashdan ozod etmaydi.

Avtotransport vositasi kechiktirilganligi sababli yo‘lovchi unda jo‘nashdan voz kechgan taqdirda, tashuvchi yo‘lovchiga kira haqini va u qilgan boshqa xarajatlarni qaytarishi shart.

Tashuvchi tashish paytida yo‘lovchining hayoti yoki sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi uchun, agar u shikast jabrlanuvchining qasdi yoki yengib bo‘lmas kuch tufayli yuz berganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi.

Mijoz o‘zining aybi bilan boshqa shaxslarga, tashuvchining va boshqa shaxslarning tashuvchi javobgar bo‘lgan mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Yuk jo‘natuvchi transport hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar noto‘g‘riligi, noaniqligi yoki to‘liq emasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha zararlar uchun tashuvchi va uchinchi shaxs oldida javobgar bo‘ladi.

Yo‘lovchilar xalqaro va shaharlararo avtomobil transportidan foydalanganda majburiy shaxsiy sug‘urta qilinishlari shart.

Yo‘lovchilar hayotini, sog‘lig‘ini ixtiyoriy sug‘urta qilish, shuningdek bagaj va yuklarni sug‘urta qilish tegishli sug‘urta shartnomalari asosida qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashuvchi yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni tashish, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘i, harakat xavfsizligini hamda atrof muhit muhofaza qilinishini ta’minlashi shart.

Avtotransport korxonalari, avtovokzallar, avtobekatlarning transport vositalari harakati va yuk ortish-tushirish ishlari amalga oshiriladigan hududlari o‘ta xavfli tegralar hisoblanadi. O‘ta xavfli tegralarda bo‘lish va unda ishlarni amalga oshirish qoidalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Zaharlovchi, portlovchi, alangalanuvchi, radioaktiv, zaharli va boshqa xavfli yuklar faqat bunday yuklarni tashish qoidalariga muvofiq tashilishi lozim. Mijoz va tashuvchi ularning bexatar tashilishi, ortilishi va tushirib olinishini ta'minlashlari shart. Xavfli yuklarni qo'riqlash va kuzatib borish yukni jo'natuvchilar yoki oluvchilar tomonidan butun yo'l davomida ta'minlanadi.

Tashuvchi va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.

3. Sug'urta tushunchasi, shakli va turlari

Sug'urta shartnomasini yoritishdan oldin «sug'urta» tushunchasiga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiqdir. Huquqshunos olimlarning fikricha, sug'urta iqtisodiy tushuncha bo'lib, iqtisodiy kategoriya sifatida manfaatdor tashkilotlar va fuqarolar badallari hisobidan tashkil topgan, maxsus tashkilot (sug'urtalovchi) boshqaruvida bo'lgan pul fondini vujudga keltirish va taqsimlash shakli bo'lib, uning asosiy vazifasi sug'urta qildiruvchilarning mulkiy yoki boshqa talafotlari va ziyonlari o'rnini qoplashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida sug'urtaga quyidagi tushuncha berilgan. *Sug'urta* deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

– *hayotni sug'urta qilish* (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

– *umumiy sug'urta* (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug‘urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog‘liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug‘urta sohalari sug‘urta turlariga (klasslariga) bo‘linadi. Sug‘urta turlari (klasslari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sug‘urta faoliyatining *subyektlari* hisoblanadi.

Sug‘urta bozorining *professional ishtirokchilari:*

– sug‘urtalovchilar;

– sug‘urta vositachilari;

– adjasterlar;

– aktuariylar;

– sug‘urta syurveyerlari;

– assistans.

Sug‘urta vositachilari:

– sug‘urta brokeri;

– qayta sug‘urta brokeri;

– sug‘urta agenti.

Tegishli turdagi sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan va sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs *sug‘urtalovchi* deb e’tirof etiladi.

Sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs *sug‘urta brokeri* hisoblanadi.

O‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs *qayta sug‘urta brokeri* hisoblanadi.

Sug‘urtalovchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs *sug‘urta agenti* hisoblanadi.

Adjaster sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) topshirig‘i bo‘yicha quyidagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

– sug‘urta hodisasi yuz berganidan keyin sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

– sug‘urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

– sug‘urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

– sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda – sug‘urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

– to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta tovoni summasini aniqlash;

– sug‘urtalovchi uchun sug‘urta hodisasi bo‘yicha xulosa tuzish.

Aktuariy quyidagilarni o‘z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

– sug‘urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug‘urta majmui bo‘yicha zarar yetkazilishining takroriyligini va ularning oqibatlari og‘irligi darajasini belgilash;

– sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) zarur sug‘urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

– sug‘urtalovchining investitsiyalar sifatida to‘plangan badallardan foydalanishida kapital qo‘yilma normasi va netto-stavka miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko‘maklashadigan tarzda aniqlash;

– sug‘urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug‘urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

– sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har bir turi bo‘yicha tarif stavkalarini sug‘urtalovchilar uchun ularni o‘tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

– sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

– sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) daromadlarini sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har xil turlari bo‘yicha rejalashtirish.

Sug‘urta syurveyeri quyidagilar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

– sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

– sug‘urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

– tekshirilayotgan sug‘urta obyekti bo‘yicha xulosa tuzish.

Sug‘urta ekspertizasini o‘tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug‘urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug‘urta syurveyeri o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug‘urtalovchilarga sug‘urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko‘mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Sug‘urta shartnomasi deb bir tomon – sug‘urta qildiruvchining belgilangan vaqtda ma’lum miqdorda sug‘urta badallarini to‘lab turish majburiyatini olishi, ikkinchi tomon – sug‘urta qiluvchining ko‘zda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berishi bilan sug‘urta miqdorini to‘lash majburiyatini olishiga aytiladi.

Sug‘urta shartnomasining *turlari* quyidagilardan iborat:

ixtiyoriy (mulkiy va shaxsiy) sug‘urta;

majburiy sug‘urta.

Mulkiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug‘urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug‘urta hodisasi) sodir bo‘lganda boshqa tarafga (sug‘urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug‘urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug‘urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug‘urta puli) doirasida to‘lash (sug‘urta tovoni to‘lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha quyidagilar sug‘urtalanishi mumkin:

– muayyan mol-mulkning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

– fuqarolik javobgarligi xavfi – boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo‘yicha javobgarlik xavfi;

– tadbirkorlik xavfi – tadbirkorning kontragentlari o‘z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlarga ko‘ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o‘zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Mulkiy sug‘urta turlari va shakllari nihoyatda xilma-xildir. Sug‘urta predmetlari sifatida turli uy jihozlari, uy hayvonlari, transport vositalari egalarining fuqaroviy-huquqiy javobgarligi, kreditlarni qaytarmaslik xavfini sug‘urtalash va hokazo hisoblanadi.

Quyidagi manfaatlarni sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydi:

– g‘ayriqonuniy manfaatlarni;

– qimor, lotereyalar va garov o‘yinlarida ishtirok etishda ko‘riladigan zararni;

– garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo‘lgan xarajatlarni.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sug‘urtalovchi) boshqa taraf (sug‘urta qildiruvchi) to‘laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta qildiruvchining o‘zining yoxud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa fuqaro (sug‘urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to‘lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug‘urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug‘urta pulini) bir yo‘la yoki vaqti-vaqti bilan to‘lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi kimning foydasini ko‘zlab tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs sug‘urta pulini olish huquqiga ega bo‘ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko‘rsatilmagan bo‘lsa, shaxsiy sug‘urta shartnomasi sug‘urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko‘rsatilmagan shartnoma bo‘yicha sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug‘urtalangan shaxsning merosxo‘rlari *naf oluvchilar* deb tan olinadi.

Sug‘urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug‘urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug‘urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug‘urta shartnomasi faqat sug‘urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda, shartnoma sug‘urtalangan shaxsning da’vosi bo‘yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo‘rlari da’vosi bo‘yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Shaxsiy sug‘urta umrbod sug‘urta shartnomasi 20 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar bilan tuziladi. 1-guruh nogironlari bilan bunday shartnoma tuzilmaydi.

Sug‘urta qildiruvchining o‘limi ehtimoli sug‘urta xavf-xatari bo‘lib hisoblanadi. Sug‘urta tovon puli, sug‘urta qildiruvchining yoshi, sug‘urta puli va hatto shaxsning jinsiga ham bog‘liq bo‘ladi. Sug‘urta qildiruvchi 85 yoshga yetguncha har oyda sug‘urta badali to‘lab turadi.

Sug‘urta qildiruvchi shartnoma amal qilgan davrda qanday sababga ko‘ra vafot etgan bo‘lmasin, naf ko‘ruvchiga sug‘urta ta’minoti to‘lanadi. Biroq sug‘urta shartnomasi kuchga kirgandan so‘ng 2 yil ichida sug‘urta qildiruvchi onkologik kasalliklardan yoki yurak qon tomir kasalliklaridan vafot etsa, yoxud o‘zini o‘zi o‘ldirsa, sug‘urta ta’minoti to‘lanmaydi.

Sug‘urta badali sug‘urta qildiruvchining yoshi, sug‘urta muddati va sug‘urta puliga bog‘liq. Sug‘urta badallari bir yo‘la to‘lanishi mumkin. 3 oy davomida a’zolik badallari to‘lanmasa, 4-oyning birinchi sanasidan boshlab shartnoma bekor bo‘ladi. Bunda shartnoma 6 oy davomida amal qilgan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchi to‘lamagan badallarini qaytarib olishga haqli.

Ota-onalar, farzanlikka oluvchilar va boshqa qarindoshlar tomonidan bolalarini sug‘urta qilish ularning yoshi va sog‘ligidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Nikohni sug‘urtalash ota-onalar tomonidan tuzilib, bunda sug‘urta qildiruvchilar 18-72 yoshgacha, biroq sug‘urta muddati tamom bo‘lganida 75 yoshdan oshmagan bo‘lishlari lozim.

Shartnoma tuzilishida bolaning yoshi 15 yoshdan oshmagan bo‘lishi lozim.

Sug‘urta badallari hajmi sug‘urta qildiruvchining yoshiga sug‘urta qiymatiga va sug‘urta muddatiga bog‘liq.

Sug‘urta mukofoti to‘lash uchun asos: sug‘urta muddati tamom bo‘lishi, sug‘urta qilinuvchining vafoti, shikastlanishi va hokazo.

Bundan tashqari baxtsiz hodisalardan sug‘urta shartnomasi, tibbiy sug‘urta shartnomasi va shu kabi shaxsiy sug‘urta turlari ham mavjud.

O‘z hayotini sug‘urta qildirish shartnomasi eng ko‘p tarqalgan shartnomalardan hisoblanadi.

Bunda sug‘urta tashkiloti shartnomada belgilangan muddatgacha yashash, mehnat qobiliyatini butunlay yoki qisman yo‘qotish, o‘lim holatlari ro‘y berganda zararni qoplashni o‘z zimmasiga oladi.

Shartnoma 16 yoshdan 77 yoshgacha shaxslar bilan 3–5, 10–15 va 20 yil muddatga tuziladi, ammo shartnoma oxirida shaxs 80 yoshdan oshmagan bo‘lishi lozim.

Sug‘urtaga oid huquqiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Majburiy sug‘urtada sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart (FK 914-m.).

Qonunda quyidagilarni sug‘urta qilish majburiyati belgilab qo‘yilishi mumkin (FK 922-m.):

– qonunda ko‘rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulki ularning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib (masalan, havo va temir yo‘l transportida yo‘lovchilarning hayotini)

– boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zining fuqaroviy javobgarligi xavfi (masalan, «Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 20-moddasiga asosan, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius o‘z faoliyatini sug‘urta qilish haqida shartnoma tuzishi va sug‘urta summasi belgilangan eng kam oylik ish xaqining yuz baravaridan kam bo‘lmasligi lozim).

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlat manfaatlarini ta’minlash maqsadida qonunda hayot, sog‘liq va mol-mulkning majburiy davlat sug‘urtasi davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda davlat sug‘urta tashkilotlari yoki davlatga qarashli boshqa muassasalar sug‘urtalovchilar bo‘lib hisoblanadi. Bunda havo, temir yo‘l, dengiz va shaharlararo avtomobil transporti yo‘lovchilarining hayoti va sog‘lig‘i sug‘urta qilinadi. Sug‘urta badali chipta bahosiga qo‘shiladi. Ba’zi hollarda yo‘lovchilarga sug‘urta polisi beriladi.

Harbiy xizmatchilar, ichki ishlar xodimlari, davlatning ayrim toifadagi xizmatchilari hayoti va sog‘lig‘i davlat tomonidan davlat budjeti hisobidan sug‘urtalanadi.

Sug‘urta shartnomasi *huquqiy belgilariga* ko‘ra:

1) *konsensual* shartnomalar turiga emas, ba’zan *real* shartnoma turiga kiradi.

2) bu shartnoma *ikki tomonlama* hamda *uchinchi shaxs* foydasiga ham tuzilishi mumkin.

Masalan, shaxs uy-joyni yoki o‘zini sug‘urta qildirsa, bu ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Agarda fuqaro hali dunyoga kelmagan farzandining hayotini sug‘urta qildirsa, bunda ushbu sug‘urta shartnomasi uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

3) sug‘urta shartnomasi *haq baravariga* tuziladigan shartnomalar turiga kiradi, chunki bu shartnoma tuzilishi uchun sug‘urta qildiruvchi tomonidan belgilangan miqdorda haq to‘lanadi. Sug‘urta shartnomasi yozma ravishda bo‘lishi shart.

Sug‘urta qildiruvchilar jismoniy hamda yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin. Ular sug‘urta badallarini to‘lab, sug‘urta hodisasi ro‘y bergan hollarda sug‘urta bahosini (miqdorini) olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Tabiiy ofatlar natijasida nobud bo‘lgan davlat mulki umumxalq mulki bo‘lganligi tufayli davlat budjeti hisobidan tiklanadi.

Sug‘urta qildiruvchi g‘arazli harakatlar sodir etganda va shartnomada ko‘rsatilgan boshqa hollarda sug‘urta miqdori to‘lanmaydi.

Mol-mulk sug‘urtasidan ko‘zda tutilgan asosiy *maqsad* sug‘urta qilingan mol-mulkning nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi natijasida yetgan zararni qoplashdir. Shu bois sug‘urta yuzasidan beriladigan pul miqdori sug‘urta qilingan mol-mulk qiymatidan oshmasligi kerak.

Sug‘urta shartnomasi *yozma shaklda* tuzilishi lozim.

Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo‘ladi.

Sug‘urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qildiruvchiga uning yozma yoki og‘zaki arizasiga binoan sug‘urtalovchi imzolagan, sug‘urta shartnomasining shartlarini o‘z ichiga olgan sug‘urta polisi (shahodatnomasi, sertifikati, kvitansiyasi)ni topshirish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug‘urtalovchidan ko‘rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug‘urta mukofoti to‘lash yoxud – sug‘urta mukofoti bo‘lib-bo‘lib to‘langanda – birinchi badalni to‘lash orqali tasdiqlanadi.

Sug‘urtalovchi shartnoma tuzish chog‘ida sug‘urtaning alohida turlari bo‘yicha sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi)ning o‘zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo‘llanishga haqli.

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug‘urtalash sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug‘urta shartnomasi – bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘urta qildiruvchi bosh polisning ta’sir doirasida bo‘ladigan mol-mulkning har bir turkumi to‘g‘risida sug‘urtalovchiga bunday polisda shartlashilgan ma’lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo‘lsa – ular olinganidan keyin darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma’lumotlarni olish paytigacha sug‘urtalovchi to‘lashi lozim bo‘lgan zarar ko‘rish ehtimoli o‘tib ketgan bo‘lsa ham, sug‘urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo‘lmaydi.

Sug‘urta qildiruvchining talabiga binoan sug‘urtalovchi bosh polisning ta’sir doirasida bo‘ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo‘yicha sug‘urta polislarini berishi shart.

Sug‘urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo‘lgan taqdirda, sug‘urta polisi afzal ko‘riladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi tuzishda sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urtalovchi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida kelishuvga erishilishi lozim:

– sug‘urta obyekti bo‘lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to‘g‘risida;

– yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;

– sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;

– sug‘urta tovoni miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risida, agar shartnomada uni sug‘urta pulidan oz miqdorda to‘lash mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa;

– sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;

– shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi tuzishda sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urtalovchi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida kelishuvga erishilishi lozim:

– sug‘urtalangan shaxs to‘g‘risida;

– sug‘urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;

– sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;

– sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;

– shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug‘urta shartnomasi sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o‘z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o‘rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo‘llaniladi.

Sug‘urta shartnomasini tuzish shartlari sug‘urtalovchi yoxud sug‘urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma’qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug‘urtaning standart qoidalari (sug‘urta qoidalari)da belgilab qo‘yilishi mumkin.

Sug‘urta qoidalarida mavjud bo‘lgan va sug‘urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo‘llanilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan va qoidalarning o‘zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo‘lsa, sug‘urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova qilingan taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta qoidalari topshirilgani shartnomada yozuv bilan tasdiqlab qo‘yilishi lozim.

Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda sug‘urta qildiruvchi va sug‘urtalovchi sug‘urta qoidalarining ayrim bandlarini o‘zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo‘lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to‘g‘risida kelishishlari mumkin.

Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) o‘z manfaatlarini himoya qilib, sug‘urta shartnomasida (polisida) ko‘rsatib o‘tilgan tegishli turdagi sug‘urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko‘ra uning uchun majburiy bo‘lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda sug‘urta qildiruvchi o‘ziga ma’lum bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug‘urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni sug‘urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug‘urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug‘urta qildiruvchiga berilgan sug‘urta qoidalarida yoki yozma so‘rovda sug‘urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo‘yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi.

Agar sug‘urta shartnomasi sug‘urtalovchining qandaydir savollariga sug‘urta qildiruvchining javoblari bo‘lmagan holda tuzilgan bo‘lsa, sug‘urtalovchi tegishli holatlar sug‘urta qildiruvchi tomonidan ma’lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug‘urta qildiruvchi aytib qo‘ymagan holatlar o‘tib ketgan bo‘lsa, sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Mol-mulkni sug‘urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug‘urtalovchi sug‘urta qilinayotgan mol-mulkni ko‘zdan kechirishga, zarurat bo‘lganda esa uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida baholashdan o‘tkazishni tashkil etishga haqli.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi tuzilayotganida sug‘urtalovchi sug‘urta qilinayotgan shaxs sog‘lig‘ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli.

Sug‘urtalovchi sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sog‘lig‘ining holati to‘g‘risidagi, shuningdek bu shaxslarning mulkiy ahvoli to‘g‘risidagi o‘z kasb faoliyati natijasida o‘zi olgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini oladigan yoki shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha to‘lash majburiyatini oladigan summa (sug‘urta puli) sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalovchi bilan kelishuviga ko‘ra va FKga muvofiq belgilanadi.

Mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug‘urta qilishda, agar sug‘urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta puli ularning haqiqiy qiymatidan (sug‘urta qiymatidan) oshmasligi lozim, quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

– mol-mulk uchun – uning sug‘urta shartnomasini tuzish kuni turgan joyidagi haqiqiy qiymati;

– tadbirkorlik xavfi – sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta qildiruvchi tadbirkorlik faoliyatidan ko‘rishi mumkin bo‘lgan zarar.

Shaxsiy sug‘urta shartnomalarida va fuqaroviy javobgarlikni sug‘urtalash shartnomalarida sug‘urta pulini taraflar o‘z ixtiyorlariga ko‘ra aniqlaydilar, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Sug‘urta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko‘ra aniqlanadigan, sug‘urta manfaati bilan bog‘lanadigan mol-mulk qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, *sug‘urta qiymati (sug‘urta bahosi)* deb hisoblanadi.

Mol-mulkning shartnomada ko‘rsatilgan sug‘urta qiymati ustida keyinchalik nizolashish mumkin emas, shartnoma tuzilgunga qadar sug‘urta xavfini baholash bo‘yicha o‘z huquqidan foydalanmagan sug‘urtalovchi bu qiymat borasida bila turib chalg‘itilgan hol bundan mustasno.

Agar mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug‘urtalash shartnomasida sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko‘rgan zararni sug‘urta pulining sug‘urta qiymatiga bo‘lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart.

Agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug‘urta qiymatining bir qismi miqdorida sug‘urtalangan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi)

qo‘shimcha sug‘urta qilishga, shu jumladan boshqa sug‘urtalovchida sug‘urta qilishga haqli, ammo barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha umumiy sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

Agar sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfining sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lsa, shartnoma sug‘urta pulining sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lgan qismida o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Bu holda sug‘urta mukofotining ortiqcha to‘langan qismi qaytarib berilmaydi.

Agar sug‘urta shartnomasidagi sug‘urta pulini oshirib yuborish sug‘urta qildiruvchi tomonidan aldashning oqibati bo‘lsa, sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o‘ziga yetkazilgan zarar uning sug‘urta qildiruvchidan olgan sug‘urta puli summasidan ortiq miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli.

Bitta mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini ikki yoki bir necha sug‘urtalovchida sug‘urta qilish *qo‘shaloq sug‘urta* deyiladi.

Mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi qo‘shaloq sug‘urta qilinganda har bir sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini o‘zi tuzgan shartnoma doirasida to‘lashga majbur bo‘ladi, biroq barcha sug‘urtalovchilardan olingan sug‘urta tovonlarining umumiy summasi haqiqiy zarardan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Bunda sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urta tovonini istalgan sug‘urtalovchidan u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan sug‘urta puli doirasida olishga haqli. Olingan sug‘urta tovoni haqiqiy zararni qoplamagan taqdirda, sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) yetishmayotgan summani boshqa sug‘urtalovchidan olishga haqli.

Yetkazilgan zarar boshqa sug‘urtalovchilar tomonidan qoplangani sababli sug‘urta tovonini to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilingan sug‘urtalovchi sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta to‘lovlarining tegishli qismini qilingan xarajatlarni chegirgan holda qaytarishi shart.

Mol-mulk va tadbirkorlik xavfi turli xildagi sug‘urta xavflaridan xoh bitta, xoh alohida sug‘urta shartnomalari bo‘yicha, shu jumladan turli sug‘urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta qilinishi mumkin.

Sug‘urta obyekti bitta shartnoma bo‘yicha bir necha sug‘urtalovchi tomonidan o‘rtada sug‘urtalanishi *birgalikda sug‘urta qilish* deb hisoblanadi. Agar bunday shartnomada sug‘urtalovchilardan har birining huquq va majburiyatlari belgilanmagan bo‘lsa, ular mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini yoki shaxsiy sug‘urta shartnomasi

bo‘yicha sug‘urta pulini to‘lash uchun sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) oldida solidar javobgar bo‘ladilar.

Yirik va alohida yirik xavflarni o‘rtada sug‘urta qilish uchun birgalikda sug‘urtalovchilar birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma asosida oddiy shirkatlar (sug‘urta sherikchiligi) tuzishlari mumkin.

Birgalikda sug‘urtalovchilar o‘rtasida tegishli kelishuv bo‘lgan taqdirda, ulardan biri sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning oldida faqat o‘z ulushi uchun javobgar bo‘lib qolgani holda, u bilan o‘zaro munosabatlarda barcha birgalikdagi sug‘urtalovchilar nomidan vakil bo‘lishi mumkin.

Sug‘urta mukofoti deganda sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug‘urtalovchiga to‘lashi shart bo‘lgan sug‘urta haqi tushuniladi.

Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta mukofoti miqdorini belgilashda sug‘urta obyekti va sug‘urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug‘urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug‘urta tariflarini qo‘llashga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug‘urta mukofotining miqdori davlat sug‘urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug‘urta tariflariga muvofiq belgilanadi.

Agar sug‘urta shartnomasida sug‘urta mukofotini bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, shartnomada navbatdagi sug‘urta badallarini belgilangan muddatlarda to‘lamaslik oqibatlari ko‘rsatib qo‘yilishi mumkin.

Agar sug‘urta hodisasi to‘lash muddati o‘tkazib yuborilgan navbatdagi sug‘urta badali to‘lanishidan oldin yuz bergan bo‘lsa, sug‘urtalovchi mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta tovoni yoki shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta puli miqdorini sug‘urta mukofotining o‘ziga to‘langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o‘tkazib yuborilgan sug‘urta badali summasini hisobga olishga haqli.

Sug‘urta shartnomasi quyidagi hollarda o‘z-o‘zidan haqiqiy emas:

– shartnoma tuzilayotgan paytda sug‘urta obyekti mavjud bo‘lmasa;

– jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo‘lgan mol-mulk mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan bo‘lsa;

– shartnoma bo‘yicha g‘ayrihuquqiy manfaat sug‘urtalangan bo‘lsa;

– sug‘urta shartnomasida sug‘urta hodisasi sifatida yuz berish ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo‘lmagan voqea nazarda tutilgan bo‘lsa.

– qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchidan boshqa shaxsning javobgarligi sug‘urtalangan hollarda, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi bu shaxsni sug‘urta hodisasi yuz berguncha istalgan vaqtda, sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, boshqa shaxsga almashtirishga haqli.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan sug‘urtalangan shaxs sug‘urta qildiruvchi tomonidan shu sug‘urtalangan shaxs va sug‘urtalovchining roziligi bilangina boshqa shaxsga almashtirilishi mumkin.

Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan naf oluvchini boshqa shaxsga, bu haqda sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, almashtirishga haqli. Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan shaxsning roziligi bilan tayinlangan naf oluvchini almashtirishga faqat shu shaxsning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Naf oluvchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bironta majburiyatni bajarganidan yoki sug‘urta tovonini yoxud sug‘urta pulini to‘lash to‘g‘risida sug‘urtalovchiga talab qo‘yganidan keyin u boshqa shaxs bilan almashtirilishi mumkin emas.

Mol-mulkni sug‘urtalash shartnomasini tuzgan sug‘urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, sug‘urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bu mol-mulkni meros tartibida qabul qilib olgan shaxsga o‘tadi. Mulk huquqi o‘tishining boshqa hollarida sug‘urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari, agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o‘tadi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasini sug‘urtalangan shaxs foydasiga tuzgan sug‘urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, ushbu shartnoma bilan belgilanadigan huquq va majburiyatlar sug‘urtalangan shaxsning roziligi bilan unga o‘tadi. Sug‘urtalangan shaxs sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini bajarishi mumkin bo‘lmasa, uning huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlariga muvofiq uning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi shaxslarga o‘tishi mumkin.

Agar sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta qildiruvchi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati

cheklangan deb topilsa, bunday sug‘urta qildiruvchining huquq va majburiyatlarini uning vasiyi yoki homiysi oladi. Bunda sug‘urta qildiruvchining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi sug‘urtasi uning muomala layoqati tugagan yoki cheklangan paytdan boshlab tugaydi.

Yuridik shaxs bo‘lgan sug‘urta qildiruvchi sug‘urta shartnomasi davrida qayta tashkil etilganida uning ushbu shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlari sug‘urtalovchining roziligi bilan tegishli huquqiy vorisga o‘tadi.

Sug‘urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta mukofoti yoki birinchi badal to‘langan paytda kuchga kiradi.

Agar shartnomada sug‘urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnomada shartlashilgan sug‘urta sug‘urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug‘urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Sug‘urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo‘qolgan va sug‘urta xavfining mavjud bo‘lishi sug‘urta hodisasidan boshqa holatlar bo‘yicha tugagan bo‘lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo‘ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi, chunonchi:

– sug‘urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug‘urta hodisasidan boshqa sabablarga ko‘ra nobud bo‘lishi;

– tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog‘liq fuqaroviy javobgarlik xavfini sug‘urtalagan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda to‘xtatishi.

Sug‘urta shartnomasi yuqorida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha muddatidan oldin bekor bo‘lganda, sug‘urtalovchi sug‘urta mukofotining bir qismini sug‘urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar voz kechish paytiga kelib sug‘urta hodisaning yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha yo‘qolmagan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli.

Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug‘urtalovchiga to‘langan sug‘urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, qaytarib berilmaydi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) shartnoma tuzilayotganda sug‘urtalovchiga

ma’lum qilingan holatlarda yuz bergan, o‘ziga ma’lum bo‘lgan muhim o‘zgarishlar to‘g‘risida, agar bu o‘zgarishlar sug‘urta xavfi ortishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, sug‘urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug‘urta shartnomasida (sug‘urta polisida) va sug‘urta qildiruvchiga berilgan sug‘urta qoidalarida aytib qo‘yilgan o‘zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

Sug‘urta xavfi ortishiga sabab bo‘ladigan holatlar to‘g‘risida xabardor qilingan sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasining shartlarini o‘zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lashni talab qilishga haqli.

Agar sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urta shartnomasining shartlari o‘zgartirilishiga yoki sug‘urta mukofotiga qo‘shimcha to‘lashga e’tiroz bildirsa, sug‘urtalovchi shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli.

Sug‘urtalovchi, agar sug‘urta xavfi ortishiga sabab bo‘ladigan holatlar yo‘qolgan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Shaxsiy sug‘urtada, sug‘urta shartnomasining amal qilishi davrida ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan sug‘urta xavfining o‘zgarishi oqibatlari, agar ular shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsagina, yuzaga kelishi mumkin.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi sug‘urta hodisasi yuz bergani o‘ziga ma’lum bo‘lganidan keyin bu haqda darhol sug‘urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Agar shartnomada xabar qilish muddati va (yoki) usuli nazarda tutilgan bo‘lsa, bu shartlashilgan muddatda va shartnomada ko‘rsatilgan usulda qilinishi lozim. Agar naf oluvchi o‘zining foydasiga tuzilgan shartnoma bo‘yicha sug‘urta tovoniga bo‘lgan huquqdan foydalanish niyatida bo‘lsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchi zimmasida bo‘ladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganida, sug‘urta qildiruvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun oqilona va mumkin bo‘lgan choralarni ko‘rishi shart. Sug‘urta qildiruvchi bunday choralarni ko‘rar ekan, agar o‘ziga ma’lum qilingan bo‘lsa, sug‘urtalovchining ko‘rsatmalariga amal qilishi lozim.

Zararni kamaytirish maqsadida qilingan, sug‘urtalovchi qoplashi lozim bo‘lgan xarajatlar, agar bunday xarajatlar zarur bo‘lgan bo‘lsa yoki sug‘urtalovchining ko‘rsatmalarini bajarish uchun qilingan bo‘lsa, tegishli choralar foydasiz bo‘lib chiqsa ham, sug‘urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday xarajatlar sug‘urta summasining sug‘urta qiymatiga

nisbatiga mutanosib ravishda, boshqa zararlarni qoplash bilan birgalikda ular sug‘urta pulidan oshib ketishi mumkinligidan qat’i nazar, qoplanadi.

Sug‘urta qiluvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun qasddan choralar ko‘rmagani oqibatida ko‘rilgan zararni qoplashdan sug‘urtalovchi ozod qilinadi.

Agar sug‘urta hodisasi sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug‘urtalangan shaxsning qasd qilishi oqibatida yuz bergan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashdan ozod qilinadi, qasddan qilingan harakatlar ular tomonidan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida, shuningdek ushbu moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sodir etilishi bundan mustasno.

Qonunda sug‘urta hodisasi sug‘urta qiluvchining yoki naf oluvchining qo‘pol ehtiyotsizligi oqibatida yuzaga kelganda sug‘urtalovchini mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilish yoki tovon miqdorini kamaytirish hollari nazarda tutilishi mumkin.

Sug‘urtalovchi sug‘urtalangan shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazganlik uchun fuqaroviy javobgarlikni sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lashdan, agar zarar sug‘urtalanuvchi uchun javobgar shaxsning aybi bilan yetkazilgan bo‘lsa, ozod qilinmaydi.

Sug‘urtalovchi shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta pulini to‘lashdan, agar uning vafoti o‘z joniga qasd qilish oqibatida ro‘y bergan bo‘lsa va bu vaqtgacha sug‘urta shartnomasi kamida ikki yil amal qilgan bo‘lsa, ozod qilinmaydi.

Sug‘urtalovchi, agar qonunda yoki sug‘urta shartnomasida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa va sug‘urta hodisasi quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, sug‘urta tovonini va sug‘urta pulini to‘lashdan ozod qilinadi:

– yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta’sirida;

– harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar.

Agar mulkiy sug‘urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo‘yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi oqibatida ko‘rilgan zarar uchun sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilinadi.

Sug‘urtalovchi mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug‘urta tovonini yoki shaxsiy sug‘urta

shartnomasi bo‘yicha sug‘urta pulini to‘lashni *quyidagi hollarda rad etishga haqli, chunonchi:*

– sug‘urta shartnomasining amal qilishi sug‘urta hodisasi yuz bergunga qadar bekor qilinganda;

– sug‘urta shartnomasi FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaganda;

– sug‘urtalovchi FKning 951–954-moddalarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha sug‘urta tovonini yoki sug‘urta puli to‘lashdan ozod qilinganda;

– sug‘urtalovchi ushbu FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha sug‘urta shartnomasini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida yoxud sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urta hodisasi holatlarini tekshirib ko‘rishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga to‘sqinlik qilgani tufayli sug‘urta shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atganida.

Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni rad etish to‘g‘risidagi qarori sug‘urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni so‘rab murojaat etganlaridan keyin o‘n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni rad etishiga qarshi unga nisbatan sudda da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan e’tiroz bildirilishi mumkin.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta puli, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy ta’minot bo‘yicha, boshqa sug‘urta shartnomalari bo‘yicha yoki zararni qoplash tartibida sug‘urta qildiruvchiga, sug‘urtalangan shaxsga yoki naf oluvchiga tegishli summalardan qat’i nazar, shartnoma kimning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga to‘lanadi.

Agar mulkiy sug‘urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug‘urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to‘langan summa doirasida sug‘urta tovonini to‘lagan sug‘urtalovchiga o‘tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug‘urtalovchiga o‘tishini istisno qiladigan shartlari o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqi uning tomonidan sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) va zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urtalovchi o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug‘urtalovchiga berishi hamda barcha ma’lumotlarni unga ma’lum qilishi shart.

Agar sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o‘zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘liq yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to‘langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urtalovchida (sug‘urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanishi mumkin *(qayta sug‘urta qilish).*

Qayta sug‘urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug‘urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, tadbirkorlik xavfini sug‘urta qilish borasida qo‘llanishi lozim bo‘lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzgan sug‘urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo‘yicha sug‘urtalovchi keyingi shartnomada sug‘urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug‘urta qilishda sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash uchun asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo‘yicha sug‘urtalovchi javobgar bo‘lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanuvchi hisoblangan sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug‘urta qilingan qismi qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga o‘tadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sug‘urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug‘urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug‘urta shartnomasi deb hisoblanadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z mol-mulklarini hamda boshqa mulkiy manfaatlarini ikki taraflama asosda, buning uchun *ikki tomonlama sug‘urta* qilish jamiyatlarida zarur mablag‘larni birlashtirish yo‘li bilan sug‘urta qilishlari mumkin.

Ikki tomonlama sug‘urta qilish jamiyatlari o‘z a’zolarining mol-mulki hamda boshqa mulkiy manfaatlarini sug‘urta qilishni amalga oshiradi va tijoratchi bo‘lmagan tashkilot hisoblanadi.

Ikki tomonlama sug‘urta qilish tashkilotlari tomonidan o‘z a’zolarining mol-mulki va mulkiy manfaatlarini sug‘urta qilish, agar jamiyatning ta’sis hujjatlarida bunday hollarda sug‘urta shartnomalari tuzish nazarda tutilmagan bo‘lsa, bevosita a’zolik asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta’minlash maqsadida qonunda hayot, sog‘liq va mol-mulkning majburiy davlat sug‘urtasi belgilab qo‘yilishi mumkin.

Majburiy davlat sug‘urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Majburiy davlat sug‘urtasi bevosita sug‘urta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko‘rsatilgan davlat sug‘urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug‘urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

CAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tashish shartnomasining alohida turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasi bo‘yicha shartlarni buzganlik uchun javobgarlikka tasnif bering.
3. Shartnoma bo‘yicha yo‘lovchi, bagaj va yukni eltib qo‘yish muddatiga rioya qilishning zaruriyatini aytib bering.
4. Sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydigan manfaatlarning mohiyatini aniqlang.
5. Sug‘urtaga oid huquqiy munosabatlar tushunchasini qayd eting.

13-MAVZU.
TOPSHIRIQ, VOSITACHILIK VA OMONAT SAQLASH SHARTNOMALARI

1. Topshiriq shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va ahamiyati.
2. Vositachilik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va obyektlari.
3. Omonat saqlash shartnomasi va uning alohida turlari.

1. Topshiriq shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va ahamiyati

Topshiriq shartnomasi shartnoma turlaridan bo‘lib, bir taraf (vakil), ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo‘yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi (FK 817-m.).

Topshiriq vakil tomonidan bir yoki bir necha muayyan yuridik harakatlarni sodir etish haqida yoki topshiriq beruvchining ishlari uning ko‘rsatmalariga muvofiq yuritilishi haqida berilishi mumkin.

Topshiriq shartnomasi ma’lum shaxs (shaxslar) nomidan ma’lum shaxsning (yoki shaxslarning) vakillik qilishi to‘g‘risidagi shartnomadir. Bu shartnomaga binoan vakil topshiriq beruvchi nomidan va uning hisobiga muayyan yuridik harakatlarni qilish majburiyatini olganligi sababli, vakilning o‘ziga berilgan vakolat doirasida qilingan barcha ijobiy, qonuniy harakatlari topshiriq beruvchi uchun bevosita huquq va burchlarni vujudga keltiradi. Vakilning o‘zi esa uchinchi shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yuzasidan hech qanday huquq va burchlar ololmaydi.

Vakil alohida huquqlarga ega bo‘ladigan topshiriq shartnomasi bo‘yicha bir taraf (topshiriq beruvchi) ikkinchi tarafga (alohida huquqlarga ega bo‘lgan vakilga) topshiriq beruvchi nomidan va uning hisobidan ma’lum sohada yoki (va) ma’lum hududda topshiriq beruvchi uchun yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hamma harakatlarni sodir etishni topshiradi (FK 817-m. 3-q.).

Topshiriq shartnomasi *huquqiy belgilariga* ko‘ra *ikki tomonlama* va *konsensual* shartnomalar guruhiga kiradi. Topshiriq shartnomasi vakilning xizmat uchun *haq to‘lash* sharti bilan, shuningdek, xizmat *tekin* bajarilishi nazarda tutilib ham tuzilishi mumkin.

Topshiriq taraflarning o‘zaro ishonchlariga asoslanib tuziladigan shartnoma bo‘lganligi tufayli, u shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan shartnoma

hisoblanadi. Topshiriq beruvchi uchun vakilning kim bo‘lishi, ya’ni uning shaxsi qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, vakil uchun ham topshiriq beruvchining shaxsi shunday ahamiyatga ega. Agar taraflardan biri ikkinchisiga nisbatan ishonchni oqlamasa (masalan, vakilning zarariga qaratilgan noto‘g‘ri xatti-harakatlar qilsa), shartnoma ahamiyatini yo‘qotadi. Binobarin, bunday shartnomaning kelgusida saqlanishi taraflarning manfaatiga ziyon yetkazishi mumkinligi sababli, har qaysi tarafga shartnomani istalgan vaqtda bekor qilish huquqi beriladi.

Topshiriq shartnomasi fuqarolar o‘rtasida keng ravishda qo‘llaniladigan shartnomalardan biri hisoblanadi. Ushbu shartnomaga binoan muomalaga layoqatli fuqarodan boshqa bir fuqaroga muayyan yuridik harakatlarni sodir etishi uchun topshiriqlar berishi, ya’ni o‘z nomidan ma’lum yuridik harakatlar qilishni topshirishi mumkin. Chunonchi: uy-joy egasi o‘ziga qarashli mulkni biron joyga ketish munosabati bilan idora etishni (masalan, turar-joyni ijaraga qo‘yish, ta’mirlash va sotishni) boshqa birovga topshirishi mumkin. Fuqarolar topshiriq shartnomasi tuzish yo‘li bilan pul yoki boshqa moddiy boyliklarni yuborishi yoki olishi, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan topshiriq-xizmatlarni bajarishi yoxud sud ishlarini yuritishi mumkin va hokazo.

Topshiriq shartnomasi *yozma shaklda* tuziladi.

Topshiriq shartnomasi vakil topshiriq beruvchining nomidan ish olib borishga haqli bo‘ladigan muddatni ko‘rsatgan yoki bunday muddatni ko‘rsatmagan holda tuzilishi mumkin.

Agar topshiriq shartnomasi ikkala taraf yoki ulardan birining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lsa, topshiriq beruvchi agar shartnomada boshqa hol nazarda tutilgan bo‘lmasa, ishonchli vakilga haq to‘lashi shart. Haq to‘lash nazarda tutilgan topshiriq shartnomasida to‘lanadigan haqning miqdori va uni to‘lash haqidagi shartlar bo‘lmasa, haq Fuqarolik kodeksi 356-moddasining to‘rtinchi qismiga muvofiq shunga o‘xshash xizmatlar uchun odatda qabul qilingan narxlar bo‘yicha belgilanadi va topshiriq bajarilganidan keyin to‘lanadi.

Vakil talab qilingan hamma harakatlarni tegishli darajada amalga oshirgan, biroq topshiriq u aybdor bo‘lmagan holda bajarilmay qolgan taqdirda ham haq to‘lanishi kerak.

Bundan tijorat vakili sifatida ish olib boruvchi ishonchli vakil ushbu Kodeksning 290-moddasiga muvofiq topshiriq beruvchiga topshirilishi kerak bo‘lgan o‘z qo‘lidagi ashyolarni topshiriq shartnomasi bo‘yicha o‘z talablarini ta’minlash uchun ushlab turishga haqli (FK 818-m. 3-5-q.).

Topshiriq shartnomasi tuzilgandan keyin muayyan yuridik harakat qilish uchun vakilga odatda ishonchnoma (ishonch qog‘ozi) beriladi. Bu hujjat taraflar o‘rtasida yozma shartnoma bo‘lganligini bildiradi va vakilning uchinchi shaxslar huzurida harakat qilinishini qonunga muvofiqlashtiradi. Ishonchnoma vakilga berilgan ishonchning hajmini belgilaydi, ammo topshiriqning mazmuni ishonchnomada belgilanmay, balki shartnomada ko‘rsatiladi.

Topshiriq shartnomasining ishtirokchilari – muomalaga layoqatli fuqarolar hamda yuridik shaxslar *vakil* va *topshiriq beruvchilar* bo‘la oladilar. Istisno sifatida, ayrim hollarda, o‘n olti yoshga to‘lib, pasport olgan fuqaro ham vakil bo‘lishi hamda Fuqarolik kodeksining 28-moddasiga muvofiq o‘n olti yoshga to‘lgan, voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa, yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin. Fuqarolarning faqat bir-birlari uchun emas, ba’zi hollarda tashkilotlar uchun ham vakil bo‘lishlariga qonun yo‘l qo‘yadi. Masalan, savdo va ta’minot bo‘limlarining agentlari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar yuridik shaxslarning vakili sifatida ish olib borishi mumkin.

Yuridik shaxs faqat o‘z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o‘z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo‘lgandagina fuqarolarning vakili yoki boshqa shaxsning vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

Topshiriq shartnomasining predmeti vakil tomonidan amalga oshiriladigan muayyan yuridik harakatlar, chunonchi, uning tomonidan tuziladigan qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan xilma-xil bitimlar (shartnomalar) hisoblanadi.

Topshiriqni bajarish yuzasidan qilinadigan ayrim yuridik harakatlar: masalan, muayyan ma’lumotni olish uchun biror tashkilotga borish va shu kabilar mustaqil xarakterga ega bo‘lganligi va faqat yordamchi o‘rin tutganligi sababli topshiriq shartnomasining predmeti bo‘la olmaydi. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar har doim fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga doir oqibatlarni keltirib chiqaradi. Topshiriq shartnomasining predmeti faqat qonun hujjatlariga zid kelmaydigan yuridik harakatlar bo‘lishi mumkin. Aks holda, topshiriq yuridik kuchga ega bo‘lmaydi va haqiqiy hisoblanmaydi.

Topshiriq ikki tomonlama shartnoma bo‘lganligi tufayli har ikki tarafda ham muayyan huquq va majburiyatlar bo‘ladi. *Vakilning majburiyatlari* quyidagilardan iborat:

birinchidan, vakil o‘ziga berilgan topshiriqni topshiriq beruvchining ko‘rsatmalariga muvofiq bajarishi shart. Topshiriq beruvchining ko‘rsatmalari aniq yo‘l qo‘yiladigan va bajariladigan bo‘lmog‘i kerak (FK 819-m. 1-q.).

Agar bunday ko‘rsatma berilmagan bo‘lsa, vakil topshiriq beruvchining manfaatlarini ko‘zlab o‘zi mustaqil harakat qilishga haqli bo‘ladi. Vakil qoida bo‘yicha topshiriq beruvchining ko‘rsatmalaridan chetga chiqa olmaydi.

Qonunga binoan, agar ishning holatlariga ko‘ra, topshiriq beruvchining manfaatlari uchun uning ko‘rsatmalaridan chetga chiqish zarur bo‘lsa hamda vakil topshiriq beruvchidan bu haqda oldindan so‘ray olmagan yoxud o‘z so‘roviga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, u topshiriq beruvchining ko‘rsatmalaridan chetga chiqishga haqli. Bunday hollarda vakil xabar berish imkoni tug‘ilishi bilanoq yo‘l qo‘yilgan chetga chiqishlar haqida topshiriq beruvchiga xabar berishi shart.

Topshiriq beruvchi tijorat vakili sifatida ish olib boradigan vakilga topshiriq beruvchining manfaatlarini ko‘zlab oldindan so‘rov yubormagan holda topshiriq beruvchining ko‘rsatmalaridan chetga chiqish huquqini berishi mumkin. Bunday hollarda tijorat vakili, agar topshiriq shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yo‘l qo‘yilgan chetga chiqishlar haqida topshiriq beruvchiga oqilona muddatda xabar berishi shart (FK 819-m. 3–4-q.).

ikkinchidan, topshiriqni shaxsan vakilning o‘zi bajarishi lozim (Fuqarolik kodeksining 822-moddasida ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno);

uchinchidan, topshiriq beruvchining talabiga muvofiq, unga topshiriq qanday bajarilayotganligi to‘g‘risida ma’lumot berib turishi;

to‘rtinchidan, topshiriqni bajarish uchun tuzilgan bitimlar bo‘yicha olingan hamma ashyoni kechiktirmasdan topshiriq beruvchiga topshirishi;

beshinchidan, topshiriq bajarib bo‘linganidan keyin amal qilish muddati tamom bo‘lmagan ishonchnomani kechiktirmasdan topshiriq beruvchiga qaytarib berishi va agar shartnoma shartlariga yoki topshiriqning xususiyatiga ko‘ra zarur bo‘lsa, hisobot taqdim etib, unga isbotlovchi hujjatlarni ilova qilishi shart (FK 820-m.).

Topshiriqni boshqa shaxsga ishonib topshirish, fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra, agar topshiriq shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa

yoki vakil topshiriq beruvchining manfaatlarini himoya qilish maqsadida vaziyat taqozosi bilan majbur bo‘lsa, vakil topshiriqning bajarilishini boshqa shaxsga *(o‘rinbosariga) topshirishga* haqli. Bu quyidagi hollarda sodir bo‘lishi mumkin:

birinchidan, topshiriqni bajarishni boshqa shaxsga ishonib topshirgan vakil bu haqda darhol topshiriq beruvchini xabardor qilishi shart;

ikkinchidan, topshiriq beruvchi vakil tanlagan o‘rinbosarni rad etishga haqli, lekin o‘rinbosar nomini topshiriq shartnomasida keltirgan hollar bundan mustasno;

uchinchidan, agar vakil tanlagan o‘rinbosarning nomi shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, vakil ishlarning o‘rinbosar tomonidan olib borilishi uchun javobgar bo‘lmaydi;

to‘rtinchidan, agar ishlarning o‘rinbosar tomonidan olib borilishi topshiriq shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa-yu, lekin o‘rinbosarning nomi unda ko‘rsatilgan bo‘lmasa, vakil o‘rinbosarning aybli harakatlari uchun javobgar bo‘lmaydi;

beshinchidan, agar vakilning o‘rinbosari tomonidan ish yuritilishi topshiriq shartnomasida nazarda tutilmagan bo‘lsa, vakil o‘z o‘rinbosarining har qanday harakatlari uchun javobgar bo‘ladi (FK 822-m.).

Topshiriq beruvchining majburiyatlari, agar topshiriq shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, quyidagilardan iborat:

birinchidan, vakilning topshiriqni bajarishi uchun zarur mablag‘lar bilan ta’minlash;

ikkinchidan, vakil shartnomaga muvofiq bajarilgan barcha ishlarni, topshiriqni bajarishi uchun qilgan barcha zarur xarajatlarni, hujjatlarni va ashyolarni kechiktirmasdan qabul qilib olishi;

uchinchidan, vakilning yo‘lkira, yukni topshirish va topshiriqni bajarishi yuzasidan qilgan boshqa xarajatlarini to‘lashi lozim. bunday xarajatlar vakil harakatining muvaffaqiyatli bo‘lish-bo‘lmasligidan qatyi nazar, to‘lanadi;

to‘rtinchidan, topshiriq bajarilganidan keyin, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, vakilga haq to‘lashi shart (FK 818, 821-m.). Xizmat haqining miqdori taraflarning o‘zaro kelishuvlariga muvofiq ravishda belgilanadi.

Topshiriq shartnomasi Fuqarolik kodeksining 823-moddasiga ko‘ra (majburiyatlarining bekor qilinishiga oid umumiy asoslardan tashqari) quyidagi hollarda *to‘xtatiladi*:

topshiriq beruvchi topshiriqni bekor qilishi;

vakilning topshiriqni bajarishdan bosh tortishi;

shartnomada ishtirok etayotgan topshiriq beruvchining yoki vakilning vafot etishi, ulardan birining muomalaga layoqatsiz bo‘lib qolishi yoki sud qaroriga binoan muomala layoqatining cheklanishi yoxud bedarak yo‘qolgan deb topilishi natijasida

Topshiriq beruvchi istagan vaqtda topshiriqni bekor qilishga, vakil esa topshiriqdan bosh tortishga haqli. Mazkur hol imperativ (qat’iy) xarakterdagi norma bo‘lganligi tufayli bu huquqdan voz kechish haqidagi kelishuv o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi. Vakilning asosiy majburiyatlaridan biri – doimo topshiriq beruvchining manfaatlarini ko‘zda tutganligi sababli, agar u topshiriq beruvchining manfaatlarini bironta usulda ta’minlamay shartnomadan bosh tortsa, shartnomaning bekor qilinishi sababli, topshiriq beruvchiga kelgan zararlarni to‘lashga majbur.

Topshiriq beruvchining bedarak yo‘qolganligi, vafot etganligi, muomalaga layoqatsiz bo‘lib qolganligi yoki muomala layoqatining cheklanganligi yoxud yuridik shaxs bo‘lib hisoblangan topshiriq beruvchi tashkilotning tugatilganligi tufayli vakil topshiriq beruvchining manfaatlarini ko‘zlab himoya qilish vazifasini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biron-bir shaxsga, masalan, vasiyga, homiyga yoki yuridik shaxsni tugatish komissiyasiga yuklatilgunga qadar uning ishini olib borishga, topshirig‘ini ado etishga majbur bo‘ladi.

Agar vakil topshiriq shartnomasining bekor qilingani haqida bilmagan va bilishi lozim bo‘lmagan bo‘lsa, uning topshiriq beruvchining ko‘rsatmasiga muvofiq qonuniy ravishda qilgan harakatlari topshiriq beruvchi (uning qonuniy vorisi) zimmasiga uchinchi shaxslar va vakilga nisbatan majburiyat yuklaydi.

Tadbirkor sifatida ish olib borayotgan vakil bilan topshiriq shartnomasidan bosh tortayotgan taraf shartnomani bekor qilish to‘g‘risida ikkinchi tarafni, agar shartnomada uzoqroq muddat nazarda tutilgan bo‘lmasa, kamida *o‘ttiz kun* oldin xabardor qilishi shart. Tijorat vakili bo‘lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganida topshiriq beruvchi o‘z topshirig‘ini ana shunday oldindan xabar bermay turib bekor qilishga haqli (FK 823-m.).

Topshiriq shartnomasi topshiriq vakil tomonidan to‘liq bajarilishidan oldin bekor qilingan bo‘lsa, topshiriq beruvchi vakilga topshiriqni bajarish vaqtida qilingan chiqimlarini to‘lashi, vakilga haq berilishi kerak bo‘lganida esa unga bajarilgan ishga muvofiq haq to‘lashi ham shart. Bu qoida vakil topshiriqning bekor qilinganini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lganidan keyin bajargan topshiriqqa tatbiq etilmaydi (FK 824-m.).

Agar vakil vafot etgan taqdirda, uning merosxo‘rlari yoki meros mulkining saqlanishini ta’minlash majburiyati yuklatilgan boshqa shaxslar topshiriq shartnomasi bekor qilinishi haqida topshiriq beruvchiga kechiktirmay xabar berishlari hamda topshiriq beruvchining mol-mulkini muhofaza qilish uchun zarur choralarni ko‘rishlari, xususan, topshiriq beruvchining ashyolarini, shuningdek hujjatlarini saqlab qo‘yishlari, so‘ngra esa unga topshirishlari shart. Vakil (ishonchli vakil) bo‘lgan yuridik shaxsni tugatayotgan shaxsning zimmasida ham shunday majburiyat bo‘ladi.

Vakil (ishonchli vakil) sifatida ish olib borayotgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganida topshiriq beruvchi bu haqda darhol xabardor qilinishi kerak. Mazkur holatda agar topshiriq beruvchi o‘ttiz kunlik muddatda topshiriq shartnomasidan bosh tortishini ma’lum qilmasa, bunday yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari, uning qonuniy vorisiga o‘tadi.

Vakilning huquq va majburiyatlari shaxsiy xarakterda, ya’ni uning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, uning barcha huquq va majburiyatlari emas, balki faqat xizmat haqi va qilingan xarajatlarni olishga bo‘lgan huquqlarigina vorislariga o‘tadi.

2. Vositachilik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va obyektlari

Vositachilik deb shunday shartnomaga aytiladiki, bunga asosan bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig‘i bo‘yicha o‘z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. Masalan, vositachilik shartnomasida yuridik shaxslar yoki fuqarolar o‘zlariga tegishli hamda fuqarolik muomalasida bo‘lgan iste’mol qilinadigan va iste’mol qilinmaydigan mol-mulklarini vositachilik shartnomasi tuzish orqali sotishlari mumkin. Bunda vositachi savdo-sotiqni amalga oshirayotganida komitentning ishtirokisiz uchinchi shaxslar bilan haq evaziga bir necha shartnomalar tuzishi mumkin. Sotuvchi, ya’ni vositachi mulk egasi bo‘lmagan holda komitentning topshirig‘iga binoan va uning nomidan uchinchi shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarda to‘la huquqli subyekt sifatida ishtirok etadi.

Vositachilik shartnomasi *yozma shaklda* tuziladi va ko‘p jihatlari bilan topshiriq shartnomasiga o‘xshab ketadi. Lekin bu shartnomalar o‘zining mazmun-mohiyati, predmeti va xususiyatlari bilan bir-biridan *farq* qiladi. Bunda:

birinchidan, topshiriq shartnomasi ham haq evaziga, ham tekinga tuzilishi mumkin, vositachilik shartnomasi esa faqat haq evaziga tuziladi;

ikkinchidan, topshiriq shartnomasida vakil muayyan yuridik harakatni topshiriq beruvchi nomidan va uning manfaatlarini ko‘zlab bajarsa, vositachilik shartnomasida vositachi bunday yuridik harakatlarni (bir yoki bir necha bitimlar tuzish majburiyatini) o‘zining nomidan komitent hisobiga bajaradi hamda tuzilgan bitim bo‘yicha vujudga kelgan huquq va majburiyatlar uning o‘ziga tegishli bo‘ladi;

uchinchidan, topshiriq shartnomasi bo‘yicha qonunga zid bo‘lmagan harakatlar yuzasidan topshiriq beruvchining bergan topshirig‘ini vakil amalga oshirsa, vositachilik shartnomasida vositachi faqatgina fuqarolik muomalasida bo‘lgan iste’mol qilinadigan va iste’mol qilinmaydigan buyumlar savdosida vositachilik vazifasini bajaradi;

to‘rtinchidan, bu shartnomalar predmeti bilan farq qiladi.

Vositachilik shartnomasi muayyan muddatga yoki amal qilish muddatini ko‘rsatmagan holda noma’lum muddatga ham tuzilishi mumkin.

Vositachilik shartnomasining maqsadi, tovarlar savdosida taraflarga qulaylik yaratish, o‘ziga tegishli bo‘lmagan buyumlar bilan cheklanmagan miqdorda savdo-sotiq qilishda vositachilikka keng imkoniyat yaratib berishdan iborat. Vositachilik shartnomasida komitent vositachiga, savdo-sotiqdan tashqari, pudrat shartnomasini, yuk tashish shartnomasini tuzishni ham topshirishi mumkin.

Vositachilik shartnomasi fuqarolar va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish borasida tuziladigan shartnomalardan biri bo‘lib, u hozirgi kunda turli sohalarda, masalan, xo‘jaliklarda yetishtirilgan ortiqcha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish, fuqarolarga qarashli keng iste’mol mollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini vositachi do‘konlar orqali sotish uchun yetkazib berishda, korxona va tashkilotlarda ortiqcha, to‘planib qolgan va foydalanilmayotgan turli uskuna-asboblarni hamda korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni vositachilik asosida sotishda qo‘llaniladi.

Vositachilik shartnomasi bo‘yicha taraflar o‘rtasida tovarlarni qabul qilib olish kvitansiya yoki hujjatni rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi, vositachiga beriladigan to‘lov miqdori tovarga qo‘yilgan narx foizidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Vositachi qabul qilgan tovar sotilmay turib qolgan taqdirda uni oldingi birlamchi narxidan uch martagacha arzonlashtirish mumkin. Bu holat komitent bilan kelishilgan yoki kelishilmagan holda amalga oshirilishi mumkin (agarda bu haqda shartnomada qayd etilgan bo‘lsa). Vositachi narxni uchinchi marta tushirayotganida komitentni albatta chaqirishi yoki uning roziligini olishi lozim. Komitent bunga qarshi bo‘lsa, qo‘yilgan buyum-ashyoni qaytarib

olishga haqli bo‘ladi va vositachining buyum-ashyolarni saqlaganlik uchun qilgan xarajatlarini qoplashi lozim.

Vositachi va *komitent* vositachilik shartnomasining tomonlari bo‘lib hisoblanadi. *Vositachi* komitent foydasiga bir yoki bir nechta bitimlarni tuzuvchi fuqaro yoki tashkilot bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqli bo‘lgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayd etilgan subyektlargina vositachilik bilan shug‘ullanishga haqli.

Vositachilik shartnomasi *ikki tomonlama* shartnoma bo‘lganligi bois, shartnoma subyektlarining har ikkalasida ham huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Vositachi shartnoma asosida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini komitentning topshiriq va ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirishi lozim. Agar shartnomada topshiriqning bajarilishi to‘g‘risida bunday ko‘rsatmalar bo‘lmasa, vositachi ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq, komitent uchun eng foydali shartlar asosida bajarishi lozim. Agar vositachi komitent topshirig‘ini u ko‘rsatganidan ham foydaliroq asosda bajargan bo‘lsa, qo‘shimcha foyda shartnomada belgilangan shartlarga zid bo‘lmagan hollarda, taraflar o‘rtasida teng taqsimlanishi lozim.

Vositachi, komitent bitim tuzuvchi shaxsni tanlashda zarur ehtiyotkorlik qilmagan yoki bitimning bajarilishiga kafolat bermagan bo‘lsa, uchinchi shaxslar bilan tuzgan bitimlarining bajarilmasligi uchun javobgar emas. Vositachi uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimni uchinchi shaxs bajarmagan taqdirda vositachi bu haqda komitentga darhol xabar berishi, zarur dalil-isbotlarni to‘plashi va ta’minlashi, shuningdek komitentning talabiga ko‘ra bunday bitim yuzasidan huquq va talablarni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi qoidalarga rioya qilgan holda (FK 313-317, 319, 320-moddalari) unga topshirishi shart (FK 834-m.).

Qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilgan bo‘lmasa, vositachining ish manfaatlarini, shuningdek komitent manfaatlarini ko‘zlamasdan komitent tomonidan berilgan ko‘rsatmalardan chetga chiqishi – taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomani buzish deb ko‘rsatiladi. Binobarin, buning natijasida ko‘rilgan zarar vositachi tomonidan komitentga to‘lanishi lozim.

Vositachi komitent tomonidan tayinlanib, ashyoning o‘zaro kelishib belgilangan sotish bahosini komitent bilan kelishmasdan o‘zgartira olmaydi. Vositachilik shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, vositachi vositachilik shartnomasini bajarish maqsadida boshqa shaxs bilan qo‘shimcha vositachilik shartnomasi tuzishga haqli bo‘lib,

qo‘shimcha vositachining harakatlari uchun komitent oldida javobgar bo‘lib qolaveradi (FK 835-m. 1-q.).

Agar vositachilik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, vositachilik shartnomasi bekor qilinguniga qadar komitent vositachining roziligisiz qo‘shimcha vositachi bilan bevosita munosabatlarga kirishishga haqli emas (FK 835-m. 4-q.).

Komitentning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

– vositachilik shartnomasiga asosan vositachi tomonidan bajarilgan barcha ishlarni, shu jumladan vositachi ijro etgan hamma narsani qabul qilib olishga majbur;

– vositachilik shartnomasida belgilangan topshiriqlarni bajarish yuzasidan vositachi komitent uchun sotib olgan mol-mulkni ko‘rib chiqishi va ushbu mol-mulkda kamchiliklar aniqlansa, bu haqda darhol vositachini xabardor qilishi lozim;

– komitent topshiriqni ijro etish yuzasidan vositachi tomonidan uchinchi shaxs oldida olingan majburiyatlaridan uni ozod qilishi kerak;

– vositachi tomonidan bajarilgan barcha ishlar uchun shartnomada kelishilgan tartibda va muddatda xizmat haqi to‘lashi lozim;

– agar vositachi bitimning uchinchi shaxs tomonidan ijro etilishi uchun o‘z zimmasiga kafillik olgan bo‘lsa (ushbu kafillik Fuqarolik kodeksida *delkredere* deb ataladi), ushbu kafillik uchun ham vositachiga alohida haq to‘lashga majburdir;

– vositachi komitent topshirig‘ini bajarish uchun sarf-xarajatlar qilgan bo‘lsa, komitent ushbu xarajatlarni ham to‘lashi shart.

Vositachilik shartnomasi vositachi tomonidan ham, komitent tomonidan ham bekor qilinishi mumkin. Vositachilik shartnomasi umumiy asoslarda, vositachi va komitent olgan huquq va majburiyatlarning ijro etilishi bilan, shuningdek topshiriqning komitent tomonidan bekor qilinishi bilan yoki vositachining topshiriqni ijro etishdan bosh tortishi bilan bekor bo‘ladi. Umuman aytganda, vositachilik shartnomasi bir tomonning tashabbusi bilan, har ikkala tomonning o‘zaro roziligi bilan, shuningdek tomonlarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar asosida yoxud shartnoma shartlari to‘liq ijro etilishi bilan bekor bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 845-moddasiga binoan, vositachilik shartnomasi quyidagi hollarda *bekor qilinadi*:

– komitent shartnomani bajarishdan bosh tortganida;

– vositachi shartnomani bajarishdan bosh tortganida;

– vositachi vafot etgan, muomalaga layoqatsiz, layoqati cheklangan, bedarak yo‘qolgan yoki bankrot deb topilganida.

Komitent muddatsiz tuzilgan vositachilik shartnomasini bajarishdan istagan vaqtda bosh tortishi mumkin, bu haqda u vositachini kamida *o‘ttiz kun* oldin xabardor qilishi lozim va shu vaqtga qadar vositachining shartnoma majburiyatlarini bajarish yuzasidan qilgan barcha xarajatlarini to‘lashi shart.

O‘z navbatida, vositachi ham muddatsiz tuzilgan shartnomani istagan vaqtda bajarishdan bosh tortishi mumkin va bu haqda u komitentni *o‘ttiz kun* muddatda yozma ravishda xabardor qilishi lozim. Komitent ushbu xabarni olganidan so‘ng yana *2 hafta* davomida shartnoma o‘z kuchini saqlab turadi va shu vaqt mobaynida u shartnomada ko‘rsatilgan mulkni komitentga yoki u ko‘rsatgan boshqa shaxsga qaytarishi lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, vositachi yuridik shaxs bo‘lsa-yu, u qayta tashkil etilganda va bu haqda komitentga xabar qilinganida, komitent bu xabarni olgandan so‘ng *o‘ttiz kun* muddat ichida shartnomani bekor qilganligini bildirmasa, vositachi yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari qayta tashkil etilgan qonuniy vorislariga o‘tadi.

Ushbu hollarda vositachi komitentning o‘z ixtiyoridagi mol-mulklarining to‘liq saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi va buning uchun kerakli choralarni ko‘rishga majbur. Komitent vositachilik shartnomasi bekor bo‘lgunga qadar ushbu mol-mulklarni vositachidan qabul qilib olishga majbur, aks holda, vositachi komitentning mol-mulklarini komitent uchun mumkin qadar foydali bo‘lgan bahoda sotishga haqli hisoblanadi. Shuningdek, ushbu mol-mulkni komitent hisobidan saqlash uchun topshirishi ham yoki o‘z talablarini qondirish uchun sotishi ham mumkin.

Vositachi yuridik shaxs qayta tashkil etilganida uning vositachi sifatidagi huquq va majburiyatlari, basharti qayta tashkil etish yuz berganligi haqidagi ma’lumotni olgan kundan boshlab o‘ttiz kun ichida komitent shartnomani bekor qilganligi haqida xabar bermasa, qonuniy vorislariga o‘tadi.

Komitent fuqaro vafot etgan, muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilgan taqdirda, shuningdek komitent yuridik shaxs tugatilgan taqdirda vositachi o‘ziga berilgan topshiriqni komitetning merosxo‘rlaridan yoki huquqiy vorislaridan (vakillaridan) tegishli ko‘rsatmalar kelguncha bajarib turishi shart (FK 848-m.).

3. Omonat saqlash shartnomasi va uning alohida turlari

Qonunda belgilanganidek, *omonat saqlash shartnomasi* bo‘yicha bir taraf (omonat saqlovchi) unga ikkinchi taraf (yuk topshiruvchi) bergan ashyoni saqlash va bu ashyoni to‘la holida qaytarish majburiyatini oladi (FK 875-m. 1-

q.). Omonat saqlash shartnomasidan ko‘zlangan asosiy *maqsad* – ashyolarning butligini ta’minlash hamda unga o‘zga shaxslar zarar yetkazishi va uni o‘zlashtirib olishidan asrashdir.

Omonat saqlash shartnomasining *huquqiy belgilari* quyidagicha:

– omonat saqlash shartnomasi *real shartnoma* bo‘lib, agar yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilsa, konsensual shartnoma hisoblanadi. Omonat topshiruvchi fuqaro (fuqarolar) ashyoni omonat saqlovchiga topshirganidan boshlab shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Omonat shartnomasi yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilayotganida esa, omonat topshiruvchi bilan omonat qabul qiluvchi kelishganidan boshlab shartnoma tuzilgan hisoblanadi va shundan so‘ng omonat ashyosi saqlovchiga topshiriladi va bu kelishuv, ashyoning qiymatidan qat’i nazar, yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

– omonat saqlash shartnomasi *haq evaziga* yoki *tekinga* tuzilishi mumkin (ayrim hollarda korxona, tashkilot, mehmonxona, restoran va boshqa shunga o‘xshash joylarning yukxonalari va boshqa turdagi omonat saqlash joylarida uning ishchi va mijozlariga ashyolarni tekin saqlash xizmati ko‘rsatilishi mumkin). Omonat saqlash shartnomasi haq evaziga tuzilsa, ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi, chunki har ikki tarafda ham shartnoma tuzilganidan boshlab huquq va majburiyatlar yuzaga keladi.

Omonat saqlash shartnomasi, qoida tariqasida (ayniqsa yuridik shaxslar o‘rtasida), *yozma shaklda* tuziladi. Omonat topshiruvchi fuqaro (fuqarolar)ga Fuqarolik kodeksi 877-moddasining talablari qo‘llaniladi, ya’ni qonunga muvofiq ashyoni saqlashga qabul qilinganligi omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga saqlash tilxati, patta, guvohnoma, omonat saqlovchi imzolagan boshqa hujjatni berish yo‘li bilan tasdiqlangan bo‘lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

Agar ashyo saqlash uchun favqulodda holatlarda (yong‘in, tabiiy ofat, to‘satdan kasal bo‘lish, hujum xavfi va boshqalar) topshirilgan bo‘lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilish talab etilmaydi. Ushbu hollarda omonat saqlashga qabul qilingan ashyoning egasi kim ekanligi yoki topshirilgan ashyo bilan omonat saqlovchi qaytargan ashyoning aynan o‘zi ekanligi xususida nizo chiqqan taqdirda, taraflar guvohlarning ko‘rsatmalarini vaj qilib keltirish huquqidan mahrum etilmaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan omonat saqlash shartnomalari bir-biridan ashyoni saqlash xususiyatiga ko‘ra ajralib turadi, bu esa ushbu shartnomalar mazmun-mohiyatiga ko‘ra farqlanadi, deb xulosa qilishga olib kelmaydi.

Omonat saqlash shartnomasining *subyektlari fuqarolar va yuridik shaxslar* hisoblanadi. Omonat saqlash shartnomasida omonat topshiruvchilar muomalaga layoqatsiz fuqarolar ham bo‘lishi mumkin, bunda omonat

topshiruvchining manfaatlariga rioya qilinishi shart. Bu omonat saqlash shartnomasining xususiyatlaridan biri bo‘lib, ushbu shartnomani boshqa shu kabi shartnomalardan ajratib turadigan farqli tomonlaridan biridir.

Yuridik shaxslar o‘zlarining ustav(nizom)larida nazarda tutilgan hollardagina omonat saqlash faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin.

Omonat saqlash shartnomasining mazmuniga ko‘ra, faqatgina *ko‘char ashyolargina omonat saqlash shartnomasi predmeti* bo‘lishi mumkin. Chunki, omonat saqlash predmeti bo‘lgan ashyo omonat saqlovchining ixtiyoridagi bino yoki hududga joylashtirilishi lozim. Ko‘chmas mulk yoki obyektlar qo‘riqlash shartnomasi yoxud qorovullik xizmatlari tuzish orqali qo‘riqlanishi mumkin.

Omonat saqlash shartnomasining mazmuniga ko‘ra, omonat qo‘yilgan narsalarning aynan o‘zi shartnoma muddati tugagandan so‘ng omonat topshiruvchiga yoki uning vakiliga qaytarilishi shart. Omonat saqlash shartnomasida ashyoni *egasizlantirib saqlash*, degan tushuncha bo‘lib, bunda saqlash uchun qabul qilingan ashyolar boshqa yuk topshiruvchilarning ashyolari bilan aralashtirilib yuborilishi mumkin. Masalan, og‘irlik va o‘lchov bilan belgilanadigan donni elevatorlarda omonat saqlash, turli shaxslarga qarashli bo‘lgan bir xil turga xos buyumlarni maxsus xonalarda saqlash kabilar shular jumlasiga kiradi.

Omonat saqlovchi o‘ziga saqlash uchun topshirilgan ashyodan yuk topshiruvchining roziligisiz foydalanishga, shuningdek, uchinchi shaxslarga undan foydalanish imkoniyatini berishga haqli emas, saqlanayotgan ashyodan foydalanish uning to‘liq saqlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan hollar bundan mustasno (FK 881-m.).

Qonunda belgilab qo‘yilganidek, omonat saqlovchi omonat saqlash shartini o‘zgartirish zarurligi haqida darhol yuk topshiruvchini xabardor qilishi va uning javobini kutishi shart. Ashyoning yo‘qolishi yoki shikastlanishi xavfi paydo bo‘lgan taqdirda omonat saqlovchi saqlash shartnomasida nazarda tutilgan saqlash usuli, joyi va boshqa shartlarni yuk topshiruvchining javobini kutmasdan o‘zgartirishi shart.

Agar saqlash vaqtida ashyoning buzilish xavfi aniq bo‘lib qolsa yoki ashyo buzilgan bo‘lsa, yoki uning to‘liq saqlanishini ta’minlashga imkon bermaydigan vaziyatlar vujudga kelgan bo‘lsa, yuk topshiruvchi esa o‘z vaqtida choralar ko‘rishini kutish mumkin bo‘lmasa, omonat saqlovchi ashyoni yoki uning bir qismini saqlash joyida amalda bo‘lgan bahoda, mustaqil sotishga haqli. Agar mazkur vaziyatlar omonat saqlovchi aybdor bo‘lmagan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan bo‘lsa, u sotish uchun qilgan o‘z xarajatlarini xarid bahosidan undirish huquqiga ega (FK 882-m.).

Omonat saqlash shartnomasiga doir asosiy qoidalar Fuqarolik kodeksining 875 – 913-moddalarida berilgan. Omonat saqlashning ayrim turlarini tartibga soladigan bir qancha nizomlar mavjud. Masalan, qo‘l yuklarini va bagajlarni saqlash kameralaridan foydalanish to‘g‘risidagi qoidalar O‘zbekiston Transport aksionerlik korporatsiyasi tomonidan qabul qilingan rasmiy qo‘llanmalarda belgilab qo‘yilgan. Yuklarni temir yo‘llarga qarashli joylarda saqlash uchun topshirilganda, qoldirilganda ularning to‘la-to‘kis saqlanishi uchun temir yo‘l muassasasi javobgar bo‘lishi haqida O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llari ustavida belgilab qo‘yilgan.

Omonat saqlash shartnomasining oddiy omonat va maxsus omonat turlari mavjud. Oddiy omonat saqlashda Fuqarolik kodeksi 875-893-moddalari qoidalarini qo‘llash mumkin. Omonat saqlashning maxsus turiga:

– tovar omborida omonat saqlash;

– lombardlarda omonat saqlash;

– banklarda omonat saqlash;

– transport korxonalarining yukxonalarida, kiyimxonalarida omonat saqlash;

– mehmonxonalarda omonat saqlash;

– sekvestr (nizoli ashyolar)ni omonat saqlash kiradi.

«Tovar omborida omonat saqlash shartnomasi» tushunchasini yoritishdan oldin, «tovar ombori» tushunchasiga ta’rif berish maqsadga muvofiqdir. *Tovar ombori* deb tadbirkorlik faoliyati sifatida fuqaro va yuridik shaxslardan tovarlar qabul qiluvchi va saqlash bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga aytiladi. Qoida tariqasida, tovar ombori tovarlarni saqlash uchun chegaralangan doiradagi shaxslardan qabul qilishi mumkin bo‘lgan omborlar jumlasiga kiritilgan bo‘lmasa, u umumiy foydalanishdagi ombor hisoblanadi. Tovar omborida omonat saqlash shartnomasi yozma shaklda tuziladigan shartnomalar turkumiga kiradi. Agar omborda omonat saqlash uchun topshirilgan ashyoning qabul qilinganligi to‘g‘risida omonat saqlovchi omonat topshiruvchiga o‘zi imzolagan hujjatni taqdim etgan bo‘lsa, ushbu shartnoma yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Tovar omborida omonat saqlash shartnomasi *ikki tomonlama, haq baravariga* yoki *tekinga* tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Tovar omborida omonat saqlash shartnomasi ishtirokchilari tadbirkorlar ham bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda omonat saqlovchi, tovar omborlari deb tan olingan korxonalar, tegishli vakolatli organlarning maxsus litsenziyalari asosida xususiy tovar omborlariga ega fuqarolar bo‘lishi mumkin.

Lombardlarda omonat saqlash shartnomasining predmeti fuqarolarning shaxsiy iste’moliga mo‘ljallangan ko‘char ashyolar bo‘lishi mumkin. Ushbu

shartnomani tuzayotganda omonat saqlovchi yuk topshiruvchiga uning nomi yozilgan saqlov pattasi beradi va bu uning yozma shaklda tuzilganligini anglatadi.

Lombardlarda omonat saqlash shartnomasi ham *huquqiy belgilariga* ko‘ra *ikki tomonlama, haq evaziga va yozma shaklda* tuziladigan shartnoma bo‘lib, ommaviy xarakterga ega. Chunki bu shartnomani qonun hujjatlarida boshqacha holat belgilangan bo‘lmasa, barcha fuqarolar tuzishlari mumkin. Lombardlar maxsus ruxsatnoma asosida faoliyat yuritadilar. Ularning faoliyatini cheklash yoki tugatish tegishli organlar tomonidan va qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Fuqarolardan ayrim tovarlarni qabul qilishda lombardlar maxsus qoidalar asosida ish yuritadilar. Fuqarolar tomonidan lombardga ashyo topshirilayotganda, qoida tariqasida, ushbu ashyoning bahosi hisoblangan holda qabul qilinadi va ushbu ashyoni Fuqarolik kodeksi 894-moddasining uchinchi qismiga muvofiq chiqarilgan narxning to‘liq summasida o‘z hisobidan yuk topshiruvchi foydasiga lombard sug‘urtalashi shart.

Lombardlarda ashyolarni saqlash muddati qonun hujjatlarida, tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomada yoxud boshqa hujjatlarda belgilanadi. Ushbu saqlash muddati tugashi bilan yuk topshiruvchi ashyolarni qaytarib olishdan bosh tortsa, lombard ularni *uch oy* mobaynida saqlab turishi shart. Bu muddat o‘tgandan keyin yuk topshiruvchi yoki uning huquqiy vorislari tomonidan talab qilib olinmagan ashyolar Fuqarolik kodeksi 289-moddasining yettinchi qismida belgilab qo‘yilgan tartibda lombard tomonidan sotilishi mumkin. Agar ashyoning sotilgan qiymati lombardning omonat saqlashdagi xarajatlari va boshqa to‘lovlaridan ortiq bo‘lsa, ortib qolgan pul summasi yuk topshiruvchiga qaytarib berilishi shart.

Banklarda omonat saqlash shartnomasiga asosan omonat saqlovchi bank muassasasi hisoblanadi. Demak bank, bank operatsiyalaridan tashqari, mijozlar bilan omonat saqlash shartnomalarini ham tuzish mumkin. Faqat ushbu omonat saqlash predmeti, qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar va toshlar, turli xil hujjatlar va boshqa shunga o‘xshash boyliklar bo‘lishi mumkin. Bank qimmatli qog‘ozlarning to‘liq saqlanishini ta’minlashdan tashqari, ushbu qog‘ozlarga nisbatan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 896-moddasining 4-qismiga muvofiq, boyliklarni yakka tartibdagi po‘lat sandiqdan (po‘lat sandiq bo‘linmasidan, saqlash uchun mo‘ljallangan alohida binodan) foydalangan holda saqlash shartnomasi bank tomonidan boyliklarni saqlash uchun qabul qilish harakatlarini amalga oshirish va boylik topshiruvchiga po‘lat sandiq kalitini, boylik topshiruvchini ko‘rsatadigan varaqcha, ko‘rsatuvchining po‘lat

sandiqni ochish va undan boyliklarni olish huquqini tasdiqlaydigan boshqa belgi yoki hujjat berish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, mijoz istagan vaqtida boyliklarni po‘lat sandiqdan olishi, ularni qayta qo‘yishi, saqlanayotgan hujjatlar bilan ishlashi mumkin.

Ushbu turdagi omonat saqlash shartnomasini hozirgi kunda dunyoning barcha davlatlarida uchratishimiz mumkin, chunki bu oltin, olmos taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, siyosiy yoki tarixiy jihatdan favqulodda ahamiyatga ega bo‘lgan nodir hujjatlar saqlashda juda ishonchli usuldir.

Transport korxonalarining yukxonalari kiyimxonalarida omonat saqlash shartnomasi, transport tashkilotlarining ixtiyoridagi yukxonalari, kiyimxonalarida yo‘lovchilar va boshqa fuqarolarning ashyo va yuklarini saqlash uchun tuziladi. Ushbu shartnoma ommaviy shartnoma hisoblanadi. Ashyoning qabul qilinganligini tasdiqlash uchun ashyo topshiruvchiga patta yoki nomerli jeton beriladi. Agar ushbu patta yoki nomerli jeton ashyo topshiruvchi tomonidan yo‘qotib qo‘yilganda, u ushbu ashyoning o‘ziga tegishli ekanligini isbotlashi kerak bo‘ladi. Yukxonaga topshirilgan ashyoga zarar yetkazilganda, ashyo yo‘qotilganda yoki shikastlangan yoxud kam chiqqanda, yuk topshiruvchi ko‘rgan zarar summasi, agar ashyo topshirilayotgan vaqtida uning bahosi belgilangan bo‘lsa, yoki zararning o‘rnini qoplash tartibi taraflar o‘rtasida kelishilgan bo‘lsa, yuk topshiruvchi uning qiymatini ashyoni qo‘ygan paytdan boshlab bir sutka muddatda yuk topshiruvchiga to‘lashi shart.

Yuk topshiruvchi topshirilgan ashyoni belgilangan muddatda qaytarib olmasa, yukxona ushbu ashyoni yana *30 kun* saqlab turishi lozim, ushbu muddat o‘tgandan keyin ham yuk topshiruvchi ashyoni qaytarib olmasa, ashyo sotilishi, sotishdan tushgan pul summasi Fuqarolik kodeksi 895-moddasiga muvofiq taqsimlanishi mumkin.

Mehmonxonalarda va shunga o‘xshash muassasalarda(dam olish joylari, sanatoriylar, pansionatlar, hammomlar va boshqalarda) omonat saqlash shartnomasiga asosan undan foydalanayotgan yoki vaqtinchalik yashayotgan fuqarolarning ashyolarini qabul qilish va saqlash amalga oshiriladi.

Mehmonxona xodimlariga ishonib topshirilgan yoki mo‘ljallangan joyga (mehmonxona nomeri va boshqalarga) joylashtirilgan ashyo mehmonxonaga olib kirilgan ashyo deb hisoblanadi.

Pul va boshqa valuta qimmatliklari, qimmatli qog‘ozlar va boshqa qimmatbaho ashyolarni omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha saqlash uchun qabul qilib olingan bo‘lsagina, mehmonxona ularning yo‘qolganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Sekvestr (nizoli ashyolarni) omonat saqlash shartnomasi predmeti har qandoy fuqarolar o‘rtasida nizoli bo‘lgan ashyolar hisoblanadi. Bu turdagi shartnoma ham ko‘pgina davlatlar qonunchiligida mavjud. Ushbu omonat saqlashning mazmuni shundaki, bunda ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida biror-bir ashyoga nisbatan egalik qilish xususida nizo chiqqan taqdirda ushbu nizo hal bo‘lgunga qadar, ya’ni uning egasi aniqlangunga qadar, ushbu nizoli ashyoni uchinchi shaxslarning egaligiga topshirilishi tushuniladi. Nizoli ashyoni omonat saqlovchi shaxs, nizo hal bo‘lgach, sudning qaroriga muvofiq yoki nizolashayotgan barcha shaxslarning kelishuviga binoan, ashyoni tegishli shaxsga qaytarib berish majburiyatini oladi.

Agar nizoli ashyoni sudning qarori asosida nizo hal bo‘lguncha saqlab turish uchinchi shaxsga topshirilgan bo‘lsa, bunga sud sekvestri deb ataladi. Undan tashqari nizolashayotgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan ham nizoli ashyo uchinchi shaxsga saqlash uchun topshirilishi mumkin. Har ikkala holatda ham, omonat saqlovchining roziligi talab etiladi. Sekvestr tartibida nizoli ko‘char mulklar ham, ko‘chmas mulklar ham omonat saqlash uchun topshirilishi mumkin. Sekvestr tartibda omonat saqlovchi nizoli ashyoni saqlaganlik uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, haq to‘lashni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Albatta, bunda nizoli ashyoni egasi deb topilgan shaxs bu majburiyatni, ya’ni xarajatlarni va saqlash haqini to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Topshiriq, vositachilik, omonat saqlash shartnomalarining funksiyalari va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Topshiriq shartnomasining bekor bo‘lish asoslarini aytib bering.
3. Vositachilik shartnomasining boshqa shartnomalardan asosiy farqli jihatlarini qayd eting.
4. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ishtirokida tuzilgan topshiriq shartnomalarining xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Topshiriq, vositachilik, omonat saqlash shartnomalarining haqiqiy emas deb topilish asoslari va ushbu shartnomalarning bekor bo‘lish tartibi haqida so‘zlab bering.

14-MAVZU.
QARZ SHARTNOMASI

1. Qarz shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va turlari.
2. Qarz shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari.
3. Kredit shartnomasi va uning turlari.

1. Qarz shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va turlari

Qarz shartnomasi kishilik jamiyatida hali ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar u qadar rivojlanmagan paytdayoq, muayyan vaqtgacha taraflar moddiy ashyolarni qaytarish sharti bilan o‘zaro berib turish tarzida shakllangan edi. Qarz shartnomasining dastlabki huquqiy belgilari qadimgi Rimda yaratilgan. Pul ixtiro qilinishi bilan qarz shartnomasi o‘zining hozirgi ko‘rinishini olgan. Keyinchalik kishilik jamiyati shakllanib, qarz shartnomasidan nafaqat o‘zaro yordam va ishonch turi, balki, foyda ko‘rish vositasi sifatida keng foydalanila boshlandi[1]. Qarz shartnomasida taraflar manfaatdor bo‘ladilar.

Qarz shartnomasi deb, shunday shartnomaga aytiladiki, bunga qonunga asosan bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi taraf (qarz oluvchi)ga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi. Qarz oluvchi esa, olgan qarzini qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, olgan summadagi pul miqdorini yoki o‘sha qarzga olingan ashyoning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi (FK 737-m.). Qarz shartnomasi taraflar o‘rtasida pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Qarz shartnomasi Fuqarolik kodeksining 732-moddasi tartibida tuziladi va tartibga solinadi. Qarz shartnomasi fuqarolik huquqida majburiyat huquqidan kelib chiqadigan, bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarning ayrim turlariga kiradi.

Qarz shartnomasiga asosan yuqorida qayd qilanganidek, qarz beruvchi qarz oluvchining egaligiga yoki operativ boshqaruviga pul summasini yoxud son, miqdor o‘lchovdagi mulkni beradi.

Qarz shartnomasi shartiga ko‘ra olingan qarz yoki narsa (ashyo) qarz beruvchiga qaytarilishi lozim bo‘lib, uning tartibi va muddati shartnomada

---

[1] Фуқаролик ҳуқуқи (иккинчи қисм): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т., 2008. – Б. 928.

ko‘rsatiladi. Agar qaytarish muddati shartnomada ko‘rsatilmagan bo‘lsa, qarz beruvchi qarzini talab qilgan vaqtda qarz oluvchi qarzni qaytarishga majbur bo‘ladi.

Qarz shartnomasi bo‘yicha qarz olgan shaxs tomonidan qarzni qaytarish yoki to‘lov muddati o‘tkazib yuborilganda, Notariuslar tomonidan «Notarial harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risida»gi qonunning 73-moddasiga muvofiq «qarz beruvchining iltimosiga ko‘ra notarius qarzdorga mulkni qaytarish yoki qarz summasini qaytarib berish to‘g‘risidagi qarz beruvchining arizasini qarz olgan tarafga arizani topshirish notarial harakatini amalga oshirishi va bu haqda guvohnoma berishi mumkin»[1]. Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, notarius ushbu Qonunning 76-80-moddalari asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002– yil 18-yanvardagi 26-sonli qarori bilan tasdiqlangan, Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi qonunga asosan Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so‘zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro‘yxatiga muvofiq ijro xatini yozadi[2].

Qarz shartnomasining yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari, boshqa shartnomalardan o‘zining qo‘yidagi huquqiy belgilari bilan farq qiladi, jumladan;

Bu shartnoma real (reas-ashyo) – buning ma’nosi shundaki, taraflar o‘rtasida shartnoma talabi bo‘yicha, huquq va burchlar shartnoma predmeti bo‘lgan pul yoki ashyoni qarz beruvchi qarz oluvchiga topshirish paytida vujudga keladi va shartnoma shu paytdan tuzilgan hisoblanadi. Real shartnomasi ushbu xususiyati bilan «konsensus» xarakterga ega bo‘lgan kredit shartnomasidan farq qiladi.

Qarz shartnomasi bir tomonlama shartnomalar guruhiga kiradi, chunki bu shartnoma yuzasidan bir taraf qarz beruvchi huquqlarini olsa, ikkinchi tomonda qarzdorga qarz narsasini qaytarish burchi vujudga keladi. Boshqacha aytganda, qarz beruvchi qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, qarzdor olgan pulni yoki ashyoni qaytarishga majbur bo‘ladi.

Qarz shartnomasiga ko‘ra qarzdor olgan mulkidan foydalanib, uni ushbu mulk huquqiga nisbatan vaqtinchalik egalik huquqi vujudga keladi. Qarzdor ijara shartnomasidan farqli o‘laroq aynan shu ashyoning o‘zini

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Нотариат тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь Ќонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1997.– 2-сон.– 42-м.; 2010.– 37-сон.– 313-м..

[2] O‘sha joyda.

qaytarmaydi, ammo xili, sifati, miqdoriga teng boshqa narsa, ashyo qaytarishga burchli bo‘ladi, demak ushbu shartnoma o‘z navbatida mulka egalik huquqini bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadigan shartnomalardan bo‘lib, hisoblanadi. Masalan: qarzdor qarzga olingan narsani o‘z ixtiyori bo‘yicha tasarruf qila oladi va qarzga olingan narsani aynan o‘zini qaytarmasdan olgan pulini yoki o‘sha qarzga olingan narsaning xili, sifati va miqdori baravarida boshqa narsani qaytarishga majbur bo‘ladi.

Qarz shartnomasi haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalar guruhiga kiradi, chunki qarz oluvchi qarz beruvchiga qarzni to‘lash vaqti kelganda foiz to‘lashi shart bo‘ladi. Qarz shartnomasi bo‘yicha foizlarni belgilash yuzasidan shartlar taraflar tomonidan Fuqarolik Kodeksining 734-moddasida ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi.

Qarz shartnomasining predmeti pul yoki moddiy alomatlariga ko‘ra, og‘irik yoki o‘lchovi miqdor bilan belgilangan narsalar bo‘lib hisoblanadi.

Qarz shartnomasi bo‘yicha tuzilayotgan shartnoma taraflardan birining talabi bo‘yicha, yoki taraflarning kelishuviga ko‘ra xohlagan notarial idora tomonidan tasdiqlatishlari mumkin, har qanday notarial tomonidan tasdiqlangan qarz shartnomasi yuridik kuchga ega bo‘ladi. Chunki, shartnomadagi talablarni bajarilishida taraflarga huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Qarz shartnomasi tasdiqlanayotganda notarius taraflarning haqiqiy xohish va istaklarini aniqlash huquqiga egadir. Shartnomada qarzning qaytarilish muddati, joyi va majburiyat bajarilishini ta’minlash usullari haqida notarius tomonidan tushuntirilishi shart, notarius tomonidan tushuntirilgan shartlar yoki majburiyatlar shartnomada o‘z aksini topishi lozim. Lozim bo‘lsa, notarius taraflarning xohish-istaklarini aniqlash maqsadida ariza olishi ham mumkin. Notariuslar tomonidan «Notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasiga asosan notarius yuqoridagi harakatlarni amalga oshirishda o‘z mustaqilligidan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qilgan holda, o‘z faoliyatini amalga oshiradilar[1]. Ushbu Qonunning 18-moddasiga muvofiq notarial idoralar jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashish, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishga majburdirlar[2].

Qarz shartnomasini notarial idoralar tomonidan tasdiqlanayotganda, barcha yuridik harakatlar davlat notarial idoralarining binolarida amalga

[1] O‘sha joyda.

[2] O‘sha joyda.

oshiriladi. Agarda qarz shartnomasi bo‘yicha shartnoma tuzayotgan taraflarning birining kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra davlat notarial idorasiga bora olmaydigan ayrim hollarda yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa holatlarda, notarial harakatlar davlat notarial idorasi binosidan tashqarida, ya’ni taraflarning birining joylashgan joyida amalga oshirilishi mumkin.

Notarial harakatlar davlat notarial idorasi binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida va notarial harakatlarni ro‘yxatga olish reyestrida notarial harakat amalga oshirilgan joyning manzili ko‘rsatilishi lozim.

FKning 734-moddasiga asosan qarz shartnomasi qarz bo‘yicha olgan mulk (ashyo)ning qaytarilishini nazarda tutadi, qarz summasiga olinadigan foizlar miqdori shartnomada belgilanadi. Qarz oluvchidan foizlar undirishda sud bir vaqtning o‘zida qarz summasidan davlat foydasiga soliq ushlab qolishi lozim. FKning 327-moddasida ko‘rsatilgan pul majburiyatini, shuningdek qarz majburiyatini bajarmaganlik uchun foizlar, qarz shartnomasida belgilangan foizlardan ham ortiq hisoblanishi mumkin.

Qarz shartnomasini tuzishda ma’lum summani qarzga olish haqidagi tilxatda bir vaqtning o‘zida qarzni qaytarishni ta’minlash uchun biron-bir ko‘char yoki ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish haqida ko‘rsatilgan hollarda sudlar bunday bitim tuzuvchi taraflarning majburiyatlarni bajarishni ta’minlash masalasini tartibga soluvchi moddiy huquq mezonlariga rioya qilmaganligi nuqtai nazaridan baho berishlari lozim (FK 271-m.).

Qarz shartnomasining qonunda asosan yozma shaklda amalga oshirilishi belgilangan. Hozirgi kunda fuqarolar o‘rtasida qarz shartnomasining og‘zaki tarzda tuzilishi hollari ham turadi. Qarz shartnomasi qonuniy tartibda bo‘lish uchun fuqarolar o‘rtasida agar bu qarzning miqdori eng kam ish haqining 10 barobari miqdoridan ortiq bo‘lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganida esa qarzning miqdoridan qat’i nazar yozma shaklda tuzilishi shart.

Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo‘lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi (FK 733-m).

Agar qarz majburiyati qarz oluvchi tomonidan berilgan veksel, obligatsiya yoki qarz summasini va qarz beruvchining uni undirib olish

huquqini belgilaydigan, boshqa qimmatli qog‘oz bilan tasdiqlangan bo‘lsa, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

Agarda qonun yoki qarz shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan holda va tartibda foizlar olish huquqiga ega bo‘ladi. (FK 734-m).

Tashkilotlar o‘rtasidagi qarz shartnomasi ham ikkita tomon kelishib qarz narsasi bir tomondan ikkinchi tomonga berilgandan so‘ng shartnoma imzolanadi va shu vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Qarz shartnomasining obyekti pul yoki jismiy alomatlari bilan, ya’ni soni, og‘irligi yoki o‘lchovi bilan belgilangan narsalar bo‘lib hisoblanadi.

Qarz shartnomasining subyektlari 18 yoshga to‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan, o‘zining hati-harakatiga javob bera oladigan jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lish mumkin. Bir jamoa xo‘jaligining ikkinchi jamoa xo‘jaligiga urug‘lik berib turishi bunga misol bo‘la oladi.

Qarz shartnomasi munosabatlarida qatnashayotgan taraflarning biri, muomala layoqatiga ega bo‘lmasa, o‘zining hatti-harakatlariga javob bera olmasa yoki muomala layoqati cheklangan bo‘lsa, qarz shartnomasining subyekti bo‘la olmaydi.

Qarz shartnomasida notarial harakatlar amalga oshirilayotgan vaqtda taraflar shartnomada muddatni ko‘rsatishi lozim, agarda qarz shartnomasida qarzni qaytarish muddati belgilanmagan bo‘lsa, qarz oluvchi uni qarz beruvchini qarzini qaytarish haqida talab qo‘yilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida qaytarish majburiyatini oladi.

Agarda qonun hujjatlarida yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lmasa, qarz oluvchi qarz summasini o‘z vaqtida qaytarmaganligi uchun Fuqarolik kodeksining 734-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar to‘langan bo‘lishidan qat’i nazar, qarz qaytarib berilishi kerak.

Amaldagi FKning qarz shartnomasining ikki turlari ko‘rsatilgan:

Aniq maqsadli qarz (FK 739-m.)

Davlat zayomi shartnomasi (FK 743-m.).

Oddiy qarz shartnomasi aniq maqsadli qarzdan farq qiladi, bunda sabab shundaki, qarz shartnomasi asosida olingan qarz ko‘rsatilgan aniq maqsadlarda ishlatilishi lozim. Masalan: korxona, tashkilot o‘z xodimining uy-joy sharoitini yaxshilash maqsadida unga qarz bergan bo‘lsa, xodim uni boshqa maqsadlarga ishlatishga haqli emas. Agar qarz shartnomasi bo‘yicha olingan qarz ko‘zlangan maqsadga emas balki boshqa asoslanmagan maqsadlarda foydalansa, qarz beruvchi qarzini muddatidan

oldin, agarda foizli bo‘lsa, foizlari bilan birgalikda talab qilib olish huquqiga ega.

FKning 743-moddasida ko‘rsatilgan qarz shartnomasining ikkinchi turi, davlat zayomi shartnomasi hisoblanadi.

Davlat zayom shartnomasi bo‘yicha davlat qarz oluvchi, fuqaro yoki yuridik shaxs qarz beruvchi bo‘ladi. Davlat zayom shartnomasida olingan qarzni qaytarish to‘g‘risida alohida muddatlar belgilanmagan bo‘lsa, qarz beruvchi tomonidan qarzni talab qilgan zamon qaytarishga majbur bo‘ladi.

Davlat zayomlari ixtiyoriydir. Lekin davlat zayomlarini hukumat nomidan tegishli yuridik shaxslar chiqarishi mumkin. Davlat zayomlaridan asosan, ichki pul emissiyasini kamaytirish, ya’ni qog‘oz pullar emissiyasini ko‘paytirmagan holda fuqarolar va yuridik shaxslarni mablag‘laridan davlat ehtiyojlari uchun keng maqsadlarda foydalanadilar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek Fuqarolik kodeksida qarz shartnomasi qimmatli qog‘ozlar «veksel» yoki «obligatsiya»lar yo‘li bilan ham tuzilishi mumkin.

Obligatsiyalar. Obligatsiyalar ularning egasi pul mablag‘lari berganligini tasdiq etuvchi va qimmatli qog‘ozlarning belgilangan qiymatini ularda ko‘rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to‘langan holda, basharti obligatsiyalarni chiqarish shartlarida o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozlardir.

Quyidagi turlardagi obligatsiyalar chiqariladi:

– respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligatsiyalari;

– korxonalarning obligatsiyalari.

Obligatsiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomalada yuritiladigan yoki muomala doirasi cheklangan qilib chiqarilishi mumkin.

Veksel. Veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lash yuzasidan qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz veksel hisoblanadi.

Veksellar oddiy va yuboriladigan veksellarga bo‘linadi.

2. Qarz shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari

Qarz shartnomasi bir tomonlama shartnoma bo‘lganligi tufayli taraflarning birida huquq, ikkinchisida majburiyatni vujudga keltiradi.

Bu yerda qarz beruvchi qo‘yidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

Berilgan qarzni qaytarish muddati kelgan vaqtda, qarz oluvchidan qarzni tezda qaytarilishini talab qilish;

Agar qarz oluvchiga aniq maqsadli qarz berilgan bo‘lsa, shu qarzning qanday tarzda ishlatilishini nazorat qilish.

Qarz oluvchining majburiyatlari:

Agar qarzni qaytarish muddati kelib qolgan bo‘lsa, qarzni o‘z vaqtida qaytarish;

Qancha miqdorda qarz olingan bo‘lsa, shuncha miqdorda qaytarish;

Agar qarz shartnomasida qaytarish vaqtiga foiz hisoblash kerak bo‘lsa, qarzni foizlar bilan qaytarishdan iborat.

Qarz oluvchi tomonidan, qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlar yoki olingan qarz ko‘zlangan maqsad bo‘yicha ishlatilmasa, qarz shartnomasining aniq maqsadli qarz shartnomasining shartiga rioya qilinmagan hisoblanadi. Bunday harakat esa, qarz oluvchi tomonidan qarz shartnomasini buzilishi holatlarini kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Buning natijasida esa qarz beruvchi, qarz olgan shaxsdan, bergan qarzni muddatidan oldin qaytarib olish huquqiga ega. Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, taraflar (qarz beruvchi, qarzdor) qonunda yoki shartnomada ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarishlari lozim. Ayniqsa, qarzdor shartnomadagi tartibga rioya qilmasdan uni shartlarini buzsa, ma’lum darajada moddiy javobgar bo‘lishi mumkin. Masalan, qarz beruvchi, qarzdorga olgan qarzini belgilangan muddatda qaytarishini qat’iy belgilab qo‘ygan bo‘lsa, qarzdor olgan qarzini shartnoma talabi bo‘yicha olgan qarzini va foiz belgilangan bo‘lsa, foizi bilan birga olgan qarzini qo‘shib qaytarishga majburdir.

Aks holda, qarz beruvchi, qarz oluvchidan olgan qarzini o‘z vaqtida qaytarmaganligi uchun, qarz talab qilingan kunidan boshlab to shu qarz to‘langan kunga qadar qo‘shimcha qarz (pul yoki boshqa turdagi) qimmatlikka ega bo‘lgan ashyolarni talab qilib olish huquqiga ega.

Shuningdek, taraflar o‘rtasida, qarz shartnomasi tuzilayotgan paytda, qarz summasini qaytarish majburiyati ya’ni muddati shartnomada belgilangan bo‘lishi lozim, agarda qarz shartnomasida qarzni qaytarish muddati belgilanmagan bo‘lsa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarzni qaytarish haqida talab qo‘ysa, talab qo‘yilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida qarz oluvchi qarzni qaytarishga majbur. Agarda qarz oluvchiga qarz beruvchi tomonidan talab qo‘yilgan muddat ichida talab qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan taqdirda taraflar nizo kelib chiqadi va qarz shartnomasi bo‘yicha da’volashish huquqi paydo bo‘ladi.

Qarz shartnomasi yuzasidan da'volashish. Qarz oluvchi pul yoki boshqa ashyolarni qarz beruvchidan amalda olmaganligini yoki shartnomada ko‘rsatilgan miqdordan kam miqdorda olganligini isbot qilib qarz shartnomasi yuzasidan FKning 737-m. 1-qismi talabi bo‘yicha da'volashishga haqli bo‘ladi:

Qarz oluvchi pul yoki boshqa ashyolarni qarz beruvchidan amalda olmaganligini yoki shartnomada ko‘rsatilganidan kam miqdorda olganligini isbot qilib, qarz shartnomasi yuzasidan da'volashishga haqli.

Yozma shaklda tuzilishi lozim bo‘lgan qarz shartnomasi yuzasidan guvohlarning ko‘rsatmalari yordamida da'volashish mumkin emas, shartnoma aldash, zo‘rlik ishlatish, tahdid qilish, qarz oluvchining vakili qarz beruvchi bilan yomon niyatda kelishishi yoki qiyin vaziyatlar ta'sirida tuzilgan hollar bundan mustasno.

Agar qarz oluvchi qarz shartnomasi yuzasidan da'volashuvi jarayonida pul yoki boshqa ashyolar haqiqatan ham qarz beruvchidan olinmaganligi aniqlansa, qarz shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi. Qarz oluvchi qarz beruvchidan pul yoki boshqa ashyolarni shartnomada ko‘rsatilganidan amalda kam miqdorda olgan hollarda shartnoma ana shu miqdordagi pul yoki ashyolarga tuzilgan hisoblanadi.

Agar qarz oluvchi shartnomasi yuzasidan da'volashuvchi jarayonida pul yoki boshqa ashyolar haqiqatdan ham qarz beruvchidan olmaganligi aniqlansa qarz shartnomasi tuzilmagan deb hisoblanadi. Qarz oluvchi qarz beruvchidan pul yoki boshqa ashyolarni shartnomada ko‘rsatilganidan amalda kam miqdorda olgan hollarda shartnoma ana shu miqdordagi pul yoki ashyolarga tuzilgan deb hisoblanadi.

Agar taraflar o‘rtasida bunday kelishuv bo‘lsa-yu, ammo qarz narsasi topshirilmagan bo‘lsa, bu holda bitimda ko‘rsatilgan pul yoki ashyoni to‘lash (qarzni qaytarish) burchi vujudga kelmaydi. Qarzdor shartnomada nazarda tutilgan pul yoki narsani olmaganligini isbotlab berishi bilan tegishli dalillarga asoslanib da'vo qo‘zg‘atib tuzilgan shartnomani qarz beruvchi tomonidan talab darajasida bajarilmaganligi tufayli uni bekor etishni talab qilishga haqli.

Fuqarolik Kodeksining 737-moddasi talabi bo‘yicha, qarz shartnomasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, shuningdek shartnomaning boshqa talablariga rioya qilmaslik manfaatdor taraflarga ishni sud siz yoki sudda ko‘rib chiqish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqini berishi nazarda tutilgan.

Qarzdor olgan qarzini, qarz beruvchi qarzni talab qilmasdan oldin ham, qonunda ko‘rsatilgan muddatidan oldin qaytarishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarda yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, qarz oluvchi qarz summasidan Fuqarolik Kodeksining 734-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan foizlar to‘langan bo‘lishidan qat’i nazar qarz summasi vaqtida qaytarilmagan hollarda qarz qaytarilib berilishi kerak bo‘lgan kundan boshlab, to u qarz beruvchiga qaytarib berilgan kungacha bu summa yuzasidan shu kodeksning 327-moddasini birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan miqdorda foiz to‘lashi kerak.

Agar qarz shartnomada qarzni qismlab (bo‘lib-bo‘lib) qaytarish nazarda tutilgan bo‘lsa, qarz oluvchi qarzning navbatdagi qismini qaytarish uchun belgilangan muddatni buzgan taqdirda, qarz beruvchi qarzning qolgan barcha summasini tegishli foizlar bilan birga muddatdan oldin qaytarishni talab qilishga haqli.

Agar qarz shartnomasida qarz bo‘yicha foizlarni qarzning o‘zini qaytarish muddatidan oldin to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, bu majburiyat buzilgan taqdirda, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini tegishli foizlar bilan birga muddatidan oldin qaytarishni talab qilishga haqli.

Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, taraflar (qarz beruvchi, qarzdor) qonunda yoki shartnomada ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarishi lozim. Ayniqsa, qarzdor shartnomadagi tartibga rioya qilmasdan uni shartlarini buzsa, ma’lum darajada moddiy javobgar bo‘lishi mumkin.

Masalan: qarz beruvchi, qarzdorga olmagan qarzni belgilangan muddatda qaytarishni qat’iy qilib qo‘yilgan hollarda, qarzdor esa shartnomada ko‘rsatilgan muddatda qarzini qaytarib bermasa, qarz evaziga ilgari to‘langan foizga qaramasdan qarz beruvchi vaqtida qaytarilmaganligi uchun qarz talab qilingan kundan boshlab to shu qarz to‘lanmagan kungacha (qancha bo‘lishidan qat’i nazar qo‘shimcha foiz puli yoki boshqa xildagi, turdagi) olish huquqiga ega.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo‘lsa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo‘lgan bank foizning hisob ta’rifi bilan belgilanishi, Fuqarolik Kodeksining 327-moddasida ko‘rsatilgan.

Undiriladigan foiz miqdorini sud da’vo qo‘zg‘atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizning hisob ta’rifiga qarab undirishi yuqoridagi huquqiy me’yorda o‘z ifodasini topgan.

Bu qoida shartnoma talablarini buzuvchi, intizomsiz qarzdorlarga nisbatan qo‘shimcha moddiy ta’sir choralaridan bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu moddaning bu qismida qarz beruvchi qarzdorning mulkiy ahvoliga qarab (qarzni to‘liq qaytarishga qodir bo‘lmagan hollarda) belgilangan muddatda qarzni bo‘lib-bo‘lib to‘lashi mumkinligini shartnomada qayd etilishi ko‘rsatilgan.

Qarz oluvchi qarz summasining qaytarilib berilishini ta’minlash yuzasidan qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa, shuningdek qarzning ta’minoti qarz beruvchi javobgar bo‘lmagan vaziyatlarda yo‘qotilsa yoki uning shartlari yomonlashsa, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini muddatidan oldin qaytarishni va tegishli foizlarni to‘lashni talab qilish huquqiga ega.

Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, qarz shartnomasidagi talablar har vaqt kelishilgan shartlarga to‘g‘ri bo‘lmasligi amaliyotdan ma’lum.

Agar qarz beruvchi qarzdorning shartnomada ko‘rsatilgan talablarini bajarishga qurbi yetmasligini sezib, olgan qarzini qaytarib berishdan xavotirga tushsa, bergan qarzini va uning evaziga olishi lozim bo‘lgan foizini belgilangan muddatdan ilgari talab qilishga haqli.

Masalan: qarzdor qarzini 2012-yil fevral oyiga qadar to‘lashni shartnomada ko‘rsatib bunga asos sifatida o‘ziga qarashli televizorni sotib, shu muddatda qarzini qaytarishni zimmasiga olgan bo‘lsa, biroq qarz beruvchining sotishga mo‘ljallangan televizorni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 249-moddasiga ko‘ra qarzdorning boshqa fuqarolik ishi bo‘yicha sud shu mulkni xatlanganligini bilib qolgan hollarda, qarzni muddatdan ilgari talab qilishga haqli. Bulardan tashqari, agar qarz beruvchi, tijoratchi-qarzdorning moliyaviy bankrotga uchraganini va qarzni ta’minlash uchun qarzdorda imkoniyat yo‘qligini aniqlasa va bunda qarzdor hech qanday aybdor bo‘lmasa, uning bu masalada javobgar bo‘lmasligi sababli shartnoma muddatidan oldin bekor qilinib, qarz summasi yoki tegishli foizlarni ham talab qilishga haqlidir.

Qarz shartnomasining tarkibi bo‘yicha moddada biror-bir chegara o‘rnatilmagan. Qarz beruvchilar har qanday jismoniy va yuridik shaxslardan iborat bo‘lishlari mumkin.

Kredit shartnomasi bo‘yicha qarz (kredit) bank, unga kredit tashkilotlari (tijorat krediti bundan mustasno, FK 748-m.) dan iborat bo‘lishlari mumkin.

Qarz shartnomasi aksariyat hollarda, taraflarning kelishuviga ko‘ra tekinga tuziladi, foizlar olishga qonunda nazarda tutilsa yo‘l qo‘yiladi. Qarz shartnomasi boshqa shartnomalardan yana bir farqli jihati, uning predmeti pul yoki ashyo bo‘lib hisoblanadi. Agar fuqarolar o‘rtasida

qarzga narsa berilgan bo‘lsa, u holda bu narsa iqtisodiy muomaladan chiqarilmagan bo‘lishi, iste’mol qilinishi bilan bog‘liq bo‘lsa, iste’mol talablariga javob beradigan bo‘lishi lozim.

Qarz shartnomasi subyektlar o‘rtasida yozma shaklda tuzilgan bo‘lishi lozim, biroq shartnoma aldash, zo‘rlik ishlatish, xullas jinoiy jazoga loyiq hatti-harakatlar qilinganda va taraflarni shu tufayli mulkiy huquqlari buzilgan takdirda, qarzdor guvohlarning ko‘rsatmalari yoki boshqa qaratilgan vaj va huquqlar bilan o‘zini himoya qilishga haqli. Ushbu moddaning bu qismi amaliyotni umumlashtirish natijasida vujudga kelgan qoidadir. Bu huquqiy me’yor ham fuqaro va boshqa shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir, chunki taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni insofsiz ravishda (uzrsiz) bajarmaslik hollari uchrab turadi. Shunga qaramasdan qarz beruvchi qarzdordan foiz yoki boshqa manfaatlarni olishga harakat qiladi. Vaholangki, qarz beruvchi qarzni qarzdorga shartnomaga ko‘ra bermasada, shartnoma tuzilganligini asos qilib yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan manfaatni olish uchun sudda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish tartibi bilan o‘z maqsadiga erishishga harakat qiladigan shaxslar uchun muljallangan qoidadir. Bunga asosan qarzdor kreditordan qarzni olmaganligini isbotlasa, shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi.

Bundan tashqari qarz oluvchi qarz beruvchidan shartnomada belgilangan pul yoki boshqa narsani belgilanganidan kam miqdorda olgan taqdirda, sud tuzilgan qarz shartnomasini faqat ijro etilgan shartnoma qismiga nisbatan tuzilgan deb hisoblashi mumkin.

Demak, ushbu huquqiy meyorda qarz shartnomasini bajarmaslik yoki ma’lum darajada bajarganlik, shartnomaning boshqa talablariga rioya qilmaslik manfaatdor tarafga ishni sud siz yoki sudda ko‘rib, ularning qonuni huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqini berish nazarda tutilgan.

3. Kredit shartnomasi va uning turlari

Kredit-tovar-pul munosabatlari sharoitidagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlarini yuzaga yelishining tabiiy asosi hisoblanadi.

Kreditga iqtisodiy jihatdan yondoshib ta’rif beradigan bo‘lsak, «kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir». Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlarsotib olinadi, iste’molchilarning

mablag‘lari yetarli bo‘lmagan sharoitda to‘lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.[1]

Kredit shartnomasi tushunchasi – kredit shartnomasi bo‘yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag‘lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi. (FK 744-m).

Ushbu tushuncha kreditga Fuqarolik kodeksi asosida berilgan tarifdir. Shuningdek, adabiyotda kredit deganda o‘z egalar qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatda haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi deb ta’rif beriladi.

Bizningcha, kreditga birmuncha tor ma’noda ta’rif berilgan, chunki, kredit berish faqat qonunda belgilangan subyektlar tomonidan amalga oshirilib, haq evaziga emas, balki qonunlarda va shartnomalarda belgilangan tartibda muayyan foiz hisobiga beriladi. Shu maqsadda kreditga quyidagicha ta’rif berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kredit deb qonunda belgilangan kredit beruvchi subyektlar tomonidan muayyan muddatga faqat foiz evaziga, yuridik shaxslar va muomalaga layoqatli jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lariga aytiladi. Kreditning turlariga (tijorat krediti, ashyolarni kreditga berish va boshqa) qarab, bu ta’rifni yanada kengaytirish mumkin. Kredit shartnomasi doimo yozma shaklda tuziladi. Chunki, kredit shartnomasini tuzishda yozma shaklga rioya qilmaslik, kredit shartnomasining huquqiy bo‘lmasligiga olib keladi. Bunday shartnoma esa o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi. (FK 745-m.). Qonunda belgilab qo‘yilgan qoidalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda ishtirok etayotgan tomonlardan loaqal bittasi yuridik shaxs bo‘lganda ham bu shartnoma albatta, yozma shaklda tuzilishi shart. Kredit shartnomasida kredit beruvchi tomon har doim yuridik shaxs bo‘ladi.

Kredit munosabatlarini huquqiy tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada

[1] Фуқаролик ҳуқуқи (иккинчи қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т., 2008. – Б. 928.

chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va ushbu sohaga oid farmonlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosiy o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, bank va mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shartnomaviy xarakterga ega. Bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish va tartibga solishda fuqarolik-huquqiy shartnomalar qo‘llaniladi.

Qonun hujjatlarga muvofiq kredit tashkilotlari bo‘lmagan tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilgan hollarda kredit shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Kredit shartnomasining shakliga rioya qilmaslik kredit shartnomasining yuridik ahamiyatga ega bo‘lmasligiga olib keladi. Kredit munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, yozma ravishda tuzilmagan shartnomalar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi.

Kreditning turlari:

tijorat krediti; bank krediti; iste’molchi krediti; davlat krediti; xalqaro kreditlardan iborat bo‘ladi.

Tijorat krediti – sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bunda tovarlar ma’lum muddatda pulini to‘lash sharti bilan nasiyaga beriladi.

Tijorat krediti quyidagi usulda beriladi:

veksel usuli – bunda tovar yetkazib berilgandan so‘ng sotuvchi xaridorga to‘ldirgani hujjat taqdim etadi, xaridor uni akseptlaydi, ya’ni hujjatda ko‘rsatilgan summani o‘z vaqtida to‘lashga rozilik beradi.

Ochiq yoki schot orqali kredit berish, kredit – bunda xaridor tovarga buyurtma berishi bilanoq yuklab jo‘natiladi, to‘lov esa belgilangan muddatlarda vaqti-vaqti bilan amalga oshirib boriladi.

to‘lovni ma’lum belgilangan muddatda amalga oshirgan sharoitda *chegirma berish usuli* – mazkur holatda agar xaridor to‘lov hujjatlari yozilgandan so‘ng shartnomada kelishilgan ma’lum davr ichida to‘lovni amalga oshirsa, to‘lov yig‘indisidan chegirma beriladi;

Mavsumiy kredit – madaniy va keng iste’mol mollarini sotishda keng qo‘llaniladi, bu usul ishlab chiqaruvchilar uchun qulay bo‘lib, ular omborlarda mollarni saqlash xarajatlaridan xalos bo‘ladi;

Konsignatsiya usuli – bunda sotib oluvchilar tovarlarni majburiyatlarsiz sotib oladilar, ya'ni tovar sotilgandan so‘ng pulni to‘laydilar. Agar tovar sotilmay qolsa, u egasiga qaytarib beriladi.

Bank krediti bank va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning egalariga foiz to‘lash sharti bilan o‘z qo‘llarida jamlaydilar va o‘z nomidan qarz berib, foiz oladilar.

Iste'molchi kreditida tijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradilar. Masalan, iste'molchi kredit kartochkalari.

Davlat krediti deganda banklarning davlatga qarz berishi yoki davlatdan qarz olishi tushuniladi. Davlat krediti asosan davlat zayomi shaklida bo‘ladi. Zayom davlatning qarzdorlik guvohnomasi bo‘lib, u qarzni vaqti qolganda qaytarib olish va foiz to‘lashni kafolatlaydi.

Xalqaro kredit – bu qarz kapitalining jahon miqyosidagi harakati bo‘lib, bu harakat tovar va valuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berish bog‘liqdir.

Kredit shartnomasi huquqiy belgilariga ko‘ra, konsensual, ikki tomonlama va haq baravariga tuziladi.

Pul qarzga olinganda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadi. Ashyo kreditga olinganda mulkiy huquqning ikki elementi ya'ni mulkdan foydalanish va uni egallash huquqi bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadi.

Ashyolarni kreditga berish to‘g‘risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomada berilayotgan ashyolarning miqdori, assortimenti (mahsulot turi) to‘liqligi, sifati, idishi va o‘ralishi haqidagi shartlari ashyolarni oldi–sotdi shartnomasi to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq bajarilishi shart (FK 747– m.).

Kredit shartnomasining subyektlari – fuqarolar, yuridik shaxslar hamda davlat bo‘lishi mumkin.

Kredit shartnomasining predmeti – pullar, qimmatbaho qog‘ozlar, iste'mol qilinmaydigan narsalar bo‘lishi mumkin.

Kredit va qarz shartnomalari o‘rtasidagi asosiy farq quyidagilardan iborat:

1) kredit shartnomasi bo‘yicha kreditor sifatida faqat bank yoki boshqa kredit tashkiloti (uning ustavida belgilangan bo‘lsa) qatnashadi;

2) kredit shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchi kreditorga foizlar to‘lashi shart;

3) kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi. Qarz shartnmasida esa qarz summasi eng kam ish haqining 10 baravaridan kam bo‘lsa, og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin.

kredit shartnomasi real emas, balki konsensual shartnomalar guruhiga kiradi. Shu sababli shartnoma tuzilgandan keyin u taraflar o‘rtasida huquq va majburiyatlar vujudga keltiradi. Bunday holda shartnomaning bajarilmasligiga FKning 746-moddasida belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

Kredit shartnomasining vazifalari:

– pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (chek, sertifikat, veksel) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik muomalasiga jalb etadi;

– bo‘sh turgan pulni harakatdagi kapitalga aylantiradi, ya’ni pulni pul topadi;

– kredit berish orqali ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni rivojlantiradi;

– kredit berish yoki uni undirish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Kreditning salbiy tomonlari ham mavjud:

– Kredit asossiz ravishda ko‘p berilsa, oqibatda pul masalasi ko‘payib, milliy pul qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar davlat olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanmasa, davlat o‘zining boshqa daromad manbalari, oltin va boshqa qimmatbaho narsalarini sotish hisobidan kreditni qaytarishigacha olib kelishi mumkin.

Kredit shartnomasida katnashuvchilarning huquq va majburiyatlari.

Kreditorning huquqlari quydagicha:

– qarz oluvchidan kredit shartnomasining muddati tugashi bilan pulni talab qilish huquqi;

– tijorat krediti bo‘yicha pul to‘langan bo‘lsa, kreditorga kredit narsasini, ya’ni kredit shartnomasining predmeti to‘g‘rilab berilishi kerak;

– ashyolar kreditga berilgan bo‘lsa, kredit summasini o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilib turish;

– agarda kredit shartnomasi muddati ichida pul oxirigacha to‘lanmasa, qarz oluvchining ustidan sudga murojaat qilishi mumkin.

Qarz oluvchining majburiyatlari:

– kredit shartnomasi bo‘yicha, kreditga olingan narsani qiymatini har oyda, shartnomada kelishilgan muddatda to‘lab turadi;

– aniq maqsadli kredit olingan bo‘lsa, olingan kreditni maqsadga muvofiq ishlatadi;

– tijorat krediti to‘langan bo‘lsa, qarz oluvchidan kredit shartnomasining predmetini to‘g‘rilab berilishini talab qiladi.

Agar kredit shartnomasiga binoan qarz oluvchi belgilangan muddat ichida kredit summasini to‘lay olmagan taqdirda, kreditga berilgan narsa sudning qaroriga binoan sotiladi va kredit tashkiloti hisobiga to‘lanadi.

Kreditor qarz oluvchining to‘lovga qobiliyatsiz yoki layoqatsiz deb hisoblansa, qarz oluvchi kreditni ta’minlash majburiyatini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek shartnomada nazarda tutilmagan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli.

Qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli.

Agar qonun hujjatlarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni kredit shartnomasida belgilab qo‘yilgan kredit berish muddatiga qadar xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo‘yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to‘xtatishga haqli. (FK 746-m.).

Kredit shartnomasi, tomonlari uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Demak, ikkala tomon ham shartnoma bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishlari shart bo‘ladi. Ushbu moddada belgilangan qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollardagina, kredit shartnomasining subyektlari shartnoma kuchga kirgandan so‘ng kredit berishi yoki uni olishdan bosh tortishga haqlidirlar.

Kreditor, qarz oluvchi o‘z zimmasiga olgan, kreditni ta’minlash majburiyatini bajarganida, shartnomada belgilangan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini qo‘pol ravishda buzganda (FK 739 m.), shuningdek shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda, bunday huquqdan foydalanishga haqlidir.

Amaldagi qonun hujjatlarida yoki kredit shartnomasida o‘zgacha tartibda nazarda tutilgan bo‘lmasa, qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman voz kechishga haqlidir. Biroq qarz oluvchi bu haqda kreditorni shartnomada belgilab qo‘yilgan kredit berish muddatiga qadar ogohlantirishi lozim. Agarda qarz oluvchi, kredit shartnomasida nazarda tutilgan, kreditdan aniq maqsadda ya’ni berilgan kreditni tayinlanishiga ko‘ra foydalanish majburiyatini qo‘pol ravishda buzgan taqdirda, kreditor kuchga kirgan shartnoma bo‘yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni umuman to‘xtatish huquqiga egadir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, kredit shartnomasida har ikkala tarafda ham ma’lum bir majburiyatlar paydo bo‘ladi. Kredit shartnomasi bo‘yicha taraflarning o‘rtasida vujudga kelgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Bunda majburiyat subyektlari va obyektlari uning muhim unsurlari hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo‘lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslardir. Kreditor-muayyan bir harakatning qilinishini yoki

muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab qilishga haqli subyektdir. Qarzdor esa muayyan harakatni qilishga yoki qilishdan saqlanishga majbur bo‘lgan tarafdir. Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyat obyekti qarz beruvchi pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolardir. Bu shartnomadagi majburiyatlar shartnomali majburiyatlarga oid munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarga taalluqlidir. Majburiyatlarning turlari bo‘yicha qarz va kredit shartnomalari bir tomonlama (va ikki tomonlama) majburiyatlarga xosdir. Bunday majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi, ikkinchi tomonda esa faqat majburiyat bo‘ladi. Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha qarz bergan shaxs qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi, qarzdor esa o‘z zimmasiga olgan qarzini qaytarishga burchli bo‘ladi.

Qonun normalariga muvofiq, pul majburiyati bo‘yicha majburiyatni bajarish joyi majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor esa yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo‘lsa uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yer, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o‘z yashash joyini yoki joylashgan yerini o‘zgartirgan bo‘lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo‘lsa ijro etish joyi o‘zgartirilishi bilan bog‘liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida ijro etiladi.

Qarz va kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan sanksiya ixtiyoriy bajarishgan burchni majburiy ijro ettirishga qaratilgan. Olingan qarz ixtiyoriy ravishda to‘lanmaganligi uchun uni majburan undirish mumkin. Majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs majburiyatlarini bajarmasligi bilan kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi.

Qarzdorning majburiyatni lozim darajada bajarmasligi, ya’ni majburiyatni shartnoma yoki qonunda ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq ravishda bajarmasligi tushuniladi. Agar majburiyat qarzdor tomonidan butunlay bajarilmasa, kreditor sud orqali majburiyatlarning majburiy tartibda bajarilishini, birinchi navbatda, albatta, real ravishda bajarilishini, agar majburiyat lozim darajada bajarilmagan bo‘lsa, uning qonun yoki shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilib bajarishni talab qilishga haqli. Qarz va kredit shartnomasi majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo‘ladi. Qarz shartnomasi qarz beruvchi shartnomadan voz kechishi bilan ham bekor bo‘lishi mumkin. Shuningdek, taraflarning kelishuvi bo‘yicha ham bekor bo‘lishi mumkin. Qonun hujjatlarida

majburiyatlarning bekor bo‘lishiga boshqa asoslar ham nazarda tutilishi mumkin[1].

Respublikamiz Konstitutsiyasining qonun qoidalariga asoslangan holda chiqarilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, shaxsning huquqi va erkinligini himoya qilishga oid normalarning mustahkamlanganligi mamlakatimizda demokratiyani rivojlantirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, yangi qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolarning huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishini, shartnomaning erkinligi, xususiy ishlarga biror bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymasligi buzilgan huquqlarini tiklanishi ularning sud orqali himoya qilinishini ta’minlash zarurligiga asoslanadi. Fuqarolar o‘rtasidagi tuzilayotgan har qanday shartnoma avvalambor ularning manfaatlarini o‘zlari to‘g‘ri yo‘lga moslashtirishi kerak. Tuzilayotgan shartnomalar qonunlarga zid hatti-harakatlarda bo‘lmasligi kerak. Shartnomalar tuzishdan oldin, avvalo uning huquqiy holatini yaxshilab o‘rganib, tushunib va anglab tuzilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qarz shartnomasini yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rasmiylashtirishdagi asosiy farqli jihatlarini bilasizmi?
2. Qarz shartnomasi talablarini buzganlik uchun vujudga keladigan javobgarlik shartlarini qayd eting.
3. Kredit olishdan bosh tortishning huquqiy oqibatlarini tushuntirib bering.
4. Qarz shartnomasi va kredit shartnomasi o‘rtasida qanday farqli jihatlari borligi haqida so‘zlab bering.

[1] Фуқаролик ҳуқуқи (иккинчи қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т., 2008. – Б. 928.

15-MAVZU.
TASHKILOTLAR HAMDA FUQAROLARGA QARASHLI MOL-MULKLARNI QO‘RIQLASH SHARTNOMASI

1. Qo‘riqlash shartnomasi tushunchasi, uning belgilari va xususiyatlari.
2. Qo‘riqlash shartnomasini tuzish asoslari va tartibi.
3. Qo‘riqlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi.

1. Qo‘riqlash shartnomasi tushunchasi, uning belgilari va xususiyatlari

Hozirgi kunda fuqarolar va tashkilotlarga haq evaziga xizmat ko‘rsatish sohasida, xususan «Qo‘riqlash» xizmati tomonidan haq evaziga obyektlar va fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash sohasida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Zero, qo‘riqlash shartnomalari obyektlarni va fuqarolarning xonadonlarini turli jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishning zarur vositasi bo‘lib qolmoqda.

«Qo‘riqlash» xizmati bilan tashkilotlar va fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, shartnomalar asosida ham tartibga solinadi.

Qo‘riqlash shartnomasi deb, taraflardan biri («Qo‘riqlash» xizmati) shartlashilgan muddatda xizmatlar ko‘rsatish, ya’ni mulk yoki boshqa obyektni qo‘riqlash majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf (buyurtmachi tashkilotlar, fuqarolar) esa xizmatlarni qabul qilib olish hamda ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi. Mazkur shartnoma mohiyatan haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari turkumiga kiradi Chunki obyektlarni, fuqarolarning xonadonlarini shartnoma asosida qo‘riqlash natijasida «haq evaziga xizmat ko‘rsatish» shartnomalarining obyekti bo‘lgan muayyan «harakat» yoki «faoliyat» amalga oshiriladi va qo‘riqlash shartnomalari orqali ko‘rsatiladigan bunday xizmat zamirida moddiy manfaatdorlik yotadi. Bunda xizmat ko‘rsatish (obyektlarni va fuqarolarning xondonlarini qo‘riqlash) natijasiga emas, balki unga olib kelgan «harakat»ga haq to‘lanadi. Qoidaga ko‘ra, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari singari, qo‘riqlash shartnomalarini ham ommaviy shartnomalar turiga kiritish mumkin. Chunki «Qo‘riqlash» birlashmasi va uning joylardagi bo‘limlariga murojaat qilgan barcha shaxslarga qo‘riqlash xizmati ko‘rsatiladi. Zero, haq evaziga

tuziladigan shartnomalarning barchasi boshqa fuqaroviy-huquqiy shartnomalarga qaraganda, ijrochining javobgarlik doirasi yuqori darajada bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida tashkilotlar va fuqarolarning mulklarini qo‘riqlash shartnomasini huquqiy tartibga soluvchi alohida bob berilmagan, lekin tashkilotlar va fuqarolarning mulklarini qo‘riqlashga oid shartnomaviy munosabatlar Fuqarolik kodeksining majburiyatlar to‘g‘risidagi, da’vo muddati, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari haqidagi umumiy qoidalar va boshqa huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari, qo‘riqlash shartnomalari qo‘riqlanayotgan ob’-yektning turiga va xususiyatlariga qarab quyidagi ikki asosiy turga bo‘linadi:

1) «Qo‘riqlash» xizmati tomonidan obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi;

2) «Qo‘riqlash» xizmati tomonidan xonadon (uy)larni qo‘riqlash shartnomasi.

«Qo‘riqlash» xizmati tomonidan obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi. Ma’lumki, hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida ob’yektlarni ko‘riqlash shartnomasining ahamiyati ortib bormoqda, chunki mamlakatimizda bozor munosabatlari tizimini shakllantirish, uning huquqiy negizlarini takomillashtirish xo‘jalik yurituvchi subyektlar doirasini, ularning huquq va imqoniyatlarini g‘oyat kengaytirdi.

Qo‘riqlash xizmatining tarifi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishiladi va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. 2011-yil 1-dekabr holati bo‘yicha qo‘riqlash xizmatining ta’riflari quyidagicha:

– toifalangan obyektlarni qo‘riqlash uchun bir soat – 12159 so‘m;

– soqchilik hisobi bo‘yicha bir soatlik militsiya qo‘rig‘i – 8244 so‘m;

– texnik qo‘riqlash punkti bo‘yicha bir soatda – 946 so‘m (1-guruhdagi obyektlardan tarifdagi summaning 100 foizi miqdorida, 2-guruhdagi obyektlardan 80 foizi miqdorida, 3-guruhdagi obyektlardan 60 - foizi miqdorida haq olinadi).

Obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha qo‘riqlash bo‘limlari buyurtmachi tashkilot, muassasa, korxonalarning mulkini qo‘riqlash, belgilangan kirish-chiqish va ruxsatnomalar berish tartibini ta’minlash hamda moddiy boyliklarni saqlash majburiyatini; buyurtmachi tashkilot, korxona, muassasalar esa qo‘riqlash xodimlari xizmatlari uchun qulay sharoitlar

yaratib berish va ularga belgilangan tarif asosida haq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Qo‘riqlash shartnomalarini tuzish uchun taklif kiritayotgan buyurtmachi tashkilot, korxona va muassasalar quyidagi *ikki talabga* javob berishlari shart: *birinchidan*, bo‘lar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishlari; *ikkinchidan*, ular tuzayotgan qo‘riqlash shartnomalari o‘zlarining ta’sis hujjat (nizom, ustav va hokazo)lariga zid bo‘lmasligi lozim.

Obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi quyidagi fuqaroviy-huquqiy belgilarga ega:

– obyektlarni qo‘riqlash shartnomalari *qonsensual shartnomalarga* kiradi, chunki ular taraflarning huquq va majburiyatlarini o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim darajada rasmiylashtirish paytida vujudga keladi;

– shartnomada ishtirok etuvchi taraflar huquq va majburiyatlarining o‘zaro taqsimlanishiga ko‘ra, u *ikki tomonlama shartnoma* hisoblanadi. Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan shartnomaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ushbu shartnomada ikki taraf – buyurtmachi yuridik shaxs va «Qo‘riqlash» xizmati qatnashadi hamda har ikkalasi ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi: buyurtmachi – obyektlarni qo‘riqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishni talab qilish huquqi va buning uchun haq to‘lash majburiyatini, «Qo‘riqlash» xizmati esa – tegishli obyektni qo‘riqlash majburiyati va shartnomada kelishilgan xizmat haqini to‘lanishini talab qilish huquqini oladi;

– obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi *haq baravariga tuziladigan* (pulli) shartnoma hisoblanadi. Bunda har doim «Qo‘riqlash» birlashmasi va uning joylardagi bo‘limlarining obyektlarni qo‘riqlash xizmati evaziga buyurtmachi muayyan miqdorda haq to‘laydi;

– obyektlarni qo‘riqlash shartnomalari, boshqa fuqaroviy-huquqiy shartnomalardan farqli o‘laroq, *profilaktik xususiyatga* ega, chunonchi, bunday shartnomalar qo‘riqlanayotgan obyektda huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan.

Buyurtmachining tegishli moddiy boyliklarni qo‘riqlashni tashkil qilishi va amalga oshirishi *obyektlarni qo‘riqlash shartnomasining predmeti* hisoblanadi.

Ayrim hollarda, respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan obyektlarni qo‘riqlash uchun Ichki ishlar vazirligi va tegishli vazirlik o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvga binoan, «Qo‘riqlash» birlashmasi tomonidan shartnoma tuziladi. Masalan, davlat hududidagi bank idoralarini qo‘riqlash shartnomalari Ichki ishlar vazirligi va Markaziy bank o‘rtasida o‘zaro

tasdiqlangan qoidalarga asosan tuziladi. Ta'kidlash joizki, respublika ahamiyatiga ega va qo'riqlanishi lozim bo'lgan obyektlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Amaliyotda, ba'zi hollarda qo'riqlash xizmati bilan tashkilot, muassasa, korxonalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etishda obyektlarni to'g'ri baholash katta ahamiyat kasb etadi, ya'ni qo'riqlanayotgan xona, ombor, qurilish inshooti kabilar mustaqil obyektmi yoki qo'riqlanayotgan asosiy obyekt bilan bittami degan masalani xal etish qo'riqlash xizmatining moddiy javobgarligi haqidagi muammoning hal etilishiga olib keladi.

Mavjud qoidaga ko'ra, ishlab chiqarish korxonasi o'z hududida joylashgan va unga bo'ysunadigan inshootlar bilan birga, uni qo'riqlashga qo'yilgan postlar sonidan qat'i nazar, bitta obyekt hisoblanadi. Masalan, baza, do'kon, ustaxona, garaj, dorixona, restoran, oshxona, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari ularga tegishli bo'lgan omborlar, bufetlar bilan birga bitta obyekt hisoblanadi.

Shuningdek, obyektlarni qo'riqlash shartnomalarining predmeti, shartlari, qo'riqlash usullari, subyektlari va boshqa xususiyatlariga qarab:

Yuridik, tijoratchi va notijoratchi yuridik shaxslarga hamda yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlarga qarashli obyektlarni qo'riqlash shartnomasiga toifalash mumkin.

Obyektlarni qo'riqlash shartnomalarini shartnoma predmetiga, xususan qo'riqlanadigan mulk shakliga qarab

xususiy mulk hisoblangan obyektlarni qo'riqlash shartnomasi;

davlat mulki hisoblangan obyektlarni qo'riqlash shartnomasi va hokazo turlarga ajratish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, qo'riqlash shartnomalarining obyektlari qo'riqlanish usuliga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, banklarni qo'riqlash usuli oziq-ovqat do'konini qo'riqlash usullaridan farq qilishi tabiiy. Aytaylik, banklarni «Qo'riqlash» xizmati xodimlari yordamida, oziq-ovqat do'konini esa TQP (texnik qo'riqlash punkti)dan foydalanib qo'riqlash mumkin. Lekin, muhofaza qilinishi nuqtai nazaridan, barcha obyektlar huquqiy jihatdan tengdir.

«Qo'riqlash» xizmati tomonidan fuqarolarning xonadonlarini qo'riqlash shartnomasi. Fuqarolarning mehnati evaziga topilgan daromadlari va jamg'armalari, turar-joy va yordamchi xo'jaligi, uy-ro'zg'or ashyolari, shaxsiy iste'mol buyumlari va boshqa xususiy mulki hamda mulkka vorislik huquqi qonun bilan qo'riqlanadi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston Respublikasida, mulkning boshqa turlari kabi,

xususiy mulk ham ma’muriy, jinoiy, fuqarolik va boshqa huquqiy normalar bilan muhofaza etiladi.

Aytish joizki, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida, davlatga tegishli bo‘lgan uy-joylarning xususiylashtirilib, fuqarolarga o‘tkazilishi xonadon (uy)larni qo‘riqlashga doir munosabatlarning kengayishiga, ushbu shartnomalar mohiyati va ahamiyatining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Fuqarolarning xususiy mulklarini qo‘riqlashda ichki ishlar organlarining amaliy faoliyati muhim o‘rin tutadi, ya’ni fuqarolarning xususiy mulklarini qo‘riqlash jarayonida mulkka bo‘lgan huquqni uchinchi shaxs tomonidan bo‘ladigan tajovuzdan himoya qilish «Qo‘riqlash» xizmatining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Islom Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ta’kidlaganidek, «jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatgichidir»[1].

Ma’lumki, mulk egasining qonuniy egalik huquqi asosan uchinchi shaxs (masalan, talonchi, o‘g‘ri va hokazo) tomonidan ko‘proq buziladi. Ichki ishlar organlari esa o‘z ish faoliyati xususiyatiga ko‘ra egalik huquqining buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi, uning oldini oladi.

Ichki ishlar organlari yo‘qotilgan yoki talon-taroj qilingan mulkni izlash jarayonida, Fuqarolik kodeksining 228 va 229-moddalariga asosan, mulkni boshqa kishining noqonuniy egaligidan qaytarib olish to‘g‘risidagi da’voning qondirilishini ta’minlaydi. Bular fuqarolarning mulkini qo‘riqlash shakli bo‘lib, mulk egasining buzilgan huquqi himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, fuqarolar xususiy mulki talon-taroj qilinishining oldini olish ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Shu bois xonadonlarda sodir etiladigan o‘g‘riliklarning oldini olish vazifasi ko‘p hollarda «Qo‘riqlash» xizmatining xodimlariga yuklatilgan.

Mazkur shartnomaning mazmunini tahlil qilib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: *Xonadon (uy)larni qo‘riqlash shartnomasi* bo‘yicha

---

[1] *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 27.

«Qo‘riqlash» xizmati o‘z zimmasiga buyurtmachi fuqarolarning mol-mulkini qo‘riqlash majburiyatini oladi, buyurtmachi fuqarolar esa «Qo‘riqlash» xizmati xodimlariga signalizatsiya vositalari bilan jihozlangan xonadonni topshirish va belgilangan tarif asosida haq to‘lash majburiyatini oladi.

Shartnomada buyurtmachi taraf sifatida qatnashgan fuqaro muomala layoqatiga ega bo‘lishi shart.

Bu shartnomaning o‘ziga xos tomoni shundaki, unda bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan, yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan «Qo‘riqlash» xizmati uning ishtirokchilari bo‘lib qatnashadilar. Shartnoma xonadonni qo‘riqlash shartnomasi deb atalgani bilan, aslida xonadonda mavjud bo‘lgan moddiy boyliklar shartnomaning obyektini tashkil qiladi. Bu, o‘z navbatida, quyidagi bir necha savollar tug‘ilishiga olib keladi:

– «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari xonadondagi barcha mulkning saqlanishigami yoki faqat shu fuqarolarning shaxsiy mulkiga javob beradilarmi?

– «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari shartnoma tuzilgan vaqtdagi mavjud mulkning saqlanishiga javob beradilarmi yoki majburiyat barcha mulkka tegishlimi?

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 15-dekabrdagi farmoyishi asosida tasdiqlangan «Ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘limlari tomonidan obyektlarni qo‘riqlash to‘g‘risidagi Namunaviy shartnoma» matnida aytib o‘tilganidek, «xonadon egasi xonadonda mavjud bo‘lgan mulkni u yoki bu narxda baholaydi». Demak, shartnoma matnidan xonadon egasi kim bo‘lishidan qat’i nazar, xonadondagi mavjud mulkning hammasi *shartnoma obyekti* bo‘lib hisoblanadi.

Xonadondagi mavjud mulkni boshqa kishining nazoratisiz xonadon egasining o‘zi baholaydi. Agar shartnoma amal qilayotgan davrda xonadon egasi yana biror buyum, masalan, magnitofon, gilam sotib olsa-yu, ushbu buyumlar o‘g‘irlansa, ularni qo‘riqlanayotgan obyektga qo‘shish mumkinmi, degan savol ham tug‘ilishi, tabiiy.

Xonadonni qo‘riqlash shartnomasi quyidagi belgilarga ega:

Birinchidan, qo‘riqlash shartnomasi *ikki tomonlama* shartnomalar turiga kiradi. Chunki, har ikki tomon ham majburiyatga, ham talab qilish huquqlariga ega.

Ikkinchidan, xonadonni qo‘riqlash shartnomasi *haq baravariga* tuziladi, chunki: birinchi tomon – mulkning saqlanishidan, ikkinchi tomon mulkni qo‘riqlayotgani uchun haq olishdan manfaatdor bo‘ladi.

Uchinchidan, mazkur shartnoma real shartnomalar turkumiga kiradi. Chunki, shartnoma xonadon qo‘riqlash uchun qabul qilingan vaqtdan kuchga kiradi.

Xonadonni qo‘riqlash shartnomasining obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi bilan o‘xshashlik tomoni ham mavjud. Ikkala shartnomada ham «Qo‘riqlash» xizmati xodimlariga muayyan mulkni saqlash majburiyati, ya’ni davlat va xususiy mulkni qo‘riqlash vazifasi yuklatiladi. Ikkala shartnoma ham mulk shakllarini qo‘riqlashdan tashqari, ichki ishlar organlariga huquqqa xilof tajovuzlarga qarshi kurashda yordam berishi mumkin.

Shartnomalar o‘rtasidagi farq shundaki, sobiq sho‘rolar davridan farqli o‘laroq, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida «yuridik shaxs» maqomiga ega bo‘lmagan, ammo tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan shaxslar ham obyektlarni qo‘riqlash shartnomasining subyekti bo‘lishi mumkin. Chunki, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan, tadbirkorlar xususiy korxonalar va boshqa obyektlarga egalik qiladilar. Xonadonni qo‘riqlash shartnomasida esa ikkinchi tomon sifatida faqat fuqarolar qatnashadilar. Qo‘riqlash obyektini birinchi holda yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan tashkilotlarning mulki, ikkinchi holda esa xususiy mulk tashkil etadi.

Demak, fuqarolarning xonadon (uy)larini qo‘riqlash to‘g‘risidagi shartnomani tuzishning o‘ziga xos jihatlari tashkilotlarning mulklarini qo‘riqlash shartnomasidan farq qiladi, shu bilan birga, barcha fuqaroviy-huquqiy shartnomalar ichida xonadonlarni qo‘riqlash shartnomasi mazmunan omonat saqlash shartnomasiga yaqindir. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 875-moddasiga asosan, omonat saqlash shartnomasi ashyoni topshirish asosida tuziladi, lekin, fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha fuqaro moddiy boyliklarni «Qo‘riqlash» birlashmasi va uning joylardagi bo‘limlariga topshirmaydi, balki ular ushbu moddiy boyliklarni turgan joyida qo‘riqlaydilar.

To‘rtinchidan, omonat saqlash shartnomasi haq baravariga yoki tekinga tuzilishi, real yoki qonsensual bo‘lishi mumkin. Xonadonlarni qo‘riqlash shartnomasi esa doimo haq baravariga va real tuziladi. qo‘riqlash shartnomasi mulklarning saqlanishini ta’minlash shaklida bo‘lib, xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, yuqorida ko‘rsatilgan shartnomalarni subyektlar tarkibi bo‘yicha ham tasniflash mumkin: omonat saqlash shartnomasida omonat saqlovchi sifatida tashkilotlar ham, fuqarolar ham, qo‘riqlash

shartnomasida esa IIV tizimidagi maxsus tashkilot – «Qo‘riqlash» birlashmasi va uning joylardagi bo‘limlari ishtirok etishi mumkin.

Xonadonlarni qo‘riqlash shartnomasi ham pudrat shartnomasiga o‘xshab ketadi: ikkala shartnoma ham boshqa tarafning topshirig‘ini bajarishga qaratilgan, lekin ularning maqsad va vazifalari turlicha. Xonadonlarni qo‘riqlash shartnomasi fuqarolar mulklarining muhofaza etilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, pudrat shartnomasi esa yangi moddiy obyektlarni tayyorlash yoki unga ishlov berishdan iborat.

Shuning uchun ko‘rib chiqilayotgan shartnomalarning o‘xshash tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, ammo har biri mustaqil fuqaroviy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ayni vaqtda, fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasi:

– o‘zining profilaktik yo‘nalishga ega ekanligi;

– faqat texnik vositalardan foydalanish orqali bajarish mumkinligi;

– fuqarolarga xizmat ko‘rsatish doirasidagi shartnoma ekanligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, nazarimizda, fuqarolarning mulklarini va xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasini tuzish jarayonida fuqarolarga xizmat ko‘rsatishga doir umumiy qoidalarni hisobga olish zarur. Zero, ishlar va xizmatlar fuqaro va tashkilotlarga ko‘rsatiladigan huquqiy munosabatlarning obyektlari bo‘lib hisoblanadi.

2. Qo‘riqlash shartnomasini tuzish asoslari va tartibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat qo‘riqlash shartnomasi, balki, umuman, barcha shartnomalarning natijasi bevosita uni tuzish tartibiga bog‘liq. Shu bois ham obyektlarni va fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasini tuzish asoslari va tartibini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi sharoitda qo‘riqlash xizmatining faoliyatini samarali amalga oshirish uchun shartnomaviy huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, ularni davr talablariga moslashtirish lozim. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek, «Shartnoma tuzish madaniyatini, shartnomalar madaniyatini butunlay yangi pog‘onaga ko‘tarish kerak»[1].

Ma’lumki, qo‘riqlash shartnomalarining taraflari «Qo‘riqlash» xizmati va «xo‘jalik idorasi» hisoblanadi. Bunda buyurtmachi sifatida fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.

---

[1] *Каримов И.А.* Ислоҳотларни амалга оширишда қатъиятли бўлайлик // Бунёдкорлик йўлидан. – Т., 1996. –Б. 259–260.

Amaliyotda shartnoma quyidagi tartibda tuziladi: buyurtmachi «Qo‘riqlash» xizmatiga yozma ravishda murojaat qiladi. Murojaat qabul qilinganidan so‘ng «Qo‘riqlash» xizmati va buyurtmachi yuridik shaxsning vakillaridan iborat muassasalararo komissiya tuziladi, qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan obyektlar ko‘zdan kechiriladi va dalolatnoma tuziladi. buyurtmachi tegishli mulk (obyekt)larning qo‘riqlanishi uchun zarur sharoit yaratishi va haq to‘lashi shart.

Fuqarolik kodeksi 364-moddasining 3-qismida, shartnomalar taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqidagi taklif) yo‘llashi va ikkinchi tarafning uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo‘li bilan tuzilishi belgilab qo‘yilgan.

«Qo‘riqlash» xizmati tomonidan tuziladigan qo‘riqlash shartnomasi, Namunaviy shartnomaning 22-bandida nazarda tutilganidek, *yozma shaklda* tuziladi.

Fuqarolik kodeksining 364-moddasi, shuningdek, Namunaviy shartnomaning qoidalariga muvofiq, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Albatta, qo‘riqlash shartnomasini tuzish uchun bir taraf ikkinchi tarafni majbur qila olmaydi, chunki shartnomaviy munosabatlarga kiruvchilar erkin va teng huquqlilik prinsipiga asoslanadi[1]. Biroq, ayrim hollarda (masalan, IIV va tegishli vazirliklar o‘rtasida tasdiqlangan qoidalarga binoan, quyi bo‘g‘inlar uchun), majburiy shartnoma ham tuzilishi mumkin. Bunda Fuqarolik kodeksining 377-moddasiga binoan, qo‘riqlash shartnomalarini tuzish o‘zi uchun majburiy bo‘lgan taraf oferta olgan kundan boshlab 30 kun ichida boshqa tarafga aksept to‘g‘risida, akseptdan voz kechish haqida yoki boshqacha shartlar asosida akseptlash haqida (shartnoma loyihasiga o‘zining e’tirozlari bayonnomasini qo‘shgan holda) bildirmog‘i lozim. Basharti, qo‘riqlash shartnomalarini tuzish oferent (buyurtmachi tashkilot va fuqarolar) uchun majburiy bo‘lsa-yu, u takliflariga boshqacha shartlar asosida akseptlash olsa (shartnoma loyihasiga e’tirozlar bayonnomasi bilan birga), u holda bu taraf bildirish – xabarnoma olingan yoki aksept muddati tamom bo‘lgan kundan boshlab, 30 kun ichida kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun sudga murojaat qilishga haqli. Shuningdek, «shartnoma tuzishi majburiy bo‘lgan taraf uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur etish

[1] *Эгамбердиев Э.* Мулкий муносабатлар ёхуд шартнома муносабатлари // Ҳаёт ва қонун. – 2000. – № 10. – Б. 16–20.

talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli. Shartnoma tuzishdan asossiz bo‘yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilayotgan ziyonni boshqa tarafga to‘lashi shart»[1].

«Qo‘riqlash» xizmati o‘z faoliyati bilan faqat shartnoma tuzgan fuqarolarning yoki korxona, tashkilotlarning mulklarini emas, balki ichki ishlar organlarining muhim bo‘g‘ini sifatida, o‘zlariga biriktirilmagan obyektlarni ham qo‘riqlashlari lozim. Lekin, shuni inobatga olish zarurki, biriktirilmagan obyektlarni qo‘riqlash faoliyati obyektlarni qo‘riqlash bo‘yicha huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi, balki ularning mulkchilikning barcha shakllarini muhofaza qilish, jinoyatchilikning oldini olish kabi qonstitutsiyaviy vazifalaridan kelib chiqadi. «Qo‘riqlash» xizmati xodimlarining jinoyatlarning oldini olishi ularning shartnomaviy majburiyatlaridan emas, balki ichki ishlar idoralari xodimi sifatidagi vazifalaridan kelib chiqadi. Bunday vaziyatlarda «Qo‘riqlash» xizmati yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlikni bo‘yniga olmaydi. Buyurtmachi yuridik shaxs yoki fuqaro obyektni qo‘riqlash to‘g‘risida shartnoma tuzganidan so‘nggina, bu obyektlarning qo‘riqlanishini tashkil qiladi va ta’minlaydi.

Amaliyotda qo‘riqlash shartnomalarini o‘zgartirish va bekor qilish hollari ham uchrab turadi.

Fuqarolik kodeksining 382-moddasida qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qo‘riqlash shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkinligi, bunda shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki qo‘riqlash shartnomasining shartlarini bir taraflama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan. Demak, umumiy qoidaga ko‘ra, qo‘riqlash shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish taraflarning o‘zaro kelishuvi bo‘lgandagina amalga oshiriladi.

Agar manfaatdor taraf qo‘riqlash shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish zarur deb hisoblasa, bu haqda Namunaviy shartnoma qoidalariga binoan ikkinchi tarafni kamida 15 kun oldin xabardor qilishi zarur. Lekin, «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasiga binoan, manfaatdor taraf shartnomani muddatidan oldin bekor qilish zarur deb hisoblasa, ikkinchi tarafni kamida 30 kun oldin xabardor qilishi va bu muddatni Namunaviy shartnoma bandlariga kiritishi kerak.

---

[1] *Зокиров И. Б.* Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. Умумий қисм. – Т., 1996. – Б. 290.

Qo‘riqlash shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish tartibi, agar shartnomada belgilanmagan bo‘lsa – nomuayyan muddatga, agar belgilangan bo‘lib, taraflar bunga e’tiroz bildirmasa – yana o‘sha muddatga tuzilgan hisoblanadi (Namunaviy shartnomaning 22-bandi).

Obyektlarni qo‘riqlashga doir shartnomaviy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun ikkita yuridik fakt asos bo‘lib xizmat qiladi:

Birinchidan, obyektlarning qo‘riqlash tartibini belgilaydigan ma’muriy hujjat rasmiylashtirilishi lozim. Respublika va viloyat ahamiyatiga molik obyektlarni Respublika IIV va viloyat ichki ishlar boshqarmasi belgilaydi. Har qanday holatda ham hujjat tegishli vazirlik bilan kelishilgan holda rasmiylashtiriladi.

Ikkinchidan, buyurtmachi va «Qo‘riqlash» xizmati o‘rtasida fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarning yuzaga kelishi uchun yuridik fakt, ya’ni shartnoma tuzilishi zarur. Odatda, shartnoma tuzish tashabbusi eng avvalo buyurtmachi yuridik shaxslardan chiqadi. Ular bu haqda «Qo‘riqlash» bo‘limlariga yozma ravishda murojaat qiladilar.

Bo‘lim rahbari yozma axborotni olib, buyurtmachining ayrim shartlarni bajarishiga oid masalani ko‘rib chiqadi. Bu shartlar qonun hujjatlarida belgilangan bo‘lishi kerak. Buyurtmachi yuridik shaxsning rahbari va qo‘riqlash bo‘limining boshlig‘i uni qabul qilish va topshirish yuzasidan komissiya tuzadilar. Komissiya ob’yektlarni ko‘rib chiqadi, obyektni qabul qilish va topshirish yuzasidan o‘z fikrini bildiradi hamda uni shartnomada qayd etadi.

«Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasiga binoan, shartnoma yuridik shaxs rahbarining imzosi va, asosiysi, muhri bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, 14-moddaga asosan, agar taraflar o‘rtasida tegishli hollarda talab etilgan shaklda shartnomaning barcha muhim shartlari bo‘yicha kelishuvga erishilgan bo‘lsa, qo‘riqlash shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Agar qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan obyekt qabul qilish va topshirishga tayyor bo‘lsa, tomonlar shartnoma tuzadilar. Shartnoma Namunaviy shartnoma bandlariga asosan, quyidagi zarur qismlarni o‘z ichiga olishi zarur: umumiy qoidalar; taraflarning huquqlari; Buyurtmachining majburiyatlari; «Qo‘riqlash» xizmatining majburiyatlari; shartnoma taraflarining javobgarligi; fors-major holatlar; shartnomada hisob-kitob shartlari; shartnomaning qo‘shimcha shartlari; shartnomaning amal qilish muddati; taraflarning rekvizitlari (manzilgohlari, hisob-kitob varaqlari) va hokazo.

Shartnomaga qo‘riqlanadigan obyektlar tartibi, tavsifi, qo‘riqlash yo‘riqnomasi va boshqa hujjatlar ilova tarzida qo‘shiladi.

Xonadonni qo‘riqlash shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Bu shartnomani tuzish taklifi (oferta), avvalambor, xonadon egasidan chiqadi, ya’ni uy egasi «Qo‘riqlash» bo‘limining boshlig‘i nomiga ariza bilan murojaat qilganidan so‘ng, bu xonadonni TQP (texnik qo‘riqlash punkti)ga ulash ishlari amalga oshirilishi zarur va buning uchun ketgan xarajatlarni xonadon egasi qoplashi kerak. Javobgar xonadon egasi shartnoma amal qilayotgan davr ichida xonadonni qo‘riqlash uchun «Qo‘riqlash» xizmati xodimlariga istagan vaqtida topshirishi mumkin.

Xonadonni qancha vaqt qo‘riqlashni xonadon egasi har bir holda alohida belgilaydi. Bu bir necha oy, hafta, kun yoki soat bo‘lishi mumkin. Xonadonni egalari uydan chiqib ketmay turib ham qo‘riqlash mumkin (masalan, kechasi). Amaliyotning ko‘rsatishicha, ushbu variant odatda ko‘proq qo‘llaniladi. Xonadonni qo‘riqlash dam olishga yoki ta’tilga ketayotgan shaxslar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Xonadonni qo‘riqlash uchun to‘lov o‘zaro belgilangan tarif bo‘yicha har oyda amalga oshiriladi. Ya’ni «Qo‘riqlash» xizmatidan bir yilda bir oy (ta’til vaqtida) foydalanadigan xonadon egasi ham, har kuni (ishga, do‘konga, teatr va boshqalarga ketayotib) foydalanadigan xonadon egasi ham 12 oy uchun bir xil haq to‘laydi.

Bu borada Rossiyaning ba’zi shaharlarida to‘plangan tajriba e’tiborga molikdir. Masalan, 2000-yilda bunday tartib amalga oshirilayotgan Moskva shahrida amaldagi qo‘riqlash shartnomasiga binoan xonadon egasi tomonidan oyiga 50 rubl atrofida, Murmansk shahrida 180 rubl to‘langan. Albatta, shu o‘rinda «nima uchun bir xil ishga har xil baho belgilanadi?» degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunday bahoning belgilanishi qo‘riqlash bo‘limlarining TQP (texnik qo‘riqlash punkti)ga ulangan xonadonlarning soniga teskari proporsional ravishda bog‘liq. Tuman IIB huzuridagi qo‘riqlash bo‘limi TQPga tuzilgan qo‘riqlash shartnomasiga binoan qanchalik ko‘p xonadonlar ulansa, shartnoma bahosi ham shunchalik arzon bo‘ladi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy prinsiplaridan biri – «*kuchli ijtimoiy siyosat*» *prinsipi* amalga oshirilayotgan bir paytda, kam ta’minlangan oilalar, urush qatnashchilari bilan tuziladigan o‘zaro qo‘riqlash shartnomalarida narxning belgilanishida imtiyozlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, amaliyotda TQPga ulangan xonadonga signal bo‘yicha «Qo‘riqlash» xizmati xodimlarining o‘z vaqtida yetib kelmaslik hollari

ham uchraydi. Bunday hollarning oldini olish maqsadida, xonadonlarni qo‘riqlash shartnomalarini uzoqda joylashgan tuman ichki ishlar idoralari huzuridagi «Qo‘riqlash» bo‘limlari bilan emas, balki, qaysi tumanda joylashganligidan qat’i nazar, yaqinroqdagi «Qo‘riqlash» xizmati bilan tuzish yoki, hududiylik prinsipi buzilmasligi uchun, har bir aholi punktida TQP (texnik qo‘riqlash punktlari)ni tashkil etish, bu qoidani Namunaviy shartnoma bandlarida ham belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, qo‘riqlash shartnomasi tomonlarning xohish-irodasini, ularning huquq va majburiyatlari bilan bir qatorda, javobgarligini ifodalovchi hujjat bo‘lganligi uchun, ularni yuridik va texnikaviy nuqtai nazardan to‘g‘ri rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki nafaqat qo‘riqlash shartnomalari, balki barcha shartnomalar xo‘jalik sudida taraflar o‘rtasida bahs-tortishuv vujudga kelganda muhim dalil-isbot bo‘lishi bilan bir paytda, aybdor taraf javobgarlikdan qochib keta olmasligini, jabrlanuvchi taraf esa uning himoya vositasi ekanligini tushunib yetadi.

3. Qo‘riqlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi

Obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari. Obyektlarni qo‘riqlash shartnomasining taraflari normativ huquqiy hujjatlarda, xususan, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 15-dekabrdagi farmoyishi bilan tasdiqlangan Namunaviy shartnoma qoidalarida nazarda tutilgan bir qator huquq va majburiyatlarga ega. Chunonchi, «Qo‘riqlash» xizmati: moddiy boyliklarni qo‘riqlashni tashkil etish, qo‘riqlanadigan obyektlarga begona kishilarning kirishiga yo‘l qo‘ymaslik; obyektlarda kirish-chiqish tartibini tashkil qilish, moddiy boyliklarning olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish; ish kuni tugashi bilan buyurtmachi tashkilotga obyektlardan hamma chiqib ketganligini xabar qilish; buyurtmachi tashkilot bilan hamkorlikda obyektda texnika vositalarini tatbiq etish va ulardan foydalanish; yong‘inga qarshi xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta’minlash va yong‘in chiqqan taqdirda yong‘inni o‘chirish qismlariga xabar berish va yong‘inni bartaraf etish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rish; ayrim belgilangan hollarda buyurtmachi tashkilotdan muhr va plombalarni qabul qilish; shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish; xo‘jalik sudiga o‘zining buzilgan yoki da’vo qilinayotgan huquqlarini yoxud qonuniy manfaatlarini himoya etishni so‘rab murojaat etish; qo‘riqlanadigan obyektlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda shartlarga, o‘zaro huquq va majburiyatlarga aniqlik kiritish, shaxsan xizmat ko‘rsatishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda, «Qo‘riqlash» xizmatiga shartnoma bo‘yicha *qo‘shimcha majburiyatlar,* xususan, yong‘inga qarshi ishlarni amalga oshirish; mahsulotlarni tashish vaqtida qo‘riqlash va pul mablag‘lari bilan borayotgan kassirlarni qo‘riqlab borish; ayrim hollarda (masalan, favqulodda holat, aytaylik, terrorchilik harakatlarning oldini olish maqsadida) taraflarning o‘zaro kelishuviga binoan ma’lum muddatgacha qo‘shimcha postlar qo‘yish kabi vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Bundan tashqari, taraflarning o‘zaro kelishuvlariga muvofiq, Namunaviy shartnomaga zid bo‘lmagan boshqa qo‘shimcha majburiyatlar ham belgilanishi mumkin.

Buyurtmachi tashkilotlarning huquq va majburiyatlariga asosan quyidagilar kiradi: qo‘riqlanadigan obyektlarni texnik vositalar bilan ta’minlash yuzasidan belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, «Qo‘riqlash» xizmati xodimlarining normal faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, masalan, xonani ta’mirlash, suv, yorug‘lik bilan ta’minlash, isitish va hokazo.); obyektlarni belgilangan holda topshirish, mustahkam qulflar bilan bekitish va omborlarning eshiklarini plombalash, signalizatsiyani ulash; obyektlarning lozim bo‘lgan joylarida telefon aloqasini yo‘lga qo‘yish; «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari uchun xonalarni qayta ta’mirlash hamda qo‘riqlash xususiyatini o‘zgartirish va postlarni almashtirishni taqozo etadigan tadbirlar haqida o‘z vaqtida xabar berish; yong‘inga qarshi tadbirni amalga oshirish, obyektlarda yong‘inga qarshi choralar ko‘rish; har oyda qo‘riqlashga tarif asosida shartnomada ko‘rsatilgan muddatlar va tartibda haq to‘lash; shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish; qo‘riqlanadigan obyektlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda shartlarga, o‘zaro huquq va majburiyatlarga aniqlik kiritish kabilar kiradi.

Ayni vaqtda, buyurtmachi tashkilotlarga shartnoma bo‘yicha *qo‘shimcha majburiyatlar* yuklatilishi ham mumkin. Chunonchi, ularga «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari uchun turar-joy berish; xodimlar va ularning oilalarini poliklinika, kasalxona, sanatoriy, bolalar bog‘chasi, dam olish uyi va boshqalar bilan ta’minlash kabilar kiradi.

Bundan tashqari, tomonlarning o‘ziga xos muhim huquq va majburiyatlari mavjud, ya’ni «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari shartnomada belgilangan tartibga amal qilish majburiyatiga, texnika vositalaridan foydalanish yuzasidan buyurtmachiga ko‘rsatmalar berish huquqiga, buyurtmachi tashkilotlar esa qo‘riqchilar amalga oshiradigan ruxsatnomaga oid va obyektdagi ichki rejimni belgilash huquqiga ega (Namunaviy shartnomaning 4-bandi).

Fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning huquq va majburiyatlari. «Qo‘riqlash» xizmati xodimlarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolar xonadonlaridagi mulklarning saqlanishini ta’minlash, qo‘riqlash signalizatsiyasining ahvolini doimiy kuzatib borish va «tashvish» xabariga o‘z vaqtida javob berish. Bu xabar qabul qilinishi bilanoq qo‘riqlanayotgan obyektga yetib borish, xonadonga begona shaxslarning kirishiga, mulkning noqonuniy tashib ketilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

2) signalizatsiya vositalarini soz holda saqlash;

3) xonadonni qo‘riqlashni o‘z vaqtida markaziy kuzatuv pultiga qabul qilish.

Xonadon egasining majburiyatlarini quyidagilar tashkil etadi:

– qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan kirish va ayvon eshiklarini, deraza va ularning tanbalarini soz holda saqlash; xonadonda ta’mirlash ishlari amalga oshirilganda, signalizatsiya sozligini tekshirish uchun qo‘riqlash xizmati vakilini chaqirish; telefon apparatining joyi o‘zgartirilgan bo‘lsa, signalizatsiya vositalarini tekshirish uchun «Qo‘riqlash» xizmatining texnik mutaxassisini chaqirish;

– xonadonni qo‘riqlash xizmatiga topshirish oldidan derazalar, darchalar, eshiklarni qulflab, yopilganligini tekshirish va qo‘riqlash signalizatsiyasi ulagichini «qo‘shilgan» holga o‘tkazib qo‘yish;

– xonadonni qo‘riqlashga topshirishdan oldin, signalizatsiya ishlashini pult orqali tekshirish;

– signalizatsiyaning ishlayotganligi haqida kechiktirmasdan qo‘riqlash xizmatiga xabar qilish;

– xonadonni qo‘riqlashga topshirish uchun telefon orqali o‘zining familiyasi va unga biriktirilgan raqamni xabar qilish (buni qayd qilish uchun xonadonni texnik qo‘riqlash punktiga qabul qilgan navbatchi xabar qabul qilingan kun va vaqtga doir ma’lumotlarni yozib olishi kerak);

– agar xonadon egasi undan chiqib ketmagan holda qo‘riqlashga topshirgan bo‘lsa (kechasi), telefondan foydalanmaslik (chunki telefon trubkasining ko‘tarilishi texnik qo‘riqlash punktida «tashvish» xabarini chalinishiga sabab bo‘ladi);

– xonadon eshigi ochilishi bilanoq signalizatsiya ulagichini «o‘chirilgan» holga o‘tkazib qo‘yish; texnik qo‘riqlash punktiga telefon qilib, o‘zining kelganligini, familiyasi va telefon raqamini aytib qo‘yish;

– qo‘riqlanayotgan «obyekt»ga militsiya naryadi kirishiga to‘siq bo‘ladigan eshik, podyezd, darvozalar kalitlarining nusxalarini «Qo‘-

riqlash» xizmati xodimlariga topshirish. Agar kalit topshirilmagan va o‘g‘rilik «obyekt» eshigi, derazasi va shu kabilarni buzmasdan sodir etilgan bo‘lsa, «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari moddiy javobgar bo‘lmaydilar.

– begona kishilarga signalizatsiya vositalaridan foydalanish sirlarini, «obyekt»ga berilgan pult nomerini aytmaslik;

– qo‘riqlash shartnomasini tuzish va bajarish munosabati bilan bir-birlaridan zarur ma’lumotlar hamda boshqa hujjatlarni so‘rash va olish;

– qo‘riqlash shartnomasini tuzish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so‘rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

– boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma’lumotlarni to‘plash, boshqacha aytganda, buyurtmachi tashkilot, muassasa, korxonalar bilan tuziladigan qo‘riqlash shartnomalari yuzasidan ularning to‘lov qobiliyatini aniqlash;

– davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish va shikoyatlar berish hamda ulardan asosli yozma javoblar olish;

– qo‘riqlash shartnomalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda qo‘riqlash shartnomalarining o‘z vaqtida tuzilishini ta’minlash;

– tuzilgan qo‘riqlash shartnomalari bo‘yicha zimmaga olingan majburiyatlarni o‘z vaqtida tegishli tartibda bajarish.

– «Qo‘riqlash» xizmatining qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi 1996-yil 26-aprel qonuni 4-moddasining talablaridan kelib chiqqan holda, Namunaviy shartnomaning bandlariga buyurtmachi yuridik va jismoniy shaxslarning quyidagi huquqlari mavjud:

– «Qo‘riqlash» xizmati haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish;

– xizmatni xohishin tanlash va uning yetarli darajada sifatli bo‘lishi.

Shunday qilib, qo‘riqlash shartnomasida ishtirok etuvchi taraflarning huquq va majburiyatlarini Namunaviy shartnomada belgilanganligi amaliyotda «Qo‘riqlash» xizmati bilan buyurtmachi yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida tuziladigan qo‘riqlash shartnomalarining mukammal bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, huquqiy davlatning muhim belgilaridan, ya’ni jamiyat hayotining eng muhim prinsiplaridan biri qonunning ustunligi hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, «asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo‘ladi»[1]. Bozor mexanizmining eng asosiy xususiyatlaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida ularning iqtisodiy javobgarligi va to‘liq iqtisodiy mustaqilligi asosida qonun va shartnomalar intizomiga rioya qilish hisoblanadi. Qonun va shartnomalarning asosida esa ko‘p hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan majburiyatlar yotadi. Ta’kidlash joizki, shu davrga qadar nafaqat «Qo‘riqlash» xizmati, balki butun ichki ishlar idoralari xodimlarining fuqaroviy-huquqiy shartnomalardan kelib chiqadigan javobgarliklari o‘rganilmasdan, xususan ularning ma’muriy boshqaruv sohasidagi, ya’ni huquqqa xilof xizmat harakatlari uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlik shart-sharoitlari o‘rganilgan.

Shu bilan birga, tuzilgan qo‘riqlash shartnomalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik hollari mavjud bo‘lganligi bois, bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, Fuqarolik kodeksining 333-moddasida fuqaroviy-huquqiy javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Mazkur moddaga asosan, qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javobgar bo‘ladi. Biroq, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi.

Umuman olganda, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik instituti asosan «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari mehnat majburiyatlarini buzganda qo‘llaniladi. *Birinchidan*, u yetkazilgan mulkiy zararni qayta tiklash xususiyatiga ega. *Ikkinchidan*, «Qo‘riqlash» xizmati faoliyatini takomil-lashtirishning amaliy vositasi hisoblanib, nafaqat xodimning shaxsiy javobgarligi masalasini, balki «Qo‘riqlash» xizmati yoki uning joylardagi bo‘limlarining javobgarligini ham belgilab beradi. Zero, «Qo‘riqlash» xizmati o‘z faoliyatida muayyan belgilangan obyektni qo‘riqlash, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurash majburiyatlariga ega bo‘lib, qonunchilikka rioya qilish bunda muhim o‘rin tutadi.

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т., 1996. – Т. 1. – Б. 321.

«Qo‘riqlash» xizmatining fuqaroviy-huquqiy javobgarligi nafaqat shartnomali, balki shartnomadan tashqari, ya’ni zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha ham bo‘lishi mumkin. Buning *birinchisi*, «Qo‘riqlash» xizmatining shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirishdan iborat. Bunday hollarda, ushbu javobgarlik tegishli qonun bilan tartibga solinishi va tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq belgilanishi lozim. *Ikkinchisi*, shartnomaviy munosabatlardan tashqari, Fuqarolik kodeksining 57-bobida ko‘rsatilgan «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar» instituti qoidalari bilan tartibga solinadi.

Ta’kidlash joizki, qarzdor aybsiz bo‘lsa o‘z majburiyatini bajarolmay qolgan, deb topilishi uchun aybi yo‘qligini isbotlashi lozim. Shu bilan birga, qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlar o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan (fors-major) vaziyatlar – tabiiy ofatlar, yong‘inlar va boshqa favqulodda holatlar tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olsalar, javobgarlikdan ozod qilinadilar. Bunday hollarda esa majburiyatlarni bajarish muddati, amaldagi qo‘riqlash shartnomasiga binoan, favqulodda holatlar yuz bergan vaqt doirasida kechiktiriladi. Ammo qarzdorning puli yo‘qligi bunday vaziyatlar jumlasiga kirmaydi.

Bundan tashqari, majburiyatni qasddan buzganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to‘g‘risidagi avvaldan kelishilgan shartnoma u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy hisoblanmaydi. Chunki qarzdorning olingan majburiyatini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi qonunga xilof harakat (harakatsizlik) hisoblanadi. Nafaqat «Qo‘riqlash» shartnomasi bo‘yicha, balki umuman fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning yuzaga kelishi uchun quyidagi holatlar kelib chiqqan bo‘lishi talab etiladi:

a) qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik, ya’ni qo‘riqlash shartnomasi shartlarini buzganlik (bajarmaganlik, ularga rioya qilmaganlik);

b) zararning mavjudligi;

d) qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik natijasida kelib chiqqan zarar o‘rtasida sababiy bog‘liqlikning bo‘lishi;

e) qarzdorning (yoki zarar yetkazuvchining) aybi bo‘lganligi. Albatta, fuqaroviy-shartnomaviy munosabatlar odatdagi normal kundalik munosabatlar bo‘lgani sababli, aybning namoyon bo‘lishi ham o‘z xususiyatlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-

moddasiga asosan, qarzdor (shartnoma bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan shaxs) majburiyatni bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni isbotlashi, o‘zining aybsiz ekanligi faktini tasdiqlashi lozim. Ta’kidlash joizki, fuqarolik huquqida yuridik javobgarlik shakllarini bir-biridan ajratish borasida yagona qonstruksiya yo‘q bo‘lib, xususan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik asoslari va majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik asoslari bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, bu borada huquqshunos olim O. Oqyulov fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka tortish asoslarining tarkibiy qismi sifatida «javobgarlik subyektining mavjud bo‘lishi lozim»ligini ta’kidlaydi.

Qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqqan majburiyatning baja-rilmaganligi natijasida ikkinchi tarafga zarar yetkazish barcha hollarda huquqqa xilof harakat deb topiladi. Zero, qarzdor xatti-harakatining huquqqa xilof ekanligini belgilash vaqtida qanday shartlar mavjud bo‘lganligini aniqlash juda muhim. Chunki, shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini, shartnoma intizomiga rioya qilinishini ta’minlash iqtisodiy-huquqiy jihatdan g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Agar qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha taraflarning talabi yetkazilgan zararni undirishga qaratilgan bo‘lsa, qarzdor faqat aybli deb topilgan hollardagina mulkiy javobgarlikka tortiladi. Ba’zi hollarda qarzdor o‘zining aybi uchungina emas, balki boshqa shaxsning harakati uchun ham javobgar deb topilishi mumkin. Masalan, Fuqarolik kodeksining 334-moddasiga muvofiq, uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdor javobgar hisoblanadi. Ya’ni qarzdor uchinchi shaxsning aybi orqali olgan majburiyati bajarilmaganligi uchun kreditor oldida javobgardir. Chunonchi, obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlardan biri – xo‘jalik organi yuqori turuvchi organning aybi bilan shartnoma shartlariga muvofiq, o‘z vaqtida «Qo‘riqlash» xizmatiga pul to‘lamasa yoki tegishli bankdagi hisob-varag‘iga pul o‘tkazmasa, qo‘riqlash xizmati esa xodimlarning aybi bilan olgan majburiyatlarini bajarmasa, buning uchun mulkiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Darhaqiqat, qo‘riqlash shartnomasida ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik fuqaroviy-huquqiy ja-vobgarlikning kelib chiqishiga, ya’ni shartnoma majburiyatini aybli holda bajarmagan tomon javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining 333-moddasida ko‘rsatilganidek, ayb qasd yoki ehtiyotsizlik (beparvolik) shaklida bo‘lishi mumkin.

Aybning qasd shaklida, shaxs tuzilgan «Qo‘riqlash» shartnomasi orqali olgan majburiyatlarini bila turib lozim darajada bajarmaydi.

«Qo‘riqlash» xizmati va buyurtmachi (tashkilotlar va fuqarolar)ning shartnoma majburiyatlarini qasddan bajarmasligi ularning fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shakli yoxud darajasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qarzdor shartnoma majburiyatini bajarmaganlikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybdor deb topilsa, kelib chiqqan zararni, aybona (neustoyka)ni to‘lashga majbur bo‘ladi. Chunki, qo‘riqlash shartnomasi asosida kelib chiqqan majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik shartnoma intizomini buzish hisoblanadi. Uning natijasida kreditorga nafaqat moddiy, balki ma’naviy zarar ham yetkaziladi. Chunonchi, bunday holatlar fuqarolarning xonadonlarini qo‘riqlash shartnomasida ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganlikda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, «Qo‘riqlash» xizmatining yuridik shaxs sifatidagi aybini aniqlash uning javobgarligini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni bu o‘rinda ayb to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqaroning emas, balki yuridik shaxsning aybi ko‘rinishiga ega».

Bundan tashqari, amaliyotda «Qo‘riqlash» xizmati xodimlari yoki vakillari shartnomaviy majburiyatlarni buzishlari (noqonuniy buyruq, qonunga xilof shartnomani tuzish yoki imzolash, bajaruvchiga tegishli xabarni o‘z vaqtida yetkazmaslik va hokazo) natijasida mulkiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilariga zarar yetkazilishi mumkin. Ammo xodim to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazgan taqdirda ham sud yuridik shaxsni mulkiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Shu bilan birga, bu o‘rinda javobgarlikka tortishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazuvchining emas, balki yuridik shaxsning aybi muhim.

Ta’kidlash joizki, «Qo‘riqlash» xizmati bilan manfaatdor xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini buzish natijasida yuzaga kelgan oqibatlarni bartaraf etish maqsadida huquqiy vositalarni qo‘llash quyidagi tashkiliy-huquqiy yo‘nalishlarni belgilashni talab qiladi:

– shartnoma majburiyatlarini bajarish natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha idoralararo komissiya tashkil etish va uning huquqiy holatini belgilash;

– biror-bir manfaatdor tashkilotning shartnoma majburiyatlarini buzishi natijasida vujudga kelgan oqibat va bunda aybdor shaxslar bilan o‘zaro bog‘liq holatlarni tasniflash va tahlil etish;

– ichki xo‘jalik hisobi bilan tashkilotlararo xo‘jalik hisobi tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash hamda mulkiy javobgarlikni belgilash.

Shu o‘rinda, «Qo‘riqlash» xizmati va uning joylardagi bo‘limlari bilan buyurtmachi korxona, tashkilot, muassasalar o‘rtasida tuzilgan qo‘riqlash shartnomasi shartlarining u yoki bu sababga ko‘ra bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan nizolar qaysi sudda ko‘rilishi va qanday tartibda hal etilishi haqida savollar tug‘ilishi tabiiy.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqaroviy-huquqiy munosabat subyektlarining huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, fuqaroviy-huquqiy shartnomalarning subyektlarini sudda huquqiy himoya qilish qonuniy asosga ega. Bunda, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari muhim o‘rin tutadi. Xususan, Konstitutsiyaning 111-moddasiga ko‘ra, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o‘rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish Oliy xo‘jalik sudi va boshqa darajadagi xo‘jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Shu bois, «Qo‘riqlash» birlashmasi va buyurtmachi korxona, tashkilot, muassasalar o‘rtasida tuzilgan qo‘riqlash shartnomalari yuzasidan kelib chiqadigan xo‘jalik nizolari Oliy xo‘jalik sudi va xo‘jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida hal etiladi.

Amaliyotdan ma’lumki, nafaqat «Qo‘riqlash» birlashmasi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan buyurtmachi tashkilot, korxona, muassasalarda, balki aksariyat xo‘jalik yurituvchi subyektlarda yuridik xizmatning samarali yo‘lga qo‘yilayotganligi sababli, ular o‘z vaqtida sudga murojaat qila olmayotganligi, da’vo arizasining mazmuni va shakliga qo‘yiladigan talablarga yetarli darajada rioya etmayotganligi, o‘zaro talabnoma bildirish orqali nizoni hal qilayotganligi, fikrimizning dalilidir[1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik protsessual kodeksining 102, 103-moddalarida, sudning buyruq berish bo‘yicha talablaridan biri sifatida hujjatlar asosida tan olingan debitorlik qarzini undirish to‘g‘risidagi qoidalar belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston

[1] *Рўзиназаров Ш. Н.* Ғишлоқ хўжалик тадбиркорлик субъектларининг судга мурожаат қилиш ҳуқуқи асослари // Мустақил Ўзбекистон: ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. – Т., 2000. – № 7. – Б. 63.

Respublikasi Prezidentining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida»gi 1998 yil 4 mart farmoni, Vazirlar Mahkamasining ushbu farmonning bajarilishini ta’minlash chora-tadbirlari haqidagi 1998-yil 24-aprel qarori «Qo‘riqlash» xizmati va buyurtmasi tashkilot, muassasa, korxonalar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning aniq ishlashi uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat xizmat qilib kelmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt – «Qo‘riqlash» xizmati qoshidagi yuridik xizmatning vazifalari etib quyidagilar belgilangan: – qo‘riqlash shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini, shuningdek, talabnoma bildirish va uni ko‘rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish;

– shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da’vo ishlarini olib borish;

– qo‘riqlash shartnomalari bajarilishi ustidan o‘zaro tekshiruvlar o‘tkazilishini nazorat qilish;

– xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan qo‘riqlash shartnomalari loyihalari va ular bilan bog‘liq boshqa huquqiy hujjatlarning qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

– qo‘riqlash shartnomasi va u bilan bog‘liq boshqa huquqiy hujjat loyihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o‘z e’tirozini asoslab qo‘shimcha ishlash uchun qaytarish; shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etish.

Sudlar «Qo‘riqlash» shartnomasiga oid nizolarni hal etishda shartnoma va to‘lov intizomini mustahkamlashga, tadbirkorlik sohasida huquqiy madaniyatni oshirishga, qo‘riqlash shartnomasi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini ifoda etuvchi va majburiyatlarni bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlikni belgilovchi asosiy hujjat bo‘lib qolishiga har tomonlama ko‘maklashishlari va fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llashda shartnoma subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini tegishincha himoya etishlari, tomonlarning buzilgan huquqlari tiklanishini ta’minlashlari kerak. Zararni qoplash bilan bog‘liq nizolarni hal etishda shuni e’tiborga olish kerakki, mavjud zarar tarkibiga faqatgina tegishli shaxs tomonidan aniq yetkazilgan zararlargina emas, balki shaxsning buzilgan huquqini tiklashi uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlar ham kiradi (FK 14-m. 2-q.). «Bunday xarajat-

larning zarurligi va ularning taxminiy miqdori xizmat ko‘rsatishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga ketadigan smeta (kalkulatsiya) sifatidagi va majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik darajasini belgilovchi shartnoma, asoslantirilgan hisob-kitob kabi boshqa dalillar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak»[1].

Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksining 326-moddasiga muvofiq, agar to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka kreditorning majburiyatlarini buzish oqibatlariga nomutanosibligi aniq ko‘rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli.

Ma’lumki, shartnomada, taraflarning majburiyatlarini bajarishini ta’minlash maqsadida shartlari buzilgan taqdirda javobgarlik nazarda tutiladi. Shu bois qo‘riqlash shartnomasini yuqorida ta’kidlanganidek, qo‘riqlanayotgan obyekt bo‘yicha tomonlarning mulkiy javobgarligini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Obyektlarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning mulkiy javobgarliklari fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning umumiy asoslaridan tashqari, Namunaviy shartnomaning 10-bandida belgilangan quyidagi maxsus shartlarning bo‘lishini taqozo etadi:

– obyektning haqiqatan ham «Qo‘riqlash» xizmati qaramog‘ida bo‘lishi;

– qo‘riqlanayotgan obyektda o‘g‘rilik sodir etilganligi yoki begona kishilar tomonidan xo‘jalik mulkining yo‘qotib yuborilganligi yoxud unga shikast yetkazilganligiga doir tasdiqlangan ma’lumotning mavjudligi;

– surishtiruv, tergov yoki sud organlari tomonidan o‘g‘rilik yoki qo‘riqlanayotgan obyektga begona kishilarning kirganligi faktining aniqlanishi va hokazo.

Odatda har bir shartnomada javobgarlik – kelishilgan shartlardan birini bajarmagan tarafga nisbatan aybona (neustoyka) ko‘rinishidagi jazo belgilanishi bilan ifodalanadi. Chunonchi, Namunaviy shartnomaning 7-bandida buyurtmachi tashkilot (javobgarligi to‘g‘risida) «Qo‘riqlash» xizmatiga o‘z vaqtida xizmat haqi to‘lamaganligi tufayli har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to‘lashi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, shartnomada, qo‘riqlash xizmati xodimlarining qo‘riqlanayotgan obyektlardagi mulkni o‘g‘irlash orqasidan keltirilgan zarar uchun mulkiy javobgarligi nazarda tutilgan. Ushbu fuqaroviy-huquqiy

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Хўжалик суди Пленумининг «Хўжалик судлари томонидан Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг жавобгарлик тўғрисидаги қоидаларини қўллашнинг айрим масалалари ҳақида»ги 1999 йил 5 февраль қарори // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1999. – № 3. – Б. 2.

javobgarlikning yuzaga kelishi uchun yuqorida ta’kidlangan talablardan tashqari, umumiy va maxsus shartlar bo‘lishi zarur. *Umumiy shartlarga* quyidagilar kiradi:

1) zararning mavjud bo‘lishi. Bunda zarar deganda, mulkning o‘g‘irlanishi tufayli fuqarolar yoki tashkilotlarga keltirilgan moddiy, moliyaviy zarar tushuniladi, ya’ni bunday zarar Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga asosan haqiqiy zarar deb hisoblanadi;

2) «Qo‘riqlash» xizmati faoliyatining noqonuniyligi. Bu noqonuniylik, asosan, o‘z vaqtida markaziy kuzatuv pultiga ulanmaganlikda, qo‘riqlanayotgan obyektga xodimlarning o‘z vaqtida bormasligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, jinoyatchilarni ushlash uchun kerakli tadbirlar o‘tkazilmaganligida ham bu holat yuzaga keladi;

3) «Qo‘riqlash» xizmati faoliyati bilan keltirilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish;

4) «Qo‘riqlash» xizmati xodimlarining aybi.

Maxsus shartlarga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

– o‘g‘rilik fakti militsiya yoki tergov idoralari tomonidan aniqlanishi lozim;

– tergov idoralari o‘g‘rilik obyekt markaziy kuzatuv pultiga qo‘riqlash uchun topshirilgan davr mobaynida sodir etilganligini aniqlashlari kerak.

Mazkur umumiy va maxsus shartlar mavjud bo‘lgan hollardagina qo‘riqlash xizmati o‘g‘irlangan mulk uchun moddiy javobgar bo‘ladi.

Umuman olganda, qo‘riqlash shartnomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi.

Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha yetkazilgan zararni undirish uchun zarar ko‘rgan taraf, zarar aynan majburiyat buzilganligi natijasida yetkazilganligini, uning miqdorini hamda ikkinchi tarafning aybi borligini isbotlab berishi lozim. Demak, qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha, bir tarafga zarar yetkazilishi ikkinchi tarafni javobgarlikka tortishning zaruriy sharti bo‘lib hisoblanadi.

Lekin ba’zi hollarda, aybning bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, majburiyat buzilganligi uchun javobgarlik vujudga keladi.

«Qo‘riqlash» xizmati tomonidan qo‘riqlanadigan korxona, tashkilot hududida joylashgan alohida obyektlarni qo‘riqlashga doir shartnomani korxona, oshxona, kafe va omborxonalar va bu kabi tashkilotning o‘zi bilan tuzsa bo‘ladi. Bunda shartnomada qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan har bir obyekt alohida ko‘rsatilishi lozim. Ana shundagina «Qo‘riqlash» xizmati buyurtmachi tashkilotga yetkazilgan zararni, ya’ni o‘g‘irlangan tovar-moddiy boyliklarni Namunaviy shartnomaga ko‘ra to‘liq qoplaydi. Zero, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar institutida to‘liq undirish prinsipi asosiy o‘rin

egallaydi. To‘liq undirish instituti iqtisodiy jihatdan yetkazilgan zarar miqdori bilan javobgarlik o‘lchovining tenglashuvini hamda tashkilotlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlardagi xo‘jalik hisob-kitobini ifodalaydi.

Nazarimizda, Namunaviy shartnomaning 15-bandida ko‘rsatilgan shartlar «Qo‘riqlash» xizmatini javobgarlikdan ozod qilish uchun yetarli asos bo‘lib hisoblanmaydi.

Namunaviy shartnomaning 15-bandi mazmuniga ko‘ra, «Qo‘riqlash» xizmati o‘g‘rilik buyurtmachi tashkilotning shartnoma shartlarini buzishi natijasida sodir etilgan taqdirdagina javobgarlikdan ozod bo‘ladi, lekin o‘shanda ham «Qo‘riqlash» xizmati o‘z burchini lozim darajada bajarganligidan guvohlik beruvchi dalillarni taqdim etishi shart.

Umuman olganda, nafaqat qo‘riqlash, balki barcha shartnomalar yuzasidan taraflarning javobgarligini ko‘rib chiqishda Fuqarolik kodeksining quyidagi asosiy normalarini tahlil etish zarur hisoblanadi:

– yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy maqomi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, fuqarolik muomalasida qatnashuvchi taraflarning teng huquqliligi, ya’ni shartnomada ishtirok etuvchi taraflarning javobgarligi teng bo‘lishi lozim (FK 1-m.).

– agar to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligi ko‘rinib tursa, neustoykani sud kamaytirishga haqli (FK 326-m.);

– zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi (FK 334-m.).

Demak, qo‘riqlash shartnomasida ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki talab darajasida bajarmaganlik uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning belgilanishi o‘z-o‘zidan shartnoma munosabati ishtirokchilarining mas’uliyatini oshiradi, fuqarolarni qonunchilik hujjatlariga hurmat ruhida tarbiyalab, shartnoma majburiyatlarining belgilangan vaqtda bajarilishini kafolatlaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qo‘riqlash shartnomasining funksiyalari nimalardan iborat?
2. Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha belgilangan shartlarni buzganlik uchun taraflar javobgarligining vujudga kelish tartibini qayd eting.
3. Qo‘riqlash shartnomasining tugatilishi va bekor bo‘lishi asoslarini hamda tartibini yoriting.
4. Fuqarolar mulklarini qo‘riqlash shartnomasining muddati va shakllariga rioya etishning ahamiyati haqida so‘zlab bering.

16-MAVZU.
ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) tushunchasi va xususiyatlari.
2. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari.
3. Ma’naviy zarar va uni qoplash usullari.

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) tushunchasi va xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar» deb nomlanadi. Akademik H. Rahmonqulov buzilgan huquqlarni himoya qilishda eng maqbul usul delikt instituti ekanligini ta’kidlaydi[1].

Sivilist olimlar esa delikt majburiyat instituti qadimgi Rim huquqi manbalariga borib taqalishini va bu institut (delits unerlaubte Handlungen, torts) majburiyatlar turining eng qadimgisi ekanligini aytadilar[2]. «Delikt» – lotincha «deliktum» so‘zidan olingan bo‘lib, «buzish», «ayb» kabi ma’nolarni anglatadi[3]. Biroq «delikt» atamasi sivilistik adabiyotlarda keng qo‘llanilsa-da, milliy qonunchiligimizda bu ibora umuman ishlatilmaydi. Ammo, ayrim MDH davlatlarining fuqarolik qonunchiligida bu iborani uchratish mumkin, masalan Ozarboyjon Respublikasi Fuqarolik kodeksining 59-bobi «Fuqaroviy huquqbuzarlik (deliktlar)», Moldova Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1398-moddasi «Delikt javobgarlikning umumiy asoslari va shartlari», – deb nomlanadi.

Delikt majburiyatlar sivilistika fanining qadimgi Rim huquqidan boshlab hozirgi kungacha bahs-munozaraga sabab bo‘lib kelayotgan eng muhim institutlaridan biridir. Yuridik adabiyotlarda bu institutni sivilistlar «zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar», «delikt

---

[1] *Раҳмонқулов Ҳ.* Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). –Т., 2005. – Б.110.

[2] Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. II қисм. Ҳ.Раҳмонқулов ва И.Зокировларнинг умумий таҳрири остида. – Т. 1999. – Б. 547.

[3] Ba’zi lug‘atlarda ushbu termin huquqbuzarlik deb tarjima qilingan, jumladan, Юридик энциклопедия. – Т,. 2001. – Б. 111.; Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Р.А.Муҳиддинов ва бошқ.; масъул муҳаррир Н.Тойчиев. – Т., 2009. – Б. 130.; Англо-русский словарь : 53000 слов. 20-е изд., стереотип. – М., 1985. – С. 194.

majburiyatlar», «huquqbuzarlikdan kelib chiqadigan majburiyatlar», «shartnomasiz majburiyatlar», «nojoiz (man etilgan) harakatlardan kelib chiqqan majburiyatlar», deb ham ataydilar.

Milliy qonunchiligimizda delikt instituti «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar» deb nomlanadi. Shunga ko‘ra, «Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar»ni delikt majburiyatlar deb atash ham mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat tushunchasiga fuqarolik qonunchiligida ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, FKning 985-moddasi mazmuniga ko‘ra, bu tushunchaga «g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi»ni anglatadi deyish mumkin. Boshqacha aytganda, bu majburiyatlar shartnomaviy munosabatlardan tashqari, shaxsga yoki mol-mulkka g‘ayriqonuniy xatti-harakat natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga qaratilgandir.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning hayoti va sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan shaxs yetkazilgan zarar to‘liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi huquqiga ega bo‘ladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Mazkur majburiyat vujudga kelishi uchun asos bo‘ladigan qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan yuridik faktlar – zarar yetkazish fakti, delikt hisoblanadi. Biroq, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o‘z mazmunida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham qonun delikt majburiyatlarini vujudga kelish asoslari va shartlari bilan birga zarar uchun javobgarlik asoslari va shartlari masalasini ham hal qiladi. Boshqacha aytganda, delikt majburiyatlarining vujudga kelish shartlari va yetkazilgan zarar uchun javobgarlik shartlari bir-biriga mos keladi.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini belgilashda qonun umumiy tamoyillarga tayanadi. Yuridik adabiyotlarda bu tamoyil «*bosh delikt tamoyili*» – deb yuritiladi. *Bosh delikt tamoyiliga* ko‘ra, bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning mavjudligiyoq, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatining g‘ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi hamda zarar

yetkazuvchiga nisbatan «aybdorlik» prezumpsiyasi qo‘llaniladi. Zarar yetkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor – deb «hisoblanadi». Boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda fuqarolik huquqida «ayb» mavjud bo‘lmagan holatlarda ham javobgarlik vujudga keladi va bu holat delikt majburiyatlarda ko‘proq uchraydi.

Delikt majburiyatlarda zararning kutilmagan hodisa va tasodiflar oqibatida vujudga kelishi bois, uning kelib chiqishini har doim ham oldindan aniq aytib (bashorat qilib) bo‘lmaydi. Bu esa har qanday davrda kutilmagan zararlardan himoyalanish zarur va dolzarbligini anglatadi. Ayniqsa, ayni kunda zararlarning kelib chiqishi o‘zgacha bir tus olmoqdaki, shaxslar (fuqaro, yuridik shaxs, davlat)ga zararlar tabiat hodisalaridan ko‘ra ko‘proq g‘ayriqonuniy harakatlar oqibatida yetkazilmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati jarayonida ularning sog‘lig‘i yoki hayotiga kutilmagan zarar yetish xavfi vujudga kelishi va bu yetkazilgan zararni qoplash tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hamda harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarni, oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish maqsadida 1994-yilning 1– yanvaridan boshlab harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning xizmatni o‘tash davrida halok bo‘lish (vafot etish), jarohatlanish (kontuziya), kasallanish hodisalaridan majburiy sug‘urtasi joriy etilgan.

Kundalik hayotimizda zararlar turli tasodiflar, ehtiyotsizliklar, qasd orqali, tabiiy ofatlar, g‘ayriqonuniy harakatlar natijasida vujudga kelishi kuzatilmoqda. Shunday holatda yetkazilgan zarar kim tomonidan to‘lanishi (zarar yetkazgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxs tomonidan) masalasi yuzaga keladi. Hozirgi vaqtda yuridik va jismoniy shaxslar kutilmagan zararlardan himoyalanish maqsadida sug‘urta xizmatidan foydalanishga harakat qilmoqdalar[1]. Ammo har doim ham sug‘urta xizmatidan vaqtida foydalanishning iloji bo‘lavermaydi. Ta’kidlash joizki, sug‘urta tovoni har doim ham yetkazilgan zararni to‘la qoplay olmaydi. Shu sababli, yetkazilgan zararni yagona huquqiy institut

[1] 2008-yildan boshlab mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish joriy etilganligini keltirish mumkin.

yordamida tartibga solishning iloji yo‘q. Bu borada kengroq faoliyat ko‘rsatish uchun bir qancha institutlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ulardan eng salmoqlisi delikt yoki zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlardir.

So‘nggi yillarda atrof-muhitni ifloslantirish, ishlab chiqaruvchining sifatsiz va zararli mahsulot yetkazib berishi, shifokorlarning noto‘g‘ri davolashlari natijasida kelib chiqqan da’volar soni ortib bormoqda. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning ahamiyati ortib borayotganini davlatlarning fuqarolik qonunchiligida delikt majburiyatlarga katta e’tibor berilayotganida ham ko‘rish mumkin. Delikt majburiyatlarni tartibga solish boshqa davlat fuqarolik qonunlarida va boshqa alohida qonunlarda o‘z aksini topgan. Masalan: Shveysariyada delikt majburiyatlar «Majburiyatlar to‘g‘risidagi qonun» va boshqa (atom energiyasidan foydalanish, transport vositalarini ekspluatatsiya qilish va hokazolar to‘g‘risidagi) maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Angliya va AKSHda sud pretsedentlari muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham Fuqarolik Kodeksidan tashqari «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan qaror va xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi va boshqa qonun hujjatlarida barcha xavf-xatar va zararlar to‘g‘risida har bir shaxsning sudga murojaat etishi mumkinligi mustahkamlangan.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, huquqshunos olimlar bu xususda bir xil fikr bildiradilar. Jumladan, Yu.K.Tolstoy bu belgilarni quyidagicha ko‘rsatadi:

a) bu majburiyatlarning ta’sir doirasi – zararni qoplash moddiy xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi;

b) ular mutlaq xarakterga ega bo‘lgan mulkiy huquqlar (mulk huquqi, umrbod egalik qilish huquqi, xo‘jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi va boshqalar) yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi;

d) garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan shaxs tomonidan buzilgan bo‘lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli sharnomasiz xarakterga ega bo‘ladi;

e) bu majburiyatlar zararning kim tomonidan kimga yetkazilgani, zarar qay shaklda yetkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'i nazar, to‘liq qoplanishi nazarda tutiladi;

f) qonunda nazarda tutilgan hollarda zararni to‘lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin.

Zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatga binoan jabrlangan shaxs yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxsdan o‘zining avvalgi holati tiklanishini yoki ko‘rgan zararining qoplanishini talab qila oladi.

Mazkur majburiyat subyektlari bo‘lib zarar ko‘rgan (jabrlanuvchi) va zarar yetkazuvchi (delikvent) yoki yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Bunday subyektlar sifatida fuqarolar ham, tashkilotlar ham bo‘lishi mumkin. Jabrlangan, ya'ni zarar ko‘rgan shaxs kreditor sifatida, zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs qarzdor sifatida harakat qiladi. Qonunda zararni to‘lash majburiyati zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin (FK 985-m. 2-q.). Bu holda uchinchi shaxsga nisbatan da'vo qo‘zg‘atish bilan zararni undirib olish mumkin.

Fuqarolik huquqining umumiy qoidasiga ko‘ra yetkazilgan zararni qoplash uni yetkazgan shaxs (delikvent) tomonidan amalga oshiriladi va u fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortiladi. Ammo, fuqarolik huquqida har doim ham zarar yetkazuvchi va zarar uchun javobgar shaxs bir shaxs bo‘lavermaydi yoki amaliyotda shunday ham bo‘ladiki, bir shaxs boshqa shaxslarning harakatlari uchun javobgar bo‘ladi. Ayni paytda fuqarolik huquqida yetkazilgan zarar majburiyati uchinchi shaxslar zimmasiga yuklatilishi hamda ular fuqarolik-huquqiy javobgar bo‘lishlari mumkin bo‘lgan holatlar ham mavjuddir.

Bir shaxsning g‘ayriqonuniy aybli harakati tufayli yetkazilgan zarar delikvent tomonidan emas, boshqa shaxslar tomonidan qoplanishi holatlari, zararni qoplash tartibi va qoidalari fuqarolik qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Uchinchi shaxsning aybi uchun javobgarlik jumlasiga «Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi» (FKning 989-m.), «Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik» (FKning 990-m.), «Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik» (FK 991-m.), «O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik» (FKning 993-m.), «Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan

yetkazilgan zarar uchun javobgarlik» (FKning 996-m.) kabi deliktning alohida turlarini keltirish mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatning *mazmunini* jabrlangan shaxsning avvalgi holati tiklanishini yoki ko‘rgan zararlarning to‘lanishini talab qilishga bo‘lgan *huquqi* va yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsning mazkur harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan *burchi* tashkil etadi.

Yetkazilgan zarar tufayli kelib chiqadigan majburiyatlar huquqi instituti ikki turdagi vazifani: *birinchidan*, avvalgi holatni tiklash yoki zararni qoplash vazifasini, *ikkinchidan*, tarbiyaviy funksiyani, ya’ni qonunga xilof xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini bajaradi.

Mazkur institutning avvalgi holatni tiklash vazifasi shundaki, u g‘ayriqonuniy xatti-harakat natijasida vujudga kelgan salbiy mulkiy oqibatlarni tugatishga, chunonchi, sog‘liqni tiklashga, nobud qilingan ashyo o‘rniga yangi ashyo olishga yoki zararlangan ashyoni tuzatishga imkon beradi.

Bu institut *tarbiyaviy* funksiyasiga ko‘ra, yetkazilgan zararni undirish imkonini berish bilan qonunchilikka rioya qilish, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, ijtimoiy va xususiy mulkka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini amalga oshiradi. Shuningdek, delikt instituti jamiyatda fuqarolarning g‘ayriqonuniy harakatlarni qilmaslikni, qonunchilikka rioya qilishni, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi hamda jamiyatda turli huqubuzarliklarni oldini olishga xizmat qiladi, shuningdek jamiyat a’zolaridan huquqbuzarlikka moyil shaxslarning «yetkazilgan zarar qoplanishi muqarar» ekanligini tushungan holda turli huquqbuzarliklar sodir etilishini oldi olinishiga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatlari bilan delikt institut bajaradigan vazifa profilaktik xususiyatga ega va uning tarbiyaviy ahamiyati kattadir.

Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar.

Odatda, bir shaxs foydasiga mol-mulkni, mulkiy huquqni berishda yoki uni uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilishda ma’lum bir huquqiy asoslar bo‘lishi lozim.

Ba’zida qonuniy yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo‘lmay turib, o‘zgalarning mulkini olish yoki tejash hollari uchrab turadi. Bunga bir mahsulot uchun ikki marta haq to‘lash, asossiz mol-mulkni tejab qolish kabilarni misol keltirish mumkin.

Bu majburiyatlar to‘g‘risida Fuqarolik kodeksining 1023-1030-moddalarida asosiy tushunchalar berilgan. Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati to‘g‘risida qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo‘lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolingan mol-mulkni (asossiz egallab olgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart ekanligi qayd etilgan.

Asossiz orttirilgan yoki tejab qolingan boylik bo‘yicha majburiyatlarning elementlari boshqa fuqarolik-huquqiy munosabat-laridek, majburiyat subyektlari, majburiyat predmeti mazmunidan iborat. Majburiyat subyekti bo‘lib, asossiz orttirilgan yoki tejab qolingan mol-mulkni qo‘lga kiritgan qarzdor va bu mulkni talab qilish huquqiga ega bo‘lgan haqiqiy mulkdor (kreditor) bo‘lishi mumkin. Bunda qarzdor va kreditor bo‘lib fuqarolar, jumladan, muomalaga layoqatsiz shaxslar ham, huquq subyekti xarakteridan qat’i nazar, yuridik shaxs ham bo‘lishi mumkin. Asossiz orttirilgan yoki tejab qolingan boylik majburiyatlarining obyekti bo‘lib, asossiz boylik orttirgan shaxsning asossiz orttirilgan yoki tejab qolingan boylikni kreditorga qaytarishi bo‘yicha qiladigan harakatlari hisoblanadi. Asossiz orttirilgan boylikni talab qiluvchi kreditor bo‘lmagan hollarda mulk davlat budjetiga yoki qonunga muvofiq tegishli muassasaga o‘tkaziladi. Bunga misol qilib, pora tariqasida berilgan mulk yoki pulni keltirish mumkin.

Bunday majburiyatlarning mazmuni jabrlanuvchining asossiz ort-tirilgan boylikni asl holda yoki pul summasida asossiz boylik orttirgan shaxsdan talab qilish huquqi va o‘z navbatida, qarzdorning asossiz orttirgan boylikni jabrlanuvchiga qaytarish majburiyatidan iborat.

Qonun talabidan ko‘rinib turibdiki, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati vujudga kelishi uchun, *birinchidan*, bir shaxs ikkinchi shaxs hisobiga asossiz boylik orttirishi, *ikkinchidan*, bunday boylik orttirishga hech qanday asos bo‘lmasligi shart, *uchinchidan*, mulk, ko‘p hollarda yanglishish, xatolik bilan olinadi yoki tejaladi.

Ammo ba’zi hollarda mulkning yanglishmasdan, atayin qasddan asossiz olinishi hollari ro‘y berishi mumkin. G‘ayriqonuniy yoki davlat manfaatlariga zid qilingan xatti-harakatlar tufayli o‘zgalar hisobiga asossiz boylik orttirgan shaxs asossiz olingan mulkni qonunda nazarda tutilgan hollardan boshqa holatlarda davlat daromadiga o‘tkazishi lozim, ya’ni haqiqiy bo‘lmagan bitimlar tuzish yo‘li bilan olingan asossiz boyliklar musodara qilinadi. Asossiz, o‘zgalar hisobiga orttirilgan boylik mansabdor shaxs foydasiga undirib berilmaydi, balki davlat daromadiga

o‘tkaziladi. Egasiz mulk deb topilgan ashyo, qarovsiz qolgan hisoblanib, bunday mulk ham davlat egaligiga o‘tkaziladi. Agar shunday tarzda asossiz olingan pullar yoki boshqa ashyolar asl holida topilmasa, asossiz olingan summalar yoki narsalarning qiymati uni oluvchi shaxsdan davlat daromadiga undiriladi.

Bunday majburiyatning vujudga kelishiga yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, asossiz boylik orttirish dalilining o‘zi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday dalil sifatida qonunda nazarda tutilgan yoki nazarda tutilmagan holatlarni keltirish mumkin. Masalan, boylik orttiruvchining, jabrlanuvchining yoki uchinchi shaxslarning qonun yo‘l qo‘ygan va yo‘l qo‘ymagan harakatlarini, tabiat hodisalarini, hayvonlarning harakatlari yoki boshqa holatlarni keltirish mumkin.

Asossiz orttirilgan boylik deb tushunish uchun uni qo‘lga kirituvchining harakatlarini ham, bunday majburiyatlarni vujudga keltirgan yuridik dalillarni ham emas, balki mulkni qo‘lga kiritish yoki tejashning qonun yoki shartnomada belgilangan asoslari mavjud emasligini keltirish joizdir. Asossiz boylik orttirishga har doim ham boylik orttirgan shaxsning huquqqa xilof harakatlari deb qarash mumkin emas. Aks holda, asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga singib ketardi.

Agar asossiz orttirilgan boylik yoki tejalgan mulkni jabrlanuvchiga qaytarish imkoniyati bo‘lmagan hollarda unga bu boylikni qo‘lga kiritish vaqtidagi qiymati to‘lanadi. Qonun asossiz qo‘lga kiritilgan boylikning asl holida qaytarilishini shart qilib qo‘ysa ham, lekin uni qaytarish vaqtigacha tasodifiy ravishda shikastlangan, yomonlashgan, nobud bo‘lgan mol-mulk o‘rniga jabrlanuvchiga xuddi shunday qiymatga ega bo‘lgan boshqa mol-mulkni qaytarishga yo‘l qo‘yadi.

Asossiz boylik yoki mulkni qo‘lga kirituvchi ularning asossiz qo‘lga kiritganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan paytdan boshlab, har qanday yetishmovchiligi yoki yomonlashuvi uchun javobgar bo‘ladi. Agar mol-mulk bundan ilgariroq shikastlansa yoki nobud bo‘lsa, u holda uning qasdi va qo‘pol ehtiyotsizligi bunga sabab bo‘lsagina javobgardir.

Asossiz boylik orttirish mulkiy huquqlarni qo‘lga kiritish shaklida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Mulkiy huquqlarni tiklash to‘g‘risidagi talab jabrlanuvchi talabining mazmunini tashkil etadi.

O‘ziga tegishli huquqni talabnomadan voz kechish yo‘li bilan yoki boshqacha

Mol-mulkni asossiz olgan yoki tejab qolgan shaxs boylikning asossiz orttirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan vaqtdan boshlab ana shu

mol-mulkdan chiqarib olgan yoki chiqarib olishi lozim bo‘lgan barcha daromadlarini jabrlanuvchiga qaytarishi yoki to‘lashi shart.

Asossiz orttirilgan pul summasini qo‘lga kirituvchi pul mablag‘larini olish yoki tejab qolishning asossizligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan vaqtdan boshlab, o‘zganing mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlar hisoblanishi lozim.

Ko‘p hollarda asossiz orttirilgan predmetni tashkil qiluvchi mulkni ishlatish yoki undan foydalanish jarayonida ular ma’lum bir xarajatlarni talab qiladi. Masalan, ashyolarni saqlash va ta’mirlash, hayvonlarni saqlab turish va asrash zarur bo‘ladi. Shuning uchun qonunga muvofiq saqlab turuvchiga uning tomonidan qilingan xarajatlarni jabrlanuvchidan talab qilish huquqi beriladi. Asossiz olingan yoki tejab qolingan mol-mulkni qaytarilganida yoxud uning qiymati to‘langanida qo‘lga kirituvchi daromadlarni qaytarishi shart bo‘lgan vaqtdan boshlab, mol-mulkni saqlab turish va asrash uchun qilingan zarur xarajatlarni, o‘zi olgan nafni e’tiborga olgan holda to‘lashni jabrlanuvchidan talab qilishga haqli. Qo‘lga kirituvchi qaytarishi lozim bo‘lgan mol-mulkni bila turib bermay turgan hollarda xarajatlarni undirish huquqi yo‘qoladi. Asossiz qo‘lga kiritilgan mulk o‘z navbatida, qo‘lga kirituvchiga tabiiy holda daromad keltirishi mumkin. Olingan foyda uning mohiyatidan va ahamiyatidan kelib chiqib, jabrlanuvchiga qaytarilishi lozim.

Quyidagilar asossiz orttirilgan boylik sifatida qaytarib berilmaydi:

– ijro muddati to‘lgunga qadar majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk, agar majburiyatda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa;

– da’vo muddati o‘tgandan keyin majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, hayot va sog‘liqqa yetkazilgan zarar tovoni, alimentlar va fuqaroga turmush kechirish vositasi sifatida berilgan boshqa pul mablag‘lari uning tomonidan vijdonsizlik qilinmaganda va hisob-kitobda xatolar bo‘lmaganda;

– mavjud bo‘lmagan majburiyatni bajarish uchun berilgan pul summalari va boshqa mol-mulk, agar qo‘lga kirituvchi mol-mulkni qaytarishni talab qilayotgan shaxsning majburiyati yo‘qligini bilganligi yoxud mol-mulkni xayriya maqsadlarida berganligini isbotlasa (FK 1030-m.).

2. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari

Ma’lumki, jamiyat hayotida demokratiyaning eng muhim sharti qonun ustuvorligidir. Uning mohiyati shuki, «asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo‘ladi»[1].

Dunyoning rivojlangan davlatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham har qanday huquqbuzarlik uchun o‘z vaqtida, adolatli javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmi to‘liq shakllantirilgan. Yuridik javobgarliklar huquqbuzarliklarning holati va turiga ko‘ra fuqaro, yuridik shaxs, hatto davlatga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Hozirgi zamon huquqshunosligida yuridik javobgarlikning qat’iy belgilangan turlari mavjud bo‘lmasa-da, jinoiy, ma’muriy, fuqaroviy, intizomiy va moddiy javobgarlik kabi ommalashgan turlari mavjud.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik faqat fuqarolik huquqbuzarlik sodir etilganda belgilanadi va huquqbuzarga ko‘p hollarda mulkiy xarakter tartibida qo‘llaniladi. I. Zokirov ta’kidlaganidek, «fuqarolik-huquqiy javobgarlikning o‘ziga xos xususiyati ham unda sanksiya huquqbuzarning shaxsiga emas, mulkiga qaratilishidir»[2]. Uning mohiyati esa fuqaroviy huquqbuzarga o‘zining huquqqa xilof harakati uchun salbiy mulkiy oqibat vujudga keltirishi bilan ifodalanadi.

Fuqarolik qonunchiligida fuqarolik huquqbuzarliklarning ko‘pgina turlari hisobga olinganiga qaramay, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yuzaga kelishining umumiy va maxsus (nisbiy va mutlaq) shartlari mavjud. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni yuklashning zaruriy shartlari yig‘indisi fuqarolik huquqbuzarlikning tarkibini tashkil etadi. Bu shartlar quyidagilardan iborat:

1) qarzdorning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari;

2) ziyonning (zararning) mavjudligi;

3) g‘ayriqonuniy xatti-harakat bilan vujudga kelgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish;

4) huquqbuzar aybining mavjudligi.

1. Fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini buzuvchining *g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari* – fuqarolik huquqi bo‘yicha

---

[1] Ќаранг: *Каримов И.А*. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б. 321.

[2] *Зокиров И.Б.* Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. – Т., 2009. – Б. 23.

javobgarlikning zaruriy shartidir. G‘ayriqonuniy degan so‘zning ma’nosi huquq normalarini buzuvchi xatti-harakatni anglatadi. Fuqarolik huquqiga binoan harakat ham, harakatsizlik ham g‘ayriqonuniy bo‘lishi mumkin.

Shaxs qonun yoki shartnomaga binoan muayyan harakatni bajarishi shart bo‘lgan, biroq bu harakat bajarilmagan bo‘lsa, bunday harakatsizlik g‘ayriqonuniy deb e’tirof etiladi. Muayyan harakatni sodir etish majburiyati qonundan kelib chiqadi. Masalan, ichki ishlar idoralariga «02» raqami orqali jinoyat yoki huquqbuzarlik haqida xabar berilganda belgilangan vaqtda voqea joyiga yetib kelishlari shart. Ichki ishlar organlari xodimlarining voqea joyiga kelmasliklari «*g‘ayriqonuniy harakatsizlik*» hisoblanadi va tegishli tartibda mansabdor shaxslarning javobgarligiga asos bo‘ladi. Yoki tez tibbiy yordamga muhtoj bemorga mutaxassis shifokorning tibbiy yordam ko‘rsatmasligi ham «*g‘ayriqonuniy harakatsizlik*» sifatida baholanadi. Yoxud yordamga muhtoj kishiga, ya’ni cho‘kayotgan odamga yordam ko‘rsatmasdan beparvo o‘tib ketish ham «*g‘ayriqonuniy harakatsizlik*» hisoblanib qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bunday holatlar ko‘p bo‘lib, biz ayrimlarinigina misol tariqasida keltirdik.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik-huquqiy munosabat-larining har qanday sohasida yuqorida keltirilgan qoidalarni hisobga olgan holda qilgan harakatlariga nisbatan qonuniy, ularni buzib qilgan harakatlariga nisbatan esa qonunga xilof xatti-harakat sifatida qarash mumkin.

2. Delikt javobgarlik vujudga kelishining muhim shartlaridan biri «*zararning mavjudligi*»dir. Zero, fuqarolik huquqbuzarlik hisoblanishi uchun boshqa hamma shartlar mavjud bo‘lsa-da zarar yetkazilmagan bo‘lsa delikt javobgarlik haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas (shartnomaviy javobgarlik bundan istisno).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida zarar tushunchasiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra «zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi».

Mazkur modda mazmuniga ko‘ra zararni uch tarkibiy qismga ajratish mumkin:

– haqiqiy zarar, ya’ni jabrlanuvchiga yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan real zarar;

– zararni tiklash uchun qilgan xarajatlar, ya’ni jabrlanuvchi buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan barcha xarajatlari, masalan sud orqali tiklagan bo‘lsa sud chiqimlari ham kiradi;

– boy berilgan foyda, ya’ni jabrlanuvchi zarar ko‘rmaganda olishi mumkin bo‘lgan, lekin zarar yetkazilganligi uchun ololmay qolgan daromadlari kiradi.

– FKning 14-modda 2-qismida «agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo‘lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanishini talab qilishga haqli» degan qoida belgilab qo‘yilgan.

Bu o‘rinda zararni ma’naviy zarar va moddiy ziyon shaklida ekanligini ham ta’kidlash o‘rinlidir.

3. *Sababiy bog‘lanish* – tabiat va jamiyatdagi hodisalar o‘zaro aloqasining jihatlaridan biridir. Biroq u shaxsning xatti-harakatiga va bu xatti-harakat oqibatida yuzaga kelgan natijaga tegishli ijtimoiy baho berilgandagina, ya’ni bunday aloqa tabiiy tusga ega bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy tusga ega bo‘lganidagina yuridik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Huquq fani va amaliyoti odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar bilan aloqadordir. Sababiy bog‘lanishlarning jamiyatdagi o‘ziga xosligi shundaki, bunda sabab sifatida doimo muayyan faoliyat, odamlarning xatti-harakatlari namoyon bo‘ladi.

Huquqni tatbiq etish amaliyotida odamlarning fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan faoliyatiga duch kelinadi. Huquqbuzarlikka ko‘pincha ongli ravishda, atayin yo‘l qo‘yiladi. Shuning uchun ko‘p hollarda sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi masalani hal etishda nafaqat sababiy bog‘lanishlarning obyektiv xarakterini, balki huquqbuzarning ongli faoliyatini ham hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Huquq sohasida duch kelinadigan sababiy bog‘lanishlarning bir qator jiddiy xos xususiyatlari mavjud bo‘lishiga qaramay ular umumiy xususiyatlarga ega bo‘ladi: sabab muayyan natijani keltirib chiqaradi, ya’ni huquqbuzarlik zararlar yoki ziyon yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Demak, yetkazilgan zararda huquqbuzar harakatining sababiy bog‘liqligi mavjud bo‘lgandagina delikt javobgarlikni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda shaxsning xatti-harakati qanchalik g‘ayriqonuniy bo‘lmasin, yetkazilgan zarar bilan uning g‘ayriqonuniy harakati o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lmas ekan bunda uni javobgar deb bo‘lmaydi. Masalan, sigareta chekish taqiqlanadi belgisini ko‘rib turib o‘sha joyda

sigareta chekkan shaxsning harakati g‘ayriqonuniy hisoblanishi mumkin, lekin o‘sha vaqtning o‘zida boshqa sababga ko‘ra yong‘in chiqqanda sigareta chekib g‘ayriqonuniy harakat qilgan shaxsni yong‘in oqibatida yetkazilgan zararda aybdor deb bo‘lmaydi.

4. Ayb. O‘zbekiston Respublikasi FKning ikkita moddasida ayb fuqarolik-huquqiy javobgarligining shakli sifatida e’tirof etilgan. «Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari» deb nomlangan 333-moddada ayb mavjud bo‘lganda javobgarlik to‘g‘risidagi, xususan, qarzdorning javobgarligi va javobgarlikdan ozod qilish uchun xizmat qiladigan holatlar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar mustahkamlangan. «Kreditorning aybi» deb nomlangan 335-modda kreditorning aybdorlik darajasini hisobga olish to‘g‘risidagi va uni sud tomonidan javobgarlikdan ozod qilish shartlari haqidagi qoidalarga bag‘ishlangan.

Fuqarolik kodeksida aybga ta’rif berilmagan. FKning 333-moddasi aybni majburiyatni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiy asosi sifatida nazarda tutadi. Mazkur moddaning birinchi qismi qoidalarida o‘zining aybsizligini isbot qilish va shu orqali o‘zini javobgarlikdan ozod qilishni istayotgan qarzdorga nisbatan qat’iy talablar qo‘yiladi. Javobgarlikni yuklash vaqtida aybning qasd va ehtiyotsizlik tufayli kelib chiqadigan shakllarini hisobga olishda aybning yuqoridagi shakllari qarzdorning emas, balki faqatgina kreditorning huquq-buzarliklariga nisbatan qo‘llaniladi (FKning 333-moddasi). Har qanday holatda ham ayb javobgarlikning subyektiv sharti sifatida tavsiflanadi. Ayb huquqbuzarning qonun yoki shartnoma orqali o‘z zimmasiga qo‘yilgan majburiyatlarga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi.

Qarzdor majburiyat buzilganida faqat o‘zi tomonidan ayb mavjud bo‘lgani taqdirdagina javob beradi. Agar u majburiyatning buzilishida o‘z aybi yo‘qligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (FKning 333-moddasi 2-qismi).

Qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi (FKning 333-moddasi 1-qismi). Shunday qilib, fuqarolik-huquqiy javobgarligi yuzaga kelishining uqtirilgan uchta sharti – qarzdor *harakatlarining g‘ayriqonuniyligi*, *ziyon yetkazish* hamda g‘ayriqonuniy xatti-harakat bilan yuzaga kelgan zararlar o‘rtasidagi *sababiy bog‘lanishdan* tashqari – qoida tariqasida, to‘rtinchi shart – *qarzdorning aybi* mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Biroq, yuqorida

ta’kidlanganidek FKda ayb bo‘lmagan holatlarda ham javobgarlik belgilanishi mumkin va bu delikt majburiyatlarda ko‘proq uchraydi.

Ba’zi olimlar huquqbuzarga fuqarolik-huquqiy javobgarlikni yuklash uchun yuqorida sanab o‘tilgan «huquqbuzarlik tarkibi»ni tashkil etgan shartlar zarur deb qaraydi. Boshqa mutaxassislar esa ushbu konsepsiyaga tanqidiy yondashib, fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan jinoiy-huquqiy munosabatlarni taqqoslamaslik, asrlar davomida amal qilib kelinayotgan sivilistika an’anasini jinoyat huquqidagi jinoyat tarkibiga aralashtirmaslik, ayb fuqarolik huquqbuzarlik tarkibida bo‘lmagan holatlarda ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanishi mumkinligini, ammo jinoyat huquqida esa ayb javobgarlikka tortishning eng muhim sharti ekanligi, mabodo ayb bo‘lmasa, jinoiy javobgarlik ham bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. O. Oqyulov esa fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish asoslarining tarkibiy qismi sifatida «javobgarlik subyektining mavjud bo‘lishi»[1] lozimligini, ya’ni javobgar subyekt bo‘lmasa, javobgarlik ham mavjud emasligini aytadi.

Albatta, yuqoridagi har qaysi fikrlar o‘z huquqiy asosiga ega va ular fuqarolik-huquqiy javobgarlikning vujudga kelishini yuridik javobgarlikning umumiy qoidalariga asoslanib yoritgan. Garchi olimlarning fuqarolik huquqbuzarlik tarkibi to‘g‘risidagi fikrlari bahsli bo‘lsa-da, ammo bugun bu «tarkib» (komponent) ilmiy jihatdan qat’iy rad etilgan emas. Faqat, fuqarolik-huquqiy javobgarlikni vujudga keltiruvchi asoslar tahlil qilinganda, ushbu javobgarlikning shartnomali va delikt oqibatida vujudga kelishi e’tiborga olinishi shart. Chunki, shartnoma majburiyatini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik va delikt javobgarlik uchun fuqarolik huquqbuzarlikning tarkibi turlicha bo‘ladi. Bunda shartnomaviy javobgarlikda kreditorga zarar yetgazilganlik emas, shartnoma intizomi muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, delikt javobgarlikda esa zarar ahamiyatli bo‘lib, u mavjud bo‘lmasa javobgarlik ham vujudga kelmaydi. Zotan, O. Oqyulov uqtirganidek, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning har ikkala turi bo‘yicha tarkibiy qismlarni bir-biriga qiyoslagan holda ularning zaruriyligini mutlaq yoki nisbiy xarakteri bo‘yicha yagona konstruksiya, qolip (model)ga keltirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, huquqbuzarlikning umumiy tarkibini (g‘ayriqonuniy xatti-harakat, zarar, sababiy bog‘lanish va ayb) fuqarolik huquqida to‘liq qo‘llab bo‘lmaydi.

---

[1] Qarang: *Оқюлов О.* Фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарликни қўллаш асослари // Мустақил Ўзбекистон: ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. – Т., 1999. – № 6. – Б. 75–76.

Shu sabab ham shartnomali va delikt javobgarlikda ikki xil fuqarolik huquqbuzarlikning tarkibi mavjud bo‘ladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlikni belgilaydigan huquqiy normalar Fuqarolik kodeksining 985–1022-moddalari va boshqa maxsus huquqiy hujjatlarda ifodalangan.

Zarar yetkazganlik uchun vujudga keladigan majburiyatlarga oid qonun normalarini tatbiq etishda bunday munosabatlarni huquqning boshqa bir qancha institutlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan ajrata bilish lozim. Yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik masalasi ba’zi hollarda huquqning boshqa sohalariga oid normalar (masalan, mehnat huquqi) hamda Fuqarolik kodeksining 985-1022-moddalari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning alohida turlari quyidagilardan iborat:

1. Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi
2. Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
3. Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
4. Zararning o‘z javobgarligini sug‘urtalagan shaxs tomonidan to‘lanishi
5. O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
6. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
7. Ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onaning voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi
8. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
9. Muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
10. O‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
11. Tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug‘diradigan faoliyat tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik
12. Birgalikda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik

13. Uy hayvonlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik

Shuni alohida qayd etish lozimki, fuqarolik huquqida yuqorida ro‘yxati keltirilgan zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar «maxsus deliktlar» deb yuritiladi. Shunga ko‘ra ularning har biri uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi va shartlari o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Ma’naviy zarar va uni qoplash usullari

Umumiy qoidaga ko‘ra, fuqarolik huquqida zarar mulkiy va ma’naviy shakllarda bo‘ladi. Sobiq Ittifoq davridagi adabiyotlarda ma’naviy zararni moddiy shaklda qoplashga uzoq vaqtgacha salbiy munosabat bildirilgan edi. Buning sababi o‘sha davrlarda fuqarolarning nomulkiy huquqlari barcha narsalardan ustun, shuning uchun ham ularni pul ekvivalentida baholashning imkoniyati yo‘q, deb isbotlashga harakat qilingan. Masalan, o‘sha davrning huquqshunos olimi YE.A.Fleyshis «nomulkiy zararni mulkiy qoplash, ya’ni insonning hayotini, sog‘lig‘ini, qadr-qimmatini pul bilan o‘lchash, inson sha’ni yuqori hisoblangan sovet sotsialistik jamiyatiga yod tushunchadir»[1], deb yozgan edi. Sobiq Ittifoq qonunchiligi faqat mulkiy zararnigina tan olgan, chunki zararni qoplashda faqat mulkiy zararlar inobatga olingan. Xususan, M.M.Agarkov mulkiy zarar mulkiy huquqlarning buzilishi bilan bir qatorda, nomulkiy huquqlarning ham buzilishi oqibatida kelib chiqishini, agar zarar fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘i (nomulkiy huquqlari)ga yetkazilgan bo‘lsa, mulkiy zarar sifatida, masalan, mehnat haqi (boshqa daromadlar)ning yo‘qolishi, sog‘lig‘ini tiklash uchun qilgan xarajatlari (dori-darmon, davolanish va boshq.) qoplanishi kerakligini aytadi[2]. Ammo 60-yillarga kelib yuridik adabiyotlarda, ayniqsa, S.N.Bratus kabi olimlarning asarlarida ma’naviy zararni qoplash masalasiga atroflicha e’tibor qaratila boshlagan[3]. Uzoq tortishuvlardan so‘ng, sobiq Ittifoq qonunchiligida birinchi marta «ma’naviy zarar» tushunchasi «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi

---

[1] Ќаранг: *Флейшиц Е.А.* Обязательства из причинения вреда и неосновательного обогащения. – М., 1951. – С. 24.

[2] Ќаранг: *Агарков М.М.* Обязательство по советскому гражданскому праву. – М., 1940. – С. 140.

[3] Ќаранг: *Братусь С.Н.* Юридическая ответственность и законность. – М., 1976., – 368 с.; *Калмыков Ю.Х.* Имущественные права советских граждан. – Саратов, 1969. – С. 114; *Белякова А.М.* Имущественная ответственность за причинение вреда. – М., 1979. – С. 10; *Малеин Н.С.* Гражданский закон и права личности в СССР. – М., 1981. – С. 163 и след.

Qonunda, shuningdek 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonunining 32-moddasida qisman o‘z ifodasini topdi[1]. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martidan amalga kiritilgan Fuqarolik kodeksida ma’naviy zararni moddiy qoplash masalasi milliy qonunchiligimizda ilk marotaba to‘la-to‘kis ifodasini topdi va bu fuqarolik huquqiy jamiyat qurish yo‘lidagi harakatlardan biri bo‘ldi.

Hozirgacha «ma’naviy zarar» tushunchasiga yagona ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, unga umumiy ma’noda, ya’ni jabrlanuvchiga ma’naviy yoki jismoniy azob yetkazish ko‘rinishidagi nomulkiy zarar, degan qarash mavjud.

Ma’naviy zarar tushunchasiga Fuqarolik kodeksida ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi «Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 7-sonli Qarorida[2] «ma’naviy zarar deganda jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o‘tkazgan) ma’naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og‘riq, zarar ko‘rish, noqulaylik va boshqa) boshqa azoblar tushuniladi» – deya ta’rif berilgan.

Ma’naviy zarar insonning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan nomoddiy ne’matlariga putur yetish sifatida baholanar ekan, unda jabrlanuvchi subyekt ham faqat inson ekanligini ta’kidlash muhimdir.

Sivilistika fanida bugungi kungacha faqat fuqarolargina ma’naviy zarar ko‘rishlari mumkin, – degan qarash mavjud edi. Biroq keyingi vaqtlarda sivilistlar yuridik shaxslarning ham nomulkiy huquqlari bo‘ladi, ularga tajovuz qilinganda yuridik shaxs ham ma’naviy zarar ko‘radi, – degan fikrlarni ilgari surmoqda. Ammo bunday fikrlar hali qonunchilikka singdirilgan emas[3].

Fuqarolik huquqida ma’naviy zarar fuqaroning shaxsiy nomoddiy huquqlari (ne’matlari)ga yetkazilgan zarar oqibatida, shuningdek fuqarolarning mulkiy huquqlariga putur yetkazish tufayli ham vujudga kelishi mumkin. Biroq, sud amaliyotidan ma’lum bo‘lmoqdaki,

---

[1] Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 12-dekabr kunidagi 542-I-sonli qarori bilan o‘z kuchini yo‘qotgan.

[2] Mazkur Qarorga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.2003-y. 20-son Qaroriga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan

[3] *Ḱўлдашев Н.А.* Ички ишлар органлари томонидан етказилган зарарни қоплашнинг фуқаролик-ҳуқуқий масалалари. Юрид.фан.ном. ... дис. –Т. 2011. – Б. 70.

ko‘rilayotgan fuqaroviy da’volarning aksariyati mulkiy huquqlarga ziyon yetkazilishi natijasida vujudga kelgan ma’naviy zararlarni undirish to‘g‘risida bo‘lib, nomoddiy huquqlarning buzilishi oqibatida yetkazilgan ma’naviy zararlarni undirish to‘g‘risidagi da’volar juda kam uchraydigan holat ekan.

Z. Esanova ta’kidlaganidek, «fuqaroviy da’volar asosan mulkiy jinoyatlar orqasida fuqarolar va davlatga yetkazilgan zararni undirish, iqtisodiy jinoyatlar orqasida davlatga yetkazilgan zararni undirish va qoplash maqsadida sudlarga beriladi. Sudlarda bunday hollarda nafaqat mulkiy ziyon, balki fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni undirish masalasi ham ko‘tariladi. Fuqarolik kodeksi normalariga ko‘ra, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga da’vo muddati qo‘llanilmaydi va bunday hollarda fuqaroviy da’vogar (jabrlanuvchi) davlat boji to‘lashdan ozod etiladi. Ish keyinchalik fuqarolik sudlarida ko‘rilganida jinoyat ishi bo‘yicha chiqarilgan hukm isbot talab qilmaydigan dalil sifatida ishga qo‘shiladi»[1].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, «ma’naviy zararni qoplash» tushunchasi rivojlangan davlatlarning fuqarolik qonunchiligida birinchi bo‘lib, Angliyada paydo bo‘lgan[2]. Keyinchalik esa, Fransiya, Italiya, Avstriya, Shveysariya, Yaponiya, Germaniya davlatlarining fuqarolik qonunchiligiga kiritilgan. Chunonchi, birgina Fransiya fuqarolik kodeksiga 1970-yilda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishga doir modda kiritilgan edi. Va mazkur moddada ushbu huquqlar qatori «ma’naviy zarar» (*«dommaqe mogal»*) tushunchasi ham o‘z aksini topgan edi. Shu o‘rinda aytish joizki, «ma’naviy zarar» tushunchasi AQSH fuqarolik qonunchiligida «psixik (ruhiy) zarar» ma’nosida qo‘llaniladi va u turli shakllarga ega. Masalan: «*psichological injugy*» (psixik zarar), «*psichiatgic injugy*» (psixiatrik zarar), «*negvous shock*» (ruhiy buzilish), «*ogdinagu shock*» (oddiy buzilish) kabilar shular jumlasidan.

O‘zbekistonda esa musulmon huquqining asosiy manbalari – Qur’oni karim, «Muxtasar» va «Hidoya»da ham hozirgi huquq tizimida qo‘llanuvchi «ma’naviy zarar» tushunchasini eslatuvchi ba’zi qoidalar uchraydi, keng ma’noda esa, ma’naviy zarar haqida «Temur tuzuklari»da ham uchratish mumkin.

---

[1] *Эсанова З.Н.* Суд процессида фуқаровий даъво // Фуқаролик қонунчилигини ривожланиши ва долзарб муаммолари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конф. мат. – Т., 2005. – Б. 448.

[2] *Беляцкин С. А.* Возмещение морального (имущественного) вреда. – М., 1996. – С. 76.

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat ma’naviy zararni qoplashda javobgar bo‘lishi mumkin. Masalan, yuridik shaxslar jismoniy shaxslarga yetkazgan zarar uchun, chunonchi, sifatsiz mahsulot iste’mol qilish oqibatida fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar natijasida boshqa xarajatlar bilan birga, ma’naviy zararni ham qoplaydi. Ma’naviy zarar jabrlanuvchiga uning hayotligidagina to‘lanadi. Masalan, agar shaxs zarar yetkazilishi natijasida vafot etsa, ma’naviy zarar qoplanmaydi, chunki ruhiy iztiroblarni, azob-uqubatni faqat zarar yetkazilgan shaxs his etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1021-moddasiga binoan, ma’naviy zarar uni yetkazuvchining aybi bo‘lgan taqdirda, zarar yetkazuvchi tomonidan qoplanadi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ya’ni, ma’naviy zarar uni yetkazuvchining aybidan qat’i nazar, *quyidagi hollarda qoplanadi,* agar:

– zarar fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan bo‘lsa;

– zarar fuqaroga uni qonunga xilof tarzda hukm qilish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo‘lish haqida tilxat olishni qonunga xilof tarzda qo‘llanish, qonunga xilof tarzda ma’muriy jazo qo‘llanish va qonunga xilof tarzda ushlab turish natijasida yetkazilgan bo‘lsa;

– zarar or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘-e’tiborini haqoratlovchi ma’lumotlarni tarqatish tufayli yetkazilgan bo‘lsa;

– qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ma’naviy zarar bo‘yicha javobgarlik shartnomaga asoslanmagan, ya’ni huquqbuzarlik bilan bog‘liq delikt tarzga ega bo‘lgan javobgarlikdan iborat. Shuning uchun ham bunday javobgarlikka oid qoidalar, ularning xususiyatlari hisobga olingan holda alohida paragrafda berildi va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar sifatida Fuqarolik kodeksining 57-bobiga kiritildi.

Fuqarolik kodeksining 1021-moddasida ma’naviy zararni qoplash fuqarolik huquqini himoya qilish usullaridan iborat ekanligi tan olindi. Buning isboti uchun ushbu moddani keng doirada ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unga ko‘ra fuqarolik huquqlari *quyidagi yo‘llar bilan himoya qilinadi:*

– huquqni tan olish;

– huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;

– bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;

– davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish hujjatini haqiqiy emas deb topish;

– shaxsning o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi;

– burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

– zararni to‘lash;

– ma’naviy ziyonni qoplash;

– huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o‘zgartirish;

– davlat organining yoki fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qonunga zid hujjatlarini sudning qo‘llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin. Fuqarolik kodeksining «Sha’n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini himoya qilish» nomli 100-moddasida qanday hollarda ma’naviy zararni qoplash mumkinligi aniq ko‘rsatilgan. Bunga ko‘ra, fuqaro o‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma’lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo‘li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Manfaatdor shaxslarning talabiga ko‘ra fuqaroning sha’ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo‘l qo‘yiladi. Vaholanki, fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Basharti, bunday ma’lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chiqarib olinishi kerak.

Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, fuqaro ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma’lumotlar e’lon qilinganda, u ayni o‘sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o‘zini himoya qilish huquqiga ega. Basharti, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani to‘lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

O‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma’lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zarar va ma’naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

Fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya qilishga ham tegishli asosda tatbiq etiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan hollardan ko‘rinib turibdiki, ma’naviy zararni qoplash fuqaroning shaxsiy nomoddiy huquqlariga yetkazilgan zarar uchun qo‘llaniladi.

Ta’kidlash kerakki, ma’naviy zarar uchun javobgarlik aybli bo‘lish tamoyiliga asoslanadi. Zarar yetkazishda ayblanuvchi shaxs bunday zararni yetkazishda o‘zining aybi yo‘qligini isbotlashi kerak, aks holda, aybdor deb hisoblanadi va ma’naviy zararni qoplashga majbur bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksi 1021-moddasining 1-qismiga binoan, agar fuqaroning sha’niga, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma’lumotlarni tarqatuvchi shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri ekanligini isbotlay olsa, ma’naviy zarar uchun javobgar bo‘lmaydi. Demak, javobgar bo‘lishi uchun ma’lumotlarni tarqatuvchining aybi bo‘lishi kerak. Lekin 1021-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ma’naviy zararni qoplash uchun zarar yetkazuvchining aybi borligi yoki yo‘qligi inobatga olinmaydi.

Ushbu moddada zarar yetkazuvchining aybidan qat’i nazar, ma’naviy zararni qoplash majburiyati qanday holllarda vujudga kelishi mumkinligi batafsil ko‘rsatiladi. Shu bilan birga «ma’naviy zararni qoplash qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda» ham yuz berishi nazarda tutiladi. Ushbu boshqa hollar sifatida ma’naviy zarar fuqaroning nafaqat uning shaxsiga, shuningdek uning mulkiy huquqiga putur yetkazish natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunga binoan, ma’naviy zarar mulkiy huquq buzilganda ham qoplanishi mumkinligi, ya’ni ma’naviy zarar uchun haq to‘lash mulkiy ziyon va iste’molchi ko‘rgan zararning o‘rni qoplanishidan qat’i nazar, amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir fuqaroga yetkazilgan ma’naviy zarar, uning kim bo‘lishidan qat’i nazar qonunga asosan to‘la-to‘kis qondiriladi.

Shaxsga yetkazilgan ma’naviy zarar miqdori sud tomonidan belgilanishi jarayonida turli xil xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlarida bu masalaga to‘xtab o‘tildi. Chunki sud tomonidan ma’naviy zarar miqdorini belgilashda, uning aniq o‘lchovi yoki miqdorini tegishli mutaxassislar tomonidan belgilashning amaliy imkoniyati yo‘qligi bois, sud o‘z faoliyatida ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Sud amaliyotida

ma’naviy zarar miqdorini aniqlash hozirgi kunda doimiy bahs-muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’naviy zarar jismoniy yoki ma’naviy jihatdan azoblanish oqibatida yuzaga keladi. Ma’naviy azoblarni xo‘rlanish, qo‘rquv vahimasi bosishi, dili og‘rishi kabi noxush kechinmalar jarayoni deb baholash mumkin.

Fuqarolik kodeksining 1021-moddasiga asosan, *ma’naviy zarar pul bilan qoplanadi*. Ma’naviy zararni qoplash uchun undiriladigan pul summasining miqdori jismoniy yoki ma’naviy azoblanishning xarakteriga mos, ya’ni to‘g‘ri proporsional bo‘lishi kerak. Binobarin, ma’naviy zararni qoplash miqdorini aniqlashda jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish asosli ravishda sud zimmasiga (FK 1022-m.) yuklangan.

Shu o‘rinda nazarimizda, ma’naviy zarar yetkazilgan jabrlanuvchiga qonunda holda ta’kidlash joizki, insonning obro‘sizlanishi, or-nomusining poymol etilishi, faol ijtimoiy hayotni davom ettirish imkoniyatining yo‘qolishi, oilaviy yoki shaxsiy sirining oshkor bo‘lishi, o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi, turar joy, turmush tarzining o‘zgarishi, oila qurish imkoniyatining yo‘qolishi, qaysidir huquqining vaqtincha cheklanishi yoki undan butunlay mahrum etilishi, sog‘lig‘ining buzilishi natijasida uning ruhiy ezilishi bilan bog‘liq ma’naviy zararni pul yoki boshqa moddiy manfaat tugul hech bir narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Qonun esa shaxsning sog‘lig‘iga putur yetganda uning uzoq vaqt azob tortganligi sababli ko‘rilgan zararni qoplash uchungina pul to‘lanishini nazarda tutadi va bu pul miqdorini jarblanuvchi shaxsan o‘zi belgilashi hamda u sud tomonidan undirib berilishi lozim.

Sud shaxsga yetkazilgan ma’naviy zarar uchun belgilangan pul miqdorini undirish to‘g‘risida ajrim chiqarish vaqtida, jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma’naviy azoblarning tasnifi, axloqiy azoblarning darajasi, ziyon yetkazilgan shaxs faoliyatining xususiyatlarini hamda huquqbuzarning aybi darajasi va boshqa e’tiborga molik holatlarni ham inobatga olishi lozim.

O‘z navbatida, ta’kidlash joizki, jismoniy va ma’naviy azoblarning xususiyati ma’naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanar ekan, to‘lanishi lozim bo‘lgan mulkiy ziyondan qat’i nazar ma’naviy zarar ham qoplanishi lozim.

Haqiqiy holatlar deganda, ma’naviy zarar yetkazilgan faktik holatlar tushuniladi. Masalan, tor doiradagi suhbatda, ilmiy minbar, anjumanda yoki ommaviy axborot vositalarida jabrlanuvchining shaxsiy

xususiyatlariga huquqbuzarlik qanday ta’sir etgani inobatga olinadi. Ma’naviy zararni qoplash tushunchasining mohiyati quyidagicha: jabrlanuvchiga shunday imkoniyat yaratilishi kerakki, undirilgan mablag‘, uning boshidan kechirgan jismoniy yoki ma’naviy azoblarga teng darajada ijobiy his-tuyg‘u paydo qilsin.

Ta’kidlash joizki, Oliy sud Plenumining tushuntirishicha, ma’naviy zararni qoplash haqidagi talablarga nisbatan da’vo muddati joriy qilinmaydi.

Ma’naviy zarar to‘lanishi lozim bo‘lgan mulkiy zarardan qat’i nazar qoplanadi. Ma’naviy zararni qoplash miqdorini aniqlashda suddan ikkita yangi umumiy talabga rioya qilish nazarda tutiladi. Ulardan biri – *oqilonalik*, ikkinchisi – *adolatlilik*.

Rivojlangan mamlakatlarda ma’naviy zararni qoplash uchun o‘z qonunchiligida ko‘rsatilgan normalar qo‘llaniladi. Bu jarayon ayniqsa, Yevropa, AQSH qonunchiligida yaqqol aks ettirilgan. Masalan, AQSHda jabrlanuvchiga ruhiy va hissiy tomondan yetkazilgan ma’naviy zararni qoplash, ya’ni pul kompensatsiyasi (tovon) undirilishi uchun obyektiv tarzda isbot talab etilmaydi[1]. Afsuski, mamlakatimizda ma’naviy zarar, uning mohiyati hali to‘la-to‘kis o‘z ifodasini topgan emas. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «inson manfaatlari huquqiy tajribamizda eng yuksak va eng ustun qadriyat bo‘lishini barchamizning ongimizga singdirish juda-juda og‘ir kelmoqda»[2].

Ba’zi xorijiy davlatlar singari Rossiya Federatsiyasida ham jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashning faktik va yuridik asoslarini bayon etishga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, jumladan: Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 52-moddasida, davlatning jabrlanuvchiga jinoyatdan keltirilgan zararni qoplash majburiyati qayd etilgan[3]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish dasturi»da ko‘rsatilishicha, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali muhofaza qilishni, birinchi navbatda, sud orqali himoya qilishni ta’minlash O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotning eng

---

[1] *Trindade F. A.* Mental distress. Oxford Jornal of Legal Studies. – 1986. – V. 6. – №2. – P. 221–225; Robert T., Cheng D. Business and Law. West Publishing Co., 1984. – P. 47.

[2] Ќаранг: Ќонун ва адолат устуворлигининг ҳаётбахш манбаи // Президент Ислом Каримовнинг Конституция кунига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи.– 1998. – 6 дек.

[3] Ќаранг: Конституция Российской Федерации. – М., 1993. – С. 52.

muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu dasturda har kim buzilgan huquqining tiklanishini hamda o‘ziga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararning qoplanishini talab qilishga haqli ekanligi alohida qayd etilgan.

Fuqarolik huquqida ma’naviy zarar fuqaroning shaxsiy nomoddiy huquqlari (ne’matlari)ga yetkazilgan zarar oqibatida, shuningdek fuqarolarning mulkiy huquqlariga putur yetkazish tufayli ham vujudga kelishi mumkin. FKning 1022-moddasiga asosan, ma’naviy zarar pul bilan qoplanadi. Insonning sha’ni, qadr-qimmati va boshqa nomoddiy ne’matlari shunday bebaho narsaki, u qanchalik ko‘p miqdorda pul bilan to‘lanmasin unga zarar yetkazildimi u hech qachon oldingi holatiga qaytmaydi va uni tiklab bo‘lmaydi. Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, butun dunyo mamlakatlar sudi oldida turgan muammolardan biri ham shuki, ma’naviy zarar miqdorini aniqlash masalasidir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar mohiyatini qayd eting.
2. Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik deganda nimani tushunasiz?
3. Muomalaga layoqatsiz va voyaga yetmaganlar, shuningdek o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan fuqarolar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni vujudga kelish asoslari haqida so‘zlab bering.
4. Zararni qoplashning alohida usullarini tasniflang.
5. Zararni qoplashda jabrlanuvchining aybini va zarar yetkazgan shaxsning mulkiy holatini hisobga olishning ahamiyatini aniqlang.

17-MAVZU.
MUALLIFLIK HUQUQI. VORISLIK HUQUQI.

1. Intellektual mulk obyekti sifatida mualliflik huquqi tushunchasi va ahamiyati.
2. Mualliflik shartnomasi tushunchasi, belgilari va turlari.
3. Vorislik tushunchasi, vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik.

1. Intellektual mulk obyekti sifatida mualliflik huquqi tushunchasi va ahamiyati

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o‘ziga xos obyekti bo‘lib hisoblanadi. «Intellekt» so‘zi lotincha «aql» degan ma’noni bildiradi. Intellektual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi. Bu alohidalik ijodkor-muallif huquqi maqomida ham mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo‘lgan fan, adabiyot, san’at asarlari, ijrochilik faoliyati huquqiy rejimida ham o‘z ifodasini topgan.

Jahonda turli mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy – madaniy aloqalar o‘sib borgani sayin bir mamlakatdagi ijodkorlar asarlaridan boshqa mamlakatlardagi kishilar imkoniyatlari kengayib bormoqda, bu esa mualliflik turdosh huquqlar dunyoning ko‘p mamlakatlarida bir xilda tartibga solinishiga bo‘lgan zaruratni vujudga keltirmoqda. Ushbu zarurat taqozosiga ko‘ra, mualliflik huquqi Butunjahon Konvensiyasida (uni Bern Konvensiyasi deb ham ataydilar) ishlab chiqilgan va dunyoning ko‘pgina mamlakatlari o‘z milliy qonunlarini u yoki bu tartibda Konvensiya asosida shakllantirmoqdalar. Bern Konvensiyasi me’yorlari mualliflik huquqlarini huquqiy muhofaza etishda qat’iyroq xarakterga ega. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi Qonuni mazmunida Bern Konvensiyasining asosiy qoidalari yotadi.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, uning eng muhim institutlaridan hisoblanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar adabiyot, san’at asarlarini yaratish ulardan foydalanish va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mualliflik huquqiy tamoyillari deb – uning negizida yotgan asosiy qoidalarga aytiladi, bu tamoyillar ichida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan ijod erkinligi

muxim ahamiyat kasb etadi, uning mohiyati shundan iboratki, ijodkor o‘z ijodiy mahsuli mavzusini tanlashda uning shaklini belgilashda, uning yaratish uslublarini tanlashda, undan foydalanishda erkin va mustaqildir. Ayni vaqtda bu egalik qonun doirasida amalga oshirilmog‘i lozim. Ijodkor o‘z asari orqali konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, zo‘ravonlik yoki behayolikni targ‘ib qilish, boshqalarning huquqlarini poymol qilish maqsadlarini ko‘zlamasligi lozim. Muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan yana biri ijodiy mahsulotlarga nisbatan senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidadir. Mualliflik asarini yaratishda yoki e’lon qilishda agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog‘lik bo‘lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o‘tkazish talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalaridan biri muallif huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir. Ushbu tamoyil, ya’ni mualliflik huquqining obyekti va vujudga kelishi asoslari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1041-moddasi va «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Mualliflarning asarlarni yaratish va ulardan foydalanishda ma’naviy moddiy manfaatdorligini har tomonlama muhofaza etish ham qonunlarda mustahkamlab quyilgan. Ushbu tamoyil mualliflik huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va burchlarini belgilovchi me’yorlardagina emas, balki subyektiv huquqlarini amalga oshirish kafolatlarida, muallif huquqlarini muhofaza etish bo‘yicha davlat organlari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarda, buzilgan muallif huquqlarining himoya qilinishini ta’minlovchi me’yorlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Mualliflik huquq bo‘yicha munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (27, 29, 42, 67-m.), O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (1041–1081-m.), «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi qonun, «EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari haqida»gi, «Noshirlik faoliyati haqida»gi, «Ommaviy axborot vositalari haqida»gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu borada, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bevosita mualliflik huquqi bilan bog‘lik munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlardan tashqari boshqa me’yorlari ham mualliflik huquqini tartibga soluvchi vazifalarni bajaradi. Masalan: fuqarolarning huquq layoqati mazmunini belgilovchi me’yorda fuqarolarning fan, adabiyot, san’at asrlariga muallif bo‘lish huquqi (FKning 18-m.), moddiy va ma’naviy

zararlarni undirish bo‘yicha qoidalari (FK 1021-m.), intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlar haqidagi qoidalari (FKning 97-m.)lari shular jumlasidandir.

Huquqiy adabiyotlarda ijodiy jarayonning ikki holati ta’kidlab ko‘rsatiladi:

a) asar yaratish jarayonining ongli, intellektual xarakteri;

b) yaratilgan asarning yangiligi, originalligi[1].

Fuqarolik kodeksining 1041-moddasiga asosan, asar og‘zaki, yozma shaklda yoki uni idrok etish imkonini beradigan boshqa obyektiv shaklda ifodalangan bo‘lishi lozim. Yozma shaklda yoki moddiy jismda o‘zgacha usulda ifodalangan asar uning uchinchi shaxslar uchun foydalanish imkoniyati bor yo‘qligidan qat’i nazar, obyektiv shaklga ega hisoblanadi[2].

Mualliflik huquqi obyekti bo‘lishi uchun asar tugallangan bo‘lishi shart emas. Shu sababli asar tugallanmagan bo‘lsa ham, agarda ularda ijodiylik unsurlari mavjud bo‘lsa, mualliflik huquqining mustaqil obyekti hisoblanadi.

Mualliflik huquqi e’lon etilgan (nashr etilgan) va shuningdek, nashr etilmagan, hali qo‘lyozma holatida bo‘lgan asarlarga birday joriy etiladi.

Mualliflik huquqini vujudga kelishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biror rasmiyatchilikka rioya qilish talab etilmaydi. Holbuki, intellektual faoliyatning boshqa obyektlari bo‘yicha huquqiy muhofaza bu obyekt vakolatli davlat idorasi tomonidan maxsus muhofaza yorlig‘i (patent, guvohnoma) olgandan keyin vujudga keladi.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, konsepsiyalar, prinsiplar, tizimlar, taklif etilayotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan (agarda ular ilmiy asar sifatida obyektiv shaklga solinmagan bo‘lsa) joriy etilmaydi. Rasmiy hujjatlar, shuningdek ularning rasmiy tarjimalari, rasmiy ramzlar, xalq ijodiyoti asarlari, oddiy matbuot axboroti tusidagi kundalik yangiliklarga doir va joriy voqealar haqidagi xabarlar, insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati ishtirokisiz muayyan turdagi ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar (masalan, robot tomonidan bastalangan musiqa, yozilgan she’r) ham mualliflik huquqi obyekti bo‘lib hisoblanmaydi[3].

Mualliflik huquqi obyektlari qo‘yidagi turlardan iborat:

---

[1] Гражданское право. Т.2. //Под ред. Е.А.Суханова. – М.. 1994.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. – Т., 2011.

[3] Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи (Иккинчи қисм).Дарслик –Т.: “ИЛМ ЗИЁ», 2008. - Б. 685

– adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publitsistik va boshqa asarlar); drama va ssenariy asarlari; matnli yoki matnsiz musiqa asarlari; musiqali drama asarlari; xoreografiya asarlari va pantomimalar; audiovizual asarlar; rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san’atning boshqa asarlari;

– manzarali-amaliy va sahna bezagi san’ati asarlari; arxitektura, shaharsozlik va bog‘-park barpo etish san’ati asarlari; fotografiya asarlari va fotografiyaga o‘xshash usullarda yaratilgan asarlar; jug‘rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jug‘rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;

– barcha turdagi EHM uchun dasturlar, shu jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi boshlang‘ich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin bo‘lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari; ushbu Qonunning 5-moddasida belgilangan talablarga javob beradigan boshqa asarlar[1].

Mualliflik huquqi subyektlari ichida fan, adabiyot, san’at asarlarini ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxs-muallif alohida o‘rinni egallaydi. Fuqaroning mualliflik subyektiv huquqi vujudga kelishi, fan, adabiyot yoki san’at asarlarining muallifi sifatida e’tirof etilishi uning yoshiga, aqli va ruhiy holatiga, asarning yaratilish joyiga, nashr etilgan-etilmaganligiga bog‘liq emas.

O‘zbekiston Respublikasi hududida e’lon qilingan yoki obyektiv shaklda mavjud bo‘lgan asarni yaratgan shaxsning mualliflik huquqi uning qaysi davlatning fuqaroligidan qat’iy nazar, tan olinadi.

Asarini xorijda nashr etilgan yoki qo‘lyozma holida xorijda saqlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mualliflik huquqlari ham tan olinadi. Agarda bunday shaxs xorijiy davlat fuqarosi bo‘lsa, uning mualliflik huquqi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi.

Garchi asarni yaratishda qatnashmagan bo‘lsa-da, muallifning huquqiy vorislari bo‘lgan shaxslar va yuridik shaxslar ham mualliflik subyektiv huquqlarining subyekti sanaladi. Bunday toifadagi subyektlarga muallifning barcha huquqlari emas, balki asardan foydalanish bo‘yicha ma’lum huquqlargina o‘tadi, xolos. Subyektiv mualliflik huquqining

[1] Ўзбекистон Республикасининг «Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида»ги қонуннинг 6-моддаси, 2006 йил, 21 июль.

bunday tarzda o‘tishi meros yoki muallif bilan tuzilgan shartnoma asosida ro‘y beradi[1].

Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunning 11-moddasiga asosan ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi mazkur asar bo‘linmas, bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat’iy nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo‘ladi.

Hammualliflar tomonidan yaratilgan yagona asarga nisbatan ularning huquqlari va o‘zaro munosabatlarini, umumiy mulk institutini birgalikdagi mulk va hissali mulkka nisbatan sherik mulkdorlarning huquqlari va o‘zaro munosabatlariga qiyoslash mumkin, zero bunday huquqiy tartibga solish mexanizmida o‘xshashliklar mavjud.

Hammualliflar o‘rtasidagi munosabatlar umumiy qoida bo‘yicha o‘zaro kelishuv, bitim asosida belgilanadi. Bunday bitimda turli masalalar, asar nashr etilganda zarvaraqda qaysi hammuallif ismi-sharifi qanday tartibda yozilishi, qalam haqini taqsimlash va hokazolar ko‘zda tutilishi mumkin. Agarda hammualliflar o‘zaro kelishuvga erisha olmasalar, nizo sud tomonidan hal etiladi.

Boshqa asarlarni qayta ishlagan shaxslar, tarjimonlar, to‘plamlar va boshqa jamlama asarlarni tuzuvchilar hosila asarning muallifi deb e’tirof etiladi. Hosila asarning muallifi qayta ishlangan, tarjima qilingan yoki jamlanma asarga kiritilgan asar muallifining huquqlariga rioya etgan taqdirdagina hosila asarga bo‘lgan mualliflik huquqidan foydalanadi.

Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan uning muallifining shaxsiy huquqlari deganda, mulkiy mazmunga ega bo‘lmagan, ushbu natijaga nisbatan ijodkor-yaratuvchi sifatidagi mavqeini e’tirof etish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan mutlaq huquqlari tushuniladi va huquqlar muallifning faqat o‘zigagina tegishli bo‘lib, boshqa birovga yetkazilishi, ya’ni muallifdan begonalashtirilishi mumkin emas. Shaxsiy huquqlar mazmuni, doirasi har bir intellektual faoliyat natijasi uchun alohida o‘ziga xos tarzda belgilanadi masalan, mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan muallif shaxsiy huquqlari doirasi keng (mualliflik huquqi, nomga bo‘lgan huquq, asar daxlsizligiga bo‘lgan huquq va hokazo). Ba’zi obyektlar bo‘yicha esa (masalan, seleksiya yutuqlarida)

[1] Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи (Иккинчи қисм).Дарслик –Т.: «ИЛМ ЗИЁ», 2008. - Б. 686

shaxsiy huquq obyekt muallifi sifatida tan olinishi huquqi bilan kifoyalanadi.

Intellektual faoliyat natijalari muallifi shaxsiy huquqlari bilan bir qatorda, ushbu natijaga nisbatan mulkiy huquqlarga ham ega. Mulkiy huquq mazmuni muallifning ushbu o‘zi yaratgan intellektual faoliyat natijasidan foydalanishi, boshqalarga haq evaziga foydalanishga berish yoki haq evaziga foydalanish uchun ruxsat berish yoki haq evaziga ruxsat berish uchun bu natijaga nisbatan huquqlarni boshqalarga yetkazish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Muallifning mulkiy huquqlari hajmi to‘liq yoki cheklangan bo‘lishi mumkin. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqlar (FK 1034-m) muallifning o‘ziga emas, boshqa shaxsga tegishli bo‘lsa, muallifning intellektual faoliyati natijasiga mulkiy huquqlari cheklangan xarakterga ega bo‘ladi (masalan, mualliflik huquqida ergashma huquq yoki ulush huquqi seleksiya yutuqlari bo‘yicha seleksionerlarning patent egasidan mukofot olish huquqi, ixtirochining ixtirodan ilmiy-tadqiqot va shaxsiy maqsadlarda foydalanish huquqi va hokazo).

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat’i nazar, tegishli bo‘ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga o‘tgan taqdirda ham uning o‘zida saqlanib qoladi. Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy huquqlar faqat ijodkor yaratuvchi (muallif)ning o‘ziga tegishli bo‘ladi, mulkiy huquqlar esa, uchinchi shaxslarga ham tegishli bo‘lishi mumkin (masalan, obyekt buyurtma asosida yaratilganda). Mulkiy huquqlar fuqarolik muomalasida faol harakatda bo‘lishi; u boshqalarga haq evaziga yoki tekin o‘tkazishi, garov predmeti bo‘lishi, meros tartibida o‘tishi mumkin. Shaxsiy huquqlar esa ijodkor-muallifning shaxsi bilan bog‘liq, undan begonalashtirilishi, birovga o‘tkazilishi mumkin emas. Binobarin, intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mulkiy huquqlar fuqarolik muomalasida qanday harakatda bo‘lishida qat’i nazar, shaxsiy huquqlar faqat ijodkor-muallifning o‘zida saqlanib qoladi va mulkiy huquqlardan foydalanuvchilar ijodkor-yaratuvchi (muallif)ning shaxsiy huquqlariga rioya qilishlari shart. Masalan, asarga nisbatan mutlaq huquqni sotib olgan nashriyot asarni nashr etishda muallif nomini ko‘rsatishi, asar daxlsizligiga rioya qilishi lozim.

Mualliflik huquqining obyekti bo‘lgan ba’zi asarlar bevosita uchinchi shaxslar tomonidan ijro etilishi (balet, spektakl ko‘rinishida) lozim bo‘ladi. Ijrochilar va ijroni tashkil etuvchilarning faoliyatlari ham o‘z xarakteriga ko‘ra ijodiy faoliyat hisoblanadi, biroq bunda ijodiy faoliyat uslubi, xarakteri va mahsullari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, shu sababli ham u

mualliflik huquqiga tutash, mushtarak bo‘lgan turdosh huquqlar orqali tartibga solinadi. Turdosh huquqlar sahna asarlariga, ijroga, ijroning audio va video yozuviga, efir va kabel orqali ko‘rsatuv va eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuv va eshittirishlariga tatbiq etiladi. Binobarin, asarning ijrolari, ijroning audiovizual yozuvlari, radioeshittirish va televizion ko‘rsatuvlar turdosh huquqlar obyekti hisoblanadi. Turdosh huquqlar subyekti bo‘lib, ijrochilar, asarning ijro yozuvini yaratuvchilar, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlar ularni uzatuvchi tashkilotlar hisoblanadi (shuningdek, ularning merosxo‘rlari va huquqiy vorislari ham).

Yaratilish fakti sababli huquqiy muhofaza qilinadigan obyektlarga nisbatan muallif huquqlari ushbu yaratilish fakti asosida vujudga keladi va rasmiyatchiliklarga rioya etilish talab qilinmaydi. Vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig‘i asosida huquqiy muhofaza ostiga olinadigan intellektual mulk obyektlariga nisbatan mualliflik huquqi huquqiy muhofaza yorlig‘i hujjati yoki boshqa hujjat asosida guvohlantiriladi. Masalan, «Seleksiya yutuqlari haqida»gi qonunning 4-moddasiga asosan patent idorasi tomonidan o‘zi yaratgan obyektiga nisbatan patent egasi bo‘lmagan har bir seleksiyachiga mualliflik huquqini tasdiqlovchi seleksiyasi guvohnomasi beriladi.

Barcha shaxsiy huquqlar kabi muallif-yaratuvchi huquqlari muddatsiz himoya qilinadi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida mutlaq huquqlar deyilganda bunday huquq sohiblari (egalari)ni turli harakatlar sodir etish (ijodiy faoliyat mahsulidan foydalanish, uni tasarruf etish) bo‘yicha haqdorligi, vakolatliligini va ayni vaqtning o‘zida boshqa har qanday shaxslarga yuqorida ko‘rsatilgan bunday harakatlarni sodir etishning taqiqlanishini ta’minlovchi subyektiv mutlaq huquq tushuniladi. Mutlaq huquqlar huquqiy mexanizmi odatdagidek egallab turishi mumkin bo‘lmagan, bir vaqtning o‘zida nomuayyan doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin bo‘lgan obyektlarga nisbatan huquq sohibi mulkiy huquqlarning amalga oshirilishini ta’minlovchi muhim vositadir, biroq mulk huquqi va mutlaq huquqlar aslo ayniy tushunchalar emas, ularning farqlari haqida yuqorida mufassal to‘xtab o‘tilgan edi.

Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga ko‘ra har qanday shaklda har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo‘ladi.

Ushbu mutlaq huquqlar o‘z xarakteri va mazmuniga ko‘ra mulkiy huquq hisoblanadi.

2. Mualliflik shartnomasi tushunchasi, belgilari va turlari

Intellektual mulk obyektlarining himoya qilinganligi davlatning jahonda tutgan o‘rnini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Bunday himoyaning ishonchliligi ilmiy tadqiqotlar, madaniyat, adabiyot va san’atning rivojlanishi, fan va texnika yutuqlarini amalda qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Intellektual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunida mualliflik shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Mualliflik shartnomasi bo‘yicha – muallif asardan foydalanish uchun huquqini shartnomada kelishilgan shartlar asosida boshqa tomonga yoki boshqa fuqaroga beradi. Mualliflik shartnomasi fuqarolik-huquqiy xarakterga ega va boshqa turdagi fuqarolik-huquqiy shartnomalar singari erkindir. Ushbu xulosa nafaqat nazariy balki katta amaliy ahamiyatga ham ega. Xususan, mualliflik huquqiy munosabatlarga fuqarolik huquqining umumiy qoidalari (masalan, bitimning haqiqiy sanalish shartlari) bilan birga majburiyat huquqi bo‘limining qoidalari (shartnomalarni tuzish va ijro etish hamda majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik) asoslari va h.k.

Mualliflik shartnomasining shakli, Fuqarolik kodeksining 1069-moddasi asosida yozma shaklda tuziladi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, shu sababli mualliflik shartnomasi taraflar o‘rtasida faqat yozma shaklda tuzilishi lozim, yozma shaklda tuzilgan shartnoma sud amaliyotida nizoli holatlarni keltirib chiqarmaydi.

Taraflar mualliflik shartnomasini tuzayotgan vaqtlarida FKning 1068-moddasidagi shartlar shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, uning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar adabiyot, san’at asarlarini yaratish, ulardan foydalanish va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mualliflik huquqida ijodkor o‘z asari orqali konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, zo‘ravonlik yoki behayolikni targ‘ib qilish, boshqalarning huquqlarini poymol qilish maqsadlarini ko‘zlamasligi lozim.

Muallif asarni yaratishda yoki e’lon qilishda agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o‘tkazish

talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalaridan biri – mualliflik huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir.

Amaldagi qonunchilikda asardan foydalanish huquqning muallifdan boshqa shaxsga o‘tishi ushbu masala bo‘yicha huquqni o‘tkazish nazariyasi tomonga hal qilinishi qayd etiladi.

Mualliflik shartnomasi erkinligi tamoyili tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlarini hamda shartnomaning boshqa shartlarini kelishishga erkinligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga amaldagi qonunchilik mualliflik shartnomasiga diapozitiv va imperativ qoidalar ko‘rinishida bo‘lishligini taqozo etadi. Diapozitiv xarakterdagi qoidalar shartnomada u yoki bu masala yechilmay qolgan taqdirda qo‘llaniladi. Masalan, shartnoma bo‘yicha o‘tkazilayotgan huquqning territoriyasi O‘zbekiston Respublikasi bilan chegaralanadi. Agarda mualliflik shartnomasida o‘tkazilayotgan huquqqa nisbatan hudud bo‘yicha shartlar belgilanmagan bo‘lsa imperativ qoidalar yoki mualliflik shartnomasiga ma’lum shartlarni kiritishni man etadi, yoki imkon qadar o‘z munosabatlarini tomonlarni konkret (aniq) variantni tanlashda alohida masalalarga ruxsat etiladi. Masalan, qonunda muallifning kelgusida ushbu mavzuda yoki ushbu doirada asar yaratishiga to‘sqinlik qilib huquqini cheklovchi mualliflik shartnomasining haqiqiy sanalmasligini qayd etadi.

Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish erkinligi kafolatlanadi deyiladi, bu qoida intellektual mulk obyektlari qonun bilan qo‘riqlanganligini ko‘rsatib turadi.

FKning 1041-moddasiga asosan, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot, san’at asarlariga, uning maqsadi va qadr-qiymati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat’iy nazar, joriy etiladi.

Har qanday asar mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofaza etilishi uchun u ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lishi shart. Shu sababli ham oddiy kundalik hayotdagi so‘zlashuvlar, muloqotlar mualliflik huquqi obyekti hisoblanmaydi. Ijodiy jarayon bu, eng avvalo, inson tafakkuri, aqliy faoliyat mahsuli bo‘lib, u o‘ziga xos original tusga ega[1].

Muallif asarlaridan boshqa shaxslar (foydalanuvchilar) foydalanishi mualliflik shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Asardan foydalanishning shartnomaviy shakli muallifning ham shaxsiy, ham

[1] Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи:Дарслик(Иккинчи қисм). –Т., 2008. - Б. 683

mulkiy huquqlarini himoya qilish va undan foydalanishda boshqa usullardan ko‘ra mukammal himoyani ta’minlaydi. Shartnomaviy shakl foydalanuvchining manfaatiga mos keladi, chunki ular asardan foydalanishda boshqa shaxslarning huquqi bo‘lmagan muayyan huquqlarni oladi va bu bilan asarni ommaviylashtirishi hamda o‘z xarajatlarini ko‘plab foyda olishi mumkin bo‘ladi. Nihoyat, mualliflik shartnomasi asosida foydalanishda jamiyat ham to‘liq manfaatdor bo‘ladi, chunki bunday tartib uning a’zolarini ijodiy aktivligini ta’minlaydi va jamiyatning ma’naviy boyligini oshirishga ko‘maklashadi.

Intellektual mulk obyektlari doirasi birinchi marta butun jahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS)ni ta’sis etuvchi 1967-yil 14-iyuldagi 2-moddasi 8-bandida berilgan. Ushbu Konvensiyada ko‘rsatilishicha, intellektual mulk quyidagilarga nisbatan yuzaga keladigan huquqlarni o‘zida ifodalaydi:

– adabiy, badiiy va ilmiy asarlarga nisbatan;

– artistlar, ovoz yozish, radio eshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlarning ijrochilik faoliyatiga nisbatan;

– inson faoliyatining barcha sohadagi ixtirolariga nisbatan;

– sanoat namunasiga nisbatan;

– tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomi va tijorat sirlariga nisbatan;

– noqonuniy raqobatdan himoyalanishga nisbatan;

Shuningdek, ishlab chiqarish, ilmiy, adabiy va badiiy sohadagi intellektual mulkka taalluqli barcha boshqa huquqlarga nisbatan.

Intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish deyilganda huquq sohibining o‘z erki, irodasi bilan, hech qanday majburiyatsiz, tazyiqlarsiz foydalanish tushuniladi.

Obyektlardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish deyilganda undan turli obyektiv shaklda-qo‘lyozma, bosma asar, apparat, qurilma, etiketka, har xil yorliqlar, maket, inshootlar, haykallar va shu kabilarda hamda turli vositalar yordamida qo‘l yozma shaklida tarqatish, nashr etish, og‘zaki o‘qish, reklama prospektlariga joylashtirish, qurilishlarda mujassamlashtirish va hokazo usullarda ekspluatatsiya qilish, foydalanish tushuniladi.

Obyektdan foydalanish shakllari va usullari qonun yo‘l qo‘ygan asoslarga to‘la muvofiq bo‘lishi shart. Buning uchun mutlaq huquq sohibi belgilangan talablarga rioya qilmog‘i lozim. Masalan, yangi ixtiro asosida avtomobil modelini yaratgan yoki yasagan ixtirochi bu avtomobilni tegishli davlat idoralari(masalan, davlat avtomobil inspeksiyasi)da qayd

ettirgan bo‘lishi shart. Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlariga nisbatan tovar belgilari bolalar muassasalarida reklama prospektlari orqali joylashtirilishi mumkin emas. Yangi dori-darmonlar yaratgan shifokor undan foydalanishda qonunda belgilangan talablarga rioya qilishi shart. Aks holda intellektual mulk obyektidan foydalanish qonuniy foydalanish hisoblanmaydi.

Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasi roziligi bilan yo‘l quyiladi.

Agarda mutlaq huquq bir necha shaxsga tegishli bo‘lsa (masalan, mualliflarga) uchinchi shaxslar mutlaq obyektdan foydalanish uchun barcha huquq sohiblaridan ruxsat olishi shart.

Mutlaq huquq sohibidan olinadigan uchinchi shaxslarning obyektdan foydalanishga roziligi ochiq-oydin yaqqol ifodalangan bo‘lishi tegishli huquqiy shaklda rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim. Indamaslik, sukut rozilik alomati hisoblanmaydi.

Ko‘pgina intellektual mulk obyektlaridan bir vaqtning o‘zida cheksiz doirada uchinchisi shaxslarning foydalanishi imkoniyati mavjud bo‘ladi, biroq uchinchi shaxslar bunday imkoniyatdan har doim faqat mutlaq huquq sohibining roziligi asoslaridagina foydalanishlari shart.

Intellektual mulk obyektidan mutlaq huquq egasi roziligini olmasdan foydalangan uchinchi shaxslar tegishli fuqarolik-huquqiy tartibda javobgar bo‘ladilar. Huquq egasi o‘z huquqlarini sud tartibidan himoya qilishga, uchinchi shaxslardan huquq buzilish harakatlarini to‘xtatishga, keltirilgan barcha zararni, shu jumladan, ma’naviy zarar qoplanishini uchinchi shaxslar huquqbuzarlik natijasida olgan barcha daromad va foydalarni o‘ziga undirib berilishini talab qilishga haqli.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq egasi, bu huquqni boshqa shaxsga to‘liq yoki qisman o‘tkazishga, intellektual mulk obyektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga haqli, agar FK va boshqa qonunlar talablariga zid bo‘lmasa, ularni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Umumiy qoidaga ko‘ra intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq mulkiy huquq sifatida fuqarolik muomalasida faol harakatda bo‘ladi. U turli bitimlar va shartnomalar predmeti bo‘lishi mumkin. Binobarin, intellektual mulk obyektiga bo‘lgan mutlaq huquq egasi bu huquqni haq evaziga yoki tekin holda boshqa shaxslarga to‘liq yoki qisman o‘tkazish (sotish, hadya qilish, ma’lum cheklangan holda foydalanishga ruxsat berish va h.k)ga haqli.

Mutlaq huquq to‘liq o‘tkazilganda huquq egasi mutlaq huquqni to‘liq hajmda uchinchi shaxsga o‘tkazadi, demak, bu huquqni o‘zidan to‘la begonalashtiradi, natijada uchinchi shaxs mutlaq huquq egasi hisoblanadi.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxslarga to‘liq yoki qisman o‘tkazishni huquqiy rasmiylashtirishda taraflar FKning 1035-moddasida belgilab qo‘yilgan shartlarga rioya qilishlari lozim.

Intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslarning foydalanishiga ruxsat berish bu obyektga nisbatan mutlaq huquq sohibining vakolatiga kiradi. Obyektdan foydalanishga ruxsat berishda mutlaq huquq shu huquq sohibining o‘zida qoladi, undan begonalashtirilmaydi, bunda uchinchi shaxslarda obyektdan foydalanish huquqigina vujudga keladi. Foydalanish shartlari va tartibi mutlaq huquq va foydalanuvchi o‘rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasi o‘z huquqini FK va boshqa amaldagi qonunlarga zid bo‘lmagan har qanday tarzda tasarruf etishga haqli. Masalan, mutlaq huquqlar egasi bu huquqlarni o‘z majburiyati yoki uchinchi shaxslar majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash usuli sifatida garovga qo‘yishi mumkin.

FKning 1101-moddasiga asosan yuridik shaxs qayta tashkil etilmagan yoki boshqa shaxsga o‘tkazilmagan hollardan tashqari, yuridik shaxsning firma nomiga bo‘lgan mutlaq huquqi boshqalarga o‘tkazilishiga ruxsat berilmaydi. Bunday huquqlar o‘tkazilishi yoki cheklanishi to‘g‘risidagi shartnoma shartlari haqiqiy emas deb topiladi.

Ushbu qoida ijodiy faoliyat natijasining yaratuvchisi bo‘lgan muallifning bu natijalariga nisbatan mutlaq huquqlarga ega bo‘lgan holatiga taalluqlidir.

Bunday holda agarda muallif mutlaq huquqdan kelib chiquvchi mulkiy huquqlarni shartnoma asosida boshqa uchinchi shaxslarga o‘tkazsa yoki muallif vafoti tufayli bunday mulkiy huquqlar universal vorislik tartibida huquqlar vorislarga o‘tsa, muallif shaxsiy huquqlari, boshqa mutlaq huquqlar (uning o‘zidan begonalashtirilmaydigan va boshqa birovga o‘tkazilmaydigan) aslo bekor bo‘lmaydi, cheklanmaydi yoki ularning ham shartnoma asosida uchinchi shaxslarga yoki vorislarga o‘tishiga olib kelmaydi, hatto mutlaq huquq sohibi muallifning o‘zi bo‘lmay, boshqa shaxs bo‘lgan taqdirda ham, mutlaq huquqlardan kelib chiquvchi boshqa mulkiy huquqlar bu huquqlar egasi tomonidan shartnoma asosida uchinchi shaxsga yoki universal vorislar tartibida vorislarga o‘tgan taqdirda ham bu holat muallifning huquqini ham boshqa

o‘tkazilmaydigan va begonalashtirilmaydigan huquqlarining o‘tishiga, bekor bo‘lishiga yoxud cheklanishiga olib kelmaydi.

Ijodiy faoliyat natijasi yaratuvchi bo‘lgan muallifning faqat o‘zigagina tegishli bo‘lgan, boshqa birovga o‘tkazilmaydigan va begonalashtirilmaydigan mutlaq huquqlari doirasi, turlari va mazmuni FKning 1033-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Mutlaq huquqni uni amal qilish davri bo‘yicha cheklangan muddatlarda foydalanish uchun boshqa shaxsga berishni nazarda tutuvchi shartnomaga nisbatan litsenziya shartnoma to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi. Buning ma’nosi shundan iboratki, FKning 1035-moddasi 1-3-qismlarida ko‘zda tutilgan qoidalar mutlaq huquqlar shartnoma asosida yoki universal vorislik tartibida bunday mutlaq huquqlar amal qilishning barcha qolgan muddati bo‘yicha uchinchi shaxsga o‘tishi nazarda tutilgan hollarga nisbatan taalluqlidir. Agar mutlaq huquqlar egasi bu huquqlarni boshqa shaxslarga vaqtinchalik o‘tkazsa (ma’lum chegaralanish muddat davomida), u holda bunday shartnoma litsenziya shartnomasi hisoblanadi.

FKning 1050-moddasida – mualliflik huquqining himoya belgilari ko‘rsatilgan.

Alohida mualliflik huquqining egasi o‘z huquqlaridan xabardor etish uchun asarning har bir nusxasida aks ettiriladigan va quyidagi uch unsurdan iborat mualliflik huquqining himoya belgisidan foydalanishi mumkin:

– aylana ichiga olingan lotincha «S» harfi;

– alohida mualliflik huquqlari egasining ismi (nomi);

– asar birinchi marta e’lon qilingan yil.

Mualliflik huquqining himoya belgisida ko‘rsatilgan shaxs, basharti boshqa hol isbotlanmagan bo‘lsa, huquq egasi hisoblanadi.

1. Mualliflik huquqi (Mualliflik huquqining himoya belgilari).

Mualliflik shartnomasi belgilari – mualliflik huquqlari kabi turdosh huquqlar ham o‘z himoya belgilariga ega. Ijro yozuvini yaratgan shaxs va ijrochi o‘z huquqlaridan xabardor qilishi uchun bunday belgidan foydalanishlari mumkin. Audioyozuv (ovoz yozib olingan gramplastinka, kompakt disk va hokazo) yoki videoyozuv (tasvir yozilgan videokassetalar)ning har bir nusxasida va (yoki) ular saqlanadigan g‘ilofda aks ettiriladigan bu belgi uch unsur (element)dan iborat:

– Aylanaga olingan «R» harfi;

– Turdosh mutlaq huquqlar egasining ism-sharifi (nomi);

– Yozuv birinchi marta e’lon qilingan yil.

Turdosh huquqlar subyektlari huquqlari mazmuni va hajmi bir xil emas, shu sababli ham qonunda bu huquqlar alohida normalarda o‘z ifodasini topgan.

Mualliflik shartnomasi turlari – alohida farqlash belgilari (xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalar)ga nisbatan huquqlar intellektual faoliyat natijalariga nisbatan bo‘lgan huquqlar kabi ikki turga, ya’ni shaxsiy va mulkiy xarakterdagi turlarga bo‘linadi va unga ikki xil xarakterdagi huquq sifatida qaraladi. Binobarin, alohida farqlash belgilari (xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalar)ga nisbatan huquq sohibining huquqi nafaqat mulkiy, ayni vaqtda shaxsiy xarakterda ham bo‘ladi. Biroq bu huquq ma’lum tartibda va shartlarga rioya qilingan holda haq evaziga yoki tekin, vaqtincha boshqalarga o‘tkazilishi, foydalanish uchun berilishi mumkin bo‘ladi (firma nomiga bo‘lgan huquqdan tashqari).

Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e’tirof etilishi huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo‘ladi.

Intellektual faoliyat natijasida ixtiro yoki asarni o‘z aqliy, ijodiy faoliyat mehnati bilan yaratgan shaxs ushbu natijaning muallifi deb tan olinadi. Bu huquq ijodiy faoliyat mahsuliga nisbatan mualliflik huquqi deb atalib, barcha qolgan shaxsiy huquqlarning o‘zagina tashkil etadi, boshqa shaxsiy huquqlar ushbu huquq mavjud bo‘lgan taqdirdagina, undan kelib chiquvchi o‘ziga xos hosila ikkilamchi huquq hisoblanadi. Muallif sifatida tan olishga bo‘lgan huquq o‘z mohiyatiga ko‘ra, shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi, ya’ni, birinchidan, ijodkor-yaratuvchi shaxsi bilan bog‘liq, ikkinchidan, mulkiy-iqtisodiy mazmunga ega emas, uchinchidan, huquq sohibining o‘zidan begonalashtirilishi mumkin emas. Bunday huquq ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo‘ladi. Ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lmagan, odatdagi, mexanik xarakterdagi mehnati bilan ijodiy faoliyat natijasini yaratishda qatnashgan shaxslar muallif huquqiga ega bo‘lmaydi (masalan, ixtirochi chizmasi asosida ixtiro qurilmasini yasagan chilangar va h.k).

Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi va berilmaydi ham. Ijodiy faoliyat natijasiga nisbatan muallif huquqi ijodkor yaratuvchining o‘zigagina tegishli bo‘lib, uning o‘zidan har qanday tarzda, har qanday asosda begonalashtirilishi, boshqa birovga o‘tkazilishi mumkin emas. Shu sababdan mualliflik huquqini bitim yoki shartnoma asosida boshqa birovga o‘tkazish (sotish, hadya qilish) yoki undan boshqa shaxslar foydasiga voz kechish muallifning o‘z erki, ixtiyori va xohishi bilan sodir bo‘lsa ham haqiqiy hisoblanmaydi. Binobarin, bir shaxs ikkinchi shaxs uchun uning

nomidan dissertatsiya yozib berishi, asar yozib berishi haqidagi kelishuvlari haqiqiy hisoblanmaydi va qonunga nomuvofiq bitim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida intellektual mulk obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o‘zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash harakatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Agar ijodiy faoliyat natijasi (ixtiro, asar) ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi mehnati bilan yaratilgan bo‘lsa, ular hammualliflar hisoblanadi. Hammualliflar shaxsiy huquqlari umumiy qoidalar bo‘yicha teng hajmda bo‘lishi e’tirof etiladi. Mulkiy huquqlar hajmi esa hammualliflar o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida belgilanadi va noteng hajmda bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Intellektual mulkning ayrim obyektlariga nisbatan qonunda asarning to‘laligicha hammualliflari bo‘lib hisoblanadigan shaxslar doirasi cheklab qo‘yilishi mumkin. Ushbu qoida intellektual mulk obyektini yaratishda g‘oyat ko‘pchilik qatnashadigan turlarga nisbatan amal qiladi. Masalan, kinofilm xuddi shunday obyekt hisoblanadi. Bu jarayonda ko‘pchilik o‘z ijodiy mehnati bilan qatnashsa-da, kinofilm muallifi bo‘lib ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rejissor, bosh operator, bosh rassom va shu kabi cheklangan doiradagi shaxslar hisoblanadi.

3. Vorislik tushunchasi, vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik

Meros yoki merosxo‘r deganda, azaldan insonlarning ongiga, vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulk yoki ushbu mol-mulkka nisbatan voris egalik qilish huquqi tushuniladi.

Vorislik huquqi fuqarolik huquqining ajralmas va yakunlovchi qismi hisoblanib, fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog‘langan.

Hayotda har bir shaxs boshqa bir shaxslar bilan har xil munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, albatta, shaxsning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Vaqt o‘tishi bilan bir munosabat bekor bo‘ladi, ikkinchi bir munosabat vujudga keladi. Munosabatlarning barchasi shaxsiy yoki mulkiy munosabat bo‘lib, ma’lum bir qoidalar bilan tartibga solinadi.

Fuqaro vafot etgandan keyin ham uning barcha huquqi va majburiyatlari o‘z kuchini saqlab qolmaydi, ayrimlari bekor bo‘ladi. Vafot etgan shaxsning hayotligida boshqa shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lgan uning huquq va majburiyatlari meros tariqasida vorislarga o‘tadi. Shunday qilib, shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o‘tishi mumkin bo‘lgan uning har qanday huquq va majburiyatlari meros hisoblanadi hamda vorislik huquqi asosida merosxo‘rlarga o‘tadi.

Aniqroq qilib aytganda, vafot etgan shaxsga tegishli bo‘lgan mulk – uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi meros tariqasida o‘tadi.

«Meros huquqi, – Konstitutsiyaning 36-moddasi asosida qonun bilan kafolatlanadi». Vorislik huquqi fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini qo‘riqlash bilan bog‘langan bo‘lib, ularning o‘z mulkiga nisbatan tasarruf etish huquqini hech qanday to‘siqsiz nafaqat o‘zining hayotligida, shuningdek vafot etgan taqdirda ham amalga oshirilishini qonun ta’minlaydi. Shuning bilan xususiy mulk huquqini mustahkamlash mulkning ko‘payishi va rivojlanishni ta’minlash yo‘li bilan merosxo‘rlarning boyishi va yashash sharoitlarini yaxshilanishiga ko‘maklashadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida bo‘lishligi ko‘rsatilgan, shuningdek, Konstitutsiyasining 54-moddasida «Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi va undan foydalanishi uni tasarruf etishi ko‘rsatilgan bo‘lib, mulkdor yuqoridagi prinsiplardan foydalanib o‘z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin. Mulk egasi mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Xususiy mulk egasi o‘z mulkidan hayotligida foydalanadi va vafot etgandan so‘ng mulk taqdirini meros (vorislik) huquqi yordamida amalga oshiradi. Har bir shaxs o‘zi hayotligida o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiy mulkning taqdirini hal qilib, vafotidan keyin mulkdan foydalanish yoki uni tasarruf etishini belgilab qo‘yadi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, vorislikning vujudga kelishiga ham xususiy mulkning vujudga kelishi sabab bo‘lgan. Aynan xususiy mulkning vujudga kelishi natijasida kishilar o‘zlariga tegishli mol-mulkni o‘z yaqinlariga vafotlaridan so‘ng qoldirib ketish imkoniga ega bo‘lganlar. Hali urf-odat va an’analar asosiy huquqiy manba hisoblangan paytlarda ham vorislik va merosxo‘rlik masalalari mavjud bo‘lganligini hisobga olsak, vorislik huquqi qoidalarining tarixi ancha uzoqlarga borib taqalishini bilib olish qiyin emas.

Umuman olganda vorislik huquqi turli huquq tizimlarida turlicha qoidalar asosida tartibga solinadi. Masalan, kontinental huquq tizimida vorislik bevosita O‘zbekiston milliy qonunchiligida tartibga solinishi bilan

[1] Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик (Иккинчи қисм). –Т., 2008. – Б. 928.

bir xilda amalga oshirilsa, musulmon huquq tizimida bu munosabatlarni tartibga solinishi asosan vasiyatnoma asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston fuqarolari, ularning ijtimoiy ahvoli, mulkiy boyligi, millati va diniy e’tiqodi, jinsi va turar-joyi, o‘troqligi va xizmat vazifasidan qat’iy nazar barchasi bab-baravar vorislik huquqidan foydalanadilar. FKning 209-moddasida belgilanishicha, «Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin», deb ko‘rsatilgan. Xususiy mulk egasi o‘zining jami mol-mulkini, mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarini o‘zi vafot etganidan so‘ng vorislik huquqiga asosan qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha vorislarga berishga haqli.

Vorislik huquqini ilmiy-nazariy jihatdan respublikamizning bir qancha huquqshunos olimlari tomonidan mukammal o‘rganilgan. Jumladan, huquqshunos olim R.Muhamedov tadqiq etganligini ta’kidlash joiz[1]. Bundan tashqari vorislikning umumiy asoslari respublikamizning ko‘plab atoqli sivilist olimlari H.R.Rahmonqulov[2], I.B.Zokirov, M.X.Baratov[3] va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ma’lumki, har bir shaxs o‘zi hayotlik davrida boshqa shaxslar bilan har xil munosabatda bo‘ladi. Bu munosabatlar, aksariyat hollarda, shaxsning xohish-irodasi bilan vujudga keladi, ammo ayrim munosabatlar shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda ham vujudga kelishi mumkin. Shu bilan birga, vaqt o‘tishi bilan bir munosabat bekor bo‘ladi, ikkinchi bir munosabat paydo bo‘ladi. Shuning uchun har bir shaxs boshqa shaxslar bilan muntazam ravishda qandaydir bir munosabatda bo‘lib turadi. Bu munosabatlarning hammasi ma’lum bir qonun-qoidalar bilan tartibga solinadi. Munosabatda turgan har bir shaxs ma’lum bir huquqqa ega bo‘ladi va shu bilan birga, ma’lum bir majburiyatni ham o‘z zimmasiga oladi. Bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgan takdirda ham o‘zining huquqiy kuchini saqlab qoladi[4]. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiyatlarning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi. Masalan, fuqaroning jamg‘arma bankiga qo‘ygan omonati bo‘yicha bank uni qo‘ygan shaxs

---

[1] *Мухамедов Р.* Мерос ҳуқуқи.–Т., 1998.– 121.

[2] Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар.-Т.:Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси.1997 – Б.102-132.

[3] *Зокиров И., Баратов М.* Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг ҳуқуқ ва муомала лаёқати.-Т.:Адолат.1998.-8-19 б.

[4] Муаллифлар жамоаси. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик (Иккинчи қисм). –Т., 2008. – Б. 928.

vafot etgan taqdirda ham to‘lash majburiyatidan ozod bo‘lmaydi. Majburiyat davom etadi. Faqat talab qilib olish huquqi boshqa shaxslarga o‘tadi, ya’ni vafot etgan shaxs tomonidan tayinlangan yoki qonunda belgilangan vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlarga o‘tadi.

Demak, meros shaxs vafotidan keyin uning boshqa shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lgan huquq va majburiyatlaridan iboratdir. Aniqroq qilib aytganda, fuqaroga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulkka nisbatan bo‘lgan huquq meros obyekti sifatida meros tarkibiga kiradi. Qonun fuqarolarning xususiy mulk huquqini meros huquqi bilan bevosita bog‘laydi, uni boshqa mulk shakllari bilan birga bab-baravar himoya qiladi. O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligida meros huquqi merosning ochilishi, uni himoya qilish, meros olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar, meros tarkibi va ularni saqlash, boshqarish, qo‘riqlash va tasarruf qilish, merosxo‘rlarga o‘tish tartibi va shartlarini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

Meros huquqi meros qoldiruvchining o‘z mulkiga nisbatan vafotidan keyingi xohish-irodasini, shu bilan birga, uning hayotlik vaqtida meros qoldirilayotgan mol-mulkka nisbatan bo‘lgan munosabatini vasiyatnoma rasmiylashtirish yo‘li bilan tartibga soladi. Vorislik esa, meros mulkni ma’lum shaxslarga meros ochilgandan keyin o‘tish tartibi hisoblanib, qonunda uning ikki yo‘li aniq belgilab qo‘yilgan. Vorislar qonun bilan belgilanib qo‘yilgan bo‘ladi yoki meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnomada belgilanadi.

Vorislar, asosan, meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgani sababli, meros huquqi oila va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda ham katta rol o‘ynaydi. Vorislik – ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi hisoblanib, mol-mulkning yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan (meros qoldiruvchidan) ikkinchi shaxsga (merosxo‘rlarga) o‘tishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham u, hammadan avval, iqtisodiy hodisa bo‘lib vujudga keladi, iqtisodiy munosabat sifatida vafot etgan shaxs mulkining yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarining merosxo‘rlarga o‘tishini belgilaydi. Bu munosabatlar fuqarolik qonunchiligi qoidalariga asosan tartibga solinadi. Demak, vorislik huquqi vafot etgan shaxsning xususiy mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga, ya’ni merosxo‘rlarga o‘tish shartlari va tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir. Vorislik huquqi meros huquqining bir qismi sifatida meros tarkibiga kirgan mol-mulk, mulkiy huquq va

majburiyatlarning qonunda belgilab qo‘yilgan hamda vasiyatnomada meros qoldiruvchi tomonidan ko‘rsatilgan shaxslarga qonunda nazarda tutilgan yoki meros qoldiruvchi tomonidan belgilangan shart va tartibda o‘tish qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Vorislik huquqi vafot etgan (meros qoldiruvchi) shaxs mulkining vorislarga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir, boshqacha qilib aytganda, fuqarolar vafot etganda ularning ma’lum bir huquq va majburiyatlarining boshqa shaxslarga o‘tishini belgilab beruvchi fuqarolik huquqi normalar yig‘indisidan iboratdir.

Demak, vorislik huquqi meros huquqi mazmunini to‘la o‘z ichiga olmasdan, balki uning bir qismini, faqatgina meros mulkning vorislarga o‘tish sharti va tartibini belgilaydi, xolos. Meros tarkibiga ashyolargina kirmasdan, balki meros qoldiruvchining boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan bo‘lgan har xil qonuniy talablari ham kiradi. Masalan, meros qoldiruvchining olishi lozim bo‘lgan, lekin ololmay qolgan ish haqi, mualliflik haqiga bo‘lgan huquqi va boshqalar. Meros tarkibiga faqatgina talab qilish huquqi emas, balki meros qoldiruvchining mulkiy majburiyatlari ham kiradi.

Demak, vorislik deganda mulkiy huquq va majburiyatlarning, ayrim hollarda nomulkiy huquq va majburiyatlarning ham vafot etgan shaxsdan qonunda yoki vasiyatnomada ko‘rsatilgan shaxslarga belgilangan shart va tartibda o‘tishi tushuniladi. Meros vorislik huquqi asosida qonunda belgilangan yoki meros qoldiruvchi belgilagan tartibda va shartlarda tegishli shaxslarga – qonun bo‘yicha merosxo‘rlarga yoki vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlarga o‘tishi lozim bo‘lgan mulkiy huquq va majburiyatlardan yoki nomulkiy huquq va majburiyatlardan iborat bo‘lib, uning meros qoldiruvchidan merosxo‘rlarga o‘tish tartibini vorislik huquqi belgilaydi. Vafotidan keyin vorislik huquqi asosida mol-mulki yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlari boshqa shaxslarga o‘tadigan shaxslar meros qoldiruvchi bo‘lib sanaladilar. Meros qoldiruvchi o‘zining xususiy mulkini, mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarini o‘zi vafot etgandan keyin tasarruf etish huquqining kimga o‘tishini amaldagi qonunlar asosida belgilab qo‘yish bo‘yicha farmoyish berish huquqiga ega. Uning bu huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida belgilangan qoidadan kelib chiqadi.

Meros qoldiruvchining qonunga muvofiq o‘z erki bilan belgilab qo‘yilgan shart va tartibdagi vorislik vasiyat bo‘yicha vorislik deyiladi.

Agar meros qoldiruvchi o‘z xususiy mulkining o‘zi vafot etgandan keyingi taqdirini belgilab qo‘ymagan bo‘lsa, vorislik qonun bo‘yicha

amalga oshiriladi. Demak, qonunda belgilab qo‘yilgan yoki vasiyatnomada maxsus ko‘rsatilgan meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlarini o‘z zimmasiga olgan shaxslar – voris, ya’ni merosxo‘r hisoblanadilar. Merosxo‘r bo‘lish shaxsning fuqaroligiga yoki muomala layoqatiga bog‘liq emas. FKning 1118-moddasiga asosan meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotligida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari qonun bo‘yicha merosxo‘r hisoblanib, vasiyat bo‘yicha ham merosxo‘r bo‘lishlari mumkin. Jismoniy shaxs bilan bir qatorda, yuridik shaxslar ham, shu jumladan, davlat va uning organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ham vasiyat bo‘yicha merosxo‘r bo‘la oladilar.

Ammo meros mulkning taqdirini hal qilish vasiyat bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan hollarda, meros qoldiruvchi, albatta, to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lishi shart. Meros qoldiruvchi vafot etgan paytda hayot bo‘lmagan, qonun bo‘yicha vorislar doirasiga kirgan shaxslarning hissalari, odatda, taqdim qilish huquqi bo‘yicha ularning vorislariga o‘tadi.

Demak, vorislik huquqining vazifasi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga, merosxo‘rlarga o‘tishini qonun bilan belgilangan tartibda ta’minlashdan iborat. Shunday qilib, shaxs o‘z xususiy mulkining o‘zi vafot etgandan keyingi taqdirini o‘zi hayotligida belgilash, merosning ochilishi, merosxo‘rlar doirasini aniqlash, merosni saqlash, muhofaza qilish va boshqarish, merosni taqsimlash, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish, merosdan voz kechish, meros mulkdan qilinadigan xarajatlar, merosni egasiz deb topish va boshqa meros mulk bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutgan meros huquqini amalga oshirishning huquqiy kafolati – meros huquqi institutini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga asosan, vorislik ikki asosda vujudga kelishligi ko‘rsatilgan.

Birinchidan, qonun bo‘yicha vujudga kelsa.

Ikkinchidan, vasiyat bo‘yicha vujudga keladi.

Vorislik huquqining ikkala vujudga kelish asoslari, O‘zbekiston Respublikasi hududida vorislik huquqi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibda tartibga solinadi. Chunki, vorislik huquqi fuqarolik huquqining alohida va mustaqil instituti bo‘lib, jismoniy shaxs vafotidan so‘ng yoki yuridik shaxs tugatilganidan so‘ng vujudga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi

sifatida namoyon bo‘ladi. Vorislik deganda mulk egasi vafot etganidan keyin, mol-mulk qonun yoki vasiyat asosida boshqa shaxs yoki shaxslarga o‘tishi tushuniladi.

Vorislikning vasiyat va qonun bo‘yicha vorisliklar amalga oshiriladi.

Qonun bo‘yicha vorislik vasiyat mavjud bo‘lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa, shuningdek FKda belgilangan boshqa hollarda amalga oshiriladi.

Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar vorislikka FKning 1135–1141-moddalarida nazarda tutilgan tartibda vorislikda merosxo‘rlar bo‘lib hisoblanadilar. FKda qonun bo‘yicha merosxo‘rlikning oltita darajadagi merosxo‘rlari keltirib o‘tilgan.

Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari, bir tarafdan, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari, ikkinchi tarafdan, tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Qonun bo‘yicha vorislik mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiy mulkning taqdirini vasiyat bo‘yicha hal qilmagan bo‘lsa, mulk egasining vafot etgandan keyin uning ma’lum bir shaxs tomonidan tasarruf qilishini belgilamagan hollarda qonun bo‘yicha vorislik vujudga keladi. Bundan tashqari, qonun bo‘yicha vorislik huquqi:

birinchidan, vasiyatnoma qisman yoki butunlay haqiqiy emas deb topilgan hollarda;

ikkinchidan, meros mulkning hammasi vasiyat qilinmasdan qolgan taqdirda, vasiyat qilinmagan qismiga;

uchinchidan, vasiyat bo‘yicha merosxo‘r meros ochilgandan keyin merosni qabul qilmasdan vafot etgan bo‘lsa;

to‘rtinchidan, vasiyat bo‘yicha merosxo‘r merosni olishdan bosh tortgan yoki undan voz kechgan holatlarda vujudga keladi.

Qonun bo‘yicha merosxo‘r meros qoldiruvchi bilan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan, ya’ni meros qoldiruvchining avlodlari, oila a’zolari, mehnatga layoqatsiz, uning qaramog‘ida bo‘lgan, oila a’zolari bo‘lmagan shaxslar bo‘lishlari mumkin. Demak, qonun bo‘yicha merosxo‘rlar bo‘lish uchun ular nafaqat meros qoldiruvchining rasman qon-qarindoshlari bo‘lishi, shuningdek, amalda ham yaqin kishilari bo‘lishi kerak. Qonun bo‘yicha vorislik munosabati bilan meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlari o‘tish tartibi va shartlari qonunda belgilanib qo‘yilgan. Meros qoldiruvchining mol-mulki qonunda belgilangan tartibda, miqdorda merosxo‘rlar o‘rtasida bo‘linadi. Meros qoldiruvchining vafoti yoki sud qarori bilan mulk egasini vafot etgan deb

e’lon qilingan vaqtdan boshlab, vorislik huquqi, to‘lig‘icha qonun bo‘yicha merosxo‘rlarga o‘tadi.

Qonunda belgilanmagan shaxslarga yoki belgilangan tartibni buzib, meros mulkni yaqin qarindoshlarga yoki boshqa yaqin kishilarga, meros qoldiruvchining qaramog‘ida bo‘lmagan shaxslarga berish mumkin emas.

Vasiyat bo‘yicha vorislik huquqining vujudga kelishi, meros qoldiruvchining erki bilan vujudga keladi. Vasiyat bo‘yicha vorislik tayinlanganda meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlari merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlanishi, shuningdek, vorislarni belgilash faqatgina meros qoldiruvchining erki bilan amalga oshiriladi. Merosdan chetlashtirish yoki meros olishdan mahrum qilish faqat qonunda belgilangan asoslarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Vorislik huquqining vujudga kelish asoslari qonun va vasiyat bo‘yicha vorislik o‘zaro kelishuv asosida yuridik harakatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Yuridik harakatlarsiz vorislik huquqining amalga oshirilishi hayotda hatto, sud amaliyotida ham mulkdorning vafotidan keyin nizoli holatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomaga asosan fuqaro Boboqulov o‘ziga tegashli bo‘lgan uy-joyini va jamg‘arma bankida saqlanayotgan omonat mablag‘ni nevarasi Nodirjonga vasiyat qilib qoldirgan. Boboqulov vafotidan keyin uning voyaga yetgan bolalari sudga murojaat qilib, meros qoldiruvchi og‘ir kasalligi sababli vasiyatnomaga imzo qilish imkoniyati bo‘lmagan, vasiyatnoma qalbakilashtirilgan degan asosda uni haqiqiy emas deb topishni so‘raganlar. Tuman sudining ajrimi bilan ish yuritish bekor qilinib, taraflarning meros mulkni taqsimlash haqidagi o‘zaro kelishuvi tasdiqlangan. Ish kassatsiya tartibida ko‘rilmagan. Viloyat sudining rayosati viloyat prokurorining nazorat tartibidagi protestini rad qilib, tuman sudining ajrimini kuchida qoldirgan. Respublika Bosh prokurorining o‘rinbosari tomonidan keltirilgan protestda ish bo‘yicha vasiyatnomaning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini aniqlamasdan turib, masalani hal qilish mumkin emasligini asos qilib, tuman sudining ajrimini va viloyat sudi rayosatining qarorini bekor qilib, ishni qaytadan ko‘rishga yuborish to‘g‘risidagi talabi Oliy sudning fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hay’atining ajrimi bilan qanoatlantirilgan.

Meros huquqining vujudga kelish huquqining o‘ziga xos belgilari:

1. Meros huquqi xususiy mulkni, mulkiy huquq va majburiyatlarni himoya qilish, uni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

2. Meros qoldiruvchi vafotidan keyin ham xususiy mulkining saqlanishini, uning ko‘payishini, rivojlanishini, o‘sishini, oilani

mustahkamlashdagi omillarini hisobga olib, uning kimga o‘tishiga befarq qaray olmaydi.

3. Qonun bo‘yicha vorislar bo‘lib, asosan, qon-qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq oila a’zolari hamda oila a’zolari bo‘lmagan, lekin mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj, meros qoldiruvchi qaramog‘ida bo‘lgan shaxslar hisoblanadilar. Qonun bo‘yicha vorislar meros qoldiruvchiga rasman va shu bilan birga, amalda ham eng yaqin kishilardir.

4. Meros huquqi bo‘yicha meros mulkdan olinadigan hissa erkaklar uchun ham, xotinlar uchun ham, qayd qilingan nikohdan tug‘ilgan bolalar uchun ham, belgilangan tartibda otaligi aniqlangan bolalar uchun ham, farzandlikka olingan bolalar uchun ham bab-baravardir.

5. Vasiyat bo‘yicha meros qoldirilganda merosxo‘rlar doirasi kengayib, nafaqat jismoniy shaxslarga, shu bilan birga, tashkilotlarga ham berilishi mumkin.

6. Qonun bo‘yicha vorislar bo‘lmagan taqdirda va vasiyat bo‘yicha ham merosxo‘r tayinlanmagan hollarda, meros mulk sudning hal qiluv qarori bilan egasiz deb topilib, davlat yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi ixtiyoriga o‘tadi.

Vorislik huquqi asosida meros mulkni qabul qilish merosning ochilish munosabati bilangina amalga oshiriladi. Qonun vorislik huquqiy munosabatlarning kelib chiqishini merosning ochilishi bilan bog‘laydi. Shuning uchun ham merosning ochilish vaqti muhim va zarur ahamiyat kasb etadi. Vorislik huquqining vujudga kelishi muayyan bir hodisaning sodir bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunday hodisa, birinchidan, fuqaroning vafot etishi, ikkinchidan, fuqaroning sudning hal qiluv qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilinishi hisoblanadi. Merosning ochilishi ma’lum bir vaqtda vujudga keladi. Merosning ochilish vaqtini to‘g‘ri aniqlash merosga oid huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda g‘ayriqonuniy harakatlarning oldini olishga imkon beradi. Merosning ochilish vaqtini to‘g‘ri aniqlash meros tariqasida o‘tadigan huquq va majburiyatlarning tarkibini belgilash, merosxo‘rlarning doirasini aniqlash, qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha belgilangan meros mulkni qabul qilib olish yoki undan voz kechish, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish va kreditorlarning da’vo qo‘zg‘atishi uchun muddatni belgilash hamda boshqa merosga oid huquqiy munosabatlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

FKning 1116-moddasiga asosan, meros qoldiruvchining o‘lgan kuni (zarur bo‘lganda payti ham), u vafot etgan deb e’lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqacha muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, vafot etgan deb

e’lon qilish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiradigan kun – meros ochilgan vaqt deb sanaladi.

Nikoh munosabatlari yoki qon-qarindoshlik tufayli bir-birlari bilan bog‘langan shaxslarning bir vaqtda vafot etishlari, ularning har birining vorislari mustaqil ravishda vorislikka chaqirilishiga sabab bo‘ladi.

Masalan, avtohalokat oqibatida er va xotin bir paytda halok bo‘ldilar. Erning oldingi xotinidan bir bolasi va xotinining ham oldingi eridan bir bolasi qolgan. Notarius merosni taqsimlaganda, avvalo, ulardan qolgan mol-mulkni Oila kodeksining 23, 25 va 27-moddalari, hamda nikoh shartnomasiga asosan, har birining xususiy, shaxsiy va birgalikdagi mulklarini aniqlab, 27 va 28-moddalar tartibida birgalikdagi mulkda ularning hissalarini belgilab, merosni vorislar o‘rtasida adolatli taqsimlash choralarini ko‘radi. Chunki er bilan xotin o‘rtasida vorislik huquqi paydo bo‘lmaydi. Ularning har biridan keyin meros ochilgani sababli, har ikkalasining merosxo‘rlari o‘zlarining, biri otasining va biri onasining meros mulkiga voris bo‘ladilar.

Vasiyatnoma bergan shaxs bilan vasiyatnoma bo‘yicha huquq oluvchi shaxs bir vaqtning o‘zida vafot etgan taqdirda vasiyat bo‘yicha meros ochilmaydi. Meros mulk qonun bo‘yicha vorislarga o‘tadi. «B» notariusga murojaat etib, otasi «K»ning nomiga bobosi «V» tomonidan vasiyat qilib qoldirgan yengil avtomashina «Jiguli»ga merosga bo‘lgan huquqi haqida guvohnoma berishni so‘ragan. «K» va «V» bir paytda avtohalokat oqibatida halok bo‘lganliklari sababli vasiyat bo‘yicha meros ochilmasligi va FK 1116-moddasining 3-qismiga asosan biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo‘lgan shaxslar bir kalendar sutka ichida vafot etgan taqdirda, meros ularning har biridan keyin ochilishi va har birining merosxo‘rlari vorislikka alohida chaqirilishlari tushuntirilgan. Demak, «K»ga vasiyat qilingan «V»ning «Jiguli» yengil mashinasi uning qonun bo‘yicha vorislariga o‘tadi.

Vorislik huquqiy munosabatlariga tatbiq etilishi lozim bo‘lgan qonun hujjatlarini to‘g‘ri aniqlash ham merosning ochilish vaqtini aniq belgilashga bog‘liq. Chunki merosxo‘rlar doirasi ham, meros munosabatlariga tatbiq qilish lozim bo‘lgan qonunlar ham merosning ochilish payti bilan belgilanadi.

Vorislikka doir huquqiy munosabatlar meros ochilgan paytdagi amalda bo‘lgan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qonun bo‘yicha vorislikni amalga oshirish uchun qonunda meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatida bo‘lgan va meros qoldiruvchining qaramida, uning boqimida bo‘lgan mehnatga qobi-liyatsiz

shaxslar hisobga olinadi. Demak, qonunda belgilab qo‘yilgan shart va tartibda, meros qoldiruvchi tomonidan o‘zgartirilmagan vorislik qonun bo‘yicha vorislik deyiladi.

FKning 1134-moddasiga asosan, qonun bo‘yicha vorisliqda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari bir tarafdan, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari ikkinchi tarafdan tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Demak, voyaga yetmagan bolalar – farzandlikka olinganlar ularning avlodlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarda teng hisoblanadilar, meros olish huquqidan ham teng foydalanadilar.

Farzandlikka olinganlar o‘z ota-onalariga nisbatan va ularning qarindoshlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini yo‘qotadilar, shu bilan birga, majburiyatlardan ham ozod bo‘ladilar.

«Farzandlikka olinganlar va ularning avlodlari, – deyiladi FK 1134-moddasining 3-qismida, – farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari vafot etgandan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar». Demak, farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi, buva-buvilari, aka-uka va opa-singillari ham farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yo‘qotadilar.

Meros qoldiruvchi bolalarining qonun bo‘yicha vorislik huquqiga ega bo‘lishlari uchun, avvalo, ular qonuniy nikohda bo‘lgan ota-onalardan tug‘ilgan bo‘lishlari kerak. Bunday bolalar ham otadan, ham onadan meros olish huquqiga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir qatorda, qonuniy nikohda bo‘lmagan ota-onadan tug‘ilgan bolalar, qonunda belgilangan tartibda otaligi aniqlangan holdagina, birinchi navbatda qonun bo‘yicha merosxo‘rlar doirasiga kiradilar va ham ota, ham onadan meros olish huquqiga ega bo‘ladilar. Otaligi belgilanmagan bolalar esa, faqatgina ona vafot etgan taqdirda, uning meros mulkiga birinchi navbatda qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘ladilar. Ammo meros qoldiruvchining qaramog‘ida, uning boqimida bo‘lgan bolalar shu asosda merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.

Meros qoldiruvchi hayotligida homilada bo‘lib, uning vafotidan keyin 300 kun mobaynida tirik tug‘ilgan bolalari ham FKning 1135-moddasida ko‘rsatilgan tartibda birinchi navbatdagi merosxo‘r bo‘ladilar. Er (xotinning) o‘gay bolalari merosxo‘rlar bo‘la olmaydilar. Bular faqat mehnatga layoqatsiz bo‘lib, meros qoldiruvchi o‘gay ota yoki o‘gay onaning boqimida bo‘lgan taqdirda vorislikka chaqirilishlari mumkin.

Xuddi, shuningdek, o‘gay bolalar o‘gay ota yoki onalariga merosxo‘rlik huquqini berish huquqiga ega emaslar.

Qonun bo‘yicha ikkinchi navbat vorislar jumlasiga FKning 1136-moddasida belgilab qo‘yilgan meros qoldiruvchining tug‘ishgan hamda ona biru ota boshqa yoki ota biru ona boshqa aka-ukalari va opa-singillari kiradilar. Bundan tashqari, meros qoldiruvchining ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi qonun bo‘yicha ikkinchi navbatda teng ulushlarda meros olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Meros qoldiruvchining ona tomonidan bobosi va buvisi qar qanday holatda ham o‘zlarining nevaralaridan meros olish huquqiga ega, ammo meros qoldiruvchining ota tomonidan bobosi va buvisi vafot etgan nevarasi bilan uning otasi o‘rtasidagi yuridik bog‘lanish qonuniy bo‘lgan hollardagina voris bo‘lish huquqini qo‘lga kiritadilar. Boshqacha qilib aytganda, meros qoldiruvchi bilan uning otasi o‘rtasidagi munosabat ota-onalik munosabati qonuniy nikoh munosabatlaridan kelib chiqqan taqdirda yoki meros qoldiruvchiga nisbatan otalik qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hollardagina, ota tomondan bo‘lgan bobo va buvilari meros qoldiruvchi nevaralarining meros mulkiga ikkinchi navbatda qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘la oladilar. FKning 1137-moddasida qonun bo‘yicha uchinchi navbat vorislikka chaqirilishi lozim bo‘lgan shaxslar belgilangan. qonun bo‘yicha uchinchi navbat vorislik huquqiga meros qoldiruvchining tug‘ishgan amakisi, tog‘asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda ega bo‘ladilar. Qonun bo‘yicha uchinchi navbat vorislikka chaqirilishi uchun o‘zidan oldingi navbatdagi vorislarning umuman bo‘lmasligi yoki ular meros olishdan voz kechgan bo‘lishlari yoxud qonunda belgilangan tartibda merosdan chetlashtirilgan bo‘lishlari kerak.

FKning 1138-moddasiga asosan to‘rtinchi navbatda vorislik huquqiga meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham kiradi) bo‘lgan qarindoshlari qonun bo‘yicha ega bo‘ladilar. Bu navbat bo‘yicha meros olishda meros qoldiruvchining yaqinroq qarindoshlari uzoqroq qarindoshlariga nisbatan imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Qarindoshlik deb, ikki yoki bir necha shaxslar o‘rtasidagi tug‘ishganlik, qon-qarindoshlik tizimi tufayli huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki tutashi bilan bog‘liq bo‘lgan qondoshlik aloqasiga aytiladi. Qarindoshlikning yaqin-uzoqligi uning chiziqlari shajaralari va darajalari bilan belgilanadi. Bir shaxsning bevosita boshqa shaxsdan tarqalishi darajani belgilaydi. Har bir yangi tug‘ish bilan yangi daraja paydo bo‘ladi.

Vasiyat qoldiruvchi o‘zining vasiyatnomasidagi farmoyishi bilan qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning hammasini, bir nechtasini yoki bittasini merosdan mahrum qilishga haqli. Bundan tashqari, vasiyat qoldiruvchi ayrim merosxo‘rlarning hissalarini ko‘paytirish yoki kamaytirish haqida ayrim ashyolarni ma’lum bir vorislarga berish haqida farmoyishda ko‘rsatishi mumkin. Vasiyat qoldiruvchi o‘zining bunday harakatlarining sababini tushuntirib, izoh berishga majbur emas. Shu bilan birga, qonuniy vorisni merosdan mahrum qilish biror shart asosida ham bo‘lishi mumkin emas. Umuman vasiyatnomani bekor qilish sharti bilan vasiyatnoma tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo uni kechiktirish sharti bilan vasiyatnoma tuzilishi mumkin. Bunday hollarda meros mulk birdaniga vasiyat bo‘yicha vorisga o‘tmaydi va vasiyatnomada berilgan farmoyishga ko‘ra, ma’lum bir topshiriq bajarilgandan keyin o‘tish tartibi haqida shart qo‘yilishi mumkin.

Bir yoki bir necha merosxo‘rlar meros olish huquqi ko‘rsatilgan taqdirda, vorislikni navbat bo‘yicha boshqa, qonun bo‘yicha merosxo‘rlar oladilar. Agar hamma vorislar meros olish huquqidan mahrum qilingan bo‘lsalar, meros mulk FKning 1157-moddasi tartibida sudning qarori bilan egasiz mulk deb topilib, davlat yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi egaligiga o‘tadi.

Vasiyatnomada voris sifatida ko‘rsatilmagan merosxo‘r vasiyat qilinmasdan qolgan meros mulkka qonun bo‘yicha voris bo‘lish huquqini saqlab qoladi. Meros ochilmasdan vafot etgan yoki merosdan voz kechgan vasiyat bo‘yicha merosxo‘rga vasiyat qilingan mulkni olish huquqi qonun bo‘yicha merosxo‘rlarga o‘tadi. Taqdim qilish huquqi vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlar vorislariga o‘tmaydi. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning meros olish huquqidan mahrum etilishi, agar vasiyatnomadan boshqa hol kelib chiqmasa, ularning taqdim qilishi huquqi bo‘yicha vorislik qiladigan avlodlariga nisbatan tatbiq etishadi. Meros qoldiruvchi vasiyatnomada o‘ziga tegishli mulkni nafaqat kimga meros qilib qoldirish haqida, shu bilan birga, ayni vaqtda, umumiy tarzda «hamma bolalarimga», «nevaralarimga» va hokazo boshqacha umumiy tarzda, ularning qonun bo‘yicha qaysi navbatda merosxo‘r bo‘lishlaridan qat’i nazar, belgilab qo‘yishi mumkin.

Vasiyatnoma so‘zi ikki ma’noda tatbiq etiladi.

Birinchidan, vasiyatnoma – bu vasiyat qoldiruvchining erki ifodalangan hujjatning o‘zi sifatida tatbiq qilinsa, *ikkinchidan,* vasiyatnoma – vasiyat qoldiruvchining erkini ifoda etuvchi akt (hujjat) hisoblanadi. Bu ma’noda vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo‘lib, uni

tuzish uchun qonun hujjatlariga asosan bir tarafning, ya'ni vasiyat qoldiruvchining xohishi yetarli. Boshqa bir shaxsning qarshi erkini ifoda qilish talab qilinmaydi. Shuning uchun vasiyatnomaning haqiqiyligi hech vaqt vorislarning roziligiga bog‘liq emas.

Vasiyat qoldiruvchi shaxsan o‘zi, o‘z erki bilan merosxo‘rga o‘zining xususiy mol-mulkiga nisbatan ma'lum bir huquqni belgilab beradi. Vorisni merosdan mahrum qilish uchun sababini tushuntirishga meros qoldiruvchi majbur emasligi nazarda tutiladi. «Meros qoldiruvchi, – deyiladi FKning 1120-moddasi 7 bandida, – vasiyatnoma tuzilgandan keyin uni istagan paytda bekor qilish yoki o‘zgartirish borasida erkin bo‘lib, bunda bekor qilish yoki o‘zgartirish sabablarini ko‘rsatishga majbur emas».

Buning uchun faqat qonunda belgilangan shakl va tartibga rioya qilish talab qilinadi, xolos. Vasiyat bo‘yicha merosxo‘r faqat meros ochilgandan keyin merosdan voz kechishga yoki merosni qabul qilib olmaslikka haqli. Vasiyatnoma tuzgan shaxs o‘zining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog‘liq hamma harakatlarni amalga oshirish huquqini saqlab qoladi. Buning uchun vasiyatnomani to‘ligacha yoki qisman bekor qilish, uning mazmunini o‘zgartirish shart emas. Vasiyatnomada belgilab qo‘yilgan alohida ashyolarni ma'lum bir merosxo‘rga berish haqidagi farmoyish meros ochilgunga qadar u shaxs uchun hech qanday huquq tug‘dirmaydi.

Vasiyatnomani vasiyat qiluvchining o‘rniga imzolashi man qilingan shaxslarning tizimi FKning 1124-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Quyidagi shaxslar vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani qilishlari mumin emas:

– notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlash huquqi berilgan mansabdor shaxs;

– vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari;

– vasiyat qiluvchining qonun bo‘yicha merosxo‘rlari;

– to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmagan fuqarolar;

– savodsizlar va vasiyatnomani o‘qiy olmaydigan boshqa shaxslar;

– yolg‘on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar.

«Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 37-moddasiga binoan, notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindosh-urug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan,

shuningdek, mazkur davlat notariat idorasining xodimlari yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning qo‘l ostida ishlovchi shaxslar nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Og‘zaki shartnomalar tuzish, har xil texnik vositalar yordamida (masalan, magnitofonga, videotasmaga yozilgan) vasiyat qoldiruvchi so‘zidan bo‘lsa ham yozib olingan vasiyatnomalar haqiqiy hisoblanmaydi va bunday tartibda tuzilgan vasiyatnomlarning haqiqiyligini guvohlar ko‘rsatmalari yoki boshqa dalillarga asosan sud yo‘li bilan ham tasdiqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuman sudining 2008-yil 8-oktabrdagi hal qiluv qarori bilan meros qoldiruvchining kichik o‘g‘li «A»ning o‘z akasi «F»ga nisbatan qo‘zg‘atilgan da’vosi qanoatlantirib, otalaridan meros qolgan «Moskvich» avtomashinasini otalari hayotligida «A»ning foydasiga oilaviy maslahatda «kichik o‘g‘limga vasiyat qildim» degan og‘zaki gapi asos qilib olingan. Sudning bu hal qiluv qarori g‘ayri qonuniy bo‘lganligi sababli «F»ning shikoyatiga asosan viloyat sudi tomonidan bekor qilingan.

Vasiyatnomaning tuzilishi vaqti va joyini belgilab qo‘yish amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Meros ochilgandan keyin merosxo‘rlar o‘rtasida nizo chiqqanida, *birinchidan,* meros qoldiruvchining vasiyatnoma tuzganda muomala layoqatiga ega bo‘lmaganligi, harakatlarining oqibatiga ko‘zi yetmaganligi;

ikkinchidan, ikki yoki undan ortiq vasiyatnoma mavjud bo‘lganda, ulardan qaysi biri haqiqiy ekanligini belgilash, qaysi biri oldin va qaysi biri keyin tuzilganligini aniqlash vasiyatnomada ko‘rsatilgan vaqtda vasiyat qoldiruvchi imzo qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini isbotlash uchun zarur bo‘ladi. Qonunda belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilingan qolda tuzilgan vasiyatnomalar haqiqiy bo‘lib sanaladi.

Amaliyotda shunday hodisalar uchraydiki, vasiyat qoldiruvchi bir necha marotaba o‘zining vasiyatnomasini tuzib qoldiradi. Uning qaysi biri haqiqiy ekanligini aniqlash uchun vasiyatnomaning tuzilishi vaqti asos qilib olinishi kerak. Keyingi tuzilgan vasiyatnoma avvalgi vasiyatnomaning bekor bo‘lishi uchun asos bo‘ladi. Vasiyatnomaning tuzilgan vaqti uning notarial tasdiqlangan vaqgi bilan hisoblanadi. Qonunda nazarda tutilgan vasiyatnoma shakliga doir asosiy talablarning vasiyatnoma notarius tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi va notarial tasdiqlangan vasiyatnomaga tenglashtirilgan bo‘lishidir. Yozma shakldagi vasiyatnomalar faqat qonunda belgilangan shaklda rasmiylashtirilib, tasdiqlangandagina haqiqiy hisoblanadi.

Amaliyotda mol-mulkni vasiyat qilib qoldirish qarindoshlar oldida ular bilan munosabatlarda noqulaylik tug‘diradi. Shu sababdan qonun (FKning 1128-moddasi) vasiyatnomaning sir saqlanishini nazarda tutadi. Qonun vasiyatnomaning sir saqlanishini ta’minlash uchun yetarli choralar va tadbirlar belgilab qo‘ygan.

«Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasiga asosan amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar faqat sud, prokuratura va tergov organlarining talabiga asosan ular yuritayotgan ishlar munosabati bilan beriladi. Vasiyatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar vasiyat qiluvchining vafotidan keyingina berilishi mumkin.

«Notarius, vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdor shaxs, shuningdek, vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaro, – deyiladi FKning 1128-moddasida, – meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuniga, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas».

Xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan notarial harakatlar haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni har qanday mansabdor shaxs ham oshkor qilishga haqli emasdir. Bunday shaxslar qonunda belgilangan tartibda vasiyatnoma sirlarini oshkor qilganliklari uchun tegishli tartibda javobgar bo‘ladilar.

Vasiyatnomani sir saqlash haqidagi qonun talablari vasiyat qoldiruvchi uchun ham majburiydir. Vasiyat qoldiruvchining o‘zi vasiyatnoma haqida oshkora aytishga va uni boshqalarga ko‘rsatishga haqli, ammo notarial idorasiga vasiyatnomani oshkor qilish uchun farmoyish berishga haqli emas. Vasiyatnoma faqat meros ochilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Vasiyatnomaning tuzilishidan uning kuchga kirishiga qadar ancha vaqt o‘tishi mumkin. Qonun bu muddatni chegaralab qo‘ygan emas. Agar vasiyatnoma vasiyat qoldiruvchi tomonidan o‘zgartirilmagan yoki bekor qilinmagan bo‘lsa, u qancha vaqt o‘tishidan qat’i nazar, amal qiladi. Vasiyat qoldiruvchi o‘zining vasiyatnomada izhor qilgan irodasini xohlagan vaqtda o‘zgartirishga va bekor qilishga haqli. Vasiyatnomaning tuzilganligi, o‘zgartirilganligi yoki bekor qilinganligi ma’lum bir guruh shaxslarga ma’lum bo‘ladi. Notarius, qonun bilan notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan shaxslar, vasiyat qoldiruvchi o‘rniga vasiyatnomani imzo qilgan shaxslar vasiyatnoma haqida axborotga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin. Bu shaxslar meros ochilganga qadar vasiyatnomaning mavjudligi va uning mazmuni haqida hech kimga, shu jumladan, merosxo‘rning o‘ziga ham oshkor qilishga haqli emaslar. Vasiyatnoma tuzuvchi uning mazmuni bilan tanishib chiqmasdan tasdiqlashni notariusdan talab qilish huquqiga ega. Bunday vasiyatnomalar

maxfiy vasiyatnoma bo‘lib hisoblanadi. Maxfiy vasiyatnoma haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida vasiyat qoldiruvchining o‘z qo‘li bilan yozilishi, imzolanishi va ikki guvoh hamda notarius ishtirokida konvertga solinib yelimlanishi lozim. Yelimlangan konvertning ustida guvohlarning ismi, otasining ismi va familiyalari, ularning doimiy turar joylari to‘liq yozilib, ular tomonidan imzolanishi kerak. Guvohlar imzolangan bu konvert ham ularning va notariusning ishtirokida boshqa konvertga solinib, notarius tomonidan yelimlanib, uning ustiga tasdiqlash ust xati yozilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risida»gi qonunining 23-moddasiga asosan vasiyatnomalarni tasdiqlash davlat notarial idoralarida ishlovchi notariuslar, O‘zbekiston Respublikasi chet ellardagi konsullik muassasalarining konsullari (28-modda), shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollari) (25-modda), shuningdek, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar (24-modda) tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Vasiyatnomani guvohlantirish vaqtida notarius vasiyatnomani guvohlantirishni so‘rab murojaat qilgan shaxsning muomala layoqatini va uning shaxsini belgilangan tartibda aniqlashi; bundan tashqari, vasiyatnoma vasiyat qoldiruvchi tomonidan o‘z qo‘li bilan yozilganligini, undagi imzo o‘z qo‘li bilan qo‘yilganligini tekshirib, shunga ishonch hosil qilishi kerak. Vasiyat qoldiruvchining jismoniy kamchiliklari va savodsizligi oqibatida o‘zi o‘z qo‘li bilan yozish va imzo qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lmagan taqdirda, notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqi berilgan mansabdor shaxs tomonidan uning so‘zlaridan yozib olinishi mumkin. Bunday hollarda, albatta, vasiyatnoma matni vasiyat qoldiruvchiga o‘qib berilishi shart va bu haqda vasiyatnomaga alohida belgi qilib qo‘yilishi kerak. Agar savodsiz vasiyat qoldiruvchining qulog‘i kar, tili gung yoki ham kar, ham gung bo‘lsa, vasiyatnoma guvohlantirilayotganda ularga tushuntira biladigan shaxsning ishtiroki ta’minlanishi va u o‘zining imzosi bilan vasiyatnomaning mazmuni vasiyat qoldiruvchining erkiga to‘g‘ri kelishini guvohlantirishi kerak. Bu harakatlarning hammasi, albatta, vasiyatnomani guvohlantiruvchi notariusning yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning ishtirokida bo‘lishi shart. Vasiyatnoma faqat vasiyat qoldiruvchi huzurida tasdiqlanishi lozim.

Vasiyat qoldiruvchining xohishiga ko‘ra, vasiyatnomani guvohlantirish xohlagan notarial idorasida amalga oshirilishi mumkin. Basharti, vasiyat qoldiruvchi tomonidan oldin, boshqa notarial idorasida vasiyatnoma rasmiylashtirilgan bo‘lsa, uni bekor qilish yoki o‘zgartirish haqida birinchi vasiyatnomani guvohlantirgan notariusga murojaat qilish shart emas. Ammo vasiyatnomani ikkinchi marotaba guvohlantirayotgan notarius bu haqda

birinchi vasiyatnomani guvohlantirgan notariusga xabar berishi shart. Notarial idoralarida tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda qonunda nazarda tutilgan tartibda mansabdor shaxslar tomonidan vasiyatnomaning tasdiqlanishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday vasiyatnomalar notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi.

FKning 1126 va «Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 26-moddasida quyidagi vasiyatnomalar notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilishi belgilanib qo‘yilgan:

1) kasalxonalar, gospitallar, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh vrachlari, ularning davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi vrachlar, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari yoki bosh vrachlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

bunday vasiyatnomalar tasdiqlanayotganda, albatta, FKning 1125-moddasida belgilab qo‘yilgan notarial tasdiqlash to‘g‘risidagi talabdan boshqa hamma shartlarga rioya qilish lozim;

2) O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

3) qidiruv ekspeditsiyalari yoki shunga o‘xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning ana shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

4) harbiy xizmatchilarning, notarius bo‘lmagan yerlarda joylashgan harbiy qismlarda esa, bu qismlarda ishlayotgan harbiy bo‘lmagan fuqarolar, ularning oila a’zolari va harbiy xizmatchilar oila a’zolarining harbiy qismlar komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

5) ozodlikdan mahrum etish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

6) notarius bo‘lmagan aholi punktlarida yashayotgan shaxslarning qonunga muvofiq notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari.

Vasiyatnomaning ko‘rsatilgan shakllariga doir qoidalarga rioya qilinganda uning mazmuni haqida anglashilmovchiliklar bo‘lmasligiga va har qanday nizolarning kelib chiqishiga asos qoldirmaydi. Oqibatda vasiyatnoma talqin qilinganda undagi so‘zlar va iboralarning asl ma’nosini anglash va uni e’tiborga olish imkoniyati tug‘iladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Umumiy birgalikdagi mulk bo‘lgan mol-mulkni meros qilib olish tushunchasini aytib bering.
2. Merosning ochilishi va merosning ochilish joyi haqidagi tushunchalaringizni aytib bering.
3. Noloyiq merosxo‘rlarni merosdan chetlatish degan tushunchani yoritib bering.
4. Shartli vasiyatnoma mazmunini yoritib bering.
5. Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar qanday vasiyatnomalar hisoblanadi va ular qanday tartibda tuziladi, tushuntiring.
7. Vasiyatnomani bekor qilish va o‘zgartirish tartibini hamda uni haqiqiy emasligiga olib keluvchi holatlarni aytib bering.

18-MAVZU.
OILA HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI, MANBALARI VA TIZIMI

1. Oila huquqi tushunchasi, manbalari va prinsiplari.
2. Nikoh tushunchasi, uni tuzish va bekor qilish tartibi.
3. Nikoh shartnomasi va uning bugungi kundagi ahamiyati.

1. Oila huquqi tushunchasi, manbalari va prinsiplari

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, boshqa sohalar kabi oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunga kelib (2012-yilning 1-iyuniga qadar) Respublikamizda 30 milliondan ortiq aholi yashaydi. Shulardan 51 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Hozir aholining 50 foizini 18 yoshgacha bo‘lgan, 64 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 5 milliondan ortiq oila mavjud. Har yili 240 mingga yaqin yosh oila vujudga kelib, 700 mingdan ortiq bola tug‘ilmoqda. Respublikada oila tarkibi o‘rtacha 5,6 kishidan iborat.

Oila – jamiyatimizning tabiiy va asosiy bo‘g‘inidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta’kidlanganidek, «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega». Oila uzoq davom etadigan tarixiy taraqqiyot natijasi bo‘lib, jamiyat tuzilishiining obyektiv zarur ajralmas qismidir.

Asosiy Qonunimizda belgilangan ijtimoiy tuzum bilan oila o‘rtasida uzviy bog‘lanish mavjud.

Ijtimoiy ma’noda oila odamlarning ijtimoiy jihatdan alohida uyushgan guruhlar, ma’naviy, xo‘jalik, maishiy va boshqa turmush sharoitlari hamda manfaatlari bir xil bo‘lgan shaxslar ittifoqidir.

Oila eng muhim ijtimoiy vazifalar ya’ni: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma’naviy birlashtirish, birgalikda xo‘jalik yuritishni ta’minlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta’kidlangan quyidagi so‘zlar nihoyatda ramziy va teran ma’nodadir: «Oila

jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega».

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va beqiyosligi haqida to‘xtalib qo‘yidagi so‘zlarni ta’kidlab o‘tganlar. «Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi»[1], – deb e’tirof etganlar.

Prezidentimiz Islom Karimov 2011-yil 7-dekabr kuni bosh qomusimiz Konstitutsiyaning 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda, kirib kelayotgan 2012-yilni «Mustahkam oila yili» deb e’lon qilib, 2012-yilda yosh oilalarni har tomonlama moddiy va ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida joriy yilining 27-fevral kuni «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi qarorni imzolab, jamiyatimizda vujudga kelayotgan yosh oilalarni qullab-quvvatlash maqsadida qo‘yidagi asosiy yo‘nalishlar eng muhim ustuvor yo‘nalishlar qilib belgilab berildi. Ular quyidagilardan iborat.

– yosh oilalarga e’tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash, moddiy va ma’naviy jihatdan keng qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta’minlash, yosh oilalarga zarur imtiyoz va afzalliklar berish;

– jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta’sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko‘mak va yordam berish;

– oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko‘rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o‘z yelkasiga olgan ayollarga alohida e’tibor qaratish kabi bir qator dolzarb vazifalar mustahkamlab qo‘yildi.

Ayni oilada inson xarakterining asoslari, mehnatga, ma’naviy va madaniy boyliklarga munosabat shaklidir. Abdurauf Fitrat yozganlaridek «Insonlarning davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi,

[1] *Каримов И.А.* Юксак маънавият — енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 52.

jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq» deb oilaviy munosabatlarga ta’rif bergan. Shu bois oilani mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishda, bolalarni tarbiyalashda unga ko‘maklashish, bolali oilalarning va kelin-kuyovlarning moddiy, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish o‘z yo‘lini tutishi lozim. Jamiyat mustahkam, ma’naviy va axloqiy jihatdan sog‘lom oiladan g‘oyatda manfaatdordir.

Ma’lumki oila hayotning abadiyligini ta’minlaydi, vorislar ota-ona boshlagan ishni davom etishini amalga oshiruvchi muqaddas dargoh. Bu dargoh millatning uruf-odatlarini saqlashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga oila, kelajakda farzandlar qanday inson bo‘lib yetilishiga ta’sir ko‘rsatadigan barkamol avlod qilib tarbiyalaydigan tarbiya o‘chog‘idir.

1997-yil 29-avgustda amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida ham oiladagi ta’lim masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ota – onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning ma’lumotini oilada olishi uchun imkoniyat yaratib berishga haqli ekanligi ushbu qonunda o‘z aksini topgan.

Oila huquqi fani nikoh tuzish, nikohdagilarning huquqiy munosabatlarini, ota-ona va farzandlarning mulkiy va shaxsiy majburyatlarini, nikohni bekor qilish, uning huquqiy oqibatlarini va boshqa oilaviy turmush bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan barcha tamoyillar, qoidalar oila hayotiga, oilaviy munosabatlarga va uni tartibga soladigan boshqa qonunlarga ega bo‘lish, Oila Kodeksining mazmuni va tabiatini bilishda katta ahamiyatga ega bo‘lganidek, jamiyatda oila O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qanday ijobiy ta’siri rivojlanayotganini tushunish imkoniyatini ham beradi. Oilaning davlat muhofazasida bo‘lish haqidagi qoida «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»da davlatlar zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardan bo‘lib, u keng ma’noga ega. Bunda oilani jamiyatning tabiiy va asosiy quyi hujayrasi sifatida, uning daxlsizligini yaxshilash, bolalarga ta’lim va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila a’zolari uchun zarur bo‘lgan

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар ва қўшимчалар билан). – Т., 2007. – 39-м.

moddiy imtiyozlar tug‘dirish, oilani mustahkamlash borasida shunga o‘xshash yo‘lga qo‘yish lozim bo‘lgan muhim masalalar nazarda tutiladi.

Oila huquqi – Fuqarolik huquqi fanining ajralmas bir qismi hisoblanib, u asosan ikki jins, erkak va ayol o‘rtasida nikoh tuzish tartibi va shartlari, er-xotinning mulkiy xarakterda bo‘lgan, shuningdek mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlari, nikohning tugatilishi va uning haqiqiy hisoblanmaslik oqibatlari, asoslari va tartibi, qon-qarindoshlik va farzandlarning nasl-nasabini belgilash qoidalari, ota-onalar hamda farzandlarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlari, farzandlikka olish, vasiylik va xomiylik belgilash qoidalari va shu kabi boshqa bir qator munosabatlarni tartibga soladi.

Har bir fan singari Oila huquqining asosiy manbai bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi Qarori bilan qabul qilindi va 1998-yil 1-sentabrdan e’tiboran kuchga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 8 bo‘lim, 30 bob, 238 ta moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Oila Kodeksiga O‘zbekiston qonunchiligi uchun yangilik bo‘lgan nikoh shartnomasi, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, alimentlar to‘lash to‘g‘risida kelishish, bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarini modiy ta’minlash to‘g‘risidagi majburiyatlar hamda ota-onalar voyaga yetmagan farzandlarini moddiy ta’minlash to‘g‘risidagi majburiyatlar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va boshqa shunga o‘xshash muhim yangi qoidalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining qabul qilinishi bilan oila munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari shuningdek, yangi Fuqarolik Kodeksi bilan muvofiqlashtirildi. Ushbu kodeks O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi BMT Konvensiyasi va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalar bilan boyitildi. Chet el fuqarolari ishtirokida vujudga keladigan oila munosabatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan. Oila Kodeksining qoidalari O‘zbekiston Respublikasiga qo‘shilgan yoki ratifikatsiya qilgan xalqaro Bitimlar va Konvensiyalar hisobga olingan holda ishlab chiqildi.

Oilaga g‘amxo‘rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti I. A.Karimov tomonidan 1998-yilni Oila yili, 1999-yilni Ayollar yili, 2000-yilni Sog‘lom avlod yili, 2001-yilni Onalar va bolalar yili va 2012-yilni Mustahkam oila yili deb e’lon qilishi Respublikamizda oilaga nisbatan e’tiborning naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va tartib-intizom bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari ya’ni fuqarolar o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas.

Shuning uchun ham oila munosabatlari amaldagi qonunlar, odat va diniy qoidalar bilan tartibga solinadi. Din er-xotin, ota-ona, bolalar va boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oila jamiyatning bir bo‘lagini tashkil qiladi. U jamiyatimizning uzviy ajralmas qismidir. Bu bo‘lakchalar ya’ni, jamiyatdagi oilalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Oila jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy muassasasidir. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligida hamda, ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi.

Oilaning umumiy (ijtimoiy) va maxsus (yuridik) tushunchasi mavjuddir.

Ijtimoiy ma’noda – oila nikohga, qarindoshlikka, bolalarni tarbiyaga qabul qilishda, umumiy hayot, maqsad o‘zaro g‘amxo‘rlikka asoslangan shaxslar ittifoqidan iboratdir. Oilaviy ittifoqda shaxslar o‘rtasida axloqiy, psixologik, jismoniy va xo‘jalik-maishiy aloqalar sodir bo‘lib, ular hayotda va oliy maksadlarda umumiylikni vujudga keltiradi. Oilaviy ittifoq maxsus va shu bilan birga murakkab ijtimoiy munosabatlardan iboratdir. Odatda oilaning vujudga kelishi nikoh asosida bo‘ladi, shuning uchun oilada bola tug‘ilmagan bo‘lsa ham nikoh munosabatining o‘zi oilani tashkil etadi. Oilada er-xotin bilan bir qatorda bolalarning ham bo‘lishi tipik oilani vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama oilaning jipsligini tashkil etadi. Ular o‘rtasida juda yaqin oilaviy munosabatlar mavjuddir. Bu munosabatlarning yaqinligi oilaning yadrosini tashkil etadi. O‘zining ijtimoiy mazmuniga qarab oila, odatda, uch o‘zaro aloqadagi ijtimoiy guruh, uning asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida va farzandlardan tashkil topadi. Tipik oilaviy munosabatlardan tashqari bolali yolg‘iz ona bilan uning bolasi o‘rtasidagi, boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar, ayrim holatlarda esa tug‘ishmaganlar (farzandlikka

olganlar) o‘rtasidagi munosabatlar ham oilaviy munosabatlarni tashkil etadi.

Huquqiy ma’noda – esa oila-yuridik aloqadir. Oilaviy munosabatlardagi yuridik xarakter huquqiy normalar bilan ularning munosabatlarini tartibga solib, davlatning majburiy qoidalari bilan oila a’zolarning xulqiga ta’sir etib, oilani jamiyat xohlagan[1] asosda rivojlantirishga yordam beradi. Yuridik fakt sifatida qilingan nikoh va yaqin qarindoshlik oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim huquqiy asos bo‘ladi. Maxsus huquqiy adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan oilaga ta’rif berilgan. Insonparvar huquqiy davlatda mavjud bo‘lgan oilaga bergan ta’rif quyidagicha: «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, yuridik ma’noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqqan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog‘langan shaxslar doirasidan iborat bo‘lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir» deb ta’rif bergan.

Oilaviy munosabatlar aksariyat hollarda axloqiy normalar bilan tartibga solinadi. Oilaviy huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni nikoh va oila qonunchiligi nuqtai nazaridan tatbiq etishdir. Oilaviy huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikohdan maqsad oila qurish bo‘lib, u er xotinning butun umri davomida birga yashashga mo‘ljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta’minotiga qaratiladi. Oilaviy huquqiy munosabatlar ko‘pincha muddatsiz bo‘ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda butun umr davom etadi. Ayni paytda shunday oilaviy huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma’lum bir muddat yoki vaqt bilan cheklanadi, biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o‘z bolalarini tarbiyalash majburiyatlari farzand 18 yoshga to‘lguniga qadar davom etadi. Qonunchilik, oilaviy huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus turi deb hisoblaydi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi bilan huquqiy jihatdan tartibga solinadigan munosabatlar ikki turga: shaxsiy va mulkiy munosabatlarga bo‘linadi.

---

[1] *Юлдашева Ш.Р* Ўзбекистон Республикаси Оила ҳуқуқи.– Т., 2009.

Shaxsiy munosabatlar – qiz bilan nikohga kirayotganida familiya tanlash, turmush davrida esa kasb, mashg‘ulot va turar joy tanlash huquqlari, shuningdek, bolalarni farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalari yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlardan iborat. Bu sohada qonunlar oilaviy munosabatlarda er-xotinning huquqiy tengligi, bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash, oilada to‘g‘ri sharoitni yaratish kabilarni ta’minlashdan iborat.

Mulkiy munosabatlar – esa er xotinning shaxsiy va umumiy mulk xuquqidan, aliment majburiyatlaridan kelib chiqadigan, ota-onalar bilan bolalar, shuningdek, boshqa qarindosh-urug‘larning bir-biriga moddiy ta’minot berish majburiyatlaridan, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalaridan kelib chiqadigan mulkiy xarakterga ega bo‘lgan munosabatlardan iborat.

Oila huquqining vazifalari, Oila kodeksining 1-moddasida belgilangan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

– oilani yanada mustahkamlash;

– ayol bilan erkakning ixtiyoriy nikohlanib tuzgan ittifoqiga moddiy manfaatlarni ko‘zlashdan holi bo‘lgan, oila a’zolarning hammasi bir-biri bilan do‘st, inoq bo‘lib, bir-birini hurmatlashga asoslangan oilaviy munosabatlar qurish;

– oilada bolalar tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan uzviy ravishda qo‘shib olib borgan holda ularni, Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mehnat sevar va insonparvar qilib tayyorlash;

– ona bola manfaatlarini butun choralar bilan muhofaza qilish hamda har bir bolaning baxtiyor yoshligini ta’minlash;

– oilaviy munosabatlarda o‘tmishning zararli sarqitlari va urf odatlarini tamomila yo‘qotish;

– oila oldida mas’uliyat hissini tarbiyalash;

– biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishi va bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir.

Demak, Oila kodeksining har bir vazifalari oilaviy munosabatlarni qonun bilan tartibga solish zarur ekanligini ifodalash bilan birga oilaviy munosabatda qatnashuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Oilaviy munosabatlarga oid axloqiy normalar huquq normalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Oila kodeksining

asosiy vazifalaridan yana biri[1] fuqarolarning oila oldidagi o‘z burchlarini his qilish ruhida tarbiyalash. Bunday vazifaning bajarilishi er-xotin, ota-onalar bilan bolalar, shuningdek, qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshi va to‘g‘ri amalga oshirishda katta rol o‘ynadi.

Shuningdek, Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Oila huquqining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

– ixtiyoriylik va tenglik prinsipi;

– yakka nikohlik prinsipi;

– fuqaroviy oila;– nikohdan ixtiyoriy ajralish;

– ayol bilan erkakning teng huquqligi.

Biz o‘tadigan oila huquqi fani quyidagi tizimdan iborat:

– Oilaviy huquqning tushunchasi, predmeti, prinsiplari va tartibi;

– Nikoh va oilaning tushunchasi;

– Nikohdan o‘tish va ajralish shartlari;

– Amaldagi haqiqiy er-xotinlik munosabatlari;

– Ota-onalar hamda bolalarning oilaviy munosabatlari;

– Qarindoshlar hamda boshqa shaxslarning aliment huquqi va majburiyatlari.

– Farzandlikka olish, vasiylik va homiylik.

Yolg‘iz yashab o‘tgan buyuk odamlar oddiy oilaviy baxtga erishganlarga havas qilishadi. Buyuk rus yozuvchisi Turgenev «Meni o‘ylovchi, qutlovchi g‘amxo‘r ayol bo‘lsa edi, butun talant va kitoblarimdan ham voz kechardim», degan ekan. Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiyachi hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolarimizdan, momolarimizdan qolgan ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum va odatlar mavjud. Hozirgi vaqtda aholi o‘rtasida odamlarni oilaviy hayotga, nikohdan o‘tishga tayyorlash borasida doimiy ravishda zaruriy tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish lozim. Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish juda qiyin, buni normal hol deb bo‘lmaydi, chunki turmushning juda muhim qismidir. Jamiyatda oila obro‘sini, uning nufuzini mustahkamlash lozim. Oilaning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, psixologik, hatto jinsiy hayoti muammolarini ko‘rib chiqish lozim.

Har bir oila, har bir kishi tinch-xotirjam va to‘kin-sochin yashasa, davlatimiz ozod, boy bo‘ladi, gullab-yashnaydi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalari bo‘yicha qarori.

Oilaga g‘amxo‘rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Oila – jamiyatning negizi». Bizning davlatimizni ham bir katta oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr – oqibat ko‘rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila – turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab – ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarning omon esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

2. Nikoh tushunchasi, uni qayd etish va bekor qilish tartibi

O‘zbek xalqi Turkistonning qadimiy xalqlaridandir. Bu jumhuriyat hududlarida o‘tkazilgan qadimshunoslik (arxeologik) tadqiqotlarida isbotlangan va tasdiqlangan.O‘zbek xalqining vujudga kelishi, rivojlanishi va uning ko‘payishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Xalqlar ko‘payishining birdan-bir asosi ularning nikoh va oila munosabatlarida bo‘lishidir.Juda qadim vaqtlarda hozirgi tushunchadagi nikoh va oila munosabatlari bo‘lmagan. Dastlabki vaqtlarda guruhiy nikoh, ya’ni bir guruh ayollar bilan bir guruh erkaklar o‘rtasida umumiy er-xotinlik, yaqin qarindoshlar o‘rtasida jinsiy aloqalar bo‘lgan.Zardushtiylik dinining asoschisi va Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda yaqin va O‘rta Sharq, ayniqsa, Xorazm xalqlari ko‘p asrlik ijodining mahsuli, bir qancha elatlarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-nafosat va axloqiy-ma’rifiy qarashlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lgan «Avesto» kitobining muallifi Spitama Zaradushtra oilaviy turmush masalalarida juda qiziq ma’lumotlarni beradi.»Avesto»da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi ta’kidlanadi. O‘sha davrda erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo‘lgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan Avesto»da qayd etilishicha, erkak kishi avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va jismonan baquvvat bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘z vaqtida ovqatlanishi

zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. «Yeb ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo‘lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, bola tug‘dira olmaydi» («Yasna», 33,3-bob). Umuman, zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda «Avesto» tadqiqotchisi H.Homidovning fikrini keltirib o‘tish o‘rinlidir: «Erkak zuryod qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishardi. Ba’zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. «Avesto»da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi». Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli hisoblangan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo‘lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga, har bir oila a’zolarining xatti-harakatlariga alohida e’tibor berilgan. Markaziy Osiyoda patriarxal oila eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning eng rivojlangan davri eramizning birinchi asrlariga to‘g‘ri keladi. Oilaning bo‘linib ketishi, o‘rniga kichik-kichik oilalarning tarkib topishi eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalaridan boshlanadi va deyarli XX asrlargacha davom etdi. Kichik oilalarning vujudga kelishi bilan birga nikohning shart-sharoitlari ham o‘zgarib boradi. Patriarxal oila mavjud sharoitlarda nikoh shartlari ancha qat’iy va cheklangan edi. Nikoh-bu erkak bilan ayol o‘rtasidagi muayyan ittifoqning va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma’qullanishining tarixiy shaklidir. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning fikricha, bironta ham xalq nikohdan holi emasdir. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasida axloqiy, huquqiy majburiyatlar o‘rnatadi. Nikoh jinsiy ehtirosni maxfiylik pardasiga o‘raydi, er-xotin orasidagi tabiiy munosabatga axloqiy, ma’naviy go‘zallik, andisha baxsh etadi.

Nikoh (arabcha – qo‘shilish) so‘zi o‘zbek tiliga arablardan kirib kelgan. Arab istilochilari islom dini qoidalarini o‘rnatish maqsadida Markaziy Osiyo xalqlarining islomdan oldingi dini bilan bog‘liq bitiklarni, ma’lumotlarni yo‘q qilib yuborganlar. Bu bilan madaniyatimiz rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatganlar. Buyuk bobokalonimiz Beruniy o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida bergan xabariga qaraganda, Markaziy Osiyoni fath etgan arab lashkarboshisi

Qutaybaning buyrug‘ig‘a ko‘ra, Xorazm yozuvini yaxshi biladigan va uni boshqalarga o‘rgatadigan kishilar o‘ldirilgan.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayrim tadqiqotlar islomgacha bizda erkak va ayol o‘rtasida nikoh degan tushuncha bo‘lmagan, deb e’tirof etadilar. Bu fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Qadimgi grek tarixchisi Strabonning (miloddan av. 64-63-mil. 23-24 yillar) yozishicha, har bir massagetning o‘z xotini bo‘lgan. Ana shu tarixchining fikriga qaraganda, erkaklar va ayollar jinsiy hayotda muayyan erkinliklarga ham ega bo‘lganlar.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning «Tarix» nomli asarida vatanparvar ayol To‘maris haqida keltirilgan tarixiy ma’lumot bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bunga ko‘ra, Turon aholisi To‘maris boshchiligida bosqinchi Kayxusrav armiyasiga qaqshatqich zarba beradi. Boshqa bir qadimgi grek tarixchisi – Elion qoldirgan ma’lumotga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi yirik qabilalardan biri bo‘lgan saklarning odatlari bo‘yicha uylanishni istagan har bir yigit o‘zi uylanmoqchi bo‘lgan qiz bilan yer[1] osti uyida kurash tushishi shart bo‘lgan. Yigit kurashda g‘alaba qilgan taqdirdagina uylanish huquqiga ega bo‘lgan. Aks holda uning o‘zi qizning asiriga aylangan. Demak, bu yerda kurash o‘ziga xos tarzda nikoh vazifasini bajargan.

Nikoh muqaddasdir u oliy maqsad va niyatlarda tuziladi. Nikoh– halollik, nikohsiz qo‘shilish esa haromlik belgisidir. U huquq tilida bola tug‘ilishini qonunlashtiradigan alohida turdagi xususiy shartnomani anglatadi. Bu esa bir tomondan kelin bo‘lmish qizning, ikkinchi tomondan esa kuyov bo‘lmish yigitning o‘zaro ixtiyoriylik, teng huquqlilik va umumiy ro‘zg‘or asosida hayot kechirish maqsadida tuzilgan kelishuvdir. Lekin, o‘tmishda xususan uch xonlik davrida bu kelishuvga bashqacha tartibda yondashuvlar ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, o‘sha davrlarda nikoh shartnoma xarakteriga ega bo‘lib, xususan oldi-sotdi shartnomasiga o‘xshab tuzilgan. Bir tomondan shartnomaning predmeti-kelin, ikkinchi tomondan-sotib oluvchi sifatida kuyov qatnashib, kelinga belgilangan ma’lum bahoni, ya’ni shartnomaning asosiy sharti hisoblangan to‘lovni qalin va mahrni to‘lashdan iborat bo‘lgan. Davlat to‘ntarishiga qadar Turkistonda musulmonlar o‘rtasida nikoh qilinayotganda, chinakam oldi sotdiga aylanib, kelin tomon qalinni iloji boricha ko‘proq olishga, kuyov esa, aksincha, beriladigan qalinni kamaytirishga harakat qilgan. Lekin

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар ва қўшимчалар билан). – Т., 2007. – 39-м.

albatta, biz o‘tmishda an’anaga aylanib qolgan bunday sarqitni shariat sarqiti deb qarashdan yiroqmiz. Chunki, shariatda Nikoh oliy qadriyat hisoblanib, sababsiz taloq ya’ni nikohni bekor qilish qattiq qoralanadi va bunday harakatni amalga oshirishni gunoh deb biladi, ya’ni jahannamda jazolanish tahdidi bilan man etadi. Shariat bo‘yicha nikoh shartnomasi odatiy shartnomalardan farq qilgan. U umrbod tuzilgan. Shariat nikoh qurishda muddatlar va shartlarga yo‘l qo‘ymagan. Agar nikoh ahdida muddatli shartlarga ma’lum hafta, oy yoki yilga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, bunday nikoh haqiqiy emas deb sanalgan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, nikoh davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, shuningdek, er bilan xotin va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza etish maqsadida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etiladi. FXDYO organlarida qayd etish, oilaning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 7-bo‘lim, 201-moddasida bunday talabning qonuniy mustahkamlab qo‘yilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad shundan iboratki, boshqa yo‘llar bilan, masalan diniy yo‘l bilan, yoxud mahalliy urf-odatlarga amal qilingan holda tuzilgan nikoh yuridik ahamiyatga ega bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasida nikoh tuzish tartibi Oila kodeksining 13-moddasida belgilangan. Ushbu modda talabiga ko‘ra, nikoh tuzish nikohlanuvchilarning FXDYO organlariga ariza berganlaridan so‘ng bir oy o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo‘lganda, FXDYO organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Ushbu moddada ham, shuningdek Fuqarolik holatlarini hayd etish tartibi to‘g‘risidagi qoidalarda ham qanday holatlar uzrli hisoblanishi va belgilangan bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo‘lishi ko‘rsatilmagan. Bu hol amaliyotda masalaning turlicha hal qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, quyidagilar uzrli sabab hisoblanib, FXDYO organlari tomonidan bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo‘lishi mumkin:

– ariza beruvchilar uzoq vaqt birga yashab kelgan bo‘lsalar;

– ariza berganlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketishi qiyin bo‘lgan joyga yo‘llanma bilan ketayotgan bo‘lsa;

– kelin-kuyovning yaqin qarindoshlaridan biri og‘ir kasal bo‘lsa;

– nikohni qayd ettirish uchun ariza bergan kuyov armiya safiga chaqirilgan yoki boshqa uzrli sabablar bo‘lsa.

Yuqoridagi uzrli sabablarning doirasi chegaralanmagan. Qanday sabablarni uzrli deb hisoblash huquqi qonun bo‘yicha FXDYO bo‘limining

mudiriga berilgan. Buning uchun mansabdor shaxs uzrli sabab bo‘ladigan holatlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni talab qilish huquqiga egadir.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da esa nikoh ariza berilgan vaqtda tuzilishi mumkin. Bunday hollar bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzish uchun hisobga olinadigan uzrli sabablardan farq qiladi, nikohni kechiktirmasdan zudlik bilan tuzilishini talab qiladi. Oila kodeksida bunday hollarning chegarasi qat’iy belgilanmagan, lekin hayotda uchrab turadigan yuqoridagi uchta hollar bo‘lishiga alohida e’tibor berilgan. Bunday hollarda ham nikohni ariza berilgan kunning o‘zida darhol tuzilishi zarurligini iltimos qilish yoki qilmaslik bo‘lajak er-xotinning xohishiga bog‘liq. Ular yuz bergan vaziyatni hisobga olgan holda, nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini qisqartirish haqida ham iltimos qilishlari mumkin.

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi FXDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi. Alohida hollarda nikohni qayd etish kasalxona yoki uyda ham amalga oshirilishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, nikohlanuvchilardan biri ilgari nikohda turgan bo‘lsa nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi sababli FHDYO organi ariza qabul qila turib nikohlanuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘yicha ularning qonuniy nikohda bo‘lgan-bo‘lmaganligini tekshirib ko‘rishi lozim. FXDYO organi tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish davomida ularning birida qonuniy nikoh bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin, sud tomonidan qonuniy tartibda ajrashgan bo‘lsa, ilgari nikohda bo‘lgan shaxs FHDYO organiga avvalgi nikohning tugatilishi to‘g‘risidagi isbotlovchi yuridik hujjat taqdim etishi lozim. Bu nikohdan ajratilganligi to‘g‘risida sudning qarori, er-xotindan birining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoxud sudning nikoh haqiqiy emas deb topgan hal qiluv qarori bo‘lishi mumkin.

Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan nikoh ularning qarindoshlari, tanishlari ishtiroki (guvohligi)da qayd etiladi. Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo‘lmasligi oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda ko‘rsatilgan.

Nikoh faqat nikohlanuvchilarning ishtirokida qayd etiladi, uning ishonch qog‘ozi yoki vakil orqali qayd etilishiga ruxsat berilmaydi. Nikohi qayd etilgan shaxslarning pasportiga yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlariga to‘rtburchak muhr bosilib, nikoh qayd etilgan vaqt va joy, nikohlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan yili yozib qo‘yiladi. Nikoh tuzish bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalar buzilganda

sudning hal qiluv qarori bilan bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi.

Oila kodeksining 14-moddasiga ko‘ra, nikoh tuzish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim, o‘zaro rozilik va ixtiyoriy asosda tuzilgan nikoh oilaning mustahkam va barqaror bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Qo‘rqitish, zo‘rlik, aldash yoki nikohlanuvchilarning biri yoxud har ikkalasiga ruhan ta’sir etilgan holatlarda majbur qilish taqiqlanadi. Zo‘rlash, qo‘rqitish, aldash kim tomonidan sodir etilgan bo‘lishidan qat’iy nazar nikohning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi.

Oila kodeksida va boshqa amaldagi qonunlarimizda nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan, uzrli sabablar bo‘lganda, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin (OK 15-m). Qonunda faqat nigohga kirish yoshi belgilangan, necha yoshdan boshlab nikoh tuzilishi mumkin emasligi belgilanmagan, shu sababli nikohga kiruvchilarning yoshlaridagi katta farq nikoh tuzishga to‘sqinlik qilmaydi.

Yuqorida belgilangan nikoh yoshiga rioya qilmaslik turli xil huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishi mumkin. Bunday nikoh o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topilib, hattoki jinoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Oila Kodeksining 16-moddasiga binoan, quyidagi holatlar nikoh tuzishga to‘sqinlik qiladi:

– nikohlanuvchilardan biri ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo‘lsa;

– nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, hamda farzandlikka olinganlar bilan farzandlikka oluvchilar o‘rtasida;

– loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga asosan, hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-sonli qaroriga muvofiq Nikohlanuvchi shaxslarni majburiy ravishda tibbiy ko‘rikdan, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo‘yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan bepul o‘tadilar. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad-tibbiy irsiy kasalliklardan bo‘lajak avlodni asrash, shuningdek er-xotinlarni oldindan ogohlantirib, ular kasallanishining

oldini olishdir. Nikohlanuvchilarning yoshi 50 yoshdan katta shaxslarning nikohini roʻyxatdan oʻtkazish hollari bundan mustasno, ushbu shaxslar tibbiy koʻrikdan faqat oʻzlarining roziligiga koʻra oʻtkaziladi. Nikohlanuvchi shaxslar oʻzlarining doimiy yoki vaqtincha yashayotgan joyidagi tibbiyot muassasalari tomonidan oʻtkaziladi. Tibbiy koʻrikdan oʻtkazish uchun berilgan yoʻllanmalar FHDYO organlarida nikoh tuzish toʻgʻrisidagi arizalarni roʻyxatdan oʻtkazish daftarida qayd etiladi.

Oila kodeksining amaldagi moddalariga muvofiq er xotin oʻrtasidagi nikohni bekor qilish oʻrnatilgan tartibda tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kodeksning 7-bob, 37 – moddasida nikohni tugatish asoslari va tartibi koʻrsatilgan.

Oila kodeksining 37-moddasi boʻyicha nikohni tugatish asoslari, er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi. Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yoʻli bilan, shuningdek sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizasiga muvofiq tugatilishi mumkin.

Nikohning tugatilishi deyilganda aniq sharoitdagi hodisa va boshqa yuridik faktlar – vafot etish, sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi nikohdan ajratish tufayli er-xotin oʻrtasidagi munosabatlarning tugatilishi tushuniladi. Shunga koʻra nikoh tugatilishining asoschilari – er-xotindan birining vafot etishi va ulardan birining vafot etgan deb e'lon qilinishi tushuniladi.

Er-xotinni nikohdan ajratish 2 xil tartibda, ya'ni sud tartibida va FHDYO organlarida amalga oshiriladi. Xotinning homiladorlik vaqtida va bola tugʻilganidan keyin bir yil mobaynida er-xotinning roziligisiz nikohdan ajratish toʻgʻrisida ish qoʻzgʻatishga haqli emas[1].

Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 40-moddasiga binoan, agar er-xotin oʻrtasida voyaga yetmagan bolalar boʻlsa, nikohdan ajratish toʻgʻrisidagi bunday ishlar sud tomonidan koʻrib chiqiladi. Nikohdan ajratish toʻgʻrisidagi da'vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida, agar ular boshqa-boshqa joyda yashasalar, javobgar er yoki xotin yashaydigan joydagi sudda qoʻzgʻatiladi. Nikohdan ajralish ishlarini koʻrishda sud oʻz faoliyatini er-xotinni yarashtirishga va oilaviy vaziyatni sogʻlomlashtirish choralarini koʻrishga qaritishi lozim. Shu maqsadda sud ishning koʻrilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun 6

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар ва қўшимчалар билан). – Т., 2007. – 39-м.

oygacha muhlat tayinlashga haqli. Amalda bu davr ichida o‘zaro yarashib, arizalarini qaytarib oladigan hollar ko‘p uchraydi. Shuningdek, nizoni ko‘rish tayinlangan kuni suddga kelmaganlarning arizalari ham oqibatsiz qoldirilib, er-xotin yarashib ketgan hisoblanadi. Lekin sud belgilangan muddat ichida o‘zaro insofga kelmay, ota-ona, qaynona-qaynota, yoki mahalla oqsoqollari aralashuvlariga ham o‘ylamay, «ajrashaman, birga yashamayman» deb qat’iy turib oladiganlar o‘rtasidagi nikohni bekor qilishga majbur buladi. Shuningdek sud yarashish uchun berilgan 6 oy muddat ichida er-xotin yashab turgan joydagi o‘z-o‘zini boshqarish organi-mahalla oqsoqollari kengashiga, xotin-qizlar qo‘mitalariga muhokama qilish va ularni yarashtirish uchun ajrim nusxalarini yuborishi mumkin.

Shuningdek,

– er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo‘lmasa;

– ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalari bo‘lib, ularni kimda qoldirish va ta’minoti uchun aliment undirish to‘g‘risida nizo bo‘lsa;

– er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga aliment undirish va uning miqdori to‘g‘risida masala tug‘ilsa;

– birgalikda topilgan umumiy mulkni bo‘lish bo‘yicha nizo kelib chiqsa, nikoh sud tomonidan bekor qilinadi.

Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi (OK 41-m.).

Voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotin nikohdan ajratishga o‘zaro rozi bo‘lsalar, ular nikohdan FXDYO organlarida ajratiladi.

Oila Kodeksining 43-moddasiga ko‘ra, agar er-xotindan biri:

– sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa;

– sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomilaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa;

– sodir qilgan jinoyati uchun 3 yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, o‘rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat’iy nazar, er-xotindan birining arizasiga ko‘ra ular FHDYO organlarida nikohdan ajratiladi.

Sud nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarish paytida er-xotinning har ikkalasi yoki ulardan biri to‘laydigan davlat boji miqdorini to‘lashi lozim. Nikohga kirishish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er yoki xotin nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoki nikohgacha bo‘lgan familiyasiga o‘tishi mumkin. Nikohdan FHDYO organlarida ajratilganda bu haqda ro‘yxatga olingan kundan, sudda

ajratilganda esa hal qiluv qarori haqiqiy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi. Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori nusxasi nikohdan ajratilganlik to‘g‘risidagi guvohnomaga tenglashtiriladi.

Sudlarda nikohni bekor qilish ishlarini ko‘rishda, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 250-moddasiga ko‘ra, ajralayotgan er-xotin o‘rtasidagi mol-mulki natura shaklida yoki hissalab bo‘lib berish haqida aniq qarorga kelishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning ushbu moddasiga ko‘ra sud nikohni bekor qilish haqida ariza berish sabablarini, er-xotin o‘rtasida vujudga kelgan munosabatlarni aniqlashi, ularni yarashtirish choralarni ko‘rish zarurligi ko‘rsatilgan. Respublika Oliy sudi Plenumining «O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorining 12-bandida:

«Sudya nikohdan ajratish haqidagi arizani qabul qilib, qoidaga ko‘ra javobgarni chaqirishi, uning ushbu arizaga munosabatini aniqlashi, er-xotinni yarashtirish choralarini ko‘rishi shart» deb ta’kidlangan.

Avvalo hech kimning oilasi buzilmasin. Lekin taqdir taqozosi bilan bu hol yuz bergan ekan, nikohni bekor qilishdagi xato-kamchiliklar bo‘lmasligi uchun sudlar aniq holatlarni har tomonlama o‘rganib chiqib ko‘proq oilaning buzilish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun er-xotinning ota-onalarini, zarur holda yaqin qarindoshlarini, mahalla oqsoqollarini chaqirib, suhbatlashib, oila buzilishining oldini olishga harakat qilishlari hech qachon zararli oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Chunki, oilani buzish juda oson. Er-xotin ajralishi zamirida qanchadan-qancha begunoh norasidalar tirik yetim bo‘lib qolayotganini unutmasligimiz shart. Har qancha sa’y-harakatlar bilan ham oila buzilishining oldini olib bo‘lmasa, sudlarimiz hal qiluv qarorlarida farzandlar kimda qolayotganini, ularni ta’minlash uchun kim, qancha mablag‘ to‘lashi, er-xotinlar orasidagi mol-mulkni bo‘lish kabilarga alohida ahamiyat bersa, nikohlari o‘z ixtiyorlari bilan bekor qilingan sobiq er-xotinlar qolgan muammolarni hal qilish uchun sudlarga qayta-qayta murojaat qilib, behuda vaqt sarflamaydilar.

3. Nikoh shartnomasi va uning bugungi kundagi ahamiyati

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin oila institutini, oilaviy munosabatlar va mulkiy munosabatlarni mustahkamlash va jamiyatda kechayotgan islohotlarda uning o‘rni va ahamiyatini oshirish borasida nikoh shartnomasini Oila kodeksining amaldagi moddalarida alohida tartibda nikoh shartnomasi va nikoh shartnomasi bilan bog‘liq munosabatlarni kiritib, bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Binobarin, oila instituti

fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy bo‘g‘ini bo‘lib, ushbu institutni har tomonlama rivojlantirish o‘z navbatida jamiyatning barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada, Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yaratolmaymiz»[1].

Ba’zi bir adabiyotlarda nikoh shartnomasi va tushunchasining tarixiy haqida qo‘yidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ya’ni nikoh shartnomasi tarixdan er yoki xotin o‘rtasida tuzilib kelingan bo‘lsa-da, lekin nikoh shartnomasi rasmiylashtirish tartibi turlicha bo‘lgan, masalan, olib qaraydigan bo‘lsak, nikoh shartnomasi qadimgi Rim va Yunonistonda oila qurayotgan shaxslar eng avvalo, o‘zlarining mulkiy munosabatlarini qanday bo‘lishligi hamda kelajakda birgalikda orttirilgan mulkni meros qoldirish bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida o‘zaro kelishuvlar o‘rtalarida imzolaganlar va bunday kelishuv yuridik kuchga ega bo‘lgan. Ushbu holat xristianlik yuzaga kelgunga qadar amalda bo‘lib kelgan. Keyingi davrlarda nikohga kiruvchilar o‘rtasidagi «muqaddas ittifoq» faqat cherkov tomonidan rasmiylashtirilgan va tartibga solingan. Asta sekinlik bilan, jamiyatda rivojlanish jarayonlari olg‘a borgan sari keynchalik nikoh shartnomasi rivojlana borib hozirgi holatiga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida ilk bor nikoh shartnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, Oila kodeksining 29-36-moddalarda berilgan. Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo‘lg‘usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy shartnomadir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek Oila kodeksining 29-36-moddalari bevosita nikoh shartnomasi bilan bog‘liq munosabatlarga bag‘ishlangan. Ushbu moddalarda nikoh shartnomasi tushunchasi, shartnomasini tuzish asoslari, nikoh shartnomasining mazmuni, nikoh shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish, nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish, haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish, nikoh shartnomasi tuzish, uni o‘zgartirish va bekor qilishda kreditorlar huquqlarining kafolatlari va er-xotin o‘rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlar bayon etilgan.

Nikoh shartnomasi tuzilayotganda uning taraflari bo‘lib, faqat nikohga kiruvchilar va nikohdagi er-xotindan iborat bo‘lishi mumkin. Nikoh

---

[1] *Каримов И.А.* Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т., 2001. -Б.23.

shartnomasi har doim ham notarial idoralarda tuziladi va kamida ikkita guvohlar ishtirokida rasmiylashtiriladi.

Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvlari nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Endilikda qonuniy mulk tartibini saqlab qolish bilan bir qatorda mulkni shartnomaviy tartibga solish mumkinligi qonunlashtirildi. Er va xotin nikoh shartnomasiga binoan ihtiyoriy va o‘zaro kelishgan holda nikohda bo‘lgan davrida yoki ular nikohdan ajratilgan paytlarida o‘z huquq va majburiyatlarini aniqlab olishlari mumkin.

Ilgari amalda bo‘lgan oila qonunchiligida er-xotinlarning faqat qonuniy mulk tartibi ma’lum edi. Hozirgi vaqtda bu tartibni saqlab qolish bilan birga mulkni shartnomaviy tartibiga ham alohida o‘rin berildi. Bu «nikoh shartnomasi» yoki «nikoh kontrakti» deb yuritiladi. Bu qodaning qonunchilikka kirib kelishining sababi – bozor iqtisodiyotini yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy mulkchilikning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Nikoh shartnomasi er yoki xotinga ixtiyoriy va kelishilgan holda nikoxda bo‘lgan davrlarida yoki ular ajralgan paytlarida o‘z huquq va majburiyatlarini aniqlab olishlari uchun imkoniyat tug‘diradi. Nikoh shartnomasi o‘zining xususiyatlariga ko‘ra fuqaroviy – huquqiy shartnoma turlaridan biri hisoblanadi. Shartnomaning ishtirokchilari bo‘lib, nikohga kiruvchilar va nikohdagi er-xotin hisoblanadi. Nikoh shartnomasi faqat mulkka nisbatan tuziladi va u shaxsiy munosabatlarga qaratilishi mumkin emas. Nikoh shartnomasi er-xotin o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni sudda to‘g‘ri hal qilinishida yordam beradi.

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga asosan, ikki va undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquqi va majburiyatlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Ushbu ta’rif nikoh shartnomasiga ham tegishlidir. Er va xotin nikoh shartnomasiga ko‘ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o‘zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o‘rnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo‘lg‘usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Ushbu shartnoma er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi sabali,

u er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga sololmaydi, bunday munosabatlar ularining kelishuvlari asosida hal qilinishi mumkin.

Nikoh bilan nikoh shartnomasi ko‘p hollarda o‘quvchilar tomonidan 1chalkashtirib yuboriladi, aslida olganda nikoh va nikoh shartnomasi boshqa-boshqa mazmundagi ijtimoiy munosabatlardir. Nikoh deganda nikoh yoshiga yetgan, erkak va ayolning oila qurish maqsadida turmush qurishiga aytilsa, nikoh shartnomasi – esa fuqaroviy huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan shartnomalardan biri bo‘lib, nikohlanuvchilar o‘rtasida yoki nikoh qurganlar o‘rtasidagi mol-mulkni hamda mulkiy huquqlarni taqsimlash to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuvdir. Qolaversa nikoh FXDYO organlarida rasmiylashtirilsa, nikoh shartnomasi esa notarial idoralarda tuziladi va tasdiqlanadi.

Nikoh shartnomasida tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan quyidagi maxsus cheklash mavjud:

– nikoh shartnomasi er yoki xotinni noqulay ahvolga solib qo‘yishi mumkin emas. Aks holda bu bitim nizoli bitim bo‘lib, huquqi buzilgan er yoki xotinning da’vosiga ko‘ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o‘zgar–tirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shartnoma er-xotindan birining talabi bilan qonunda belgilangan tartibda hal qiluv qaroriga asosan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh tugatilganidan boshlab, nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilgandan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno.

Nikoh shartnomasi sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha to‘la, qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari haqiqiy deb tan olingan shartnomaga asosan vujudga keladi. Nikoh shartnomasining haqiqiy deb tan olinishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo‘lishi lozim:

– nikoh shartnomasining mazmuni qonunga xilof bo‘lmasligi lozim. Shaxsiy nomulkiy bo‘lgan munosabatlarni majburan bo‘ysundirib kelishilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

– er-xotin huquq va muomila layoqatiga ega bo‘lishi lozim.

– nikoh shartnomasi notarial tartibda rasmiylashtirilishi shart.

– nikoh shartnomasining qatnashchilarining bayon etilgan xohishi uning haqiqiy xohishiga mos kelishi, ya’ni kelishuv to‘g‘ri tushunilib, uni tuzish ixtiyoriy asosda bo‘lmog‘i lozim.

---

1 Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., 2000. – Б 66.

Nikoh shartnomasi belgilangan talablarga rioya qilmasdan tuzilsa u haqiqiy emas deb topiladi.

Nikohlanuvchilar o‘rtasida tuziladigan nikoh shartnomasi o‘ziga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

– nikohlanuvchilarning huquq va manfaatlari teng himoya qilinadi;

– nikohlanuvchilarning mol-mulklariga bo‘lgan huquqlari qat’iyan belgilab olinadi;

– nikohdan oldingi mol-mulk hamda nikoh davrida topilgan mol-mulkning taqsimlanish holati oldindan kelishib olinadi;

– shuningdek nikoh shartnomasi o‘ziga xos bo‘lgan boshqa afzalliklarga ega.

Oila qonunchiligi normalarining bajarilishini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli kattadir. Oila kodeksining 219-moddasida belgilanganidek, er-xotindan biri uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etilganda shaxs bilan nikohdan ajralish haqidagi arizaga er yoki xotinning ozodlikdan mahrum qilinganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko‘chirma ilova qilinadi. Bunda arizachi er yoki xotin ajralish haqida ariza tushganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborish uchun FHDYO organiga hukm qilingan shaxsning jazoni ijro etish manzili haqida xabar qilishi kerak. Jazoni ijro etish muassasasi xabarnomani olgach, 2 hafta muddat ichida er(xotin)ning javob xatidagi imzosini tasdiqlab, xabarnomani yuborgan FHDYO organiga yuborishi lozim. Nizo yo‘qligi to‘g‘risida javob xatini olgan FHDYO organi nikohdan ajralishni qayd etadi. Nikohdan ajralish rad qilinganda FHDYO organi arizachiga umumiy bolalar yoki mulk to‘g‘risida nizo borligi sababli nikoh sud tartibida ajratilishi mumkinligi to‘g‘risida xabar qiladi. Agar nikohdan ajratish tayin qilingan kunda hukm qilingan shaxs qamoqdan ozod qilingan bo‘lsa, nikohdan ajratish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Nikoh shartnomasi tuzilayotganda er yoki xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari asosida tuziladi. Bugungi kunda Respublikamizda, nikoh shartnomasida katta e’tibor berilmoqda. Jamiyatimizda oila institutining barcha sohalari, shu o‘rinda nikoh shartnomasiga va nikoh shartnomasini tuzishda taraflarning huquq va majburiyatlari, taraflarning huquqiy holatlariga alohida e’tibor berilmoqda. Taraflar nikoh shartnomasini tuzayotganlarida notarial idoralarda ularning huquq va majburiyatlari to‘liq himoya qilinib, majburiy holatlar nizolarni kelib chiqishlarini bartaraf etish borasida notarial xodimlar tomonidan ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilmoqda. Nikoh shartnomasining taraflari hisoblangan er yoki xotinning huquqlari qonunlar bilan muhofaza qilinmoqda.

Nikoh shartnomasi tuzilayotganda, taraflar bunda manfaatdor bo‘ladilar. Hozirgi vaqtda nikohlanuvchilar nikohdan o‘tmasdan yoki nikoh davrida nikoh shartnomasini rasmiylashtirib olishlari mumkin. Bunda ularning huquq va manfaatlari qonun bilan to‘liq himoya qilinadi. Nikoh shartnomasining tuzish ixtiyoriydir, nikohlanuvchilar nikoh shartnomasini tuzmasdan ham umurbod yashashlari mumkin, bunda qonunda hech qanday cheklashlar ko‘rsatilmagan.

Nikohlanuvchilar o‘rtasida nikoh shartnomasini tuzishdan asosiy maqsad bunda taraflarning huquq va manfaatlarini tenglik prininsipi asosida ta’minlash, er yoki xotindan birining jabrdiyda bo‘lib qolishining oldini olishdan, ortiqcha kamsitishlarga chek qo‘yishdan iboratdir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi davrda oila va nikoh tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari va uning asosiy vazifasini aytib bering?
2. Prezident I.A. Karimov tomonidan oila manfaatlarini mustahkamlashga qaratilgan qanday amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobi oila munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan?
4. Oila huquqining boshqa fanlar bilan munosabati bilasizmi?
5. Oila qonunchiligi normalarining bajarilishini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rolini aytib bering?
6. Qarindoshlik darajasi tushunchasini aniqlab bering?
7. Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar ishtirokida nikoh tuzish va bekor qilish tartibining o‘ziga xos xususiyatlarini ayting?
8. Oila va nikoh shartnomasining tarixiy shakllarini aytib bering.
9. Nikoh tuzilish tartibini aytib bering?
10. Oilani huquqiy tartibga solish va muhofaza etishga qaratilgan qanday qonunlarni bilasiz?
11. Nikohlanuvchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tish sabablari ayting?

19-MAVZU.
OILA A’ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1. Oila qonunchiligi bo‘yicha er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.
2. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari.
3. Er-xotinning aliment majburiyatlari, alimentlarni to‘lash va undirish tartibi.

1. Oila qonunchiligi bo‘yicha er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.

Oila – jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi, er-xotinlik munosabatiga asoslanadi va bir-birlari bilan qon-qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq kishilarning ixtiyoriy birlashgan guruhidan iborat bo‘ladi. Agar nikoh ikki kishini bog‘lagan bo‘lsa, unda oila o‘z ichiga bir necha, ba’zan o‘nlab kishilarni birlashtiradi. Oila munosabatlari qarindoshlik aloqalarining keng ko‘lamida namoyon bo‘ladi: er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka, opa-singil, aka-singil, opa-uka, qaynota-qaynona, kuyov va kelin, shuningdek, qaynsingil, qaynonaga, qaynegachi va boshqalardan iborat bo‘ladi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab, nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e’tiboran ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Qonunga binoan faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etilgan nikohnigina er-xotinlik huquq va majburiyatlarining kelib chiqishiga asos bo‘ladi. Oila quruvchilarning qonuniy nikoh munosabatiga kirishi ularning huquqiy holatini o‘zgartirib yuboradi. Nikohga kirgunga qadar ularning biri ayol, ikkinchisi erkak deb nomlanib kelingan bo‘lsa, nikoh tufayli ular er xotinga aylanib, ular o‘rtasidagi munosabatlar faqatgina axloqiy qoidalar bilan emas, balki huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Qayd etilgan nikoh natijasida er-xotin o‘rtasida shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Oilaviy munosabatlar er-xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ularning hajmi,

mazmuni, xarakteri, er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatini belgilab beradi.

Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etadilar. Oila a’zolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o‘z majburiyatlarini bajarishida oilaning boshqa a’zolari va o‘zga shaxslarning huquq va erkinliklari ularning manfaatlarini buzmasligi shart.

Oila qonunchiligida er xotinning teng huquqga ega ekanligi ko‘rsatilgan: «*Er xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ikkala taraf ya’ni, er xotin teng majburiyatlarga egadirlar*».

Er xotin o‘rtasidagi munosabat qanchalik barqaror bo‘lsa, oila ham shunchalik mustahkam bo‘ladi, bolalarni tarbiyalash ishi to‘g‘ri olib boriladi.

Oilaviy munosabatlar er-xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ularning hajmi, mazmuni, xarakteri, er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatni belgilab beradi.

Oila kodeksining 19-22 moddalarida er va xotinning quyidagi shaxsiy huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan:

1. Oilada er va xotinning teng huquqligi.

Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar.

2. Er va xotinning familiya tanlash huquqi.

Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o‘z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlashi yoki ularning har biri nikohgacha bo‘lgan o‘z familiyasini saqlab qolishi mumkin. Er va xotindan birining o‘z familiyasini o‘zgartirishi boshqasining ham familiyasi o‘zgarishiga olib kelmaydi. Er va xotin familiya tanlashda shaxsiy huquqlardan teng foydalanadilar.

3. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi.

Er xotin oilada bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa shaxsiy masalalarini birgalikda hal qiladilar. Er xotin oilada vujudga kelgan har qanday oilaviy masalalarni o‘zaro kelishuv asosida hal qilinadilar. Aks holda oilaviy muammolarni hal qilishda tenglik prinsipiga amal qilmasalar er va xotin o‘rtasida nizo kelib chiqishi mumkin. Vujudga

kelgan er xotin o‘rtasidagi nizolar xarakteriga qarab sud tartibida yoki vakolatli davlat organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

4. Er xotinning mashg‘ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari.

Er va xotinning har biri turi, kasb va yashash joyini tanlashda erklidir. Amaldagi qonunchilikda er xotin o‘zaro kelishuvi asosida oilada mashg‘ulot turini tanlashda teng huquqqa ega ekanligini bildiradi. Er-xotindan har biri o‘z qiziqishi, xislati, ijobiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishiga qarab, o‘ziga mos keladigan faoliyat turini tanlaydi. Er-xotinning erkin kasb va yashash joyini tanlash huquqi qonun bilan mustahkamlangan. Binobarin, mamlakatimizda insonparvar, demokratik huquqiy davlatni qurishga o‘tish davrida nikoh munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalarning ahamiyati tobora oshib borayotgani barchamizga ma’lum.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek er xotin nikohdan o‘tganlaridan keyin ular o‘rtasida vujudga keladigan shaxsiy va mulkiy huquqlarini alohida bo‘lib o‘rgansak, ular quyidagicha.

Er xotinning shaxsiy huquqlariga, nikoh tufayli yuzaga keladigan huquqlari kabi, nikohga o‘tgunga qadar ham ularga tegishli bo‘ladi. Masalan, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi va oila turmush masalalarini hal qilish, mashg‘ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari.

Bunday holatlarda ularning mehnat va fuqarolik huquqi muomala layoqati unsuri bo‘lib, oila huquq sohasiga kirmaydi. Nikoh qayd etilgan paytdan boshlab, shaxsiy huquqlar er va xotindan har birining subyektiv oila huquqini tashkil etib, faqat oilaviy huquqiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Er xotinning har biriga tegishli bo‘lgan shaxsiy huquq va majburiyatlar faqat oila huquqi bilangina emas, balki Fuqarolik kodeksi hamda huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi. Masalan: fuqaroning sha’ni va qadr qimmati O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 20-moddasiga asosan, «Ism yoki shaxsiy sha’n egasi bo‘lmagan, lekin oilaviy mavqeiga ko‘ra bundan manfaatdor bo‘lgan shaxs o‘z ismi bilan yashash huquqiga e’tiroz bildirilayotgan yoki ismidan qonunsiz foydalanilayotganligi munosabati bilan manfaatlari buzilayotgan shaxs manfaatlarini buzuvchidan bunday harakatlarga chek qo‘yishni va raddiya talab qilish huquqiga ega. Agar manfaatlar qasdan buzilayotgan bo‘lsa, jabrlangan shaxs qo‘shimcha tarzda zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Manfaat qasddan buzilganida jabrlanuvchi ma’naviy ziyonning qoplanishini ham talab qilish huquqiga ega». Ushbu moddaga asosan oila a’zolari o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarga ham tegishli.

Oilaviy munosabatlarda er va xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga munosabat belgilovchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham, er xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Ularning hajmi, mazmuni, xarakteri er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatini belgilab beradi. Bizning jamiyatimizda ular ayol bilan erkakning oilaviy munosabatlarida teng huquqligiga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasida ham xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlarga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Bu tamoyil mamlakatimizda to‘la amalga oshiriladi va moddiy ta’minlanadi. Amaldagi qonunchilik turmushga chiqqan ayolni muomala layoqatini hech qanday cheklamaydi, uni eriga bo‘ysundirib, qaram qilib ham qo‘ymaydi. Barcha huquqiy munosabatlarda qonunchilik er-xotin huquqining subyekti hisoblanib, teng huquqlarni beradi va tegishli majburiyatlarni ham yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasida er va xotin rasmiy jihatdangina teng huquqli hisoblanmasdan, balki amalda bu huquqlarga egadirlar.

Oila qonunchiligiga asosan er-xotin umumiy xo‘jalik ishlarini birgalikda o‘zaro rozilik va ham jihatlik asosida olib boradilar. Ayollar ijtimoiy hayotda, mehnat jarayonida, oilada erkaklar bilan teng huquqdan foydalanadilar.

Er-xotin bab-baravar majburiyatlarga ega bo‘lib, bir-birlariga ma’naviy yordam berib, ko‘makdosh bo‘lib yashaydilar. O‘z navbatida shaxsiy huquqlarini amalga oshirishni suiiste’mol qilish, oila manfaatlariga qarshi qaratilgan harakatlar ham nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin.

Familiya tanlash masalasi nikohdan utuvchi shaxslarning shaxsiy huquqidir. Bunday masalani hech qanday davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari muhokama qilish yoki hal qilish huquqiga ega emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 20-moddasiga binoan nikoh tuzish vaqtida er-xotin o‘z xohishi bilan eri yoki xotinning familiyasini umumiy familiya qilib tanlashi yoki ularning har biri nikohgacha bo‘lgan o‘z familiyasini saqlab qolishi mumkin.

Agar nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida nikohdan o‘tuvchilar o‘zlarining nikohga qadar bo‘lgan familiyalarida qolgan bo‘lsalar, keyinchalik esa ular eri yoki xotinining familiyasiga o‘tishni xohlasalar, bu masala qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning familiyasi, ismi va otasining ismi o‘zgartirish tartibda hal qilinadi.

Nikohdan o‘tuvchilarga ularning familiya tanlash huquqlarini tushuntirib berish nikohni qayd qiluvchi mansabdor shaxsning majburiyati hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tarkibiga kirgan davlatlarning qonunchilik tajribasida er-xotinning ikkita familiyada, ya’ni er va xotinning qo‘shma familiyasida bo‘lish hollari ham bor. Biroq qo‘sh familiya uncha tushunarli bo‘lmaganligi va noqulayligi, bunday familiyani ayniqsa tug‘ilish, nikoh, o‘limni qayd etish vaqtida yozish qiyinligi, buning ustiga qo‘sh familiya ommalashmaganligini hisobga olib, bu tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq emas, degan fikr ham mavjud. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ham er-xotinning qo‘sh familiya bilan atash huquqi berilmagan. Demak, O‘zbekiston Respublikasi hududida nikohni qayd qiluvchi fuqarolar er-xotinning qo‘sh familiyasini umumiy familiya qilib tanlab olmaydilar.

Fuqarolarga nikohga o‘tish vaqtida familiyani erkin tanlash huquqi beriladi. Er-xotindan bittasining familiyasini o‘zgartirish ikkinchi tomon uchun ham familiya o‘zgartirish huquqini vujudga keltirmaydi.

Bu masalani er-xotin shaxsiy manfaatlari, umuman oila manfaatlarini ko‘zlab mustaqil ravishda hal qiladilar.

Nikohdan ajralish vaqtida er yoki xotin nikohni ro‘yxatga oluvchi organdan nikohga qadar bo‘lgan o‘z familiyasiga qaytarishni iltimos qilishi mumkin. Bu masala ikkinchi tomonning xohishidan qat’iy nazar hal qilinadi. Nikoh haqiqiy emas deb topilganda bunday shaxslarga ularning oldingi familiyasi qaytariladi. Ammo nikohga o‘tish vaqtida unga monelik qiladigan holatlarni bilmagan er va xotin nikohga o‘tish vaqtida tanlagan familiyasida qoldirishni talab qilish huquqiga ega.

Er-xotinning birga yashashi bolalarni tarbiyalashi, mustahkam oila qurish uchun haqiqiy asos bo‘lishi mumkin. Qonun har bir er-xotinga qayerda yashashni erkin hal qilish huquqini berib, ularni bir yo‘la rag‘batlantiradi. Qonunchilik bunday maqsadlarga ko‘maklashib, ulardan birortasi asosiy ish joyidan ko‘chadigan bo‘lsa, unga yo‘l puli, ko‘chish puli to‘lash, o‘quv yurtini tamomlagan mutaxassislarni ishga taqsimlashda ularni yashab turgan joyida ishda qoldirish va boshqa masalalarni hal etish tartibini belgilaydi.

Nikohda bo‘lish aslo er-xotinning birga turishi majburiyatini vujudga keltirmaydi. Undan tashqari, er-xotindan birortasi, ikkinchi tomon uchun ham (agar er (xotin)ning roziligi bo‘lmasa), shunday huquqiy oqibatni vujudga keltirib chiqarmaydi.

Er-xotinning turar joyiga qarab, ularning voyaga yetmagan farzandlarining turar joylari belgilanadi. Amaldagi Oila kodeksining 22-moddasida er-xotinning har biri mashg‘ulot, kasb tanlashda erkin ekanligi belgilangan. Bu esa ularning birgalikdagi oilaviy masalalarini hal qilishdagi huquqini ta’minlashga qaratilgan. Oilada mashg‘ulot kasb tanlash masalalari kelishilgan holda hal qilinadi. Ammo bu masalalarni uzil-kesil hal qilish huquqi er-xotinning har biriga tegishli buladi.

Er-xotindan har biri o‘z qiziqishi, xislati, ijodiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishiga qarab, o‘ziga mos keladigan faoliyat turini tanlaydi. Er va xotinning tanlagan kasbi uni qanoatlantirib, oila ta’minoti uchun mablag‘ topishga xizmat qilishi lozim. Er-xotindan birining tekinxo‘rlik bilan kun kechirishi, oilaning moddiy ta’minotida o‘z mehnati bilan ishtirok etmasligi ham nikohdan ajralish uchun sabab bo‘lishi mumkin.

Er-xotinning erkin kasb tanlash huquqi qonun bilan mustah-kamlangan. Bu er (xotin)ning o‘z kasbi masalalarini (o‘quv yurtida va kurslarda o‘qishi, to‘garaklarda ishtirok etishi va boshqalar) mustaqil ravishda hal qilinishini anglatadi. Bu masalalar voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini hisobga olib hal qilinadi.

Homilador ayol hamda kasal er yoki xotinning manfaatlarini qo‘riqlash va ta’minlashga alohida e’tibor beriladi.

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmush masalalaridagi nizolarni hal qilish yuzasidan, er-xotindan har biri yoki ularning ikkalasi birgalikda vujudga kelgan nizoni hal qilish uchun tegishli davlat organlariga murojaat etish huquqiga ega. Vujudga kelgan nizoning xarakteriga qarab qonunda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar, hakamlik sudi, vasiylik, homiylik organlari va Mahalla fuqarolar yig‘inlari qoshidagi yarashtirish komissiyalari ko‘rib chiqish vakolatiga ega.

Er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy huquqiy munosabatlar (familiya, turar joy, mashg‘ulot, kasb tanlash)dan kelib chiqadigan nizolar davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari tamonidan hal qilinmaydi.

Er-xotin o‘rtasida bolalar tarbiyasiga oid nizolar, bolalarga familiya yoki ism berish masalasidagi kelishmovchilik vasiylik va homiylik organi tomonidan hal qilinadi.

Respublika sudlari ota-onalar o‘rtasidagi bolalarga doir nizolarni hal qilish uchun amaldagi oila qonunlaridan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998-yil 11-senyabrda chiqargan «Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi Qaroriga ham asoslanishlari lozim.

Bu hujjat bolalarning tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarning sudlar tomonidan to‘g‘ri hal etilishini, ota-onalar o‘z bolalari tarbiyasidagi mas’uliyatlarining oshirilishini ta’minlashga imkoniyat tug‘diradi, ota-onalarning o‘z bolalari manfaatlariga zid kelishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan foydalanishlariga barham beradi va voyaga yetmaganlarning qonunbuzarlik qilishlarining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘radi.

2. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari

Er-xotinning nikoh oila munosabatlarida teng huquqligi va teng majburiyatlarga egaligi mulkiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Oila kodeksi 23-moddasining 2-bandi umumiy mulkning asosiy turlarini sanab beradi:

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulklari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Oila qonunchiligi er va xotindan biri uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritish bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega ekanligini inkor etmaydi. Bu haqda amaldagi qonunlarda aniq asoslar belgilangan.

Qonunda uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqiga ega bo‘lmagan er yoki xotinning umumiy mulkdagi hissasi baravar bo‘lishi haqidagi qoida,

asosan kasalligi sababli ishlab chiqarishda qatnasha olmaydigan shaxslarning manfaatini himoya qilishga qaratilgan.

Fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi mulki bo‘lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunlarda belgilanadi.

Er va xotinning oilaviy munosabatlarda teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligi mulkiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga shaxsiy huquq va majburiyatlariga farqli o‘laroq iqtisodiy mazmundagi masalalar kiradi. Amaldagi qonunlarga asosan, nikoh davomida er-xotin topgan mol-mulk ularning birgalikdagi umumiy mulkidir. Er-xotin shu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilishda, ulardan bittasini kamsituvchi har qanday kelishuv qonunga qarshi bo‘lib, haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikoh davomida orttirilgan mulk, garchi er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa ham er-xotinning har ikkalasiga tegishli hisoblanadi. Er-xotindan biri o‘zlarini birgalikdagi umumiy mulki bo‘lgan uy-joy va avtomashinani boshqa shaxslarga o‘tkazganda, ikkinchisining bunga roziligi yozma ravishda ifodalanishi shart.

Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki taqsimlanganda (nikohdan ajralishda) ularning hissalari teng hisoblanadi. Ammo hali voyaga yetmagan bolalar manfaati uchun zarur bo‘lsa, masalan: onasi bilan birga qolayotgan bolalarning uy-joy sharoitini ta’minlash uchun bo‘linayotgan uyning yoki pay mulkning ko‘proq qismi onaning foydasiga hal etishi mumkin. Shuningdek, er va xotindan biri tekinxo‘rlik bilan yashasa yoki uy xo‘jaligidagi buyum-mulklarini oila manfaatlariga zid bo‘lgan ishlarga sarf etsa, uning mulkidan oladigan hissasini kamaytirish mumkin. Bunday holatda sudga er yoki xotinning mulkka nisbatan teng huquqini tan olishda chekinish huquqi berilgan.

Oiladagi munosabatlarni tartibga olishda er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari muhim o‘rin egallaydi.

Ular oila tomonidan xo‘jalik iqtisodiy vazifalarni, bolalarni tarbiyalash, er-xotindan har birining o‘z manfaatlarini har taraflama qondirish uchun xizmat qiladi.

Fuqarolik qonunchiligida asosan, fuqarolarning xususiy mulk obyekti bo‘lgan pul, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqa ashyolar er-xotinning mulkiy huquqlari predmetlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga muvofiq, er-xotinning birgalikda nikohda turgan davri davomida orttirgan mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Amaliy er-xotinlik munosabatida bo‘lgan holda uni qonunda belgilangan tartibda tegishli asosda rasmiylashtirmaslik ular o‘rtasida umumiy mulkka bo‘lgan huquqni keltirib chiqarmaydi. Nikohni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida rasmiylashtirilmagan er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlar nikoh va oila qonunchiligi bilan tartibga solinmasdan, balki fuqarolik qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi.

Haqiqiy bo‘lmagan nikohda bo‘lgan er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Agar shaxslar, nikohda turib birgalikda umumiy mulk u keyinchalik haqiqiy emas deb topilsa, unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining normalari tatbiq etiladi.

Er-xotindan bittasi nikohda turganligini ikkinchisidan yashirgan bo‘lsa, ularning nikohi sud tomonidan haqiqiy emas deb tanilgunga qadar orttirilgan mulklariga nisbatan nikoh va oila qonunchiligida o‘rnatilgan qoidalarni tatbiq etish mumkin. Vaqtinchalik sabablar xizmat safari, dam olishda bo‘lish, kasallik va boshqalarga ko‘ra er-xotinning alohida yashashi ularning nikoh davrida orttirgan birgalikdagi umumiy mulki huquqini bekor qilmaydi.

Er-xotinning ikkalasiga tegishli bo‘lgan mulk, agar nikoh davomida ko‘paygan bo‘lsa, umumiy birgalikdagi mulk deb hisoblanadi.

Biroq shaxsiy foydalanishdagi qimmatli buyumlar va zeb-ziynat, xom-ashyolardan boshqa buyumlar, kiyim-bosh, oyoq kiyim va shu kabilar garchi nikoh davomida er-xotinning umumiy mablag‘i hisobiga olingan bo‘lsa ham bu mulk tarkibidan chiqariladi. Ashyolarning qimmatbaho mulk yoki zeb-ziynat turkumiga kiritilishi masalasida nizoni hal qilish vaqtida mulkning sifati va xususiyati, undan ko‘zlangan maqsad va qimmatliligi nazarga olinadi. Olish vaqtida qimmatbaho hisoblangan mulk nizo vujudga kelgan va hal qilingan vaqtgacha o‘zining sifati va xususiyatini yo‘qotishi mumkin. Sud tajribasida qimmatbaho ashyolar to‘g‘risida qo‘yidagi tushuncha mavjud, ular-fuqarolarning odatiy talablar va ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan alohida qimmatbaho ashyolar. Bu masala har bir alohida holatda sud tomonidan hamma aniq holatlarni hisobga olib hal qilinadi.

Er-xotinning tekinga kelgan mulklari, jumladan to‘y, tug‘ilgan kun, bayramlarda yoki boshqa munosabat bilan olingan sovg‘alar, agar ular umumiy foydalanadigan bo‘lsa, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Agarda to‘y, tug‘ilgan kun, bayramlarda berilgan sovg‘alar er-xotindan birining shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, ular o‘sha

er yoki xotinning shaxsiy mulki hisoblanadi. Qimmatbaho va hasham buyumlar bundan mustasno.

Shuningdek, amaliyotda er xotin o‘rtasidagi muammoli holatlar ko‘p uchraydi, masalan; nikohdan ajralish ishlarini sudda ko‘rishda to‘yda sarf bo‘lgan xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi holatlar ko‘p uchraydi. Buning uchun to‘yda sarf qilingan xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi muammoli holatlarni bartaraf etish uchun, O‘zbekiston Oliy sudi Plenumi 1980-yil 19 dekabrda qabul qilingan qarorga e’tibor qaratish lozim. Chunki, Oliy sudi Plenumining ushbu qarorida qo‘yidagi jumlalar keltirib o‘tilgan. Nikohdan ajralish bilan bog‘lik bo‘lgan sarf-xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi talablar qondirilishi mumkin emas deb tushuntirilgan.

Er-xotinning ikkalasiga tegishli bo‘lgan uy-joy, dala hovli, avtomashina, ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechaklar, omonat kassalarga va boshqa kredit tashkilotlarga qo‘yilgan pul omonatlari, akkreditivlar, davlat obligatsiya zayomlari, kooperativdagi pul to‘lanmasi, lombardga qo‘yilgan, boshqa shaxslarga ijara shartnomasi bilan vaqtincha foydalanishga qo‘yilgan mulk va boshqalar ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 27-moddasiga muvofiq er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki bo‘linayotganda, ularning hissalari teng hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qilgan mulk ularning har ikkalasiga tegishli bo‘ladi. Ulardan bittasi yoki ikkalasining talabiga muvofiq bu mulkni bo‘lish vaqtida birgalikdagi umumiy mulkdagi er-xotinning hissasi aniq ajratib ko‘rsatiladi. Bu mulkdagi hissa to‘g‘risida er xotin o‘rtasida nizo bo‘lmasa, alohida ashyolarga nisbatan huquqni belgilash masalasi ularning o‘zlari tomonidan hal qilinadi. Er xotin o‘rtasidagi mol-mulkni bo‘lish akti notarial kontorada yoki xalq vakillari kengashining ijroiya hokimiyatida mulkni bo‘lish shartnomasi asosida rasmiylashtirish mumkin.

Er-xotinning arizasiga muvofiq, notarial kontora birgalikdagi umumiy mulk to‘g‘risidagi hissaga huquq to‘g‘risida guvohnoma berishi mumkin. Biroq, bunday guvohnoma er-xotinning kelajakda orttiriladigan mulki to‘g‘risida bo‘lishi mumkin emas. Birgalikdagi umumiy mulk to‘g‘risidagi nizo er-xotinning roziligi bo‘yicha amaliyotda ko‘pincha fuqarolik sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Er-xotindan biriga u yoki bu mulkni berish masalasini hal etishda sudlar mulkning xarakteri, uning xo‘jalikdagi vazifasini, uni sotib olish shartlarini va boshqa e’tiborga molik holatlarni hisobga olishlari lozim.

2. Er-xotinning aliment majburiyatlari, alimentlarni to‘lash va undirish tartibi

Oilada ota-ona va bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, tabiiyki, bir-biriga yordam ko‘rsatish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, hamjihatlik hamda ixtiyoriylikka asoslangan bo‘lishini taqozo etadi. Aks holda, qonun chiqaruvchi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni o‘z ota-onasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, shuningdek, yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onalariga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Aliment majburiyatlari oila a’zolari o‘rtasida sodir bo‘ladigan oilaviy munosabatlardir.

Aliment – (lotincha alimentum – «oziq-ovqat», «nafaqa», «ta’minot», «boqish uchun mablag‘lar» – degan ma’nolarni anglatadi) bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to‘laydigan moddiy narsasi. Amaldagi qonunchilikda bir tomonda davlat ikkinchi tomonda jismoniy shaxs ishtirok etsa yoki ijtimoiy huquqiy munosabatlar sodir bo‘lsa, u holda «nafaqa» so‘zi ishlatiladi. Agar oilaviy huquqiy munosabat bo‘lib unda oila a’zolari ishtirok etsalar u holda «aliment» so‘zi ishlatiladi[1].

Aliment olish huquqi – voyaga yetmagan bolaning asosiy subyektiv huquqi hisoblanib, aliment talab qilgan ota yoki ona o‘z nomidan bolaning qonuniy vakili sifatida harakat qiladi. Shu sababdan bolaga aliment berish majburiyati ikki tomonning, ya’ni ota va onaning teng huquq va majburiyatlari bo‘lib, ularning o‘zaro kelishuvi bilan bekor qilinishi mumkin emas.

Voyaga yetmagan bolalar uchun olinayotgan alimentlar, pensiya, nafaqa ota yoki onaning tasarrufida bo‘lib, faqatgina bolaning zaruriy ta’minoti, oziq-ovqati, kiyim kechagi, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak. Ota yoki ona farzand uchun olinayotgan alimentni o‘zining manfaati uchun yoki boshqa holatlar bo‘yicha sarflashi mumkin emas.

Aliment majburiyatlari ota-ona va farzandlarning mulkiy huquqiy munosabatlari doirasiga kiradigan asosiy majburiyatlaridir. Aliment majburiyatlari fuqarolik huquqidagi majburiyatdan qo‘yidagi belgilari bilan farq qiladi.

Bu belgilar quydagilardan iborat: aliment majburiyatlarini kelib chiqish asoslari *birinchidan,* qonunda imperativ asosda belgilangan (qon-qarindoshlik, mehnatga layoqatsizlik, muhtojlik), *ikkinchidan,* aliment

[1] Qarang: *Otaxo`jayev F.M.* O`zbekiston Respublikasining Oila huquqi: Darslik. –T., 2007.– Б. 280.

to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv; aliment majburiyatlari shaxsiy xarakterga ega. U majbur bo‘lganning, yoki talab qiluvchi shaxsning vafoti tufayli tugallanadi, merosga o‘xshab aliment to‘lash majburiyati boshqa shaxslarga o‘tmaydi. Ularga talab qilishni boshqalarga o‘tkazish va qarz qoidasi tatbiq etilmaydi:

Aliment majburiyatlari bepuldir. Agar xatolikka yo‘l qo‘yib undirilgan bo‘lsa ham qaytarilmaydi. Yolg‘on ma’lumotlarga va qalbaki hujjatlarga asoslangan holatlar bundan mustasno; aliment majburiyatlari davomli bo‘ladi. Aliment kelajak vaqt uchun olinib da’vo qilingan kundan boshlab, aliment oluvchi voyaga yetgunga qadar aliment har oyda undiriladi.

Amaldagi oila kodeksi aliment undirishni uch tartibini belgilaydi:

1) aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish (17-bob, 130-134-m.);

2) alimentni ixtiyoriy to‘lash (18-bob, 135-m.);

3) alimentni sud tartibida undirish (18-bob, 136-m.).

Agarda aliment to‘lashda er yoki xotin o‘rtasida alimentni to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv mavjud bo‘lsa, sud tartibida aliment undirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ota-onalarni voyaga yetmaganlarga aliment to‘lash majburiyatni asosi bo‘lib, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik va voyaga yetmagan bolalarni mavjud bo‘lishligi. Ishlashligi yoki ishlamasligidan qat’i nazar, 18 yoshga to‘lmagan bolalar voyaga yetmagan bola bo‘lib hisoblanadilar.

Oila kodeksini 96-moddasiga ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. Oila kodeksining 96-moddasi ota-onaning faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan ta’minot berish majburiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ota-onalar voyaga yetmagan farzandlarini moddiy jihatdan ta’minlash majburiyatini bildiradi. Ota-onaning farzand oldidagi moddiy majburiyatlari bolani iste’moli uchun oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, har xil o‘yinchoqlar, jismoniy tarbiya ishlari bilan shug‘ullanayotgan vaqtida kerak bo‘lgan buyumlar, o‘quv qurollarini olish uchun sarflanadi. Ota-onalar voyaga yetmagan farzandlari uchun moddiy yordam va aliment to‘lashda teng huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadi. Ota-ona hamda farzandlarning aliment to‘lash huquqi va majburiyatlari ota-ona va farzandlar majburiyatlarini birinchi toifasiga kiradi.

Ota-onalar voyaga yetmagan farzandlari uchun aliment to‘lash huquqi majburiyatlarining majburiyligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga

yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga mujburlab ko‘rsatilgan. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan ushbu talabdan kelib chiqib, ota-onalar va bolalar boshqa qarindoshlari bo‘lish bo‘lmasliklaridan qat’i nazar bir-birlariga moddiy ta’minot berishga majburlar. Voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi.

Oila kodeksining 130-moddasiga binoan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish uchun muomala layoqatiga ega bo‘lish talab etilmaydi. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to‘lash haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to‘lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to‘g‘risida sudga da’vo bilan murojaat qilmagan hollarda, 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ularning qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiylari) tomonidan tuziladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar hamda muomala layoqati sud tartibida cheklangan shaxslar o‘z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzadilar.

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish uchun aliment to‘lash tartibini Oila Kodeksining 131-moddasida ko‘rsatilganidek, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni yozma shakliga amal qilgan holda belgilashga haqlidir va yozma shakldagi kelishuvni notarial tartibda tasdiqlash huquqiga egadirlar. Voyaga yetmagan farzandlariga ta’minot berish uchun aliment to‘lash tartibi va shakli haqida ota-ona o‘rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va aliment oluvchi farzandlarning manfaatlariga zid bo‘lmasligi lozim.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, ularning ta’minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadlari hisobidan bir bola uchun-to‘rtdan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun-yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to‘lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va e’tiborga loyiq boshqa holatlarini hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo‘lmasligi kerak.

Ota-ona voyaga yetgan lekin, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj farzandlariga moddiy ta’minot berishga majburdir. Voyaga yetgan

mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj farzandlariga moddiy ta’minot berishni ota-ona o‘zlarining kelishuvlariga binoan amalga oshiradilar. Ota-ona o‘rtasida voyaga yetmagan va voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz bolalari uchun ta’minot berishda aniq bir kelishuvga kela– olmasalar er xotin o‘rtasidagi nizo sud tartibida hal qilinadi. Sud tomonidan ota-onadan voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga undiriladigan alimentning miqdori, aliment to‘lovchilar ota-onaning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olinib, har oyda pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanadi.

Aliment to‘lashi shart bo‘lgan ota-onaning ish haqi shuningdek, boshqa daromadi doimo bir xilda bo‘lmay, o‘zgarib tursa yoxud daromadining bir qismini natura tarzida oladigan bo‘lsa, shuningdek daromaddan ulush tarzida aliment undirish imkoniyati bo‘lmasa, yoki ota-ona rasman belgilangan ish haqi daromadga ega bo‘lmasa, voyaga yetmagan bolalarning ta’minoti uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan aliment miqdori har oyda pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanishi mumkin.

Ota-ona favqulodda holatlar (bolaning og‘ir shikastlanishi, kasal bo‘lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta’minoti uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarda ishtirok etishga majburdirlar. Qo‘shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda, qo‘shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi. Chet el valutasida olinadigan daromadlar aliment undiriladigan kunda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo‘yicha so‘mlarda hisoblanadi.

Aliment to‘lanadigan ota-onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo‘lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o‘sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta’minlanib qoladigan bo‘lsa, shuningdek aliment to‘layotgan ota (ona) nogiron bo‘lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo‘lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo‘lgan taqdirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to‘liq ta’minotida bo‘lsa, sud aliment to‘layotgan ota yoki onaning moddiy

ahvolini hisobga olib, to‘lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to‘lashdan ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarilishi mumkin. Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to‘lashdan ozod qilish uchun mavjud bo‘lgan asoslar, tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.

Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta’minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish davlat tomonidan to‘liq amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olib, uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur muassasa foydasiga O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 99-moddasida belgilangan miqdorida aliment undirish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yo‘q bo‘lsa, qarindoshlari va Oila Kodeksida ko‘rsatilgan boshqa shaxslardan o‘z ta’minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanishi mumkin.

Ma’lum asos va sharoitlar mavjud bo‘lgan hollarda ota-onadan aliment olish huquqi voyaga yetgan, ya’ni 18 yoshga to‘lgan shaxslarda ham vujudga keladi. Qonunga muvofiq, voyaga yetgan bolaning mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtojligi shunday shartlar hisoblanadi. «Mehnatga layoqatsiz» tushunchasi mehnat qonunchiligi va «O‘zbekiston Respublikasining pensiya haqida»gi 1993-yildagi qonunida aniq belgilab qo‘yilgan. Basharti, voyaga yetgan bolalar 1-yoki 2-guruh nogironi deb topilgan bo‘lsalar, o‘z ota-onalaridan aliment olish huquqiga ega bo‘ladilar. Lekin, 3-guruh nogironligini belgilashda shaxsning mehnat layoqatini anchagina yo‘qotgani va bu layoqatning uzoq vaqt davomida pasayib borishi asos bo‘ladi. Ammo bunday shaxsning mehnat layoqati to‘liq yo‘qotilmaydi. Voyaga yetgan bolalar 3-guruh nogironi bo‘lsalar, sud bu holat bo‘yicha aniq vaziyatni o‘rganib, chiqib aliment olish bo‘yicha qaror chiqarishi mumkin.

Oila kodeksining 109-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bo‘lgan o‘z ota-onasiga ta’minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Qonun bilan mustahkamlangan, mehnatga layoqatli voyaga yetgan

bolalarning o‘z ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilish majburiyati, birinchi navbatda, bolalarning farzandlik burchi va vazifasi hisoblanadi.

Ota-onaning mehnatga layoqatsizligi, shuningdek, oiladagi boshqa a’zoning mehnatga layoqatsizligi mehnat qonunchiligi bo‘yicha ularning pensiya (ayollar 55-yosh, erkaklar 60-yosh) yoshiga to‘lganligi yoki oilada 1 va 2-guruh nogironlari mavjudligini anglatadi. Ota-onaning 3-guruh[1] nogironi bo‘lganligi TMEK (tibbiy-mehnat komissiyasi)ning tegishli xulosasida tavsiya etilgan ishni topa olmaganlari taqdirda, ularga o‘z bolalaridan ta’minot olish huquqini beradi. Ota-onaning bolalar yordamiga muhtojligi ularning mablag‘lari (ish haqi, pensiya va shu kabilar) o‘zlarining moddiy sharoitlarini tirikchilik minimumi darajasida saqlashlari uchun yetmagan vaqtda yuzaga keladi.

Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv ota yoki onaning har biri bilan alohida-alohida yoki har ikkalasi bilan birga tuzilishi mumkin. Mehnatga layoqatsiz ota (ona) muomala layoqatiga ega bo‘lmasa, tegishli kelishuvni uning nomidan qonuniy vakili tuzadi. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o‘z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo‘yin tovlasalar, ta’minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o‘z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo‘yganligidan qa’tiy nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo‘lgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha vaqtincha to‘lab turilishi lozim bo‘lgan summani ko‘rsatib, ajrim chiqarishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonun hujjatlarida belgilangan, eng kam ish haqi miqdorining uchdan bir qismidan kam bo‘lmasligi kerak.

Oila kodeksining 111-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligi va boshqa uzrli sabablarga ko‘ra

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998; 2003 йил 5-6-сонга илова.

qilinadigan qo‘shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart. Har bir voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan qo‘shimcha xarajatlarni qoplash summasini belgilashda ularning moddiy sharoitlari hisobga olinadi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan qo‘shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undirilishi mumkin.

Bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida ota (ona) deb yozilgan shaxsdan aliment undirish to‘g‘risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha undan Oila kodeksida belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo‘yin tovlaganligini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin. Aliment undirish to‘g‘risidagi sud qarori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro etiladi.

Boshqa-boshqa ota-onadan tug‘ilgan voyaga yetmagan bolalari uchun sudning bir necha hal qiluv qarorlariga asosan bir ota (ona)dan undirilayotgan alimentning umumiy miqdori, Oila kodeksining 99-moddasida nazarda tutilgan miqdoridan oshib ketsa, aliment to‘lovchi ota (ona) aliment to‘lash haqidagi sud qarori kimning foydasiga chiqqan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning har biriga nisbatan alimentning miqdorini tegishincha kamaytirish to‘g‘risida da’vo taqdim etishi mumkin. Aliment miqdorini kamaytirishga asos bo‘lgan holatlar tugagan taqdirda, voyaga yetmagan bolalari uchun aliment oluvchi shaxs Oila kodeksining 99-moddasida ko‘rsatilgan miqdorda aliment undirish to‘g‘risida da’vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalarga aliment to‘lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslar, Oila kodeksining 79-moddasi asosida ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ota-onasiga moddiy yordam berish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorlarini bajarmaslik, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi. Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga aliment to‘lash to‘g‘risidagi da’vo oiladagi barcha mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalarga nisbatan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Amaldagi qonunchiligimizda ota-onalar voyaga yetmagan, mehnatga layoqatsiz bolalariga, hamda voyaga yetgan farzandlar mehnatga layoqatsiz, mehnat faoliyatini vaqtincha yo‘qotgan va moddiy ta’minotga

muhtoj bo‘lgan ota-onalariga moddiy yordam berish bilan birga, er-xotin ham bir-biriga moddiy yordam berishining shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. Er-xotin bir-birlariga moddiy yordam berishdan bosh tortgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o‘rtada bola tug‘ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o‘rtadagi nogiron bola o‘n sakkiz yoshga to‘lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo‘lgan o‘rtadagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo‘lgan xotin (er)dan ta’minot ixtiyoriy o‘zlarining kelishuvlari asosida berilmasa muhtoj taraf ta’minot (aliment)ni sud tartibida olish huquqiga ega.

Amaldagi qonunchilikda sobiq er-xotinlar voyaga yetmagan, mehnatga layoqatsiz va nogiron bolalari uchun aliment to‘lashda teng huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi. Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to‘lanadigan aliment miqdori va uni to‘lash tartibi sobiq er-xotin o‘rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi. Er-xotin (sobiq er-xotin) o‘rtasida aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv mavjud bo‘lmagan hollarda er yoki xotinga (sobiq er yoki xotinga) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e’tiborga loyiq boshqa manfaatlarini e’tiborga olib, har oyda pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanadi, biroq bu summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismdan kam bo‘lmasligi lozim.

– Sobiq er yoki xotin qo‘yidagi hollarda aliment olish huquqiga ega bo‘ladilar;

– sobiq xotin homiladorlik davrida va o‘rtada bola tug‘ilgan kundan boshlab uch yil davomida;

– o‘rtadagi nogiron bola o‘n sakkiz yoshga to‘lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo‘lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

– nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

– nikohdan ajralgan paydan boshlab besh yil mobaynida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo‘lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Sud quyidagi hollarda er va xotinni bir-birlariga ta’minot berish majburiyatidan ozod qiladi:

– agar er-xotin nikohda qisqa vaqt bo‘lgan bo‘lsa;

– agar o‘z ta’minoti uchun mablag‘ to‘lashni talab qilayotgan er yoki xotinning noloyiq hulq-atvori tufayli nikohdan ajratilgan bo‘lsa;

– agar yordamga muhtoj er yoki xotinning mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyohvandlik vositalarni, psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishi yoki qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergan bo‘lsa, er(xotin)ni yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz xotin (er)ga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilinishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab qo‘yishi mumkin.

Er-xotinning bir-biridan ta’minot olish huquqi Oila kodeksining 117 va 118-moddalariga muvofiq ta’minot olish uchun asos bo‘lgan shartlar tugagan taqdirda, shuningdek nikohdan ajralgan yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin yangi nikohga kirganda tugaydi. Bunday hollarda, agar ta’minot uchun mablag‘ sudning hal qiluv qaroriga binoan undiriladigan bo‘lsa, uni to‘lashi shart bo‘lgan er(xotin) bundan buyon aliment to‘lashdan ozod etish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Qonunda aliment to‘lashni tugatilish asoslari ko‘rsatilgan, sud qonunda ko‘rsatilgan qo‘yidagi tartiblarda aliment to‘lashni tugatadi;

– bola voyaga yetganda yoki voyaga yetmasdan turib to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lganda;

– foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganida;

– sud aliment oluvchining mehnatga layoqati tiklangan yoki uni yordamga muhtoj bo‘lmay qolgan deb topsa;

– mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangi nikohga kirganda;

– aliment oluvchi yoki aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs vafot etganda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari Oila kodeksining nechanchi bobida ko‘rsatilgan?
2. Er va xotinlik huquq va majburiyatlari qachon vujudga keladi?
3. Er yoki xotinning shaxsiy huquqlariga nimalar kiradi?
4. Er yoki xotinning turar joy tanlash huquqi huquqning qaysi turiga mansub?
5. Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb nimaga aytiladi?
6. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalariga to‘laydigan aliment miqdori qancha?

7. Nizo tug‘ilgan paytda er va xotinning umumiy mol – mulkini bo‘lish qaysi organ tomonidan hal qilinadi?

8. Bolalarning ta’minoti uchun qilinadigan qo‘shimcha xarajatlar deganda nimani tushunasiz?

9. Aliment to‘lashdan bosh tortganlik qanday javobgarlikka asos bo‘ladi?

10. Ota-onadan beriladigan ta’minot miqdori va tartibini ayting.

20-MAVZU.
FARZANDLIKKA OLISH. VASIYLIK VA HOMIYLIK

1. Farzandlikka olish tushunchasi, mohiyati va ahamiyati.
2. Farzandlikka olishning huquqiy asoslari va tartibi.
3. Vasiylik va homiylik tushunchalari va asosiy maqsadlari.

1. Farzandlikka olish tushunchasi, mohiyati va ahamiyati

Farzandlikka olish O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 20-bobi, 151-172-moddalarida hamda ushbu Kodeksning 22-bobi, 194-200-moddalari (Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarga oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom»ni ikkinchi bo‘limi bilan huquqiy tartibga solinadi.

Farzandlikka olish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar ota-onasi bo‘lmagan yoki har xil sabablarga ko‘ra tarbiyadan mahrum bo‘lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta’minlab, bolalarning huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga qaratilgan. Farzandlikka olish huquqiy dalolatnoma bo‘lib, bunga asosan farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinuvchilar, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Farzandlikka olish tufayli bolalar yangi ota-onalarga va boshqa qarindosh-urug‘larga ega bo‘lib, o‘zlarining ota-onalari va qarindosh-urug‘lari bilan huquqiy munosabatni tugallaydi. Farzandlikka olish bu huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi va bekor qiluvchi akt bo‘lib hisoblanadi. Oila kodeksini 151-moddasini 1-qismiga binoan, farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina qo‘llab yo‘l qo‘yiladi. O‘zining belgilangan maqsadi bo‘yicha farzandlikka olish instituti juda insonparvar institutdir. U o‘z ota-onalaridan mahrum bo‘lgan yoki ayrim sabablarga ko‘ra ota-ona tarbiyasiga muyassar bo‘lmagan bolalarga normal oilaviy tarbiyani ta’minlashga qaratilgan. Farzandlikka olish tufayli ota-onasini yo‘qotgan bola boshqa oilaga joylashtirilib, unga oilaviy tarbiya beriladi. Farzandlikka olinuvchilar farzandlikka oluvchilar tufayli hamma masalalarda ota-ona o‘rnini bosadigan shaxslarga ega bo‘ladilar. Farzandlikka olish tufayli bolalari bo‘lmagan shaxslar otalik va onalikdan iborat bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini qondiradilar. Farzandlikka olish, ayniqsa Ikkinchi jahon

urushi yillarida juda ko‘p tarqalgan bo‘lib, fuqarolar urush tufayli ota-onasidan yetim qolgan bolalarni o‘z bag‘rilariga olib, ularga ota-ona sifatida g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, mehribonlik qilganlar.

O‘zbekistondagi ko‘plab bolalarni o‘z bag‘riga olib tarbiyalagan oilalar juda ko‘p. Jumladan, rus, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, yahudiy, tatar, moldavan va boshqa millatlarning 14 bolasini o‘z bag‘riga olib, ularni bir-biriga do‘st, mehribon, aka-ukadek qilib tarbiyalab, voyaga yetkazgan oddiy temirchi Shomahmud Shomaxmudov va uning rafiqasi Bahri Akramovaning fidoyiligi, vatanparvarligi g‘oyat yuksak e’tirofga sazovor. Vatan va xalq oldidagi bu olijanob ishlari uchun ular davlat tomonidan[1] yuksak rag‘batlantirildi. Bunday mehribon ota-onalar jamiyatimizning fahridir. Farzandlikka olish – bu o‘zganing farzandini o‘z farzandiga tenglashtirib olishdir. Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida tuqqan ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Farzandlikka olish juda qadimiy huquqiy institut bo‘lib, hozirgi zamon huquq tizimida o‘z ifodasini topgan, ota-ona vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga joylashtirishdan iborat.

Farzandlikka olish farzandlikka oluvchi (uning qarindoshlari) hamda farzandlikka olinganlar (ularning bo‘lg‘usi avlodlari) o‘rtasida qonunda ota-ona va bolalarga nisbatan belgilangan, qonun hujjatlarida maxsus ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’iy nazar, barcha shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi. Farzandlikka olish huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi va bekor qiluvchi akt bo‘lib hisoblanadi.

Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlash uchun ularni farzandlikka olishga yo‘l quyiladi. Bolalarning manfaatlarini himoya qilish farzandlikka olishning asosiy shartidir. «Bola manfaatlari» deyilganda birinchi navbatda, uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy rivojlanishi uchun to‘laqonli sharoit yaratish tushuniladi. Farzandlikka olish mutlaq ixtiyoriydir.

Farzandlikka olish juda qadimiy huquqiy institut bo‘lib, dastlab farzandlikka olish huquqi instituti homiylik va vasiylik ko‘rinishida qadimgi Rimda vujudga kelgan. Qadimgi Rim huquqida farzandlikka olishning vujudga kelishi, asosan keyinchalik fuqaroviy huquqiy munosabatlar bilan birga shakllanib kelgan. Hozirgi zamon huquq tizimida ham farzandlikka olish o‘z ifodasini topgan, ota-ona vasiyligidan mahrum

[1] *Каримов И.А.* Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., 2008. – Б.52.

bo‘lgan bolalarni oilaga joylashtirishdan iborat bo‘lib, bu munosabatlar hozirgi zamon qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 194-moddasiga binoan ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalaridagi, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Farzandlikka olish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarning asosiy maqsad va vazifasi, ota-onasi bo‘lmagan yoki har xil sabablarga ko‘ra ular tarbiyasidan mahrum bo‘lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta’minlab, bolalar huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga qaratilgandir.

Farzandlikka olish huquqiy dalolatnoma bo‘lib, bunga asosan farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinuvchilar o‘rtasida ta’kidlaganimizdek, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Farzandlikka olish tufayli bolalar yangi ota-onalar va boshqa qarindosh-urug‘larga ega bo‘lib o‘zlarining ota-onalari va qarindosh-urug‘lari bilan huquqiy munosabatni tugatadilar.

Ma’lumki, yetim bolalarga va boshqa sabablarga ko‘ra, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish xalqimizning qadimiy udumlaridan biri bo‘lib sanaladi. Mustaqillik sharofati bilan bu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga muvofiq, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda ularni tarbiyaga olinishini ta’minlovchi shakllarga, xususan farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga berish kabi shakllarga nafaqat ruxsat beradi, balki ularga afzallik huquqini ham beradi.

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarini ko‘zlab yo‘l qo‘yiladi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko‘ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi. Oila kodeksining 163-moddasiga binoan tuman, shahar hokimi farzandlikka olishni rad etsa, ushbu holat ustidan farzandlikka olish haqidagi ariza bergan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Farzandlikka olishni istovchi shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

– farzandlikka oluvchilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan berib turganligi, ularning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo‘lsa ularning soni va yoshlari farzandlikka olinadigan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi va jinsi ko‘rsatilgan arizasi;

– shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

– nikoh tuzilganligi (agarda nikohdan ajralgan bo‘lsa nikohdan ajralganlik) haqidagi guvohnomaning nusxasi;

– oila a’zolari ko‘rsatilgan qoida turar joydan ma’lumotnoma;

– ish joyidan ish haqi ko‘rsatilgan ma’lumotnoma;

Farzandlikka olishni istovchi shaxsning sog‘lig‘i to‘g‘risida tibbiy maslahat komissiyasining xulosasi, psixiatriya, narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanserining ma’lumotnomasi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi tuman, shahar hokimining qarori chiqarilganidan keyin o‘n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganlarning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga zarur o‘zgartirishlar kiritilishi lozim.

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug‘ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo‘lmagan farq bilan o‘zgartiriladi.

Farzandlikka olish tushunchasi – bu o‘zganing farzandini o‘z farzandiga tenglashtirib olishdir. Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida tuqqan ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Bu yerda huquqshunos olim H.R.Rahmonqulovning fikriga qo‘shilgan holda, farzandlikka olish (berish) masalasini hal qilishda qator muhim jihatlarni (masalan, bolaga uning manfaatlarini mumkin qadar to‘laroq ta’minlay oladigan oilani tanlash uchun uning ruhiy holati, shu bilan birga, fe’lidagi o‘ziga xos xususiyatlar, u farzandlikka olinayotgan oiladagi moddiy va ma’naviy sharoit kabi jihatlarni) e’tiborga olish lozimdir.

Agarda bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq bolani farzandlikka olish vujudga kelib qolsa, bunday holat bo‘yicha tuman, shahar hokimining farzandlikka olinayotgan har bir bola haqida alohida-alohida tartibda qaror chiqariladi. Qaror chiqqan kundan boshlab farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganga nisbatan bir umrga ota-ona, u esa ularga farzand hisoblanadi. Shuningdek, Oila kodeksida farzandlikka berilayotgan bolani tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi belgilanmagan. Qonun mazmuniga ko‘ra, nafaqat sog‘lom bolalar, balki biron bir kasalga

chalingan yoki rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan bolalar ham farzandlikka olinishi mumkin. Shubhasiz, kasal bolalarni tarbiyalash qiyin kechadi, bu kabi qiyinchiliklarga ba’zan bolaning o‘z ota-onalari ham chidash berolmasligi (ko‘nika olmasligi) mumkin. Shuning uchun farzandlikka oluvchilar bolaning salomatligi darajasi to‘g‘risida xabardor qilinishlari lozim. Buning uchun esa farzandlikka berilayotgan bola tibbiy ekspert komissiyasi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilib, uning sog‘lig‘i, shu jumladan jismoniy va aqliy rivojlanishi darajasi to‘g‘risida xulosa olinmog‘i lozim.

Amaldagi Oila kodeksi va boshqa qonunchiligimizda farzandlikka oluvchilar bo‘lib, voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo‘lishi mumkin.

Lekin quyidagi shaxslar bundan mustasno[1]:

– ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

– qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

– asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro‘yxatda turuvchilar;

Oila kodeksini 169-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha:

– o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

– ota-onalik huquqini suiiste’mol qilayotgan bo‘lsalar;

– farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

– ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka ruju qo‘ygan bo‘lsalar kabi asoslar bo‘yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;

– qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Amaliyotda ushbu ro‘yxat to‘ldirilishi mumkin. Chunki tarbiyachi xususiyatiga ega bo‘lmaganlar, og‘ir va yuqumli kasalga chalinganlar, mehnatga layoqatsizligi hamda boshqa sabablarga ko‘ra bola tarbiyasi bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar ham farzandlikka oluvchi bo‘lmasligi kerak.

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). – Т., 2007. – 39-м.

Farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o‘n besh yoshdan kam bo‘lmasligi shart, o‘gay ota va o‘gay ona tomonidan farzandlikka olish hollari bundan mustasno.

Qonunning mazmuniga ko‘ra emansipatsiya tufayli to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lgan, lekin voyaga yetmagan, ya’ni 18 yoshga to‘lmagan shaxslar farzandlikka oluvchi bo‘lishlari mumkin emas.

Oila kodeksining 153-moddasiga muvofiq, farzandlikka olishni sir saqlashlik qonun bilan himoya qilinadi. Jumladan, jinoyat kodeksining 123-moddasi bevosita farzandlikka olish sirlarini oshkor qilishda jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi deb ko‘rsatib o‘tilgan. Yuqoridagi qoidalardan ko‘rinib turibdiki, Respublikamizning amaldagi qonunchiligiga muvofiq farzandlikka olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabatlar har tomonlama mustahkam kafolatlanishidan dalolat beradi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko‘chirmalar yoki boshqa ma’lumotlarni farzandlikka oluvchilarning roziligisiz, agar ular vafot etgan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining roziligisiz berish taqiqlanadi.

Farzandlikka oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining erkiga xilof ravishda farzandlikka olish sirini oshkor qilgan shaxslar qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Farzandlikka olish ma’lum shartlar asosida vujudga keladi. Farzandlikka olish shartlari deyilganda, farzandlikka olish uchun qonun bilan belgilangan shaxslarning roziliklari tushuniladi. Ular doirasiga quyidagilar kiradi:

– bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosadigan shaxslarning roziligi,

– o‘n yoshga to‘lgan bolani o‘zining roziligi;

– agar er-xotindan bittasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo‘lsa. farzandlikka olayotganning eri yoki xotini.

Bu shartlarning mohiyati nimalardan iborat? Oila kodeksining 159-moddasiga binoan, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi talab etiladi. Bolani farzandlikka olinishiga ota-onaning yozma shakldagi roziligi bayon etiladi.

Oila qonunchiligi bo‘yicha quyidagi hollarda ota-onaning roziligisiz farzandlikka olishga yo‘l qo‘yiladi (OK 160-m.):

– ota-onaning kimligi noma’lum bo‘lsa;

– ota-ona, sud tartibida ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa;

– ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan bo‘lsa;

– ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolalardan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo‘lsa.

Farzandlikka olishni navbatdagi sharti bo‘lib, o‘n yoshga to‘lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

Oila kodeksining 155-moddasiga binoan farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanishi lozim.

Farzandlikka olishning muhim ahamiyati, bolani farzandlikka olishga bo‘lgan munosabatini aniqlashda farzandlikka olinayotgan bolani huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga qaratilgan.

10 yoshga to‘lish bilan bola bo‘layotgan ishga o‘z erkini ongli ravishda izhor qilishi mumkin. Bu maqsadlarni nazarda tutib vasiylik va homiylik organlari tushunarli asosda farzandlikka olishni mohiyatini va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni: bola va farzandlikka oluvchilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning qarindoshlari, ota-onalari (aka-ukalari, opa-singillari va bobo-buvilari) o‘rtasidagi munosabatlarni tugallanishi); familiya, ota ismini, ota-onalar to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘zgartirishdan iborat.

Farzandlikka oluvchini shaxsiyati to‘g‘risida bola shaxsan xabardor bo‘lishligi kerak.

Oila kodeksini 156-moddasiga muvofiq agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa va ularni o‘z ota-onasi deb e’tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligisiz amalga oshirilishi mumkin.

Bu qoida bolani kutilmagan his-tuyg‘u va ruhiy ta’sirlardan holi qilib, farzandlikka olinayotganni tug‘ishgan o‘g‘il (qiz) sifatida o‘sayotganligiga ta’sir etadi.

Oila kodeksini 157-moddasi 1-bandining talabi bo‘yicha agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo‘lsa, bunga xotin (er)ning roziligi talab etilish ko‘rsatilgan. Ko‘pincha amaliyotda er-xotinlarning ikkalasi tomonidan bolalar farzandlikka olinadi.

Oila qonunchiligida farzandlikka olishning haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ko‘rsatilgan.

Oila kodeksining 168-moddasida farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladigan holatlarning tugallangan ro‘yxati berilgan.

Farzandlikka olish quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi, agar:

– farzandlikka olish qalbaki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo‘lsa;

– farzandlikka olish soxta bo‘lsa;

– voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingan bo‘lsa;

– farzandlikka oluvchi Oila kodeksining 152-moddasiga muvofiq farzandlikka olish huquqiga ega bo‘lmagan bo‘lsa;

Me’yoriy hujjatda farzandlikka olishni istovchi shaxslar tomonidan taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati berilgan. Shu ro‘yxatda ko‘rsatilgan hujjatlardan birining farzandlikka oluvchi tomonidan qalbakilashtirilganligi aniqlanishining o‘zi belgilangan tartibda farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishni so‘rab sudga murojaat qilishga asos bo‘ladi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish masalasini ishning barcha holatlarini hisobga olgan va bola manfaatlaridan kelib chiqqan holda sud hal qiladi.

Oila kodeksining 169-moddasida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari berilgan.

Farzandlikka olishni bekor qilishni asosiy asoslari quyidagilardan iborat:

– farzandlikka oluvchilar o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

– ota-onalik huquqini suiiste’mol qilayotgan bo‘lsalar;

– farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

– muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining hulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solayotgan bo‘lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidan keyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo‘l qo‘yiladi[1].

Sud boshqa asoslarga ko‘ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

Farzandlikka olishni bekor qilish bir yo‘la huquqni bekor qilish va huquqni tiklovchi yuridik fakt bo‘lib hisoblanadi.

Agar bu bolalar manfaatiga mos kelsa, bir vaqtda uning huquqiy aloqalari ota-onalari va boshqa qon-qarindoshlari bilan ham tiklanadi.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар ва қўшимчалар билан). – Т., 2007. – 39-м.

Farzandlikka olishni bekor qilish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Farzandlikka olishni bekor qilishni mezoni bo‘lib shu bekor qilish bolalar manfaatiga qaratilishi bilan belgilanadi.

Umumiy qoida bo‘yicha farzandlikka olishni bekor qilish bola to‘la muomala layoqatiga to‘lishiga qadar sodir bo‘ladi. Bu esa ularni muomala layoqatiga to‘lishi bilan ota-onalarni huquq va majburiyatlarining tugallanishi bilan bog‘liq bo‘lib farzandlikka olishni bekor qilish uchun ham zaruriyat qolmaydi.

Farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinganni farzandlikka olinuvchilarni va farzandlikka olinganlarni ota-onalarini roziligi mavjud bo‘lganida yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Agar farzandlikka olinuvchini ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsalar ularni roziligini olmasdan farzandlikka olish bekor qilinadi.

Agar farzandlikka olish farzandlikka olinuvchilarni ota-onalarini roziligisiz yoki majburlash yo‘li bilan olingan bo‘lsa, bolalarni ota-onalari farzandlikka olishni bekor qilishni talab etishlari mumkin.

Farzandlikka olish bekor qilinganda sud farzandlikka olgandan bola manfaati uchun aliment undiriladi. Bu masalani hal qilishda sud birinchi navbatda bola manfaatlarini hisobga oladi. Agar bolani holati aliment olishni talab etsa, u holda farzandlikka oluvchidan aliment undiriladi. Aliment undirish o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra javobgarlik chorasi bo‘lmay, balki uning birdan-bir maqsadi bolaning ta’minotidir. Agar bolaning manfaati aliment undirishni talab etsa, u holda bolani farzandlikka olinuvchidan aliment undiriladi.

Agar bola o‘zining ota-onasiga qaytarilsa, agar bola ishlasa yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib o‘zini o‘zi ta’minlasa u holda aliment undirilmaydi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda bola farzandlikka olinganda unga berilgan yangi ism, familiya va ota ismini o‘zgartirgan oy-kunlar va bolani tug‘ilgan joyi. Agar bolaning manfaati talab etsa, u holda sud bolaning ismi, familiyasi va otasining ismini saqlab qolish huquqiga ega. Bu holat bolaning tug‘ilgan joyi va oy kuniga ham tegishlidir. Bolaning familiyasi va otasining ismini saqlab qolish to‘g‘risidagi farzandlikka oluvchining fikri ahamiyatga ega emas. 10 yoshga to‘lgan bolaning ismi, familiyasi va otasining ismini o‘zgartirish uning roziligisiz mumkin emas. Bu masala bo‘yicha qonunda bevosita ko‘rsatilgan bo‘lmasa ham, bu holat uning tug‘ilgan joyiga ham tegishlidir.

Oila kodeksining 170-moddasiga koʻra farzandlikka olishni bekor qilishni talab talab etish huquqiga ega boʻlganlar doirasiga farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishi bilan shugʻullanuvchi komissiyalar, shuningdek oʻn olti yoshga toʻlgan farzandlikka olingan bola kiradi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Sud tomonidan farzandlikka olish haqiqiy emas deb topilganda yoki farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olinuvchi bola bilan farzandlikka oluvchilarning (farzandlikka oluvchilarning qarindoshlari) oʻzaro huquq va majburiyatlari tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) oʻrtasidagi huquq va majburiyatlar tiklanadi.

2. Farzandlikka olishning huquqiy asoslari va tartibi

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga oʻzboshimchalik bilan aralashishni taqiqlaydi (12-m). Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir shaxsning hayoti va sirlarining daxlsizligini kafolatlaydi (27-m). Shu boisdan farzandlikka olishni sir saqlash qonunda belgilab qoʻyilgan. Chunki, bolaning farzandlikka oluvchilarni oʻzi tuqqan ota-onasi deb hisoblashi uning oiladagi hayotini va tarbiyasini bir qator yengillashtiradi.

Agar farzandlikka olingan bola oʻz ota-onam, deb hisoblab yurgan shaxslarning oʻgay ekanligini bilib qolsa, bu unga katta ruhiy zarar yetkazishi, unga tarbiya berishni qiyinlashtirishi, farzandlikka olganlar bilan munosabatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Farzandlikka olishning sir saqlanishi hamma vaqt ham shart emas. Ayrim hollarda farzandlikka olish farzandlikka olingan bola uchun sir boʻlmaydi. Masalan, farzandlikka olingan ayrim bolalar oʻz ota-onasini eslashlari mumkin. Shu boisdan Oila kodeksining 155-moddasida oʻn yoshga toʻlgan bolani farzandlikka olishda uning roziligini olish talab qilinadi.

Amaldagi qonunchilikda farzandlikka olishning sir saqlanishi qonun bilan himoya qilinishi keltirib oʻtilgan. Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Bundan tashqari, farzandlikka olish borasida Oʻzbekiston Respublikasining yangi Oila kodeksiga kiritilgan yangiliklardan biri bu – farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega boʻlgan shaxslardir. Ilgarigi

harakatda bo‘lgan Nikoh va Oila kodeksida bunday ustunlik huquqi mavjud emas edi.

Farzandlikka olishda Oila kodeksining 154-moddasiga binoan ustunlik huquqiga ega bo‘lgan shaxslar:

1. Turar joyidan qat’i nazar, farzandlikka olinuvchilarning qarindoshlari. Chunki qarindoshlik aloqalari (ayniqsa qarindoshlarini tanib qolgan bolaning) tarbiyasini hamda yangi oilaga ko‘nikishini yengillashtiradi.

2. Farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs.

Bola o‘zi yashayotgan oilaga o‘rganib qolgan, yaxshi tarbiya olayotgan va ma’naviy hamda moddiy talablari to‘la qondirilayotgan bo‘lsa, albatta uni shu oilaga farzandlikka berish masalasi birinchi navbatda ko‘rib chiqilmog‘i lozim.

3. Aka-uka, opa-singillarni ular o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar.

Odatda aka-uka, opa-singillarni bir-biridan ajratib turli shaxslarga farzandlikka berishga yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki, ular turli shaxslarga farzandlikka berilsalar, o‘rtalaridagi qarindoshlik aloqalari uziladi, ya’ni huquqiy jihatdan ular bir-birlariga begona bo‘lib qoladilar. Bu holat esa ular tarbiyasi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, voyaga yetganlaridan keyin ham turli qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham qonun aka-uka, opa-singillarni ular o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar uchun imtiyozli huquq beradi.

4. O‘gay ota va o‘gay ona.

Odatda, farzandlari bor erkak yoki ayol turmush qurganlarida ikkinchi tomonning farzandini farzand sifatida qabul qiladi va amalda tarbiyalaydi. Bunday holatda munosabatlarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish zaruriyati tug‘iladi. Agar o‘gay ota yoki o‘gay onaga bolani farzandlikka berish bola manfaatlariga xavf tug‘dirmasa, ular albatta qonunda belgilangan ustunlik huquqidan foydalanadilar.

5. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari.

Oila kodeksining 237-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham farzandlikka olishlari mumkin. Lekin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bolalarning barcha huquqlarini, shu jumladan o‘z mamlakatida yashash, tarbiyalanish va bilim olish huquqlarini kafolatlaydi. Shuning uchun ham bolani farzandlikka olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ustunlik huquqidan foydalanadilar.

Shu bilan birga, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyaning 21-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bola manfaatlarini birlamchi[1] darajada hisobga olinishini ta’minlaydi va bolani chet el fuqarolarining yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham farzandlikka olish huquqini e’tirof etadi.

6. Kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar.

Oila kodeksidagi bu yangi norma insonparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatlarida o‘z farzandlaridan ajralib, og‘ir ahvolga tushgan ota-onalarini ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, ularning tashvishlarini bir qadar yengillashtirishga qaratilgandir.

Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlanganidek, o‘n yoshga to‘lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi.

Lekin, qonunda bolaning farzandlikka olinishga qanday shaklda rozilik berishi belgilanmagan. Ammo, Fuqarolik kodeksining umumiy tamoyillaridan kelib chiqilganda, bu rozilik har qanday yozma shaklda ifodalanishi mumkin.

Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlangan so‘ng, bu haqda dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaga bolaning yozma roziligi ilova qilinadi. Vasiylik va homiylik organi dastlab farzandlikka oluvchining turmush sharoitini hamda bo‘lajak farzandlikka oluvchi bilan farzandlikka olinayotgan bola o‘rtasidagi munosabatlarni atroflicha o‘rganadi, agar bolani farzandlikka olishga qarshi to‘sqinlik bo‘lmasa, uning vakili bola bilan suhbat o‘tkazadi. Suhbat davomida uni kim farzandlikka olmoqchi bo‘layotganligini, farzandlikka oluvchining oilaviy sharoiti va o‘ziga ma’lum bo‘lgan holatlarni bolaga tushunarli tarzda bayon qilib beradi.

Lekin, ayrim holatda bolaning roziligisiz ham farzandlikka olish amalga oshirilishi mumkin. Xususan, bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa va ularni o‘z ota-onasi deb e’tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligisiz amalga oshirilishi mumkin. Bu qoida ham qonunchilikda bola manfaatlaridan kelib chiqib joriy qilingan. Chunki, ko‘rsatilgan holatlarda bolaning rasmiy roziligi talab qilinishi farzandlikka olish sirining oshkor qilinishiga sabab

[1].*Юлдашева Ш.Р.* Ўзбекистон Республикаси Оила ҳуқуқи. – Т., 2009.

bo‘lishi mumkin, bu esa ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi va uning kelgusidagi tarbiyasi va kamoliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ya’ni, bunda vasiylik va homiylik organi vakili farzandlikka oluvchining uy-joy sharoitini tekshirayoganda bolaga bu tashrifning sabablarini bildirmaslik choralarini ko‘rishi lozim.

Bundan tashqari, agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo‘lsa, bunga xotin (er)ning roziligi talab etiladi.

Chunki, bu holat bola manfaatlariga ko‘proq javob beradi va farzandlikka olish maqsadiga erishish yengilroq ko‘chadi.

Lekin, qonunda qanday shaklda er yoki xotinning roziligi ifodalanishi belgilanmagan. Ammo, har holda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli munozaralarning oldini olish maqsadida bu rozilik yozma ravishda olinmog‘i, hamda er yoki xotinning imzosi tegishli tartibda (mahalla qo‘mitasi, fuqarolar yig‘ini, ish joyi, davolanishda bo‘lsa – davolanish muassasasining vakolatli mansabdor shaxsi yoki notarius tomonidan) tasdiqlanmog‘i lozim.

Shuningdek, bola manfaatlarini ta’minlash maqsadida, er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo‘lsalar, er (xotin)ning turar joyi noma’lum bo‘lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi.

Ko‘rsatilgan faktlar farzandlikka oluvchining arizasi hamda uning turar joyida o‘tkazilgan so‘rovlar orqali tasdiqlanishi mumkin. Er yoki xotin sud qarori bilan bedarak yo‘qolgan deb topilgan hollarda sud qaroridan boshqa hujjat talab qilinmaydi.

Bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi (har ikkalasining roziligi alohida-alohida) talab etiladi.

Ota-ona bolaning muayyan bir shaxs (shaxslar) tomonidan farzandlikka olinishiga rozilik berishlari yoki farzandlikka berishga rozilik bildirib, farzandlikka oluvchilarni tanlash ixtiyorini vasiylik va homiylik organiga havola qilishlari mumkin. Va albatta, ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi yozma ravishda bayon etilishi kerak.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgunga qadar ota-ona o‘z roziligini qaytarib olishga haqlidir.

Bundan tashqari, bola vasiylik yoki homiylik qaramog‘ida bo‘lsa, bolani farzandlikka olish, agar ota-onasidan rozilik talab qilinmaydigan bo‘lsa, vasiy va homiyning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Lekin, quyidagi hollarda farzandlikka olish ota-onaning roziligisiz amalga oshiriladi:

– ota-onaning kimligi noma’lum bo‘lsa;

Masalan, tashlab ketilgan yangi tug‘ilgan bolani farzandlikka olishda, sud tomonidan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan fuqarolarning bolalarini farzandlikka olishda ota-onaning roziligi talab qilinmaydi.

– ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa;

Lekin, bu yerda Oila kodeksining 81-moddasiga asosan, ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan kamida olti oy o‘tgach bolani farzandlikka olishga yo‘l qo‘yiladi. Ya’ni bu qoida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalasini hal qilishda yo‘l qo‘yilishi ehtimoli bo‘lgan xatolarni bartaraf qilish imkonini beradi.

– ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan bo‘lsa;

– ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo‘lsa, ota-onaning roziligisiz amalga oshiriladi.

Agar bola davlatga qarashli bolalar muassasalarining tarbiyasida va ta’minotida bo‘lsa, bunday hollarda farzandlikka olishda agarda ularning ota-onasi roziligi talab etilmaydigan bo‘lsa, shu muassasa ma’muriyatining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Savol tug‘iladi: tuman, shahar hokimining farzandlikka olishni rad etganligi ustidan kimga shikoyat qilish mumkin?

Bunday hollarda, ya’ni tuman, shahar hokimining farzandlikka olishni rad etganligi ustidan farzandlikka olish haqida ariza bergan shaxs sud tartibida shikoyat qilish mumkin.

Bundan tashqari, farzandlikka olish to‘g‘risida qaror chiqarilgandan keyin o‘n kun ichida FHDYO organlari farzandlikka olinayotganning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga zarur o‘zgartirishlar kiritishi lozim. *Va bu o‘zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning vujudga kelgan vaqti deb hisoblanadi.*

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak.

Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, ota-onasining ismigina emas, balki tug‘ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo‘lmagan farq bilan o‘zgartiriladi. Agar bola o‘n yoshdan oshmagan bo‘lsa, tug‘ilgan joyi ham O‘zbekiston Respublikasi doirasida o‘zgartirilishi mumkin.

Bu normalar esa farzandlikka olishni sir saqlashni ta’minlashga xizmat qiladi. Va albatta bu holat farzandlikka oluvchining iltimosiga ko‘ra amalga oshirilishi lozim.

Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari:

birinchidan, farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o‘z bolalariga tenglashtiriladi.

ikkinchidan, farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-ona qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo‘qotadilar hamda o‘zaro majburiyatlaridan ozod bo‘ladilar.

Farzandlikka olishning haqiqiy emas deb topish holatlari:

– farzandlikka olish qalbaki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo‘lsa;

– farzandlikka olish soxta bo‘lsa;

– voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingan bo‘lsa;

– Oila kodeksining 152-moddasiga muvofiq farzandlikka olish tartibi amalga oshirilmagan bo‘lsa farzandlikka olish haqiqiy emas deb topiladi.

Farzandlikka olish quyidagi hollarda bekor qilinadi agar farzandlikka oluvchilar:

– o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

– ota-onalik huquqini suiiste’mol qilayotgan bo‘lsalar[1];

– farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

– muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining xulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf solayotgan bo‘lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidan keyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo‘l quyiladi.

Sud boshqa asoslarga ko‘ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir. *Masalan,* farzandlikka oluvchilarning og‘ir kasalligi, ota-onaning paydo bo‘lishi va hokazolar.

Farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar, shuningdek, o‘n olti yoshga to‘lgan farzandlikka olingan bola farzandlikka olishni sud tartibida bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

---

[1] *Юлдашева Ш.Р.* Ўзбекистон Республикаси Оила ҳуқуқи.. – Т., 2009.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilishga faqat sud tartibida yo‘l qo‘yiladi. Bu toifadagi ishlarni hal qilishda o‘n yoshga to‘lgan bolaning fikri hisobga olinadi. Bu haqda sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kundan kechiktirmay sud shu qarordan ko‘chirmani bolaning farzandlikka olinishi to‘g‘risida qaror chiqargan shahar, tuman hokimiga yuborishi shart.

Savol: farzandlikka olishning ichki ishlar organlari faoliyati bilan qanday bog‘liqlik taraflari mavjud?

– *birinchidan,* farzandlikka olish ichki ishlar organlarida maxsus bo‘lim, ya’ni voyaga yetmaganlar bilan ishlash xizmati xodimlari faoliyati bilan uzviy bog‘liq.

– *ikkinchidan,* farzandlikka oluvchilar haqida xulosalar berishda tegshili hududning profilaktika inspektori ham xulosalarini mahalla qo‘mitalari bilan kelishgan holda berishlari mumkin, bu holat ham bolani farzandlikka olishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, farzandlikka olish yetim bolalarga va boshqa sabablarga ko‘ra, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish shakllaridan biri bo‘lib sanaladi.

3. Vasiylik va homiylik tushunchalari va asosiy maqsadlari

Vasiylik va homiylik ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ta’limot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Vasiylik va homiylik belgilanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi nizom» bilan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi. Vasiylik va homiylik vasiy yoki homiy tayinlanishiga muhtoj bo‘lgan shaxs yashayotgan joyda, agar shaxsning muayyan yashash joyi bo‘lmasa, vasiy yoki homiy yashayotgan joyda belgilanadi.

Vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish 18 yoshga to‘lganlar uchun xalq ta’limi bo‘limlariga,

Vasiylik va homiylik bizlarning fikrimizcha, – ota-ona qaramog‘idan mahrum etilgan voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek ularni tarbiyalash hamda zarur sharoit yaratish maqsadida oila qonunchiligida nazarda tutilgan huquqiy shakllardir.

Zero, vasiylik va homiylik:

– *birinchidan,* ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ta’minot berish;

– *ikkinchidan,* ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish;

– *uchinchidan,* ularning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Oila kodeksini 181-moddasiga binoan vasiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar.

Homiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarga ular o‘z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko‘maklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste’mol etilishidan himoya qiladilar.

Vasiylar va homiylar vasiylik va homiylikdagi shaxslarning huquq va manfaatlarini barcha muassasalarda, shu jumladan, sudda ham alohida ishonchnomasiz himoya qiladi.

Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy va homiy tayinlaydi.

Vasiylik va homiylik faqat fuqaroning o‘z roziligi bilan belgilanadi. Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma’lum bo‘lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy va homiy tayinlashi lozim. Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik va homiylikka muhtoj shaxs o‘rtasidagi munosabatlar[1], shuningdek, vasiylik va homiylikka olinuvchining o‘z xohishi e’tiborga olinishi lozim.

Vasiylik va homiylik kimlarga nisbatan qanday maqsadlarda tayinlanishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom»da batafsil ko‘rsatilgan. Jumladan, bola ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoki ota-ona o‘zining voyaga yetmagan bolasiga ta’minot berishdan bosh tortayotgan bo‘lsa, bolaga nisbatan homiy yoki vasiy tayinlash zaruriyati tug‘iladi. Ikkinchi tomondan esa, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiya, ta’lim olishini ta’minlash, shuningdek, ularning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish zaruriyati vujudga keladi. Bu

[1] Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш Ќоидалари. Ўзбекистон Республикасида васийлик ва ҳомийлик тўғрисида Низом. Вояга етмаган болаларни фарзандликка ва тарбияга олиш (патронат) тўғрисида Низом. – Т., 1999.– Б. 99.

masalalarni hal qilish, bola manfaatlarini ta’minlashni unga nisbatan vasiylik yoki homiylik tayinlashni talab qiladi. Boshqacha aytganda, rossiyalik huquqshunos olim A. I. Pergamentning fikricha, «Vasiylik va homiylik» huquqiy instituti yordamida bolaning huquq layoqati tarkibiga kiruvchi – tarbiya olishga bo‘lgan huquq amalga oshiriladi.

Albatta, bu to‘g‘ri fikr, chunki mazkur huquqiy institutlar Konstitutsiyamizning 64-moddasining 2-qismida ko‘rsatilgan qoidani, xususan «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi» degan huquqiy normani amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish esa – o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan vasiylik va homiylikka muhtoj voyaga yetmagan bolalarni aniqlash, hisobga olish, joylashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish singari vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish – *xalq ta’lim bo‘limlariga (bu yerda ayniqsa ichki ishlar organlarining hamkorligi to‘la namoyon bo‘ladi),* sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan – *sog‘liqni saqlash bo‘limlariga,* sog‘lig‘ining yomonligi sababli homiy tayinlanishiga muhtoj muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan esa – *ijtimoiy ta’minot bo‘limlari* zimmasiga yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom"ning 5-bandiga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarolariga va sog‘lig‘i tufayli o‘z huquqini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatini bajara olmaydigan O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetgan fuqarolariga nisbatan vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi konsullik muassasalari zimmasiga yuklanadi.

Ichki ishlar organlari esa ota-ona qaramog‘idan mahrum voyaga yetmagan bolalar haqida vasiylik va homiylik organlariga o‘z vaqtida xabar qilishlari shart.

Savol tug‘iladi: Vasiylik kimlarga nisbatan, Homiylik kimlarga nisbatan belgilanadi?

Vasiylik 14 yoshga to‘lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Homiylik 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarga, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Sog‘lig‘ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan homiylik shu shaxslarning iltimosiga binoan belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi bo‘lib, vasiylik va homiylik organlari uning ota-ona tarbiyasida qolishi bola manfaatlariga javob bermasligini, shuningdek, bolaning hayoti va sog‘lig‘i uchun bevosita xavf borligini aniqlasa, unga vasiy yoki homiy tayinlanadi.

Ota-ona vasiylik va homiylik organlarining vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi qarori ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Shu bilan birga, ota-ona olti oydan ortiq hozir bo‘lmagan taqdirda, agar bolalarning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, ularga nisbatan vasiylik va homiylik belgilanadi. Zero, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga va O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko‘ra, bola o‘z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish huquqiga egadirlar.

Ota-ona vaqtincha bo‘lmaganida, agar ular bolasini qarindoshlari yoki yaqin kishilari qaramog‘iga tarbiyalash va nazorat qilish uchun qoldirgan bo‘lsalar, bolalarga vasiylik va homiylik belgilanishi shart emas.

Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy tayinlaydi.

Vasiy va homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagi fuqarolar ularning roziligi bilangina tayinlanishi mumkin.

Ammo bu yerda shaxsning emansipatsiya oqibatida to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lishi uning vasiy yoki homiy etib tayinlanishiga asos bo‘la olmaydi.

Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma’lum bo‘lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim.

Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik yoki homiylikka muhtoj shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek vasiylik yoki homiylikka olinuvchining o‘z xohishi e’tiborga olinishi lozim.

Quyidagi shaxslar vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin emas:

– ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

– qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

– sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olganligi OK 169-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha (ya’ni, o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar; ota-onalik huquqini suiiste’mol qilayotgan bo‘lsalar; farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar; muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsalar) *bekor qilingan bo‘lsa;*

– qonun bilan zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari yoki o‘z huquqlarini suiiste’mol qilganliklari uchun vasiylik yoki homiylik vazifalaridan chetlatilganlar;

– qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12– apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom»ning mazmuniga ko‘ra, ruhiy yoki narkologik muassasalarda ro‘yxatda turganlar va sog‘lig‘i yomonligi sababli vasiylik yoki homiylik majburiyatlarini bajara olmaydigan shaxslar ham vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas.

Misol keltiradigan bo‘lsak, Oliy Majlisning Oila va ayollar muammolari komissiyasining 2002-yilda o‘tkazgan yig‘ilishlarining birida Oila Kodeksi talablarining Farg‘ona viloyati bo‘yicha bajarilishi bo‘yicha ishchi guruhning tayyorlagan ma’lumotlari tinglandi. Deylik, Farg‘ona viloyatidagi umumiy aholining 43,6 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etsa, shundan 0,7 foiz (ya’ni 8593 nafar)i vasiylik va homiylik organlari himoyasiga olingan. Eng achinarlisi shundaki, farzandlikka olayotgan, vasiy yoki homiy etib belgilanayotgan fuqarolarning shaxsiyati atroflicha va chuqur o‘rganilmasdan qarorlar chiqarish holatlari yuz bermoqda. Boshqacha aytganda, ayrim bolalarning axloqsiz yoki muqaddam sudlangan kishilar tomonidan vasiylikka olinayotganligi achinarli holatdir.

Xulosa qilib aytganda, vasiylik va homiylik baxtsiz tasodif yoki tuban axloqsizlik tufayli yetim bo‘lib qolgan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalashda, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, respublikamizda hozirda mavjud 42 ta bolalar uylarida besh mingdan ortiq bola tarbiyalanayotganligi ham buning yaqqol misolidir.

Vasiy va homiyning huquq va majburiyatlari oila huquqidan ko‘ra, fuqarolik huquqi institutlariga yaqindir. Chunki, vasiy va homiy nafaqat

oila huquqidan kelib chiqadigan, balki fuqarolik huquqidan kelib chiqadigan huquqlarga ham ega bo‘ladi va fuqarolik huquqiy majburiyatlarni bajaradi.

Vasiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar.

Homiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarga ular huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashadilar, shuningdek, ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste’mol etilishidan himoya qiladilar.

Vasiy va homiy:

– turar joyi o‘zgarganligi haqida vasiylik va homiylik organini xabardor qilishi;

– vasiyligi va homiyligidagi bolalarni tarbiyalashi, ularning ta’minoti, salomatligi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishi hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

– o‘z qaramog‘idagi voyaga yetmagan shaxslar bilan birgalikda yashashi shart. O‘n olti yoshga to‘lgan homiylikdagi bolaning o‘z homiysidan alohida yashashiga, basharti abu uning tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta’sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Vasiy va homiy quyidagilarga haqlidir:

– vasiyligi va homiyligidagi bolaning fikri, shuningdek, vasiylik va homiylik organining tavsiyalarini hisobga olgan holda bolani tarbiyalash usullarini mustaqil ravishda belgilashga;

– vasiyligi yoki homiyligidagi bolani qonuniy asoslar bo‘lmasdan turib, o‘z qaramog‘ida saqlab turgan har qanday shaxslardan, shu jumladan bolaning yaqin qarindoshlaridan sud tartibida qaytarib berishni talab qilishga.

Vasiy va homiy bolaning o‘z ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan ko‘rishib turishiga to‘sqinlik qilishga haqli emas, bola manfaatlariga zid hollar bundan mustasno.

Vasiy yoki homiy, agar o‘z qaramog‘idagi shaxsning muomalaga layoqatsiz yoki spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalarni iste’mol qilishi natijasida muomala layoqati cheklangan deb topilishiga asos bo‘lgan holatlar barham topsa, uni muomalaga layoqatli deb topishni va vasiylik yoki homiylik bekor qilinishini so‘rab sudga murojaat etishi shart.

Vasiylik va homiylik vazifalari bepul bajariladi.

Bundan tashqari, vasiy vasiylik va homiylik organining roziligi bilan kelishgan holda:

1) vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo‘lgan bitim (shartnoma)lar tuzishga;

2) vasiylikdagi shaxsga qarashli bo‘lgan mol-mulkni taqsimlash, bir yildan ortiq muddatga garovga qo‘yish yoki ijaraga berishga[1];

3) vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechishga;

4) vasiylikdagi shaxsga qarashli turar joyni ayirboshlashga;

5) vasiylikdagi shaxsga tegishli har qanday huquqdan voz kechishga haqlidir.

Vasiy va homiy, ularning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari vasiylik va homiylikdagi shaxs bilan bitimlar tuzishga, shuningdek, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan vasiy yoki homiyning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari o‘rtasidagi sud ishlarini yuritishda vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning vakili bo‘lishga haqli emas.

Vasiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki, hadya shartnomasining mohiyatiga ko‘ra, hadya mulki hadya oluvchiga tekin, bepul o‘tadi. Bu esa vasiylikdagi shaxsga jiddiy mulkiy zarar keltirishi mumkin.

Vasiy va homiy o‘z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsga ta’minot berishga majbur emas.

Bundan tashqari, tabiiyki, vasiylik va homiylik majburiyatlarini bajarish ma’lum xarajatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Vasiy yoki homiy o‘z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsning ta’minoti uchun qilgan xarajatlari mazkur shaxsning quyidagi:

– boquvchisini yo‘qotganlik uchun oladigan pensiyalari (Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasi);

– ota-onalar yoki boshqa yaqin qarindoshlaridan oladigan alimentlari;

– sug‘urta tashkilotlari tomonidan vafot etgan shaxsning merosxo‘riga to‘lanadigan sug‘urta pullari (agar sug‘urta shartnomasi tuzilgan bo‘lsa);

– vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga tegishli mulk yoki mulkdan keladigan daromadlari;

– vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning stipendiya yoki ish haqlari;

[1] Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2007 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар ва қўшимчалар билан). – Т., 2007.– 39-м.

– turli muassasa, tashkilot va xayriya jamg‘armalaridan xayriya tariqasida oladigan va boshqa mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

Sog‘lig‘ining yomonligi sababli homiy belgilanishiga muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan shaxsning homiysi o‘z homiyligidagi shaxs talabi bilan homiylik majburiyatidan ozod qilinishi mumkin. Bunday holda vasiylik va homiylik organlari homiy tayinlanishiga muhtoj shaxsning roziligi bilan unga boshqa shaxsni homiy etib tayinlashi mumkin.

Shuningdek, vasiy yoki homiy agarda vasiylik yoki homiylikdagi shaxsni nazoratsiz yoki zarur yordamsiz qoldirishi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘ini xavf ostida qoldirgan bo‘lsa, u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 117-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Vasiylik quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

– vasiy yoki vasiylikdagi shaxs vafot etganda;

– voyaga yetmaganlarga nisbatan – ular o‘n to‘rt yoshga to‘lganda yoki ular ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda;

– qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar uchun – ularning muomala layoqati sud tomonidan tiklangan taqdirda tugaydi.

Voyaga yetmagan bola 14 yoshga to‘lganligi sababli vasiylik tugaganida vasiy vazifasini bajaruvchi shaxs maxsus tayinlanmasdan voyaga yetmagan shaxsning homiysi bo‘lib qoladi.

Homiylik esa quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

– homiy yoki homiylikdagi shaxs vafot etganda;

– homiylikdagi shaxs voyaga yetganda;

– homiylikdagi shaxs ota-onasiga qaytarilganda;

– voyaga yetmagan shaxs to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinganda (emansipatsiya);

– fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;

– homiylikdagi voyaga yetgan shaxsning sog‘lig‘i yaxshilanganligi tufayli u mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lganda tugaydi.

Xulosa qilib aytganda, vasiylik va homiylik ham shaxslarni tarbiyalashda, ta’lim berishda, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynab, bunda ichki ishlar organlarining faoliyati qarovsiz qolgan bolalarni aniqlashda va joylashtirishda, vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlik qilishda namoyon bo‘ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish sifatida farzandlikka olishni sir saqlashning ta’minlanishi ahamiyatini aniqlang.
2. Farzandlikka olishni haqiqiy deb tan olish tartibini qayd eting.
3. Vasiy va homiyni tayinlash tartibini, ularning huquq va majburiyatlarini yoriting.
4. Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarni farzandlikka berishning yuridik xususiyatlari.

МУНДАРИЖА

SO'Z BOSHI……...……4

1-MAVZU. «FUQAROLIK HUQUQI» TUSHUNCHASI, PRINSIPLARI, TIZIMI VA MANBALARI

1. «Fuqarolik huquqi» tushunchasi, predmeti, tamoyillari va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi munosabatlar…….6
2. Fuqarolik huquqining tizimi va manbalari……..15
3. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amalda bo‘lishi…….24

2-MAVZU. FUQAROLAR (JISMONIY SHAXSLAR) - FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA

1. Fuqarolik huquqi subyekti sifatida fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi, fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqati…….……...30
2. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish tartibi va asoslari……..39
3. Fuqarolik holati hujjatlari va ularni qayd etish……43

3-MAVZU. YURIDIK SHAXSLAR VA DAVLAT - FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI

1. Yuridik shaxs tushunchasi, belgilari va turlari, uning huquq layoqati va muomala layoqati…….……..54
2. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi asoslari……..….59
3. Davlat fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatidagi tushunchasi va xususiyatlari, uning fuqarolik huquq layoqati……64

4-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTLARI. BITIMLAR

1. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi va turlari…….……70
2. Fuqarolik huquqining obyektlari hisoblangan moddiy va nomoddiy ne'matlar tasnifi……..74
3. Bitim tushunchasi, turlari, shakllari va tasnifi……85

5-MAVZU. VAKILLIK, ISHONCHNOMA VA DA'VO MUDDATI

1. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi……99
2. Ishonchnomaning tushunchasi, turlari, shakllari, muddatlari va bekor bo‘lish asoslari……103

3. Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va turlari.
Da’vo muddati, uning ahamiyati va turlari……108

6-MAVZU. MULK HUQUQI. MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH

1. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar: tushunchasi, mazmuni, turlari va shakllari……118
2. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi asoslari……131
3. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari: tushunchasi va tizimi……136

7-MAVZU. «MAJBURIYAT» TUSHUNCHASI. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHI

1. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati……...143
2. Majburiyat subyektlari, regress (qaytarma) majburiyat……..…..149
3. Majburiyatlarning vujudga kelishi, bajarilishi va bekor bo‘lishi asoslari……154

8-MAVZU. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

1. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash tushunchasi va ahamiyati……...161
2. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari……...165
3. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari……...173

9-MAVZU. SHARTNOMA HAQIDA UMUMIY QOIDALAR. OLDI-SOTDI, HADYA VA AYIRBOSHLASH SHARTNOMALARI

1. Shartnoma tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati……..191
2. Oldi-sotdi shartnomasi va uning ahamiyati……...197
3. Hadya shartnomasi va uning ahamiyati……214
4. Ayirboshlash shartnomasi va uning ahamiyati……..218

10-MAVZU. MULK IJARASI SHARTNOMASI

1. Mulk ijarasi shartnomasi va uning qo‘llanish sohasi……224
2. Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari……228
3. Mulk ijarasi shartnomasining alohida turlari va o‘ziga xos xususiyatlari……231

11-MAVZU. PUDRAT SHARTNOMASI

1. Pudrat shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va qo‘llanish sohasi……..250
2. Pudrat shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari……..261
3. Pudrat shartnomasining alohida turlari va ularning tavsifi……269

12-MAVZU. YUK VA YO'LOVCHILAR TASHISH SHARTNOMASI. SUG'URTA

1. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy tavsifi...280
2. Yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomasi bo‘yicha taraflarning javobgarliklari..299
3. Sug‘urta tushunchasi, shakli va turlari…….…….300

13-MAVZU. TOPSHIRIQ, VOSITACHILIK VA OMONAT SAQLASH SHARTNOMALARI

1. Topshiriq shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va ahamiyati……...330
2. Vositachilik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va obyektlari…….336
3. Omonat saqlash shartnomasi va uning alohida turlari……...340

14-MAVZU. QARZ SHARTNOMASI

1. Qarz shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va turlari…….347
2. Qarz shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari…….352
3. Kredit shartnomasi va uning turlari ……..357

15-MAVZU. TASHKILOTLAR HAMDA FUQAROLARGA QARASHLI MOL-MULKLARNI QO'RIQLASH SHARTNOMASI

1. Qo‘riqlash shartnomasi tushunchasi, uning belgilari va xususiyatlari……..365
2. Qo‘riqlash shartnomasini tuzish asoslari va tartibi……372
3. Qo‘riqlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi……...….377

16-MAVZU. ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt) tushunchasi va xususiyatlari……..390
2. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari……399
3. Ma’naviy zarar va uni qoplash usullari…….405

17-MAVZU. MUALLIFLIK HUQUQI. VORISLIK HUQUQI

1. Intellektual mulk obyekti sifatida mualliflik huquqi tushunchasi va ahamiyati...414
2. Mualliflik shartnomasi tushunchasi, belgilari va turlari……421
3. Vorislik tushunchasi, vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik…….428

18-mavzu. OILA HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI, MANBALARI VA TIZIMI

1. Oila huquqi tushunchasi, manbalari va prinsiplari……447
2. Nikoh tushunchasi, uni qayd etish va bekor qilish tartibi……..455
3. Nikoh shartnomasi va uning bugungi kundagi ahamiyati…….463

19-MAVZU. OILA A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1. Oila qonunchiligi bo‘yicha er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari……...469
2. Er-xotinning aliment majburiyatlari, alimentlarni to‘lash va undirish tartibi…...479

20-MAVZU. FARZANDLIKKA OLISH. VASIYLIK VA HOMIYLIK

1. Farzandlikka olish tushunchasi, mohiyati va ahamiyati……..489
2. Farzandlikka olishning huquqiy asoslari va tartibi……498
3. Vasiylik va homiylik tushunchalari va asosiy maqsadlari……504

F–94 **Fuqarolik va oila huquqi: Ma’ruzalar kursi** / O. A. Kamalov, O. A. Niyatov, N. A. Qo‘ldashev, Sh. M. Qo‘ychiyev, D. I. Samandarov, X.M.Qilichev; Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, prof. H. Rahmonqulov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 517 b.

Ushbu ma’ruzalar kursida fuqarolik huquqi tushunchasi, fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari, fuqarolik huquqi obyektlari, bitimlar, vakillik, ishonchnoma, da’vo muddati, mulk huquqi va uni himoya qilish usullari, majburiyat huquqi hamda ularning bajarilishini ta’minlash usullari, majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va shartlari, mualliflik huquqi, vorislik huquqi va fuqarolik huquqining boshqa shu kabi muhim institutlari yoritib beriladi. Shuningdek, oila huquqi, oila va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, nikoh, vasiylik va homiylik, qon-qardoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, aliment majburiyatlari va oila huquqi munosabatlarini tartibga soladigan bir qator boshqa masalalar xususida fikr yuritiladi. Kitobda fuqarolik va oila huquqiga doir normativ-huquqiy hujjatlar hamda tegishli qonunlarga bo‘lgan o‘zgartish v qo‘shimchalar hisobga olingan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV oliy o‘quv yurtlarining kursantlari va tinglovchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, undan respublikamiz boshqa yuridik oliy o‘quv yurtlarining talabalari ham foydalanishlari mumkin.

BBK 67.99(2U)3/4ya73

FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

Ma’ruzalar kursi

Muharrir **I. E. Xuvaytov**
Texnik muharrir **D. Hamidullayev**

Bosishga ruxsat etildi 01.01. 2013-y. Nashr-hisob tabog‘i 25,0.
Adadi 200 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
7000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.